

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**A. RAZZOQOV,
SH. TASHMATOV,
N. O'RMONOV**

**IQTISODIY
TA'LIMOTLAR
TARIXI**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lism vazirligi
oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini
muvofiglashtiruvchi kengash tomonidan oliy o'quv yurtlarining
iqtisodiy ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun
darslik sifatida tavsiya etilgan

Toshkent
«IQTISOD-MOLIYA»
2007

65.04
R18

Taqrizchilar: iqtisod fanlari doktori, professor **A.U.Abduraximov;**
iqtisod fanlari doktori, professor **Sh.Sh.Shodmonov**

Darslikda qadimdan to hozirgi davrgacha paydo bo'lgan iqtisodiy fikr, g'oya, qarash va ta'lomitlarning mazmuni, mohiyati, ularning evolutsiyasi va bugungi kundagi ahamiyati tarixiy ketma-ketlik asosida yoritilgan. Avval hukmronlik qilgan sinfiylik, partiyaviylik tamoyillaridan holi holda, har bir ta'lomitning mohiyatiga obyektiv baho berishga harakat qilingan. Ayniqsa, tanqid etib keligan bozor iqtisodiyoti (kapitalistik munosabatlar) to'g'risidagi ta'lomitlarga keng o'rin berilgan. Sharq, jumladan Markaziy Osiyodagi mutafakkirlarning g'oyalari birinchi marta ma'lum tartibda e'lon qilinmoqda. Mustaqil O'zbekiston Respublikasining erkin bozor munosabatlariga o'tish xususiyatlari ko'rsatilgan. Har bir bobda qisqacha xulosalar, tayanch tushuncha, nazorat va muhokama uchun savollar berilgan. Darslik oliy o'quv yurti talabalari, aspirant, ilmiy xodimlar va iqtisodiyot tarixi bilan shug'ullanuvchilarga mo'ljallangan.

Razzoqov Abduxalil

Iqtisodiy ta'lomitlar tarixi. Oliy ta'lim muassasalarining talabalari uchun darslik / A.A. Razzoqov, Sh. H. Tashmatov, N. T. O'rmonov; Mas'ul muharrir S.S.G'ulomov; O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
— T.: Iqtisod-moliya, 2007. - 320 b.
Tashmatov Sh. H., O'rmonov N. T.

BBK 65.04я73

ISBN 978-9943-13-032-6

© «IQTISOD-MOLIYA», 2007
© A.A. Razzoqov, Sh. H. Tashmatov,
N. T. O'rmonov, 2007

MUQADDIMA

«Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q», - degan edi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, akademik I.A. Karimov. Har qanday tarixni o‘rganish, avvalo, hozirgi kun va kelajak uchun ahamiyatlidir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, iqtisodiy ta’limotlar tarixini o‘rganish katta nazariy, amaliy va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyot tarixi (xalq xo‘jaligi tarixi) va iqtisodiy ta’limotlar tarixi iqtisodiyot fanining faktologiya va metodologiya asoslarini ta’minlovchi va yaratuvchi asos sifatida ahamiyatlidir. Shu sababli bu fanlar iqtisodiyot fanining ajralmas va tarkibiy qismidir¹.

Iqtisodiy fanlarning o‘zaro aloqadorligi

Aniq – iqtisodiy fanlar,
tarmoqlar iqtisodiyoti,
korxonalar iqtisodiyoti,
mamlakatlar iqtisodiyoti

Informatsion – tahliliy,
iqtisodiy – matematik
usullar; statistika
xo‘jalik faoliyati tahlili

UMUMIY
IQTISODIY
NAZARIYA

Maxsus iqtisodiy shakl
va tashkilotlar iqtisodiyoti, moliya; kredit;
marketing tabiatdan
foydalanish iqtisodiyoti
va boshqalar

Tarixiy – iqtisodiy fanlar,
iqtisodiy ta’limotlar tarixi,
iqtisodiyot tarixi

¹ Общая экономическая теория (Политэкономия). Учебник. М., «Промомедиа», 1995. с. 30.

Sobiq sovetlar tuzumi davrida ko'pgina fanlar, shu jumladan, iqtisodiyot fani sinfiylik, partiyaviylik mafkurasi asosida o'rganildi, marksizm-leninizm g'oyalari birdan-bir to'g'ri ta'limot deb qabul qilindi va barcha masalalar yechilgan, tarixga, uzoq o'tmishtga hech qanday hojat yo'q, degan umumiy kayfiyat yuzaga keldi. Sotsialistik va kommunistik jamiyat qurishda dasturulamal bo'lgan mafkuraga muqobil bo'lgan barcha fikrlar tanqidga uchradi; asosiy e'tibor markscha-leninchha iqtisodiy ta'limotni o'rghanishga, kapitalizm, bozor munosabatlarning kelajagi yo'qligini zo'rma-zo'raki «isbotlash»ga qaratildi.

Ammo bu yo'l tarix sinovidan o'tmadidi.

Hozirgi davr olimlari avvalgilardan ko'ra ko'proq biladilar, bu obyektiv jarayon, ammo ular tufayli ham ko'p narsalarni o'rghan-ganimizni inkor qilmasligimiz shart.


Mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tgan o'zbekistonlik olimlar oldida ko'pgina fanlar kabi, iqtisodiyot fani borasida ham katta ishlarni amalga oshirish vazifasi turibdi. Iqtisodiyot insoniyat tarixi kabi qadimiydir. Iqtisodiyotga oid fikr, g'oya, qarash, nazariya va ta'limotlar ham ko'p mingyllik tarixga ega. Lekin ularning asosiy qismi yozuv paydo bo'lganidan so'ng, yozma manbalardan bizgacha yetib kelgan. Bu manbalar, ulardagi g'oyalari, avvalo, insoniyatning muqaddas mulkidir. Uni topish, o'rghanish va kelajak uchun saqlash savobli bo'lsa, ulardagi nodir fikrlarni hayotga tatbiq etish ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi, katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Iqtisodiyot baynalmilal hodisa bo'lib, uning oldida turgan vazifalar barcha xalqlar va mamlakatlar uchun bir xil, ammo ular rivojlanish davomida turliche natijalarga erishganlar. XVIII asr oxirida klassik iqtisodiy maktab vakillari Adam Smit va David Rikardo obyektiv, ya'ni inson xohishiga bog'liq bo'limgan, ammo ular tomonidan o'rghanishi mumkin bo'lgan qonunlar asosida amal qiluvchi xo'jalik tizimi to'g'risidagi ta'limot yaratdilar. Ularning fikricha, davlatning iqtisodiy siyosati bu qonunlarga xilof bo'lmay, aksincha, bu qonunlarga suyanishi kerak, ana shunda iqtisodiyot ravnaq topadi va aksincha. Demak, bu qonun va qonuniylarlari bilish, ulardan amaliyotda to'g'ri foydalanish hayot talabi bo'lib bormoqda.

Iqtisodiy ta'limotlar tarixi deyarli to'rt ming yillik rivoji davomida bir qancha bosqichlarni bosib o'tdi. Ularning turli yo'nalishlari va maktablari mavjud.

Hozirda O'zbekiston Respublikasidagi 60 dan ortiq oliy o'quv yurtlarining ko'pchiligidagi «Iqtisodiy ta'lilotlar tarixi» iqtisodiy zarur fan sifatida o'qitilmoqda. Ayrim akademiya, kollej, iqtisodiy yo'nalishdagi litsey, o'rta maktablarda «Iqtisodiyot tarixi» va «Iqtisodiy ta'lilotlar tarixi» ham maxsus fan sifatida o'qitilmoqda. Ammo bu fanlarni o'qish va o'qitish bilan bog'liq bo'lgan uslubiy ishlar faqat bir kafedrada olib borilmoqda.

Avvalgi o'quv qo'llanmamiz 1997-yilda nashr etilgan bo'lib, ma'lum ma'noda davr sinovidan o'tdi. Bu fanni o'qitish, o'rganish, o'quv-uslubiy materiallar yaratish davomida qo'llanmani yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar va mulohazalar bildirildi. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining iqtisodiy g'oyalarini kengaytirish borasida ancha ishlar qilindi. Taniqli iqtisodchilar i.f.d., professorlar H.Sobirov,



1-chizma. Iqtisodiyotning turli yo'nalishlari va maktablari

Q.Yo'ldoshev, N.Yo'ldoshev, A.Razzoqovlar tomonidan mamlakatimiz hududida yashab, ijod etgan donishmandlarning iqtisodiy merosi to'g'risida bir qancha ilmiy maqolalar va o'quv qo'llanma chop etildi. 2000- yili TDIU da «Iqtisodiy meros va jahon tajribasi» mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi o'tkazildi va uning materiallari (2001-yil, 9.75 b.t.) nashr qilindi.

Shularni hisobga olib, darslikka alohida ikki bob kiritildi. Unda Markaziy Osiyo mutafakkirlarining iqtisodiy g'oyalari keltirildi. Bunda keyingi davrda boshqa mintaqalarda chiqarilgan adabiyotlarning tajribasidan foydalanildi.

Umuman, respublikamizda «Xalq xo'jaligi va iqtisodiy ta'limotlar tarixi» (08.00.02) fani bilan u yoki bu darajada shug'ullanayotgan barcha kuchlarni birlashtirish, dastur, o'quv qo'llanma, darslik tayyorlash, malakasini oshirish, ilmiy daraja olishga imkon beruvchi ixtisoslashgan kengash ochish, birqalikda konferensiya va boshqa anjumanlarni o'tkazish, ilmiy tadqiqotlar olib borish vaqtini yetdi.

Ushbu darslik Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti «Iqtisodiyot nazariyasi» kafedrasini a'zolari i.f.d., professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi **A.A. Razzoqov**, i.f.d. **Sh.H. Tashmatov** (11-14-boblar) hamda i.f.n. **N. O'rmonov** (3-4,22-boblar) tomonidan yozilgan. Har bob oxirida qisqacha xulosalar, asosiy tushuncha va iboralar, nazorat va mulohaza qilish uchun savollar keltirildi.

KIRISH

«IQTISODIY TA'LIMOTLAR TARIXI» KURSINING PREDMETI VA USLUBI

«Iqtisodiy ta'lomitlar tarixi» kursi iqtisodiy fanlar tizimida muhim o'rinni egallaydi.

Insoniyat o'zining ko'p ming yillik tarixi davomida katta iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Har bir davrda u yoki bu mamlakatda ayrim shaxslar (olim yoki hokimlar) tomonidan shunday iqtisodiy ahamiyatga molik fikr, g'oya, nazariya, konsepsiylar ilgari surilgan va amalga oshirilganki, bir holda shular tufayli davlat va xalqlar ravnaq topgan, ba'zida tanazzulga uchragan. Ana shu iqtisodiy g'oyalarni har tomonlama chuqur o'rganish, tahlil etish, ular orasidan umumbashariy ahamiyatlilarini ajratib olib, hozirgi davrga, ya'ni hayotga tatbiq etish amaliy va nazariy jihatdan foydalidir.

«Iqtisodiy ta'lomitlar tarixi» fanining predmeti **bo'lib**, ma'lum davrlardagi ijtimoiy qatlamlar, insonlar manfaatini ifoda etuvchi iqtisodiy g'oyalari va ijtimoiy konsepsiyalarning vujudga kelishi, rivojlanishi va almashinuvining tarixiy jarayoni hisoblanadi.

Bu g'oyalari ayrim iqtisodchi olimlar, nazariy maktablar, oqimlar va yo'nalishlarga tegishlidir. Iqtisodiy ta'lomitlar tarixi mustaqil fan sifatida eng qadimgi davrdan boshlab, to hozirgi zamongacha vujudga kelgan asosiy iqtisodiy fikr, g'oya, qarash, nazariya va ta'lomitlarni o'z ichiga oladi.

Uslubiy jihatdan bu fan iqtisodiy tahlilning ilg'or metodlari yig'indisidan iborat bo'lib, tarixiy induksiya, mantiqiylabstraksiya va boshqa usullardan keng foydalanadi.

«Iqtisodiy ta'lomitlar tarixi» fani «Iqtisodiy nazariya» fani bilan chambarchas bog'liq, lekin undan katta farq qiladi. «Iqtisodiy nazariya» fanida eng muhim iqtisodiy kategoriyalarning so'nggi davr uchun tahlili beriladi, ammuna bu nazariyalar har doim ham turg'un bo'lmaydi va vaqt davomida, ayniqsa, keskin o'zgarishlar davrida evolutsiyada bo'ladi.

«Iqtisodiy ta’limotlar tarixi» fanida ayrim olimlar, davlat arboblari tomonidan ilgari surilgan g’oya, qarash, nazariya, qonun, ta’limot, konsepsiylar insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlaridagi ijtimoiy qatlamlar, sinflar va boshqa guruhlarning manfaatlari nuqtai nazaridan tarixiy rivojlanishi tadqiq etiladi.

Iqtisodiy tafakkur tarixi fanining amaliy xo’jalik obyekti bilan chambarchas bog‘liqligini namoyon etadi. «Eskirgan nazariyalarni ular faqat inkor etilganligi sababli prinsipda ilmiy emas deyish mumkin emas», - deb yozadi taniqli iqtisodchi T.Kun. Chunki keyingi, nisbatan yangi qarashlar avvalgilar asosida, ularni qabul qilish, rivojlantirish yoki inkor etish natijasida paydo bo‘igan. Ba’zi mutaxassislar faqat yangi nazariyalarmagina o‘rganishni taklif etishadi, ammo bu so‘nggi nazariya avvalgi ko‘p yillik ilmiy, amaliy tadqiqotlarning yakuniy qisqacha xulosalari sifatida namoyon bo‘ladi yoki bugun biz «yangi» degan fikr ma’lum vaqtdan keyin o‘zgarishi mumkin.

Bu fan boshqa iqtisodiy va tarixiy, ayniqsa, iqtisodiyot nazariyasi fani bilan bevosita bog‘liq. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi ancha keng davrni qamrab olgan va mustaqil xarakterga ega. Bu fanni o‘rganish orqali xalq xo’jaligi tarixi, iqtisodiy tarix va iqtisodiy konsepsiylar hamda aniq iqtisodiy predmetlarni o‘zlashtirish osonlashadi, u yoki bu iqtisodiy o‘zgarishning shart-sharoitlari va oqibatlarini tahlil etishga katta ko‘mak beradi.

Masalan, bizga bugun yangidek tuyulgan bozor iqtisodiyoti to‘g‘-risidagi fikrlar *Adam Smit* tomonidan 1776-yili chop etilgan «Xalqlar boyligi» asarida asosan to‘la tahlil etib berilgan. Ba’zi iqtisodiy g‘oyalar esa qadimdan ma’lum. Ularni o‘rganish va eng muhimmi, hayotga tatbiq etish yaxshi samara beradi.

Bu fanni chuqurroq o‘rganish tufayli bir qancha yechimini kutayotgan nazariy masalalarga oydinlik kiritish imkonи tug‘iladi. Masalan, bozor munosabatlarining ibtidosi hanuzgacha aniq yechimga ega emas. Ayrim olimlar bu jarayonni xususiy mulk, sinfiy jamiyat yuzaga kelishi bilan bog‘lasalar, ayrimlari (R.Xeylbroner, L.Turou) uni kapitalizm bilan, aniqrog‘i, «ishlab chiqarish omillari» paydo bo‘lishi bilan izohlaydilar (mehnat, yer va kapital tovarga aylangach, bozor tizimi yuzaga kelgan ekan). Keyingi fikr bo‘yicha bozorming ibtidosi XVIII asrda Angliyada boshlandi.

O‘z davrida ilg‘or Sharqning ortda qolishi, G‘arbning ilgarilab ketishi sabablari, kelajak to‘g‘risidagi prognozlar ham muammo bo‘lib turibdi.

Darslikda shu masalalarni hal etishga oid fikr-mulohazalar beriladi.

Iqtisodiy ta'limotlar tarixini o'rganishda ma'lumni davrlashtirish tizimidan foydalaniladi.

Taniqli iqtisodchi olim J.K.Gelbreyt: «Amalda iqtisodiy g'oyalari o'z davri va vujudga kelish joyining mahsuli bo'lib, ular bilan chambar-chas bog'langandir; bu g'oyalarni ular tushuntirib berayotgan dunyodan mustaqil ravishda ajratib qarash mumkin emas; bu dunyo esa doimo o'zgarishda bo'ladi, agar bu g'oyalari o'z maqsadlariga to'la javob berishni ko'zlasalar, doimo shunga mos ravishda o'zgarib turishlari kerak», - deb yozgan edi.

Kapitalizm davrida xo'jalik va ijtimoiy hayotda baynalmilallik (internatsionalizm) kuchayganligi tufayli, iqtisodiy fikrning rivojlanishi ham yagona jahon jarayoniga aylana boshladi. Oqibatda, klassik iqtisodiy maktab asoschilari A.Smit va D.Rikardoning qarashlari qisqa vaqt ichida butun jahonga ma'lum bo'ldi, vaholanki, undan avvalgi ko'pgina nazariyalar ayrim mamlakatlarda ko'pchilikka ma'lum bo'lmasdan «o'lik mol» sifatida yotgan.

Ammo hozirgi davrgacha jamlangan barcha iqtisodiy g'oyalarni ma'lum sistemaga solish va shu asosda o'rganish maqbuldir. Ammo o'tgan davr hodisalari va g'oyalarni hozirgi zamon qarashlari «qolipi»ga zo'rma-zo'raki moslashtirish mumkin emas. Bu tarixni vulgar zamonaviylashtirishga, o'rganilayotgan davrning xususiyatlarini inkor etishga olib keladi.

Bu fan doim rivojlanishda bo'lib, bir-birini to'ldiruvchi evolutsion (mavjud g'oyalarning yanada chuqurroq takomillashuvi) va inqilobiy (butunlay yangicha konsepsiylar vujudga kelishi) yo'llari mavjud. Inqilobiy o'zgarishga misol sifatida A.Smit va uning izdoshlari g'oyalari, marjinalistik to'ntarish, yangi klassik yo'naliш (A.Marshall), J.M.Keynsning iqtisodiy qarashlarini keltirish mumkin. O'tish davri iqtisodiyoti bo'yicha g'oyalari hozirgi davrning muhim qarashlari majmuasiga kiradi va nihoyatda dolzarbdir. Bu masala O'zbekiston misoldida qarab chiqildi.

Taniqli davlat arbobi Uinston Cherchill (1874-1965): «Qayerga borishimizni bilish uchun, qayerdan chiqqan ekanligimizni bilishimiz kerak», - degan edi. Bu g'oya nihoyatda ahamiyatli bo'lib, unda bosib o'tilgan yo'lni to'g'ri baholash va istiqbolni ko'zlash haqida gap boradi.

Iqtisodchilarning tadqiqotlariidagi asosiy bosh g'oya - jamiyat, insoniyat, ayrim shaxslarning boyligi masalasidir. Maqsad bir, lekin unga eltadigan yo'llar nihoyatda xilma-xil ekanligini ko'ramiz. Ilk kapitalistik munosabatlar vujudga kelgan davrgacha (XV asr) bo'lган iqtisodiy g'oyalardagi umumiylig shuki, barcha donishmandlar va ularning yozgan asarlarida mehnat va yer boylikning asosiy vositasi ekanligi turli yo'llar bilan talqin etiladi, ularda ishlab chiqarish sohasi asosiy deb hisoblangan.

XV-XVII asrlarda (qisman XVIII asr boshlarida) yangi iqtisodiy ta'limot - **merkantilizm** vujudga keldi. Merkantilizm to'g'risida qisqa ma'lumot beradigan bo'lsak, uning mohiyati iqtisodiy siyosatda mamlakatda va davlat xazinasida nodir metallarni ko'proq to'plash, ta'limotda esa muomala (savdo, pul oboroti) sohasidagi iqtisodiy qonuniyatlarni izlashdir, u avvalgi davrdagi g'oyalardan keskin farq qiladi.

Keyingi muhim o'zgarish, bu klassik iqtisodiy maktabning yuzaga kelishidir (XVIII asr). Bu iqtisodiy ta'limot ichida **fizиokratizm** ham vujudga keldiki, uning umri uncha uzoq bo'imadi. Klassik maktab g'oyalari hozirgi davrda ham turli shakkarda qayta namoyon bo'lmoqda (neoklassik, liberal, neoliberal...). Marks nomi bilan bog'liq bo'lган marksizm ta'limoti (nobozor iqtisodiyot) ham tarixda muhim o'rinni egallaydi. Hozirgi davrda bu ta'limot to'g'risida imkonli boricha gapirmaslikka, ayniqsa, yozmaslikka harakat kuchayib bormoqda, ko'proq uning faqat salbiy tomonlarini tilga olish «moda»ga kirgan. Bunda «jon» bor, albatta, chunki 1917-yili Rossiyada boshlangan marksizmni hayotga tatbiq etish jarayoni samarasiz tugadi. Keyinchalik shu yo'lga o'tgan bir qancha mamlakatlarda ham eksperiment samarasiz yakunlandi. Lekin tarix uchun insoniyatga bu saboq juda muhim, shu sababli uni chetlab o'tish adolatdan emas, deb hisoblaymiz. Darslikda xayoliy sotsialistlar va markschilarining iqtisodiy g'oyalari ham o'rinn olgan, uning tarixiy taqdidi berilgan.

XIX asr 2-yarmida avvalgi g'oyalarga marksizmga muqobil ravishda vujudga kelgan va umumlashtirilgan holda marjinalizm deb ataladigan ta'limot hozirgi zamonning asosiy iqtisodiy g'oyasi hisoblanadi. Lekin shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, biror ta'limot doimo sof holda amalda deyarli qo'llanilmaydi. Har bir ta'limotning ko'plab turli oqim va yo'naliishlari mavjud. Odatda, sof erkin bozor munosabatlari deyarli uchramaydi. Bozor munosabatlarining unsurlari, ular o'rtasidagi nisbat ham doimo o'zgarib turadi. Demak, iqtisodiy ta'limotlar tarixi fanining

muhim xususiyatlaridan biri, bu uning doimo harakatda, o'zgarish, rivojlanishda ekanligidir. Bir mamlakat chegarasida iqtisodiy ta'lilot ta'siri ostida iqtisodiy siyosat har doim rivojlanishda bo'lishi kerak.

Darslikda O'zbekiston misolida bozor munosabatlariiga o'tish iqtisodiyoti konsepsiysi xususiyatlari bayon etiladi.

Iqtisodiy ta'lilotlar tarixi fanining boshqa fanlardan farqli xususiyati shuki, har bir g'oya, ta'lilot uni yaratgan bir yoki bir guruh insonlar, olimlar, davlat rahbarlarining faoliyati bilan chambarchas bog'liq holda beriladi.

Iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti laureati Milton Fridmenning fikricha, fanni o'rganishda olimlarning «avtobiografiya va biografiyalariga murojaat qilish, shu yo'l bilan olimlarni aforizm va misollar yordamida rag'batlantirish kerak, faqat sillogizm (deduktiv fikrlash) va teoremlar bilan cheklanmaslik zarur».

Sharq, xususan, Markaziy Osiyo donishmandlarining iqtisodiy g'oyalarni o'rganish, aslini olganda, endi boshlandi, shu sababli kitobning bu bo'limi yangi materiallar bilan to'lib borishiga ishonchimiz komil.

Yetakchi mamlakatlar taraqqiyotining asosiy omillaridan biri, bu davlatlar iqtisodiyotining bo'layotgan o'zgarishlarga tez adaptatsiyasidir, ya'ni moslashuvidir.

AQSH davlati tarixida qisqa vaqt davomida iqtisodiy siyosat bir necha bor almashdi va iqtisodiy ravnaq saqlab qolindi. Buyuk depressiya (1929-1933)dan keyingi davrda AQSH prezidenti **D.Ruzvelt** «yangi yo'l» kursi bilan J.M.Keynsning iqtisodiy g'oyalarni amalda qo'lladi (davlatning iqtisodiyotdagi roli keskin oshdi, vaholanki undan avvalgi yillari xususiy mulk (99 foiz) asosiy va yetakchi bo'lgan).

Keyinroq prezident R.Reygan davrida davlatning iqtisodiyotdagi roli ancha kamaytirilib, liberal (erkin) iqtisodiyotga keng yo'l ochib berildi (**reyganomika**), oqibatda bu prezident davrida qo'shimcha 14 million kishi tadbirkorligiga yo'l ochib berildi, yangi-yangi millionerlar vujudga keldi. Xuddi shunday holat B.Klinton davrida ham qayd etildi.

Buyuk Britaniya iqtisodiyotida ham buni ko'rish mumkin (**tetcherizm**). Iqtisodiy siyosat va iqtisodiy g'oyalarning bir-biri bilan chambarchas bog'liqligini isbotlovchi misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Ayniqsa, «sotsialistik» deb atalgan rivojlanish yo'lidan voz kechmagan Xitoy va Vyetnam davlatlarining iqtisodiy taraqqiyoti ham

diqqatga sazovordir. Bozor iqtisodiyoti unsurlarining keng rivojlanishiga imkon beruvchi iqtisodiy islohotlar tufayli katta yutuqlarga erishildi.

Iqtisodiy ta'limotlar tarixiga, balki boshqa fanlarga ham xos bo'lgan yana bir xususiyat shuki, iqtisodiy g'oyalalar doimo dialektik rivojlanishda bo'lib, ularning tahliliga so'nggi nuqta qo'yish qiyin. Bundan bir necha yuz yil avval yuzaga kelgan fikr va g'oyalarning ma'nosini ustida tortishuv va baxslar hali ham davom etib kelmoqda. Masalan, hanuzgacha K.Marksning qiymat (ruscha - «стоимость») to'g'risidagi fikri aslida qimmat (ruscha - «ценность») bo'lgan, degan fikr mavjud. Marks asarlarini nemis tilidan tarjimada yo'l qo'yilgan xato tufayli jiddiy tushunmovchilik yuzaga kelgan, deyilgan (Блауг М. Экономическая мысль в ретроспективе. М., 1994).

Bunda dialektik mantiq bor, albatta, lekin yuqorida ta'kidlanganidek, avvalgi g'oyalalar tufayli, odatda, yangi g'oyalalar yuzaga keladi, shuning uchun bu g'oya «yaxshi», unisi «yomon» tarzida baholash adolatdan bo'lmaydi. A.Smitning mashhur asarida o'zidan avvalgi davrda yuzaga kelgan antik dunyo, merkantilizm, fiziokratizm ta'limotlari tahlil etilgan, Yevropaning iqtisodiy tarixi sinchiklab o'rGANILGAN.

Yetakchi g'arb olimlari ko'p hollarda to'rt buyuk shaxsning g'oyalariiga alohida urg'u berishadi: bular Smit, Marks, A.Marshall va Keynsdir.

Bu olimlarning iqtisodiy g'oyalariada mavjud ta'limotlarning ko'pchiligi o'z in'ikosini topgan va ular jahon iqtisodiy g'oyalari rivojiga alohida hissa qo'shgan shaxslardir.

Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fani bo'yicha yaratilgan adabiyotlarga to'xtaladigan bo'lsak, bu masala o'zbek o'quvchilari uchun eng nozik masala deyish mumkin.

1997-yili «Fan» nashriyoti tomonidan e'lon qilingan o'quv qo'llanmadan (2000 nusxa) so'ng, 2001 yilda Toshkent moliya instituti tomonidan ham qo'llanma (300 nusxa) nashr etildi.

2001-yil Q.Yo'ldoshev va Q. Muftoydinlovlar tomonidan tayyorlangan «Iqtisodiy ta'limotlar tarixidan» nomli qo'llanmada Sharq iqtisodiy g'oyalari tahlil etiladi. Yu.B. Yusupovning rus tilida (1999) chop etilgan ma'ruzalar matni ham diqqatga sazovordir.

2000-yildan boshlab TDIU magistraturasida «Iqtisodiy nazariya» mutaxassisliklari uchun «O'rta Osiyo mutafakkirlarining iqtisodiy g'oyalari» maxsus kursi o'qitila boshlandi, shunga mos namunaviy dastur, ma'ruzalar matni va boshqa me'yoriy hujjatlar tayyorlanib, amalda qo'llanilmoqda.

BIRINCHI QISM

QADIMGI DUNYO, FEODAL JAMIYATI VA ILK KAPITALIZMNING IQTISODIY TA'LIMOTLARI

I b o b. QADIMGI DUNYO IQTISODIY TA'LIMOTLARI

1.1. Qadimgi Osiyodagi iqtisodiy g'oyalar

Dastlab quldarlik jamiyati Sharqda sinfiy ajralish boshlangan joylarda, Mesopotamiya (Tigr va Efrat daryolari oralig'ida) va Misrda eramizdan avvalgi IV mingyillikda yuzaga keladi. Bunga asosiy sabab shuki, bu yerda texnologik inqilob ro'y berdi, metall qurollar ishlataliqa boshladi, qishloq xo'jaligidagi intensiv, ko'p hollarda sug'orma dehqonchilikka o'tildi, shu asosda nisbatan turg'un qo'shimcha mahsulot olish imkonini tug'ilgan. Oqibatda bu jamiyatda mehnat taqsimotini rivojlantirishga, ko'pgina hunarmandchilik sohalarining ajralib chiqishiga, sinfiy tabaqlanishga turtki bo'ldi.

Bu davrda qo'shimcha mahsulot olishning asosiy usuli jamoaga birlashgan dehqonlarni ekspluatatsiya qilish yo'li bilan renta - soliq olish (Osiyoda) bo'lsa, qullarni (davlat yoki xususiy) beayov ishlatalish bilan ham (Yevropada) katta boylik orttirilgan. Sharqda davlatning iqtisodiyotga aralashuv darajasiga qarab, ayrim «erkin» aholining ahvoli qullarnikidan deyarli farq qilmagan (umuman, Sharq mamlakatlarda qulchilik masalasi hali uzil-kesil hal etilgan emas. Akademik V.V. Struve uni tan oladi. Lekin ko'pgina olimlarning fikricha, Sharqda quldarlik klassik shaklda rivoj topmagan, patriarchal, ya'ni uy xo'jaligidagi ustun bo'lgan (Qarang: История Древнего Востока. М., МГУ, 1991).

Qadimgi Hindistonning «Manu qonunlari»da (m.a. IV-III asrlar) ijtimoiy mehnat taqsimotining, hukmronlik va bo'y sunish institutlarining mavjudligi aytildi.

Hindistondagi iqtisodiy g'oyalarni aks ettiruvchi qadimgi yodgorlik «Artxashastra» (m.a. IV-III asrlar oralig'ida)dir (tom ma'nosi bo'yicha

ifoda, amaliy hayot to‘g‘risidagi fan, bu asar m.av. III-II asrlarda to‘ldirilgan). Bu qadimiy va muhim tarixiy yodgorlikdir (u **Chandragupta I** podsholigi davrida podsho maslahatchisi **Kautile Bishnugupta** tomonidan yozilgan degan fikr bor). Unda qulchilikni mustahkamlash asosiy vazifa qilib qo‘yilgan. Qulchilik eng past tabaqalarga xos narsa deb sanaladi. Bu asarda «*buyumning qiymati*» muammosi ko‘tarilgan, qiymat miqdori «ish kunlari» bilan belgilangan, rag‘batlantirish esa mehnat natijalariga mos ravishda belgilanishi kerak, deyilgan.

Bu asarda davlatni boshqarish bo‘yicha takliflar berilgan bo‘lib, bir qancha iqtisodiy g‘oyalar ham ilgari surilgan. Masalan, unda mahsulotning bozor bahosi bilan uning tabiiy qiymati o‘rtasidagi farq aytilgan. Tovarga bo‘lgan ehtiyoj ortganda, uning bahosi qiymatdan oshib ketishi mumkin, deyilgan. Savdo bilan shug‘ullanuvchilarga alohida urg‘u berilgan bo‘lib, foyda masalasi ko‘tarilgan, foydaning miqdori tovar bahosiga (boshqa harajatlar qatorida) qo‘shilib, mahalliy mahsulot uchun 5, chetdan kelgan tovarlar uchun 10 foiz (import o‘sha davrda ham afzal) qilib belgilangan.

Qadimgi Hindistonda yaratilgan «**Veda**»larda ham bir qancha muhim iqtisodiy g‘oyalar keltirilgan. Respublikamiz olimlarining tadqiqotlariga ko‘ra, *zardushtiylit* (*zoroastrizm*) dinining (islomgacha) muqaddas kitobi bo‘lgan «*Avesto*» ya‘ni «hayot yo‘riqnomasi» (asli «*Ovasta*») da ham muhim iqtisodiy fikrlar bayon etilgan.

«*Avesto*» bo‘yicha turli tabiiy ofatlarga qarshi zaxira oziq-ovqatlar barpo qilish qo‘llab-quvvatlanadi (Konfutsiylik va boshqa ta’limotlarda ham bu g‘oya katta o‘rinni tutadi). «*Avesto*»ning yozilishi jihatidan keyingi davrga mansub fikrlarda, masalan, chorvadorlar hamkorı *Yim* to‘g‘-risidagi afsonada «oltin asr»dagi mol-ko‘ylarning mo‘l-ko‘lligi haqida so‘z yuritiladi. *Yim*ning xizmati ulug‘lanib, kuchlisovuuq, qor va suv to‘fonidan hayvonlar va odamlarni qutqarish uchun «varu» (qo‘rg‘on) qudirib, unga suv o‘tkazadi, mayda va yirik mollar, odamlar, it, qush, barcha o‘simpliklar urug‘i va yonib, porlab turgan olovni keltiradi (*Nuh* payg‘ambar bilan solishtiring). Odamlar uchun turarjoy, hayvonlar uchun molxonalar qurilgani aytildi.

«*Avesto*»ning 3-bobi (fargard) «*Vandidot*» bo‘lib, nisbatan keyingi davr voqealarini aks ettiradi. Unda, asosan, dehqonchilik va dehqon mehnati ulug‘lanadi (avvalgi boblarda chorva yetakchi edi). Endilikda ko‘proq ekin ekiladigan, don, o‘t, mevali ekinlar o‘stiriladigan, suvsiz

joylarni sug'oradigan, suvi ortiqcha yerlar quritiladigan (sug'orish bilan birga zax qochirish) joylar maqtaladi, hatto yerkarta ko'p go'ng solinishi, buning uchun esa ko'proq kichik va katta qoramollar boqish tavsiya etiladi. Bunda juda katta tabiiy mantiq borligi aniq ko'rinish turibdi.

Qadimgi Xitoydagi iqtisodiy g'oyalar m.av. VI-III asrlarda shakllangan. Bu mamlakatdagi dastlabki quldorlik davlatlari m.av. II ming yillikda paydo bo'lgan. *Konfutsiylik* g'oyasi muhimdir. Uning muallifi **Konfutsiy** yoki *Kun-Tszi* (m.a. 551-478 yy.) «*Lun yuy*» to'plamida («*Suhbatlar va mulohazalar*») o'z g'oyalarini jamlagan. Olim kelajak rivojini o'tmishdan izlaydi. Shu davrda obro'si pasaygan zodagonlarning manfaatini himoya qiladi (bu g'oyalar keyinchalik *Ken-Tszi* (m.a.312-289-yy.), *Syun-Tszi* (313-278-yy.) va boshqalar tomonidan davom ettirilgan). Yoshlarning qariyalarga hurmati, ularga qarshi chiqmaslik g'oyasi asos qilib olingan. Davlat bu katta oila, podsho esa «xalqlar otasi»dir, boyliklar nisbatan tekis taqsimlanishi kerak, soliqlarni me'yorida saqlash, yer ishlarini yaxshi bajarish, hammani o'z vazifalarini bajonidil ato etishi zarur deyiladi («Xalqlar otasi» tushunchasining ibtidosiga e'tibor bering).

Bu g'oyalar Xitoydagi muhim iqtisodiy o'zgarishlar davriga to'g'ri keladi. Temir qurollar tufayli dehqonchilik va hunarmandchilik rivoj topdi, tovar-pul munosabatlari o'sdi, savdo-sotiq kuchaydi. Sinfiy munosabatlar keskinlashdi. Shu sharoitda konfutsiylik ijtimoiy, ahloq va huquq doirasida tabiiy huquq nazariyasini ilgari surdi. Mamlakatdagi aristokratiya va xalq o'rtasida vujudga kelgan quldorlik va xususiy mulk himoya qilinadi. Konfutsiy «*buyuk jamoa mulki*» (dehqonlar jamoasi) va xususiy egalik (quldorlar mulki)ni farqlaydi, so'nggisini ko'proq qo'llaydi. Jamiyatning turli qatlamlari xudo tomonidan belgilanganligini ta'kidlaydi va uni tabiiy hol, deydi. Boylikning manbayi mehnat bo'lib, hokimlar boyligi xalq boyligiga asoslanadi. U xalq hisobiga quldorlar boyligi ortishi tarafdoi edi, xalqni ko'proq ishlab, kamroq iste'mol qilishga chaqirdi.

Syun-Tszi davlatning iqtisodiy jihatdan kuchayishi tarafdoi edi, odamlarning boylikka intilishini qoralamagan (ular qonun asosida ish yuritishsa bas). Ammo inson bir vaqtning o'zida ko'p kasb egasi bo'la olmaydi, degan fikr paydo bo'ldi, ya'ni olim mehnat taqsimoti zarurligi g'oyasini ilgari suradi (bu juda muhimdir). Davlatning iqtisodiy siyosati uchta asosiy tamoyilga asoslanishi kerak:

1. Xarajatlarni iqtisod qilish, ya'ni tejab-tergab sarflash;
2. Xalq to'qligini ta'minlash;
3. Ortiqcha mahsulotlarni saqlash zarurligi.

Miloddan avvalgi VI-III asrlarda *legistlar* (qonuniy degani) oqimi paydo bo'ldi, ular boshqarishni aniq qonunlar asosida (oddiy odatlarga qarshi) olib borish tarafdoi edilar (namoyandalari Tszi-Chap, Li-Kuy), markaziy davlat kuchli, mamlakat esa yagona, birlashgan bo'lishini qo'llab-quvvatlashgan. Legistlar (Shan Yan), ayniqsa, qishloq xo'jaligi, dehqonchilik, donchilikni rivojlantirishga alohida e'tibor berishgan. Don masalasini hal etish bosh masala deb bilingan. Shan Yanning fikricha, davlat ravaqa uchun ikki masalani hal etish zarur: don va urush (atrofdagi yerlarni bosib olish). Dehqonlar ro'yxatini o'tkazish, qonun yo'li bilan yig'ilgan don miqdoriga bog'liq yagona soliq tizimini kiritish taklif etiladi. Qonun yo'li bilan turli «ishyoq-maslar»ni «yerga qaytarish», ya'ni dehqonchilik bilan shug'ullanishga, mehnat qilishga majbur etish siyosatini qo'llash kerak deganlar (Xitoydag'i 1960-yillar davomida ro'y bergen madaniy inqilob davrida shu siyosat amalga oshirildi). Undan tashqari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan savdo qilishni qat'iy cheklash ham talab qilingan (go'yoki savdogarlar bundan katta foyda olishlari mumkin). Savdo-garlar savdoni tashlab, dehqonchilikka intilishlari kerak. Erkin sohib-korlik taqiqlangan, umumiy yer egaligi va javobgarlik joriy etilgan (m.av. 351-y.)


«Guan-Tszi» (m.av. IV a.) asarida ham xo'jalikni davlat tomonidan tartibga solishning tizimlari ancha mukammal bayon etilgan. Bunda legistlardan farqli, tovar-pul munosabatlarini cheklashga intilmasdan, bu munosabatlarni o'rganib, undan xo'jalikni barqarorlashtirishda ma'lum mexanizm sifatida foydalanish taklif etiladi. Xalq xo'jaligini barqaror saqlash uchun tovarlar baholarini ushlab turish g'oyasi ilgari suriladi. Davlat hokimi non, pul, metallni tartibga solish yo'lini qo'lida saqlasa, mamlakat rivoji nisbatan tekis boradi, deyilgan. Bu asarda ham agrar soha, ayniqsa, donchilikka alohida urg'u berilgan. Agar legistlar hunarmandchilik, ayniqsa, savdoni befoyda soha deb hisoblagan bo'lsalar, bu asarda esa o'sha sohalarga ham ijobjiy baho berilgan. «Yerni boshqarish» uchun davlat yerning tabiiy xususiyatlarini yaxshi bilishi kerak. Yer maydonlari nisbatan tekis taqsimlanishi zarur, dehqonlarni ish qizigan davrda boshqa yumushlarga jaib etmaslik, soliq tizimi sharoitiga qarab (yer unumiga bog'liq ravishda) bo'lishi taklif etilgan. Bu yerda

gap Yer kadastrini tuzish to'g'risida boradi, ya'ni bu ishda hisob-kitob bo'lishi qayd etiladi. Asarda yer va suv (tog' va dengiz) larni davlat ixtiyoriga o'tkazish va ulardan daromad yo'lida foydalanish, baholarni tartibga solish yo'li va boshqa ko'pgina iqtisodiy g'oyalari ilgari suriladi. Bu g'oyalari amalda ham qo'llanildi va yaxshi samara berdi.

Qadimgi Xitoy ijtimoiy hayotida daosizm (aynan - yo'l) g'oyalari alohida o'rinni egallaydi, uning asoschisi **Lyao-Tszi** bo'lib, Konfutsiy davrida yashab, ijod etgan (e.a. IV-III asrlar). U taqiqlovchi qonunlarga amal qilmaslikni taklif etdi, qonunlar ko'pligi tufayli: «*xalq kambag' allashmoqda*», - dedi. Daosizm g'oyalari konfutsiylikka qarama-qarshi bo'lib, insoniyat avvalgi majburiyatlardan voz kechishi, oddiy tabiiy hayotga qaytishi kerak, degan fikrni ilgari suradi. Bu g'oya ga ko'ra inson ibridoq davrga qaytishi, yangi mehnat qurollaridan foydalanmasligi kerak. Ko'rinish turibdiki, unda reaksiyonlik elementlari bor, ammo bu g'oya da xalq ommasining noroziligi ham aks etgan, chunki sivilizatsiya yutuqlari ekspluatatsiya manfaatlariga ham xizmat qilayotgan edi. Bunda kurashdan voz kechish, davlatning xalq hayotiga aralashuvini inkor etish fikrlari ustun kelgan.

1.2. Qadimgi Yunonistondagi iqtisodiy ta'limotlar

Yuqorida qayd etilganidek, antik dunyo mamlakatlarda quidorlik klassik shaklda rivoj topdi, m.a. II-I mingyilliklar davrida shakllandı. Qadimgi Gretsya (Yunoniston) da ijtimoiy-iqtisodiy hayotning hamma jabhalarida quidorlik bevosita ishlab chiqaruvchilarni ekspluatasiya qilishning asosiy shakliga aylangan edi. Ishlab chiqarish, asosan, quidorlik munosabatlarga asoslanib olib borildi, qul asosiy ishlab chiqaruvchi kuch hisoblangan (Sharq bilan solishtiring). Dastlabki iqtisodiy g'oyalari **Gomerning «Iliada»** va **«Odisseya»** poemalarida aks ettirilgan bo'lib, iqtisodiyotning natural xo'jalik konsepsiysi ilgari surilgan. Yunon shoiri **Gesiad** (m.av.VIII-VII asrlar)ning **«Mehnat va qonunlar»** asarida boylikning kuchi, hokimiyati aks ettirilgan. U dehqonchilikni ulug'laydi, bu sohada qisman qullar mehnati ham ishlatilgan. U davrda oddiy xalq orasida mehnat ancha qadrlangan. Qulchilik ofatining bosib kelayotganligidan xavfsiragan shoir go'yoki ilgari hukm surgan «oltin asr», ijtimoiy jabr va og'ir jismoniy mehnatga ehtiyoj bo'lmagan davrni ham yoritgan.



Miloddan avvalgi VII-VI asrlarda polis (shahar) sistemasi shakllanib bo‘lgach, qulchilik keng tus oladi, urug‘chilik mulki xususiy mulkchilik tomonidan siqib chiqariladi, savdo, sudxo‘rlik tez rivojlanadi. **Solon** (m.av. 640/635-559) islohotlari pul xo‘jaligining afzalligini ko‘rsatib berdi (m.av. 594). Islohot tufayli qulni qarzga berish taqiqlandi. Afinada **Perikl** (m.av. 444/443-429) tomonidan olib borilgan ishlar muhim ahamiyat kasb etdi. Qurilish, hunarmandchilik, savdo o‘sdi. Shu davrda fuqarolar va fuqaro bo‘lmagan aholini bir-biriga qarama-qarshi qo‘yadigan qonunlar qabul qilindi. Bu ishlar qullarni hunarmandchilik va savdo sohalarida beayov ekspluatatsiya qilish, savdo va pul xo‘jaligini rivojlantirish hisobiga amalga oshirildi.

Qulchilik o‘z tabiatiga ko‘ra insonga yet, u majburiylikni talab etgan, oqibatda ma’lum davrdan inqirozga uchray boshlagan. Shu davrda iqtisodiy g‘oyalar tobora reaksiyonlashib, davlatni, aristokratiyani himoya qilish, natural xo‘jalikni yoqlash yo‘lini tanlaydi, ya’ni sinfiy xarakterga ega bo‘la boradi. Bu yo‘nalish **Ksenofont** (taxminan m.av. 430-354), **Platon** (**Aflatun**, taxminan m.av. 427-347), Aristotel (Arastu, m.av. 384-322) larning iqtisodiy qarashlarida yaqqol namoyon bo‘ldi.

«**Ekonomiya**» so‘zi («oykonomiya»: - «oykos» - uy, xo‘jalik va «nomos» - qonun, qoida) tom ma’noda uy xo‘jaligi to‘g‘risida qoida mazmuniga ega bo‘lib, Ksenofontning maxsus asarining sarlavhasi bo‘lgan.

Ksenofont quidorlar mafkurasining himoyachisi hisoblanadi, qulchilikni tabiiy, obyektiv jarayon deb baholaydi, qul mehnatiga asoslangan natural xo‘jalikni ulug‘laydi. U, ayniqsa, qishloq xo‘jaligi, dehqonchilikni farovonlik manbayi deb bilgan. Dehqonchilik tufayli odamlar o‘zlariga hayot uchun kerakli hamma narsani oladilar. Dalada ishlash sog‘liq uchun ham foydali (toza havo), ham iqtisodiy naf keltiradi.

Platon (**Aflatun**) «**Davlat**» va «**Qonunlar**» asarlarida ideal davlat qanday bo‘lishi kerakligini ochib bermoqchi bo‘ldi. Uningcha, bu davrda xususiy mulk va erkin xo‘jalik tashabbusiga o‘rin yo‘q. U aholini uch toifaga ajratgan:

1. *Faylasuflar* – davlatni boshqaruvchilar.

2. *Harbiylar* – davlatni boshqarish apparatining bir qismi bo‘lib, ular biror mulk egasi bo‘lish huquqiga ega emas, iste’mol qilish esa ijtimoiy xarakterga ega bo‘lishi kerak.

3. «*Qora*» toifa – dehqon, hunarmand va savdogarlardan iborat bo‘lib, ular mulk egasi bo‘lishi kerak.

Bu olimning mehnat taqsimoti, tovar, pul va savdogarlarning ajralib chiqishi o'rtasidagi aloqadorlik to'g'risidagi fikrini o'sha davr uchun buyuk kashfiyot deb baholash mumkin. Ammo Aflatun qulchilikka asoslangan natural xo'jalikni himoya qildi, pul funksiyasini muomala doirasidagina deb bilishga harakat qildi, pulni jamiyatdagi dushmanlikning bosh sababchisi deb bildi. U sudxo'rlik operasiyalarini inkor etdi va baholarni me'yorda saqlash yo'li bilan savdogarlarning foydasini chegaralashni talab qildi. Aflatun qullarni fuqarolar deb tan olmadi va ularni biror toifaga kiritmadni (demak, ular mulk egasi bo'lishi mumkin emas). Qullar mayda ishlab chiqaruvchilar va savdogarlar bilan birga 2-toifa ahlining cheklanmagan talab-ehtiyojlarini to'la-to'kis qondirishlari kerak edi. Shunday qilib, Aflatun o'zining ideal, ya'ni bekam-u ko'st davlatini barpo etar ekan, qulchilikni abadiy saqlash tarafdori edi.

Aristotel (Arastu). Aristotel qadimgi Gretsiyadagi quzdorlarning eng yirik maskurachisi edi. Uni jahongir *Iskandar Zulqarnayn*ning tarbiyachisi va o'qituvchisi ekanligini alohida ta'kidlab o'tmoqchimiz. Avval Makedoniyada yashagan olim, keyin Afinaga ko'chib o'tgan. Olimning iqtisodiy g'oyalari «Nikomaxov ahloqi» va «Siyosat» kitoblarida mavjud. U: «*Qul - tirik quroq, qandaydir tirik mulq*», - degan edi. Uning fikricha, jamiyatning quzdor va qullarga bo'linishi - tabiiy va qonuniy holat bo'lib, odamlarning tabiatan turli-tumanligidandir. U «haqiqiy boylik» (tabiiy) ni tan olgan, uni iste'mol qiyamatlarining yig'indisi deb bilgan va bu bilan bog'liq faoliyatni iqtisodiyotga tegishli soha deb bilgan. Quzdorlik xo'jaligini mustahkamlash uchun o'rtacha ta'minlangan quzdorlar sifini yuksaltirish kerak, buning uchun davlat tomonidan odil almashinuvni ta'minlash zarur. Olim masalani ahloqiy tomonidan hal etishga urinsada, birinchi marta almashuv qiyamatini tahlil etdi va qiyamatning mehnat nazariyasi kurtaklarini yaratdi. Tovarlarning almashuv qiymati tovar bahosining yaratilish shakli ekanligini tushunib yetdi. K.Marksning formulalarini qo'llaydigan bo'lsak, T-T munosabati T-P-T ga aylanadi va 5 ta «loja» 1 uysa yoki ma'lum miqdordagi pulga tenglashtirilishi mumkin. Platonga nisbatan Aristotel pulning mohiyatini kengroq va chuqurroq anglab etdi. Ammo u tovar ishlab chiqarishining rivojlanmaganligi va qiyamatni to'la tushunmaganligi tufayli tovarlar pul tufayli bir-biri bilan solishtirilishi mumkin degan xato xulosalarga keldi. Natural xo'jalik tarafdori bo'lgan olim muomalaning T-P-T shaklinigina tan olgan (talabni qondirishga mo'ljallangan holat), savdo va sudxo'rlik tabiatga

zid bo'lib, bularni pul qilish san'atiga xos narsa deb bilgan va uni xrematistikaga tegishli degan.

Aristotel uchun ideal (bekam-u ko'st) xo'jalik - bu uncha katta bo'l-magan dehqonchilik xo'jaligi (unda, albatta, qullar ishlagan) bo'lib, u deyarli kerakli barcha mahsulotni yaratuvchi (natural xo'jalik) bo'lishi shart edi. Ayrim yetishmagan narsalarni esa qo'shnilaridan «odil almashuv» asosida olish kerak. Bu olimning xizmati shundaki, u birinchilardan bo'lib iqtisodiyotning ayrim kategoriyalarini berdi va ma'lum darajada ular o'rtaсидаги о'заро bog'lanishni aniqladi. Aristotelning iqtisodiy tizimi bilan A.Smitning «Xalqlar boyligi» asaridagi fikrlar hamohangligini ko'rish, qiymat qonunining hosil bo'lishi mexanizmini tushunish mumkin.

Qiymat iqtisodiyotning asosiy kategoriysi hisoblanadi. Tarixan uni talqin etishda ikki yo'nalish bor. Birinchi yo'nalishda tovar qiymati obyektiv bo'lib, uning manbayi shu tovarni ishlab chiqarish uchun sarflangan mehnat hisoblanadi. Ikkinci yo'nalishda qiymat tushunchasi subyektiv narsa bo'lib, odamlar tomonidan tovarning foydaliligi boshqa biron foydalilik bilan solishtirish tufayli yuzaga keladi.

Aristotelning g'oyalarida ikkala yo'nalish kurtaklari mavjud. U qiymat qonuni muammosini qo'yadi, lekin unga to'la javob topa olmaydi. U almashuvda tovar qiymatlari tenglashtirilishini ko'radi. «Nikomaxov ahloqi» asarida u shunday fikr yuritadi: *«Jamiyat ikki vrachdan tashkil bo'lmaydi, balki vrach va dehqondan, umuman, bir xil va teng bo'lmaganlardan tashkil topadi. Ana shunday odamlarni bir-biriga tenglashtirish zarur. Shuning uchun almashuvga uchraydigan barcha narsalarni tenglashtirish, solishtirish zarur. Xullas, hamma narsa biror narsa bilan o'lchanishi kerak. Etikdo'z mahsulotining dehqon mahsulotiga, dehqon mahsulotining etikdo'z mahsulotiga bo'lgan to'g'ri munosabati, to'g'ri tenglamasi topilishi kerak»*. Lekin o'sha narsa nima ekanligi aytilmaydi. Savolga javob izlab u o'z fikrini shunday davom ettiradi: *«biz nima uchun almashamiz, chunki menga sening tovaring, senga esa mening tovarim kerak»*, degan oddiy qisqacha xulosalarga keladi. Tovarlarning tengligi pul tufayli amalga oshadi, deydi u. Hamma narsa biron narsa bilan o'lchanishi kerak. Bu, avvalo, ehtiyoj, u barcha narsani bog'lovchi asos. Ehtiyojni almashtirish uchun (odamlar kelishuvi bilan) pul - chaqa paydo bo'ldi. Aristotelning bu fikrida hozirgi zamon marjinalizm g'oyalari yotadi, ya'ni tovarlarning foydaliligi asosiy o'ringa chiqadi.

Bu olimning iqtisodiyot (ekonomika) ni xrematistikaga qaramaqarshi qo'yishi xarakterlidir. U o'ylab topgan «xrematistika» matni

«xrema» so‘zidan olingan bo‘lib, mulk, egalik mazmuniga ega. Aristotel iqtisodiyot (ekonomika) deganda hayot uchun zarur bo‘lgan mahsulotlar (iste’mol qiyatlari) ni ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan tabiiy xo‘jalik faoliyatini tushunadi (dehqonchilik, hunarmandchilik va mayda savdo). Bu almashuvni ham o‘z ichiga oladi, ammo zarur shaxsiy talab-ehtiyojlarni qondirish chegarasidan chiqmasligi kerak. Bu faoliyat chegaralari ham tabiiy soha bo‘lib, insonnинг ongli shaxsiy iste’moli doirasida bo‘lishi kerak.

«Ekonomiya» so‘zi dastlab uy xo‘jaligini yuritish san’ati sifatida yuzaga kelgan bo‘lsa, keyingi davrda u ko‘proq va asosan «ekonomika» ma’nosida qo‘llaniladi va xaratatlarni qisqartirish, ma’lum resurslarni sarflashda tejamkorlikni anglatadi. Hozirgi davrda bu atama ko‘proq quyidagilarni anglatadi:

1. Tuman, hudud, mamlakat, mamlakatlar guruhi yoki jahon xo‘jaligi (masalan, jahon iqtisodiyoti, O‘zbekiston iqtisodiyoti va boshqalar).
2. Xalq xo‘jaligining, to‘la ishlab chiqarishning ayrim shart-sharoitlari va elementlari (aholi, mehnat, boshqarish va boshqalar), ayrim tarmoqlar (sanoat, mashinasozlik, qishloq xo‘jaligi, chorvachilik, ta’lim va boshqalar) ni tadqiq etadigan ilmiy soha.
3. Ma’lum iqtisodiy tizimni tashkil etuvchi ishlab chiqarish, taqsimot, almashuv, iste’mol jarayonidan tashkil topuvchi odamlar o‘rtasidagi ma’lum tarixiy-iqtisodiy munosabatlar majmuasi.

1.3. Qadimgi Rimdagi iqtisodiy g‘oyalar

Bu davrdagi olim va mutaxassislarning asarlarida bir qancha yangi iqtisodiy g‘oyalar ilgari surildi. Bu g‘oyalarning rivojiga e’tibor berilsa, quzdorlik tizimining yemirilishi bilan unga bo‘lgan munosabat ham o‘zgardi. **Katta Katon** (m.av. 234-149-yillar yirik yer egasi bo‘lgan) «Dehqonchilik» nomli asarida u qullikka asoslangan natural xo‘jalikni himoya qildi. Katon o‘z talablarini o‘zi ta’minlovchi yoki iste’mol qiymati ishlab chiqaruvchi xo‘jaliklarni tan olar edi (natural xo‘jalik himoya qilinadi). U faqat ortiqcha mahsulotnigina sotish kerak, xo‘jalikda ishlab chiqarish mumkin bo‘Imagan narsalarnigina sotib olish zarur, degan g‘oyani qo‘llaydi. U qul mehnati asosida xo‘jalikni yuritishning yangi uslublarini ham ishlab chiqdi.

Bu davrda natural xo‘jalik bilan birga bozor munosabatlari ham rivojlanayotgan edi. Bozorni qo‘llagan Katon, shu, bilan birga yollanma

mehnatga dushman bo‘lgan. U qul mehnatini to‘g‘ri tashkil etishga alohida ahamiyat beradi. Bayram kunlari ish hayvonlariga dam berilgan holda, qullar ishlashga majbur etilgan. Kasallangan ho‘kiz davolangan, qulni esa «eski arava» sifatida sotib yuborish tavsiya etilgan.

Dehqonchilikda qul mehnati tobora kam samarali bo‘layotganligini ko‘rgan Katon yaylov xo‘jaligini, keyinchalik savdo va sudxo‘rlikni qo‘llab-quvvatlagan. Qiymatdan ortiq mahsulotni foyda deb bilgan va uni to‘la ravishda ishlab chiqarish xarajatlariga qo‘shtan (xato fikr). «*Yuqori foyda olish uchun Yuqori baholar kuni kelishini bamaylixotir kutish kerak*», - deydi u.

Dehqonlar qo‘lidagi yerlar tortib olinib, yirik latifundiyalar vujudga kela boshladи, erkin Rim aholisi, dehqonlar va armiya soldatlari yersizlandi. Bu holat yirik yer egalari - *patritsiylar* va dehqon-plebeylar o‘rtasidagi qarama-qarshilikni kuchaytirdi, oxir-oqibatda aka-uka **Grakxlarning** agrar islohotiga sabab bo‘ldi. Ular yersiz yoki kam yerli dehqonlarning yirik yer egalariga qarshi kurashini himoya qildilar. Ammo bu ishni quzdorlik tuzumini saqlagan holda va yirik yer egalarini cheklash yo‘li bilan hal etmoqchi bo‘ldilar. Yer egalarining qo‘lidagi yerning bir qismini kesib va davlat fondidagi yerdan foydalaniб, kam yerli dehqonlardan ozod dehqonlar tabaqasi barpo etish ko‘zda tutilgan, eng muhimmi, bu toifa quzdorlarning ishonchli tayanchi bo‘lishi kerak edi.

Aka-uka Tiberiy va Gay Grakxlarning agrar islohoti bo‘yicha, davlat yeridan foydalanuvchilarning har biri 500 yuger (125 hektar), har o‘g‘li uchun 250 yuger, ammo bir oila uchun 1000 yugerdan ortiqcha yer olish taqiqlangan. Undan ortiq yerlar musodara qilingan va 30 yugerdan bo‘linib, kambag‘al fuqarolarga berilgan, lekin bu yerni birovga sotish man etilgan. Bu qonun qabul qilindi, ammo uni amalga oshirishga yirik yer egalari va senat qarshilik qildi. Tiberiy Grakx m.a. 132-yilda ataylab o‘ldirildi. Gay (ukasi) Grakx m.av. 123-122-yillarda bu islohotni amalga oshirish uchun ishni davom ettirdi, bir qancha demokratik o‘zgarishlarni amalga oshirdi (Rimda arzon non sotish), oqibatda 80 ming fuqaro yer uchastkasi oldi. Islohot vaqtincha muvaffaqiyat keltirdi, m.av. 111-yilda davlat yerlarini sotishga yo‘l berildi, yerlar xususiy mulkka aylandi (m.av. 121-yilda Gay ham jangda halok bo‘lgan).

Quldarlik tuzumi inqirozga uchragan va tushkunlikka tushgan davrda rimlik agronomlar **Varron** (m.av. 116-27) va **Lyusiy Kolumella** (I asr) lar quzdorlik xo‘jaligini ratsionallashtirish muammolarini ishlab

chiqdilar. Shu bilan birga, olim va arxeolog bo'lgan Varron «*Qishloq xo'jaligi to'g'risida*» degan kitobida bu sohaning ahamiyatiga katta o'rinni beradi, qishloqdan shaharga intilganlarni qoralaydi. U dehqonchilik bilan chorvachilikni birga rivojlantirishni ma'qul deb biladi. Varron ular o'rtasidagi «*buyuk ittifoq*» tarafdori edi. Buning asosiy sababi shundaki, Italiyada don nisbatan arzon edi, chorvachilikning foydasi esa ancha yuqori bo'lgan. Shu bilan birga, Varronning fikricha, har bir xo'jalik o'z-o'zini ta'minlashi kerak, u bozor munosabatlariiga kam e'tibor qilgan, qullar ekspluatatsiyasi tarafdori bo'lgan va ularni «*gapiruvchi qurollar*» deb bilgan. U qullarning siyosiy jihatdan xavfli ekanligini tushungan va bir millatga tegishli qullarni ko'p saqlamaslik kerak deb tavsiya etgan (chunki birlashib harakat qilishlari oson).

Kolumella o'zining qishloq xo'jaligiga oid yirik asarida qullar mehnatining samarasini pastligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, qullar yerni yaxshi ishlamaydilar, yer yuqori hosil berishi uchun qayg'urmaydilar. U erkin mayda ishlab chiqaruvchilarning mehnati qullarni kidan yuqori bo'lishini isbotlab berdi, yirik quzdorlik latifundiyalariga nisbatan mayda dehqonchilikni afzal deb hisobladi. Bu davrda yirik latifundiyalarning inqirozi aniq bo'lib qoldi, rivojlanish faqat ekstensiv yo'l bilan bordi, ya'ni hosil qo'shimcha yer hisobigagina oshdi. Qullar imkonli boricha yerni ishlamaslikka intilgan. Kolumella bunday yerlarni erkin kolonlarga bo'lib berish yaxshiroq samara beradi, degan to'g'ri xulosaga keldi. Uningcha, mayda ishlab chiqarishga o'tish kerak edi (hozirgi davrga solishtirib ko'ring).

Sitseron Mark Tulliy (m.av. 106-43-yillar) taniqli davlat arbobi va mashhur notiq bo'lgan. U yashagan davrda davlat ancha markazlashgan bo'lib, savdo-sotiq ancha o'sdi, sudxo'rlik boyish manbayiga aylandi. U qishloq xo'jaligini qo'llagan holda (chunki bu soha bozor uchun ham mahsulot etkazar edi), yirik savdo va sudxo'rlikni boyish manbayi deb hisobladi. Demak, Sitseron boshqalardan farqli ravishda quzdorlar bilan birga savdogar va sudxo'rlnarning manfaatini ham himoya qildi.

Quzdorlik tuzumining ichki qarama-qarshiligi tobora o'sdi, qullar qo'zg'oloni ro'y berdi. Tarixda **Spartak** boshchiligidagi (m.av. 73-71-yy.) qullar qo'zg'oloni katta ahamiyatga ega, u beayov bostirilgan bo'lsa ham, tuzum zaminiga jiddiy zarba bo'ldi. **Lusiy Sergey Katalina** (m.av. 63-62-yy.) kambag'al aholi yordamida hokimiyatni egallamoqchi,

qulchilikni yo'q qilmoqchi va boyimoqchi bo'ldi, ammo uning harakatlari ham zoye ketdi.

Eramizning I-II asrlarida Rim imperiyasida nisbatan barqarorlik davri bo'ldi, lekin quldarlik ekspluatatsiyasining samarasizligi tobora ayon bo'lib qoldi, kolonat o'sdi. Aristotel g'oyalarida qulchilik tabiiy zarurat deyilgan bo'lsa, endilikda bunga sharoit taqozosi tufayli kelingan, degan fikrlar yuzaga chiqsa boshladi.

Lusiy Anney Seneka (m.av.3-mil.65 yy.) qulchilikning siyosiy xavfini tushundi va qullar bilan yumshoqroq munosabatda bo'lishni taklif etdi, ular ham tabiatan ozod odam ekanligini tan oldilar.

Shu davrda kolonatga, krepostnoylikka o'tish kuchaydi. Ana shunday bir paytda milodning I asrida (2-yarmida) yangi diniy mafkura - *xristianlik* vujudga keldi. Uning asosiy aqidalari Injilda berilgan. Oddiy xo'jalik faoliyati (mehnat) zarur va ulug' ish deb qaraladi. Dastlab qullar haq-huquqini himoya qilgan bu din, bu ahvoldan qutulish yo'li yuqorida, xudodan deb bilgan. O'sha davrda bu dinning boshqa dinlardan afzalligi shu bo'ldiki, xalqlar o'rtaсидаги etnik va ijtimoiy tafovutlar inkor etildi, din oldida hamma barobar deb e'lon qilindi. Keyinchalik bu din boshqa toifalar orasida ham tarqaldi. Dastlab xristianlik mulki umumiy bo'lib, ekspluatatsiya inkor etilgan, odatda, sadaqa hisobiga kun ko'rilib. Birinchi xristianlar ta'qib ostiga olingan, ammo 325-yili Nikey Soborida xristianlikka Rim imperiyasining davlat dini maqomini berildi, oqibatda u quldarlik va bo'lajak feodal jamiyatining mafkurasiga aylandi.

Milodiy yilning boshida ilk xristianlikning iqtisodiy g'oyalari **Avreliy Avgustin Blajenniy** (353-430) asarlarida ham berilgan. U hammaning mehnat qilishi zarurligini, «ishlamagan tishlamaydi» (avliyo Pavelning fikri) g'oyasini ilgari surdi (sotsializmning asosiy tamoyilini eslang), dehqonchilik eng faxriy kasb ekanligini aytди, savdoni esa faqat foyda, naf olish uchun qilinadigan ish deb qoraladi. Aqliy mehnatni jismoniy mehnat kabi baholash muhim edi.

Qisqacha xulosalar

Dastlabki iqtisodiy g'oyalari insoniyatning paydo bo'lishi bilan shakllangan, ammo bizgacha yetib kelganlari m.av. 2-mingyllikka to'g'ri kelib, ko'proq qadimiy Osiyo xalqlarining xo'jalik faoliyatini aks ettiradi. Antik dunyoga ma'lum darajada amaliyotni nazariy umumlashtirish,

abstraksiyalash oqibatida birinchi iqtisodiy mushohadalar, ayrim iqtisodiy tushunchalar, kategoriyalar shakllana boshladi.

Qullikka asoslangan natural xo‘jalik, ayniqsa qishloq xo‘jaligi qo‘llab-quvvatlangan, boylikning asosiy manbayi mehnat deb hisoblangan Hindistonda «buyumning qiymati»ni «ish kunlari» bilan belgilab, mahsulotning bozor bahosi bilan uning tabiiy qiymati o‘rtasidagi farq aytilgan, foyda masalasi ko‘tarilib, uning miqdori cheklangan. Davlatning iqtisodga aralashuvi qo‘llab-quvvatlangan.

Xitoydagi iqtisodiy g‘oyalalar ancha rivojlangan bo‘lib, tabiiy huquq nazariyasi ilgari suriladi, ularda mehnat taqsimoti, davlatning roli, xalq boyligi va hukmdorlar mulki o‘rtasidagi bog‘lanish, iqtisod va qonun masalalariga tegib o‘tiladi.

Agar Osiyoda quldorlik ko‘proc patriarxal shaklda bo‘lsa, antik dunyoda u klassik ravishda ro‘y bergen, natural hunarmandchilik, dehqonchilik xo‘jaligi qo‘llangan, ammo bu davr oxirida savdo, sudxo‘rlik ham qo‘llab-quvvatlangan. Pulning asosan almashuv (Ksenofont jamg‘arish) funksiyasi tan olingen. Mahsulot ishlab chiqarishni rag‘batlantirish, boylik jamg‘arish zararli deb hisoblangan. «Ekonomika», «Xrematistika» tushunchalari kiritilgan, ular bir-biriga qarshi qo‘yilgan, qiymat kategoriysi, tovarlarning almashuv tamoyillari (ilk yo‘nalish) keltirilgan, ammo buning mezoni (mehnat miqdori, foydalilik) aniq berilmagan.

Rimda quldorlik yuksaldi, lekin tanazzuiga ham uchray boshladi (Osiyoda feodalizm munosabatlari oldinroq ro‘y bergen). Qulchilikka munosabat o‘zgardi, erkin sohibkorlik ustunligi oydin bo‘lib qoldi, dehqonchilik bilan chorvachilik, yirik savdo va sudxo‘rlik faoliyatini qo‘llandi (Sitseron). Mayda ishlab chiqarishga o‘tish jarayoni, islohotlar (Grakxlar) yo‘li boshlandi.

Katon tomonidan foyda tushunchasi kiritilgan, ammo uni xato ravishda qiymatdan ortiq mahsulot deb bilgan.

Qisqacha xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bu davrdagi iqtisodiy g‘oyalarda natural xo‘jalik (nobozor) konsepsiyalari asosiy hisoblanadi.

Asosiy tushuncha va iboralar

Xammurapi qonunlari, konfutsiylik, boylik taqsimoti, legistlar, daosizm, «Manu qonunlari», «Artxashastra», «buyum qiymati», sudxo‘rlik, «gapirovchi qurollar», «ekonomika», «xrematistika».

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Dastlabki iqtisodiy g'oyalar qachon va qayerda paydo bo'la boshladi?
2. Sharq quldarligining antik dunyo mamlakatlaridagi quldarlik-dan asosiy farqlari nimadan iborat? Shu davrdagi g'oyalar bo'yicha boylikning asosi nima?
3. Xammurapi qonunlari qachon va qaysi davlatda yuzaga keldi, uning asosiy mazmunini ayтиб bering.
4. «Artxashastra» asari qachon yaratilgan va undagi muhim iqtisodiy fikrlar; qiymat, foyda tushunchalariga munosabat.
5. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi masalasi.
6. Qadimgi Xitoydagi iqtisodiy g'oyalar; Konfutsiy, konfutsiyilik, daosizm g'oyalari; tabiiy huquq nazariyasi, iqtisodiyotni odat bo'yicha boshqarish tamoyili.
7. Mamlakat, xalq boyishi uchun qilinishi kerak bo'lgan chora-tadbirlar.
8. Qadimgi Osiyo va antik dunyoda qo'llaniladigan xo'jalik turi. Nega quldarlik tuzumi tabiiy deb baholangan?
9. Qullar to'g'risida «gapiruvchi» iborasining muallifi kim, u nega shunday degan?
10. Pulning almashuv qiymatidan boshqa qanday funksiyasi tan olingan va uning muallifi kim?
11. Qaysi olim mehnat taqsimoti alohida urg'u beradi? Mehnat taqsimoti qaysi omillarga bog'liq?
12. Aflatun jamiyatni qanday guruhlarga ajratadi?
13. Pul va sudxo'rlikka salbiy munosabatning sababi.
14. Arastuning asosiy iqtisodiy fikrlari, «haqiqiy boylik», tovar almashuvi, qiymat kategoriyalariga berilgan tavsif. Ushbu formuladan qay biri va nega ma'qul deb topilgan: T-T, T-P-T, P-T-P, P-P ?
15. Ekonomika va xrematistika nima, ulardagi qarama-qarshilik va umumiylik.
16. Qadimgi Rimdagi g'oyalarning asosiy xususiyatlari.
17. Quldarlar jamiyati yemirilishining bosh sabablari.
18. «Ishlamagan tishlamaydi» iborasi dastlab qayerda uchraydi va uning mohiyati nima?

II b o b. FEODAL JAMIYATI VA FEODALIZMNING YEMIRILISH DAVRIDAGI IQTISODIY TA'LIMOTLAR

Yangi era — milodning III asridan boshlab Osiyoda, milodning V asridan G'arbiy Yevropada quldarlik tuzumi yangi feodal ishlab chiqarish usuli bilan almashdi.

Ammo quldarlik tuzumining qoldiqlari feodalizm va hatto kapitalizm davrida saqlanib qoldi. Masalan, eng rivojlangan AQSHda quldarlik, qullar mehnatidan foydalanish 1861-1865-yillardagi fuqarolik urushidan keyin to'la tugatildi. Markaziy Osiyo, xususan, Turkistondagi qullik davri ham shu davrda, ya'ni o'lka Rossiya tomonidan bosib olingach, qonun yo'li bilan taqilandi. Ayrim tarixiy, iqtisodiy-ijtimoiy sabablarga ko'ra Yevropaning asosiy qismida, jumladan, Rossiyada qulchilik ishlab chiqarish usuli darajasiga yetmadi, feodalizmga o'tildi. Tuzumda yerga xususiy mulkchilik mavjud bo'lib, bevosita ishlab chiqaruvchilar bo'lgan, rasman ozod dehqonlarni ekspluatatsiya qilishga asoslangan. Yer egalari - feodallar yoki davlat dehqonlardan *barshchina* (ishlab berish), *natural* (mahsulot) yoki *pul obrogi* (soliq) sifatida yer rentasini olish imkoniga ega edilar. Shunday qilib, feodalistik jamiyat yirik yer egalari va mayda ishlab chiqaruvchilar - dehqonlarning hamkorligiga asoslangan.

Qulga nisbatan erkin dehqon ishlab chiqarishdan xiyla manfaatdor bo'lgan, o'zining oilasi, ayrim ishlab chiqarish vositalariga, xo'jalik mustaqilligiga ega edi, shu sababli mehnat unumdarligi va ishlab chiqarish kuchlari ancha o'sdi. Feodalizm shu jihatdan avvalgi ibtidoiy jamoa va quldarlikdan tarixan progressiv jamiyat edi. Ammo bu davrda hali ham qoloq texnika mavjud bo'lib, ishlab chiqarish kuchlarining rivoji sekin borgan. G'arbiy Yevropada feodal ishlab chiqarish usuli V asr oxiri (Rim imperiyasining qulashi)dan burjua inqiloblari (XVII-XVIII asrlar), aniqrog'i, sanoat to'ntarilishi davrigacha yashadi. Ko'pgina mamlakatlarda (masalan, O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekistonda) bu davr undan ham uzoq vaqt ni o'z ichiga oladi (III-XX asrlar).

Bu jamiyatda yuzaga kelgan iqtisodiy qarashlar keng qamrovli bo'lib, yerga egalikning qonuniy ekanligini ko'rsatish, tovar-pul munosabatlari

muammolariga munosabatning kuchayishini belgilashga qaratilgan. O'sha davrdagi iqtisodiy g'oyalarda tovar-pul munosabatlari (sudxo'rlikdan tashqari) qo'llab-quvvatlanad, shu bilan birga, feodal jamiyatning tabiiyligi, uni saqlab qolish zarurligi qayd etiladi.

2.1. Arab mamlakatlaridagi dastlabki iqtisodiy g'oyalar. Islom dinidagi iqtisodiy qarashlar. Ibn Xaldun

Sharq mamlakatlarida feodal munosabatlar III-VIII asrlarda shakllana boshladi. Bu yerlarda pul, mehnat munosabatlari biroz yengillashdi. Davlat xususiy egalik va foydalinish uchun yer ajrata boshladi. Xususiy yer egaligining turli shakllari saqlangani holda davlat asosiy va unumdar yerning egasi sifatida, zarur paytda xususiy xo'jaliklarning barcha ishlariga bemalol aralashish, yer solig'ini yig'ish huquqini yo'qotgan emas. Shu sababli Sharqda «davlat feodalizmi»ning turli shakllari saqlandi va iqtisodiy qarashlarda ham o'z aksini topdi.

Ilk feodal munosabatlar va shu davrdagi iqtisodiy g'oyalarning asosi Qur'oni Karimda (arabcha qiroat, ya'ni o'qish) aks etgan (VII-VIII asrlar). VI asrning oxiri-VII asrning boshlarida Arabistonda feodal munosabatlarning shakllanishi tufayli yagona davlat barpo etishga da'vat kuchaydi. Bu harakat so'nggi din - islomda o'z aksini topdi. Islom ta'limoti payg'ambarimiz Muhammad alayhissallomga Alloh taolo tomonidan nozil qilingan *Qur'oni Karimda* mujassamlashgan. Qur'oni Karimdagagi asosiy g'oyalardan biri barcha musulmonlarning qardoshligi bo'lib, halol mehnat, dehqon va hunarmandlar mehnati ulug'landi, barcha boylik shu asosda paydo bo'lishi uqtirildi. Bu muqaddas kitobda yozilishicha, Alloh taolo savdoga katta ahamiyat bergen, sudxo'rlikni, ya'ni *ribo'* (sudxo'rlik foizi)ni harom qilgan, mulkning muqaddasligini, birovning mulkiga xiyonat va hatto hasad qilishni katta gunoh degan. Islomda jamiyatning tengsizligi taqdiri azaldan deb tan olinadi, ammo halollik va to'g'rilikka buyuriladi va yolg'on ishlatish, o'g'rilik va mehnatsiz daromad topish man qilinadi. Qarz olish va berish, merosni taqsimlash (*4-sura, 8-oyat*), yetim-yesirlarga muruvvat, xayr-ehson qilish (*3-sura, 128-oyat*) haqidagi oyati karimalaridan kelib chiqadigan g'oyalar hamda soliq turlari va miqdori ham katta ahamiyat kasb etadi.

Islom huquqshunosligida foya miqdori 10 foiz qilib belgilangan (buni boshqa fikrlar bilan solishtiring).

Sharq iqtisodiy tafakkurining rivojlanishida arab mutafakkiri **Ibn Xaldun Abdurrahmon Abu Zayd** (1332-1406)ning hissasi benihoya katta (*Tunisda tug'ilgan, Fes sultonida hattot-kotib bo'lgan*). Asosiy asari «*Kitob-ul-ibar*» (*«Ibratli misollar kitobi»*-1370)da birinchilardan bo'lib tarixiy ijtimoiy taraqqiyotning moddiy tamoyillarga asoslanishi haqida fikr yuritib, g'arb olimlari Makiavelli, Monteskyega katta ta'sir ko'rsatdi.

Ibn Xaldunning bu asarining «*Kitobi avval*» qismida «inson jamoasining farqli tomonlarini: shohlik hokimiysi, odamlarning daromadlari»ni o'rganish asosiy vazifa qilib qo'yilgan. Olim: «*Insonga xos bo'lgan jihatlarga yashash uchun mablag'*, narsa topishga intilish, bu uchun mehnat qilish zaruriyat ham kiradi», - deb yozadi. Davlatning yashash davr va bosqichlari keltiriladi, u beshga bo'linadi. Mehnat qiliinmasa, «bozor munosabati ham barham topadi».

«Davlatning kuchi va qudrati, aholining soni boylik va farovonlikka bog'liqdir», - deb yozadi olim. Soliqlar zarurligi uqtiriladi, soliqlar yana aholining o'ziga qaytib keladi. «Aholining boylik manbayini bozor va savdo munosabatlari tashkil etadi», deganda olim xuddi bugungi iqtisodiy g'oyani qo'llab-quvvatlaydi. Merkantistik g'oya klassik maktab fikrlari bilan to'ldiriladi. «Savdogar moliga narx qo'yishda barcha sarf-xarajatlarni hisoblab, narx yozadi». Olimning bexosiyat, mevasiz daraxtlar ekishdan chetlanish haqidagi fikri ham qimmatlidir.

Soliqlarni faqat davlat, ayrim hukmdorlar foydasiga yig'ish jamiyat tanazzuliga olib kelishi aytildi.

Ibn Xaldun dastlab birgalikda «ishlab chiqarish» faoliyatiga katta e'tibor berdi, jamiyat moddiy qiymatlar «ishlab chiqaruvchilar» jamoasidan iborat deydi. U «*Odamning kelib chiqishida mehnatning o'rni*»ni ochib berishga harakat qilgan. Hunarmandchilik, fan va san'atning rivoji bevosita «*mehnat unumdligining o'sishi*» bilan bog'liq deydi. «Oddiy» va «murakkab» mehnat farqlangan, mehnat bo'lmasa, buyum ham bo'lmas edi, degan muhim xulosalar chiqariladi. Uning fikrlarida, «*zaruriy*» va «*qo'shimcha mahsulot*», «*zaruriy va qo'shimcha mehnat*» tushunchalari farqlanadi. U «*tovarning iste'mol qiymati*» va «*qiymat*» tushunchalarini ta'rifladi. «*Oldi-sotdi bitimi asosida teng ayirboshlash qoidasiga amal qilinishi kerak, bunda sarflangan mehnatning teng yarmi ayirboshlanadi*», «*agar bu hunarmandchilik mahsuli bo'lsa - unga sarflangan mehnatga teng*», «*daromad qiymati esa sarflangan mehnat ushbu buyumning boshqa buyumlar ichida tutgan*

o‘rnii va uning odamlarga zarurligi bilan belgilanadi». Bunda tovarlarni tenglashtirish mehnatni tenglashtirish shaklida yuzaga chiqadi, ya’ni mehnatning roli va tovarning foydaliligi ham hisobga olinmoqda.

U qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilik bilan birga savdoni hayot uchun tabiiy zarurat deb bilgan va fiziokratlardan ilgarilab ketgan.

Tovar qiymatiga xomashyo qiymati, mehnat vositalari, oraliq tovar ishlab chiqaruvchilar mehnatining qiymati kiradi. U aytadiki, ayrim hunarlar boshqa hunarlarni o‘z ichiga oladi: masalan, duradgor yog‘ochdan ishlangan buyumlarni, to‘quvchi yigirilgan ipni ishlataladi va hokazo, ya’ni ishlab chiqarishning ijtimoiyligi isbotlab beriladi. Tovar-pul munosabatlari tahlil etilgan, narxlar bozorga olib chiqilgan tovarlar massasi (talab-taklif)ga bog‘liqligi aytilgan. Nonga bahosini mo‘tadil ushlab turish farovonlik manbayi ekanligi ko‘rsatiladi. Soliq tizimini tartibga solish kerakligi qayd etiladi; uningcha soliq pasayishi ijtimoiy hayotni yuksaltiradi.

Bundan deyarli 600 yil avval bozor tushunchasiga izoh berilgan. Ibn Xaldunninig fikricha: «Bozor bu – hunarmandchilikni mukammallashtirish va mehnat unumдорligini oshirishning garovidir».

2.2. G‘arbiy Yevropadagi iqtisodiy g‘oyalarga qisqacha xarakteristika

G‘arbiy Yevropada feodalizm jamiyatni uch bosqichni bosib o‘tdi: ilk feodalizm (V-X asrlar), rivojlangan feodalizm (X-XV asrlar) va feodalizmnинг yemirilish davri (XVI-XVIII asrlar).

Dastlabki davrda dehqonchilik xo‘jalikning asosi edi, aholi o‘rtasida keskin tabaqlanish ham mavjud emas edi. Yuzaga kelgan buyuk Frank davlatida ibridoiy jamoa tuzumi yemirilib, feodalizm munosabatlari shakllanishi (quldorlik formasiya shaklida tarkib topmadı - «Sali haqiqati», 481-614) qonunlar to‘plamida aks etgan. Bunda eski jamoa munosabatlari himoya qilinadi (umumiyligining mulkchilik), ammo ayrim xo‘jaliklarning mustaqilligi ham, xususiy mulkchilik ham qo‘llab-quvvatlanadi, sinfiy ajralish asta-sekin namoyon bo‘la boshlaydi. Olimlar feodalizmdan oldingi Frank qishlog‘ining o‘ziga xos bo‘lganligini qayd qilib, erkin Frank dehqoni Rim koloni (qul) bilan yangi krepostnoy o‘rtasidagi figura ekanligini, ya’ni krepostnoylik munosabatlari endigina shakllana boshlaganligini qayd etgan edi. «*Sali haqiqati*» sinfiy differensiatsiyani ko‘rsatdi.

Natural xo'jalik va dehqonlarning krepostnoylik ekspluatatsiyasiga oid dastlabki «*Villalar to'g'risidagi kapitulyari*» pomestyelar to'g'risidagi qonun bo'lib (IX asr boshi), unda feodal yer egaligi va krepostnoylik himoya etiladi. Unda endi jamoa, jamoa mulki to'g'risida gap yo'q. Bu hujjatda votchinaning yagona egasi va votchina aholisining majburiyatlari to'g'risida gapiriladi.

Krepostnoylikning yuzaga kelish masalasi ko'p olimlarni qiziqtiradi. Yega monopoliya egaligi va dehqonlarni majbur qilish apparatining paydo bo'lishi hal qiluvchi rol o'ynagan. Natural xo'jalik yetakchi bo'lsa ham, tovar ishlab chiqarish ham mavjud edi. Shaharlarda hunarmandchilik sexlari, savdo rastalari doimo ishlab turgan. Ishlab chiqarish almashuv va sotish uchun amalga oshirilgan. Sex nizomlarida ishlab chiqarishni uyushtirish, xalfa yollash, o'quvchilar olish tizimlari belgilangan edi. Master-usta bo'lish uchun ancha yuqori mulk senzi qo'yilgan.

Umuman, uy hunarmandchiliga nisbatan sex ancha ustunlikka ega edi, avvalo, keng mehnat taqsimoti bo'lgan (bu ishning tez va sifatli bajarilishiga olib kelgan), raqobat bor edi.

Klassik o'rta asr davridagi iqtisodiy g'oyalar kanonik, ya'ni qonuniy doktrinalar asosida rivoj topdi. Bu sohada cherkov, ruhoniylar katta faoliyat ko'rsatdilar. XII asrning o'rtalarida boloniyalik rohib **Grosian** «**Kanonik huquqlar to'plami**»ni tuzdi, unda bir qancha iqtisodiy g'oyalar ham berilgan. Ular umumiy mulkchilikni ideal deb baholab (e'tibor bering, xususiy mulk emas), xususiy mulkchilik xudo tomonidan odamlarning gunohlari uchun vujudga keltirilgan, degan g'oyani ilgari surdilar. Boylar xayr-sadaqa berishga chaqiriladi. Xudoga ma'qul bo'lgan faoliyatlarga faqat dehqonchilik va hunarmandchilik kiritilib, sudxo'rlik, ayniqsa, foyda olish uchun savdo qoralanadi (Islom dinidagi g'oya bilan solishtiring).

Kanonistlarning bosh iqtisodiy g'oyasi asosida xudo tomonidan belgilangan «adolatli baho» to'g'risidagi ta'limot yotadi.

Italiyalik rohib **Foma Akvinskiy** (1225-1274) ta'limotida iqtisodiy g'oyalar ma'lum tartibga solingan. U o'zining asarlarida qullik va krepostnoylikni oqlaydi, bunda u Aristotel va muqaddas kitoblarga asoslanadi. U xudoni barcha boyliklar egasi deb e'lon qiladi, lekin xususiy mulkchilik ham himoya qilinadi, chunki bunda insonning o'z toifasi, tabaqasiga mos ravishda yashashiga imkoniyat yaratiladi. Davr taqozosiga mos (natural xo'jalik hukmron) ravishda davlat o'z-o'zini

ta'minlash g'oyasini qo'llaydi, natura shaklidagi boylikka asosiy e'tiborni qaratadi, oltin va kumushlarni sun'iy boylik deb biladi. Mehnatsiz yaratilgan boylik (savdo, sudxo'rlik) harom deb hisoblangan.

Asosiy va xudo tomonidan belgilangan bu narsa «adolatli baho» masalasi edi. Kanonistlar amalda bahoni mehnat sarflarining yig'in-disidan iborat deb tan olganlar. Agar proporsional tenglik saqlanmasa, jamiyat yemirilishi mumkin, degan to'g'ri qisqacha xulosalar chiqariladi. Savdo foydasi va foiz olish «adolatli baho» bo'yicha almashuvni buzadi, shu sababdan yirik savdo va sudxo'rlikni taqiqlash talab etiladi. Foma Akvinskiy «adolatli baho» masalasini foydalar, to'g'rirog'i naf, manfaatlar tengligi asosida hal etdi va uni subyektiv vaqt deb baholadi. U aytadiki, agar narsa biror odam foydasiga, lekin boshqa odam ziyoni hisobiga o'tsa, bu holda buyumni o'zining haqiqiy bahosidan yuqoriroq sotish huquqi paydo bo'ladi. Shu bilan birga, bu buyum baribir haqiqiy egasidaligidan qimmatroq sotilmaydi, chunki qo'shimcha baho, shu buyumdan holi bo'lgan ziyonni qoplaydi. F.Akvinskiy yuqori tabaqa aholisini mehnatkashlar manfaatini himoya qiluvchilar qilib ko'rsatadi. Shu sababli bu tabaqaga buyumlarni o'z haqiqiy bahosidan qimmatroq sotishga ruxsat beradi. Protsent (foiz)ni tavakkalchilik to'lovi yoki qarz oluvchiga beriladigan «*beg' araz sovg'a*» deb tushuntiradi. U rentaning ekspluatatorlik mohiyatini bo'yab ko'rsatadi va renta yer egasiga o'z qo'l ostidagilarni boshqarishdagi mehnati uchun to'lanadigan haq deb baholaydi. Bu bilan cherkov (yeri bor) va feodallarning manfaatlarini himoya qiladi.

Bunday iqtisodiy g'oyalar Fransiyada (*Nikola Orem*), Angliyada (*Djon Boll*) ham vujudga keldi. Angliyada Uat Tayler (1381), Germaniyada Tomas Myunser (1524-1525) rahbarligida dehqonlar qo'zg'oloni bo'lgan, ular krepostnoylikni, boshqa majburiyatlarni bekor qilishni talab etganlar.

Ma'lumki, XII-XIV asrlarda Rossiyada feodal tarqoqlik ro'y berdi (13 ga yaqin alohida knyazlik). Bu davrda cherkov yer egaligi atrofida diniy shaklda kurash bordi. XVI asrdan boshlab ijtimoiy-siyosiy kurash ommaviy tus oldi. O'shanday publitsislardan biri Yermolay edi. U rohibligida Erazm nomini olgan. **Yermolay-Erazm** o'z asarlarida dvoryanlikni himoya qildi va yirik savdo hamda sudxo'rlikka qarshi chiqdi. U boyarlarni boshqalar hisobiga doim bayramdagidek hayotini tanqid qildi, yerni esa faqat davlatga xizmat qilayotgan (ya'ni dvoryan)

odamlarga berish kerak, degan to‘g‘ri g‘oyani ilgari surdi (boyarlar markazlashgan davlatga bo‘ysunishni istamagan va votchina egasi, tarqoqlikning asosiy sababchisi edilar). Haqiqatda ham **Ivan Grozniy**, hatto **Pyotr I** davrida ham votchinani (ya’ni boyarlarni) yo‘q qilish uchun kurash bordi, oxir-oqibatda dvoryanlik va pomeshchiklik yutib chiqdi va Rossiya yagona davlatga aylandi.

Ermolay Erazmning iqtisodiy qarashlarida dehqon mehnati boylik manbayi degan qoida yotadi. Shu sababli u davlatda dehqonlar toifasini birinchi o‘ringa qo‘yadi va ularning iqtisodiy ahvolini yaxshilash zarur deb hisoblaydi. Ammo u dehqonlar ekspluatatsiyasining asosi pul majburiyatlarida deb bilgan, shu sababli bu majburiyatlar natural renta holida bo‘lishi va hosilning beshdan bir qismi (20 foizi) bilan cheklash, yom (pochta) majburiyatlarini esa savdogarlar zimmasiga yuklashni taklif etdi. U mehnat unumдорligini oshirish to‘g‘risida qayg‘ursa-da, tovar munosabatlari rivojiga qarshi bo‘lgan, ya’ni o‘zi o‘ziga qarshi edi, chunki u erkin boy savdogarlar savdosi tarafdoi edi. E.Erazm natural majburiyatlarni cheklash sinfiy kurashga chek qo‘yadi, degan noto‘g‘ri fikrda bo‘lgan.

XVI asrning o‘rtalarida yaratilgan «Domostroy» asarida shaharlik-larning faoliyatiga oid qonun-qoidalalar majmuasi berilgan. Unda hokimiyat va cherkov, oila, xizmatkorlarga munosabat qoidalari keltiriladi.

Rossiyada XVII-XVIII asrning boshlarida yirik o‘zgarishlar ro‘y berdi, kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari paydo bo‘la boshladи. G‘arbiy Yevropadagi merkantilistlardan (quyida ko‘riladi) farqli ravishda rus iqtisodchilari muomala sohasiga kam e’tibor qiladilar, «pul - boylik» degan fikrga qo‘silmadilar. Ular mamlakat ichida tovar almashuvini kuchaytirish tarafdoi edilar, tashqi savdoni esa, asosan, sanoat va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish quroli deb qaraganlar. Bu g‘oyalar **A.A. Ordin-Nashchokin** (taxm. 1605-1680), **Yu.Krijanich** (1617-1683), **I.T. Pososhkov** (1652-1726) asarlarida bayon etilgan.

2.3. O‘rta asr utopiyalari

Kapitalistik munosabatlarning shakllanish davrini manufaktura ishlab chiqarishi va dastlabki kapital jamg‘arilishi bilan bog‘lash mumkin. Bu davr XIV-XV asrlarni o‘z ichiga oladi, ya’ni yer egaligi susayishi bilan bog‘liq.

Eski feodal munosabatlar yemirilib, yangi burjua-kapitalistik munosabatlar tug'ila boshladi. Lekin dehqonlarning o'z yerlaridan siqib chiqarilishi, mustamlakachilik, iqtisodiy ekspansiya, urushlar oddiy xalqqa katta ofat keltirdi. Oqibatda kapitalizmning shakllanishi bilan uni tanqid qilish ham boshlanadi, buni ilk sotsial-utopistlar **Tomas Mor** (1478-1535) va **Tommazo Kampanella** (1568-1639) amalga oshirdi.

Ideal jamiyat to'g'risidagi avvalgi g'oyalar dastlabki sotsialistik konsepsiylar bilan davom ettiriladi.

T. Mor «**Utopiya**» (lot. yo'q joy) (1516) asarida Angliyada dastlabki kapitalning jamg'arilishi jarayonida dehqonlarning ommaviy qashshoqlanishi jarayonini aks ettirgan. T.Mor gumanist, davlat arbobi va yozuvchi bo'lgan (1529-32-yillarda Angliya kansleri). U Uyg'onish davrining atoqli arbobi **Erazm Rotterdamskiyning** do'sti, katolik edi. Qirolni ingлиз cherkovining Oliy boshlig'i deb qasamyod qilmaganligi uchun T.Mor davlat xoini sifatida qatl etilgan. Katolik cherkovi tomonidan muqaddas dashtirilgan (1535). U «**qo'yilar odamlarni yeb qo'ydi**» iborasi ning muallifidir. Shu davrda dehqonlarni cheklash, ya'ni yerdan siqib chiqarish siyosati amalga oshirildi. Bu jarayon manufakturna, keyinroq esa fabrika rivoji bilan bog'liq edi. Mato to'qish, jun, ayniqsa qo'y juniga bo'lgan ehtiyoj oshdi. Dastlab botqoq, chakalakzor yerlar o'rabi olindi va qo'y boqish uchun yaylovga aylantirildi, keyinchalik dehqonchilik qilinayotgan yerlar ham tortib olinib, dehqonlar - yomenlar sinf sifatida tugatildi. Bu o'ziga xos agrar inqilob - sanoat to'ntarilishi uchun sabab bo'ldi, lekin millionlab aholi qashshoqlikka mahkum etildi. Shu voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rgan T.Mor qayerda xususiy mulk hukmron bo'lsa, asosiy boylik bir hovuch odamlar qo'liga to'planadi, degan xulosaga keldi.

T.Kampanella Neapol (Italiya) mehnatkashlarining qashshoqligini ko'rgan. U o'zining «**Oftob shahri**» (1602-yilda yozilgan, 1623-yilda chop etilgan) kitobida zolimlarning shohona hayotini tanqid qiladi, u ham T.Mor kabi, bu tengsizlikning asosiy sababi xususiy mulkchilik, deydi. U kelajak jamiyat to'g'risidagi o'z tasavvurini ham beradi, ular T.Morga o'xhash: ijtimoiy mulkchilik mavjud, hammaning mehnat qilishi zarur, mashina mehnati tufayli ish kunlari cheklangan (4 soat), aqliy mehnat jismoniy mehnat bilan almashtirib turiladi, bunda hunarmandchilik, chorvachilik va dehqonchilik bilan nisbatan tekis shug'ullanish shart qilib qo'yiladi, tekis, pulsiz taqsimot amalga oshiriladi. U faylasuf, shoir, siyosiy arbob bo'lgan, keyinchalik esa (1582) rohib

bo'lgan. Ispaniya bosqinchilariga qarshi isyon uyuştirgani uchun qamoqqa olingan, 27 yil qamoqda yotib, falsafa, falakiyot, siyosat, tibbiyotga oid o'nlab asarlar yozgan. Uning «Oftob shahri» asari dengizchining hikoyasi shaklida berilgan. Yangi jamiyatda olim kohinlar tabaqasi tomonidan boshqariluvchi ideal jamoa bo'ladi, xususiy mulk va oila bo'lmaydi, bolalar davlat tomonidan tarbiyalanadi, fan va maorif taraqqiy etadi (Galileyni himoya qilgan) degan.

Faylasuflarning bergan bahosiga ko'ra, bu olimlarning jamiyatini «xomaki ishlangan» «qo'pol kommunizm»dir. Ular asosan, hunarmandchilik va dehqonchilikka asoslangan tenglashtirish xususiyatiga ega. Ammo shunisiga e'tibor beringki, bu kishilar har jihatdan ta'minlangan, bilimli davlat arbobi bo'lganlar, kommunistik jamiyat g'oyasi K.Marks va F.Engelsarninggina g'oyasi emasligini ham eslatib o'tish zarur. Xayoliy sotsializm to'g'risidagi dastlabki g'oyalar Osiyoda **Abu Nasr ibn Muhammad Forobi** (870-950, 2- muallim), Germaniyada **Tomas Myunser** (1420-1525)lar tomonidan ham ilgari surilgan. Injil va Qur'oni Karimda ham uning elementlari bor. Markaziy Osiyodagi **sarbadorlar** (boshini dorga tikkanlar) davlati ham shu tamoyillarga asoslangan (Samarqandda Abu Bakr Kalaviy, Mavlonozoda, Xurdaki Buxoriy va boshqalar).

Keyinchalik Abdurahmon Jomiy va A.Navoiy, Xurdaki Buxoriy asarlarida ham bunday g'oyalar bo'lgan.

Qisqacha xulosalar

Feodal yer egaligi davrida natural xo'jalik, ayniqsa, qishloq xo'jaligi jamiyatda asosiy o'rinn tutgan edi. Shu bilan birga, bu paytda shaharlar soni o'sdi, tovar-pul munosabatlari ham ancha rivojlandi, nisbatan erkin va samarali ishlab chiqarish usuli bo'lgan krepostnoylikka o'tildi. Avvalgi davrdagi natural xo'jalik ishlab chiqarishi (T-T) asta-sekin T-P-T munosabatlari bilan almasha bordi (agrар yo'nalish hal qiluvchi), iste'mol qiymatlarini yaratish baribir asosiy maqsad bo'lgan va shu g'oya himoya etilgan, mehnat qurollari takomillashmagan davrda bu tabiiy bir hol edi.

Feodal munosabatlardan Sharqda nisbatan erta tarkib topdi va uzoqroq davom etdi.

Bu davr uchun Ibn Xaldunning iqtisodiy g'oyalari nihoyatda muhimdir, u o'z asarlarida ijtimoiy ishlab chiqarish, mehnat unum-dorligi, oddiy va murakkab mehnat, zaruriy va qo'shimcha mahsulot, tovarning iste'mol qiymati va umuman, qiymatning farqini ta'riflab berdi, ayrboshlash tamoyilini (sarflangan mehnatning yarmi) to'g'ri talqin etdi, sarflangan mehnat bilan birga shu tovarning odamlarga zarurligi ham muhimligini ta'kidladi.

G'arbiy Yevropadagi feodal munosabatlar nisbatan kech tarkib topgan bo'lsa ham, uning rivoji tezroq bo'ldi. Dehqonchilik, umuman, qishloq xo'jaligi ustun bo'lishiga qaramay, hunarmandchilikda sex tizimi, keyinroq manufakturna vujudga keldi, mehnat taqsimoti, unumdorlik va sifat masalalari (ayniqsa sexlarda), raqobat tamoyillari tarkib topdi.

Rossiyada shu davrdagi iqtisodiy g'oyalarda ham dehqon mehnati boylikning asosi ekanligi ko'rsatiladi, natural renta miqdori 2 foiz belgilanadi, tovar-pul munosabatlariga, ayniqsa, savdoga qarshi g'oyalarni ko'p edi.

XIV-XV asrlarda G'arbiy Yevropada feodalizmning yemirilishi va ilk kapitalistik munosabatlar shakllana boshladi. Bu jarayon kapitalning dastlabki jamg'arilishi jarayoni bilan bog'liq bo'ldi va ko'p hollarda og'ir shaklda amalgam oshdi. Ayniqsa, dehqonlarni yerdan mahrum etish og'ir oqibatlarga, ularning katta qismini xonavayron bo'lishiga olib keldi. Yangi munosabatlar yangi sinfnинг - burjuazianing manfaatiga mos edi, ammo bu jarayon boshqalar hisobiga ro'y berdi.

Asosiy tushuncha va iboralar

Islom, ribo', Ibn Xaldun, «Kitob-ul-ibar», «Русская правда», «Домострой», «beg'araz sovg'a», «Utopiya», «Oftob shahri», ilk xayoliy sotsializm, «qo'ylar odamlarni yeb qo'ydi».

Nazorat va mulohaza uchun savollar

1. Feodal yer egaligi davri qachon boshlangan va uning rivojlanish bosqichlari qaysi? Bu davrda bosh iqtisodiy g'oya nimadan iborat bo'lgan?

2. Islom dinida qanday iqtisodiy g'oyalarni qo'llab-quvvatlangan va qaysilari inkor etiladi, nega? Ribo' nima?

3. Islom aqidalari bo'yicha savdo foydasining eng yuqori foizi qancha?
4. Ibn Xoldunning bosh iqtisodiy asari qaysi va u qachon yozilgan? Asardagi asosiy iqtisodiy g'oyalarni ta'riflab bering.
5. G'arbiy Yevropada feodalizm davridagi iqtisodiy g'oyalarning asosiy yo'nalishlarini aytib bering.
6. Foma Akvinskiyning iqtisodiy ta'limotida qaysi masalalarga asosiy e'tibor berilgan?
7. Rossiyadagi shu davrdagi iqtisodiy g'oyalarning asosini nima tashkil etadi?
8. Xayoliy (utopik) sotsializmning asoschilari kim? Xususiy mulk va pulga bo'lган munosabat hamda yangi jamiyatning asosiy aqidalari qanday?
9. «Qo'ylar odamni yeb qo'ydi» iborasining mazmuni nima, bu ibora qachon va kim tomonidan aytilgan?

III b o b. O'RTA OSIYODAGI DASTLABKI VA TEMURIYLAR DAVRIGACHA BO'LGAN IQTISODIY G'OVALAR

3.1. «Buyuk ipak yo'li»ning Markaziy Osiyoda iqtisodiy munosabatlar rivojlanishidagi o'rni

Xitoyning Tinch okeani bilan Hindiston, Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq, Yevropa davlatlarini bog'lovchi qadimgi savdo yo'li — Buyuk ipak yo'lidir. Bu yo'l orqali asosan, ipak eksport qilinganligi sababli «ipak yo'li» nomi bilan shuhrat qozongan. Bu yo'l m.av. II asrdan to milodiy XV asrgacha, suv yo'llari rivojlanguncha Xitoy, Hindiston, Markaziy Osiyo, Eron, Yaqin Sharq hamda O'rtta Yer dengizi mamlakatlari o'tasidagi savdo-sotiq va madaniy aloqalarning rivojida muhim rol o'yangan.

Manbalarga qaraganda, Sariq dengiz qirg'oqlaridan Xuanxe daryosidagi Sian shahridan boshlangan dastlabki yo'l Lanchjou orqali Dunxuanga kelgan (Xutan), u yerda ikkiga ajralib, biri shimoli-g'arbga ikkinchisi janubi-sharqqa yo'nalgan. Karvon yo'lining umumiy uzunligi 12 ming chaqirim atrofida bo'lган. Nemis muarixi K.Rixtgofen 1887-yil ushbu yo'nalishga ilk bor «Buyuk ipakyo'li» degan nisbat beradi va bu ibora muomalaga kiritiladi.

Shimoliy yo'l Turfon orqali Tarim vohasiga va bu yerdan Qashg'ar, Dovon (Farg'ona vodiysi)ga borgan. U yerdan So'g'dning markazi Samarqand va Marg'iyona (Marv)ga yo'nalgan. Ipak yo'li Farg'ona vodiysisida yana juft tarmoqqa bo'lingan. Janubiy qismi O'zgandan O'sh, Quva, Marg'ilon, Qo'qon orqali Xo'jand, Samarqand, Buxoro sari uzaygan. Keyingisi Aksi (Andijon) va Qamchiq dovonidan o'tib, Iloq vohasi hamda Toshkent tarafga engan. Demak, Qamchiq tarixiy yo'lining uzviy bo'lagi hisoblangan. Bu yo'l mohiyat-e'tibori bilan Sharq va G'arbni turli jabhalarda bog'lovchi yo'ldir (savdo-sotiq, diplomatiya, madaniyat va boshqalar).

Shu karvon yo'l orqali Xitoydan ipak, Xitoya esa har xil gazlamar, gilam va poloslar, oyna, metall, zeb-ziynat buyumlari, qimmat-baho tosh va dorivorlar keltirilgan. Baqtriya va Dovon (Farg'ona)dan ot va tuyalar olib borilgan. XV-XVI asrlardan bu yo'lining ahamiyati

ancha pasaydi, ammo Markaziy Osiyo respublikalarining siyosiy mustaqillikka erishuvi tufayli, bu yo'lni yanada jonlantirishga katta ehtiyoj tug'ilди. Xitoy, Qirg'iziston, O'zbekiston, Turkmaniston, Kaspiy dengizi orqali Ozarbayjon, Gruziya, Qora dengizga chiquvchi undan Yevropa (Parij, Rotterdam)ga yetkazuvchi yo'l loyihasi ishlab chiqildi va amalga oshirilmoqda.

O'rta Osiyoning Buyuk ipak yo'li o'mni va eksport potensialiga e'tiborni qaratساك، Markaziy Osiyoga, xususan, hozirgi O'zbekiston hududiga qiziqish avvaldan ma'lum va bu har tomonlama (siyosiy, iqtisodiy jihatdan) ahamiyatli bo'lган. Tarixiy va hozirgi ma'lumotlarga ko'ra, bu hudud, yer, suv, iqlim, tabiat, geografik o'mni, qazilma boyliklari, hayvonot dunyosi jihatidan ajralib turgan. Aholining mehnatsevarligi, mirishkorligi, buniyodkorligi, kasb-hunarga mehr qo'yanligi va ijodkorligi muhim ahamiyatga ega.

Markaziy Osiyo donishmandlarining kitoblari, diniy va ilmiy asarlar hammani qiziqtirgan. Kitob yozish (hattotlar), miniatura san'ati yuqori darajada bo'lган. Shu sababli kitob savdo-sotig'i yetakchi o'rinni egallagan.

Mamlakatimizda dunyodagi eng yaxshi ot zotlari bo'lganligi ma'lum. Otlar xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida, harbiy xizmatda, transport vositasi sifatida, uloq chopish, chovgan o'ynash, kabilarga nihoyatda qadrlangan va otlar eksportda yetakchi o'rinni egallagan.

Qishloq xo'jaligida paxta yetishtirish va ipdan olinadigan mahsulot asosiy o'rinda turgan. Polizchilik (ayniqsa, qovunchilik), bog'dorchilik (uzum) yaxshi rivojlangan. Agar bizga ipak yetishtirish Xitoydan kirib kelgan bo'lsa, xitoyliklar bizdan zotli otlar sotib olgan, uzum va beda yetishtirishni o'rganishgan.

Vatanimiz hududida qorako'l teri beradigan qo'ylar parvarishi muhimdir. Ularning terisi bilan savdo qilish muhim ahamiyat kasb etgan.

3.2. Markaziy Osiyo donishmandlari asarlarida islom ta'limotidagi iqtisodiy g'oyalar

Iqtisodiy munosabatlarning huquqiy asoslari islom ta'limotidagi fikhning tarkibiy qismini tashkil etadi. Vatandoshimiz Marg'inoniyning «Hidoya» asari shular jumlasidandir. Al-Marg'iloniy 1123-yil 23-sentabrda tug'ilgan. Qur'oni, Hadis ilmlarini mukammal egallab, fikh - islom huquqshunosligi borasida benihoya chuqur bilimga ega bo'lganligi va bu sohada beqiyos durdonalar yaratganligi tufayli, Burhoniddin

valmilla (Islom dinining dalili) va Burhoniddin al-Marg‘inoniy nomlari bilan mashhurdir. Olim dastlabki ta’limni Marg‘ilonda olib, keyinchalik Samarqandga ko‘chib borgan va umrining ohirigacha o‘sha yerda yashagan. Bizgacha uning o‘nga yaqin asari yetib kelgan. «Al-Hidoya» asari esa 1178-yili Samarqandda yozilgan. Bu asar Hanafiya mazhabining fikh masalalari bo‘yicha asosiy qo‘llanmaga aylangan. Keyinchalik esa butun musulmon olamiga mashhur bo‘lib, musulmon huquqi — fikh bo‘yicha eng aniq izchil mukammal asar sifatida tan olingan. «Al-Hidoya»ning birinchi kitobi to‘rt jilddan iborat bo‘lib, har biri alohida muammolarni tahlil etadi. Bu kitob 1994-yilda professor A.X. Saidovning izohi bilan nashr etilgan. Kitobning 3-jıldida oldi-sotdi, pul muammolari, kafolat, qozilarning vazifalari, guvohlik, berilgan guvohlikdan qaytish, vakolat, da’vo, iqror bo‘lish, sulh, bir ishda pul bilan sherik bo‘lish, pulni saqlashga berish, qarz berish, sovg‘a, ijara, muayyan shart asosida cheklangan ozodlik berilgan qullar, valiylik, majbur qilish, homiylik, bosqinchilik hususidagi masalalar yoritilgan.

3.3. Xalq og‘zaki ijodidagi iqtisodiy qarashlar

O‘zbek xalqi iqtisodiy tafakkurining rivojlanishining muhim manbalardan biri xalq og‘zaki ijodi namunalari hisoblanadi. Bu namunalar jumlasiga dostonlar, xalq maqollari va qo‘shiqlar kiradi. Tarixiy merosimizning noyob yodgorliklaridan biri Alpomish dostonidir. Bu doston shakllanganiga ming yildan ortiqroq bo‘lganligini dalillar tasdiqlamoqda. Shuning uchun ham, Alpomish dostonining ming yilligi Respublikamizda 2000-yilda keng nishonlandi. Asarning badiiy ahamiyatidan tashqari, undagi iqtisodiy qarashlar ham muhim o‘rin tutadi. Alpomish dostonidagi iqtisodiy munosabatlар tarkibini quyidagicha guruhash mumkin:

1. Islom ta’limoti asosidagi iqtisodiy munosabatlari. Bu munosabatlarni negizini zakot va juzya to‘lovlar bilan bog‘liq masalalar tashkil etadi. Ya’ni Qo‘ng‘irot elida hukmronlik qilgan Alpomishning otasi Boybo‘ri bilan uning akasi Boysaribiyning zakot to‘lovi bo‘yicha nizolardir.

2. Mehnat taqsimotining rivojlanganlik darajasi. Dostondan ko‘rinadiki, o‘sha davrga kelib chorvachilik tarmog‘i Qo‘ng‘irot elining ixtisoslashuvining ko‘rsatkichidir.

3. Tovar-pul va moliya tizimi munosabatlari. Dostonda keltirilishicha, qo‘ng‘irotliliklarning tovar-pul munosabatlarda natura to‘lovlar

ustuvorligi namoyon bo'ladi. Qalmiqlar davlatida esa daromad va xarajatlarni tartibga solish muhrdor lavozimi orqali yuritiladi. Muhrdor daromad va xarajatlar bo'yicha hisob-kitoblar qilishda oqsoqollar tomonidan yig'ib, topshiriladigan soliq va yig'imlarga tayanadi. Bu mamlakatda 500 ta oqsoqollik lavozimi joriy etilgan. Ularning maoshi to'plangan soliqlardan bir qismini tashkil etadi. Sipohiyalar uchun esa 500 pul birligi miqdorida maosh tayinlangan. Muomalada ishlataladigan pul birliklari qo'shni mamlakatlarda zarb qilingan oltin va kumushlar ekanligi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

3.4. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy va Yusuf Xos Hojib asarlaridagi iqtisodiy g'oyalarning mohiyati

X-XII asrlarga kelib O'rta Osiyo ilg'or ijtimoiy tafakkurning Sharqdagi yirik markazlaridan biriga aylandi. Bu davrda O'rta Osiyo Yevropani Osiyo bilan bog'lovchi yirik moddiy, madaniy va savdo markaziga aylandi. Bu jarayonlar bir-biridan minglab chaqirim uzoqlikdagi davlatlar, xalqlar o'rtaсидаги iqtisodiy munosabatlarni shakllantirdi.

Bu davrda butun dunyoga tanilgan Al-Farg'oniy, Al-Xorazmiy, **Forobiy**, **Beruniy**, **Ibn Sino**, **Yusuf Xos Hojib**, Nizom-ul-mulk va boshqa ko'plab mutafakkirlar yashab, ijod qilishdi. Ularning asarlarida iqtisodiy g'oyalari ham o'z aksini topgan. Sharq renessansi davridagi olimlar shu davrdagi tijorat, mulkdorlik hunari sirlarini bayon etganlar.

Forobiy O'rta asr davri tabiiy-ilmiy va ijtimoiy bilimlarning qariyb barcha sohalarini o'z ichiga oluvchi 160 dan ortiq risola yaratgan qomusiy olim sifatida tan olinadi. Uning Sharq olamidagi shuhrati shu darajaga etdiki, uni Aristotel (Arastu)dan keyingi yirik mutafakkir - «Muallim – us-soniy» – «Ikkinchchi muallim» deb atay boshladilar.

Olimning «Fozil odamlar shahri» asarida mamlakatni boshqarish, hokimlar faoliyati, iqtisodiyotni olib borish bilan bog'liq bo'lgan muhim g'oyalari keltiriladi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, Forobiy o'z ustoz Arastu g'oyalarini har tomonlama talqin etadi va uni to'ldirishga harakat qiladi. Jamiyat shakllanishi uchun moddiy ehtiyojlarning ahamiyati haqida ta'limot yarattdi, iqtisodiyot fanida muhim bo'lgan «Ehtiyoj»ni ta'riflab berdi. U moddiy boyliklar yaratishda mehnatning va mehnat qurollari o'mini aniqlab berdi. Ayniqsa, «mehnat taqsimoti» masalalari mutafakkir asarlarida yaxshi yoritib berilgan.

Forobiyning fozil (ideal) davlat, hokimlar to'g'risidagi g'oyalari nihoyatda ahamiyatlidir. Masalan, shahar tartibotida eng asosiy narsa

mulk, noz-ne'matlarni to'g'ri taqsimlash ekanligi qayd etilgan. Arastu g'oyalari rivojlantirilib, avvalo, yer va joylarning miqdori, keyin ularning egalari va tutgan o'rinnari, so'ngra nihoyatda zarur hisoblanuvchi oziq-ovqat, ekin ekiladigan yerlar, saroy va shaxsiy uylarning miqdori hisobga olinishi kerakligi ko'rsatiladi.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) tomonidan nihoyatda katta ilmiy meros qoldirilgan, u yozgan asarlarning soni 280 dan ortiq. Shulardan 40 dan ortig'i tibbiyatga oid, 30 ga yaqin risola turli tabiiy fanlarga, 3 risola musiqaga, 185 risola falsafaga, mantiq, psixologiya, teologiya, ahloq, boshqa ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag'ishlangan. Lekin bizgacha uning faqat 160 ga yaqin asari yetib kelgan. Olimni hurmatlab, «Shayx ur-rais» deb ataganlar.

Olimning tibbiyatga oid asarlarida iqtisodiyot bilan bog'liq muhim g'oyalalar ilgari suriladi. Inson sog'lig'ining ichki va tashqi muhitga bevosita bog'liqligi, ayniqsa, ovqatlanish, turmush sharoiti katta ahamiyat kasb etishi ko'rsatiladi. Iqtisodiyot fanida muhim bo'lgan kategoriya «ehtiyoj»ni ta'riflab, moddiy boyliklar yaratishda mehnatning va mehnat qurolarinining o'rmini aniqlab beradi. Uning asarlarida «mehnat taqsimoti»ga katta e'tibor qaratiladi, taqsimot tufayli unumдорлик oshuvi va mahsulot sifati yaxshilanishi isbotlab berilgan. G'arbiy Yevropada faqat 1776-yilda Adam Smit bu masalaga alohida diqqatni jalb etadi.

Ibn Sinoning fikricha: «Hayvon tabiat ne'matlariiga qanoat qiladi, odamlarga esa tabiat ne'matlari kamlik qiladi, u ovqat, kiyim-kechak va uy-joyga ehtiyoj sezadi. Hayvon tabiat ne'matlarini o'zlashtirib oladi, odam esa o'z mehnati bilan o'ziga ovqat, kiyim, turarjoy yaratadi. Shu maqsadda inson dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanishi kerak».

Iqtisodiyot rivojanishining obyektiv qonun-qoidalariga amal qilib, inson o'z baxtini o'zi yarata oladi. Yaxshi xulq va iqtisodiyot o'rtasida bevosita bog'liqlik borligini «Uy-joy tutish taddbiri» asarida ko'rsatib beradi.

Buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy (973-1048) 150 dan ortiq asar yaratgan bo'lib, ularda mehnat boylikning asosi ekanligi to'g'risidagi g'oya ilgari surilgan. Uning ko'pgina fikr va qarashlari bugungi kun uchun ham ahamiyatini yo'qotmagan.

Beruniyning kishilik ehtiyojlarining paydo bo'lishi va uni qondirish asoslari, mehnat va hunarga munosabatlар uyg'unlashib ketadi. Uning fikriga ko'ra, kishilar o'z zaruriy ehtiyojlarini qondirish uchun uyushgan holda yashash va ishlashga majburdirlar. Ehtiyojlar turli-

tuman va ko'p bo'lganligi uchun insonlar birlashgan holda turarjoy va shaharlar yaratishga intiladilar, deb hisoblaydi. Shuningdek, u davlatning paydo bo'lishini ham ehtiyoj tufayli deb bilgan. Eng muhim g'oya shuki, barcha qimmatli narsalar inson mehnati bilan yaratiladi va insonning qadr-qimmati uning avlod-ajdodlarining kim bo'lganligi emas, balki uning mehnati, aqliy va jismoniy mahorati bilan belgilanadi. «Har bir davrning urf-odatlari o'ziga xos bo'ladi va inson ahli ularga roya qil-mog'i darkordir, aks holda nizom va bir xillik yo'qolsa, tartib ham yo'q bo'ladi», - deb uqtiradi buyuk donishmand.

Beruniy og'ir jismoniy mehnat qiluvchilar, ya'ni konda ishlovchilar, yer ostida gavhar qidiruvchilar, dehqonlar to'g'risida, ularga berilishi kerak bo'lgan imtiyozlar va ish haqi haqida «Minerologiya» asarida keng muloaza yuritadi. Ayniqsa, ochiq va yer ostidagi kon ishlariga alohida e'tibor beriladi, yerosti konlarini mustahkamlash (falokatning oldini olish uchun), yerosti suvlarini chiqarib tashlash, olingan rudani yuqoriga olib chiqish uchun maxsus moslamalardan foydalanish tavsiya etiladi. Kon atrofida konchilar qishlog'ini barpo etish zarurligi ko'rsatiladi.

Yerosti boyliklarini qazib olish ishlari katta jismoniy mehnat, ixtirochilik, aqliy mehnat va bilim sarflashni talab etadi.

Yusuf Xos Hojib. Atoqli davlat arbobi, ilk turkiy dostonnavis Yusuf Xos Hojib 1020-yili Qoraxoniylarning markaziy shaharlaridan biri Bolasog'unda tug'ildi(olamdan o'tgan yili noma'lum). Bo'lajak mutafakkir o'z davridagi barcha bilimlarni, arab va forsiy tillar hamda undagi adabiyotlarni puxta o'rghanadi.

U 1069-1070-yillar orasida «Qutadg'u bilig»(Qutga, ya'ni baxtsaodatga erishtiruvchi bilim) asarini turk tilida yozib, Qoraxoniylar hukmdori Tabg'achxon Bug'roxonga taqdim etadi. Xon Yusufga «Xos Hojib» (eshik og'asi) degan martaba in'om etadi. Bu falsafiy didaktik asarda markazlashgan davlat tuzish, uni mustahkamlash, nizo va adolatga barham berish kabi ma'muriy-xo'jalik hamda ma'rifat, obodonchilik, moddiy-ma'naviy va boshqa adolatli hukmron, davlatni tadbir bilan boshqarish ishini o'rGANISH, kasb-hunar egallash, xalq g'amini yeyish haqidagi fikrlar ilgari suriladi. Bizgacha donishmandning faqat bir asari yetib kelgan. Asar 13 ming misra (nasriy va nazmiy muqaddimadan tashqari)-73 bobdan iborat. Unda inson tafsakkurining barcha jabhalari bo'yicha so'z yuritiladi va nihoyatda qimmatli fikrlar bayon etilgan. Kitobda berilgan bu g'oyalar o'z davri uchun ham, hozirgi davr uchun ham nihoyatda qadrlidir. Ayniqsa, iqtisodiyot masalalari bo'yicha davlat va

raiyat munosabatlari sinchiklab o'rganilgan. Asar 18 oy- bir yarim yilda yozib tugallangan (Bolasog'unda boshlangan va Qashqarda nihoyalangan) bo'lsa ham, uni yaratish uchun juda uzoq vaqt tay-yorgarlik ko'rilgan.

Xalq, raiyat (soliq to'lovchilar) mamlakat hukmdoridan uch narsani kutadi, deb uqtiradi Yusuf Xos Hojib, bular: 1) pulning qadrini ko'tarish yoki ushlab turish; 2) xalqqa xususiy mulk huquqini ta'minlovchi qonunlarni joriy etish va 3) yo'llarni o'g'ri-qaroqchilardan muhofaza qilish. Shoh esa fuqarolardan soliqni vaqtida to'lashni chiqargan farmon, qonunlarini bajarish hamda do'stiga do'st, dushmanga dushman bo'lishni talab qiladi, deb yozadi. Ko'rinish turibdiki, bunda jamiat va siyosiy hokimiyat o'zaro mutanosib bo'lishi zarurligi g'oyasi aniq ifoda etiladi.

Pulning qadrli bo'lishi haqidagi g'oya, aslini olganda inflatsiya muammosi bilan chambarchas bog'liq, baholarning mo'tadilligi ham ta'min etiladi. U, o'z navbatida, inqirozsiz iqtisodiyot, erkin muomaladagi valuta masalalariga borib taqaladi.

Shuningdek, bilim va aql-idrokka, shu soha sohiblariga katta e'tibor beriladi. «Odamzod naslining ulug'ligi bilimdan. U aql-idrok tufayli ne-ne tugunlarni yechishga qodir», - deb yozadi alloma.

Qisqacha xulosalar

Milliy iqtisodiy tafakkurning shakllanishida Markaziy Osiyodagi donishmandlarning hamda xalq og'zaki ijodi namunalarining ahamiyati shubhasiz muhim o'rinn tutadi. Bunday g'oyalalar shakllani-shining asosini «Avesto» dagi tarixiy boy manba tashkil etadi. Keyingi bosqichni esa islom ta'limotining O'rta Osiyoga yoyilishi bilan bog'lash mumkin. Jumladan, Markaziy Osiyodagi iqtisodiy g'oyalarning ravnaq topishida Burhoniddin al-Marg'inoniying «Hidoya» asaridagi iqtisodiy rikrlardir. Keyingi bosqichda esa, 9-10-asrdagi iqtisodiy g'oyalalar rivojida muhim hissa qo'shgan qomusiy allomalar Forobiy, Ibn Sino, Beruniy hamda Yusuf Xos Hojibning fikr va qarashlari muhim hisoblanadi. Umuman olganda o'sha davrdagi iqtisodiy g'oyalarning Hususiyatlariga quyidagi-larni kiritish mumkin:

1. Iqtisodiy qarashlar fikrlar va g'oyalalar, asosan, faylasuflar, diniy arboblar tomonidan bayon etilgan.
2. Nazariy tadqiqotlar esa cheklangan, tor, sodda yondashuvlar asosida umumlashtirilgan.

3. Takror ishlab chiqarish jarayonida natural xo'jalik munosabatlarining ustunligi egallagan.

4. Ekstensiv takror ishlab chiqarishning ustuvorligi davom etgan.

5. Qo'shimcha maxsulot yaratishning vosita, usul va shakllarini ijtimoiy hayotga tatbiq etish ta'minlangan.

Xalq og'zaki ijodida esa mehnat mol-mulkning ko'payishi uchun asos bo'lib xizmat qilishi ta'kidlangan. Donishmandlarning iqtisodiy g'oyalarda esa, zamona viy dunyoqarashning umumbashariy mezonlari qayd etilgan. Shuningdek, mulkdorlikning yuksak ma'naviyat bilan uyg'unlashishi zarurligi bayon etilgan. Hayotga, mehnatga, mulkka hamda yerga bo'lgan munosabat umumbashariy mezonlarga asoslanishga undaydi. Har bir shaxs va oila farovonligi jamiyat va davlatning kuchli va qudratli bo'lishiga zamin yaratishi ta'kidlanadi.

Asosiy tushuncha va iboralar

«Avesto», «Hidoya» asari, islomdagi farz va sunnat amallari, zakot, halol mehnat, halol luqma, ehson, sadaqa; ehtiyoj, boylik, mulk, davlat.

Nazorat va mulohaza uchun savollar

1. «Buyuk ipak yo'li»ning Markaziy Osiyoda iqtisodiy munosabatlar ravnaq topishidagi o'rni nimalardan iborat?

2. «Avesto»dagi iqtisodiy g'oyalarda ijtimoiy mehnat taqsimotining qaysi jihatlariga ko'proq e'tibor berilgan?

3. «Avesto» asarida qashshoqlikni yo'qotish borasida qanday tadbirlar asos qilib olingan?

4. «Alpomish» dostonidagi ijtimoiy nizoda islom ta'limotidagi qanday mezon sabab bo'lgan?

5. Xalq maqollaridagi iqtisodiy fikrlarni bayon ettiring.

6. Islom ta'limotidagi iqtisodiy g'oyalarni qanday guruhlarga ajratish mumkin.

7. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy va Yusuf Xos Hojibning iqtisodiy g'oyalardagi umumiy va xususiy jihatlarni so'zlab bering.

8. Milliy iqtisodiy tafakkur shakllanishida Markaziy Osiyo donishmandlari iqtisodiy g'oyalaring ahamiyatini so'zlab bering.

IV б о б. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDAGI IQTISODIY G'OYALAR

4.1. Amir Temur davridagi iqtisodiy g'oyalar

Amir Temur va uning avlodlari davrida markazlashgan davlat barpo etildi, iqtisodiyotning barcha sohalarida (hunarmandchilik, qurilish, qishloq xo'jaligi, ayniqsa, savdoda) muhim yutuqlar qo'lga kiritildi. Bunga to'g'ri tanlab olingen iqtisodiy g'oyalar va iqtisodiy siyosat yordam berdi.

Amir Temur (1336-1405) davlat va iqtisodiyotni boshqarishda o'ziga xos maktab yaratgandi. Sohibqiron davlatida *devoni buzurg* (*bosh vazir*)dan tashqari har bir viloyatda Devon deyiluvchi boshqarma bo'lgan. U davlatning butkul ishlarini: soliq yig'ish, tartib saqlashni, ijtimoiy binolar - bozorlar, hammomlar, yo'llar, suv inshootlari tarmoqlarini nazorat qilardi.

Uning xodimlari vaqtı-vaqtı bilan so'roq, tekshirish, taftish va tergov ishlarini olib borishardi. Ayniqsa, tosh-u tarozi to'g'riliği, odil baho tekshirilgan, qallob va tovlamachilar qat'iy jazolangan, eng muhimi bu ish bozorda, xalq oldida amalga oshirilgan. Savdogarlarga olib kelingan mol ustiga 10 foiz narx qo'yish mumkin bo'lgan.

Sohibqiron Amir Temur, jumladan, shunday degan edilar: «*Amr qildimki, sadrlar sadri (sadr, vaqf yerlar va vaqf etilgan boshqa mulkning hisob-kitobini olib boruvchi mansabdar) sayyidlar va boshqa arboblarga suyurg'ol tariqasida berilgan yerlar va vaqflarning ahvolini, ularning vazifalarini qay darajada ado etayotganliklarini tekshirib, menga arz qilib tursin... Sultanatning har bir idorasida kirim-chiqimlarni, kundalik xarajatlarni yozib borish uchun bir kitob tayinlansin».*

Sohibqiron davrida yerga egalikning beshta asosiy ko'rinishi bo'lgan:

1. Suyurg'ol yerlar. Katta hajmdagi bu yerlar davlat tomonidan ajratib berilib, bir avloddan ikkinchisiga o'tgan. Suyurg'ol egasi markaziy xazinaga to'lanadigan soliqdan ozod qilingan. Bunday yer egalari dehqonlarni ishlatib, yer solig'i - xiroj olganlar.

2. Tarxon yerlar. Bu yerlar xususiy mulk bo'lib, ular odamlarga biron-bir xizmati uchun berilgan.

3. Ushr yerlar. Sayyid va xo‘jalarga mansub yerlardir. Bundan olingan hosilning o‘ndan biri davlatga berilgan.

4. Vaqf yerlar, masjid, madrasa, xonaqoh, qabriston va shu singari joylarga doir yerlardir. Vaqfda yer, suv, bozor, qul, pullar va boshqalar mol-mulki bilan in’om etilardi. Masalan, Amir Temurning Ahmad Yassaviy uchun qurdirgan vaqfnomasi katta ahamiyatga ega. Ahmad Yassaviy va boshqa avliyolar, din peshvolarining maqbaralarini uchun vaqfdar mablag‘ ajratilgan.

5. Askarlarga, askarlarning rahbarlariga beriladigan yerlar.

Kimdakim biron sahroni obod qilsa yoki koriz (yerosti suvlarini tortib chiqarish uchun qurilgan inshoot) qursa, biron bog‘ ko‘kartirsa yohud birorta xarob bo‘lib yotgan joyni obod qilsa, bиринчи yili undan hech narsa olmaganlar. Ikkinchi yili raiyat o‘z roziligi bilan bergenini olgan. Uchinchi yildagina soliq qonun-qoidasiga muvofiq xiroj yig‘ilgan.

Amir Temur Angliya va Farangiston qиrollariga murojaat qilib, xalqaro savdo aloqalarini rivojlantirdi. Markaziy Osiyo orqali o‘tadigan Buyuk ipak yo‘lida karvonlarning xavfsizligini ta‘minladi. Mashriqdan mag‘ribgacha bo‘lgan savdo-sotiq ishlarini kuchaytirib, turli rabodlar, karvonsaroylar, savdo rastalari quzdirdi.

U vaqtarda bozor ahlidan soliq olish qal‘a boshlig‘i zimmasiga yuklangan. Soliq olish Qur‘oni Karim ta‘limotiga muvofiq edi. Hadis va «Hidoya» kitoblarida bu to‘g‘rida to‘la ma’lumotlar berilgan. Hech bir shahar va qishloqqa odamlardan sari shumor (jon boshidan olinadigan soliq) va xonashumor (har bir xonadondan olinadigan soliq) olinmagan. Raiyatdan mol-xiroj yig‘ishda ularni og‘ir ahvolga solishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo‘yishdan saqlanilgan. Negaki, Amir Temur «*Raiyatni xonavayron qilish davlat xazinasining kambag‘ allashishiga olib keladi. Xazinaning kamayib qolishi esa sipohning tarqalib ketishiga sabab bo‘ladi. Sipohning tarqoqligi esa, o‘z navbatida saltanatning kuchsizlanishiga olib boradi. Fath etilgan yerlik fuqaro azaldan berib kelingan xiroj miqdoridan rozi bo‘lsa, ularning roziligi bilan ish ko‘rsinlar. Xirojni ekindan olingan hosilga va yerning unumдорлигига qarab yig‘sinlar. Fath etilgan har bir mamlakatning mol-mulkini, buyumlarini talon-tarojdan saqlasinlar. O‘sha mamlakatdan tushgan o‘lja mollarni hisob-kitob qilsinlar*», - degan edi.

Yevropadan ancha ilgari bu davlatda budget tushunchasi bo‘lgan. Davlat xazinasi, kirim, chiqim, hisob-kitob qat’iy olib borilgan,

taftish yo'lga qo'yilgan edi. Buning uchun ma'lum mas'ul shaxslar ajratilgan va doim hisob berib borganlar.

A.Temurning davlat va iqtisodiyot sohasidagi asosiy fikrlari «Temur tuzuklari»da to'la bayon etilgan. Tuzuklar Amir Temurning 1342-1405-yillar oralig'idagi faoliyatini aks ettiradi va ikki qismidan (maqoladan) iborat. Birinchi qismda asosan yagona davlat barpo etish, uni mustahkamlash, qo'shni (27) yurt va mamlakatlarni zabit etish masalalari yoritilgan bo'lsa, ikkinchi qismda sohibqiron nomidan aytilgan o'ziga xos vasiyat, pand-nasihat, turli sohalardagi, shu jumladan, ijtimoiy-iqtisodiyotga oid fikr-mulohazalar keltirilgan.

4.2. Shohruh Mirzo va Mirzo Ulug'bek davridagi iqtisodiy islohotlar

A.Temur vafotidan keyin Shohruh va Ulug'bek (1394-1449) podsholigi (1409-1449) davrida iqtisodiyot yaxshi rivojlandi. Ayniqsa, qo'shni mamlakatlar bilan savdo-sotiq munosabatlari o'sdi. Bu Movarounnahrda (arabcha «daryo ortidagi mamlakat» degani) 1428-yilda Ulug'bek tomonidan o'tkazilgan pul islohoti bilan bog'liqdir. Jamiyatda pulning ahamiyatini yaxshi tushungan holda uning qadr-qimmatini oshirish uchun harakat qilingan.

O'sha davrda muomaladagi fulusiy chaqa pullar yengil vaznda bo'lib, savdo rivojiga to'sqinlik qilgan. Ulug'bek yengil vaznda zarb etilgan va muomalada yurgan barcha chaqa pullarni bekor qilldi. Eski chaqalarni yangisiga almashtirib, ichki savdoning mayda mis pullarga bo'lgan talabini qondirish uchun bir vaqtning o'zida Buxoro, Samarqand, Qarshi, Ter-miz, Toshkent, Shohruhiya va Andijon shaharlarida zarbxonalar tashkil etib, bir xil vazndagi salmoqli fuluslarni zarb ettirib, muomalaga kiritdi. Mis pullar zarbini markazlashtirish maqsadida boshqa shaharlardagi zarbxonalarga barham berildi. Faqat Buxoro zarbxonasi (poytaxt Samarqandda emas) saqlab qolindi. Xalq orasida «fulusi adliya», ya'ni adolatli chaqa nomi bilan shuhrat qozongan bu yangi mis fuluslar mamlakatning barcha shahar va qishloqlarida keng muomalaga kirib, davlatning ichki savdosini naqdina bilan to'la ta'minlay boshladi. Ichki chakana savdo-pul munosabatlari dagi tanqislikni fulusning vazni va qiymatini oshirish bilan hal etilishi o'rta asrlar sharoitida nodir va favqulodda voqeа bo'lsa-da, har holda Ulug'bekning bunday islohoti

mamlakatda hunarmandchilik buyumlarining ichki chakana savdosi uchun keng yo'l oshib berdi. Ayni vaqtida tashqi savdodan keladigan daromadni oshirish maqsadida «tamg'a» boji ham birmuncha oshirildi, ya'ni hozirgi til bilan aytiganda proteksionizm siyosatidan foydalaniildi.

Ulug'bek (1394-1449) tarixda ko'proq davlat arbobi sifatida emas, buniyodkor inson, yuksak zehnli olim sifatida mashhurdir. Bu davrda mamlakat iqtisodiyotining asoslariga alohida e'tibor qilinadi, busiz rivojlanish bo'lmasligini hokimlar yaxshi tushunishgan. Sug'orish tarmoqlari qurilib, ular toshhovuz, darg'ot, navo, chig'ir, charxpalak, qaynama, sharshara, osma ko'prik, handoq, tazar va sardobalar kabi turli-tuman suv inshoatlari bilan jihozlandi.

O'sha davrda ham iqtisodiy rivojlanishning soliq tizimi bilan chambarchas bog'liqligi yaxshi ma'lum edi. Soliq yig'imi qancha yuqori bo'lsa, ishlab chiqaruvchilar manfaatdorligi kamdir, ammo soliqning pastligi aholi uchun qulay bo'lgani bilan, davlatning boshqaruv, mudofaa va boshqa maqsadlariga doimo to'g'ri kelavermaydi. Shularni yaxshi tushungan hukmdorlar soliqni iloji boricha me'yorida saqlab, uni yig'ishning ma'lum adolatli usullarini qo'llanganlar. Masalan, Ulug'bek hukmronligi davrida g'alla g'aram qilinmasdan avval soliq toplash qat'iyan man etilgan, chunki dehqon hosil yig'ib olgachgina real soliq to'lash imkoniga ega bo'ladi. Soliq aniq uch muddatda, dehqon hosili pishishiga qarab bo'lingan:

Bu davrda ichki va tashqi savdoga katta ahamiyat berilgan. Xitoy, Hindiston, Tibet va boshqa ko'pgina davlatlar bilan savdo aloqalari olib borilgan. Bu borada savdogarlar uchun qulay sharoitlar yaratilganligini alohida ta'kidlab o'tish kerak. Elchilar «Buyuk ipak yo'li» xavfsizligini ta'minlash borasida katta ishlarni amalgalash oshirganlar.

Mamlakat iqtisodiyotining ahvoli, ayniqsa, hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi, tovar-pul munosabatlari, milliy valuta mustahkamligiga bevosita bog'liq. Ma'lumki, pulning uchta asosiy vazifasi mavjud: 1) qiymat o'chovi; 2) almashuv vositasi; 3) jamg'arma vositasi. Agar pulning miqdori, uning nufuzi mustahkam bo'lmasa, iqtisodiyot posangisi, muvozanati buziladi. Shularni hisobga olib, vaqt-i-vaqt bilan pul islohotlari o'tkazib turiladi. 1428-yili Ulug'bek tomonidan o'tkazilgan islohot katta ijobjiy ahamiyatga ega bo'ldi. Muomaladagi fulusiy pullar almashtirildi. Ulug'bek davridagi islohotlar tovar-pul munosabatlari rivojiga muhim hissa qo'shdi. Iqtisodiyotning barqarorligiga erishildi.

4.3. Alisher Navoiy asarlaridagi iqtisodiy g'oyalarning mohiyati

Buyuk mutafakkir **Alisher Navoiy** ijodida ham iqtisodiy g'oyalalar muhim o'rinni egallaydi. Uning asarlarida va faoliyatida, ayniqsa, tijorat, savdo masalalari ancha mukammal yoritilgan. A. Navoiy asarlarida savdogarlik ishi ma'qullanadi, lekin tovlamachi va chayqovchi qattiq tanqid qilinadi. A. Navoiy davlat arbobi sifatida mamlakatni tinch saqlash, obodonlashtirish ishiga katta hissa qo'shdi. Navoiyning dastlabki ijtimoiy-iqtisodiy fikrlari shakllangan asari 1469-yilda **Husayn Boyqaroning** taxtga kelishiga bag'ishlangan «*Hiloliya*» asaridir.

1482-yilda yozilgan «*Vaqfiya*» asarida A. Navoiy shaxsan o'zining yerlaridan olingen daromadi misolida daromadning o'z xarajatlari va oila ahliga yetarli qismini olib qolib, qolgan qismini aholining foydali mehnatiga sarflashga chaqirgan. O'g'rilik, ta'magirlik va zo'rlik hisobiga boylik orttirishga Navoiy keskin qarshi chiqadi. U bunday ishlardan nafratlanadi va shu yo'l bilan boylik orttirayotgan kishilarni jamiyat hisobiga yashayotgan va boylik orttirayotgan qatlam deb ta'riflaydi.

A. Navoiy ijodining durdona asarlaridan biri 1500-yilda yozilgan «*Mahbub-ul-qulub*» asaridir.

Navoiy bu asarida jamiyatni ijtimoiy tabaqalarga bo'lib, ularning jamiyatda tutgan o'rnini ko'rsatib berishga harakat qiladi. Asarning birinchi qismida ularning tabaqalariga va kasblariga tavsif beradi. Ikkinci va uchinchi qismlarda yaxshi fe'llar va yomon xislatlar to'g'risida ma'lumot beriladi. Navoiyning fikricha, dehqonlar, hunarmandlar va chet el bilan aloqasi bor savdogarlar jamiyatda moddiy ne'mat yesitshtirishda, yaratishda va mamlakat boyligini oshirishda muhim o'rinn tutadi.

A. Navoiy dehqon va uning ishlab chiqarishdagi roli to'g'risida quyidagi fikrlarni bildiradi: «Don sochuvchi dehqon yerni yorish bilan rizq yo'lini ochuvchidir». Dehqon, ya'ni ishchi kuchi mahsulot ishlab chiqarish vositalari bilan qo'shilishi lozim va shartdir. Navoiy ishlab chiqarish vositalarining moddiy boylik yaratishdagi rolini quyidagicha e'tirof etadi: «Qo'shi ham ikki zo'r polvon bo'lib, yukiga bo'ysunib oldida yuradi, ishlashda hamdam va hamqadam, dehqon ularni surishda xuddi odam. Dunyo obodi xuddi ulardan. Har ne qilsalar harakat, xalqqa ham yetar ovqat ham barakat!».

Navoiy qishloq xo'jaligining rivojlanishi mamlakat qudratini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi degan o'ta ilg'or fikrni ilgari suradi.

Bu fikr o'sha davr, ya'ni feodalizm davri gullab-yashnagan, uning negizini dehqonchilik ishlab chiqarishi tashkil qilgan bir pallada o'ta to'g'ri fikrgina bo'lib qolmay, balki tarixiy haqiqat hamdir.

A.Navoiy jamiyatda muhim tabaqa bo'lgan savdogarlarning o'zini ham ikki guruhga bo'ladi. Birinchi guruh - chet el bilan savdo aloqalari olib boruvchi savdogarlar guruhi. Ikkinci guruh - mamlakat ichkarisidagi olibsotarlar guruhi.

Alisher Navoiy o'z asarlarida iqtisodiyotning ravnaqi inson ma'naviyatining kamoloti bilan uyg'unligini takror-takror qayd etganlar. Jumladan, mamlakat obodligi va el farovonligini yuksak ma'naviyat bilan quyidagicha bog'lagan:

*To xirs-u havas xirmoni barbod o'lmas,
to nafs-u havo qasri barafrod o'lmas,
to jabr-zulm jonig'a bedod o'lmas,
el shod o'lmas, mamlakat obod o'lmas.*

4.4. Bobur va boburiylar davridagi iqtisodiy g'oyalar

Davlat arbobi va qomusiy olim Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) va uning avlodlari tomonidan ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy masalalarda katta ishlar amalga oshirilganligi bizga tarixiy bitiklardan ma'lum. Xususan, Boburning «Boburnoma» asarida, «Mubayyin» kabi to'plamlarida iqtisodiyotga oid ma'lumotlarga, shu jumladan, soliq siyosatiga katta o'rinn berilgan. «Zakot to'g'risidagi katta kitob»da esa o'sha davrdagi soliq, uning turlari to'g'risida qimmatli fikrlar bildiriladi. Bu asarlarni mutolaa qilar ekanmiz, ulardan mamlakatimizning bugungi hayotida ro'y berayotgan iqtisodiy islohotlarni, o'zgarishlarni tahlil qilish, qisqacha xulosalar chiqarish va amaliyotda foydalanish uchun yangi fikrlar, maslahatlar topamiz.

Boburning «Mubayyin» asari qonunlar va iqtisodiy masalalarga bag'ishlangan. Asarning nomi ham «qonunlar izohi» ma'nosiga ega.

Butun islom mamlakatlaridek, Movarounnahr va Xurosonda ham «zakot» ma'lum miqdorda va muayyan shart-sharoitlarda olinadigan soliq ma'nosida qo'llaniladi hamda naqd pul va savdo yig'imi shaklida to'planadi. Soliqni hisoblash uchun soliq olish obyektining «hisobi», ya'ni mol-mulkning zakot berishga layoqatlari bo'lishi uchun belgilangan miqdori aniqlanadi, hisobdan kam mulkdan soliq olinmaydi.

«Agar yerdan ikki hosil olsang, xirojni ham ikki marta to‘la», - deb yozadi Bobur. Xiroj, ya’ni yer solig‘i ikki toifaga bo‘lingan: muqassam va muvazzar. Birinchisi, olingan hosilning miqdoriga bog‘liq bo‘lib, uchdan birdan-yarimgacha teng bo‘lgan, ikkinchi esa, soliq solinadigan yerning maydoniga bog‘liq ravishda olingan.

Yerni sug‘orish masalalari Sharqda o‘ta muhim edi, chunki ob-havo nihoyatda quruq va issiq, yer-tuproq sharoiti sun‘iy sug‘orishni talab etganligidan sug‘oriladigan yerlar, tabiiyki, lalmikor yerlardan ko‘p hosil bergen. Shu sababli suv solig‘i ham bo‘lgan.

Hisobga etgan miqdordagi mol-mulkdan Qur‘oni Karim, «Mux-tasar», «Hidoya» va boshqa manbalarda qat‘iy belgilab qo‘ylgan qismi ixtiyoriy ravishda miskinlarga berilgan, masalan, boqiladigan mollar, ya’ni echki, tuya, sigir, otlardan, xususan, qo‘ylardan soliq (zakot) quyidagicha olingan: 40 qo‘ydan bitta (2,5%), 120 tasidan ikkita, 201 dan boshlab uchta, 400 dan ortiq bo‘lsa, har 100 qo‘ydan bittasi zakot qilib berilgan. Shuningdek, «Boburnoma»da bir yurt tovarining boshqa yurtlarga olib borilishi, almashuvi, aholi ehtiyojlarining qondirilishi va ularning iqtisodiyot ravnaqidagi ahamiyati to‘la bayon qilinadi.

Boburdan keyin uning o‘g‘li Xumoyun, keyinchalik nevarasi Akbarshoh Jaloliddin (1542-1605) 1556-1605 yillari Hindistonda muvaffaqiyatli podshohlik qilgan. Akbarshoh tomonidan 1574 yildan boshlab islohotlar o‘tkazdi, dehqonlarga yagona soliq tizimi kiritdi, yagona uzunlik va og‘irlilik o‘lchovlarini joriy qildi. Bu shoh to‘g‘risida 1601 yil «Akbarnoma» kitobi chop etildi, unda mamlakatdagi soliq tartibi o‘z aksini topgan.

Qisqacha xulosalar

XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr tarixiy ijtimoiy saboqlar davri hisoblanadi.

Bu davrda Amir Temur boshchiligidagi yagona tug‘ ostida markazlashgan kuchli va mustaqil davlat tashkil topdi. Bu davlatni idora etish va boshqarish uchun Amir Temur asosiy qonun-qoidalar to‘plami «Tuzuklar»ni yaratdi. «Tuzuklar» islom dini mafkurasiga asoslangan bo‘lib, mamlakatni obod etishga xizmat qildi. Xo‘jalikni asosi bo‘lgan dehqonchilik, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo kengaydi, fan va madaniyatning ravnaqi uchun ma’lum shart-sharoitlar yaratildi.

Amir Temurdan keyin uning o'g'li Shoxrux Mirzo va nabirasi Mirzo Ulug'bek davridagi islohotlar iqtisodiyotni barqarorlashuvi va ravnaq topishuviga shart-sharoit yaratdi. Ayniqsa, 1428-yilda Ulug'bek tomonidan o'tkazilgan pul islohoti katta ijobjiy ahamiyat kasb etdi. XV asrdagi iqtisodiy g'oyalalar majmuasida buyuk mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiyning iqtisodiy qarashlari muhim o'rinni tutadi.

Alisher Navoiyning dastlabki iqtisodiy qarashlari «Hiloliya» (1469) asarida o'z aksini topgan. Keyinroq «Vaqfiya» (1482) asarida ham boylikning to'planishi va taqsimlanishidagi adolatlilik va haqgo'ylikning jamiyatning farovonligiga bevosita ta'siri, ayniqsa, ijtimoiy manfaatlarning ustuvorligi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining asosi ekanligi alohida ta'kidlangan. «Mahbub-ul qulub» asarida esa ijtimoiy tabaqalarga tavsif berilgan. Har bir kasb-hunarning jamiyat ijtimoiy tuzilishidagi o'rniga baho berilgan. Bobur va boburiylar davridagi iqtisodiy g'oyalarning negizini islom ta'limotidagi mezonlar tashkil etadi. «Zakot to'g'risidagi katta kitob», «Mubayyin» kabi asarlar shular jumlasidandir.

1601-yilda chop etilgan «Akbarnoma» kitobida soliq tartibi hamda murakkab iqtisodiy muammolar yechimiga qaratilgan qator fikrlar ilgari surilgan.

Asosiy tushuncha va iboralar

Iqtisodiyotni boshqarish (Devoni buzruk va devon), vazirlar vakolati, yer egaligining 5 ko'rinishi, ulufa (oziq-ovqat, maosh), soliqqa tortish tartibi, tanho, Ulug'bek islohotlari, «Fulusi adiliya» tashqi savdoga e'tibor, tamg'a bojidagi o'zgarishlar, A.Navoiyning «Vaqfiya» (1482), «Mahbub-ul qulub» (1500) asarlari, Zahiriddin Muhammad Boburning «Mubayyin», «Zakot to'g'risida asar» kitoblari, «Hiroj», «Muqassam», «Muvazzar».

Nazorat va mulohaza uchun savollar

1. Amir Temur davlatining ilmiy qonun-qoidalari qaysi asarda keltirilgan?
2. Amir Temur davrida davlatni boshqarish tartibi qanday bo'lgan?

3. Amir Temur davridagi soliq tizimi va maoshni belgilashning xususiyatlarini so‘zlab bering.
4. Ulug‘bek davridagi islohotlar qaysi sohani barqarorlashtirishga qaratilgan?
5. Alisher Navoiy asarlaridagi iqtisodiy g‘oyalarning mohiyatini gapirib bering.
6. Alisher Navoiyning «Vaqfiya» asarida qanday iqtisodiy g‘oyalar bayon etilgan?
7. Zahiriddin Muhammad Boburning iqtisodiy g‘oyalari qaysi asarlarda bayon etilgan?
8. «Akbarnoma»da qanday iqtisodiy g‘oyalar ilgari surilgan?
9. «Fulusi adliya» deganda nima tushuniladi va u qaysi davrga tegishli?
10. A. Navoiy boylik to‘plashning qanday yo‘llari to‘g‘risida gapirgan?

V b o b. MERKANTILIZM IQTISODIY TA'LIMOTI

5.1. Merkantilizm vujudga kelishining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari

«Merkantilizm» iborasi birinchi bo'lib Adam Smitning asarlarida uchraydi. Lug'aviy ma'nosiga ko'ra bu so'z italyancha bo'lib, savdogar mazmuniga ega. Bu so'z yangi ta'lilotning mazmun va mohiyatini o'zida aks ettradi.

Uzoq yillar davomida boylikning, xalq moddiy farovonligining assosi mehnat, yer, dehqonchilik va chorvachilik, hunarmandchilikda deb kelinar edi. Lekin XV asrga kelib, ahvol keskin o'zgardi. Bu ta'lilotning kelib chiqishiga bir qancha ijtimoiy-iqtisodiy sabablar turtki bo'ldi. Avvalo, feodal tuzumming yemirilishi, tovar-pul munosabatlарining o'sishi, fan va madaniyatning rivoji, ayniqsa, yangi yerlarning ochilishi, buyuk geografik kashfiyotlar, mustamlakachilik tizimining paydo bo'lishi, ayniqsa, savdo-sotiqning rivojiga turtki bo'ldi. Noekvivalent savdo tufayli metropoliya koloniylar hisobiga beqiyos boyidi. Ana shu o'zgarishlarni asoslab beruvchi iqtisodiy ta'lilot — merkantilizm yuzaga keldi va muomala sohasini o'rganish bilan shug'ullandi. Merkantilizm sinifiy jihatdan savdo kapitalini himoya qildi. Shu davrga kelib Yevropada oltin va kumush qahatchiligi boshlandi. «Hindistonda nodir metallar ko'p» degan mish-mishlar va u yerdagi mavjud ziravorlar insonlarni yangi yerlar ochish, yangi boylik makonlarini izlab topishga otlantirdi.

Pul vazifasini bajargan nodir metallar (hali qog'oz pul yo'q), ularning kuch-qudrati hammani oyoqqa turg'azdi, insonni o'ylashga, ixtiolar qilishga, harakatga undadi. Oqibatda, suvda kemalar orqali xavfli yo'lga otlanish taraddudi boshlandi, xaritalar tuzildi, kompas kashf etildi, kerakli odamlar, asbob-anjom, suv, oziq-ovqat, qurol-yarog' to'plandi.

Merkantistik siyosat ham ishlab chiqildi. Uning bosh vazifasi davlatga ko'proq oltin va kumush keltirish deb bilindi. Bu davrda pul sifatida qimmatbahо metallar - oltin va kumush ishlatilgan, shu sababli oltin va kumush zaxiralarini ko'paytirish borasida ma'lum iqtisodiy siyosatlar ishlab chiqarildi.

1492-yilda portugaliyalik **Xristofor Kolumb** uchta kemasi bilan tasodif tufayli Amerika qit'asini ochdi (u o'zini Hindistondaman deb o'ylagan, shuning uchun qit'a nomi boshqa dengizchi - **Amerigo Vespuuchchiga** nasib etdi, tarixning bu xatosini to'g'rilash uchun bu qit'adagi bir davlatga Kolumbiya nomi berildi). Ammo Amerika, ko'pchilik o'ylaganidek, oltin-kumushga unchalik boy emas ekan. Hindistonga suv yo'li qidirish yana davom etdi va 1498-yilda **Vasko da Gama** tomonidan ko'pchilik intazorlik bilan kutgan bu diyorga yo'l ochildi. Boshqa dengizchi-Magellanning butun dunyo bo'ylab qilgan sayohati tufayli yangi yer, orollar kashf etildi, ular qisqa vaqt ichida Yevropa davlatlarining mustamlakasiga aylantirildi, u yerlarda oltin-kumush konlari ochildi, yangi xomashyo, ekin, hayvon turlari topildi, ularning Yevropaga kirishi boshlandi (*paxta, makkajo'xori, tamaki, kofe, kakao*). Yevropadagi davlatlar (Portugaliya, Ispaniya, Niderlandiya-Gollandiya, Fransiya va Angliya) o'rtasida kurash ham qizidi.

Shakllanib kelayotgan yangi iqtisodiy munosabatlarning rivoji uchun muhim moddiy turtki paydo bo'ldi. Kapitalizmning shakllanishi va rivoji uchun kapitalning dastlabki jamg'arilish jarayoni kuchaydi.

5.2. Merkantilizm iqtisodiy ta'limotining mohiyati

Merkantilizm rivojida ikki davrni ajratish mumkin:

1. Ilk merkantilizm yoki monetarizm (XV-XVI asr o'rtalari).
2. Rivojlangan merkantilizm, savdo balansi (yoki manufaktura sistemasi) (XVI-XVIII asr o'rtalari).

Yangi ta'limot vujudga kelishi manufaktura bilan bevosita bog'liqdir. Iqtisodiyot tarixida sanoatning uch xil shaklini ajratish mumkin: uy hunarmandchiligi, manufaktura va fabrika. Uy hunarmandchiligidagi sohalar, tarmoqlararo mehnat taqsimoti mavjud, hamma ishni bir odam yoki shogird, oila bilan birga bajariladi. Manufakturada esa kooperatsiya yuzaga keladi, eng muhimi, chuqur mehnat taqsimoti, xususiy tadbirdor, yollanma ishchi kuchi paydo bo'ladi (XV asr).

Merkantilizmning birinchi davri, o'sha davr iborasi bilan aytganda monetar, ya'ni oltin va kumush pullar toplash bilan bog'liq edi. Bunda pul balansi siyosati olib borilgan, chetdan imkonli boricha kam tayyor tovar sotib olishga urinilgan. Qimmatbaho metallni chetga olib ketish taqiqlangan. Savdogarlarga olib chiqilgan mahsulotning bir qismiga pul

olib kelish majburiyati yuklangan (qolgani tovar bo'lishi mumkin). Chet ellik savdogarlarni esa sotilgan mol pulining hammasiga yangi tovar sotib olishga majbur qilingan (pul olib chiqib ketmasliklari uchun). Bu siyosat nazorat kuchli bo'lishini talab etgan, tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojini susaytirgan.

Taniqli iqtisodchi N.D. Kondratevning fikricha, merkantilistlarning iqtisodiy tizimi amaliy siyosat bo'lib, xalq xo'jaligi qanday bo'lishi kerak va unga nisbatan davlat hokimiyatining munosabati masalasi asosiy maqsaddir.

Merkantilizmni qisqacha qilib quyidagicha ta'riflash mumkin: iqtisodiy siyosatda: mamlakatda va davlat xazinasida imkonli boricha nodir metallarni (oltin, kumush, javohir, zar va durlarni) ko'proq toplash; nazariya va ta'limotda: savdo, pul aylanmasi, ya'ni muomala sohasida iqtisodiy qonuniyatlarni izlab topish. «*Insonlar metall uchun qurban bo'lmoqda*», ya'ni oltin fetishizmi butun kapitalistik jamiyat rivojiga hamohang bo'lgan yangi hayot tarzi va fikrlashning tarkibiy qismidir. Ayniqsa, savdo kapitali davrida bu yorqin namoyon bo'ldi. Savdo kapitalining asosiy tamoyili - qimmatroq sotish uchun sotib olish (bu hodisa O'zbekistonda ham hozirgi davr o'zgarishlarida uchrab turadi). Sotib olish va sotish farqi esa sariq metall shaklida namoyon bo'ladi. Farq, ya'ni foyda faqat ishlab chiqarishda, faqat mehnat yo'li bilan yuzaga kelishi mumkinligi haqida o'ylanmaydi.

Faylasuflar va ularning aqidalariga amal qilgan merkantilizm amaliyotchilarini davlatga murojaat etib, insonlarning tabiiy huquqlarini ta'minlashni talab etganlar. Ana shu talablar orasida mulkchilik va xavfsizlik bor. Bu ta'limotning ijtimoiy ma'nosi shuki, davlat yangi jamiyat boyligi o'sishini ta'minlovchi sharoitni yaratishi va qo'llashi shart edi. Iqtisodiy ta'limotlarning tabiiy huquq bilan aloqasi keyinchalik merkantilizmdan klassik iqtisodiy maktabga ham o'tdi. Lekin bu aloqa mazmuni keyingi davrda ancha o'zgardi (Fransiyadagi fiziokratizm, Angliyadagi Smit), chunki bu davrda burjuaziya davlat homiyligiga unchalik muhtoj emas edi, hatto u davlatning imkonli boricha iqtisodiyotga aralashuviga qarshi bo'lgan.

M.Blaus fikricha, merkantilistlar ilmiy dunyoqarashining yetakchi tamoyillari quyidagilar: 1) oltin va boshqa qimmatbaho metallarga boylikning asosi sifatida qaraladi; 2) mamlakatga oltin va kumushlarning oqib kelishini ta'minlash maqsadida tashqi savdoni tartibga solish; 3)

arzon xomashyoni import qilish yo'li bilan sanoatni qo'llab-quvvatlash; 4) import qilinadigan tayyor sanoat tovarlariga proteksionistik (yuqori) tariflar; 5) eksportni, ayniqsa tayyor mahsulot eksportini rag'batlantirish; 6) ish haqining past darajasini ushlab turish uchun aholi sonining o'sishi. Shak-shubhlasiz, milliy farovonlikning asosiy sharti sifatida aktiv savdo balansi hisoblangan va bu merkantilizm g'oyasining yuragi edi.

Ularning mohiyati quyidagilardan iborat:

- Tahlil predmeti (iqtisodiy tahlil) sifatida muomala sohasi muammolarini o'rGANISH afzal deb qaraladi, bunda uni ishlab chiqarish muammolari bilan bog'lab o'rGANISH butunlay inkor etiladi;
- Tahlil uslubi sifatida, asosan, empirizm (tajriba)dan foydalaniлади, bunda iqtisodiy hodisalarning tashqi ko'rinishlarigina ta'riflanib, iqtisodiyotning barcha sohalarini o'z ichiga olgan ma'lum tizim asosida tahlil etish istisno etiladi;
- Pulning kashf etilishi insonlarning sun'iy kashfiyoti oqibati deb hisoblanadi, pulning o'zi esa aynan boylik deb qaraladi;
- Pul qiymati kelib chiqishini oltin va kumushning «obyektiv (jonli) tabiat»dan va ularning mamlakatdagи miqdori bilan belgilanadi;
- Mehnatga taklifning o'sishi ish haqining yuqori emas, past bo'lish zarurati bilan bog'lanadi;
- Davlatning tartibga solishi tufayli iqtisodiy o'sishga mamlakat pul boyligining ko'payish oqibati sifatida qaraladi, bunda tashqi savdo va savdo balansi saldosining ijobi (aktiv) bo'lishi ta'minlanishi kerak.

Manufakturalarning rivoji mustamlakalardan keltirilgan arzon, ko'p va sifatlari xomashyo hisobiga ro'y berdi, tayyor mollar esa o'sha va boshqa mamlakatlarga olib borilib, ancha qimmatga pullangan. Noekvivalent almashuv oqibatida metropoliya boyib borgan. Bu sohada Angliya yuksak yutuqlarni qo'lga kiritdi. Agar Angliya hududini 1 deb olsak, u o'zidan 120 marta katta bo'lgan yerni koloniyaga aylantirgan va undan ustalik bilan foydalangan.

Demak, merkantilizm bo'yicha boylikning asosi pul (davlatda qancha pul ko'p bo'lsa, u shuncha boy deb hisoblangan) va pul miqdorini davlat hokimiyati yordamida oshirish mumkin. Aslida merkantilizm buyuk geografik kashfiyotlardan oldinroq paydo bo'ldi va XVI asrning o'rtalarigacha (asosiy oltinlar yig'ib olinguncha) yashadi.

Bu siyosatning muhim namoyandalari Angliyada **U.Stafford**, Italiyada **G.Skaruffi** va boshqalardir. Masalan, florensiyalik (Italiya) bankir

B.Divanzetti (1529-1606) pul (chaqa)ni iqtisodiy organizmning qoniga o'xshatadi, demak, agar chaqa (pul) bo'lmasa (qon kabi), organizm o'ladi. Kapitalizmning o'sishi, savdoning rivoji tufayli bu siyosat o'zini oqlamadi (XVII asrdan boshlab XVIII asrgacha), pul balansi siyosati savdo balansi siyosati bilan almashdi. Bunda davlatdan pul olib chiqishga ruxsat berildi.

Rivojlangan merkantilizm yoki savdo balansi nazariyasi XVI asrning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi va XVII asrning o'ttalarida asosan Angliyada avj oldi. Uning asosiy mafkurachisi **Tomas Mann** (1571-1641) edi. Uning fikricha, pul tashqi savdo aylanmasida boshlang'ich maskantni tashkil etadi, ya'ni P-T-P. T. Manning fikricha, har bir savdo kapitalisti o'z pulini ma'lum foyda olish uchun aylanmaga qo'yadi. Tovar, pul, foyda va kapital orasidagi aloqadorlikning sababini topishga harakat qilingan. U Makedoniya podshosi **Filipp Makedonskiyning «Kuch natija bermagan joyda pulni ishga solish kerak»** degan iborasini yaxshi ko'rgan.

Savdo balansini oshirish uchun ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirishga e'tibor berildi, bunda birinchi navbatda yollanma ishchilarning ish haqini cheklash va umuman, xalqning turmush darajasini pasaytirish kerak, deb topildi. Ish haqini cheklash zarurligi g'oyaviy asosda hal etildi. T.Mann yozishicha, «mo'l-ko'lchilik va kuch xalqni qanchalik buzsa, ehtiyojsiz qilib qo'ysa, qashshoqlik va muhtojlik uni shunchalik aqli va mehnatsevar qiladi» emish. Bu albatta, savdo kapitali xodimlari har qanday yo'l bilan imkonli boricha ko'proq boyishi uchun yo'l ochib berish, demakdir. XV-XVII asrlarda merkantilizm g'oyalari (pul to'plash siyosati, proteksionizm, xo'jalik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va boshqalar) Yevropaning deyarli barcha mamlakatlarda, Portugaliyadan to Maskoviyagacha yoyildi. Fransiyada bu g'oya XVIII asrning ikkinchi yarmida moliya vaziri Kolber tomonidan rivojlantirildi. Fransiyada sudxo'rlikning rivojlanishi shu siyosat bilan chambarchas bog'liq, uning ta'siri asrlar davomida saqlanib qoldi va milliy xususiyat kasb etdi (P-P). Italiya iqtisodchilar ham (A.Serra) bu ta'limotni keng tadqiq etdilar. Agar inglizlarda bu ta'limot ko'proq «savdo» bilan bog'liq bo'lsa, italiyaliklarda u ko'proq «pul», «chaqa» shaklida namoyon bo'lgan. Germaniyada merkantilizm kameralistik shaklida bo'lib, XIX asr boshlarigacha rasmiy iqtisodiy doktrina edi.

Ammo merkantilizmning iqtisodiy g'oyalari va uning nazariy asosi Angliyada ishlab chiqildi. O'z davri uchun bu ta'limot ancha ijobiy voqealbo'ldi.

Nima uchun «boylik», ya'ni iste'mol qilinayotgan va jamlanayotgan boyliklar (ya'ni iste'mol qiymatlari) bir mamlakatda boshqasiniidan tezroq o'sadi?

Korxona, ayniqsa, davlat miqyosida boylik tezroq ko'payishi uchun nima qilish mumkin va zarur? degan savol tug'iladi. Merkantilistlar shu savolga javob berishga urindilar.

Davr taqozosи tufayli sanoat hali feodalistik, aniqrog'i kapitalizmgacha bo'lgan shaklda edi va sanoat kapitali hali yetakchi emas edi, asosiy kapital savdoda to'plandi. Shu davrda Ost-Indiya, Afrika va boshqa koloniyalarning asosiy maqsadlari savdo bilan bog'liq edi. «Milliy boylikka» asosan va ko'proq savdo kapitali sifatida qaralgan va asosiy iqtisodiy kategoriya - almashuv qiymatiga katta e'tibor berilgan.

Arastu, Ibn Xaldun va boshqa olimlarga tegishli bo'lgan ekvivalent (teng) almashuv tamoyili merkantilistlarga yot edi. Aksincha, ularning fikricha, almashuv tabiatan tengsiz noekvivalentdir. Bu g'oyaning kelib chiqishi tarixan bo'lib, ular almashuv deganda birinchi navbatda tashqi savdo almashuvini tushunishgan, ayniqsa rivojda ortda qolgan xalqlar va mustamlakalardagi almashuv oldindan teng bo'lmanan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, boshqa yo'naliш (Arastu), o'rta asrdagi tadqiqotchilardan farqli ravishda merkantilistlar qiymatning mehnat nazariyasini rivojlantirmadilar. ularning fikricha, kapitalning o'sishi va jamg'arilishi almashuv tufayli, ayniqsa, tashqi savdo tufayli ro'y beradi, lekin ular ko'p masalalarini to'g'ri hal etishga intilganlar.

Merkantilizm bu davrda xalq manfaatlaridan yiroq siyosatni olib borayotganligi ochiqdan-ochiq ma'lum bo'lib qoldi.

Ba'zi bir ingliz mualliflari, masalan J.Chayld, U.Teml boshqacha yo'l, ya'ni ssuda kapitali miqdori (foiz)ni kamaytirishni taklif etgan. Merkantilistlarning g'oyalari burjua siyosiy iqtisodining avvalgi davr qarashlarini aks ettiradi, chunki ular asosiy e'tiborni muomala sohasiga qaratgan edilar (boylik asosan ishlab chiqarish sohasida yuzaga keladi, buni keyinroq ko'ramiz). Merkantilizm turli davlatlarda asosiy sohalarda bir xil namoyon bo'lsa ham, o'ziga xos milliy xususiyatlarga ham ega.

Kapitalistik ishlab chiqarishga imkonli boricha ko'proq aholini jalb etish muhim deb hisoblangan, chunki real ish haqi past bo'lgan sharoitda foyda kelishi oshadi va kapital jamg'arilishi tezlashadi.

Merkantilizm ta'llimot sifatida ham, iqtisodiy siyosatdagи yo'naliш sifatida ham turlichа edi: eskirayotgan feodal munosabatlarga qarama-

qarshi va yangi burjuaziyanı qo'llash orqali o'z davri uchun progressiv bo'lgan ilk kapitalizmning shakllanishiga yaxshi imkoniyat yaratdi. Ammo Fransiyada Ludovik XIV («Davlat bu men» degan) va Kolber tomonidan manufakturalarni ko'paytirish usuli milliy sanoatni rivojlantirish uchun emas, absolutizmni mustahkamlash, qirol xonadonining sarf-xarajatlarini qoplashga qaratildi. Germaniyadagi kameralistlar ham mayjud hokimiyatni qo'llash, aholini esa ularga so'zsiz bo'ysundirishga harakat qildilar.

Merkantilizm bilan birga siyosiy iqtisod tushunchasi ham kirib keldi. Bu tushuncha fransiyalik *Antuan Monkreten Ser de Vattevil* tomonidan kiritildi (1565-1621). U 1615 yilda «*Siyosiy iqtisod traktati*» kitobini yozdi. Bundagi asosiyligi - «*ko'p sotish, kam sotib olish*». Olim o'z g'oyalari bo'yicha faol merkantilist edi.

«Siyosiy iqtisod» tushunchasi va shu nomli fan XX asrning 90-yillarigacha yashab keldi, ayniqsa, sobiq sotsialistik deb atalgan mamlakatlarda bu nom mashhur edi, chunki davlatning iqtisodiyotga faoliyatlashuvini qonuniyat darajasiga ko'targan edi. G'arbda XIX asr oxirida (A. Marshall) bu ibora «ekonomiks» shaklida qo'llanila boshlangan (bu haqida quyida gap boradi).

Angliyada qishloq xo'jaligi va sanoatda kapitalistik o'zgarishlar erta amalga oshgan va bunga merkantilizm ham yordam bergan bo'lsa, Fransiyada ahvol o'zgacha edi. Fransiyada yangi merkantilizm siyosati (Ludovik XIV) hukumat a'zosi (moliya nazoratchisi va dengiz ishlari vaziri) Jan Batist Kolber (1619-1683) tomonidan keng olib borildi (bu siyosat kolbertizm deb ataladi). Bu davlatda feodal munosabatlar (ayniqsa, mayda dehqonchilik) keng tarqalgani uchun Kolber asosiy e'tiborni sanoatga qaratdi va agrar sohani deyarli e'tiborga olmadidi. Masalan, chetdan qishloq xo'jaligi mahsulotlari keltirish qo'llangan, chiqarish esa cheklangan, don, narxi davlat tomonidan past ushlab turilgan.

Bu siyosat va sanoat birinchi o'ringa qo'yiladi, ayniqsa, qishloq xo'jaligining pasayishiga olib keldi, bu esa noroziliklarga sabab bo'ldi. Shunday haqiqatga yaqin rivoyat borki, unga ko'ra ishbilarmonlar Kolberga shikoyat qilishgan, shunda u «nima istaysizlar» deb so'raganda fransuzcha «laisser faire» (qilishga ruxsat bering, ya'ni o'z-o'zidan davom etaversin) degan ekanlar.

Bu ibora hozirgi davrda ham sof erkin iqtisodiyot prinsiplarini, birinchi navbatda, davlatning iqtisodiyotga aralashmasligini talab etadi (liberalizatsiya, lesse-ferr).

Merkantilizmning yana bir shakli kameralistika (lotinchada-hazina) bo'lib, ayniqsa, Germaniyada keng tarqalgan. Bu g'oya tarafдорлари yirik feodallar xo'jaliklarini boshqarish masalasini yuqori qo'yadilar va buni idora doirasida hal qildilar.

Demak, yangi ta'limot bo'yicha iqtisodiyotda davlatning roli birinchi o'ringa qo'yiladi. Amalda esa turli-tuman farmon, farmoyish, qonunlar yuzaga erkin raqobatga yo'l berilmas edi. Hunarmandchilik bo'yicha sex tizimi, feodallarning imtiyozlarini himoya qiluvchi qoidalar saqlab qolindi (tenglik yo'q). Bu tizim Fransiyada XVIII asr oxirigacha, Angliyada XIX asr boshlarigacha saqlab kelindi.

Merkantilizm bozor iqtisodiyotining birinchi ta'limoti edi. Bu ta'limot barcha mamlakatlarda tarixan progressiv xarakterga ega.

5.3. Merkantilizm iqtisodiy ta'limotining tarixiy taqdiri

XVIII asrning oxirida merkantilizm iqtisodiy ta'limot yo'nalishi sifatida tarix sahnasidan tushdi. Sanoat inqilobi sharoitida bu ta'limot va unga asoslangan siyosat hayot talabiga javob bermay qo'ydi. Xo'sh, bu ta'limot nega tarix sinovidan o'ta olmadi, uning «bo'sh joylari» nimalardan iborat?

Bu ta'limotning xatolarini klassik maktab vakillari, hatto ayrim merkantilistlar ham tan olgan. A.Smitning fikricha, bu «bizning savdogar va sanoatchilar tomonidan sotqin parlamentga o'tkazilgan proteksionistik anglashilmovchilikning qorishmasidan iborat va boylik bu pulga egalik bilan bog'liq eng oddiy tushunchadan iborat. Agar o'z boyligini oshiraman desa, har bir individ kabi davlat ham olayotganidan kam sarflashi kerak. Iste'mol etilganidan tashqari qaysi moddiy shaklda bo'ladi? Oddiyroq aytganda, daromad va buromadning farqi nimada ifodalanadi? Merkantilistlar uni mustahkam pul yoki oltin, zeb-ziynatlardan iborat deb bilganlar. Pul va kapital o'tasida tenglik qo'yilishi xato edi. Shuningdek, savdo balansining aktiv saldosи bilan yillik foydaning iste'moldan ortiqchasi ham tenglashtirilgan. A.Smit va uning izdoshlari bu ta'limotning xatolarini shunday izohlaydilar.

O'sha davrdagi (va hozirgi) olimlarning fikricha, mamlakat boyligi oltin va kumush zaxiralaridangina iborat bo'lmay, yer, qurilish va boshqa ko'plab iste'mol mollaridan iboratdir. Masalan, V.Petti Angliyaning XVIII asr oxiridagi pul miqdoriga baho berib, bu pullar barcha mulkning 3 foizidan kamroq ekanligini isbotlab berdi.

Aktiv savdo balansi faqat vaqtincha samara beradi. 1630-yilda T.Manning o'zi ham mamlakatga qimmatbaho metallarning oqib kelishi ichki baholar ko'tarilishiga olib kelishini va «qimmatroq sotish, arzonroq olish» doktrinasni mamlakatning o'ziga qarshi ekanligini tushundi.

Taniqli ingliz iqtisodchilari R.Kantilon (1680-1734) va D.Yum (1711-1776)lar ham merkantilistlar g'oyasining noto'g'ri ekanligini isbotlab berdilar. Sof avtomatik mexanizmlar savdo qilayotgan davlatlar o'rtasidagi «pul metallarining tabiiy taqsimlanishi»ga va ichki baholar darajasining shunday o'rnatilishiga olib keladiki, har bir mamlakat eksporti uning importiga teng bo'ladi. Alovida mamlakatda har bir qo'shimcha oltin qazib olish hajmlari boshqa mamlakatlarga nisbatan ichki baholar darajasini oshiradi. Importning eksportdan ortiqligi oqibatida oltinning oqib ketishi bilan qoplanishi kerak. Bu jarayon savdo qilayotgan barcha davlatlarda eksport va import o'rtasida oltinga yuqoriroq talabga mos bo'lgan yangi tenglik paydo bo'lguncha davom etadi. Tashqi savdo va oltin, tutash idishlardagi suv bir sathda bo'lishga intilgani kabi, aktiv savdo balansi ortidan quvish o'z-o'zini inkor etadi.

1690-yil **Jon Lokk** baholarning muomaladagi pulning miqdoriga ma'lum proporsiyada o'zgarishini aniq ko'rsatib berdi. Lekin import kapital ko'proq qo'llaniladigan xomashyo va yarim fabrikatlardan, eksport va mehnat intensiv qo'llaniladigan oxirgi mahsulotdan bo'lishi umumiyl qoida sifatida qabul qilingan, chunki mehnatning sof eksporti mamlakat ichida aholini ish bilan bandligini qo'llaydi va chet el manbalidan foydani ko'paytiradi. Merkantilistlar o'zlarining yuqoridagi yaxshi ma'lum g'oyalari harbiy va strategik sohani hamda hali mustahkam oyoqqa turmagan sanoatni himoya qilish kerakligini ham qo'shadilar.

Shunday qilib, klassik iqtisodiy maktab vakillari (*V.Petti, P.Buagilber, A.Smit* va boshqalar) merkantilizmni qattiq tanqid ostiga oldilar va bu hukm asrlar davomida saqlanib keldi.

«*Pul savdoni rag'batlantiradi*» doktrinasini eng yuqori darajaga ko'targan qog'oz pul merkantilisti **Jon Lo** (1671-1729)ning g'oyalari va faoliyati diqqatga sazovordir (ba'zi manbalarda Lou). Uning «*Pul va savdo tahlili*» (1705) asaridagi tub g'oya baholarda foyda hissasini oshirishga va «pulning ko'payishi hozirgi o'ziga to'q odamlarni tadbirdorlikka jalb etadi» degan fikr asosiga qo'yiladi. Uning hayoti to'g'risida «*Inflatsiya otasi*», «*Kredit sehrgari*», «*Bankir Loning g'aroyib hayoti*» kabi turli kitoblar chop etildi.

Xo'sh, nega bu insonning hayoti va faoliyati barchani qiziqtirib qoldi?

Jon Lo Shotlandiyaning Edinburg shahrida zargar oиласида туг'ildи, унинг отаси pullarni foiz hisobiga qarzga berar edi. Lo qisqa vaqt ichida boyib ketdi, Londonga jo'nadi. U 1694-yil duelda odam o'liddi, sud bu duelni noqonuniy deb topdi va uning o'zini o'limga hukm etdi. Harakati tufayli qirol *Vilgelm* III uni avf etdi, ammo unga qarshi yangi sud jarayoni boshlandi. Shundan so'ng Lo qamoqdan qochib, Gollandiya boradi. Ammo Lo uch yil Londonda bo'lgan vaqtida bank ishini yaxshi o'rganadi, 1694-yilda birinchi bank yuzaga keldi. Uning fikricha, bu hodisani «Hindistonning ochilishi» bilan tenglashtirish mumkin edi.

O'sha davrda kredit kuchi Lo timsolida o'zining muxlisi, shoiri va bashoratchisiga ega bo'ldi. U Amsterdamda o'sha yillari eng yirik bo'lgan bankning faoliyatini chuqur o'rgandi. 1699-yilda u Parijda paydo bo'ldi, u yerdan esa Italiyaga bordi. Yangi tipdagi bank ochish orzusi 1704-yilda uni o'z vataniga olib keladi. Shotlandiya og'ir iqtisodiy ahvolda, savdoda turg'unlik, shaharlarda ishsizlik, tadbirkorlik ruhi keskin pasaygan, ana shunday sharoitda u o'zining kitobini (1705) yaratdi. U hech qanday nazariyotchi emas edi, uning asosiy iqtisodiy qiziqliklari pul va kredit muomalalariga tegishli edi, xolos. Lekin u o'z loyihasidagi g'oyalari bilan iqtisodiyot fanida muhim rol o'ynadi.

Sen-Simon unga baho berib, «tizim, ya'ni o'z davri odami», bo'l-ganligini bir necha bor qayd etdi. Lo o'z loyihasini keng targ'ib etdi va muhimi, uni amalga oshira boshladи.

Loning g'oyasi quyidagilardan iborat bo'lgan: uningcha, iqtisodiy ravnaqning kaliti mamlakatda pul mo'l-ko'lligidir. U pulning o'zini boylik deb hisoblamagan, tovarlar, korxonalar va savdo haqiqiy boylikdir (bu fikrni sof merkantilistlar fikri bilan solishtiring). Ammo pulning ko'pligi, uningcha, yerdan, ishchi kuchidan, tadbirkor mahoratlaridan to'la foydalanishni ta'minlaydi. U shunday yozadi: «*Ichki savdo odamlarning ish bilan bandligi va tovarlar almashuvidir... Ichki savdo pulga bog'liq. Pulning ko'pligi ko'p odamlarni ish bilan band etadi...*»

Ammo Jon Lo avvalgi merkantilistlardan sezilarli farq qiladi. U iqtisodiy rivojlanish omilini muomala sohasidan izlasa ham, metall pullarni sharaflamaydi, aksincha ularni tanqid qiladi. 200 yildan so'ng J.M.Keyns oltin pullarni «varvarlarning qoldig'i» deb ataydi, xuddi shularni Lo ham aytishi mumkin. Loning fikricha, pullar metalldan emas, balki xo'jalik talabi asosida banklar tomonidan chiqariladigan

kreditdan iborat bo'lmog'i kerak, ya'ni qog'oz pullarga ustunlik beriladi. Banklardan foydalanib, pul miqdorini o'stirish hozirgacha qo'llanilgan eng yaxshi usuldir. Lo tizimida yana ikki tamoyil muhim o'rinn egallaydi. Birinchidan, u banklar uchun kredit ekspansiyasi siyosatini, ya'ni bankda saqlanayotgan metall pul zahiralardan ko'p marta ortiq ssuda berish huquqini ko'zda tutgan. Ikkinchidan, u banklarning davlat ixtiyorida bo'lishi va davlatning iqtisodiy siyosatni o'tkazishini talab etgan.

Jon Lo banklarning ijobiylari, ustunlik tomonlarini ko'ra bildi, ammo uning salbiy holati, bo'lajak xavfni yo ko'rishni istamadi, yoki uni tushunib yetmadi. Bu Lo tizimining bosh amaliy, nozik xavfi edi va u oxir-oqibatda unga zarba berdi. Nazariy jihatdan Lo katta xatoga yo'il qo'ydi. U pul va kreditni kapital bilan aynan bir deb o'yлади. U xato ravishda ssuda va pul chiqarishni kengaytirish bilan bank kapitalini yaratdi hamda shu bilan boylik va ish bilan bandlik ortadi deb o'yлади. U olib borgan kredit operatsiyalar moliyaviy avanturizm bo'lib chiqdi.

Shotlandiya parlamenti Jon Loning bank tuzish loyihasini rad etdi. Angliya hukumati uning avvalgi gunohini (duelda odam o'ldirganligini) kechmadi, oqibatda Lo yana kontinentga ketishga majbur bo'ldi, u hayotining asosiy qismini chayqovchilik, turli qimorlarda ishtirok etish bilan o'tkaza boshladi. U o'z loyihasini Parijda amalga oshirishga erishdi. Fransiyaning iqtisodi og'ir ahvolda, davlat xazinasi bo'm-bo'sh edi. 1715-yilda qirol Ludovik XIV olamdan o'tdi, regent gersog Filipp Orleanskiy (odingi qirolning jiyaniga) Lo loyihasini qabul qildi, ammo oddiy emas, xususiy aksionerlik banki tuzildi. Amalda bu ko'zbo'yamachilik edi. Boshdanoq bank davlat bilan chambarchas bog'liq edi. 1716-yilning mayida tuzilgan bank nihoyatda katta yutuqqa erishdi, talantli administrator, ustaishbilarmon, mohir siyosatchi vadi plomat bo'lgan Lo regent yordamida mamlakatdagi barcha pul krediti tizimini ishonch bilan egalladi. Ko'p sonli bank banknotlari ustalik bilan tartibga solib turildi va keng iste'molga kiritib borildi, ular hatto haqiqiy chaqalardan ham ustun bo'lib qoldi. Parijdagi sudxo'r larga nisbatan ssuda foizi ancha imtiyozli edi va ongli ravishda sanoat va savdoga yo'naltirildi. Xalq xo'jaligida sezilarli jonlanish boshlandi.

Lo 1717-yilda Fransiyaning Missisi pi daryosi havzasidagi yerlarda katta kompaniya tuzdi, bu kompaniya 1719 yilda qirol bankiga aylangan bank bilan hamkorlikda ish yuritdi. Bu Jon Loning ikkinchi «buyuk g'oyasi» - kapitalni markazlashtirish va assotsiatsiyalash g'oyasi edi.

U bu sohada ham o'ziga xos bashoratchi bo'lib chiqdi. Agar G'arbiy Yevropa va Amerikada aksionerlik jamiyatlari faqatgina XIX asrning o'rtalarida tuzilgan bo'lsa, lo bu ishni XVIII asrning boshida amalga oshirdi. Kompaniya faoliyati tobora avj oldi, aksiya chiqarish va sotish tobora kuchaydi. Jon lo bu sohada qat'iylik ko'rsatdi. Har olti oyda ikki hissa dividend (foyda) olish imkonini tug'ildi.

5.4. Merkantilizm va hozirgi zamon

Yevropada proteksionizmning tiklanishi (Angliyada proteksionizm, Fransiyada kontinental qamat va boshqalar) va nemis tarixiy maktabi (bu haqda quyida gap boradi) vujudga kelishi bilan merkantilizm g'oyalari yana tilga olina boshlandi. *Avval Rosher* va *Shmoller*, so'ngra ularning ingliz izdoshlari Kanningem va Eshlilar merkantilizm g'oyalari to'la ratsional va ma'lum istak-natijalariga erishuvda, masalan, milliy avtarkiya va davlat hokimiyatini kuchaytirishda yaroqli siyosat deb qaradilar.

A.Smit mashhur asarining bir joyida «*Mamlakat xavfsizligi farovonlikdan muhimroq*» deb yozish bilan shunday nuqtayi nazarni ilgari surdiki, unga ko'ra merkantilistlar jiddiy qabul qilinishi kerak edi. Bu munosabat merkantilizm davridagi bosh masalalardan biriga oydinlik kiritishga imkon berdi: davlat qurilishining maqsadi qo'shni davlatlar iqtisodiy kuch-qudratini pasaytirish hisobiga ham erishiladi, bunda ushbu davlat qudratining oshishi ro'y beradi. Lokkning fikricha, bu shunday ro'y beradi: «boylik» oltin va kumushning ko'pligining anglatmaydi, balki boshqa davlatlarnikidan ortiqroq bo'ladi. Haqiqatan ham, ko'pchilik merkantilistlar shunday nuqtayi nazarni himoya qilganlarki, unga ko'ra millatlarning iqtisodiy manfaatlari antagonistik, ya'ni qarama-qarshidir, go'yoki dunyoda cheklangan miqdordagi resurslar mavjud, ularni esa bir davlat ikkinchi davlat hisobiga olishi mumkin. Bu merkantilistlarning «*qo'shningni talon-toroj qil*» degan siyosatini himoya qilishini tushuntirib beradi. Undan tashqari, bu g'oyada ichki iste'molni kamaytirish milliy siyosatning maqsadi qilib ko'rsatiladi.

Merkantilizmni qaytadan qo'llash, klassik mакtabni (bu haqda quyida gapiriladi) tan olmaslik, kapitalizm yo'liga keyinroq o'tgan davlatlarda ro'y berdi. Yangi davlatlar iqtisodiyotda to'la erkinlikka qarshi edi yoki bu erkinlik faqat kuchli Angliya uchun qulaylik va ustunlik beradi deb bejiz o'ylamaganlar. Shu sababli bu yerda merkantilistlarning davlatning

kreditdan iborat bo'lmosg'i kerak, ya'ni qog'oz pullarga ustunlik beriladi. Banklardan foydalanib, pul miqdorini o'stirish hozirgacha qo'llanilgan eng yaxshi usuldir. Lo tizimida yana ikki tamoyil muhim o'rinn egallaydi. Birinchidan, u banklar uchun kredit ekspansiyasi siyosatini, ya'ni bankda saqlanayotgan metall pul zahiralaridan ko'p marta ortiq ssuda berish huquqini ko'zda tutgan. Ikkinchidan, u banklarning davlat ixtiyorida bo'lishi va davlatning iqtisodiy siyosatni o'tkazishini talab etgan.

Jon Lo banklarning ijobiy, ustunlik tomonlarini ko'ra bildi, ammo uning salbiy holati, bo'lajak xavfni yo ko'rishni istamadi, yoki uni tushunib yetmadi. Bu Lo tizimining bosh amaliy, nozik xavfi edi va u oxir-oqibatda unga zarba berdi. Nazariy jihatdan Lo katta xatoga yo'l qo'ydi. U pul va kreditni kapital bilan aynan bir deb o'yladi. U xato ravishda ssuda va pul chiqarishni kengaytirish bilan bank kapitalini yaratdi hamda shu bilan boylik va ish bilan bandlik ortadi deb o'yladi. U olib borgan kredit operatsiyalar moliyaviy avanturizm bo'lib chiqdi.

Shotlandiya parlamenti Jon Loning bank tuzish loyihasini rad etdi. Angliya hukumati uning avvalgi gunohini (duelda odam o'ldirganligini) kechmadi, oqibatda Lo yana kontinentga ketishga majbur bo'ldi, u hayotining asosiy qismini chayqovchilik, turli qimorlarda ishtirok etish bilan o'tkaza boshladi. U o'z loyihasini Parijda amalga oshirishga erishdi. Fransiyaning iqtisodi og'ir ahvolda, davlat xazinasi bo'm-bo'sh edi. 1715-yilda qirol Ludovik XIV olamdan o'tdi, regent gersog Philipp Orleanskiy (odingi qirolning jiyani) Lo loyihasini qabul qildi, ammo oddiy emas, xususiy aksionerlik banki tuzildi. Amalda bu ko'zbo'yamachilik edi. Boshdanoq bank davlat bilan chambarchas bog'liq edi. 1716-yilning mayida tuzilgan bank nihoyatda katta yutuqqa erishdi, talantli administrator, ustaishbilarmon, mohir siyosatchi vadi plomat bo'lgan Lo regent yordamida mamlakatdagi barcha pul krediti tizimini ishonch bilan egalladi. Ko'p sonli bank banknotlari ustalik bilan tartibga solib turildi va keng iste'molga kiritib borildi, ular hatto haqiqiy chaqalardan ham ustun bo'lib qoldi. Parijdagi sudxo'r larga nisbatan ssuda foizi ancha imtiyozli edi va ongli ravishda sanoat va savdoga yo'naltirildi. Xalq xo'jaligida sezilarli jonlanish boshlandi.

Lo 1717-yilda Fransiyaning Mississipi daryosi havzasidagi yerlarda katta kompaniya tuzdi, bu kompaniya 1719 yilda qirol bankiga aylangan bank bilan hamkorlikda ish yuritdi. Bu Jon Loning ikkinchi «buyuk g'oyasi» - kapitalni markazlashtirish va assotsiatsiyalash g'oyasi edi.

U bu sohada ham o‘ziga xos bashoratchi bo‘lib chiqdi. Agar G‘arbiy Yevropa va Amerikada aksionerlik jamiyatlari faqatgina XIX asrning o‘rtalarida tuzilgan bo‘lsa, Lo bu ishni XVIII asrning boshida amalga oshirdi. Kompaniya faoliyati tobora avj oldi, aksiya chiqarish va sotish tobora kuchaydi. Jon Lo bu sohada qat’iylik ko‘rsatdi. Har olti oyda ikki hissa dividend (foyda) olish imkonini tug‘ildi.

5.4. Merkantilizm va hozirgi zamон

Yevropada proteksionizmnинг tiklanishi (Angliyada proteksionizm, Fransiyada kontinental qamal va boshqalar) va nemis tarixiy maktabi (bu haqda quyida gap boradi) vujudga kelishi bilan merkantilizm g‘oyalarini yana tilga olina boshlandi. *Avval Rosher* va *Shmoller*, so‘ngra ularning ingliz izdoshlari Kanningem va Eshlilar merkantilizm g‘oyalarini to‘la ratsional va ma’lum istak-natijalariga erishuvda, masalan, milliy avtarkiya va davlat hokimiyatini kuchaytirishda yaroqli siyosat deb qaradilar.

A.Smit mashhur asarining bir joyida «*Mamlakat xavfsizligi farovonlikdan muhimroq*» deb yozish bilan shunday nuqtayi nazarni ilgari surdiki, unga ko‘ra merkantilistlar jiddiy qabul qilinishi kerak edi. Bu munosabat merkantilizm davridagi bosh masalalardan biriga oydinlik kiritishga imkon berdi: davlat qurilishining maqsadi qo‘shti davlatlar iqtisodiy kuch-qudratini pasaytirish hisobiga ham erishiladi, bunda ushbu davlat qudratining oshishi ro‘y beradi. Lokkning fikricha, bu shunday ro‘y beradi: «boylik» oltin va kumushning ko‘pligining anglatmaydi, balki boshqa davlatlarnikidan ortiqroq bo‘ladi. Haqiqatan ham, ko‘pchilik merkantilistlar shunday nuqtayi nazarni himoya qilganlarki, unga ko‘ra millatlarning iqtisodiy manfaatlari antagonistik, ya’ni qarama-qarshidir, go‘yoki dunyoda cheklangan miqdordagi resurslar mavjud, ularni esa bir davlat ikkinchi davlat hisobiga olishi mumkin. Bu merkantilistlarning «*qo’shningni talon-toroj qil*» degan siyosatini himoya qilishini tushuntirib beradi. Undan tashqari, bu g‘oyada ichki iste’molni kamaytirish milliy siyosatning maqsadi qilib ko‘rsatiladi.

Merkantilizmni qaytadan qo’llash, klassik maktabni (bu haqda quyida gapiriladi) tan olmaslik, kapitalizm yo‘liga keyinroq o‘tgan davlatlarda ro‘y berdi. Yangi davlatlar iqtisodiyotda to‘la erkinlikka qarshi edi yoki bu erkinlik faqat kuchli Angliya uchun qulaylik va ustunlik beradi deb bejiz o‘ylamaganlar. Shu sababli bu yerda merkantilistlarning davlatning

shakllana bordi. Uy hunarmandchiligi o'rniga **manufakturaning** kirib kelishi katta ijobiy voqeа bo'ldi. Tarix, xalq xo'jaligi tarixi va boshqa ijtimoiy fanlarni o'qiganda hunarmandchilik, sex va manufaktura nima ekanligi bayon etiladi, uy hunarmandchiligidа hamma asosiy ishlar bir odam yoki oila tomonidan bajarilgan (xomashyoni tayyorlash, qayta ishslash, sotish...), unda aniq mehnat taqsimoti yo'q, manufakturada esa (manu - qo'l, facture - tayyorlash) mehnat taqsimoti, kooperatsiya, yollanma ishchi kuchi, demak, kapitalistik ishlab chiqarishning kurtaklari paydo bo'ldi. XVI asrdan boshlab dastlab Angliyada dehqonlarning yerdan mahrum qilinishi (yer yirik lendlordlar qo'liga o'ta boshladи) ro'y berdi, yomenlar - dehqon sinfi tugatildi, oqibatda kapitalistik fermerchilik yuzaga keldi (ular yermi lendlordlardan uzoq muddatli ijaraga olgan), ular yollanma mehnatdan (krepostnoylik emas) keng foydalangan, keyinchalik texnikani, ilmiy texnika yangiliklarini keng qo'llaganlar. Agrar inqilob, islohot nomini olgan bu o'zgarish manufaktura sanoatining rivoji bilan bog'liq. Dastlabki paytlarda bu sohada mato to'qish asosiy ish edi. U nihoyatda foyda keltituvchi sohaga aylandi. Matoga talab oshdi, uni qondirish uchun, sanoat uchun kerakli xomashyo bazasini yaratish talab qilindi. Xomashyo esa jun bo'lib, qo'ylardan olinardi. Manufaktura rivojiga jun kerak, buning uchun qo'ylar sonini oshirish talab etildi, ko'p qo'y boqish uchun esa yangi keng yaylovlar zarur, oqibatda chakkalakzor, botqoq, bo'z yerlar chegaralanib («yerlarni chegaralash» degan ibora shundan kelib chiqqan) yaylovgaga aylantirildi, Dehqon (yomen)lar o'z yerlaridan haydab chiqaridilar, yerlari esa tortib olinib, yaylovlarga aylantirildi. Bu jarayonning muhim ahamiyati bor: 1. manufaktura (sanoat) uchun xomashyo ko'paydi; 2. sanoatga ko'p va arzon ishchi kuchi yetkazib berildi (yerdan mahrum bo'lgan, haydalgan dehqonlar ish qidirib shaharlarga borganlar). Oqibatda sanoat tez o'sa boshladи, yangi sinflar paydo bo'ldi. Demak, sanoatdagina emas (manufaktura), qishloq xo'jaligida ham kapitalistik munosabatlar g'alaba qozondi. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga yo'l ochib berildi. Lekin ko'plab dehqonlarning ekspropriatsiya qilinishi (yersizlantirilishi), ularmi zo'rlik yo'li bilan yollanma mehnatga jalb etilishi (chunki boshqa iloj yo'q) qarama-qarshilikni kuchaytirdi, oqibatda 1641-1660-yillarda Angliyada inqilob bo'lib o'tdi. XVII asrdagi Niderlandiya keyingi ikkinchi bu inqilob burjua inqilobi bo'lib, u Angliyadagi feodal jamiyatga chek qo'ydi. Angliya respublika deb e'lon qilindi, parlament vujudga keldi, demokratik jarayon kuchaydi.

Xalq xo'jaligining yuksak rivoji ilmiy kashfiyotlarni taqozo etdi. Shu davrda Angliyada tabiiy fanlar, ayniqsa, mexanika, astronomiya va fizika tez rivoj topdi. Bu davrning eng buyuk vakili Isaak Nyutondir (1643-1727), Tomas Gobs (1588-1679) ingliz faylasufi, mexanistik materializm sistemasining asoschisi sifatida katta ahamiyatga ega. Uning fikricha, jamiyat mexanizmga o'xshash narsa, uning oddiy elementi inson degan g'oya yotadi. «Inson insonga bo'ri» iborasi shu olimga tegishli, uningcha egoizm insonni harakatlantiruvchi kuchdir. Bu olimda tarixga zid fikrlar mavjud bo'lishiga qaramay, uning fikricha, ijtimoiy hayotda ham xuddi tabiatdagi kabi obyektiv qonuniyatlar mavjud. Ana shunday sharoitda klassik iqtisodiy maktab shakllandi va rivojlandi. Bu davrda merkantilizm ta'lomi talabga javob bermay qo'ydi va uning buzilishi ro'y berdi.

Merkantilistlardan farqli ravishda (ular iqtisodiyotning faqat muomala sohasinigina tahlil etganlar), klassik maktab namoyandalari feodalizm o'rniga kelgan nisbatan progressiv kapitalistik munosabatlarning ichki iqtisodiy aloqalarini o'rgandilar va o'z tadqiqotlarini asosan ishlab chiqarish sohasiga ko'chirdilar. Klassik iqtisodiy maktab deganda V.Pettidan boshlanadigan iqtisodiy tadqiqotlar tan olinadi, bu ta'limot ishlab chiqarishdagi bozor munosabatlarining ichki aloqadorligini o'rganadi va tahlil etadi. V.Petti klassik maktab otasi va statistikaning kashfiyotchisidir. Angliyada *V.Petti*, Fransiyada *P.Buagilber* shu maktabning boshlovchilari bo'lsa, Fransiyada shu maktabning bir yo'naliishi bo'lgan fiziokratlar vujudga keldi (F.Kene, A.Tyурго) va u *A.Smit*, *D.Rikardolar* bilan yakunlanadi. Bu davr kapitalistik munosabatlar rivojiga yo'l ochib berdi. *R.Xeylbroner* va *L.Turoularning* fikricha («Экономика для всех»), ishlab chiqarish omillari vujudga keldi: mehnat, yer va kapital tovarga aylantirildi, bungacha ular tovar bo'limgan. Hozirgi davr tili bilan aytganda, bozor tizimi, bozor jamiyati barpo etila boshlandi.

Yangi ta'limotning klassik (mumtoz) deb atalishiga sabab shuki, hozirgi iqtisodiyotning asosida yotuvchi ko'pgina nazariya va metodologik qoidalarning haqiqiy ilmiy xarakteri bilan izohlanadi. Mana shu maktab namoyandalarining xizmatlari tufayli iqtisodiy nazariya ilmiy fan darajasiga ko'tarildi. Erkin xususiy tadbirkorlikning ahamiyati isbotlab berildi. P.Samuelson fikricha, yangi ta'limot to'la laissez faire (ya'ni tadbirkorlik faoliyatiga davlatning mutlaq aralashmasligi) sharoitiga o'tishga va voqealarning boshqacha rivojiga olib keladi va faqat XIX asrning oxirlarida deyarli barcha mamlakatlarda davlat iqtisodiy funksiyalarining doimiy kengayishi ro'y berdi. Bu ta'limot namoyandalari Angliyada V.Pettidan

shakllana bordi. Uy hunarmandchiligi o'rniga manufakturaning kirib kelishi katta ijobiy voqeа bo'ldi. Tarix, xalq xo'jaligi tarixi va boshqa ijtimoiy fanlarni o'qiganda hunarmandchilik, sex va manufaktura nima ekanligi bayon etiladi, uy hunarmandchiligidagi hamma asosiy ishlar bir odam yoki oila tomonidan bajarilgan (xomashyoni tayyorlash, qayta ishslash, sotish...), unda aniq mehnat taqsimoti yo'q, manufakturada esa (manu - qo'l, facture - tayyorlash) mehnat taqsimoti, kooperatsiya, yollanma ishchi kuchi, demak, kapitalistik ishlab chiqarishning kurtaklari paydo bo'ldi. XVI asrdan boshlab dastlab Angliyada dehqonlarning yerdan mahrum qilinishi (yer yirik lendlordlar qo'liga o'ta boshladgi) ro'y berdi, yomenlar - dehqon sinfi tugatildi, oqibatda kapitalistik fermerchilik yuzaga keldi (ular yerni lendlordlardan uzoq muddatli ijaraga olgan), ular yollanma mehnatdan (krepostnoylik emas) keng foydalangan, keyinchalik texnikani, ilmiy texnika yangiliklarini keng qo'llaganlar. Agrar inqilob, islohot nomini olgan bu o'zgarish manufaktura sanoatining rivoji bilan bog'liq. Dastlabki paytlarda bu sohada mato to'qish asosiy ish edi. U nihoyatda foyda keltiruvchi sohaga aylandi. Matoga talab oshdi, uni qondirish uchun, sanoat uchun kerakli xomashyo bazasini yaratish talab qilindi. Xomashyo esa jun bo'lib, qo'ylardan olinardi. Manufaktura rivojiga jun kerak, buning uchun qo'ylar sonini oshirish talab etildi, ko'p qo'y boqish uchun esa yangi keng yaylovlar zarur, oqibatda chakalakzor, botqoq, bo'z yerlar chegaralanib («yerlarni chegaralash» degan ibora shundan kelib chiqqan) yaylovga aylantirildi, Dehqon (yomen)lar o'z yerlaridan haydar chiqarildilar, yerlari esa tortib olinib, yaylov larga aylantirildi. Bu jarayonning muhim ahamiyati bor: 1. manufaktura (sanoat) uchun xomashyo ko'paydi; 2. sanoatga ko'p va arzon ishchi kuchi yetkazib berildi (yerdan mahrum bo'lgan, haydalangan dehqonlar ish qidirib shaharlarga borganlar). Oqibatda sanoat tez o'sa boshladи, yangi sinflar paydo bo'ldi. Demak, sanoatdagina emas (manufaktura), qishloq xo'jaligida ham kapitalistik munosabatlar g'alaba qozondi. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga yo'l ochib berildi. Lekin ko'plab dehqonlarning ekspropriatsiya qilinishi (yersizlantirilishi), ularni zo'rlik yo'li bilan yollanma mehnatga jaib etilishi (chunki boshqa iloj yo'q) qarama-qarshilikni kuchaytirdi, oqibatda 1641-1660-yillarda Angliyada inqilob bo'lib o'tdi. XVII asrdagi Niderlandiya keyingi ikkinchi bu inqilob burjua inqilobi bo'lib, u Angliyadagi feodal jamiyatga chek qo'ydi. Angliya respublika deb e'lon qilindi, parlament vujudga keldi, demokratik jarayon kuchaydi.

Xalq xo'jaligining yuksak rivoji ilmiy kashfiyotlarni taqozo etdi. Shu davrda Angliyada tabiiy fanlar, ayniqsa, mexanika, astronomiya va fizika tez rivoj topdi. Bu davrning eng buyuk vakili Isaak Nyutondir (1643-1727), Tomas Gobs (1588-1679) ingliz faylasufi, mexanistik materializm sistemasining asoschisi sifatida katta ahamiyatga ega. Uning fikricha, jamiyat mexanizmga o'xshash narsa, uning oddiy elementi inson degan g'oya yotadi. «Inson insonga bo'ri» iborasi shu olimga tegishli, uningcha egoizm insonni harakatlantiruvchi kuchdir. Bu olimda tarixga zid fikrlar mavjud bo'lishiga qaramay, uning fikricha, ijtimoiy hayotda ham xuddi tabiatdagi kabi obyektiv qonuniyatlar mavjud. Ana shunday sharoitda klassik iqtisodiy maktab shakllandi va rivojlandi. Bu davrda merkantilizm ta'lomi talabga javob bermay qo'ydi va uning buzilishi ro'y berdi.

Merkantilistlardan farqli ravishda (ular iqtisodiyotning faqat muomala sohasinigina tahlil etganlar), klassik maktab namoyandalari feodalizm o'rniga kelgan nisbatan progressiv kapitalistik munosabatlarning ichki iqtisodiy aloqalarini o'rgandilar va o'z tadqiqotlarini asosan ishlab chiqarish sohasiga ko'chirdilar. Klassik iqtisodiy maktab deganda V.Pettidan boshlanadigan iqtisodiy tadqiqotlar tan olinadi, bu ta'lilot ishlab chiqarishdagi bozor munosabatlarning ichki aloqadorligini o'rganadi va tahlil etadi. V.Petti klassik maktab otasi va statistikaning kashfiyotchisidir. Angliyada V.Petti, Fransiyada P.Buagilber shu maktabning boshlovchilari bo'lsa, Fransiyada shu maktabning bir yo'nalishi bo'lgan fiziokratlar vujudga keldi (F.Kene, A.Tyurgo) va u A.Smit, D.Rikardolar bilan yakunlanadi. Bu davr kapitalistik munosabatlар rivojiga yo'l ochib berdi. R.Xeylbroner va L.Turovularning fikricha («Экономика для всех»), ishlab chiqarish omillari vujudga keldi: mehnat, yer va kapital tovarga aylan-tirildi, bungacha ular tovar bo'lmagan. Hozirgi davr tili bilan aytganda, bozor tizimi, bozor jamiyatni barpo etila boshlandi.

Yangi ta'lilotning klassik (mumtoz) deb atalishiga sabab shuki, hozirgi iqtisodiyotning asosida yotuvchi ko'pgina nazariya va metodologik qoidalarning haqiqiy ilmiy xarakteri bilan izohlanadi. Mana shu maktab namoyandalarining xizmatlari tufayli iqtisodiy nazariya ilmiy fan darajasiga ko'tarildi. Erkin xususiy tadbirkorlikning ahamiyati isbotlab berildi. P.Samuelson fikricha, yangi ta'lilot to'la laisser faire (ya'ni tadbirkorlik faoliyatiga davlatning mutlaq aralashmasligi) sharoitiga o'tishga va voqealarning boshqacha rivojiga olib keladi va faqat XIX asrning oxirlarida deyarli barcha mamlakatlarda davlat iqtisodiy funksiyalarining doimiy kengayishi ro'y berdi. Bu ta'lilot namoyandalari Angliyada V.Pettidan

to D.Rikardogacha, Fransiyada P.Buagilberdan S.Sismondigacha (XIX asrning o'rtalarigacha) yangi jamiyatning haqiqiy ishlab chiqarish munosabatlarini tadqiq etdilar. Ularning fikricha, erkin xo'jalik faoliyatida shu davrdagi tuzum mukammal deb qaraladi.

Ya.S. Yadgarov klassik maktab rivojlanishida (ma'lum shart bilan) 4 bosqichni ajratadi: 1-bosqich XVII asr oxiri – XVIII asr boshiga to'g'ri keladi. Bu bosqichda merkantilizm ta'limotining xatolari yoritib beriladi va uning asoschilari V.Petti va P.Buagilber bir-biridan bexabar qiyamatning mehnat nazariyasini ilgari surdilar va har qanday qiyamatning manbayi va o'lchovi sifatida tovar mahsulot yoki boshqa boylikni yaratish uchun sarflangan mehnat miqdori hisoblanadi. Boylik va farovonlik muomala sohasida emas, ishlab chiqarish sohasida yaratilishi ko'rsatiladi.

Bu bosqich XVIII asr o'rtalarida va 2-yarmida fransiyalik F.Kene va A.Tyurgolar tomonidan ilgari surilgan fiziokratizm bilan yakunlanadi. Sof mahsulot (milliy daromad) manbayini qidirish orqali asosiy e'tiborni mehnat bilan yerga qaratdilar. Merkantilizm tanqid qilinib, tahlilda ishlab chiqarish asossiz ravishda muomala sohasidan to'la ajratib qo'yilgan.

2- bosqich. XVIII asr oxiri va XIX asr boshiga to'g'ri kelib, A.Smit asarlaridagi iqtisodiy g'oyalarda aks etgan.

3- bosqich. XIX asrning 1-yarmiga to'g'ri kelib, fransiyalik J.B. Sey va F. Bastiya, inglizlar D. Rikardo, T. Maltus va N. Senior, amerikalik G. Keri va boshqalar asarlaridagi g'oyalarda bog'liq.

4- bosqich. XIX asrning 2-yarmiga to'g'ri keladi va J.S. Mill g'oyalarda o'z nihoyasiga yetadi. K. Marksga ham shu bosqich vakili sifatida qaraladi lekin, fikrimizcha, bu unchalik to'g'ri emas. Bu bosqichlarning xususiyatlari tegishli boblarda yoritiladi.

6.2. V.Petti - Angliya klassik iqtisodiy maktabining asoschisi

Umumiyligi bahoga ko'ra, klassik maktab XVII asr oxiri - XVIII asr boshlarida V.Petti (Angliya) va P.Buagilber (Fransiya) asarlarida yaratildi.

Vilyam Petty (1623-1687) Romsi shahrida tug'ilgan. Angliya klassik iqtisodiy maktabining asoschisidir. Ko'pchilik bu olimning iqtisodiyot fani sohasidagi faoliyatiga yuksak baho berib, uni buyuk va takrorlanmas iqtisodchi-tadqiqotchi deb baholagan edi. V.Petti favqulodda har tomonlama va yuksak bilimli inson bo'lgan. U mayda hunarmand-matochi oilasida tug'ildi. Leyden, Parij va Oksford universitetlarida tibbiyot sohasi-

da tahsil ko'rdi. U juda qobiliyatli talaba bo'lgan, 1647-yilda nusxa ko'chiradigan mashinani (kseroks) ixtiro qildi, 1649-yilda fizika doktori ilmiy darajasiga ega bo'ldi. U dengizchi, vrach sifatida ham ishladi. Petti, shu bilan birga, yirik yer egasi ham edi, u yirik ingliz lendlordlar (yirik yer egasi) sulolasining asoschisi bo'lib qoldi. 1652-yilda Kromvel hukumatining topshirig'iga ko'ra Irlandiyaning «yer obzori» (kadastro)ni o'tkazdi.

U XVII asrdagi Angliya burjuaziya inqiloblaridan keyin kuchaygan ingliz tadbirdorlar mafkurachisi sifatida tanildi. U tadbirdorlar mulkini, ya'ni xususiy mulkni «muqaddas» va «daxlsiz» deb bildi va uni turicha yo'llar bilan himoya qildi. Ish haqini cheklash tarafdori sifatida ishchilarga fizik jihatdan minimum haq to'lash, shu bilan birga, yangi sinfning boyishiga yordam berishni qo'lladi. U mehnatning kapital tomonidan ekspluatatsiyasini yoqlab chiqdi. Shuningdek, Angliyaning mustamlakachilik siyosatini ham qonuniy deb hisobladi. V.Petti kapitalga soliq solishga qarshi edi, chunki bu ishlab chiqarishni cheklashi mumkin edi. Shu bilan birga, u mehnatkashlarning daromadlaridan soliq olish tarafdori edi. U iqtisodiy muammolarga bag'ishlangan «*Soliqlar va yig'imlar to'g'risida risola*» (1662), «*So'z donishmandlarga*» (1665), «*Irlandiyaning siyosiy anatomiyasi*» (1672), «*Siyosiy arifmetika*» (1683) va boshqa shu kabi asarlarni yozdi.

V.Petti XVII asrdagi eng taniqli shaxslar qatoridan o'rinn oladi (Makkulloxning 1845-yilda bergan bahosi). U iqtisodiyotni o'rganishda yangi usul qo'lladi, ko'rinish turgan voqealarni sharhlashdan ularning mohiyatini tahlil etishga o'tdi. V.Petti tadqiqot predmeti sifatida ishlab chiqarish sohasi muammolarini tahlil etdi. Uning fikricha, boylik paydo bo'lishi va ko'payishi faqat moddiy ne'matlar yaratish sohasida ro'y beradi, bu jarayon savdo va savdo kapitalining hech qanday ishtirokisz bo'ladi.

Olimning tadqiqot usulida empirizm elementlari (unsurlari) bo'lishiga qaramasdan (bu masalan, yer bahosini talqin etishda ko'rindi), davlatning iqtisodiy faoliyatga aralashuvini qisman qo'llaydi (mamlakatdagi savdogarlar sonini qisqartirishni talab etadi), u asosan erkin iqtisodiyot (laisser faire) prinsiplarini qo'llaydi va merkantilistlardan farqli ravishda pul muomalasi va savdoni erkinlashtirish tarafdori bo'lgan. U o'z tadqiqotlarida bir qancha metodik (shartli) soddalashtirishlardan foydalanadi:

- muomala sohasining ishlab chiqarishga teskari ta'siri inkor etiladi;
- pul va tovar bozorlarining o'zaro bog'liqligi ko'zda tutilmaydi;

to D.Rikardogacha, Fransiyada P.Buagilberdan S.Sismondigacha (XIX asrning o'rtalarigacha) yangi jamiyatning haqiqiy ishlab chiqarish munosabatlarini tadqiq etdilar. Ularning fikricha, erkin xo'jalik faoliyatida shu davrdagi tuzum mukammal deb qaratadi.

Ya.S. Yadgarov klassik maktab rivojlanishida (ma'lum shart bilan) 4 bosqichni ajratadi: 1-bosqich XVII asr oxiri – XVIII asr boshiga to'g'ri keladi. Bu bosqichda merkantilizm ta'limotining xatolari yoritib beriladi va uning asoschilari V.Petti va P.Buagilber bir-biridan bexabar qiyamatning mehnat nazariyasini ilgari surdilar va har qanday qiyamatning manbayi va o'chovi sifatida tovar mahsulot yoki boshqa boylikni yaratish uchun sarflangan mehnat miqdori hisoblanadi. Boylik va farovonlik muomala sohasida emas, ishlab chiqarish sohasida yaratilishi ko'rsatiladi.

Bu bosqich XVIII asr o'rtalarida va 2-yarmida fransiyalik F.Kene va A.Tyurgolar tomonidan ilgari surilgan fiziokratizm bilan yakunlanadi. Sof mahsulot (milliy daromad) manbayini qidirish orqali asosiy e'tiborni mehnat bilan yerga qaratdilar. Merkantilizm tanqid qilinib, tahlilda ishlab chiqarish asossiz ravishda muomala sohasidan to'la ajratib qo'yilgan.

2- bosqich. XVIII asr oxiri va XIX asr boshiga to'g'ri kelib, A.Smit asarlaridagi iqtisodiy g'oyalarda aks etgan.

3- bosqich. XIX asrning 1-yarmiga to'g'ri kelib, fransiyalik J.B. Sey va F. Bastiya, inglizlar D. Rikardo, T. Maltus va N. Senior, amerikalik G. Keri va boshqalar asarlaridagi g'oyalar bilan bog'liq.

4- bosqich. XIX asrning 2-yarmiga to'g'ri keladi va J.S. Mill g'oyalarda o'z nihoyasiga yetadi. K. Marksiga ham shu bosqich vakili sifatida qaratadi lekin, fikrimizcha, bu unchalik to'g'ri emas. Bu bosqichlarning xususiyatlari tegishli boblarda yoritiladi.

6.2. V.Petti - Angliya klassik iqtisodiy maktabining asoschisi

Umumiy bahoga ko'ra, klassik maktab XVII asr oxiri - XVIII asr boshlarida V.Petti (Angliya) va P.Buagilber (Fransiya) asarlarida yaratildi.

Vilyam Petty (1623-1687) Romsi shahrida tug'ilgan. Angliya klassik iqtisodiy maktabining asoschisidir. Ko'pchilik bu olimning iqtisodiyot fani sohasidagi faoliyatiga yuksak baho berib, uni buyuk va takrorlanmas iqtisodchi-tadqiqotchi deb baholagan edi. V.Petti favqulodda har tomonlama va yuksak bilimli inson bo'lgan. U mayda hunarmand-matochi oilasida tug'ildi. Leyden, Parij va Oksford universitetlarida tibbiyot sohasi-

da tahlil ko'rdi. U juda qobiliyatli talaba bo'lgan, 1647-yilda nusxa ko'chiradigan mashinani (kseroks) ixtiro qildi, 1649-yilda fizika doktori ilmiy darajasiga ega bo'ldi. U dengizchi, vrach sifatida ham ishladi. Petti, shu bilan birga, yirik yer egasi ham edi, u yirik ingliz lendlordlar (yirik yer egasi) sulolasining asoschisi bo'lib qoldi. 1652-yilda Kromvel hukumati ning topshirig'iga ko'ra Irlandiyaning «yer obzori» (kadastro)ni o'tkazdi.

U XVII asrdagi Angliya burjuaziya inqiloblaridan keyin kuchaygan ingliz tadbirkorlar mafkurachisi sifatida tanildi. U tadbirkorlar mulkini, ya'ni xususiy mulkni «muqaddas» va «daxlsiz» deb bildi va uni turlichay yo'llar bilan himoya qildi. Ish haqini cheklash tarafdori sifatida ishchilarga fizik jihatdan minimum haq to'lash, shu bilan birga, yangi sinfning boyishiga yordam berishni qo'lladi. U mehnatning kapital tomonidan ekspluatatsiyasini yoqlab chiqdi. Shuningdek, Angliyaning mustamlakachilik siyosatini ham qonuniy deb hisobladi. V.Petti kapitalga soliq solishga qarshi edi, chunki bu ishlab chiqarishni cheklashi mumkin edi. Shu bilan birga, u mehnatkashlarning daromadlaridan soliq olish tarafdori edi. U iqtisodiy muammolarga bag'ishlangan «*Soliqlar va yig'imlar to'g'risida risola*» (1662), «*So'z donishmandlarga*» (1665), «*Irlandiyaning siyosiy anatomiyasi*» (1672), «*Siyosiy arifmetika*» (1683) va boshqa shu kabi asarlarni yozdi.

V.Petti XVII asrdagi eng taniqli shaxslar qatoridan o'rinn oladi (Makkulloxning 1845-yilda bergan bahosi). U iqtisodiyotni o'rganishda yangi usul qo'lladi, ko'rinish turgan voqealarni sharhlashdan ularning mohiyatini tahlil etishga o'tdi. V.Petti tadqiqot predmeti sifatida ishlab chiqarish sohasi muammolarini tahlil etdi. Uning fikricha, boylik paydo bo'lishi va ko'payishi faqat moddiy ne'matlar yaratish sohasida ro'y beradi, bu jarayon savdo va savdo kapitalining hech qanday ishtirokisiz bo'ladi.

Olimning tadqiqot usulida empirizm elementlari (unsurlari) bo'lishiga qaramasdan (bu masalan, yer bahosini talqin etishda ko'rindi), davlatning iqtisodiy faoliyatga aralashuvini qisman qo'llaydi (mamlakatdagi savdogarlar sonini qisqartirishni talab etadi), u asosan erkin iqtisodiyot (laisser faire) prinsiplarini qo'llaydi va merkantilistlardan farqli ravishda pul muomalasi va savdoni erkinlashtirish tarafidori bo'lgan. U o'z tadqiqotlarida bir qancha metodik (shartli) soddalashtirishlardan foydalanadi:

- muomala sohasining ishlab chiqarishga teskari ta'siri inkor etiladi;
- pul va tovar bozorlarining o'zaro bog'liqligi ko'zda tutilmaydi;

mehnat natijasi sifatida namoyon bo'ladi, bu qo'shimcha qiymat, uningcha, rentadir.

U ishlab chiqarmaydigan aholiga - dindorlar, advokat, amaldorlarga salbiy munosabatda bo'ldi, shuningdek, u sotuvchilar sonini ham keskin kamaytirish tarafdori edi. Tadbirkorlar va yer egalarining daromadlarini belgilash uchun umumiy bo'lgan «Renta» tushunchasi kiritiladi.

V.Petti renta nazariyasini ham ishlab chiqdi (siz ham rentani bir eslang). Uning fikricha, renta mahsulot (natura) ko'rinishida ish haqi va urug'likni ajratgandan keyin qoladigan mahsulot miqdoriga teng bo'lishi kerak. Demak, bu holda renta qo'shimcha mahsulotga teng. Pul holidagi renta qo'shimcha mahsulotning kumush miqdoriga teng qiymatidir.

V.Pettida foyda tushunchasi alohida kategoriya shaklida yo'q, renta barcha qo'shimcha qiymatga teng miqdor deb baholanadi. Shu sababli renta to'g'risidagi nazariyada amalda qo'shimcha qiymat haqida gap boradi. Qiymatni mehnat sarflari sifatida qarab, V.Petti birin-ketin renta (qo'shimcha qiymat)ni qo'shimcha mehnat natijasi ekanligini aniqlaydi. Buni fermerning foydasi sifatida ham qaraydi.

Ish haqi va rentani mehnat asosida yuzaga kelgan qiymatning bir bo'lagi sifatida tahlil etib, Pettii muhim qisqacha xulosalar chiqaradiki, unga ko'ra ish haqi va renta bir-biriga qarshi. Masalan, — deydi u, — bir bushel (36,4 kg) bug'doy 60 pensdan sotiladi, undan 20 pensi yer rentasiga, 40 pensi yer egasining ish haqi sifatida berilsa va ish haqi $1/8$ ga yoki kuniga 8 dan 9 pensga ko'tarilsa, yer egasining 1 bushel bug'doydagi hissasi 40 dan 45 ga ko'tariladi, yer rentasi esa 20 dan 15 pensga (ya'ni 5 pensga) kamayadi.

V.Petti rentaning kelib chiqishi to'g'risida ham muhim va qiziqarli fikrlarni beradi (umuman, renta absolut va differensial bo'ladi). Differensial rentaning kelib chiqishini u yer uchastkalarining turlicha joylashganligi bilan tushuntiradi (birinchi sabab, ya'ni bozorga uzoq-yaqinligi, masofa, transport sarflari). U rentaning ikkinchi sababini ham aniqlab, yerning tabiiy unumdorligining turlicha ekanligini ko'rsatgan. Olimlarning fikricha, V.Petti differensial rentani Adam Smitdan ham yaxshi bayon etgan.

Absolut renta haqida gap borganda shuni aytish kerakki, bu renta yerga xususiy mulkchilik bo'lganda namoyon bo'ladi. V.Petti yer bahosi

masalasini juda qiziq va noyob ravishda hal etishga uringan. Uning fikricha, yerni sotib oluvchi har yili renta olish huquqini qo'liga kiritgan shaxsdir. Shu sababli yerning bahosi bir yillik rentani ma'lum bir songa ko'paytirish orqali aniqlanadi. Hamma masala shunda bo'lib, uni tanlash talab etiladi. Xo'sh, u nima bo'lishi mumkin?

V.Petti bu savolga javoban shunday deydi: yer sotib oluvchi o'zi va o'ziga yaqin avlod-ajodolarining manfaatlarini e'tiborga olib ish yuritadi. Uningcha, odatda, uch avlod vakillari bir vaqtida hamkorlikda yashaydilar: buva (50 yosh), o'g'il (28 yosh) va nabira (7 yosh). U shu uch avlodning hamkorlik davrida yashagan yillar rentasi yig'indisini yer bahosi deb qabul qiladi. U Angliya uchun bunday son 21 yilga teng ekanligini aniqlaydi. Demak, yerning bahosi shuncha bir yillik rentalar yig'indisiga teng, degan xulosa chiqariladi.

V.Petti yerni sotib oluvchi uchun yer yillik daromad manbai ekanligini tushungan. Shunga muvofiq u yerning bahosi shunday summaga teng bo'lishi kerakki, bu summa har yili olinadigan renta huquqini beradigan bo'lishi kerak, deb to'g'ri hisoblagan. Amalda *yerning bahosini* kapitallahsgan rentadek hisoblash orqali V.Petti masalaning mohiyatini to'la va to'g'ri tushungan.

Ammo yerning bahosi masalasi hali to'la hal etilmadi, chunki yerning bahosi ikki omilga bog'liq: 1) yer rentasining miqdori, 2) prosent (foiz) darajasi. V.Petti esa yuqorida qayd etilganidek, ssuda prosentini yer bahosidan chiqargan. Bu qiyin ahvoldan chiqish uchun u yer bahosi rentaning 21 ga ko'paytirilganiga teng deb hisoblagan (uch avlod - buva, ota va nevara birgalikda 21 yil yashaydilar va yerdan birga foydalananadilar, degan qisqacha xulosalar). Yening asl bahosi masalasini boshqa olimlar to'g'ri hal etdilar.

V.Pettining «Siyosiy arifmetika» asari to'la ravishda uning vafotidan keyin bosilib chiqdi (kitob uning o'g'li lord Shelburn tomonidan nashr etilgan). Buning sababi shuki, unda Angliya va Fransiyani chog'ishtiruvchi ma'lumotlar bor edi. Bu asar yangi fan - statistikaga asos soldi. Bu davrda hali bu tushunchaning o'zi yo'q edi («statistika» so'zi XVII asr oxirida paydo bo'ldi).

V.Petti birinchilardan bo'lib davlat statistika xizmatini tuzish zarurligi masalasini ko'tardi va ma'lumot to'plashning ayrim yo'nalishlarini belgilab berdi. Uningcha, mamlakatdagi aholining umumiy soni, joylashushi, yoshi va kasbi hamda boshqa ma'lumotlar muhimdir. Iqtisodiy

mehnat natijasi sifatida namoyon bo'ladi, bu qo'shimcha qiymat, uningcha, rentadir.

U ishlab chiqarmaydigan aholiga - dindorlar, advokat, amaldorlarga salbiy munosabatda bo'ldi, shuningdek, u sotuvchilar sonini ham keskin kamaytirish tarafdori edi. Tadbirkorlar va yer egalarining daromadlarini belgilash uchun umumiy bo'lgan «Renta» tushunchasi kiritiladi.

V.Petti renta nazariyasini ham ishlab chiqdi (siz ham rentani bir eslang). Uning fikricha, renta mahsulot (*natura*) ko'rinishida ish haqi va urug'likni ajratgandan keyin qoladigan mahsulot miqdoriga teng bo'lishi kerak. Demak, bu holda renta qo'shimcha mahsulotga teng. Pul holidagi renta qo'shimcha mahsulotning kumush miqdoriga teng qiymatidir.

V.Petti foyda tushunchasi alohida kategoriya shaklida yo'q, renta barcha qo'shimcha qiymatga teng miqdor deb baholanadi. Shu sababli renta to'g'risidagi nazariyada amalda qo'shimcha qiymat haqida gap boradi. Qiymatni mehnat sarflari sifatida qarab, V.Petti birin-ketin renta (qo'shimcha qiymat)ni qo'shimcha mehnat natijasi ekanligini aniqlaydi. Buni fermerning foydasi sifatida ham qaraydi.

Ish haqi va rentani mehnat asosida yuzaga kelgan qiymatning bir bo'lagi sifatida tahlil etib, Petti muhim qisqacha xulosalar chiqaradiki, unga ko'ra ish haqi va renta bir-biriga qarshi. Masalan, — deydi u, — bir bushel (36,4 kg) bug'doy 60 pensdan sotiladi, undan 20 pensi yer rentasiga, 40 pensi yer egasining ish haqi sifatida berilsa va ish haqi 1/8 ga yoki kuniga 8 dan 9 pensga ko'tarilsa, yer egasining 1 bushel bug'doydagি hissasi 40 dan 45 ga ko'tariladi, yer rentasi esa 20 dan 15 pensga (ya'ni 5 pensga) kamayadi.

V.Petti rentaning kelib chiqishi to'g'risida ham muhim va qiziqrarli fikrlarni beradi (umuman, renta absolut va differensial bo'ladi). Differensial rentaning kelib chiqishini u yer uchastkalarining turlicha joylashganligi bilan tushuntiradi (birinchi sabab, ya'ni bozorga uzoq-yaqinligi, masofa, transport sarflari). U rentaning ikkinchi sababini ham aniqlab, yerning tabiiy unumdorligining turlicha ekanligini ko'rsatgan. Olimlarning fikricha, V.Petti differensial rentani Adam Smitdan ham yaxshi bayon etgan.

Absolut renta haqida gap borganda shuni aytish kerakki, bu renta yerga xususiy mulkchilik bo'lganda namoyon bo'ladi. V.Petti yer bahosi

masalasini juda qiziq va noyob ravishda hal etishga uringan. Uning fikricha, yerni sotib oluvchi har yili renta olish huquqini qo'lga kiritgan shaxsdir. Shu sababli yerning bahosi bir yillik rentani ma'lum bir songa ko'paytirish orqali aniqlanadi. Hamma masala shunda bo'lib, uni tanlash talab etiladi. Xo'sh, u nima bo'lishi mumkin?

V.Petti bu savolga javoban shunday deydi: yer sotib oluvchi o'zi va o'ziga yaqin avlod-ajodolarining manfaatlarini e'tiborga olib ish yuritadi. Uningcha, odatda, uch avlod vakillari bir vaqtida hamkorlikda yashaydilar: buva (50 yosh), o'g'il (28 yosh) va nabira (7 yosh). U shu uch avlodning hamkorlik davrida yashagan yillar rentasi yig'indisini yer bahosi deb qabul qiladi. U Angliya uchun bunday son 21 yilga teng ekanligini aniqlaydi. Demak, yerning bahosi shuncha bir yillik rentalar yig'indisiga teng, degan xulosa chiqariladi.

V.Petti yerni sotib oluvchi uchun yer yillik daromad manbai ekanligini tushungan. Shunga muvofiq u yerning bahosi shunday summaga teng bo'lishi kerakki, bu summa har yili olinadigan renta huquqini beradigan bo'lishi kerak, deb to'g'ri hisoblagan. *Amalda yerning bahosini* kapitallahsgan rentadek hisoblash orqali V.Petti masalaning mohiyatini to'la va to'g'ri tushungan.

Ammo yerning bahosi masalasi hali to'la hal etilmadi, chunki yerning bahosi ikki omliga bog'liq: 1) yer rentasining miqdori, 2) prosent (foiz) darajasi. V.Petti esa yuqorida qayd etilganidek, ssuda prosentini yer bahosidan chiqargan. Bu qiyin ahvoldan chiqish uchun u yer bahosi rentaning 21 ga ko'paytirilganiga teng deb hisoblagan (uch avlod - buva, ota va nevara birgalikda 21 yil yashaydilar va yerdan birga foydalanadilar, degan qisqacha xulosalar). Yening asl bahosi masalasini boshqa olimlar to'g'ri hal etdilar.

V.Pettining «Siyosiy arifmetika» asari to'la ravishda uning vafotidan keyin bosilib chiqdi (kitob uning o'g'li lord Shelberni tomonidan nashr etilgan). Buning sababi shuki, unda Angliya va Fransiyani chog'ishtiruvchi ma'lumotlar bor edi. Bu asar yangi fan - statistikaga asos soldi. Bu davrda hali bu tushunchaning o'zi yo'q edi («statistika» so'zi XVIII asr oxirida paydo bo'ldi).

V.Petti birinchilardan bo'lib davlat statistika xizmatini tuzish zarurligi masalasini ko'tardi va ma'lumot to'plashning ayrim yo'nalishlarini belgilab berdi. Uningcha, mamlakatdagi aholining umumiy soni, joylashuvi, yoshi va kasbi hamda boshqa ma'lumotlar muhimdir. Iqtisodiy

ko'rsatkichlardan asosiy tovarlarning ishlab chiqilishi va iste'moli, aholi daromadi, boylik taqsimoti haqidagi ma'lumotlar kerakli hisoblangan. Pettining kuzatishicha, mamlakatda faqat soliq va tashqi savdo bo'yicha ayrim ma'lumotlar bor edi, xolos. Biror masala haqida gap ochilar ekan, Petti «*avval hisoblab ko'rish kerak*» degan fikrni aytishni yaxshi ko'rар edi. Statistika bilan shug'ullanganligi tufayli ma'lum ma'noda «*rejalashtirish*» masalalari ham ko'tarilgan. Masalan, u «ishchilar kuchi balansi» bilan shug'ullanib, mamlakatga shuncha vrach va advokat kerak, demak, oliv o'quv yurtlariga yiliги shuncha talaba qabul qilish kerak, degan hisob-kitoblarni keltirar edi. Odatda, u Angliya va Fransiyaning iqtisodiy ahvolini solishtirib, qaysi davlat boyroq ekanligini aniq faktlar bilan ko'rsatishga intilgan.

«Siyosiy arifmetika» kitobining muqaddimasida u o'z uslubining yangi ekanligini ta'kidlab, qiyosiy (ozroq, ko'proq, yaxshiroq, yomonroq) ko'rsatkichlardan aniq statistik raqamlar - son, og'irlilik bilan boshqa o'chovlar tiliga o'tish kerakligini aytadi. U milliy daromad, milliy boylik haqida gapiradi va Angliyaning milliy boyligini hisoblab chiqadi (ma'lumki, bu ko'rsatkichlar hozirgi kunda juda muhim ko'rsatkich hisoblanadi). Masalan, u Angliyaning moddiy boyligini 250 million funt sterling deb baholaydi, ammo aholining 417 million funt sterling pulini ham shunga qo'shish kerak, deydi.

V.Pettining iqtisodiy ta'lomi aholining soni va tarkibidan boshlanishi nihoyatda muhimdir. Uning g'oyasi o'zidan keyingi Maltusdan keskin farq qiladi, agar Pettining fikri bo'yicha «*aholi - boylikning asosi*» bo'lsa, Maltusda aholining tez o'sishi kambag'allikning asosidir. V.Petti Angliyaning milliy daromadini ham hisoblab chiqdi. Uning hisobiga ko'ra, Angliyaning pui shaklidagi boyligi barcha boylikning faqat 3%iga teng ekan. Xuddi shundan hozirgi davrning milliy hisob raqamlari yuzaga keldi, unga qarab ishlab chiqarish hajmini, bu boylikning aholi o'rtasida taqsimotini (iste'mol, jamg'arma, eksport, aholi, asosiy sinflar, guruhlar daromadi) va boshqalarni bilib olish mumkin. Albatta, hozirgi davr bilan solishtirganda bu hisob-kitoblarda jiddiy uslubiy xatoliklar bor edi. Masalan, u milliy daromadni aholining iste'mol sarflari yig'indisi deb bilgan, ya'ni jamg'arma, bino, qurilish, asbob-uskuna, yerni yaxshilashga ketgan kapital qo'yilmalar hisobga olinmasa ham bo'laveradi, deb noto'g'ri o'ylagan. Ammo XVII asrdagi Angliya uchun bunday yo'l ancha realistik edi,

chunki jamg'arma normasi past bo'lgan Angliyaning moddiy boyligi nisbatan sekin o'sayotgan edi. Sal keyinroq V.Pettining bu xatolari uning izdoshi Gregori King tomonidan to'g'rilandi va XVII asr oxiridagi Angliya milliy daromadi nihoyatda to'g'ri hisoblab chiqildi.

V.Pettining so'nggi asarlari ko'proq aholi, uning o'sishi, joylashuvi va ish bilan bandligi masalalariga bag'ishlangan. V.Petti zamondoshi va do'sti, mayda savdogar Jon Graund bilan birgalikda demografik statistika faniga asos soldi. 1662-yildan boshlab Angliyada umumiy aholi soni, tug'ilish, o'lim va tabiiy o'sish masalalari bo'yicha kitoblar yuzaga kela boshladi.

6.3. Fransiyada klassik iqtisodiy mактабнинг вујудга келishi.

P.Buagilberning iqtisodiy qarashlari

Agar Angliyada klassik iqtisodiy g'oyalarning boshlanishi V.Petti nomi bilan bog'liq bo'lsa, Fransiyada P.Buagilber bilan boshlanadi, bu g'oyalari Angliyada Rikardo bilan intihosiga etgan bo'lsa, Fransiyada Sismondi bilan yakunlanadi.

Fransiyadagi ijtimoiy-iqtisodiy muhit Angliyanikidan keskin farq qilar edi. Fransiyada feodal munosabatlar hali ham kuchli bo'lib, qirollar («*qirol - quyosh - Ludovik XIV*») va uning atrofidagilar tomonidan qattiq himoya qilingan. Kolber tomonidan olib borilgan siyosat mamlakat iqtisodiyotining umumiy rivojiga olib kelmadni. U sanoatni, moliyani taraqqiy ettirish tarafdori edi, ammo bu ish qishloq xo'jaligining ziyoniga o'tkazildi, feodal munosabatlar to'la saqlab turildi (eslang, Angliya burjua inqilobi XVII asrda bo'lib o'tdi, vaholanki, Fransiyada bu inqilob XVIII asr oxirida ro'y berdi), bu esa iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga to'siq edi. Manufakturalar paydo bo'ldi, ammo rivoj topmadi. Sex tizimi saqlangan bo'lib, rivojga to'siq edi.

Yer masalasi to'la hal etilmadi, «Senorsiz yer yo'q» tamoyili saqlandi, mayda yer egaligi, dehqonlarning turli soliq va yig'imlarga mahkum etilganligi ularni bu tizimda yerni yaxshilash va ishlab chiqarishni rivojlantirishga rag'batlantirmas edi. Vaholanki, aholining 3/4 qismi dehqonlar bo'lib, ular bu sohada tushkunlikda edi.

Shu sababli bu sohada islohotlar o'tkazish zarur bo'lgan, ammo unga shu davrdagi tizim halaqit berardi. Ichki bozor tor bo'lib, kapitalistik tadbirkorlikning o'sishiga yo'l bermasdi. Bu sinf asosiy soliq

to'lovchi sinf edi, dvoryanlar va dindorlar umuman soliq to'lamagan, shahar burjuaziyasi hali nisbatan kam sonli, soliqlardan ustalik bilan bosh tortar edi.

Yana bir muhim to'siq - bu urushlar edi. Fransiya olib borgan urushlar tufayli mablag'larning asosiy qismi shu urushlarga sarflanardi. Qirol saroyidagi bazmi jamshidlar ham davlat xazinasiga katta ziyon keltirar edi.

Demak, Fransiyada XVII asrning ikkinchi yarmida feodal munosabatlar o'zining cho'qqisiga chiqqan edi (Angliya bilan solishtiring). Vaholanki, Angliyada burjua inqilobi bo'lib, kapitalistik munosabatlar tez shakllana boshladи. Fransiyada yuqori tabaqa barcha yerning egasiga aylandi, dehqonlar shaxsan ozod bo'lsalar ham, feodal majburiyatlar nihoyatda ko'p edi. Xo'jalikdagi kapitalistik uklad nihoyatda sekin rivojlandi, ichki bozor xiyla tor edi, xalq xo'jaligida natural xo'jalik asosiy bo'lib, sanoat rivoji past bo'lgan. Faqat zeb-ziynat buyumlari va parfyumeriya mahsulotlari tayyorlash bo'yichagina Fransiya Yevropada yuqori o'rinda edi.

Ana shunday sharoit Fransyaning XVII asr oxiri - XVIII asr boshidagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli klassik iqtisodiyotning Fransiyadagi asoschilaridan biri bo'lgan **Per Buagilber** (1646-1714)ning iqtisodiy qarashlariga katta ta'sir ko'rsatdi. Per Lepezan - iqtisodchining asl familiyasi bo'lib, de Buagilber - bu oila yer pomestyesining nomi edi. Lekin tarixda Per Buagilber nomi saqlanib qoldi. **Per Lepezan de Buagilber** dvoryan normand oilasidan chiqqan, u yaxshi ma'lumot olgach, adabiyot bilan shug'ullandi, keyinchalik Ruan okrugida lavozimini egalladi. U bu lavozimni umrining oxirigacha saqlab qoldi va katta o'g'liga topshirdi; o'zini «*qishloq xo'jaligining advokati - himoyachisi*» deb atadi.

Olimning tadqiqot predmetini qisqacha qilib jamoat boyligi konsepsiyasidan iborat deyish mumkin. Bu boylik pulning fizik massasi bilan emas, balki turli-tuman foydali boylik va buyumlardan, masalan, non, vino, go'sht, kiyim-kechak va boshqalardan iborat. Hatto yerga va pulga egalikning o'zi boylikni ta'minlaydi. Agar yer ishlanmasa, pul esa hayot uchun zarur ashyolar (masalan, oziq-ovqat va kiyim-kechak) aralashtirilmasa, bunday «boylik» egasi qashshoqlikka mahkum etiladi. Shu sababli jamiyatda pulni ko'paytirish emas, balki ishlab chiqarishni o'stirish masalasi iqtisodiy fanning asosiy vazifasi hisoblanishi kerak.

Olimning tadqiqot uslubiga quyidagilar xos:

- iqtisodiyotda erkin raqobat sharoitida avtomatik mo'tadillik mavjud bo'ladi;
- tovarlar va xizmatlar qiyimatini belgilashda xarajatlar qoidasiga amal qilinadi;
- milliy iqtisodiyot manfaatlari uchun shaxsiy manfaatning jamoat manfaatlardidan ustunligi tan olinadi;
- xo'jalik hayotida pulning mustaqil va ahamiyatli roliga yetarli baho berilmaydi va boshqalar.

Buagilber sanoat va savdoni kamsitish yo'li bilan qishloq xo'jaligining rolini ataylab mutlaqlashtirgan.

Adam Smitdan ancha oldin shaxsiy manfaat uning jamiyat uchun ahamiyatini ko'ra bildi.

1691-yilda u Fransiyani og'ir iqtisodiy ahvoldan chiqarish tizimini taklif etdi. Dastlabki fikrlari bo'yicha turli islohotlar o'tkazib (ular burjua-demokratik xarakterga ega bo'lishi kerak edi), 1707-yilda esa uning g'oyalari etilib, quyidagi uch qismdan tarkib topdi:

1. Soliq tizimini o'tkazish. Soliq tizimining dehqonlar mehnatidan manfaatdorlik tamoyiliga asoslanishi, undan tashqari soliq barchaga tegishli bo'lishi kerak edi.

2. Ichki savdoni har xil cheklovlardan ozod qilish (ichki savdo erkinligi); bu chora ichki bozorni kengaytirish, mehnat taqsimotining o'sishini ta'minlash, tovar-pul muomalasini kuchaytirishi kerak edi;

3. Donning erkin sotilishiga yo'l berish, donga tabiiy baho ta'sirini cheklamaslik. Gap shundaki, mamlakatda donga sun'iy ravishda baho belgilangan bo'lib, ishlab chiqarish harajatlari qoplanmas, don yetishtirish o'smay qo'ygan edi. Buagilberning fikricha, iqtisodiyot erkin raqobat sharoitida rivojlanishi va tovarlar bozorida «haqiqiy qiymat»ga ega bo'lishi kerak edi. U davlat bu sohada dehqonlarga homiylik qilishi zarur, deb hisobladi.

Uning asosiy iqtisodiy asarlari «Fransyaning to'la tavsifi», «Fransiya to'g'risida varaqqa», «Boyliklar tabiatи to'g'risida traktat» va boshqalaradir. Uning ayrim asarlari, masalan, 1707-yili 2 jildda chiqarilgan «Fransiya ayblari» kitobi taqiqlangan. Ularda Fransyaning shu davrdagi og'ir iqtisodiy ahvoli to'la yoritilgan, ayniqsa, qishloq xo'jaligining orqada qolish sababları to'g'ri berilgan. Xalq xo'jaligi orqada qolishining bosh sababi- olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning, Kolber (moliya boshli-

g'i) va boshqalarning merkantilistik qarashlari fosh etilgan. U faqat sanoat rivojini bir tomonlama qo'llab-quvvatlashga don eksportini cheklashga qarshi chiqdi. Qishloq xo'jaligi manfaatlarini himoya qildi, soliq tizimini isloh qilish tarafdoi bo'ldi. U xalq ommasining ahvolini yaxshilash tarafdoi edi (V.Petti bilan solishtiring). Olib borilayotgan iqtisodiy siyosat xo'jalik hayotining tabiiy rivojiga teskari edi. Buagilber aytadiki, avvalgi davrdagi to'kin-sochinlikni qaytarish uchun mo'jiza qilish shart emas, tabiat ustidan bo'layotgan doimiy zo'ravonlikka chek qo'yish yetarlidir. Olimning fikricha, shunday soliq va iqtisodiy siyosat tadbirlari kerakki, ular tabiatga qarama-qarshi bo'lmasin. Bu g'oyaga ko'ra iqtisodiyotda shunday qonunlar borki, ularni bernalol, jazosiz buzish mumkin emas (ekologiyada ham shunday).

Shunga mos ravishda u tabiatning talablari nimadan iborat ekanligini ochib berishga uringan, obyektiv qonuniyatlarni o'rganishga kirishib, ilmiy tahlil qilish yo'li sari qadam tashlagan. Ammo shu bilan bir vaqtida u xo'jalikdagi hodisalarни tabiiy va tabiiy bo'limganlarga ajratib, avvalgisini himoya qildi va keyingisini qoraladi. Buagilber o'zi taklif etgan siyosatni amalda isbotlovchi nazariyani yaratishga intildi. Uning iqtisodiy qarashlari ko'p jihatdan V.Pettiga o'xshab, mamlakatning iqtisodiy o'sishi nima bilan bog'liq degan savolga javob topish edi. Buagilberni ko'proq Fransiya iqtisodining turg'unlik holati va uning orqaga ketish sabablari qiziqtirardi. Bundan u umuman nazariy masalalar, masalan, xalq xo'jaligida qanday qonuniyatlar harakat qiladi va uning rivojini ta'minlaydi, degan masalaga o'tdi.

Buagilber bu muammoga javob berishda «optimal baho paydo bo'lishi» masalasiga asosiy e'tibor qaratdi. Uningcha, iqtisodiy barqarorlik va taraqqiyotning eng muhim sharti proporsional va normal baholar hisoblanadi. Xo'sh, bu baholar nimadan iborat? Avvalo, bu baholar o'rtacha har bir sohadagi ishlab chiqarish xarakatlarini qoplashga yordam berishi va ma'lum kirim, sof foyda keltirishi kerak. Aks holda, ishlab chiqarish bo'lmaydi, undan so'ng, bu shunday baholarki, unda tovarlarni realizatsiya qilish jarayoni bekam-u ko'st davom etishi va barqaror iste'mol talabi qondirilishi kerak. Vanihoyat, pullarning «o'z o'rni bo'lib», ular to'lov vositasi vazifasini bajarishi va odamlar ustidan hukmronlik, zo'ravonlik qila olmasligi zarur.

Xalq xo'jaligi proporsionalligi ifodalangan baholar qonunini, aslida esa qiymat qonunini tushunish yangi va ilg'or g'oya edi. Olimning

asosiy asarlari shu g'oyalar bilan bog'liq. Iqtisodiyotda «optimal baholar»ni qanday ta'minlash mumkin? Buagilberning fikricha, baholarning bunday strukturasi raqobat erkinligi sharoitida stixiyali ravishda tarkib topadi.

Erkin raqobat sharoitining buzilishiga sabab Fransiyada donga maksimal baholarning qo'yilganligidir, deydi u. Uningcha, donga erkin baholar belgilansa, baholar birmuncha oshadi, bu dehqonlarning daromadini oshiradi va ularning sanoat tovarlariga talabini ko'taradi, oqibatda bu mahsulotlarni ishlab chiqarish ortadi va hokazo. Bunday zanjirli reaksiyalar bir vaqtning o'zida «proporsional baholar» o'rnatilishiga va xo'jalikning ravnaqiga olib keladi.

Demak, Buagilber iqtisodiy erkinlik tarafdoi edi va talabga qarshi chiqmaslikni taklif etadi. Shu bilan birga, u davlatning iqtisodiy funksiyasini inkor etmadi: bu o'sha davr uchun, real hayotni tushungan amaliyotchi olim uchun tabiiy edi. Uningcha, davlat to'g'ri soliq tizimi orqali mamlakatda iste'mol va talabni yuqori darajada ta'minlashi mumkin. Agar iste'mol sarflari oqimi pasaysa, tovarlarni sotish va ishlab chiqarish keskin kamayadi. Agar kambag'allar ko'proq ishlab topsalar, soliqlarga kam sarf qilsalar, ular o'z daromadlarini tez sarflashga moyildirlar. Boylar esa, aksincha, o'z daromadlarini saqlashda, va demak, mahsulotni sotishda qiyinchilik tug'dirishiga olib keladi.

Buagilberning bu mulohazalari iqtisodiy ta'limotlarning keyingi yuzyillikdagi rivojiga katta ta'sir etdi.

Jamiat boyligi va iqtisodiy o'sish bo'yicha prinsipiial jihatdan ikki xil qarash mavjud. Birinchisi bo'yicha ishlab chiqarishning o'sishi jamg'arish hajmi (ya'ni jamg'arma va kapital qo'yilmalar)ga bog'liq. Bunda to'lov larga talab avtomatik ravishda (stixiyali) amalga oshadi. Bu konsepsiya ko'ra, ortiqcha ishlab chiqarish inqirozları bo'lishi inkor etiladi.

Ikkinci pozitsiya bo'yicha iste'mol talabi ishlab chiqarishning yuqori sur'atlarda o'sishini qo'llaydigan omil sifatida qaraladi. Buagilber ma'lum ma'noda mana shu pozitsiya tarafdoi edi va u qonuniy ravishda iqtisodiy inqirozlar muammosini keltirib chiqargan.

Buagilber inqiroz hodisasini xo'jalikning ichki qonuniyatlarini bilan emas, balki yomon davlat siyosati bilan bog'laydi. Uningcha, yaxshi siyosat olib borish yo'li bilan talab kamomadini hal etish va inqirozlarni chetlab o'tish mumkin. Bu masala juda murakkab bo'lib, Seyga tegishli (buni keyin qarab chiqamiz) «bozorlar qonuni»ga asos bo'lgan deyish

mumkin, ya'ni erkin mahsulotlar almashuvi tizimida mahsulotlarning ortiqcha ishlab chiqarilishi mumkin emas (inqirozlar bo'lmaydi). Aksincha, *Shumpetering* fikricha, Buagilber iste'mol talabining yetarli emasligi va jamg'arma ortiqchaligi sababli, o'sha davrdagi tizim uchun inqiroz xavfi bo'lib, tizim barqarorligiga shubha bildirgan, ya'ni Sey qonunini oldindan tanqid qilgan.

Buagilber o'zining «**Boylik, pul va o'lponlarning tabiatini to'g'risida mulohaza**» asarida iqtisodiy inqiroz davrida nima ro'y berishini yorqin va obrazli ifodalab beradi. Merkantilistlardan farqli ravishda u boylikning manbayi almashuv sohasi emas, balki ishlab chiqarish degan edi. Almashuvga esa ishlab chiqarish rivojining sharti sifatidagina qaraydi.

Buagilber V.Pettidan mustaqil ravishda qiymatning mehnat nazariyasiga asos soldi. U bozor bahosi va «haqiqiy baho»ni farqlagan, «haqiqiy baho mehnat sarfi bilan belgilanadi», degan. U haqiqiy baho deganda, ishlab chiqarishning turli tarmoqlari o'rtasida mehnat taqsimotining to'g'ri proporsiyasini tushungan. Shunday proporsional taqsimotning zaruriy shart-sharoiti sifatida ishlab chiqaruvchilar orasidagi erkin raqobat yotadi.

V.Pettidan farqli ravishda (qiymatni pul shaklida ifodalashni taklif etgan) Buagilber qiymatning pul shaklini qat'iy ravishda inkor etgan. Agar V.Pettining diqqat markazida pullar va boshqa tovarlar o'rtasidagi almashuv munosabatlari turgan bo'lsa, Buagilberning e'tibori tovarlarning tovarga bevosita munosabati, ya'ni tovarlarning to'g'ridan to'g'ri almashuviga qaratilgan edi. Buagilber uchun shu narsa xarakterli ediki, u pulga keskin qarshi bo'lgan, pulda barcha yovuzlik va ofatlarning manbayi mujassamlangan, tovarlarning «haqiqiy baho» asosida almashuvi buzilishining sababi ham shunda deydi u. U oltin va kumushni buyuk yovuzlik deb baholaydi, pulga qarshi mutaassiblik (fanatizm) bilan kurashadi. Pulning yagona yaxshi tomoni shundaki, u almashuvni osonlashtiradi. Oltin va kumush o'rmini qog'oz pul bermalol qoplaydi. Ko'rinish turibdiki, olim pulning barcha funksiyalarini tushunib yetmaydi. Pul umumiyligi ekvivalent bo'lib, uning o'rnida qiymatga ega bo'lgan tovarlargina xizmat qilishi mumkin. Shu sababli, uningcha, tovar ishlab chiqarilishini saqlagan holda, pulni yo'q qilish kerak. Shu yerda u iqtisodiy munosabatlarning ikki shakli o'rtasidagi chambarchas aloqani tushunmadи, uning bir shaklini (tovar) saqlab, ikkinchi (pul) shaklini yo'q qilmoqchi bo'ladi.

Olim tovar ishlab chiqarishning asl maqsadi faqat iste'molni qondirishda deb xato o'ylagan (iste'mol va almashuv uchun).

Demak, Buagilberning eng buyuk xizmati shundaki, u qiymatni sarflangan ish vaqtiga tenglashtirdi. Lekin u tovar ishlab chiqarishning qulay tomonini saqlagan holda uning salbiy tomonlarini tugatishni orzu qiladi. Agar Pettining iqtisodiy ta'limotida almashuv qiymati asosiy bo'lsa, Buagilberda iste'mol qiymati bosh rol o'ynadi. Aslida, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi.

Qisqacha xulosalar

XVII-XVIII asrlarda dastlab Angliyada klassik iqtisodiy maktab kurtaklari paydo bo'la boshladi. Bu yangi iqtisodiy g'oyalar V.Petti nomi bilan bog'liq (burjua inqilobi, manufakturna va savdoning rivojlanganligi, agrar islohot, dehqonlarning chegaralanishi, mustamlakachilik siyosati, qulay tarixiy, tabiiy va geografik hamda iqlimi sharoitlar).

Klassik iqtisodiy maktabning shakllanishi avvalgi g'oya — merkantilizmdan prinsipial farq qiladi. Agar merkantilizmda boylikning asosi muomala sohasi (javohir, oltin, kumush, pul, savdo saldosida)da vujudga keladi deb qaralgan bo'lsa, endi boylik ishlab chiqarish sohasida vujudga keladi deb isbotlab berildi. V.Petti yangi kapitalistik jamiyatni, erkin tadbirkorlikni, kapitalistlarni himoya qildi, xususiy mulknini «muqaddas» va «daxlsiz» deb bildi.

U iqtisodiy tadqiqotda tabiiy fanlarni, ya'ni abstrakt usullarni qo'llab, har bir masalaning ichki bog'liqligiga asosiy e'tiborni qaratdi, matematik va statistik usullardan keng foydalandi. V.Petti «tabiiy baho» (qiymat), «siyosiy baho» tushunchalarini kiritdi, tovar qiymatining unga sarflangan mehnat miqdori bilan o'chanishi g'oyasiga, ya'ni qiymatning mehnat nazariyasiga asos soldi. «Mehnat boylikning otasi, yer esa uning onasidir» degan fikrni bildirdi. Qiymatni aynan almashuv qiymati (pul) shaklida tushundi. Ish haqi ishchilarga tirikchilik uchun zarur bo'lgan jismoniy minimum, ya'ni «yashash, mehnat qilish va ko'payish» uchun kerak darajada to'lansa bas, degan g'oyani ilgari surdi.

Kapitalistlarning foydasini imkonli boricha oshirishni, ishchilarning soliq to'lashlarini zarur deb bildi. Pulning roli va uning mamlakatdagi miqdori masalalarini asosan to'g'ri hal etdi, ya'ni pul miqdori ishlab

chiqarilgan mahsulot miqdoriga to'g'ri, pulning aylanish oborotiga esa teskari proporsionalligini aniqladi. Pulning me'yorda bo'lishini qo'llab-quvvatladi. Yer va renta masalalarini ancha puxta ishlab chiqdi. Ish haqi va rentaning bir-biriga qarama-qarshiligidini isbotladi (yer bahosini to'g'ri hal etmadi).

Petti «Siyosiy arifmetika» va boshqa asarlarida statistika, aniqrog'i demografik statistika faniga asos soldi. «Aholi - boylik asosi» masalasini to'g'ri qo'ydi. Milliy daromad masalasini qo'ydi va uni qisman hal etdi. Fransiyadagi klassik iqtisodiy maktabning dastlabki vakili P. Buagilber ham muhim g'oyalarni ilgari surdi. Bu mamlakat ahvoli Angliyanikidan ancha farq qilardi. Shu sababli iqtisodiy qarashlarda o'ziga xoslik sezildi. Agar Petti ko'proq sanoat va savdoni qo'llagan bo'lsa, Buagilber asosan qishloq xo'jaligi sohasini tadqiq etdi va o'zining muhim xulosalarlarini chiqardи.

Qiymatni aynan iste'mol qiymati shaklida tushundi. «Proporsional baholar» tarafdori edi, erkin tadbirkorlik, raqobat va erkin baholarni qo'lladi. Ortiqcha ishlab chiqarish inqirozini to'g'ri tushuntirib berdi, pulga salbiy munosabatda bo'lди, oltin va kumushlarni yovuzlik sababi deb bildi. Noto'g'ri ravishda faqat qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatladi, sanoat va savdoga kam e'tibor qildi.

Buagilberning iqtisodiy islohotlari bo'yicha takliflari o'z davri uchun nihoyatda ahamiyatlidir.

Asosiy tushuncha va iboralar

Klassik maktab, mehnat boylik manbai, tabiiy va siyosiy baholar, pulning miqdori, (iste'mol va almashinuv), V.Pettining ish haqi, renta nazariyalari, yer bahosi, statistika, inson resurslari, P.Buagilber, iste'mol qiymati, ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi, boylik va qashshoqlik.

Nazorat va mulohaza uchun savollar

1. Klassik iqtisodiy maktab vujudga kelishining shart-sharoitlari. Bu maktabning merkantilizmdan asosiy farqi nimadan iborat?
2. V.Pettining iqtisodiy qarashlari, uning uslubi.
3. Qiymat, ish haqi, pul, renta to'g'risidagi g'oyalar.

4. Kapitalizm, xususiy mulk, erkin tadbirkorlikka bo'lgan munosabat.
5. V.Pettining qarashlaridagi cheklanganlik.
6. Fransiyaning shu davrdagi iqtisodiy ahvoli va uning P.Buagilber qarashlariga ta'siri.
7. P.Buagilber nima uchun qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatladi?
8. Fransiya iqtisodiyotini rivojlantirish uchun qanday islohotlar taklif etildi?
9. Proporsional baholar, iqtisodiy inqiroz to‘g‘risidagi g‘oyalar.
10. Nima uchun P.Buagilber pulga qarshi edi?
11. Qiymat tushunchasining ta'lqini.

VII b o b. FIZIOKRATIZM IQTISODIY TA'LIMOTI

7.1. Fiziokratizm iqtisodiy ta'limoti vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari va uning mohiyati

Fiziokratlar (lotincha *physio* - tabiat va *kratos* - hokimiyat) XVIII asrda Fransiyada ijod etgan klassik iqtisodiy maktab namoyandalaridir. Fiziokratlar maktabi feodalizmdan kapitalizmga o'tish davrida rivojlandi, bu iqtisodiy yo'nalish Fransiyada vujudga keldi. Fransiya iqtisod, ayniqsa, sanoat bo'yicha Angliyadan ancha ortda bo'lishiga qaramay, bu yerda ham sanoatning kapitalistik turi - manufakturna rivojlana boshladi (bu haqda yuqorida aytib o'tildi). Ammo mamlakat hali ham agrar holatda edi. Aholining asosiy qismi qishloqlarda yashar, milliy boylikning 2/3 qismi shu sohada yuzaga keltirilar edi. Dehqonlarning ahvoli tobora yomonlashdi. Asosan mayda dehqon xo'jaliklaridan iborat Fransiyada yangi, nisbatan samarali kapitalistik sind - fermerlar paydo bo'lib, tobora rivojlandi. Islohotlarni amalga oshirish sust bordi, feodal majburiyatlar tobora oshdi. Oqibatda dehqonlarning norozilik harakati kuchaydi. Mamlakatning moliyaviy ahvoli fojiali edi. Mamlakat ishlab chiqarish kuchlarining rivoji feodal iqtisodiy munosabatlar bilan qarama-qarshilikka uchradi. Burjua inqilobiga olib keladigan omillar ko'paydi. Feodal tuzumga qarshi kurash g'oyasi fiziokratlar va ularning asoschisi F.Kenening iqtisodiy ta'limotida asosiy o'rinn egalladi.

Bu ta'limot fermerlar sinfini himoya qildi, ishlab chiqarishni, asosan, qishloq xo'jaligini mamlakatni og'ir ahvoldan chiqarishning bosh yo'li deb belgiladi. Tabiiy qonun-qoidalarga amal qilish kerakligi, shu yo'l bilan mamlakat boyligini orttirish mumkinligi ko'rsatib berildi.

Fransiyadagi qishloq xo'jaligining ahvoli va uni yaxshilash tadbirlari tadqiqotlarning asosi bo'ldi (P.Buagilber ham shu masalaga katta e'tibor bergen edi). Ekspluatatsiyaning asosiy shakli obrok bo'lib, u pul va natural mahsulot shaklida olingan. Deyarli barcha haydaladigan yer, yaylov va o'rmonlarning 80 foizi dvoryanlarga tegishli edi. Obrok shampar - don sifatida to'langan va hosilning 25 foizini tashkil etgan. Ijaraga olingan

yerning yarim hosili yer egalariga (pomeshchikka) to'langan. Soliq doimo oshib borgan. 1789-yilda (inqilob boshlangan yil) Fransiyada ikki million xonavayron bo'lgan dehqon bor edi.

Agrar masalani hal etish fiziokratlarning asosiy vazifasi bo'lib qoldi. Ular qishloq xo'jaligini mamlakat boyligining asosi deb tushundilar.

Fiziokratlar merkantilistlardan farq qilib, o'z tadqiqotlarini iqtisodiyotning muomala sohasidan ishlab chiqarish sohasiga ko'chirdilar. Olimlar iborasi bilan aytganda, ular «zamonaviy siyosiy iqtisodning haqiqiy otalari» edilar. Ularning xizmati shundaki, o'sha davr dunyoqarashi doirasida kapitalning dastlabki tahlilini berishdi. Bu ularni boshqalardan ajratib turuvchi asosiy masala edi. Ammo fiziokratlar ishlab chiqarish sohasini faqat qishloq xo'jaligi sohasi bilan cheklab qo'ygan edilar (Fransiyaning ta'siri), ular sanoat (hunarmandchilik)ni samarasiz soha deb bilganlar.

Bu ta'limot, garchi uning ko'pgina xatolari bo'lsa ham (bu haqda quyida gapiriladi), haqiqatga yaqinlashish borasida navbatdagi muhim qadam hisoblanadi. O'sha davrda Fransiyada olib borilgan iqtisodiy siyosat (Kolberning merkantilizmi) qattiq tanqid qilinadi.

Ludovik XIV o'miga kelgan yangi qirol Ludovik XV ham eski siyosatni davom ettirdi. Fransiya Angliya bilan yetti yillik urush olib borib, yengildi. Kanadadan va Sharqdagi bir qancha mustamlakalaridan ajraldi, oqibatda Yevropadagi ikkinchi darajali davlatga aylandi. Shu sharoitda bu ahvoldan chiqish yo'li tabiatdan qidirildi.

Fiziokratlarning dasturi bo'yicha Fransiyadagi feodalizm qoldiqlari tugatilishi, fiskal (soliq) tizimni ratsionalizatsiya qilib, rentadan yagona soliq olinishi, mayda yer uchastkalari birlashtirilib, don savdosidagi barcha proteksionistik to'siqlar bartaraf etilishi kerak edi, oddiyroq qilib aytganda, Angliyadagi qishloq xo'jaligiga xos ish yuritish taklif etildi.

7.2. F.Kene - fiziokratizm ta'limotining asoschisi.

Uning «Iqtisodiy jadval» asaridagi g'oyalar

Fransua Kene (1694-1774) har tomonlama keng bilimli olim bo'lib, Versal yaqinida, kambag'al dehqon oilasida dunyoga keldi, u yoshligidan tibbiyotga havas qo'ydi, qishloq jarrohidan dars oldi, tibbiyot amaliyoti unga shuhrat keltirdi. Dvoryan unvoniga ega bo'ldi va Versal saroyiga (Ludovik XV qirol saroyiga) o'tdi. 1718-yilda vrachlik kasbini oldi.

1744-yilda tibbiyot fanlari doktori ilmiy darajasiga erishdi, 1752-yildan esa Ludovik XV xonadonida tabiblik qildi (leybmedik). Tibbiyot va biologiyaga oid ko'pgina asarlar yaratdi. U oltmish yoshdan boshlab iqtisodiyot muammolari bilan bevosita shug'ullana boshladi.

1766-yilda Adam Smit ham uning mehmoni va suhbatdoshi bo'lgan edi. Didro va D'Alamber tomonidan chop etilgan «Qomus»da F.Kenening dastlabki iqtisodiy maqolalari: «Fermerlar», «Don», «Aholi», «Soliqlar» paydo bo'ldi (1756-1757). 1758-yilda uning asosiy va eng muhim asari - «Iqtisodiy jadval» kitobi dunyoga keldi. F.Kene bu asarlarida fiziokratizm maktabi asoslarini yaratdi, uning nazariy va siyosiy dasturini ta'riflab berdi. Uning ishini va tadqiqotlarini XVIII asrning ikkinchi yarmida Fransiyaning taniqli davlat arbobi A.Tyurgo (1727-1781) davom ettirdi. Fiziokratizm g'oyalalarini (ayniqsa, F.Kene ta'limotini) *Dyupon de Nemur, D'Alamber, V.Mirabo, G.Letron* va boshqalar keng targ'ib etdilar. Shunday qilib, haqiqiy fiziokratlar maktabi yoki, o'sha davr tili bilan aytganda, «iqtisodchilar maktabi» tarkib topdi. Uning eng rivojlangan davri XVIII asrning 60-70-yillariga to'g'ri keladi.

F.Kene «tabiiy tartib» konsepsiyasini ilgari surdi, bu olimning uslubiy platformasi edi («tabiiy huquq» konsepsiyasini eslang), bunda u paydo bo'layotgan va tobora mustahkamlanayotgan dahlsiz xususiy mulkni tushundi, iqtisodiyot erkin raqobat asosida rivojlanishini, bozor bahosining stixiyali o'zgarishi, ya'ni davlatning aralashuvini inkor etadigan jarayonni qo'llab-quvvatladni, boylikningadolatli taqsimlanishini istardi. Iqtisodiy rivojlanish odamlarning istak-xohishiga bog'liq bo'lman tabiiy jarayon bo'lib, uning ma'lum qonuniyatlarga bo'ysunishini tan olish fiziokratlarning so'zsiz yutug'i edi. Bu qonunlar, ularning fikricha, tarixiy bo'lmay, abadiy qonunlar deb qaralgan edi. Shu sababli ishlab chiqarishning kapitalistik (bozor) shakli tabiiy va abadiy ishlab chiqarish shakli deb hisoblangan (hozirgi rivojlanish buni ko'p jihatdan isbotlamoqda).

F.Kene almashuvning ekvivalentligi ta'limotini ilgari surdi. U almashuv yoki savdo boylik yaratmaydi, demak, almashuv jarayoni hech narsa ishlab chiqarmaydi, deb hisoblagan. Erkin raqobat sharoitida almashuv sohasida teng miqdorli qiymatlarning almashuvi ro'y beradi. Bu qiymat tovarlarda ular bozorlarga kirmasdan oldin ham mavjud bo'ladi (V.Pettining tovar qiymati faqat almashuv paytida paydo bo'ladi, degan fikri noto'g'ridir). Bundan kelib chiqadiki, almashuv jarayonida

boylik yaratilmaydi va foyda paydo bo'lmaydi. Almashuvning ekvivalentligi to'g'risidagi ta'limot merkantilistlarning qarashlarini inkor etish uchun nazariy asos bo'ldi. Bu holat, shu bilan, birga fiziokratlardan boylik manbayini muomala sohasidan tashqarida izlashni taqozo etdi. Ammo F.Kene miqdori qiyatlarning almashuvi sababini to'g'ri tushuntirib bera olmadi, chunki qiyamat nazariyasi hali to'la ishlab chiqilmagan edi va u qiymatni ishlab chiqarish xarajatlari bilan aynan bir deb hisobladи.

Fiziokratlarning iqtisodiy tizimida «sof mahsulot» to'g'risidagi ta'limot markaziy o'rinni egallaydi. F.Kene yalpi ijtimoiy mahsulot va ishlab chiqarish xarajatlari o'tasidagi farqni sof mahsulot deb bilgan, boshqacha qilib aytganda, bu ishlab chiqarish chiqimlaridan oshiqcha mahsulotdir. F.Kene «sof mahsulot» faqat qishloq xo'jaligidagi, dehqonchilikda yaratiladi, bu sohada tabiat kuchlari ta'sirida iste'mol qiyatlari miqdori ko'payishini ta'kidlaydi. Sanoatda esa iste'mol qiyatlari faqat turli kombinasiyalarga uchraydi, mehnat jarayonida dehqonchilikda yaratilgan mahsulotning shakli o'zgaradi, lekin uning miqdori ko'paymaydi, shuning uchun «sof mahsulot» paydo bo'lmaydi va boylik yaratilmaydi (kuchli, ammo noto'g'ri mantiq bor).

A.Smitning fikricha, shu asosda hunarmandlar (sanoatchilar) unumsiz, foyda bermaydigan sinf deb qaralgan. Aslida esa fiziokratlar bu sinfning borligini tan oladilar, uni unumsiz emas, balki foydaga sof qo'shimcha daromad keltirmaydigan sinf deb qaraganlar. A.Tyurgo esa bu sinfga yuqori baho berib, «haq to'lanadigan sinf» deb qaraydi.

Fiziokratlar qiymatni iste'mol qiyatiga, hatto tabiat mahsulotiga tenglashtirganlar (almashuv qiyati ham bor). Ularni faqat miqdoriy soha, ya'ni ishlab chiqarish jarayonida olingan iste'mol qiyatlarning ortiqcha qiyati (iste'mol qilingandan ortig'i) qiziqtingan. Bu narsa asosan dehqonchilikda aniq namoyon bo'ladi. Ammo F.Kene ta'limotining boshqa tormoni ham bor. Uning fikricha, «sof mahsulot» miqdori ishlab chiqarish chiqimlarining miqdoriga bog'liqdir, bu chiqimlarga xomashyo sarflari, materiallar va ish haqi kiradi. Materialarning qiyati belgilanganligi tufayli, ish haqi tirikchilikning minimum xarajatlariga keltirilgan ekan, «sof mahsulot» (qo'shimcha qiyat) qo'shimcha mehnatning samarasi sifatida yuzaga keladi. Shunday qilib, fiziokratlarda qo'shimcha qiyat tushunchasi qarama-qarshi xarakterga ega. Ular uni tabiatning sof hadysi, ya'ni dehqonlarning qo'shimcha mehnati natijasidir, deb qaraganlar (qo'shimcha qiyat yaratishda tabiat ham

ishtirok etadi). Fiziokratlarning bunday fikrashi qiyamatning ijtimoiy tabiatini tushunmaslikdan va qiymat tushunchasini iste'mol qiymati bilan qorishtirib yuborish oqibatida yuzaga keldi. Foyda tushunchasi mustaqil kategoriya ajratilmagan, hatto inkor etilgan. Renta qo'shimcha qiyamatning yagona shakli sifatida qabul qilingan ekan, foyda ishlab chiqarish chiqimlarining faqat ajralmas qismi bo'lishi mumkin edi. Ular foydani ish haqining shakli sifatida qaraganlar, foyda go'yoki odatdag'i ish haqidan o'zining kattaroq miqdori bilan farq qilgan va u kapitalistlar tomonidan foyda sifatida to'la iste'mol qilingan.

Fiziokratlarning «*unumh*» va «*unumsiz*» mehnat to'g'risidagi ta'lomit «sof mahsulot» to'g'risidagi ta'lomit bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning mantiqiy davomi deb hisoblanadi. Merkantilistlardan farqli ravishda ular «sof mahsulot» yaratuvchi mehnat unumli bo'ladi, ya'ni qo'shimcha qiyamatni yaratadi, degan edilar. Bu unumli mehnatning tabiatini to'g'risidagi masalagaprinsi pial to'g'ri yondashish yo'li edi. Ammo renta qo'shimcha qiyamatning yakka-yu yagona aniq shakli sifatida tan olinganligi sababli dehqon mehnati birdan bir unumli mehnat deb hisoblanadi. Ishlab chiqarishning boshqa sohalaridagi (sanoatda ham) mehnat «*unumsiz*», ya'ni samarasiz deyiladi. Bundan dehqonchilik mehnatini boshqa mehnat turlariga qarshi qo'yish asossizdir, chunki yollanma mehnat ishlab chiqarishning qaysi sohasida qo'llanmasin, qo'shimcha qiyamat yaratadi.

F.Kene «*sof mahsulot*» to'g'risidagi o'z qarashlari asosida jamiyatni uch sinfga bo'ladi: unumli sinf (fermerlar), yer egalari sinfi va unumsiz sinf (bu sinfni u sanoatchilar sinfi deb ham ataydi). Unumli sinfga dehqonchilikdagi barcha xodimlar, qishloq xo'jalik ishchilari ham, fermerlar ham, ya'ni «*sof mahsulot*» yaratuvchilarning hammasi kiradi. Yer egalari bu mahsulotning iste'molchilari hisoblanadi, chunki ular uni ijara to'lovi sifatida oladilar. Samarasiz, «*unumsiz*» sinf vakillari esa dehqonchilikdan boshqa tarmoqlarda ishlaydi (sanoat, savdo, xizmat sohasi). Ular «*sof mahsulot*» yaratmaydilar.

Jamiyatning sinfiy tuzilishi to'g'risidagi bu ta'lomitning asosiy kamchiligi shuki, F.Kene yangi jamiyatning asosiy sinflarini ko'ra bilmaydi, to'g'rirog'i bunga tarixiy sharoit halaqit beradi. Bu tizimda yollanma ishchilar bilan kapitalistlar birlashtirilgan. Fransiyada o'sha davrda kam bo'lsa ham, proletariat sinfi mavjud edi, lekin kapitalistik munosabatlar rivojlanmaganidan burjua jamiyatining boshqa sinflarga

qarshi tura oladigan mustaqil sinfiga ajralmagan edi. Sinflar to'g'risidagi ta'lomitning bu kamchiliklaridan qat'i nazar, jamiyatni sinflarga bo'lishning iqtisodiy belgilarini aniqlash va iqtisodiy asoslarini ko'rsatishga urinish ijobiy voqeа hisoblanadi.

Fiziokratlarning muhim xizmatlaridan biri shuki, ular birinchilardan bo'lib, kapital tushunchasini tahlil qilishgan. Asarlarida bevosita «kapital» so'zi qo'llanilmagan, ammo yerlarning zaxini qochirish, ya'ni yer sifatini yaxshilash, qurilish, ot, plug, borona uchun ma'lum tipdagi dastlabki avans (bo'nak) hamda urug'lik va ishchi-batraklarga beriladigan avans boshqacha ekanligi aniq belgilanadi. Chunki birinchisiga qilingan xarajat bir necha yilda bir marta bo'lib, o'z-o'zini asta-sekin qoplaydi (asosiy kapital), ikkinchisi esa yiliga yoki doim bo'lib, har bir hosil tufayli qoplangan. Shu sababli F.Kene ularni dastlabki avans (hozirgi zamон nuqtayи nazaridan asosiy kapital) va yillik avans (aylanma kapital) deb atadi. Bu g'oya A.Smit tomonidan rivojlantirildi. Bu o'sha davr uchun buyuk kashfiyot edi. Shunisi muhimki, aylanma kapital bilan birga asosiy kapital ham doim harakatda deb qaraladi. Dehqonchilikda qo'llaniladigan kapitalning moddiy elementlariga qishloq xo'jaligi qurollari va inventar, mol, urug'lik, odamlarning tirikchilik vositalari va boshqalar kiritilgan. F.Kene merkantilistlardan farqli ravishda (ular kapitalni pul bilan aynan bir deb hisoblaganlar), pullarning o'zi emas, balki pulga olinadigan ishlab chiqarish vositalari kapital hisoblanadi, deydi. Ammo kapitalning bu moddiy elementlari umumiy mehnat jarayonining oddiy elementlari sifatida, kapitalistik ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladigan ijtimoiy shaklidan ajralgan holda qaraladi, oqibatda kapital abadiy, ya'ni tarixiy bo'limgan kategoriya deb ko'rsatiladi.

Ishlab chiqarish chiqimlari (harajatlari)ni tadqiq qilish orqali kapitalning tashkil etuvchi qismlarini ajratish imkonи paydo bo'ldi, bunda kapitalning (oborot) aylanish xarakteri hisobga olindi. Kapitalning bir qismi boshlang'ich avans (bo'nak) hisoblanib, unga qishloq xo'jalik inventari, qurilish, mol va boshqalarga ketgan sarflar kiradi, shulardan 10 foizi yillik amortizatsiya hisoblangan, yillik avans deb atalgan kapitalning boshqa qismiga urug'lik olish, asosiy qishloq xo'jalik ishlari, ishchi kuchi uchun xarajatlar kiradi.

Boshlang'ich avans bilan bog'liq kapital sarfi ishlab chiqarish sikli bir qancha (qator yillar) vaqt ichida to'la aylansa, yillik avansga sarflangan kapital bir ishlab chiqarish sikli (bir yil) davomida to'la aylanadi. Bu

yerda amalda doimiy va aylanma kapital to‘g‘risidagi g‘oya berilgan, ammo bu tushunchalar boshqa so‘zlarda ifoda etilgan, xolos. Shunisi diqqatga sazovorki, F.Kene kapitalni asosiy va aylanma kapitalga bo‘lganda faqat ishlab chiqarish kapitali bilan bog‘lagan holda bergan, uni muomala kapitali (savdo kapitali) bilan qo‘sib yubormagan. Shu sababli u pul va tovarni ishlab chiqarish kapitalining biror tarkibiy qismiga kiritmasdan, to‘g‘ri fikr yuritgan. Shunday qilib, fiziokratlar asosiy va aylanma kapitalga oid muammoni nazariy jihatdan yechishga asos soldilar.

F.Kene iqtisodiyot tarixida takror ishlab chiqarish jarayonini va yalpi ijtimoiy mahsulot muomalasini butunicha ko‘rsatish uchun birinchilardan bo‘lib urinib ko‘rdi. U o‘sha davr jamiyatni fuqarolarini uch sinfga bo‘ladi: birinchisi – unumli sinf (fermerlar); ikkinchisi – mulkdorlar sinfi (pomeshchik, cherkov...) va uchinchisi – unumsiz sinf (hunarmand, ishchi va savdo xodimlari). Bu jarayon sxematik ravishda «Iqtisodiy jadval»da tasvirlangan. Unda mamlakatda ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotning aylanishi orqali qanday taqsimlanishi ko‘rsatilgan, buning oqibatida ishlab chiqarishning avvalgi hajmida qayta boshlash uchun shart-sharoitlar yaratiladi.

«Iqtisodiy jadval»ning bir necha variantlari mavjud. Biri Versalda 1758-1759-yillarda chop etilgan. 1894-yilda bu jadvalning boshqa varianti topildi. Birinchi variant bo‘yicha (2-chizmaga qarang) kapital aylanishi quyidagicha ro‘y beradi: qishloq xo‘jaligida yaratilgan jami qimmat 5 mingga teng bo‘lib, shundan 3 mingi yerni ishlashga ketgan xarajatdir. Fermerlar yetishtirilgan mahsulotning 2/5 qismidan aylanma kapital uchun foydalanadilar, 1/5 qismi unumsiz sinfga sotiladi va unga asosiy kapitalni (asbob-anjomni) ta‘mirlash uchun kerakli asbob-uskuna olinadi. Bu yerda fermerlar faqat «boshqarish uchun haq olganliklari» sababli unumidor narsa fermer mehnati emas, balki yerdir. Qoldiq esa yer egasiga renta sifatida to‘lanadi.

Yer egalari o‘zlarining 2 minglik daromadining yarmini sanoat tovarlari olishga sarf qiladilar, «unumsiz sinf» 2 mingga xomashyo va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sotib oladi. Bu jarayon natural ko‘rinishda ham namoyon bo‘lishi mumkin. Bunda 3/5 qism mahsulot muomalaga kiritiladi, undan xuddi pul shaklida ham foydalanish mumkin. Bu jarayon boshida fermerlar iqtisodiyotdagi 2 ming pul massasiga ega bo‘ladilar. Yerdan foydalanish huquqiga ega bo‘lish uchun bu summa egalariga (yer ularniki) beriladi, ular esa bu summani oziq-ovqat

mahsulotlari (1 ming) va sanoat tovarlari (1 ming) olish uchun sarflaydilar; endi fermerlar olingen 1 mingni asosiy kapitalni qoplash uchun hunarmandlarga (unumsiz sinfga) beradilar, ular esa olingen 2 mingni qishloq xo'jalik mahsulotlari olish uchun sarflaydilar. Oqibatda fermerlar 3 ming oladilar va 1 mingni sarflaydilar (qoldiq 2 ming); shu yo'l bilan boshlang'ich holatga qaytadilar.

«Unumsiz» sektorning sof mahsuloti 0 ga teng, yangi ishlab chiqarish sikli boshlanishi bilan 2 ming pul shaklida yana yer egalariga (renta) beriladi.

Barcha aytilgan fikrlar bir yil uchundir, lekin uni oylar bo'yicha ham tahlil etish mumkin. Bu hozirgi davrdagi taniqli iqtisodchi V.Leontevning «xarajatlar - chiqarishlar» jadvalini eslatadi. Xuddi Leontev tizimidek ma'lum boylikni yaratish uchun kerakli barcha omillardan cheklangan aniq nisbatda foydalaniadi, mazkur sektorning mahsulot qiymati boshqa sektorning umumiy to'lovlar bilan to'la qoplanadi.

	"Yillik bo'nak"	Yer egasi daromadi	Unimsiz sinf bo'naklari
Yer egasi daromadi va boshlang'ich bo'nak foizlarini to'lash uchun foydalaniladigan summalar	2 ming 1 ming 1 ming 1 ming	2 ming 1 ming 1 ming	1 ming 1 ming
Yillik bo'naklarining goplanishi	2 ming		
Yakun	5 ming	2 ming	

Izoh. Strelkalar xarajatlarning yo'nalishini ko'rsatadi.

7.1-chizma. F.Kenening iqtisodiy jadval (birinchi varianti).

Bundan bir ming kelasi yil uchun aylanma kapitali sifatida reinvestitsiya qilinadi.

I - j a d v a l
Iqtisodyotdagi uch tarmoqning o'zaro bog'liqligi

Ishlab chiqarish	X a r i d			Ishlab chiqarishning bir yillik hajmi
	I	II	III	
Fermerlar	2	1	2	5
Yer egalari	2	0	0	2
Hunarmandlar	1	1	0	2
Yakuniy xarid	5	2	2	9

Bu jadvalda uch tarmoq (sektor)ning o'zaro bog'liqligi ko'rsatib berilgan.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, jadvalning boshqa variantida ham oddiy takror ishlab chiqarish qarab chiqilgan (bosholang'ich va oxirgi holat teng). Hayotda odatda kengaytirilgan takror ishlab chiqarish ro'y beradi. F.Kenening asosiy vazifasi qirol va yer egalarini jamiyat asosi sifatida saqlab qolish edi. Ammo u mulkdorlar sinfini birinchi o'ringa qo'ya olmas edi, chunki bu olimning dehqonchilikning ustunligi haqidagi fiziokratik konsepsiyasiga qarshi chiqar edi. Bundan tashqari, u asosiy tamoyilni - sinflarning ishlab chiqarish vositalariga munosabatini inkor etadi.

Jadvalda F.Kene iqtisodiy ta'lomitining asosiy tomonlari: uning «sof mahsulot» va «kapital», unumli va unumsiz sinflar to'g'risidagi ta'lomi aks etgan; unda muallifning kapitalistik ishlab chiqarish usulining himoyachisi sifatidagi sinsiy pozitsiyasi ham ko'rinish turibdi. F.Kene takror ishlab chiqarish jarayonini tahlil qilishga kirishganda baholarning o'zgarmasligini asos qilib oladi (bunda almashuv ekvi-valentlik tamoyili asosida ro'y beryapti deb faraz qilinadi). Bu jarayon tashqi bozordan abstraksiya qilinadi (ya'ni bu hodisa faqat ichki bozor sharoitida ro'y beryapti deb qarash kerak).

Qishloq xo'jalik yilining hosil yig'ib olish tugallangan davri muomala (aylanish) momentining bosholang'ich punkti qilib olingan. Dehqonchilik yalpi mahsulotining qiymati 5 mlrd. livr (1799-yilgacha amal qilgan o'sha davrdagi Fransiya pul birligi) bo'lib (4 mlrd. oziq-ovqat,

1 mlrd. xomashyo), u unumli sinf vakillariga (fermerlarga) tegishli, shundan 1 mlrd. sarflangan asosiy kapital qiymatini qoplaydi. Jami asosiy kapital («boshlang'ich avans») 10 mlrd. livrga teng deb qabul qilinsa, u ta'mirlashga (amortizatsiyaga) muhtoj, ya'ni har yili o'zining boshlang'ich qiymatiga nisbatan 10 foiz yeyiladi (eskiradi) deb hisoblanadi. Aylanma kapital («yillik avans») 2 mlrd. «sof mahsulot» qiymati 2 mlrd. «unumsiz sinf» o'tgan davr mobaynida ishlab chiqilgan 2 mlrd livrlik mahsulotga ega.

Shunday qilib, yalpi ijtimoiy mahsulot 7 mlrd. livrga teng (5 mlrd. + 2 mlrd.). Undan tashqari, fermerlar qo'lida naqd 2 mlrd. livr pul ham bor (5 mlrd. + 2 mlrd. + 2 mlrd. = 9 mlrd.), ular bu summani muomala - aylanish boshlanguncha yer egalariga ijara haqi, ya'ni renta to'lab qo'ygan edilar.

Xo'sh, bu variantda yaratilgan mahsulotning realizatsiya va aylanish jarayoni qanday amalga oshadi? «Iqtisodiy jadval»ning shartlariga ko'ra bu jarayon besh aktdan iborat bo'lib, har biri 1 mlrd. livrga teng.

1. Mulkdorlar «unumli sinf»dan 1 mlrd. livrlik oziq-ovqat mahsulotlari sotib oladilar. Natijada bu operatsiyada qishloq xo'jaligi mahsulotining 1/5 qismi realizatsiya qilinadi, yer egalarining mulki muomala sohasidan iste'mol sohasiga o'tadi.


2. Mulkdorlar «unumsiz sinf»dan 1 mlrd. livrlik sanoat mahsulotlari sotib oladilar. «Unumsiz sinf» shu bilan o'z mahsulotining yarmini realizatsiya qiladi.

3. «Unumsiz sinf» mulkdorlardan olgan puliga «unumli sinf»dan iste'mol uchun kerakli mahsulotni oladi. Shu yo'l bilan qishloq xo'jaligi mahsulotining yana 1/5 qismi realizatsiya qilinadi.

4. «Unumli sinf» «unumsiz sinf»dan olgan 1 mlrd. livrga uning o'zidan («unumsiz sinf»dan) shuncha pulga ishlab chiqarish qurollarini oladi. Ular asosiy kapitalning yeyilgan, ishdan chiqqan elementlarini qayta tiklash uchun kerak. Bu operatsiya oqibatida («unumsiz sinf»ning) sanoat mahsulotining ikkinchi yarmi realizatsiya qilinadi.

5. Aylanish jarayonining beshinchi, yakunlovchi aktida «unumsiz sinf» «unumli sinf»dan 1 mlrd livrlik qishloq xo'jalik xomashyosi xarid qiladi.

Umumiyligi ijtimoiy mahsulotning aylanish natijalariga ko'ra sinflar o'rtaida 3 mlrd livrlik qishloq xo'jalik mahsuloti va 2 mlrd livrlik sanoat



7.2-chizma. F.Kenening iqtisodiy jadvali (2-variant)

buyumlari realizatsiya qilindi. «Unumli sinf» ixtiyorida qolgan 2 mlnrd livrlik mahsulot barcha sinflar o'rtaisdagi muomalaga kirmaydi, u faqat shu sinf doirasida aylanadi (jadvalda bunday aylanish berilmagan). Bu mahsulot qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi jarayonida sarflangan urug' va oziq-ovqat mahsulotlari o'mini qoplaydi. «Unumli sinf» tomonidan sotib olingan sanoat tovarlaridan asosiy kapitalning sarflangan qismini qoplash uchun foydalaniildi. Naqd pul 2 mlnrd. livrlik muomala (aylanish) natijasida «unumli sinf» qo'liga qaytishi mumkin, ammo bu pul yana keyingi muddat uchun ijara haqi sifatida yer egalari qo'liga kelib tushadi. Shunday qilib, yangi ishlab chiqarish siklini boshlash, ishlab chiqarishni joriy etish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratildi. Ammo u ilgarigi hajmda, ya'ni oddiy takror ishlab chiqarish uchun mos keladi.

Jadvalda keltirilgan raqamlar haqiqatga yaqin, ularni F.Kene qirov mahkamasidan olgan bo'lishi aniq.

«Iqtisodiy jadval»da takroriy ishlab chiqarishni tahlil qilish asosida olingen muhim qisqacha ilmiy xulosalar shundaki, unda ayrim-ayrim oldi-sotdi aktlari qarab chiqilmasdan, ko'plab individual aktlar sinflar o'rtaсидаги muomalaga birlashtirilgan. Ana shu sinflar o'rtaсидаги muomala F. Kene tadqiqotining predmeti edi. Olim aylanish (muomala)ni takror ishlab chiqarish jarayonining shakli sifatida, pul muomalasini esa kapitalning aylanish momenti sifatidagina qarab chiqishga uringan. F. Kene iqtisodiyot tarixida birinchi bo'lib makroekonomik modellashtirishni amalga oshirgan edi.

F. Kenening ijodi nihoyatda yuqori baholangan edi. Fransuz iqtisodchisi Mirabo V.R. (1715-1789) fikricha, dunyo paydo bo'lganidan buyon asosan uchta kashfiyat siyosiy jamiyatlar mustahkamlanishiga ko'mak bergen:

- 1) yozuv;
- 2) tanga;
- 3) «Iqtisodiy jadval».

F. Kene ta'limotida bir qancha kamchiliklar mavjud, sinflar to'g'-risidagi g'oyada izchillik va ilmiylik yo'q. Sanoatchilar («unumsiz sinf») ishlab chiqarish vositalaridan mahrum etilgan (chunki mahsulotning hammasi sotib yuboriladi) va ularda ishlab chiqarishni qaytadan boshlash imkoniyati yo'q (vaholanki, hunarmandlar asosiy kapitalga ega). Ammo F. Kerening jadvali iqtisodiyot tarixida birinchi marta natural, ya'ni tovar va pul holidagi moddiy ne'matlarning makroekonomik zanjiridir. Undagi g'oyalalar bo'lajak iqtisodiy modellarning kurtagi bo'lib qoldi.

7.3. A.Tyurgo va uning iqtisodiy ta'limoti

F. Kerening g'oyalari Ann Rober Jak Tyurgo (1727-1781) tomonidan davom ettirildi va chuqurlashtirildi. Ammo u o'zini F. Kerening shogirdi yoki davomchisi deb hisoblamagan. U Parijda normand dvoryanlar oilasida tug'ildi. Sarbonnaning Teologiya (diniy) fakultetini tugatdi, ammo bu sohada ishlanmadidi. 1751-yildan Parij parlamentining amaldori, 1761-1774-yillarda Limojda intendant (harbiy qismda xo'jalik mudiri), 1774-1776-yillarda moliya bosh nazoratchisi, qirol Ludovik XVI davrida moliya vaziri sifatida bir qancha antifeodal islohotlar o'tkazdi (don savdosidagi cheklovni yo'q qildi, savdo gildiyalarini tugatdi...),

ammo bu o'zgarishlar Tyurgo iste'foga chiqqach, bekor qilindi. U ham F.Kene singari Didro, D'Alamber va ularning yordamchilari tomonidan chiqarilayotgan «**Qomus**»ga bir nechta falsafiy va iqtisodiy maqolalar yozdi.

A.Tyurgo hayoti va ijodida progressiv amaldor Vensan Gurne katta rol o'ynadi. U fiziokratlardan ancha farqli ravishda sanoat va savdoning mamlakat ravnajidagi rolini to'g'ri tushundi. Sof bozor iqtisodiyotidagi mashhur *laissez faire, laissez passer* (bu tamoyilga ko'ra, iqtisodiyot davlat aralashuvlari rivojlanishi kerak) tamoyili birinchi bor shu tadqiqotchi tomonidan ilgari surilgan degan fikr bor. U boshqalar qatori hunarmandchilikdagi sex cheklovlariga qarshi chiqdi, erkin raqobatni qo'llab-quvvatladi.

A.Tyurgo V.Gurne (u 1759-yilda vafot etdi) bilan F.Kene huzurida ko'p bo'lgan, u ular bilan asosiy masalalarda maslakdosh bo'lsa ham, ko'p sohalarda boshqacha fikr yuritar edi. A.Tyurgo Parijda A.Smit bilan ham uchrashgan. A.Tyurgoning iqtisodiy qarashlari uning 1766-yilda yozilgan (1769-1770-yillarda chop etilgan) «**Boylarning paydo bo'lishi va taqsimlanishi to'g'risidagi mulohazalar**» asarida nisbatan to'la yoritilgan. U Kene fikrlarini faqat targ'ibot qilish bilan cheklanmadni, uni rivojlantirdi. U kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari ancha chuqur tushundi, feodalizmni islohotlar o'tkazish yo'li bilan yaxshilash mumkin degan fikrga ishonmadi (Kene ishongan), kapitalizm feodalizm qobig'ida vujudga keladi va g'alaba qiladi degan g'oyani ilgari surdi.

Bu kitob aslida Parijga o'qishga kelgan ikki xitoylik uchun darslik sifatida yozilgan va 100 ta aniq tezisdan iborat (V.Petti uslubi), ammo ba'zi qoidalar aksioma (isbot talab etmaydigan qoida)dan iborat. Bu iqtisodiy teoremlar aniq uch qismga bo'linadi. 31 ta tezis (teorema) fiziokratik g'oyalari majmuyidan iborat (ustoz F.Keneding ta'siri). Ammo «sof mahsulot» nazariyasini F.Keneding boshqacharoq talqin etiladi, aslini olganda bu yerda qo'shimcha qiymat haqida gap boradi va bu mahsulot tabiatning sof in'ormidan dehqon mehnati bilan yuzaga keladigan ortiqcha mahsulot sifatida qaraladi hamda asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lgan yer egasi tomonidan o'zlashtiriladi.

Keyingi 17 ta teorema qiymat, baho va pulga bag'ishlangan. A.Tyurgoning bu sohadagi fikrlari o'ziga xos xarakterga ega va qiymatning mehnat nazariyasidan ancha yiroq. Uningcha, almashuv qiymati va tovarning bahosi tovarlar nisbati, almashuvda ishtiroy etayotgan

shaxslar, sotuvchi va oluvchi istagining intensivligi bilan aniqlanadi (marjinalistik talqin). Ammo A.Tyurgoning bu g'oyasi uning ta'lomitiga mos kelmasdi.

Oxirgi 52 ta teoremada A.Tyurgoning tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan asosiy iqtisodiy g'oyalari keltiriladi. A.Tyurgo jamiyatning «unumsiz» sanoatchilar sinfini ikki qismga bo'ladi: bирinchisiga tadbirkor manufakturachilar, fabrika egalari kiradi, ular katta kapital egalari sifatida namoyon bo'lib, o'z avans, ya'ni bo'naklari yordamida ish joyi yaratadilar va uni foyda olish uchun sarflaydilar. Ikkinchilari - bu oddiy hunarmandlar bo'lib , ular o'z qo'l kuchlari hisobiga ish haqi oladilar (ishlab chiqarish vositalaridan mahrum). A.Tyurgo ish haqini V.Petti va F.Kene kabi tirikchilik uchun zarur minimum mablag'lar asosida hal etadi, ammo Kenedan farqli ravishda nega shunday bo'lishi kerakligi mexanizmini tushuntirib bermoqchi bo'ladi. Uning asosiy dalili shuki, mehnatga talab taklifga nisbatan kamayib boradi, ishchilar o'rtaida raqobat boradi.

Xuddi shu kabi yer egalari sinfi ham fabrikantlar kabi ikki toifaga ajratiladi, bular avans beruvchi tadbirkorlar yoki kapitalistlar va faqat ish haqi oluvchi oddiy ishchilardir. Bu katta ijobjiy voqeа, chunki Fransiyada bu sinflar mavjud edi.

Demak, A.Tyurgo bo'yicha jamiyatda *besh sinf* mavjud, bu haqiqatga yaqindir. U yollanma ishchida qo'l kuchidan boshqa ishlab chiqarish vositalari yo'qligini ochib beradi, kun kechirish uchun u o'z mehnatini boshqalarga sotishi zarurligini ko'rsatadi. A.Tyurgoning bunday fikrga kelishida vaqtning ham ta'siri bor, chunki u Kenedan keyinroq yashadi.

Tyurgoning ta'lomitida pul, qiymat, sinflar va daromad nazariyalari tahlil etiladi.

Uning fikricha, oltin, pul ham, agar ular miqdori oshib ketsa, boshqa tovarlar kabi o'z qimmatini (foydalilik- naqlik) yo'qotishi mumkin (marjinalistik g'oya). Pulning miqdori jamiyatdagи ishlab chiqarilayotgan tovarlar va xizmatlarga mos kelishi shart. U shuni qayd etadiki, «milliy boyligi» bu, avvalo, yerlar va ulardan olinadigan «sof mahsulot»dir.

Bu olim ham qiymatning sarf-xarajat konsepsiyasini qo'llaydi. Noyoblikka e'tibor berib, tovar xarid etishda eng muhim element deb qaraladi (marjinalizm mavzusiga qarang).

A.Tyurgo boshqalar kabi erkin sohibkorlik mehnatini qo'llab-quvvatladi, dehqonchilik qo'shimcha, ya'ni sof mahsulot manbayi ekanligini (bu fikr Keneniki) tan olgan holda sanoat va savdoga ham ko'p e'tibor qiladi.

U kapitalni Kenega nisbatan ancha chuqur va to'la tahlil etdi. Kene kapital deganda asosan natural (mahsulot) shaklidagi bo'naklar summasi (xomashyo, mehnat haqi va boshqalar)ni tushungan, shu sababli uning tizimida kapital jamiyatdagi sinflar o'rtasidagi mahsulotlar taqsimoti muammosi bilan chambarchas bog'lanmagan. Kenening tizimida foyda, o'rinn yo'q, kapitalist faqat «ish haqi olgan», bu «ish haqi»ning qanday vujudga kelishi ham tahlil etilmagan.

Bu sohada A.Tyurgo ancha ilgarilab ketadi. U foydani chetlab o'ta olmaydi, hatto to'g'ri tuyg'u asosida uni tadqiq etishni sanoat kapitalistidan boshlaydi; bu yerda foydaning kelib chiqishi, haqiqatan ham, aniqroq ko'rindi. Vaholanki, boshqa fiziokratlar (Kene ham) «barcha ortiqcha mahsulot yerdan kelib chiqadi» degan noto'g'ri aqidaga asoslanadilar.

U o'z ustozlari va maslakdoshlaridan «tabiiy tartib» konsepsiyasini buzayotganligi uchun kechirim ham so'rab qo'yadi, chunki u tahlilni sanoatdan boshlaydi va dehqonchilikni keyin qarab chiqadi. Ammo uning uzri noo'rindir, aksincha u muammoni yechishga to'g'ri yondashgan; yollanma ishchi kuchidan foydalananuvchi fermer kapitalist o'z kapitalidan kam deganda xuddi fabrikant singari foyda olishi va renta sifatida yer egasiga berishi kerak bo'lgan ma'lum ortiqcha(qo'shimcha)ni ham olishi kerak.

Eng ajoyib teorema 62-tezis bo'lib, unga ko'ra ishlab chiqarishga qo'yilgan kapital o'z-o'zidan ortib borish qobiliyatiga egadir. Xo'sh, o'z-o'zidan ortib borish darajasi va nisbatlari nima bilan belgilanadi?

A.Tyurgo kapital tomonidan yaratiladigan mahsulot qiymati nimadan iborat ekanligini tushuntirmoqchi bo'ladi (aslida kapital emas, balki mazkur kapital asosida harakatga keladigan mehnat yaratuvchidir). Avvalo, uning fikricha, mahsulot qiymati kapital sarflarini, shuningdek, ishchilarning ish haqini qoplashi kerak. Qolgan qismi (aslida qo'shimcha qiymat) uch qismga ajraladi: birinchisi, foyda bo'lib, kapitalist pul kapitalining egasi sifatida «hech qanday mehnatsiz» olishi mumkin bo'lgan daromadga teng. Bu ssuda (pul) foiziga mos foydadir. Foydaning ikkinchi qismi fabrika yoki ferma ochishga tavakkal qilgan

kapitalistning «mehnati, tavakkalchiligi va san'atini» to'lashga sarf etiladi. Bu tadbirkorlik daromadidir. Shunday qilib, A.Tyurgo sanoat foydasining ssuda va funksional kapitalga bo'linishini ko'rsatib berdi. «Agar pul foizi past bo'lsa, bilingki, bu kapitalning ortiqchaligi oqibati hamdir», - deydi u.

Foydaning uchinchi qismi rentadir. U faqat dehqonchilikda band kapitalistlar uchun mavjud. So'zsiz, bu tahlil iqtisodiyot fanida aytilgan yangicha g'oyadir.

Ammo olimning keyingi fikrlari izchil bo'lmay, yana fiziokratizm qobig'iga qaytadi. Boshida foydani foizdan chiqaradi, bu minimum bo'lib, unga har bir kapitalist egalik qilish huquqiga ega.

Agar kapitalist idorasida xotirjam o'tirmasdan fabrikaning faoliyatiga yoki qishloq xo'jaligida batraklar ishiga boshchilik qilsa, unga o'ziga xos qo'shimcha maosh beriladi. Foiz oxir-oqibatda yer rentasiga tenglashtiriladi, chunki kapital bilan eng oson bajariladigan operatsiya bu yer uchastkasi olish va uni hech tashvishsiz ijara topshirishdir. Endi qo'shimcha qiymatning asosiy shakli yer rentasi bo'lib qoldi, qolgani esa uning hosilalaridir. Yana butun jamiyat faqat yer yaratadigan «ish haqida o'tirgan» bo'lib chiqadi.

Yuqorida aytiganidek, A.Tyurgo nazariyotchi olim bo'lishdan tashqari amaliyotchi amaldor edi. U qirol Ludovik XVI davrida moliya vaziri bo'lib ham ishladi, o'zining bir qancha ilg'or g'oyalarini ilgari surishga intildi.

U birinchi bo'lib davlat moliyasini sog'iomlashtirishga harakat qildi, bu sohada uzoq muddatli dastur tuzib chiqdi, unga ko'ra yer egaligidan tushadigan daromadlardan olingan soliqlar tizimi tugatilishi kerak edi. Umuman, u sanoat va savdodagi odil bo'lмаган soliqlarni tartibga solishga kirishdi. U budjet chiqimlarini cheklashga intildi, bundan saroy xodimlarining ortiqcha sarf-xarajatlarini keskin kamaytirish mo'ljallandi va bu sohada ma'lum yutuqlarga erishildi.

A.Tyurgoning muhim muvaffaqiyatlaridan biri shuki, u don va unga erkin savdoni kiritdi, bu sohadagi monopoliyaga chek qo'ydi. Bu ishlar nihoyatda og'ir kechdi, chunki feodalizm ildizlari hali kuchli edi, bu kuchlar yangilikka tish-tirnog'i bilan qarshi turdi.

A.Tyurgo 1776-yilning 12-mayida (yilga e'tibor bering, shu yili A.Smitning «**Xalqlar boyligi**» asari chop etildi) iste'foga chiqishga majbur bo'ldi. Eski tuzum davom etdi, barcha ijobiy ishlar inkor

etildi, demak, hali ularni amalga oshirish uchun kerakli shart-sharoitlar mavjud emas edi.

1778-yili A.Tyurgo amerikalik do'sti Franklinga atab o'zining so'nggi iqtisodiy asari bo'lgan «*Soliqlar to'g'risidagi esdaliklar*»ini yozadi.

Olimning zamondoshi E.Kondilyak (1715-1780) tomonidan 1776-yilda qimmatga oid subyektiv qarash ilgari surildi. Uning fikricha, qimmat bu buyumda emas, balki unga biz berayotgan bahoga bog'liq. Bu baho esa bizning talab – ehtiyojlarimizga bog'liq: baho ana shu talabga qarab yo ortadi, yo pasayadi. Narsalarning qimmati uning noyobligi bilan oshadi va mo'lligi bilan pasayadi. Deyarli 100 yil avval aytilgan bu g'oya XIX asr 70-yillarda marjinalistlar tomonidan isbotlandi. Iqtisodchilar butun asr davomida qiymatning insonlar xohishidan qat'iy nazar, substansiyasi (obyektiv asosi) nimada degan savolga javob izladilar. Bu kashfiyot fiziokratlarning savdo (almashuv) sohasida boylik yaratilmaydi, chunki almashuvda teng qiymatlar almashadi degan g'oyalarini chip-pakka chiqardi. Aksincha, bozorga o'ziga kerakmas buyum bilan kelgan xaridor o'ziga ko'proq foydali boylikni olib qaytadi.

7.4. Fiziokratizmning ahamiyati va uning tarixiy taqdiri

A.Smit o'z vaqtida: «Fiziokratizm tizimi qanchalik nomukammal bo'imasin, shu davrgacha chop etilgan iqtisodiy g'oyalar ichida haqiqatga eng yaqini edi», - deb aytgan. Bu ta'lifotning merkantilizmni inkor qilishi, mehnat bilan yer boylikning asosi ekanligini tan olishi, savdosotiqa bojxona cheklovlarini olib tashlashni taklif etishi nihoyatda muhimdir. Fiziokratlar boylik tezisi to'g'risida fikr yuritib, boylik jamiyat mehnati bilan har yili yaratiladigan iste'mol qiymatlaridir, deydilar.

Bu tezis ham A.Smit tomonidan qabul qilingan. Ishlab chiqarish va taqsimot jarayoniga xos umumiylar mehnat doktrinasini, ishlab chiqarishning takroriyligiga alohida urg'u berilishi katta yutuq hisoblanadi. Kapital va uning ikki qismiga ajratilishi (asosiy va aylanma), takror ishlab chiqarish, erkin sohibkorlik to'g'risidagi g'oyalar, jamiyatning sinflarga ajratilishi iqtisodiy ta'lifotlarning rivojida keyingi muhim qadamdir. Hozirgi zamonda tili bilan aytganda, fiziokratlar so'f bozor munosabatlarning unsurlarini, asosan, to'g'ri hal etib berdilar. Ularning mehnat bilan birga yerni boylik asosi deb qabul qilinishida

davr ta'siri kuchlidir. Chunki mamlakatdagi asosiy sinf dehqonlar bo'lib, asosiy boylik qishloq xo'jaligida yaratilayotgan edi.

F.Kene misolida uch sektor o'rtasidagi munosabatlar keltirilgan. Amalda, ayniqsa, hozirgi davrda esa bu sektorlar miqdori xiyla ko'p bo'lib, ular o'rtasidagi aloqalar V.Leontevning «xarajatlar - chiqarish» tizimida N ta tarmoq uchun ishlab chiqilgan. Ko'rini turibdiki, bu g'oyaning kurtaklari fiziokratlarning asarlarida ko'ringan. Hozirgi davrda bu tarmoqlararo balans deb yuritiladi va u makroekonomik tahlilda, umuman, iqtisodiyotda muhim ahamiyatga egadir. O'sha paytda bo'lajak iqtisodiy modellarning asoslari vujudga kelgan edi. Bu g'oya klassik iqtisodiy maktab ta'limoti zanjirining muhim ajralmas qismi sifatida muhim o'rinnegallaydi. Shu bilan birga, hozirgi zamон iqtisodiy ta'limotlari nuqtayi nazaridan fiziokratizm g'oyalari o'z ahamiyatini tezda yo'qotdi va o'tkinchi xarakterga ega bo'ldi, chunki jahon ijtimoiy va iqtisodiy hayotidagi o'zgarishlar nisbatan mukammal g'oyalari ishlab chiqilishi zarurligini taqozo etdi va bu amalda ro'y berdi. Ayniqsa, boylikning asosi (sof mahsulot) faqat qishloq xo'jaligi sohasi bilan chambarchas bog'liq qilib cheklab qo'yilganligi to'g'risidagi xato tez namoyon bo'lib qoldi, sanoat inqilobi natijasida ro'y bergen o'zgarishlar tufayli fiziokratizm g'oyalari unutilayozdi.

Qisqacha xulosalar

XVIII asrning o'rtalarida Fransiyada iqtisodiy ta'limotlar tarixida fiziokratizm yo'nalishi yuzaga keldi. Bu ta'limot klassik iqtisodiy mактабning tarkibiy qismi sifatida muhim ahamiyatga egadir. Bu oqimning asosiy vakillari F.Kene va A.Tyурго mamlakatdagi o'sha davr iqtisodiy holatini har tomonlama tahlil etib, iqtisodiyotning muhim kategoriyalari bo'yicha qimmatli fikrlar berdilar. Ular fermernlarni himoya qilgan holda, avvalo, merkantilizmdan voz kechib, boylikning asosiy manbayi mehnat va yer ekanligini ko'rsatdilar. «Tabiiy tartib» konsepsiysi asosida «unumli mehnat», «sof mahsulot», kapital to'g'risidagi ta'limotlar ilgari surildi. Kapitalistik munosabat, xususiy mulk, erkin baholar, erkin raqobat, davlatning iqtisodiga kam aralashuvi «tabiiy hol» deb tan olindi.

Ularning fikricha, qiymat iste'mol qiymati bo'lib, hatto tabiat, yer in'omi sifatida talqin etiladi. Dehqonchilikdan boshqa sanoat, savdo

va xizmat tarmoqlari unumsiz soha deb qaraladi. Bunday noto'g'ri fikrning paydo bo'lishi Fransiyaning o'sha davrdagi iqtisodiy ahvoli (agrар mamlakat) bilan bog'liqdir. Kapital tushunchasining kiritilishi va uning boshlang'ich va yillik bo'nak kabi ikki qismga bo'linishi iqtisodiyot tarixida muhim qadamdir. Shundan doimiy va aylanma kapital g'oyalari ham kelib chiqadi.

F.Kenening «Iqtisodiy jadval» asarida jamiyatdagi sinflar masalasi ko'tariladi, ammo bunda ba'zi kamchiliklar bor, uni A.Tyurgo rivojlantirib, o'sha davr uchun to'g'ri qisqacha xulosalarlar chiqaradi. Takror (uzluksiz) ishlab chiqarish jarayoni va yalpi ijtimoiy mahsulot muomalasi birinchi bor kun tartibiga qo'yiladi. Oddiy takror ishlab chiqarish chizmasi beriladi va tayyor mahsulotning aylanish tamoyillari ko'rsatiladi, bu o'sha davr uchun katta kashfiyat edi. Tarmoqlar, ya'ni sektorlararo taqsimotning aniq proporsiyalari bo'lishi zarurligi qayd etiladi, ma'lumki bu tamoyil hozirgi davrda ham muhim.

Olim va davlat arbobi A.Tyurgoning iqtisodiy g'oyalari ancha mukammal bo'lib, o'sha davrdagi jamiyat va iqtisodiyotdagi jarayonlarni ancha izchil tahlil etadi va sanoatda kapitalistlar va yollanma ishchilar mavjudligi hamda beshta sinf borligi e'tirof etiladi.

A.Tyurgo sanoat va xizmat sohalariiga ijobjiy yondashadi. U kapital va qo'shimcha mahsulot (qiymat) masalalarini ancha mukammal hal etadi, sanoat, ssuda va kapital haqida fikr yuritadi, lekin oxir-oqibatda fiziokratizm qobig'idan chiqa olmaydi, qo'shimcha mahsulotning asosiy shakli yana yerga, yer rentasiga qaytadi. A.Tyurgo moliya vaziri sifatida bir qancha iqtisodiy islohotlarni o'tkazishga erishadi. Ammo mamlakatdagi ijtimoiy tuzum bu islohotlarga to'siq edi. Hozirgi davr tili bilan aytganda, fiziokratlar sof bozor munosabatlarni qo'lladilar, ammo ularning g'oyasi, asosan, qishloq xo'jaligi bilan cheklab qo'yildi, barcha fikrlarda mukammallik yetishmas edi. Bu vazifalar esa keyingi olimlar tomonidan hal etildi.

Asosiy tushuncha va iboralar

Fiziokratizm, F.Kene, tabiiy tartib konsepsiysi, erkin bozor munosabatlari, unumli va unumsiz mehnat, sof mahsulot, kapital, «Iqtisodiy jadval», oddiy takror ishlab chiqarish, A.Tyurgo, qiymat tarkibi, sof bozor iqtisodiyoti, sinflar, E.Kondilyak, subyektiv o'lchov.

Nazorat va mulohoza uchun savollar

1. Fiziokratizm so‘zining mazmuni va bu ta’limotning asosi nima, uning muhim xususiyatlari nimadan iborat?
2. F.Kene hayoti va ijodining o‘ziga xos tomonlarini ko‘rsatib bering. U qaysi sinf manfaatlarini himoya qiladi?
3. «Tabiiy tartib» konsepsiysi, «sof mahsulot», «unumli» va «unumsiz» mehnat, «unumli» va «unumsiz» sinf, «qo‘sishimcha mahsulot» tushunchalariga xarakteristika bering.
4. F.Kenening asosiy asarining nomi nima, u qachon yozilgan va asosiy mazmuni nimadan iborat? Takror ishlab chiqarish jarayoni qanday sikllardan o‘tadi? Jadvalni izohlab bering.
5. Kapitalga qanday izoh beriladi, uning bo‘laklari jadvalda nimani bildiradi?
6. Nima uchun va qanday sabab bilan sanoat sohalari «unumsiz» deb sanaladi?
7. F.Kenening qaysi g‘oyalaridan hozirgi davr iqtisodchilari tomonidan foydalanmoqda?
8. A.Tyurgoning hayoti va ijodidagi asosiy xususiyatlar nima? Uning bosh asari qanday nomlanadi va u qachon yozilgan?
9. A.Tyurgo jamiyatni qaysi sinflarga bo‘ldi? Uning F.Kenedan farqi nimada? Qaysi olimning fikri to‘g‘riroq?
10. A.Tyurgo tomonidan kapitalning izohi, ishlab chiqarishga qo‘yilgan kapitalning o‘z-o‘zidan o‘sib borish qobiliyati qanday tushuntiriladi?
11. Olim davlat xizmatchisi sifatida qanday islohotlarni amalga oshirmoqchi bo‘ldi?
12. Fiziokratizm ta’limotining kamchiliklari nimadan iborat?
13. Fiziokratizmning ahamiyati va tarixiy taqdiri to‘g‘risida nima deya olasiz? E.Kondilyakning dastlabki marjinalistik g‘oyalari nimalardan iborat?

VIII б о б. А. SMITNING IQTISODIY TA'LIMOTI (2-bosqich)

8.1. Klassik maktab g'oyalari shakllanishining tarixiy shartsharoitlari. Klassik iqtisodiy maktabning to'la shakllanishi

XVIII asrning ikkinchi yarmida klassik iqtisodiy maktab britaniyalik olimlar A.Smit va D.Rikardo asarlarida eng yuksak cho'qqiga ko'tarildi. Bu hol tasodifiy emas edi, chunki bu olimlar yashab ijod etgan davrda Angliyada chuqur iqtisodiy, sotsial va siyosiy o'zgarishlar ro'y berayotgan edi.

XVIII asrning ikkinchi yarmida «Texnik yo'nalishda»gi ishbilarmonlar guruhi iqtisodiyot tarixida butunlay yangi insonlarni vujudga keltirdi.

Sanoat inqilobi dastlab yengil sanoatda, xususan, to'qimachilik sohasida boshlandi va mashinasozlik vujudga kelishi bilan nihoyalandi. J.Key to'quv mokisini, 1733-yilda J.Xargriivs o'z qizining nomi bilan atalgan «*Jenni*» mexanik to'quv dastgohini kashf etdi. Mexanik K.Vud uni 1772-yilda takomillashtirdi, 1783-yilda esa S.Krompton «myul-mashina»ni yaratdi, 1785-yilda E.Kartrayt mexanik to'quv stanogini ijod qildi, bu dastgoh 40 odamning ishini bajarardi. R.Arkraytning to'quv mashinasi esa bu sohaning unumdorligini keskin oshirdi.

Ishlab chiqarishning energetik bazasi qo'l va suv oqimidan 1782-yilda J.Uatt tomonidan ishlab chiqilgan bug' mashinasi ixtiyoriga o'tdi. Bu mashina asosida 1805-yilda bug' kemasi-paroxod yaratildi, 1811-yilda J.Stefenson parovoz yasadi, 1830 yilda esa Manchester-Liverpul temir yo'li qurildi.

Metallurgiya sohasida 1735-yilda A.Derbi pistako'mir o'miga toshko'mirdan foydalaniib, domna pechidan nisbatan sifatli va ko'proq miqdorda metall olish yo'lini topdi. J.Uilkinson hamma narsa, ko'prik, quvur va hatto paroxod ham metalldan bo'lishi kerak, degan g'oyani ilgari surdi.

Sanoat inqilobi iqtisodiyot va ijtimoiy hayotda keskin o'zgarishlarga olib keldi. 1701-1802-yillar oralig'ida to'qimachilik rivoji tufayli Angliyada paxta tolasidan foydalanish 6000 foizga o'sdi. 1788-1838 yillarda cho'yan eritish 68 ming tonnadan 1347 ming tonnagacha oshdi.

Fransiyada 1815-yildan keyingi 30 yil ichida temir olish 5 marta, toshko'mir qazish 7 marta, yuk tashish hajmi 10 marta ko'paydi. Vaholanki, A.Smit davrida Shotlandiyaning ayrim joylarida mix pul o'mida ishlatalgan. Bu o'zgarishlar, ya'ni texnikaning kirib kelishi buyum - tovarlar turini keskin oshirdi, ilgari ayrim odamlargagagina tegishli bo'lgan narsalar kundalik buyumlarga aylanib qoldi. Asta-sekin kapitalizm hayot darajasining o'sishiga olib keldi, moddiy ne'matlar turi tizimli ravishda ko'paydi, sifati yaxshilandi, eng muhimmi, bu imkoniyatlardan jamiyatning aksariyat qismi foydalandi.

8.2. A. Smitning iqtisodiy g'oyalari. Uning «Xalqlar boyligi...» asaridagi iqtisodiy qarashlar

Adam Smit (1723-1790) Shotlandiyaning Kerkoldi shahrida bojxona amaldori oilasida dunyoga keldi. Glazgo va Oksford universitetlarida ta'lim oldi.

U 1766-yilda o'zining bosh asari - «**Xalqlar boyligining tabiatи va sabablari to'g'risidagi tadqiqot**»ni yozishga kirishdi. Asar 1776-yil martda Londonda chop etildi. Asarda insoniyat tomonidan ilgari yaratilgan iqtisodiy bilimlar mujassamlashtirildi va umumiy nazariy prinsiplar asosidanisbatan batartib iqtisodiy fanlar tizimiga aylandi.

A.Smitning bu asari besh kitobdan iborat bo'lib, birinchisida qiymat va qo'shimcha daromad muammolari tadqiq etildi, ikkinchisida - kapital jamg'arilishining shakllanishi davrida Yevropaning iqtisodiy rivojlanishi, uchinchisida - turli xalqlarda farovonlik, kapitalizm taraqqiyotining tarixiy shart-sharoitlari, to'rtinchisida - merkantilizm va fiziokratlarning ta'lomitiga munosabati, beshinchisida esa davlat moliya tizimi tadqiq etilgan. Asar A.Smit tirikligida to'rt marta, o'limidan so'ng uch marta nashr etildi. Asarga Angliyadagina emas, chet ellarda ham qiziqish ortdi. Rossiyada bu asarning tarjimasi birinchi marta 1802-1805-yillarda chop etildi.

A.Smit 1778-yilning boshida Edinburgda bojxona komissari lavozimiga tayinlandi va umrining oxirigacha shu yerda ishladi.

A.Smit tomonidan tadqiq etilgan insonning tabiatini, inson va jamiyat orasidagi munosabat klassik maktab qarashlarining asosini tashkil etadi. Bunda «iqtisodiy odam» tushunchasi keyinroq paydo bo'lishiga qaramasdan, uning kashfiyotchilari A.Smitga tayanganlar.

A.Smitning tadqiqot predmeti va metodologiyasi

Jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi va uning moddiy-turmush darajasini oshirish muammolari A.Smit **tadqiqotining predmetini** tashkil etadi. Qanday shart-sharoitlar va qanday qilib insonlar yuqori-roq moddiy turmush darajasiga erisha oladilar degan fikr asarning asosiy g'oyasini aks ettiradi. Iqtisodiy o'sishning pul shakli inkor etiladi va asosiysi moddiy ne'matlar yaratish deb qaraladi, bular esa faqat ishlab chiqarish sohasida yuzaga keladi va shu sababli ustuvor deb hisoblanadi. Ammo qaysi (sanoat, qishloq xo'jaligi) soha afzalligi aniq aytilmaydi. Asarning 2-kitobida dehqonchilikka kapital qo'yish yaxshiroq samara beradi deb uqtiriladi. Iqtisodiyot rivojlanishi bilan sanoat tovarlarni narxi pasayish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxi esa o'sish tendensiyasiga ega deb hisoblaydi. Demak agrar soha ustun (bu xato).

Metodologik jihatdan bu tadqiqot **iqtisodiy liberalizm** konsepsiyasiga, ya'ni fiziokratlarning tabiiy tartibi, bozor iqtisodiyoti munosabatlarga asoslanadi.

Olim o'z asarlari va tadqiqotlarda odamlar ba'zi tabiiy xususiyatlarga ega, ana shunday xususiyatlardan biri - egoizm (xudbinlik) bo'lib, odamlar o'z xo'jalik faoliyatlarida unga amal qiladilar. Ammo ayrim shaxsninggina manfaatlari jamiyat manfaatlariga mos tushadi, deb uqtiradi. Har bir odam o'z shaxsiy manfaatini ko'zda tutadi, ammo bu holatda ko'p boshqa holatlardagi kabi, u «**ko'rinnmas qo'l**» tomonidan uning niyatida ham bo'lmanган мақсад сари yo'naltiriladi...

Bunda u ongli ravishda xususiy manfaatlarga intilgandan ko'ra ko'proq haqqoniy ravishda jamiyat manfaatlariga xizmat qiladi. «**Ko'rinnmas qo'l**» bu – obyektiv iqtisodiy qonunlarning stixiyali harakati. Bu qonunlar odamlarning xohish-irodasidan qat'i nazar, unga qarama-qarshi harakat qiladi. Har bir odam ko'proq foyda olish uchun kapitalni imkonli boricha qulay ishga joylashtirishga urinadi, chunki u jamiyatning emas, o'zining shaxsiy manfaatini ko'zlaydi. Ammo inson o'z shaxsiy manfaatini o'ylagan paytda, bu holat muqarrar ravishda jamiyat uchun ko'proq naf keltiruvchi mashg'ulotni tan-

lashiga olib keladi. Smitning ta'rifi bo'yicha, foyda ketidan quvish va raqobat jamiyatga naf keltiruvchi faoliyatga aylanadi.

Hozir «ko'rinmas qo'l» iborasi bilan birga «**iqtisodiy odam**» tushunchasi ham kiritildi. Unga ko'ra, shaxsiy manfaatlar tufayli savdo va almashuv jarayoni amalga oshadi.

Iqtisodiy rivojlanishning shaxsiy manfaat va stixiyali qonunlarning o'zaro samarali harakati sharoitlarini A.Smit «**tabiiy tartib**» deb atagan. Demak, jamiyatga naf keltiruvchi faoliyatni biror harakat bilan cheklamaslik kerak.

Bu tamoyilga ko'ra quyidagilar taklif etiladi:

1. Ishchi kuchining erkin harakati;
2. Savdoda (yer savdosida ham) to'la erkinlik;
3. Sanoat va ichki savdoni hukumat tomonidan reglamentatsiya qilishga qat'iy qarshilik;
4. Erkin tashqi savdo (proteksionizmga qarshi).

Olimning bu g'oyalari keyinchalik to'la amalga oshdi.

A.Smit iqtisodiy haqiqatga oid faktlarni qanday bo'lsa, shunday holda o'rganish bilan cheklanmasdan, «tabiiy baho», «tabiiy norma», ish haqi va boshqalarning nimaga bog'liq ekanligini aniqlashga urindi. Buning uchun u mantiqiy abstraksiyaga tayanib ish yuritdi. U tasodifiy voqealardan holi ravishda kapitalistik xo'jalikning ayrim xususiyatlari to'g'risida qator muhim qisqacha xulosalar chiqardi. U aniq iqtisodiy hayotni izohlashni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. U shu maqsadda kapitalistik xo'jalik voqealarini izohladi va ma'lum tizimga soldi.

A.Smit abstraksiya usulidan foydalanib, hodisalarning ichki bog'lanishi masalalariga kirib bordi. Parallel ravishda u kapitalistik haqiqat to'g'risidagi bevosita kuzatish natijalarini umumlashtirdi. Birinchi metod izoterik, ikkinchisi - ekzoterik usullar deb ataladi.

N.G.Chernishevskiy A.Smit metodiga aniq xarakteristika bergen. Ikkala metodni bir vaqtida qo'llashning afzalligi bilan birga, katta kamchiligi ham bor: olingen natijalarni bevosita solishtirish har doim ham mumkin emas. Ilmiy tahlil asosida olingen qisqacha xulosalar, yuzaki umumlashmalar bilan bir qatorga qo'yiladi. Mazmun va hodisa shakllari doim ham o'zaro mos kelavermaganidan bu qisqacha xulosalar ba'zida bir-biriga zid ham bo'lgan, ammo A.Smit buni oxirigacha tushunib yetmadi.

Mehnat taqsimoti va pul to'g'risidagi ta'llimot

A.Smitning iqtisodiy qarashlari asosida shunday g'oya yetadiki, unga ko'ra jamiyat boyligi ishlab chiqarish jarayonida mehnat tufayli paydo bo'ladi (merkantilistlardan keskin farqi bor). A.Smit mehnatni barcha sohalarda (sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalari) boylikning asosi deb bildi. U kapitalistik ishlab chiqarishning manufakturna bosqichini tahlil qilish asosida iqtisodiy o'sishning muhim omili mehnat taqsimotidir, degan xulosalarga keldi va buni o'z tadqiqotlari ning boshlang'ich punkti deb qabul qildi.

Uningcha, ishlab chiqarish hajmi va mahsulot iste'moli ikki omil: *aholining unumli mehnat bilan shug'ullanayotgan qismi va mehnat unumdoorligining darajasi bilan belgilanadi*. Farqli ravishda ikkinchi omil muhimroq bo'lib, u mehnat taqsimoti bilan bevosita bog'liqdir.

Pul nazariyasi

Ishchi ilojsiz kapitalning qo'shimchasiga aylanib, ishlab chiqarish vositalaridan, mehnat obyekti va sharoitidan mahrum bo'la boradi. Insomning almashuvga moyilligi uning psixologiyasi va hulq-atvoriga xos bo'lib, mehnat taqsimotining rivojiga ham ta'sir etadi. Bundan keyin, mehnat taqsimotining o'sishi va almashuvning kengayishi parallel boradi va ular bir-birining rivojlanishiga turtki bo'ladi. Bu jarayonda Smit tovar dunyosining pulning stixiyali ravishda, uzoq rivojlanish jarayoni natijasida ajralishini ko'rsatib beradi. Pulning paydo bo'lishini ayrim iqtidorli odamlarning kashfiyoti yoki o'zaro hamkorligiga bog'lash mumkin emas. Smit pulning muomala vositasi funksiyasini boshqalarga nisbatan (bu prinsiplar Smitda beshta, G'arb olimlarida esa uchta) alohida ta'kidlaydi. Oqibatda Smitning fikricha, pul texnik qurol bo'lib, iqtisodiy jarayonlarni yengillashtiradi, uni «*muomalaning buyuk g'ildiragi*» deb baholaydi. A.Smit oltin va kumush pullarni qog'oz pul bilan almashtirish maqsadga muvofiq, uni esa banklar cheklangan miqdorda chiqarishi zarur deb hisoblagan.

A.Smitning qarashlarida ancha chalkashliklar bo'lsa ham, lekin u pul va kreditni ishlab chiqarishga nisbatan tobeligini ko'rsatib berdi. A.Smit pul-kredit omillarining mustaqilligini yetarli baholay olmadi, ularning ishlab chiqarishga teskari ta'sirini tushunmadi.

Qiymat nazariyasi. A.Smit qiyamatning mehnat nazariyasini V.Pettiga nisbatan ancha chuqur va to'laroq ishlab chiqdi. U tovarning bozor va tabiiy yoki haqiqiy baholarini farqlaydi, haqiqiy bahoni qiymat bilan aynan bir deb tushunadi. «*Qiymat*» so'zi, uningcha, ikki xil mazmunga ega. Bu so'z bilan buyumning foydaliligi hamda uni boshqa buyumga almashish qobiliyati belgilanadi. Demak, u iste'mol va almashuv qiyatlarini farqlagan.

Almashuv qiymati tovarlarning tabiiy xususiyati, iste'mol qiyatlari hisoblanadi. Agar tabiiy xususiyatlarni inkor etsak, tovarlarda yagona xususiyat qoladi: tovarlar inson mehnatining mahsulidir. A.Smit V.Pettidan farqli ravishda (u mehnat faqat oltin yoki kumush ishlab chiqarishda qiymat hosil qiladi, degan edi) mehnat barcha moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida qiymatni hosil qiladi, degan fikrda edi. U ish vaqt va qiymat miqdori orasidagi to'g'ridan to'g'ri aloqadorlikni aniqladi, mehnat qiyatning haqiqiy asosi ekanligini isbotlashga urindi.

A.Smit mehnatning ikkiyoqlama xarakterini, ya'ni abstrakt va konkret mehnat borligini tushunmadni, qiyat o'z tabiatiga ko'ra ijtimoiy xarakterga ega, tovar ishlab chiqaruvchilarning ijtimoiy munosabatlarini aks ettiradi va bir tovarning ikkinchisiga munosabati almashuv qiyati orqali aniqlanadi.

Smitning fikricha, qiyatni sotib olinadigan mehnatga qarab aniqlash shu tovarlarni ishlab chiqarishga sarflangan mehnat bilan aniqlash usuliga qarama-qarshi emas.

Ekvivalentlik tovar almashuvining qonuni: bir xil miqdordagi mehnat aks etgan tovarlar almashadi. Shundan Smit tovar ishlab chiquvchi bir tovari boshqasiga almashganda keng miqdordagi mehnatni sotib oladi, shu sababli tovar qiyatini sarflangan va sotib olingan mehnat bilan bab-baravar aniqlash mumkin, degan xulosa chiqaradi. Bu holda qiyat o'lchovi deb ish vaqt o'rniqa mehnatning almashuv qiyati keltiriladi.

Sotib olinadigan mehnat nazariyasida qiyat tushunchasi ishlab chiqarish faoliyatidan almashuv sohasiga ko'chirilgan (bu esa xato), almashuv qiyatini esa o'z hisobiga faqat ma'lum miqdordagi mehnatni olish qibiliyati sifatida izohlagan, xolos.

A.Smit kapitalist va ishchi o'rtasidagi munosabatni tahlil etib, bunda ekvivalentlik qonuning buzilganligini ko'rdi. Kapitalist ishchiga ish haqi sifatida ishchi mehnati tomonidan yaratilgan qiyatning faqat

bir qismini to'laydi. Bu qiymatning ikkinchi qismini esa foyda sifatida o'zlashtiradi. Olim qiymat qonuni buzilayotir, deb e'lon qildi va qiymatning mehnat nazariyasi kapitalizmgacha bo'lgan sharoitlarda qo'llanilishi mumkin, deb hisobladi. Uning fikricha, qiymat faqat «jamiatning dastlabki holatida», kapitalist va yollanma ishchilar bo'lman, ya'ni oddiy tovar ishlab chiqarilishi sharoitlaridagina mehnat bilan aniqlanadi (ekvivalentlik to'la mavjud).

A.Smit ishchi kuchi degan kategoriyani bilmagan, u ishchi o'z mehnatini sotadi deb o'ylagan. Shu sababli u kapitalizmda haq to'lanmagan mehnatning o'zlashtirilishini qiymatning mehnat nazariyasi asosida tushuntirib bera olmagan. A.Smit qiymatni daromad bilan ham tenglashtirishga uringan. U aytadiki, ish haqi, foyda va renta har qanday daromadning, har qanday almashuv qiymatining dastlabki uch manbayidir. Demak, Smit kapitalizmga xos yana bir qiymat - daromad nazariyasini o'ylab topdi, bu yerda daromad ish haqi darajasi, foyda va renta bilan aniqlanadi. Qiymatni daromadlar asosida tushuntirish olimning qiymatning mehnat nazariyasiga qaramaqarshidir. Bu g'ayriimiy konsepsiyanidan boshqa siyosiy iqtisod namoyandalari keng foydalanadi.

Daromadlar to'g'risidagi ta'lilot

A.Smit kapitalistik jamiatning sinfiy strukturasini baholashda ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan munosabatga ko'ra uchga bo'ldi: ishchilar, kapitalistlar va yer egalari.

Har bir sinf o'zining asosiy daromadini: ishchilar ish haqi, kapitalistlar foyda, yer egalari esa renta oladilar. Smit turli qatlam va oraliq guruhi lar mavjudligini ham aniqladi va asosiy sinflar daromadni oladilar, boshqa guruhlarning daromadi esa qayta taqsimlangan yoki ikkilamchi ekanligini aytadi.

Ish haqi, ya'ni ishchining daromadi Smitning fikricha, mehnat mahsuloti bo'lib, mehnat uchun to'lanadigan tabiiy mukofotdir, oddiy takror ishlab chiqarishda ham mehnat haqi mavjuddir. U oddiy ishlab chiqaruvchi bilan yollanma ishchining daromadlarini bir deb bildi. Oddiy takror ishlab chiqarishda «ish haqi» ishchining butun mehnat mahsulotiga teng.

Smit ish haqi masalasini F.Kene va V.Pettilardan boshqacharoq hal etdi. Ma'lumki, V.Petti tirikchilik uchun zarur bo'lgan minimum xarajatlar nazariyasini ilgari surgan, fiziokratlar ham shunday fikrda edilar. Smit «tabiiy baho» tushunchasini ishlatgan va ish haqi tirikchilik uchun zarur minimum xarajatlardan ancha ortiq bo'lishi, bolalar hayoti va tarbiyasiga oid xarajatlar ham hisobga olinishi kerak, ish haqi milliy boylik o'sishiga bevosita bog'liq degan fikrda edi.

Smit ta'limotida ishchi kuchi degan kategoriya yo'q, u kapitalist va ishchi o'rtasidagi munosabatda ishchi mehnati sotiladi deb hisoblaydi.

Ammo ish haqining normal darajasini aniqlashda u amalda ishchi kuchining qiymatidan foydalangan, ish haqining miqdori to'g'risida gap borganda esa tirikchilik xarajatlari qiymati hisobga olinishi kerak, deydi. U, shuningdek, ish haqi miqdori o'zgarishining mexanizmini o'rGANIB, uning quyi chegarasi jismoniy tirikchilik minimumi bo'lishi kerak degan xulosalar chiqardi. Agar ish haqi undan past bo'lsa, ishchilarning ommaviy qirg'ini ro'y beradi, Hindiston va Xitoydagi ishchilarning ish haqlari iqtisodiyotning tushkunlik yoki turg'unlik holatida jismoniy minimumga yaqinlashadi.

Angliya va Shimoliy Amerikada, ya'ni rivojlanish me'yorida yoki tez sur'atlar bilan borgan davlatlarda ish haqi minimumdan yuqori bo'ladi, bundan tashqari, ish haqi an'ana, madaniy saviya, tarkib topgan iste'mol me'yoriga ham bog'liq. Ish haqi miqdorining o'zgarishi bozor mexanizmining harakati asosida shakllanadi, uning o'zgarishining bevosita sababi mehnat bozoridagi talab va taklifning tebranib turishi hisoblanadi. Smit jamiyatning uch holatini: yuksalayotgan - progress, statsionar - turg'un va tanazzul - regressga uchragan holatlarini farqlagan. Birinchisida boylik ko'payadi va mehnatga talab-ehtiyoj ortadi. Statsionar holatda ishchilarning ahvoli og'ir, tushkunlikda esa ayanchli bo'ladi.

Smitning fikricha, yuqori ish haqi iqtisodiy taraqqiyot - progressga yordam beradi, chunki u mehnat unumdorligini oshirish uchun rag'batlantiradi. U ish haqini oshirish mehnatga bo'lgan layoqatni kamaytiradi, ishchilarni dangasa qilib qo'yadi, degan g'oyalarga qarshi edi (buni V.Pettining fikrlari bilan solishtiring). Yollanma ishchilar aholining asosiy qismini tashkil etadi va bironta jamiyat, shubhasiz, agar uning asosiy qismi kambag'al va og'ir ahvolda bo'lsa, baxtli jamiyat bo'la olmaydi.

Olimning davlat xizmatchilari, advokat, sudy, ruhoni va o'qituvchilarining ish haqlari to'g'risidagi fikrlari diqqatga sazovordir. U, ayniqsa, oliy o'quv yurtlarida «natijaga qarab haq to'lash»ning yo'qligini qattiq tanqid ostiga oladi. Uning asosiy fikri shuki, cheklangan maosh olayotgan o'qituvchi hech qachon to'la kuch bilan ishlamaydi, chunki u bundan manfaatdor emas. Lekin kam haq to'lash qanchalik ziyon keltirsa, ortiqcha ko'p maosh ham jamiyat uchun naf keltirmaydi.

A.Smit sohibkorlarga ishchilar sinfining qashshoqligi uning manfaatlariqa qarama-qarshi ekanligini uqtiradi va hatto foyda kamaygan holda ham ish haqi oshishi mumkinligini ko'rsatib berdi.

Qiymatning mehnat nazariyasidan kelib chiqib, foyda yollanma ishchi mehnatiga to'lanmagan mahsulotdir, degan A.Smit qo'shimcha qiymat kelib chiqishining haqiqiy sababini aniqlashga yaqinlashgan. Chunki foyda kapitalist bilan bevosita bog'langan, bunda ishchi o'z mehnat samarasini kapitalist bilan bo'lishishga majbur bo'ladi. Bu holatda foyda yangi paydo bo'lgan qiymat bilan ish haqining farqi ayirmasidir; ishchiga u hosil qilgan tovarning bir qismi tegadi, xolos. Qolgan qismini kapitalist foyda sifatida oladi. Amalda foyda qo'shimcha qiymatdir. Fiziokratlardan farqli ravishda, A.Smit qo'shimcha mahsulot faqat qishloq xo'jaligidagi, iste'mol qiymatlarning ortishi hisobigagina emas, balki xodimning mehnati yaratgan yangi qiymatdir, degan to'g'ri xulosalarga keldi. Ammo boshqa holatda u foydani boshqacha tushunadi: yer egasiga rentani to'lagandan keyin sanoat kapitalistida qoladigan daromad, pul kapitali egasi ssuda foizini to'lagandan keyin qoladigan daromad. Bu yerda foyda xizmatchi kapitalistning korxona daromadi sifatida amal qiladi. Smit bu holdagi foydani korxonani boshqarish bilan bog'liq bo'lgan boshqa ko'rinishdagi ish haqi deb e'lon qilishga qarshi chiqdi. U foyda miqdori korxonani boshqarishdagi mehnatning miqdori va murakkabligiga emas, balki avans (bo'nak) qilingan kapitalning hajmiga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi.

Smit qo'shimcha qiymatga ilmiy izoh bera olmadi va uning paydo bo'lish mexanizmini tushunmadni. U foyda barcha avanslangan kapital tufayli tug'iladi, deb o'yADI. Foyda normasining tekislaniib borishini, o'rtacha foyda paydo bo'lishi jarayonini sezgan olim bu orada yuzaga keladigan qarama-qarshilikni ko'ra olmadi. Agar qo'shimcha qiymat to'lanmagan mehnat mahsuli bo'lsa, u kapitalga proporsional bo'la olmaydi. Smit tarixiy rivojlanish tizimi «o'zgaruvchi kapital - qiymat

- qo'shimcha qiymat»dan «yalpi avanslangan kapital - o'rtacha foyda - ishlab chiqarish bahosi» tizimiga o'tilganligini inkor etib, o'rtacha foydani qo'shimcha qiymat bilan qorishtirib yubordi. Oqibatda Smit qiymatga kapitalning unumi natijasi yoki kapitalistga uning faoliyati uchun to'lanadigan haq sifatida qaraydigan bo'ldi. Shu fikr bilan bog'liq ravishda u foizni to'lagandan keyin qoladigan foydaning bir qismi kapitalni qo'llash bilan bog'liq bo'lgan mehnat va tavakkalchilik uchun to'lanadigan mukofot ko'p hollarda arzimas mukofot yoki haq deb gapira boshladi.

Smit foyda normasi va protsentning past darajasini iqtisodiy rivojlanish va «millatning ravnagi» ko'rsatkichi deb xarakterladi, ammo foyda normasining pasayib borish tendensiyasini tushuntirib bera olmadi. U boy davlatlarda kapital ortiqligi, kapitalistlar raqobatini foyda normasi pasayishiga sabab deb ko'rsatdi.

Smit sohibkorlarni progressiv ilg'or sinf deb hisoblaydi, chunki u kapital jamg'arilishiga va ishlab chiqarishni rivojlantirishga imkoniyat yaratadi. U yirik yer egaligini qo'llab-quvvatlamagan, yer rentasi - yer egasining daromadini foyda kabi ishchining mehnat mahsulotidan chegirilgan qismi, deb tushuntirgan. Smit rentani ijara haqidan ajratgan va uning yerni yaxshilash uchun sarflangan kapitalga aloqasi yo'q, deydi, chunki bu yaxshilashni ko'pincha ijarachi qoplaydi. Ammo ijara shartnomasi yangilanganda yer egasi rentani oshiradi, yerni yaxshilash go'yoki uning hisobiga amalga oshirilgan bo'ladi.

Qiymatning mehnat nazariyasi asosida rentaning haqiqiy tabiatini ochib beriladi. Yer kapital kabi o'zga mulk sifatida mehnatkashlarga qarshi turadigan moddiy sharoit hisoblanadi. Yer xususiy mulkka aylangach, ishchi o'z mehnati yakunlarining bir qismini yer egasiga qaytarishga majbur. Renta yerga xususiy mulkchilik monopoliyasi paydo bo'lishining oqibatidir. Yer unumi va joylashuvining turli bo'lishi ham rentaga sabab bo'lishi mumkin, deydi Smit. Ammo unda absolut va differensial renta tushunchasi bo'lmagan (absolut renta yerga xususiy mulk bo'lgandagina paydo bo'ladi, differensial renta esa har doim mavjud). Fiziokratlardagi kabi tabiiy kuch ta'siri ham e'tiborga olingan. Bu variantda rentani hos: " qilishda qishloq xo'jaligi ishlari va ishchi hayvonlari ishtirok etadi. Dehqonchilik kapital qo'yish uchun eng foydali, samarali soha deb hisoblangan. Uning renta to'g'risidagi boshqa bir qancha fikrlari ham bor, lekin ular masalani o'ta chalkash va noto'g'ri talqin etadi.

Mehnat unumdorligi to‘g‘risidagi ta’limot

Mehnat unumdorligi – bu qayta ishlanayotgan material qiymatining oshuviga olib keladigan mehnat. Smitning fikricha, qiymat va foyda umumiyligi mehnat bilan yaratiladi. Foyda yaratuvchi mehnat unumli deb e’lon qilinadi, maqsadidan qat’i nazar odamlarning boshqa turdagи faoliyati unumsiz mehnat harajatlari deb aytildi. Unumli va unumsiz mehnatning farqi shundaki, birinchisi kapitalga almashsa, ikkinchisi daromadga almashtiriladi. Demak, tovarda o‘z aksini topgan mehnat unumli, xizmat sohalari unumsiz mehnat bo‘lib chiqadi. Smitning tasdiqlashicha, davlat daromadining deyarli hammasi unumsiz elementlarni ta’minalash uchun sarf bo‘ladi (bu gapda jon bor), shu sababli jamiyatda bunday guruhlar imkon boricha kam bo‘lishi kerak.

Kapital va takror ishlab chiqarish nazariyaları

A.Smitning bu nazariyasida katta ziddiyatlar mavjud. U ba’zida kapitalga to‘g‘ri baho berib, u yollarma mehnatni ekspluatatsiya qilish tufayli foyda keltiruvchi qiymatligini aytadi. Boshqa hollarda bu ishlab chiqarish vositalari zaxirasi bo‘lib, ishlab chiqarish jarayonini davom ettirish uchun kerak deyilgan. Fiziokratlar faqat qishloq xo‘jaligida ishlatiladigan kapitalni unumli deb atagan bo‘lsalar, Smit sanoat va savdo kapitalini ham unumli deb uqtiradi (bu uning progressiv tomoni). Chunki savdo kapitali sanoat kapitalidan ajralib qolgan emas, balki moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratilgan qo’shimcha qiymat savdo foydasining manbayidir.

Oddiy tovar xo‘jaligida kapital kategoriyasi yo‘q. Kapital jamg‘arish jamiyat boyligini oshirishning bosh sharti deb e’lon qilinadi. Unda asosiy rol tejamkorlikka qaratiladi, noo‘rin sarf-xarajatlari tanqid qilinadi, kapitalni isrof qilish, ya’ni buromadning daromaddan ortiqcha bo‘lishiga qarshi bo‘lgan (bu g‘oyalilar hozirda ham nihofotda dolzarbdir).

Smitning kapital ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun zaxira kerakligi to‘g‘risidagi qoidasi **asosiy va aylanma kapital haqidagi tushunchaning** boshi edi. Fiziokratlar (F.Kene) boshlang‘ich va yillik avans (bo‘nak) tushunchalarini dehqonchilik kapitaliga nisbatan qo’llagan bo‘lsalar, Smit asosiy va aylanma kapitalni sohasidan qat’i nazar, amaldagi barcha kapitalga xos deb tushuntiradi. Ammo u aylanma kapital

deganda tovar va pul kapitalini xato tushungan (bu muomala sohasiga xos kapital). Bu kapitalni hosil qiluvchi moddiy elementlarga sotuvchilar qo‘lidagi oziq-ovqat, materiallar va tayyor buyumlar hamda ko‘rsatilgan taqsimlash va muomalaga kiritish uchun kerak bo‘lgan pullar ham kirgan. Uning fikricha, aylanma kapital doimo muomalada bo‘lishi kerak.

Savdo-sanoat maqsadlari uchun mo‘ljallangan mashina va mehnat qurollari, yerni yaxshilash uchun ajratilgan narsalar jamiyatning barcha a‘zolarining o‘zlashtirgan va foydali qobiliyatlarini asosiy kapitalga tegishli deb hisoblangan. Pettidan keyin Smit ham asosiy kapitalga xodimlarning mehnat malakasi va qobiliyatini qo‘shti. Bu masalani ancha chigallashtirdi, chunki malaka va qibiliyat kapital deb e’lon qilindi. Uning egasi esa foyda oluvchi bo‘lib qoladi (ishchi har doim ham foyda egasi bo‘la olmaydi, uni kapitalist yoki yer egasi oladi). Asosiy S va aylanma Y kapitalni solishtirib, ular o‘rtasidagi farq shundaki, deydi Smit, birinchi S bir egadan ikkinchisiga o’tmay va yana aylanmay foyda keltiradi, ikkinchi Y esa egasi qo‘lidan bir shaklda ketib, boshqa shaklda qaytib keladi va foyda keltiradi. Shunday qilib, asosiy kapital umuman aylanmaydi, aylanma kapital esa doimo muomalada bo‘ladi.

Smitning butun ijtimoiy kapitalni takror ishlab chiqarish nazariyasini uning qiymat nazariyasiga asoslangan. U ijtimoiy mahsulot qiymatining tarkibiy qismi to‘g‘risida xato ta‘limot yaratdi. Olimlar buni «Smit dogmasi» deb ataydilar. Smitning fikricha, yalpi ijtimoiy mahsulotning qiymati ish haqi, foyda va renta yig‘indisiga teng, ya’ni daromadlar summasidir. Ishlab chiqarish jarayonida jonli mehnat bilan birga ishlab chiqarish vositalari ham qo‘llanilishini tushungan holda, Smit shunga qaramay ishlab chiqarish vositalari qiymatini oxir-oqibatda ish haqi, foyda va renta kabi daromadlarga bo‘lish mumkin, deb o‘yladi. Shunday qilib, u yalpi ijtimoiy mahsulot «qiymati»dan doimiy kapital S ni chiqarib tashlagan. Qiymatdan uning tarkibiy qismi bo‘lgan doimiy kapitalni inkor etish takror ishlab chiqarish jarayonini tahlil qilish imkonini yo‘qqa chiqaradi. Har yili ishlab chiqarilgan mahsulot go‘yo har yili to‘la iste’mol qilingan bo‘lib chiqadi. Lekin bunday sharoitda kengaytirilgan takror ishlab chiqarish emas, hatto oddiy ishlab chiqarish mumkin bo‘lmay qoladi (doimiy kapital S ko‘p yillar ish beradi).

Smit takror ishlab chiqarish muammosini yechish uchun o‘z nazariyasiga yalpi va sof daromad o‘rtasidagi farqni kiritadi. Muayyan mamlakatning yillik barcha mahsuloti yalpi daromad bo‘lsa, sof daromad yalpi daromadning shunday bir qismiki, uni shu mamlakat aholisi o‘z kapitalini sarflamay, iste’mol zaxirasiga qo‘yishi mumkin.

Smitning xatosi shuki, u yillik mahsulot qiymatini shu yili yangidan hosil qilingan qiymat bilan aynan bir deb o‘ylagan (milliy daromad). Lekin yangidan hosil qilingan qiymat daromadlarga ajraladi, yillik mahsulot qiymati ishlataligan ishlab chiqarish vositalari qiymati, ya’ni doimiy kapitalni ham o‘z ichiga oladi. Bu xatolik Smitning qiymat to‘g‘risidagi ta’limotining kamchiligi va cheklanganligidan kelib chiqqan.

Bu yerda oddiy tarkor ishlab chiqarish to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Smit mehnatning ikkiyoqlama xarakterini tushunmasdan, abstrakt mehnat yangi qiymat hosil qilishini, konkret mehnat esa ishlab chiqarish vositalari qiymatini yangi yaratilgan mahsulotga o‘tkazishini ko‘rsata olmadi. Ijtimoiy mahsulot qiymatidan doimiy kapital qiymatini yo‘qotib qo‘yan Smit kapital jamg‘arilishini butun qo‘srimcha qiymatning qo‘srimcha ish haqiga aylanishi bilan teng degan xato xulosalar chiqardi. U o‘ylardiki, kapitalistik ishlab chiqarish rivoji bilan ishchilar va ularning iste’moliga talab ham bir xil sur’atda oshadi, chunki daromad va shaxsiy iste’mol ishlab chiqarish bilan parallel o‘sadi (bir qancha mamlakatlarda shunday bo‘lmoqda).

A.Smit erkin raqobat davridagi Buyuk Britaniyadagi iqtisodiy siyosatni asoslashga katta e’tibor berdi. U ishlab chiqaruvchilarga iqtisodiy erkinlik ta’minalashni, davlatning iqtisodiy hayotga aralashmasligini talab qildi. Ammo mamlakatning mudofaa manfaatlari iqtisodiyotdan ustun ham bo‘lishi mumkin degan fikri ham bor, ya’ni bu ba’zi paytlarda davlatning iqtisodga aralashuvi zarur deganidir. Smit iqtisodiyotda davlat sektorining samarasizligini ko‘rsatib: «Hukumat har doim va istisnosiz buyuk isrofgarchidir», - deydi. Shu sababli davlatning faqat uch funksiyasi tan olinadi: 1) huquq-tartibot; 2)mamlakat xavfsizligini ta’minalash; 3)jamiatga zarur bo‘lgan (ammo xususiy sektor tomonidan tuzilmagan) ijtimoiy korxona va muassasalarni ta’minalash.

Umuman to‘g‘ri bo‘lgan bu fikrlar, ya’ni davlatning iqtisodiyotga aralashuvi chegaralari keyingi paytda qayta ko‘rib chiqilmoqda.

Smit merkantilizmga, shu bilan birga, savdodagi proteksionizmga (davlat tomonidan chekllovlar, soliq, bojxona va boshqalar), tashqi

savdodagi har qanday cheklov larga qarshi edi. Olimning siyosati feodalizm qoldiqlariga katta zarba bo'ldi.

Olimlar Smitga baho berib: «Ilg'or burjuaziyaning buyuk mafkrachisi», - degan edilar. Lekin u aslida bozor iqtisodiyotining mafkrachisi sifatida nom chiqardi.

Smit nochor ahvolga tushib qolgan iqtisodiyotni rivojlantirish uchun quyidagi uch omilni ko'rsatib bergen: 1) mamlakatda tinchlik, osoyishtalik bo'lishi va saqlanishi; 2) me'yordagi yengil soliqlar tizimi; 3) davlat iqtisodiyot ishlariga hadeb aralashavermasligi zarur, iqtisodiyot tabiiy ravishda amalga oshaveradi.

Bu qoidalar bizning mamlakat xo'jaligiga ham bevosita oid fikrlar hisoblanadi.

Qisqacha xulosalar

XVIII asr oxiri - XIX asr boshlarida klassik iqtisodiy maktab to'la shakllandi, bu britaniyalik olim A.Smit tomonidan amalga oshirildi. Bu davrda Angliyada obyektiv shart-sharoitlar mavjud edi: burjua inqilobi manufakturadan fabrikaga o'tilishi, agrar islohot, kapitalning dastlabki jamg'arilishi, sinfiy va mulkiy differensiatsiya va boshqalar.

Mantiqiyligi abstraksiya uslubini asosida iqtisodiy voqeasi va jarayonlarning mohiyati to'g'ri talqin etib berildi. Yangi burjua jamiyati har tomonlama obyektiv asosda tahlil qilinib, uning progressiv tomonlari ko'rsatib berildi. Xususiy mulkning abadiyligi va daxlsizligi qo'llab-quvvatlandi. Klassik maktab vakillari inson xohishiga bog'liq bo'lмаган obyektiv iqtisodiy qonunlarning mavjudligini ular iqtisodiy tizimda tabiiy turg'unlikni ta'minlashga, o'z-o'zini boshqarishga qodir ekanligi tan olinadi, shu sababli davlatning iqtisodiyotga aralashuvi iloji boricha inkor etiladi va erkin savlo-sotiq qo'llanadi. «Ko'rinishmas qo'l» yordamida avtomatik iqtisodiyot erkin bozor munosabatlari doimo rivojlanish qobiliyatiga egadir.

Birinchi bor erkin bozor iqtisodiyoti taraqqiyotining assosi tamoyillari aniqlab berildi. Mehnat taqsimoti iqtisodiy taraqqiyot assosi sifatida to'g'ri ko'rib chiqilgan. Mehnat taqsimoti faqat tarmoqlararo emas, balki mamlakatlar o'tasida ham katta naf keltirishi isbotlab berildi (D.Rikardo), mutlaq va nisbiy ustunlik prinsiplari ishlab chiqildi.

Ishlab chiqarish sohasidan qat'i nazar (sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo va xizmat...), mehnat jamiyat boyligining assosi ekanligi aniq-

landi. Jamiyatning sinfiy tuzilishi, asosan, to‘g‘ri ko‘rib chiqildi, ular o‘rtasida keskin qarama-qarshilik yo‘qligi ko‘rsatilgan, bu jamiyatda iqtisodiyot avtomatik boshqarilgani tufayli iqtisodiy inqirozlar inkor etildi. Iqtisodiyotning muhim kategoriyalari bo‘lgan qiymat, pul, baho, foyda, ish haqi, renta, kapital va boshqalarga asosan to‘la va to‘g‘ri ta’rif berilgan. Yangi jamiyatning progressiv tomonlari bilan birga bozor iqtisodiyotining bekam-u ko‘st emasligi, uning bir qancha jiddiy kamchiliklari borligi ham qayd etilgan.

Asosiy tushuncha va iboralar

A.Smit, «Xalqlar boyligi», mehnat taqsimoti, «iqtisodiy odam», egoizm, «ko‘rinmas qo‘l», «muomalaning buyuk g‘ildiragi», qiymatning mehnat nazariyasi, sinflar, ishlab chiqarish omillari va daromadlar to‘g‘risidagi nazariya, unumli va unumsiz mehnat, milliy boylik va Smit dogmasi, iqtisodiyotning rivojlanish bosqichlari, mutlaq afzallik nazariyalari.

Nazorat va mulohaza uchun savollar

1. Klassik iqtisodiy matabning Angliyada vujudga kelishi qanday ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarda ro‘y berdi?
2. Sanoat to‘ntarilishi bilan bog‘liq bo‘lgan siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlar nimalardan iborat?
3. A.Smitning bosh iqtisodiy asari qachon yozib tugallandi va undagi asosiy iqtisodiy g‘oyalari nima? Olimning tadqiqot metodologiyasi nimaga asoslanadi?
4. Nima uchun A.Smit manufaktura ishlab chiqarishning mafkurachisi bo‘lib qoldi?
5. Mehnat taqsimotining ustunlik tomonlari nima va kamchiligi nimada?
6. A.Smitning pul, qiymat, daromadlar, ish haqi, kapital va takror ishlab chiqarish to‘g‘risidagi ta‘limotlariga qisqacha izoh bering.
7. «Smit dogmasi» nima? Uning kamchiligi nimada?
8. «lessez faire» va «ko‘rinmas ko‘l» tamoyillari nimani anglatadi?
9. Xalq boyligi qanday omillarga bog‘liq?
10. Nochor ahvolga tushgan iqtisodiyotni rivojlantirish uchun nima qilmoq kerak? Mutlaq afzallik prinsi pi nimadan iborat?

IX b o b. D.RIKARDO, J.B. SEY, T.MALTUS VA BOSHQALARNING IQTISODIY TA'LIMOTLARI (3-bosqich)

9.1. D.Rikardoning iqtisodiy ta'lomoti

Ingliz klassik iqtisodiyotining mashhur namoyandasi **David Rikardo** (1772-1823) Pett'i va Smitning iqtisodiy g'oyalarini yanada rivojlantirdi. U 14 yoshidan otasiga yordamchi bo'ldi. Ikki yil Amsterdamba (Gollandiya) savdo maktabida ta'l'm oldi. Tabiiy, keyinchalik siyosiy iqtisod bilan shug'ullandi. U matematika, fizika, ximiya va biologiyani mustaqil o'rgandi. D.Rikardo dastlab birja dalloli, keyinroq matematika o'qituvchisi bo'ldi, ikki marta sherif (polisiya boshlig'i) etib saylandi, 1819-1823-yillarda Angliya parlamentining a'zosi edi.

Smitdan keyinroq yashagan D.Rikardoning dastlabki «**Oltin ajda-hosi to'g'risida uch xat**» (1809) va boshqa asarlari pul va pul muammo-larini tahlil qilishga bag'ishlandi. Millning harakati bilan 1817-yilda uning asosiy asari bo'lgan «**Siyosiy iqtisod va soliq solishning boshlanishi**» chop etildi. 1824-yilda yozilgan «**Milliy bank tuzishning rejasi**» asari esa uning vafotidan keyin bosilib chiqqdi.

Rikardo umrining oxirgi 4 yilini Angliya parlamenti a'zosi sifatida o'zining iqtisodiy g'oyalarini amalga oshirish uchun sarfladi. Parlamentda «non qonunlari»ni bekor qilib, iqtisodiyotni savdo va matbuot, yig'ilishlar erkinligini qo'llovchi nutqlar bilan chiqqan. 1821-yilda Rikardo tomonidan siyosiy iqtisod klubи tashkil etilgan.

Tadqiqot predmeti «daromadlar taqsimotini boshqaruvchi qonunlarini aniqlash»dan iboratdir. Ishlab chiqarish (moddiy ne'matlар) sohasida yuzaga keladigan daromadlar taqsimlanishining obyektiv qonunlarini aniqlash bosh vazifadir.

U Smitning g'oyalarini qo'llash bilan birga uni to'ldirdi va qarshi fikrlarni ham ilgari surdi. U kapitalistlar va ishchilarning manfaatlari bir-birlariga qarama-qarshi ekanligini ochib berdi, yer egalarining manfaati ishchi va kapitalistlarnikiga qarshi deb uqtiradi.

A.Smit kabi D.Rikardo ham mantiqiy abstraksiya usulini keng qo'llagan.

Rikardoning asarlari iqtisodiyot fanining predmeti va metodini aniqlashda, iqtisodiy tadqiqot metodologiyasini amaliy ishlab chiqishda muhim o'rinn tutadi. Uning fikricha, jamiyatning sinfiy tuzilishi uning iqtisodiy faoliyatida hal qiluvchi o'rinni egallaydi. Siyosiy iqtisodning asosiy vazifasi «*yer mahsuloti*» (ya'ni milliy daromad va milliy boylik)ni uch asosiy sinf o'rtaisdagi taqsimoti qonunlarini aniqlashdan iborat. Bu taqsimot ishlab chiqarish sharoiti va manfaatlardan kelib chiqishi kerak edi va bu Rikardoning yutug'i edi, ammo uning xatosi shuki, taqsimot usulini moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish usuli bilan bog'liq qilib qo'ygan. U mantiqiy abstraksiya metodidan foydalandi, ijtimoiy fanlarda aniq fanlarning usuli, ayniqsa, ilmiy deduksiyani keng qo'lladi. U o'z konsepsiysi asosiga qiymat qonunini, ya'ni tovarlarning qiymatini sarflangan mehnat bilan aniqlashni qo'ydi. Faqat bir omil - «*Mehnar*» qiymatining asosida yotadi, deb yozadi olim. Boshqa iqtisodiy kategoriylar shu qonunga qanchalik mos kelish-kelmasligini o'rgandi. Rikardo kapitalizmni jamiyatni tashkil etishning yakkay-u yagona tabiy va abadiy shakli deb o'yagan.

Rikardo qiymat qonunini ishlab chiqishda Smitning qisqacha xulosalariغا suyandi va ularni rivojlantirdi. U tovarning ikki faktori: iste'mol va almashuv qiymatlarini yanada aniqroq o'rgandi (masalan, nonni yeish va sotish mumkin). Foydalilik (iste'mol qiymati) almashuv qiymatining zaruriy sharti, ammo uning o'lchovi bo'la olmaydi. Barcha tovar-larning almashuv qiymati va ularni ishlab chiqarishga ketgan mehnat sarflari va chiqimlari bilan aniqlanadi. Almashuv qiymati har doim nisbiy bo'lib, boshqa tovar yoki pulning ma'lum miqdorida o'z aksini topishi tusayli Rikardo absolut qiymat ham bo'lishi kerak, degan masalani qo'ydi. Bu qiymat substansiysi mehnatdagi mehnat miqdoridir. Almashuv qiymati absolyut qiymat ro'yobga chiga oladigan zaruriy va yagona mumkin bo'lgan shakldir. Lekin Rikardo bu g'oyani umrining oxirida tugallanmagan asarining «*Absolut va nisbiy qiymat*» bobida bergan, ya'ni fikr mantiqiy oxiriga yetkazilmagan. Marksning fikricha, Rikardo qiymatni faqat miqdoriy tekshirdi, tarixdan tashqarida o'rgandi, ya'ni mehnatni qiymat bilan yaraluvchi mahsulotning tabiiy xususiyati va bu jarayonni barcha ijtimoiy tuzumlarga xos deb o'yladi.

Rikardo Smitning g'oyalarini to'ldirdi. Agar Smitning g'oyasi bo'yicha qiymat oddiy tovar ishlab chiqarishda sarflangan mehnat bilan aniqlansa, kapitalistik ishlab chiqarishda bu qiymat realizatsiya qilinadigan daromadlardan iborat edi. Rikardo qiymatni aniqlashda sarflangan mehnatdan foydalandi.

Rikardo ish haqining tovar qiymatiga ta'sirini rad etdi. «Masalan, - deydi u, - agar mehnat unumdarligi oshmay turib, ish haqi ko'tarilsa, bundan tovar qiymati o'zgarmaydi. Boshqa sharoitlar o'zgarmagan holda, bu holat tovar bahosiga ham ta'sir etmasligi kerak, faqat ish haqi va tovar bahosidagi foyda o'rtasidagi nisbatni o'zgartirishi mumkin». Kapitalistlar erkin raqobat sharoitida ish haqi o'sishini bahoga ko'chira olmaydi va foydaning bir qismidan mahrum bo'lishga majbur. Bu qoida katta ijtimoiy-siyosiy xarakterga ega, chunki Smit ishchilarning ish haqini oshirish uchun kurash befoyda, negaki ish haqi oshsa, baholar ham oshadi, degan fikrda bo'lган (real daromad o'zgarmaydi). Ish haqi oshganda baholar o'zgarmaydi, kapitalistlarning foyda normasi kamayadi.

Rikardo Smit kabi qiymatning mehnat nazariyasini kapitalistik ishlab chiqarish sharoitida qo'llashda katta qiyinchilikka uchradi. Qiymatning ishlab chiqarish bahosiga aylanish muammosiga e'tibor berdi va uni hal etishga urindi. Real hayotda kapitaldan olinadigan foyda shu kapitalning miqdori bilan aniqlanadi yoki foyda normasi mo'tadillashish tendensiyasiga ega. Ammo tovarlar ularni ishlab chiqarishga sarf bo'lган jonli mehnat sarflariga mos ravishda bir-biriga almashsa, bunday bo'lishi mumkin emas. Bu holda kapitalning organik tuzilishi (**C / Y**) past bo'lган yoki kapitali tez aylanuvchan tarmoqlar boshqa organik tuzilishi yuqori bo'lган va kapitali sekin aylanuvchan tarmoqlarga nisbatan ustunlikka ega bo'ladi. Birinchilari ko'proq mehnat sarflaganlari uchun tovar bahosi nisbatan yuqori bo'ladi va kattaroq foyda oladi. Ammo bunda kapital shu tarmoqlarga oqib o'tar edi va ikkinchi tarmoqlarga oqib o'tmas edi, natijada ikkinchi tarmoqlar rivojlanmasdi. Bu qaramaqarshilikni hal etish uchun Rikardo Smitning qiymat nazariyasini o'zgartirdi. Ammo ishlab chiqarish bahosi va o'rtacha foydani oraliq bo'g'lnlarni tahlil qilish va qiymat qonuni asosida hal etish o'rniغا bu kategoriyalarni qiymat qonuniga keltirishga urinadi. Bu bosqichda Rikardo avvalgi, ish haqi tovar qiymatiga amalda ta'sir etmaydi, degan tezisidan

voz kechdi. U, kapital tarkibi va aylanmasidagi farqlar mehnatga turlicha haq to'lash tufayli qiymatga ham ta'sir etadi, degan fikrni berdi. Ammo bu g'oya mantiqiy yechimga ega emas edi.

Rikardo ish haqi, foyda va renta masalalarini yechishga katta hissa qo'shdi. U Smit kabi asosiy uch sinfning dastlabki daromadlari masalasiga e'tibor berdi. U mehnatni tovar deb (aslida ishchi kuchi tovar) hisoblab mehnatning bozor bahosi (ish haqi) tabiiy baho bo'ladi va shu atrofsda o'zgaradi; tabiiy baho deganda ishchi kuchining qiymatini tushungan. Rikardo masalaga tarixiy an'analar asosida yondashishga urinsa ham, mehnatning tabiiy bahosini jismoniy minimumga tenglashtiradi. *Masalan, nonning bahosi va ish haqining pul miqdori o'rtasida bevosita bog'liqlik bor,- deydi u, - agar nonning bahosi oshganda ish haqi o'zgarmasa, ishchilar och qoladi va o'limga mahkum etiladi.*

Rikardo Maltus kabi (bu olimning fikrlari quyida beriladi) ishchilarning haqlari ochlik darajasida ushlab turilishi kapitalizmga xos qonun emas, barchaga tegishli tabiiy qonunlar tufaylidir, deydi. Ma'lum qulay sharoitlardagina ishlab chiqarish kuchlari aholi o'sishini ta'minlay oladi va ishchilar kam haq olganliklaridan norozi bo'lmasliklari kerak, degan fikr ilgari suriladi. Rikardo qo'shimcha qiymatni uning konkret shakllari - foyda, ssuda foizi, renta sifatida tahlil etadi.

«Ishchi o'z mehnati bilan ish haqi sifatida oladigan miqdordan ko'proq qiymat yaratishi o'z-o'zidan ravshan», - deydi u. Ammo uni ish haqi va foyda nisbati, ya'ni ishchining qancha olishi va kapitalistga qancha qolishi qiziqtiradi. U qiymat strukturasi va tovar bahosini aniqlaganda «Smit dogmasi»dagi xatoga yo'l qo'yadi, ya'ni doimiy kapital S ning yangi mahsulotdagagi hissasini inkor etadi (ish haqi va foyda dan iborat bo'lgan).

Tovar qiymati ish haqi va foydadan iborat bo'lganligi sababli, foyda ish haqiga teskari proporsional va unga bog'liq. Foyda amalda qo'shimcha qiymat sifatida qaraladi. Rikardo foydaning yer rentasini to'lagandan keyingi holatni o'rghanadi. Undan tashqari, foyda avans qilingan kapital miqdoriga proporsional deb hisoblaydi. U foyda normasining pasayish tendensiyasiga alohida e'tibor berdi. U buning bosh sababi kapitalizmga xos narsa bo'lmay, tabiiy omildir, degan. Foyda normasining pasayishi oxir-oqibatda kapital jamg'arilishining kamayishiga olib kelishi mumkinligi uni tashvishga solgan. U kapital deb ishlab chiqarish

vositalarini va kapitalistning ishchilarga ish haqi sifatidagi xarajatlarni tushungan. U kapitalni natura holda va tarixdan tashqari tushungan. Uningcha, ibtidoiy ovchi va baliqchi kapital egasi bo'lgan (bu, albatta, xato fikr).

Rikardo yer rentasini tahlil qilishda muhim yutuqlarga erishdi. U renta nazariyasini qiymatning mehnat nazariyasiga asoslanib tekshirdi. Rentaning manbayi ma'lum mulkiy munosabatlar sharoitida yerga qilinadigan mehnatdir, deb hisobladi. Resurslari cheklangan, unum-dorligi va joylashuvi turlicha bo'lgan yerlar ishlanishi tufayli qishloq xo'jaligi mahsulotlarining qiymati yomon uchastkalardagi mehnat sarflari bilan aniqlanadi. Bunday yerlar sohibkorga o'rtacha foyda beradi va renta bermaydi. Nisbatan yaxshi yerlarda foyda o'rtacha normadan yuqori bo'ladi, ana shu ortiqcha foyda renta sifatida yer egasi tomonidan olinadi. Yomonroq yerlar xo'jalik hisobiga jalb etilishi orqali yer egalarining oladigan rentasi o'z-o'zidan ortadi, vaholanki, ular biror ish , sarf-xarajat ham qilmaydi.

Rikardo bu yerda differensial renta hosil bo'lishini ko'rsatib berdi. U xususiy mulkchilik sharoitida yomon yerlar ham ma'lum renta kel-tirishi mumkinligini inkor etdi. Lekin shunday renta bor, u absolut renta bo'lib, uni Marks va boshqa olimlar atroficha o'rganganlar.

Rikardo pul va pul muomalasi masalalariga katta e'tibor qildi. U dastlabki asarlarida pulni ichki qiymatga ega bo'lgan tovar deb qaragan. Pul qiymati unga sarf qilingan mehnat bilan aniqlangan. Rikardo: «Pulning xususiyati shuki, u alohida tovar, boshqa tovarlarning qiymat o'Ichovi va muomala vositasi sifatida harakat qiladi. Qog'oz pullarning miqdorida muomalada bo'lgan tovar massasi qiymatiga mos (ya'ni proporsional) bo'lishi kerak, ortiqchasi bank tomonidan iste'moldan chiqarilishi zarur», deydi.

Ammo o'zining bosh asarida bu konsepsiyanadan chekinadi, avval pullarning ichki qiymati bor, degan bo'lsa, keyinroq pul — texnik vosita deb izohladi va pulning miqdoriy nazariyasini ishlab chiqsa boshladи. Uning fikricha, muomaladagi pulning miqdori turlicha va erkin bo'lishi mumkin, pulning qiymati esa muomala sohasida belgilanadi va uning miqdoriga bog'liq bo'ladi. Rikardo erkin savdo tarafdoi bo'lgan, u merkantilistlardan farqli ravishda tovar ishlab chiqarish tovar kiritishdan ortiq, ya'ni eksport kam va import ko'p bo'lishidan, mam-

lakatdan oltin chiqib ketishidan xavfsirashga hojat yo‘q, deydi, chunki erkin import avtomatik ravishda oltin muomalasi va baho o‘zgarishini tartibga soladi, shuning uchun iqtisodiy tanglik ta’minlanishiga yordam berishiga Rikardoning ishonchi komil edi.

Rikardo Angliyaning tashqi aloqalari iqtisodiyotda katta mavqega ega ekanligini alohida o‘rgandi. U birinchilardan bo‘lib ayrim tovarlarni ishlab chiqarishdangina emas, balki mamlakatlar o‘rtasida ham xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvning foydaliligini isbotlab berdi. Bunda nisbiy afzallik prinsi pi mavjudligini ishlab chiqdi. Bu prinsip universalroq bo‘lib, A.Smidtagi mutlaq afzallik prinsip (yuqoridaberilgan) xususiy hal sifatida qabul qilinadi. Bu prinsipi ga ko‘ra ayrim mamlakatlar ma’lum tovarlarni ishlab chiqarishda ayrim qulayliklarga ega bo‘ladi va kam xarajat sarf qiladi. Bunda tabiiy va iqlimiyl faktorlar ham katta rol o‘ynaydi (mutlaq ustunlik). Ma’lum tovarlarni ishlab chiqarish bu mamlakat uchun boshqa mamlakatlardagiga nisbatan qulayroq bo‘lishi mumkin. Mamlakatlardagi tabiiy, texnologik va madaniy farqlar tufayli ishlab chiqarish xarajatlari turlicha bo‘ladi.

Rikardoning 1815-yilda yozilgan «Nonga bo‘lgan past bahoning kapital foydasiga bo‘lgan ta’siri to‘g‘risida tajriba» nomli pamphletida sinflarning iqtisodiy munosabatlari va kapitalizm rivojlanish nazariyasi qisqa, lo‘nda tarzda bayon etilgan. Uning asosiy xulosalari quyidagilardan iborat: agar iqtisodiyot rivoji o‘z holiga qo‘yilsa, aholining o‘sishi va kam unumador yerlarga ishlov berishga o‘tilishi tufayli qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining bahosi oshib boradi. Buning barcha foydasi yer egalari bo‘lgan lendlordlarga o‘tadi. Kapitalga bo‘lgan foyda normasi pasayadi. Bundan esa ishchilar zyon ko‘radi, chunki ularning mehnatiga talab pasayib boradi. Xo‘sh, buning oldini olish mumkinmi? Demak, xorijdan arzon don import qilish kerak, bundan «Non qonunlari»ni bekor qilish kerak degan xulosa chiqariladi (*Angliyada non va donga yuqori baho qo‘ygan maxsus qonun bor edi, u «Non qonunlari» deb atalardi, bu qonunlar 1830-yilda to‘la bekor qilindi*). Tarix bu g‘oyaning to‘g‘riligini amalda isbotladi.

XVIII asrning oxirida (1789-1794-yillar) Fransiyada G‘arbiy Yevropadagi eng yirik burjua inqilobi ro‘y berdi. Bu inqilob mamlakatdagি feodal munosabatlarga to‘la barham berdi va kapitalizm (bozor)ning tez rivoji uchun yo‘l ochib berdi, ammo bu o‘zgarishlar tekis va ra-

von amalga oshmadi. Sanoat to'ntarilishi mashina industriyasini boshladi. Kapitalistik munosabatlarning bir qancha pozitiv tomonlari bilan birga anchagina negativ oqibatlari ham ko'rina boshladi. Ana shunday sharoitda klassik maktab vakillari yaratgan ta'limotlarni har tomonlama to'ldirish va qayta ko'rib chiqishga kirishildi, bu jarayon Fransiya, Angliya va AQSHda XVIII asr oxiri - XIX asr 1-yarmida ro'y bera boshladi. Bu davrdagi ta'limotlarga xos xususiyat shu ediki, ularda barcha iqtisodiyot kategoriyalari to'laligicha emas, balki qisman, ya'ni ularning ayrimlari olinib, tadqiq qilindi. Fransiyada Sey, Bastia, Angliyada Maltus, Senior, AQSHda Keri va boshqalar klassik iqtisodiy maktabni qayta ko'rib chiqish, uni to'ldirish, zamonga moslash istaklari bilan o'ziga xos ta'limotlar yuzaga kela boshladi. 1-bosqich V.Petti va P.Buagilber, 2-bosqich A.Smit va D.Rikardo nomlari bilan bog'liq bo'lsa, bu davrni klassik maktab evolutsiyasining uchinchi bosqichi sifatida qarash mumkin.

9.2. Fransiyada vujudga kelgan J.B.Seyning iqtisodiy ta'limoti. «Sey qonuni»

Fransiyada shu davrdagi iqtisodiy g'oyalarning rivoji **Jan Batist Sey** (1767-1832) nomi bilan bog'liq. Bo'lajak olim Lionda savdogar oilasida tug'ildi va keyinchalik yirik fabrikantga aylandi. U inqilobni qo'lladi. *Napoleon Bonapart* hukumatida moliya sohasida ishladi. Uning birinchi asari «*Siyosiy iqtisod risolasi*» 1803-yilda chiqdi va hayoti davomida besh marta qayta nashr qilindi, qayta ishlandi va uning bosh asari sifatida qoldi. 1817-yilda «*Siyosiy iqtisod katekizisi*» (Katekizis - grekcha «nasixat», «qo'llanma» mazmuniga ega), 1828-30-yillarda olti tomlik «*Siyosiy iqtisod kursi*» kitobi ham chop etildi. Bu kitoblardan u sanoat burjuaziysi tarafdori, merkantilizm dushmani va iqtisodiy liberalizmni qo'llab-quvvatlovchi olim sifatida ma'lumdir.

D.Rikardo bu olimning ilmiy merosiga yuqori baho bergan va «Sey qonuni»ni tan olgan.

Olimning tadqiqot predmeti jamiyatning moddiy farovonlik problematisidir. Boylikning manbayi esa millatning iqtisodiy potensialiga bog'liq. U *tadqiqot uslubida* aniq fanlar (mas., fizika) tajribasidan foydalanan kerakligini aytadi. Metodologik jihatdan bu universal va hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan qonun, kategoriya va nazariyalar tan olnishi zarur deganidir.

Sey siyosiy iqtisodni uch qismga bo‘ladi: ishlab chiqarish, taqsimot va iste’mol. Bu klassifikatsiya takror ishlab chiqarish jarayoni unsurlari o‘rtasidagi yuzaki bog‘lanishni aks ettiradi. Taqsimot va iste’molning iqtisodiyot fanining mustaqil bo‘laklari sifatida ajratilishi va ularning mustaqil soha sifatida ishlab chiqarish bilan yonma-yon qo‘yilishi ijtimoiy ishlab chiqarish jarayoni unsurlari o‘rtasidagi haqiqiy aloqaia buzib ko‘rsatiladi, chunki ma’lum tipdagi ishlab chiqarish munosa-batlari doim taqsimot va iste’molning ma’lum tarkibini vujudga keltiradi.

Sey Smitni qo‘llaydi, ammo ko‘p masalalarda u bilan kelishmaydi. Masalan, uningcha qiymat bir qancha omillarga bog‘liq qilib qo‘yiladi: tovarning subyektiv foydaliligi, uning ishlab chiqarish chiqimlari, talab va taklif. Seyda kapitalning ekspluatatsiya mohiyati butunlay yo‘q va bu jarayon ishlab chiqarish omillari nazariyasi bilan almashtiriladi. Ammo u iqtisodiy liberalizm (*laissez faire*) prinsipi, «kichkina va arzon davlat» va uning iqtisodiyotga aralashuvini keskin qisqartirish tarafdori sifatida Smit bilan hamfikr. Sey bu sohada fiziokratik an‘analarga yaqin bo‘lgan. Uning iqtisodiy liberalizm tamoyili Napoleonning iqtisodiy siyosatiga to‘g‘ri kelmas edi (kontinental blokada siyosati Angliya bilan iqtisodiy aloqalarni keskin cheklagan). Burbonlarning restavratsiya qilinishi Seyning obro‘sni oshishiga imkon yaratdi.

U hayoti davomida siyosiy iqtisod masalalarini imkonи boricha sodda va aniq izohlashga intildi. Birinchilardan bo‘lib ishlab chiqarish omillari: mehnat, kapital va yerning mahsulot qiymatini hosil qilishda teng ishtirokini aniq ifodaladi (bu fikr yuqorida eslab o‘tilgan). Hozirgi davr olimlari kapitalizmning (bozor) tizimini shu uch omil bilan bog‘laydilar.

XIX asrning boshlarida shu uch omilga asoslangan g‘oyalar rivoj topdi. Mehnat – ish haqi, kapital – foyda, yer – renta: shu uch o‘zaro bog‘liq (uch birlik) formula Sey ta’limotida muhim o‘rin egal-laydi. Uning qiymat va daromadlar to‘g‘risidagi ta’limoti o‘ziga xos ravishda hal etildi. Klassik maktabdan farqli ravishda tovar qiymati uni ishlab chiqarishga sarflangan mehnat bilan emas, uning foydaliligi bilan aniqlanadi. Shunday qilib, «Foydalilik nazariyasi»ga asos solindi. Bu nazariyaga ko‘ra ishlab chiqarish foydalilikni yaratadi, foydalilik esa predmetlarga qimmat beradi. «Qimmat foydalilik o‘lchovidir», - deydi u. A.Smitning qiymat nazariyasidan farqli, qiymat faqat sarf-

langan mehnat bilangina emas, balki mehnat mahsulotining naflik darajasi bilan ham o'lchanadi, bu katta yangilikdir. Shunday qilib, Sey qiymatni iste'mol qiymati bilan aynan bir deb tushunadi. Demak, qiymat va taqsimot muammosida taqsimot nazariyasi ajratib olinadi va alohida qaraladi. Shuni eslatib o'tish kerakki, A.Smitgacha almashuv qiymati foydalilik bilan bevosita bog'liq bo'lmasligi mumkin, masalan, nihoyatda foydali, hayotiy zarur bo'lgan narsalar ham past qiymatga ega bo'lishi mumkin, ayrim narsalarning esa umuman qiymati yo'q, bunga havo, buloq boshidagi suv va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Bu masala bo'yicha turli fikrlar mavjud (marjinalizm g'oyasining asosi ham shu fikrdir). Iqtisodiyotning bu kategoriyasi davrdan, tarixdan tashqari qaraladi va abadiy deb hisoblanadi, ekspluatatsiya inkor etiladi.

Qiymatni foydalilik bilan almashtirish oqibatida daromadlar masalasi ham shu asosda yechib beriladi. Ishlab chiqarishda uch omil ishtirok etadi (mehnat, kapital, yer) va ularning har biri qiymatni hosil qilishda ma'lum xizmatni amalgaga oshiradi. Uch omil uch xil daromadni yuzaga keltiradi. Bunday tushuntirish nihoyatda sodda va yuzaki hisoblanadi. Chunki unda ishlab chiqarish omillari to'la huquqli hamkorlik asosida uyg'un - garmonik harakat qiladi, hech qanday ekspluatatsiya tan olinmaydi. Seyning izdoshi **Frederik Bastianing** bosh asari «**Iqtisodiy garmoniyalar**» deb atalishi bejiz emas.

Seyning **daromadlar nazariyasida** «mehnat» ishchilar uchun ish haqini «kapital» sohib uchun foydani «yer» esa yer egasi uchun renta daromatlarini yuzaga keltiradi deb izohlanadi. Ma'lumki, foyda ssuda foizi va tadbirdorlik daromadidan iborat, uning birinchisi kapital egasi sifatida kapitalist tomonidan (kapital yaratadi), ikkinchisi korxona boshlig'i sifatida kapitalist tomonidan o'zlashtiriladi. Seyning fikricha, tadbirdorlik foydasini yollanma boshqaruvchi ham olishi mumkin bo'lgan ish haqi turi bo'lmay, maxsus va muhim jamoat funksiyasini bajarganlik, ya'ni mohiyat - e'tiboriga ko'ra ishlab chiqarish omillarini ratsional birlashtirganligi uchun beriladigan mukofotdir. Shunday qilib, tadbirdor va ishchi o'rtaсидаги farq ish haqi darajasida deb ko'rsatiladi. Tadbirkor, ishbilarmonning maoshining yuqori bo'lishi esa yuqori labozimlari, talanti, faoliyati, tartib va boshqarish ruhi tufaylidir.

Sey ishchilarning ekspluatatsiyasini inkor etib qolmasdan, ularning kelajagi porloq degan g'oyani ilgari suradi. U, kapital o'sishi

bilan «quyi sinflar»ning ahvoli yaxshilanadi va ular «yuqori sinflar» safini to'ldirib boradi, deb o'yagan. Sey sanoat to'ntarilishi bilan vujudga kelgan salbiy hodisalarни yumshatib ko'rsatishga urindi, «kompensatsiyalar nazariyasi»ni ilgari surdi. Uning tasdiqlashicha, mashinalar birinchi paytda ishchilarни ishdan siqib chiqaradi, keyinchalik ular ishchilarning ish bilan bandligini oshiradi va mahsulotlar ishlab chiqarishni arzonlashtirib, ishchilarga «eng yuqori foyda» keltiradi. Shunday qilib, Seyning fikricha, kapitalizm davrida sanoat to'ntarilishidan ishchilar sinfi manfaatdordir. Oqibatda mehnat manfaatlari kapital bilan «garmoniya»da – uyg'unlikda bo'lishi «isbotlanadi» (uyg'unlik nazariyasi).

Takror ishlab chiqarish nazariyasi Seyning eng muhim kashfiyotlаридан бирини «Sey qonuni», «bozorlar qonuni» yoki «sotish nazariyasi» hisobланади. Fiziokratlar merkantilizmni tanqid qilganda shu g'oyadan foydalanganlar. Unda shunday fikr keltiriladi: «Har bir odam bir vaqtning o'zida ham sotib oluvchi, ham sotuvchidir». Kenening fikricha, hamma sotib olingan narsa sotilgan, barcha sotilgan narsa sotib olingan («Iqtisodiy jadval»ga e'tibor bering) bo'ladi. Seyga asoslanib, J.M. Keyns «taklif shunga mos talabni yaratadi» degan fikrni ilgari suradi. Bu fikr Sey g'oyasini chippakka chiqarish uchun o'ylab topilgan, chunki u yoki bu tovar alohida-alohida ortiqcha ishlab chiqarilishi mumkin. Vaholanki, barcha tovarlar ortiqcha ishlab chiqarilishi mumkin emas.

Keynsning fikricha, Sey qonunini tan oluvchi barcha mualliflar klassik deb atalishi mumkin ekan. Bundan kapitalistik jamiyatning takror ishlab chiqarishida «garmoniya» mayjudligi va oqibatda umumiyligi ortiqcha ishlab chiqarish inqirozlari «prinsi pda bo'lmasligi» isbotlanadi, ya'ni taklif avtomatik ravishda talabni vujudga keltiradi. Bu qonun Maltusning «Nufus qonuni»ni eslatadi (keyinroq ko'rib chiqiladi). Agar barter (mahsulotni mahsulotga almashuv – T-T) iqtisodiyoti ko'zda tutilsa, bunda pul faqat hisob birligi bo'ladi, unga umumiyligi talab barcha pulga almashtirilishi kerak bo'lgan tovarlar qiymatiga teng bo'ladi, bunda esa ortiqcha ishlab chiqarish mumkin bo'lmay qoladi. M.Blaugning fikricha, «Mahsulotlar mahsulot uchun to'lanadi» qoidasining ichki va tashqi savdoda qo'llanilishi Sey qonunining möhiyatidir.

Seyning «bozorlar nazariyasi» ko‘p munozaralarga sabab bo‘ldi. Haqiqatan ham, ibtidoiy davrda almashuv natural holda olib borilgan, ya’ni mahsulot boshqa mahsulotga ma’lum nisbatda almashtirilgan, unda xarid qilish va sotish jarayonlari mos kelgan. Ammo eng oddiy tovar muomalasida yoki xarid qilishda tovarni sotgan odam darhol boshqa tovar xarid qilmasligi ham mumkin bo‘lib qoldi. Sotish va xarid qilish vaqt va makon jihatdan ajralib turadi, shu tufayli inqiroz-larga abstrakt imkoniyat tug‘iladi. Kapitalizm davrida bu imkoniyat haqiqatga aylanib qoldi. Dastlabki kuchli iqtisodiy krizis 1825-yilda ro‘y berdi va ma’lum qonuniyatlar asosida takrorlanib turibdi.

O‘z davrida Sismondi, Maltus va J. Mill bu qonun to‘g‘risida fikrmulohazalar bildirdilar. Bunda kapitalistik xo‘jalikda tovarlarning bahosi xo‘jalik konyunkturasiga mos ravishda absolut moslashuv va darhol reaksiya qilish xususiyatiga ega deb hisoblanadi.

Hozirgi davrda ham bu masala bo‘yicha iqtisodchilar o‘rtasida neoklassik yo‘nalish bilan keynschilik tarafdarlari orasida munozara davom etmoqda (bu haqda quyida gapiriladi). «Sey qonuni»ning ijobiy tomoni shundaki, unga ko‘ra kapitalizm o‘z rivoji davomida o‘ziga o‘zi bozor yaratadi, kelajagi bor jamiyat deb qaraladi va Sismondining kapitalizm rivojiga qarshi fikrini inkor etadi, realizatsiya muammosini hal etishda «Uchinchi shaxslar»ga ehtiyoj qolmaydi (bu haqda oldingi bobda fikr yuritilgan).

Sey argumentlariga asoslanib, burjuaziya demokratik davlat apparatini qisqartirish, savdo va sohibkorlik erkinliklari to‘g‘risida progressiv g‘oyalar ilgari surildi.

9.3. T.R. Maltus va uning «nufus nazariyasi»

Ingliz iqtisodchisi **Tomas Robert Maltus** demografiya muammoлари to‘g‘risida birinchilardan bo‘lib fikr yuritgan bo‘lmasa-da, «Nufus nazariyasi»ni yarattdi. Bu muammo bo‘yicha barcha munozaralarda uning nomi birinchilardan tilga olinadi. Masalan, Aristotel (m.av. 384-322) «Siyosat» asarida aholisi kam sonli mamlakatni ideal davlat deb hisoblagan, chunki aholi me’yordan ko‘p bo‘lsa, sotsial ziddiyat kelib chiqadi. U nikoh to‘g‘risida qonun taklif etgan, unda erkaklarga 37, ayollarga 18 yoshgacha farzand ko‘rish taqiqlangan, uningcha, aholi ko‘pligi yer yetishmasligiga olib keladi va u qashshoqlikka mahkum etiladi.

F.Kene (1694-1774) «Aholi» (1756) maqolasida insonlar «boylik» manbayi ekanligiga ancha yaqin fikrlarni ilgari surdi. «Mamlakatning buyukligi uning aholisi bilan», - degan edi u. Aholi mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirib, odamlar mehnatidan foydalanish masalalari davlatning bosh iqtisodiy siyosati obyekti bo'lishi kerak. Bu fikr A.Smit tomonidan rivojlantirildi.

V.Petti aholining mehnat qiladigan qismini boylik yaratuvchi deb hisoblagan, birinchi bo'lib «insoniy kapital» tushunchasini kiritgan.

T.R. Maltus (1766-1834) dvoryan oilasida tug'ildi, 1788 yil Kembrij universitetini bitirgach, qishloq ruhoniysi sifatida ishlay boshladi, ilohiyot fanidan ilmiy darajaga ega bo'ldi. 1807-yildan boshlab «Ost-Ind» kompaniyasi kollejida siyosiy iqtisod professori lavozimida leksiyalar o'qidi.

Uning asosiy asarlari «Aholi nufusi qonuni to'g'risidagi tajriba» (1798), «Yer rentasining tabiatи va o'sishi to'g'risidagi tajriba» (1815), «Siyosiy iqtisod prinsiplari» (1820-yilda yozilgan va avvalgi kitob qayta ishlanib, ikki jiddli asarga aylantirilgan). Bu asar D.Rikardonning «Siyosiy iqtisodning boshlanishi» asaridan uch yil keyin chiqqan bo'lib, nazariy metodologik jihatdan undan farq qilmaydi. Bu asarlarda Maltus lendlordlar manfaatini himoya qiladi, ammo yer egalari va kapitalist-fabrikantlarning manfaatlari mos kelsa va ishchilarga qarshi qo'yilsa, ularning ikkalasini qo'llab-quvvatladi, hukmron sinflarni oqladi, ommaning och-yalang'ochligi va og'ir ahvolida ularning hech qanday aybi yo'qligini isbotlamoqchi bo'ldi. Mavjud tizimni takomillashtirish kerakligini xayoliga ham keltirmadi, buni o'ziga xos utopiya deb hisobladi.

Asosiy iqtisodiy masalalarni yagona bir omil asosida oddiygina tushuntirishga harakat qildi.

Tadqiqot predmeti sifatida, avvalo, ishlab chiqarish sohasini rivojlantirish yo'li bilan jamiyatning moddiy boyligini yanada ko'paytirish masalasi qaraladi. Shu bilan birga, birinchi marta iqtisodiy o'sish muammosini aholining o'sishi bilan bog'lashga harakat qilingan. Avvalgi tadqiqotlarda aholi o'sishi o'z-o'zidan milliy xo'jalik rivojiga olib kelishi (va aksincha) masalasi qo'yilgan bo'lsa, bu olim muammoga o'ziga xos ravishda yondashadi.

Tadqiqot usulida iqtisodiy liberalizm konsepsiyasini tan olgan holda, iqtisodiy o'sish sur'atlari bilan aholi soni o'rtaida o'zaro aloqadorlikni ilmiy jihatdan isbotlashga urunishining o'ziga xos yo'llari mavjuddir.

Jahonga ma'lum bo'lgan Ch.Darvin, D.Rikardo va boshqalarning qarashlari unga metodologik asos sifatida xizmat qildi.

Bu olim metodologiyasining yangiligi va ahamiyati shundaki, undan milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va qashshoqlik sabablarini aniqlash va undan chiqish uchun amaliy xulosalar chiqarish mumkin. Yashash minimumi sifatida belgilanadigan tirikchilik vositalari va aholi o'sish soni o'rtaсидаги oddiy nisbatni isbotlashga harakat qilinadi.

M. Blaugning ta'kidlashicha, Maltus bo'yicha insoniy jamiyatni ijtimoiy qonunlar (sotsial islohotlar) yordamida har qanday ongli takomillashtirishga urinish yengib bo'lmas insonlar ommasi tomonidan surib tashlanadi va shu sababli har bir odam o'zi haqida o'zi jon kuydirmog'i va o'zining xatolari uchun to'la javob berishi kerak.

Aholi nufusi nazariysi

Maltus tabiat bilan hamohang o'simlik va hayvonlarning cheksiz ko'payishi va yashash uchun kerakli mablag'lar o'sishi yo'nalishlarini tadqiq etadi. Agar insonlar har 25 yilda ikki marta ko'payib, geometrik progressiya asosida ortib borsa ($1, 2, 4, 8, 16, 32, 64, 128, 256$ va hokazo), tirikchilik vositalari eng qulay sharoitlarda ham arifmetik progressiya asosidagina ko'payishi mumkin ($1, 2, 3, 4, 5, 6, 7$ va hokazo).

Bunday sharoitda 200 yildan so'ng aholi sonining tirikchilik vositalariga nisbati $256 : 9$, 300 yildan so'ng esa $40096 : 13$ bo'ladi va hokazo (2-jadvalga qarang).

2 - j a d v a l

T.R. Maltus «Nufus qonuni»ning matematik ifodasi

Aholi o'sishi	Geometrik progressiya	$1,2,4,8,16,32,64,128,$ va hokazo
Tirikchilik vositalarining o'sishi	Arifmetik progressiya	$1,2,3,4,5,6,7,8,9,10$
200 yildan so'ng	Aholining o'sishi 256 marta	Tirikchilik vositalarining 9 marta
300 yildan so'ng	Aholining o'sishi 9096 marta	Tirikchilik vositalarining 13 marta

Tirikchilik vositalariga nisbatan doimo tezroq ko'payishga intilishi «aholining nufus qonuni»dir, bu qonun jamiyat paydo bo'lgandan buyon mavjud bo'lib, doimo harakatdadir. Aholining ortiqcha qismi zarurat tufayli qirilishga mahkum etilgan.

Maltusning fikricha, qashshoqlikning asosiy va doimiy sababi, boshqarish tarzi yoki mulkning notekis taqsimlanishiga hech ham bog'liq emas; bu jarayon «tabiiy qonunlar va insoniy hirs», tabiatning nochorligi va insoniyatning favqulodda tez ko'payishi bilan bog'liqdir. Shu sababli xalq o'z azob-uqubatlari uchun o'zini o'zi ayblashi kerak». Uni to'g'rilashga hech qanday inqilob va sotsial islohotlar yordam bera olmaydi. Bunda faqat bir to'g'ri yo'l bor - bu aholi sonini qisqartirish. O'ta ko'payishning oldini olish vositasi, chorasi sifatida «axloqiy chidam» (kambag'allar nikohdan o'zlarini tiyishlari, kech turmush qurishlari), og'ir mehnat yoki turli baxtsizliklar (ochlik, qashshoqlik, kasallik, epidemiya, urush va boshqalar) taklif etiladi (3-jadval).

3 - j a d v a l

Aholi o'sishini cheklovchi omillar

Avlodni davom ettirish instinkti	Aholining o'sish potensiali		Aholining o'sishinig cheklovchi omillar	
	Oldini olish choralari: tug'ilish kamayishi		Real omillar: o'lim ortishi	
	Aholoqiy xususiyatdagi cheklovlar	Soliq pastligi	Noo'rin hayot	Kambag'allik
	Tirikchilik vositalarining cheklanganligi			

Maltusning fikricha, tabiiy biologik instinktga ko'ra insoniyat ko'payish imkoniyatiga ega va doimo shunga intiladi, ammo jonivor va o'simliklar qarama-qarshi ravishda bu jarayonni cheklash imkoniga ham ega bo'lib, hayvonot dunyosidan ajralib turadi. Quyidagi jadvalda ana shu imkoniyatlar aks etgan.

Maltusning bu reaksiyon xulosalari qattiq tanqidga uchradi. Maltus bu tanqidlardan xulosa chiqarib, 1820-yilda asarini qayta ishlab chiqdi va unda o'z fikrlarini ancha yumshatishga intildi; ayniqsa, ustiga dambadam yog'ilib turadigan va aholini o'limga mahkum etadigan balo-

ofatlarni zaruriy deb hisoblashdan voz kechdi va kechirim so‘radi, uni noto‘g‘ri tushunganliklarini aytib o‘tdi, ammo u o‘zining bosh fikrini inkor etmadi.

Maltus markaziy g‘oyasi, ya’ni aholi soni o‘sish sur’atlarining jamiyat farovonligiga ta’siri to‘g‘ri va dolzarbdir. Ammo olim tomonidan berilgan prognozlar baxtimizga normal bo‘lib chiqdi. Har 20-25 yilda aholining ikki marta ko‘payishi insoniyatni to‘la qashshoqlikka mahkum etishi kerak edi.

Maltus «doktrinasi», avvalo, metodologik jihatdan xato edi, chunki hech qanday isbotsiz tabiat qonunlari jamiyat hayotida qo‘llaniladi. Vaholanki, insonlar o‘simlik va hayvonot dunyosidan farqli o‘laroq faqat iste’mol qilmaydilar, balki o‘zları ishlab chiqaradilar va tirikchilik vositasini ko‘paytirish imkoniyatlariga egadirlar. Shuni eslab o‘tish joizki, o‘z davrida Petti va Smit mamlakat boyligining asosi unumli mehnat bilan shug‘ullanuvchi aholi ekanligini isbotlab bergenlar. Maltus klassiklarning bu fikrini inkor etadi. Bundan tashqari, Maltus o‘zi ochgan qonunni abadiy deb e’lon qiladi. Aslida esa kapitalizm davrida ortiqcha ishchi kuchi hisobiga aholining nisbiy ortiqchaligi yuzaga keladi, bu yerda aholining nisbiy ortiqchaligi uning absolut ortiqchaligi deb ko‘rsatilgan.

Maltus progressiyalari statistik va amaliy (faktik) materiallarni ochiqdan ochiq soxtalashtirishdir (falsifikatsiya). Unda berilgan ma’lumotlar AQSHning XVI-XVIII asrlardagi aholi o‘sishiga nisbat sifatida keltiriladi, bu mamlakat aholisining asosan Yevropa aholisining emigratsiyasi hisobiga ko‘payganligi haqidagi «arzimas» fakt esa hisobga olinmagan (tabiiy o‘sish bor, emigratsiya bor).

Maltus o‘z fikrini «isbotlash» uchun «*tuproq unumdorligining pasayib borishi*» nazariyasidan foydalanadi. Bu nazariyaga ko‘ra, yerga sarflangan qo‘srimcha kapital go‘yoki mahsulotni proporsional tarzda ko‘paytirishga imkon bermas emish, binobarin odamlar o‘zlarini oziq-ovqat va boshqa tovarlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondiradigan mahsulotlarni to‘la hajmda yetishtira olmaydilar. Shu tariqa mahsulotlarning yetishmasligi tabiatning tabiiy-biologik qonunlari bilan izohlanadi. Bu «qonun»da jon bor albatta, masalan bir gektar yer bilan dunyoni boqib bo‘lmaydi, lekin ilmiy-texnika taraqqiyoti tufayli ko‘pgina davlatlar yerdan niroyatda unumli foydalanib, oziq-ovqat va boshqa muammolarni hal etmoqdalar. Demak,

bu «qonun» ham nazariya, ham amaliyot tomonidan inkor qilinadi. Bunga «ko'k inqilob»ni misol keltirish mumkin.

«Ko'k inqilob» 1960-yillarning oxirida paydo bo'ldi, u qishloq xo'jali-gida ilmiy-texnika taraqqiyotini qo'llash yo'li bilan uning mahsul-dorligini oshirishni anglatadi. Bu jarayon 1950-yillarning o'rtilarida donning yuqori hosilli gibrildi navlari kashf qilinishi bilan bog'liq.

Bir qancha mamlakatlar «ko'k inqilob»dan foydalanib, ancha katta yutuqlarni qo'lga kiritdilar. Masalan, Hindiston 70-yillarning oxiri va 80-yillarning boshida o'zini o'zi don bilan ta'minlashga erishdi. Bu yerda 1976-yilda 120 million tonna don olindi, bu 1950-yilga nisbatan 2.5 marta ko'pdir, 1989-yilda esa 200 million tonnaga yaqin don olindi, shundan 165 million tonnasi guruch va bug'doydir.

Filiippinda 1965-89-yillarda sholi hosildorligi 1,7 mln tonnadan 9,5 mln tonnaga o'sgan bo'lsa, Indoneziyada bu ko'rsatkich gektariga 18,1 sentnerdan 42.3 sentnerga o'sdi. XXR da yiliga 430-465 mln tonna don olinishi natijasida bu yerda 1 mlrd. 250 mln. kishilik aholi uchun oziq-ovqat muammosi hal etilgan.

Qiymat va daromad nazariyasi

Maltusning qiymat, daromad, foyda va realizatsiya bo'yicha g'oyalari diqqatga sazovor. Maltus bu masalalarni hal etishda D.Rikardonning g'oyalariiga qarshi chiqdi va A.Smitdan foydalandi. Uningcha, tovarning qiymati shu tovarni sotib olishga ketgan mehnat bilan aniqlanadi. Maltus g'oyasining «yangiligi» «qimmat o'Ichovi»ni izohlashdir. Maltus tovarning qiymatini ishlab chiqarish xarajatlariidangina iborat deb ko'rsatadi va xaridor tovar sotuvchiga ish haqidan tashqari foydani ham to'lashi kerak, deb o'laydi, foyda tovarning qiymatiga nominal qo'shimcha, deb hisoblanadi. Foyda mehnatdan ajratib qo'yiladi, ya'ni kapitalistning foydasi qo'shimcha emas, balki tovarni o'z qiymatidan ortiqqa sotish tufayli paydo bo'ladi, noekvivalent ayrboshlashning mavjudligi isbotlanadi. Shunday qilib, aslida merkantilizm g'oyalariiga qaytish ro'y beradi, qiymatning hosil bo'lishida mehnatning roli ikkinchi darajali qilib ko'rsatiladi.

Ishlab chiqarish xarajatlari konsepsiyasidan realizatsiya nazariyasi (takror ishlab chiqarish) ham kelib chiqadi va unda jamiyatda yer egaligi, ruhoniy, chinovnik, soldat va boshqa shaxslarning mavjudligi

oqlanadi. Aslini olganda, bunda inqirozlar muammosi izohlanib, «uchinchi shaxslar» nazariyasi yuzaga keladi, undan shuni tushunish mumkinki, kapitalist va ishchilar ishlab chiqarilgan hamma tovarlarni sotib olishga qodir emaslar, chunki qiymatning ta’rifiga ko‘ra jami ish haqi ishlab chiqarilgan barcha mahsulotning qiymatidan foyda miqdoriga kamdir. Bu holatdan chiqish yo‘li jamiyatda ishlab chiqarmaydigan sinflar, ya’ni «uchinchi shaxslar»ning borligidir, ortiqcha mahsulotlar ular tomonidan sotib olinadi. Maltus yetarli talabni qondirish uchun yer aristokratiyasini ulug‘laydi, yuqori renta, soliq va boshqa yig‘imlarni oqlaydi.

«Ishlab chiqarishni kengaytirish chegaralari mavjud emas», - deydi T.Maltus. Ortiqcha ishlab chiqarish (inqirozlar) to‘g‘risida fikr yuritib, bu jarayon umumiy bo‘lishi, yoki iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida uzlusiz yoki vaqtincha bo‘lishi mumkinligi aytildi. D.Rikardo va boshqa klassik maktab vakillaridan farqli ravishda, T Maltus bo‘yicha nafaqat xususiy, balki umumiy inqirozlar bo‘lishi bashorat qilinadi (bu tarixan isbotlandi). Ammo barcha inqirozlar vaqtincha bo‘lib, ular o‘tkinchi deb qaraladi.

Maltus «Nufus nazariyasi»ga ko‘ra, ishchilarning sonini kamaytirishni taklif etgan bo‘lsa, ishlamay yeydiganlarning sonini oshirishni jamiyat uchun foydali deb hisoblaydi.

Bu g‘oyalar aslida Sismondiga tegishli ekanligi keyingi boblarда izohlangan. Faqat Sismondi kapitalizmdan voz kechish va mayda ishlab chiqarishni rivojlantirishni taklif etgan bo‘lsa, Maltus kapitalizmdan voz kechmagan holda, avvalo, yirik yer egalari va ruhoniylar manfaatini ta’minlashni qo‘llaydi.

Maltus g‘oyalaridagi bu ilmiy chalkashliklarga qaramasdan, unda bir qancha ijobjiy fikrlar mavjud. Hozirgi davrda rivojlanayotgan mamlakatlardagi og‘ir ahvolni tushuntirishda bu olimning qarashlari to‘g‘ri keladi. Ayniqsa, Koreya Respublikasi rivoji xarakterlidir. Agar bu yerda 1950-60-yillarda aholining o‘sishi yiliga 3 foizni tashkil etgan paytda iqtisodiy rivojlanish past bo‘lgan bo‘lsa, 90-yillarda aholining o‘sishi 1 foizga tushgan paytga kelib iqtisodiy o’sish keskin oshdi. Markaziy Osiyo mamlakatlarida ham aholining o‘sishi katta bo‘lib, iqtisodiy rivojlanish muammolarini hal etishda bu olimning ba’zi g‘oyalaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

Maltusning «Nufus nazariyasi» XIX asrda juda keng tarqaldi va mashhur bo'lib ketdi. Hozirgi davrda ham yangi zamonaviy maltus-chilar G.Butul, N.Chamberlen, P.Erlix, U.Fogtlar Maltusning «ikki progressiya» to'g'risidagi dastlabki qarashlarini biroz o'zgartirib, «aholining qarib borishi», «aholining eng maqbul miqdori», «qimmatli» va «arzon» kishilar kabi turli-tuman g'oyalarni ilgari surmoqdalar. Bu konsepsiyalarda ilmiy-texnika taraqqiyotining oqibatlari, atrof-muhitni muhofaza qilish bahonasi bilan, Yer kurrasida «ortiqcha» odamlar ko'payib ketdi, deb ularning sonini turli yo'llar bilan kamaytirish rejalar taklif qilindi.

XXI asr boshida planetamizda 6 mlrd dan ortiq aholi istiqomat qilmoqda (1945-yilda aholi soni 2,5 mlrd. edi) va bu ko'rsatkich tobora ortib bormoqda. Eng muhim va ayanchli tomoni shundaki, kam rivojlangan va qoloq davlatlarda bu o'sish tez bo'lib, aholining 75 foizi shu davlatlarga to'g'ri keladi. Shuning uchun demografiya muammosi hozirda ham nihoyatda dolzarbdir.

9.4.Senior, Bastia, Keri va boshqalarning iqtisodiy ta'lilotlari

Klassik maktab g'oyalarni boyitishga Angliyada N.Senior, Fransiya-da F.Bastia, AQSHda G.Keri, Germaniyada tarixiy maktab namoyandalari katta hissa qo'shdilar. Bular ichida N.Senior alohida o'rinn egallaydi.

Nassau Vilyam Senior (1790-1864) Londondagi mashhur Oksford universitetining siyosiy iqtisod kafedrasi professori, «tiyilish» va «so'nggi soat» nazariyalarining muallifi sifatida mashhur bo'ldi.

N.Senior g'oyalari «Siyosiy iqtisod fani ocherklari» (1836) va «Fabrika qonunchiligi to'g'risidagi xatlar»da bayon etilgan.

U o'zining qiymat nazariyasida qiymatni baho bilan bir narsa deb hisoblaydi va qiymat talab bilan taklifa bog'liqligini aytadi. U mehnat (ishchilarning «qurbanisi») bilan bir qatorda kapitalistning «tiyilishi»ni ham qiymatning manbayi deb e'lon qiladi.

«Tiyilish» nazariyasida N.Senior kapitalni kapitalistning berayotgan «qurbanisi» deb hisobladi. Uning ta'kidlashicha, kapitalist o'z kapitalini ishlab chiqarish sohasiga qo'yganda (investisiya) o'zining shaxsiy iste'molidan go'yo ma'lum davr «tiyilib» turadi, mehnat esa o'z navbatida, ishchining dam olish va tinchlik evaziga qilgan «qurbanisi»

deb qabul qilinadi. Shuning uchun ish haqi va foyda kapitalist va ishchi bergen tegishli «qurbanlar» uchun bab-baravar mukofot emish.

N.Senior Rikardoning qiymatni ish vaqt bilan belgilashiga qarshi chiqadi. U foyda kapitalistning «mehnati»dan, foiz esa uning sabr-qanoatidan hosil bo‘lishini kashf qildi. N.Seniorning yana bir «kashfiyoti» «so‘nggi soat» nazariyasidir. Sanoat to‘ntarilishi va mashinalarning kirib kelishiga qaramasdan, ishchilarning ish soatlari nihoyatda yuqori bo‘lib, shu sababli XIX-asrning 30-yillarida Angliyada 10 soatlik ish kuni uchun kurash kuchayib ketdi. N.Senior esa o‘scha davrda mavjud bo‘lgan 11,5 soatlik ish kunini qisqartirishning «ilojsizligini» nazariy jihatdan asoslashga urinib, ish kunining 10,5 soatida sarflangan kapitalning qiymati yangidan vujudga keladi, faqat oxirgi bir soatidagina foyda yaratiladi, deb uqtirdi. Shu sababli ish kunini 10 soatgacha qisqartirish foydani, bu bilan ishlab chiqarishni rivojlantirishga har qanday qiziqishning yo‘q bo‘lib ketishiga olib borgan bo‘lar edi, deb da‘vo qildi. Bu bilan u sohibkorlarni ochiqdan-ochiq himoya qiladi.

XIX asrning 40-50-yillarida fransuz va xalqaro ishbilarmonlar orasida F.Bastianing (1801-1850) nomi va iqtisodiy qarashlari keng ommalashdi. U boy fransuz ishbilarmoni oilasida tug‘ildi. Bastia 40-yillari bir qancha pamfletlar chiqarib, ularda erkin savdo foydasiga proteksionizmni inkor etuvchi, vino ishlab chiqaruvchilar manfaatini himoya qiluvchi, sotsialistik g‘oyalarga qarshi bo‘lgan qarashlarni faol targ‘ib etdi. Bu pamfletlar g‘oyasi mazmun jihatdan original bo‘lmasa-da, yozilish shakli bilan ajralib turadi.

F.Bastianing eng asosiy g‘oyasi jamiyatdagi ijtimoiy antagonizmning mavjudligini inkor etishdir. Uningcha, o‘scha davrdagi jamiyat dunyodagi «*eng go‘zal, mukammal, mustahkam butunjahon assotsiatsiyalaridandir. Barcha qonuniy manfaatlar uyg‘unlashgandir*». F.Bastia 1850-yilda «Iqtisodiy garmoniyalar» kitobini chop etdi. Unda garmoniya (uyg‘unlik)ning asosini almashuv va sof, hech narsa bilan cheklanmagan raqobatda ko‘radi. F.Bastia o‘z g‘oyasini isbotlashda Seyning fikridan foydalangan bo‘lib, xizmatlar nazariyasi bunga mos keladi, ya’ni almashuv, xarid-savdo o‘zaro teng «xizmatlar»ni almashish demakdir. Sey bo‘yicha bu «xizmatlar» nafaqat odamlar, balki buyumlar va tabiat kuchlari tomonidan ko‘rsatilsa ham, Bastia jamiyat hayotining qanday sohasida bo‘lmasin, faqat shaxsiy xizmatlarni ustun qo‘yadi. «Xizmat» deganda ishlab chiqarish davomida real mehnat

sarfingina emas, balki shu xizmatdan foyda keltiruvchi har qanday harakat, faoliyat va kuch tushuniladi. Bundan shu narsa aniq bo'lib qoladiki, qimmat yaratishda ishlab chiqarishga faqat ishchilar emas, balki kapitalist va yer egalari ham katta «xizmat» ko'rsatadilar. Kapitalistning «xizmati» unga foiz olish imkoniyatini berishini F.Bastia shunda ko'radiki, kapitalist kapitalni avans yoki ssuda tarzida sarflab, iste'molni orqaga suradi va uni kapitalistning «qurban» deb hisoblaydi. Bu yuqorida biz keltirgan Seniorning tiyilish nazariyasining o'zidir. «Tiyilish» so'zi o'rniga «orqaga surish» so'zi qo'yilgan, xolos.

Mehnat va kapital o'rtasidagi uyg'unlik, ya'ni garmoniyani yanada to'laroq isbotlash maqsadida Bastia o'zining kapital jamg'arilishi «qonuni»ni yaratdi va unda Rikardoning foyda va ish haqining bir-biriga qarama-qarshi ekanligi to'g'risidagi ta'limotini inkor etishga harakat qildi. F.Bastianing bu «qonuni»ga ko'ra, mehnat va kapital manfaatlari oliy darajada hamohangdir. Oqibatda kapitalistning foydasi va ishchining maoshi bir vaqtida va bir miqdorda oshib boradi, hatto ishchilarning hissasi kapitalistlarnikidan tezroq o'sar ekan, demak, oqibatda kapitalistning foydasi nisbatan kamayadi. U bu fikrni isbotlashga urinib ham o'tirmaydi. Uningcha, foyda normasi va kapitalistlarning milliy daromaddagi hissasi masalalarini qorishtirib yuborgan. Foyda normasining pasayib borish tendensiyasi ishchilarni ekspluatatsiya qilishning kuchayishi bilan mos kelishi mumkin, demak kapitalistlarning milliy daromaddagi hissasi ham oshib borishini kutish mumkin.

F.Bastia o'zining bu nazariyasi yordamida kapitalistlar va yer egalari o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni hal etadi. U yer rentasini yer egasining yoki uning ota-bobolarining shu yermi ishlash va yaxshilash xizmati uchun berilgan mukofot deb hisoblaydi. Shunday qilib, kapital va yer egaligi o'rtasidagi uyg'unlik shu bilan hal etiladiki, yer rentasi yerga qo'yilgan kapital foizining bir ko'rinishiga aylantiriladi. Bunday izohlash yer rentasining iqtisodiy kategoriya sifatidagi xususiyatini inkor etadi, uning foydadan hech qanday farqi qolmaydi. Ishlanmagan yerlardan olinadigan renta umuman bu sxemaga mos kelmaydi.

Demak, Bastianing izohi bo'yicha o'sha davrdagi burjua jamiyati turli sinflar o'rtasidagi o'z xizmatlari bilan almashib turuvchi «uyg'unlashgan hamkorlik» jamiyati tarzida namoyon bo'ladi. Iqtisodiy erkinlik bu xizmatlar almashuvining ekvivalentligining garovi hisoblanadi, chunki bu yerkinlik nomutanosib harakatlarning oldini

oladi. Proteksionizmni cheklanmagan erkin raqobat bilan almashtirish esa sotsialistlarning jamiyatni mukammalroq iqtisodiy jamiyatga aylantirish to'g'risidagi chaqiriqlariga qarama-qarshi qo'yiladi.

1775-85-yillardagi mustaqillik uchun Shimoliy Amerika va Angliya o'rtaсидаги kurashda qozonilgan g'alaba tufayli AQSH davlati vujudga keldi. Hokimiyat tepasiga yangi sinf - burjuaziya o'tirdi. AQSH burjuaziysi ingliz burjuaziyidan anchagina farq qilar edi. AQSHdagi hukmron sinf 1865-yilgacha qullikni saqlab qoldi va ingliz siyosiy iqtisodiga zid ravishda o'z siyosiy iqtisodini yaratishga tayyor edi. Biroq AQSHda siyosiy iqtisod klassik asosda vujudga kelmadı. Buning sababi shuki, XIX asrning 20-30-yillarida AQSHda kapitalizmning nisbatan tez rivojlanishi ishchilar harakatining vujudga kelishiga va tez o'sishiga olib keldi.

Ayni vaqtda ish tashlashlar bo'lib turdi. Siyosiy kurashning keskinlashuvi vulgar siyosiy iqtisod uchun zamin yaratdi. Bundan tashqari klassik siyosiy iqtisod AQSHda qulchilikning saqlanib qolishini tanqid qilar edi. Shu sababli AQSHda yuzaga kela boshlagan iqtisodiy fikr klassik mактабга qарши чиқди. Bu g'oyalari **Genri Charlз Keri** (1793-1879) tadqiqotlarida o'z aksini topdi.

Yirik noshirning o'g'li bo'lgan G.Keri kommersiya sohasida katta yutuqlarga erishdi. Yirik fabrikantga aylanib, iqtisodiy tadqiqotlarga kиrishdi.

1837-40-yillarda uning «Siyosiy iqtisod prinsiplari» va 1857-59-yillarda «Ijtimoiy fanlarning asoslari» nomli asarlari chop etildi. Bu asarning qisqacha varianti 1865-yilda «Ijtimoiy fanlar uchun qо'llanma» nomi bilan chop etildi. F.Bastia amerikalik shu olimdan ilhomlandi.

G.Ch. Keri ingliz siyosiy iqtisodiga keskin qarshi chiqib, AQSH kapitalizmini madh etdi. Uning asosiy asari «Manfaatlar uyg'unligi» (1872) kitobidir. G.Kerining qarashlari Angliyaga qarshi ruhda edi. U Rikardonning ta'limoti va Maltus aqidalarini rad qildi.

G.Kerining metodologiyasi subyektiv idealizm va mexanitsizm bilan obyektiv iqtisodiy qonunlarni tabiat qonunlariga almashtirish bilan xarakterlanadi.

G.Keri hamma iqtisodiy kategoriyalarni ta'riflab berishga intildi. U qiymatni insonning tabiatga hukmronligi o'lchovi, predmetga ega bo'lish uchun bartaraf qilish zarur bo'lgan qarshi harakat deb ta'rif berdi. U narxni predmetning o'zini ayirboshlash evaziga pul olish qobiliyat deb

hisobladi. Kapital odamlarning tabiat kuchlarini boshqarish imkoniyatini olishlarida yordam beradigan buyum yoki qurol deb tushundi.

G.Keri D.Rikardonning yer rentasi nazariyasini tanqid qilib, uni yalpi kurash nazariyasi (ya'ni Rikardo shu nazariya yo'li bilan go'yo sinflar o'rtaida urushni avj oldirdi), deb hisobladi va Rikardonni «kommunizm otasi» deb, unga xuruj qildi. G.Kerining o'zi esa rentani yer egalarining mehnati uchun mukofot deb hisoblab, uni foiz bilan aynan bir narsa deb tushundi. Kerining iqtisodiy ta'limotida burjua jamiyatida «barcha chin va haqiqiy manfaatlarning to'la-to'kis uyg'unligi» mavjudligini isbotlamoqchi bo'ldi. U taqsimot qonunini o'z nazariyasiga asos qilib oldi.

G.Keri proletariat bilan burjuaziya manfaatlarining bir xilligini go'yo kapitalistik jamiyatda mehnat unumdorligi oshishi bilan ish haqi ham oshib boraveradi, shuning natijasida ishchi bilan kapitalistning iqtisodiy ahvoldagi tafovut asta-sekin kamayadi, degan qoida bilan asoslamoqchi bo'ldi. G.Keri kapitalistik jamiyatda aholining nisbiy ko'payishi va ekspluatatsiya kuchayishi faktlarini mutlaqo inkor qilib: «Ishchilar sinfi farovonligining oshib borishi texnika taraqqiyoti bilan bog'liq», - dedi.

XIX asrda Kerining qarashlari, uning antagonistik jamiyatdagi manfaatlar uyg'unligi nazariyasi ko'pchilikka ma'lum bo'lib, burjuaziya siyosiy iqtisodini vulgarlashtirishga katta ta'sir ko'rsatdi. «Manfaatlar uyg'unligi» nazariyasinинг asosiy qoidalarini hozirgi zamon siyosiy iqtisodi qaytadan tiklamoqda.

G.Keri yuqorida biz bayon etgan kapitalistik munosabatlarning bekam-u ko'stligi, sinfiy manfaatlarning hamohangligi va boshqa «uyg'unliklar» to'g'risida ko'p yozdi. Lekin uning g'oyalari Bastiadan biroz farq qiladi. Keri qullikni qo'lladi (bu davrda AQSHning janubida hali qul plantatsiyalari mavjud edi). Proteksionizm siyosati ham himoya qilindi, chunki AQSH hali yosh davlat sifatida sanoati pastligi tufayli unga muhtoj edi, chunki Angliya sanoati bilan ochiq raqobatda yengishi qiyin bo'lgan. Shular tufayli Smit va Rikardolarning fritrederlik (erkin savdo) siyosati to'g'ri kelmay qoldi. Ayniqsa, Rikardonning burjua jamiyatidagi sinflar o'rtaida manfaatlarning qarama-qarshi ekanligi ko'pchilikka ma'qul bo'lmay qoldi.

Kerining fikricha, Rikardonning tuzumida dushmanlik ruhi bo'lib, millat, sinf, ijtimoiy guruhlar o'rtaida urush keltirib chiqaradi.

Vaholanki, bu guruhlar o'rtasida bekam-u ko'st uyg'unlik mavjud emish. Kerining «Manfaatlar uyg'unligi nazariyasi» asosida uning «taqsimot qonuni» yotadi, unga ko'ra mehnat unumdorligining o'sishi bilan ishchilar hissasi absolut va nisbiy jihatdan o'ssa, kapitalistlarniki esa aksincha pasayadi. Shunday yo'l bilan mehnat va kapital o'rtasidagi antagonizm yo'q qilinadi. Bunda yaxshi ma'lum tezis - unumli kapital g'oyasidan foydalaniлади (unga ko'ra tadbirkor qonuniy foyda olishi kerak).

G.Kerining g'oyasi bo'yicha tovarning qiymati uni ishlab chiqarishga ketgan amaliy mehnat miqdori bilan emas, balki ma'lum sharoitda sarflangan ishlab chiqarish xarajatlari bilan aniqlanadi. Ammo mehnat unumdorligining o'sishi bilan mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun, shu jumladan, ishlab chiqarish vositalariga sarf-xarajatlar kamayadi. Bu esa, G.Keri bo'yicha, kapitalning qimmati pasayishiga olib keladi. Ishlab chiqarish vositalari kapital bilan bir deb qaraladi. Oqibatda foiz ham, kapital egasi oladigan mahsulot hissasi ham pasayadi, shunga mos ravishda mehnat qiymati va uning mahsulotdagi hissasi oshib boradi. Bu g'oyalarning hammasini qo'llash qiyin, chunki foiz qiymatning bir qismi bo'lib, avvalgi mehnatga hech qanday aloqasi yo'q. Mehnat unumdorligining o'sishi ishchilarning tirikchilik vositalari qiymati pasayishi bilan bog'liq, bunda ishchi kuchi qiymati ham pasayadi, kapitalning milliy daromaddagi hissasi esa oshib boradi.

Keri kapitalist va yer egasi «manfaatlari uyg'unligi»ni isbotlab bershga intiladi. Bunda ham u Rikardoga qarshi chiqadi, ayniqsa, unumdorligi past yerlarni ishga tushirishga mone'lik bildiradi.

Keri Bastia kabi rentani aslida kapitalning foizi shakli sifatida qaraydi, dehqonchilik xususiyatlarini inkor etadi. Keri «millatlar uyg'unligi» haqida ham gapirib, jahon ishlab chiqarishini mahalliy markazlarga taqsimlash zarurligini aytadi, chunki bu yerlarda qishloq xo'jaligi va sanoat tabiiy holda uyg'unlashgan. Shularni hisobga olib, Keri Buyuk Britaniyaning sanoat va mustamlakachilik monopoliyasiga qat'iy qarshi chiqadi, boshqa davlatlarni agrar xomashyo manbayiga aylantirish siyosatini inkor qiladi va shu maqsadda proteksionizmni keng qo'llash kerakligini aytadi. Shunisi qiziqki, burjuaziya manfaatlarini himoya qilib, gohida fritrederlik (F.Bastia), ba'zida proteksionizm (Ch.Keri) «uyg'unlik»ning doimiy sharti deb e'lon qilinaveradi.

Qisqacha xulosalar

Klassik maktab rivojining bu bosqichida D.Rikardo, J.B. Sey, T.Maltus va boshqalarning g'oyalari muhimdir.

Rikardo Smitdan keyin yashaganligi sababli fabrikaning ahamiyatini to'g'ri tushundi. Klassik g'oyalarni to'la qo'llagan holda, uning o'ziga xos fikrlari mavjud. Masalan, renta nazariyasi hozirgacha ahamiyatini yo'qotmagan. Uning mehnat taqsimoti va tashqi iqtisodiy aloqlar g'oyasi nisbiy afzallik prinsi piga asoslanadi. Savdoda fritrederlik qo'l-lab-quvvatlanadi, «Sey qonuni»ni ma'qullaydi.

Bu davrdagi iqtisodiy qarashlarda J.B.Sey alohida o'rin egallaydi, uning «bozorlar qonuni» deyarli bir asr hukmronlik qildi, uning ishlab chiqarishni uch asosiy omillari hozirgacha ahamiyatini yo'qotmagan.

T.Maltusning «aholi nufusi nazariyasi», arifmetik (tirikchilik ne'matlari o'sishi) va geometrik (aholi soni) progressiyalari, «tuproq unumdarligi pasayib borish qonuni» katta shov-shuvlarga sabab bo'ldi. Maltusga xos xususiyat shuki, u inqirozlar bo'lishini tan oladi, ammolar vaqtincha bo'lishini ko'rsatadi.

Seniorning «tiyilish» va «so'nggi soat» nazariyalari sohibkorlar (kapital egalari) va mehnatkashlar o'rtasida hech qanday ziddiyat yo'q degan muammoni yechishga bag'ishlangan. Xuddi shunday fikrlar fransuz Bastia va amerikalik Keriga tegishli, ular iqtisodiyotda to'liq uyg'unlik mavjud degan g'oyalarni ko'tarib chiqadilar.

Asosiy tushuncha va iboralar

Rikardo, nisbiy afzallikprinsi pi, differensial renta, fritrederlik, Sey, «bozorlar qonuni», ishlab chiqarishning uch asosiy omili, foydalilik, Maltus, arifmetik va geometrik progressiya, «aholi nufusi nazariyasi», tuproq unumdarligi pasayishi qonuni, inqirozlar, senior, tiyilish, so'nggi soat nazariyalari, Bastiya, Keri, iqtisodiy uyg'unlik.

Nazorat va mulohaza uchun savollar

1. D.Rikardoning asosiy asaridagi iqtisodiy g'oyalalar nimadan iborat?

2. Nima uchun Rikardo fabrika davrining masjurachisi deb hisoblanadi.
3. Nisbiy afzallik prinsipi nimani anglatadi?
4. «Proteksionizm» va «Fritrederlik»ning o‘zaro farqi nimada?
5. J.B.Seyning asosiy qonuni nimani bildiradi? Izohlab bering.
6. Seyning fikricha, inqirozlar bo‘lishi mumkinmi?
7. T.Maltusning «aholi nufusi nazariyasi»dagi asosiy g‘oya nima?
8. «Tuproq unumdarligi pasayib borish qonuni» oqibatlari qanday bo‘lishi mumkin?
9. Nima uchun «Uchinchi shaxslar nazariyasi» vujudga keldi?
10. Seniorning «tiyilish» va «so‘nggi soat» nazariyalarining mohiyatini ochib bering.
11. Bastia va Kerining iqtisodiy uyg‘unlik g‘oyalarida qanday umumiyliliklar bor?

X b o b. JEYMS MILL, J.MAK-KULLOX VA BOSHQALARING IQTISODIY G'OVYALARI (4-bosqich)

Angliyada klassik maktabni boshqacharoq izohlovchilar orasida Jeyms Mill (1773-1836) muhim o'rin egallaydi.

«*Rikardo matabining tanazzuli, - deb yozgan edi K. Marks, - mana shu kimsadan boshlanadi*». J.Mill qiyomat, ish haqi va foydani o'ziga xos yo'l bilan talqin etdi. U ishchilarning ish haqini oshirish yo'lidagi iqtisodiy kurashi o'rinsizligini asoslamoqchi bo'ladi.

J.Mill kapitalistning foydasi bilan yollanma ishchining maoshi o'rtasidagi qarama-qarshilikni rad etib, yer rentasini tanqid qilgan edi. U Rikardonning renta to'g'risidagi nazariyasini davom ettirib, yer rentasining davlat tomonidan qo'shib olinishi, ya'ni yerni milliy-lashtirish (natsionalizatsiya)ni talab qilib chiqdi.

J.Mill o'zining «*Siyosiy iqtisod elementlari*» (1821) asarida qiyamatning mehnat nazariyasiga butunlay qarshi chiqdi va qiyamatning manbayi sifatida faqat jonli mehnatni emas, ishlab chiqarish vositalarida mavjud bo'lgan mehnatni ham hisobga olishni talab qildi. Bunga asoslanib, kapitalistlar va yollanma ishchilar o'rtasidagi ekspluatatsiya inkor qilinib, ularni «teng tovar egalari» sifatida qabul qilishni taklif etdi, bu esa ishlab chiqarilgan mahsulotning o'ziga tegishli foyda ulushimi olishining to'g'ri ekanligini isbotlashga asos bo'ldi.

London universitetining siyosiy iqtisod bo'yicha professori Jon Ramsey Mak-Kullox (1789-1864) ham klassik maktabning so'nggi nomoyandalaridan hisoblanadi. U «*Siyosiy iqtisodning boshlanishi*» (1825) kitobida qiyamatning mehnat nazariyasini rasman tan olsa ham, ishchigina emas, ishlab chiqarish jarayonida ishtrok etgan shamol, bug', koks, mashina ham mehnat qiladi, degan g'oyani ilgari surdi. Bunga asoslanib, foyda qiyamatning jamg'arilgan mehnat yoki kapital «ishi» tufayli yaratilgan qismidir, deb tushuntiradi. Merkantilistlar kabi u ham foyda ayirboshlash jarayonida vujudga keladi, deb da'vo qiladi. J.Mak-Kullox Maltusning «Aholi nufusi» qonunini to'la quvvatladi.

Agar avvalgi iqtisodchilar klassik maktabni turlicha sharhlashga intilgan bo'lsalar, XIX asrning 30-50-yillarida iqtisodchilar o'rtasida klassik maktabdan ochiqdan ochiq aloqani uzishga intilish paydo bo'ldi. Bu davrda sanoat to'ntarilishi nihoyasiga yetdi, sinfiy differensiatsiya amalga oshdi.

Sinfiy kurash keskinlashayotgan sharoitda (Angliyada chartizm, Fransiyada Lion to'quvchilarining qo'zg'oloni, 1848-yil inqilobi va boshqalar) hukmonron sinflar uchun sotsialistlar tomonidan kapitalizmni tanqid qilish va ishchilarning ijtimoiy ta'labolari asoslab berish uchun foydalanimadigan qiymatning mehnat nazariyasi, Rikardonning foyda, kapitalist va ishchilar ish haqining qarama-qarshiligi ta'limoti va boshqa g'oyalari katta xavf tug'dirar edi.

10.1. J.S. Millning iqtisodiy ta'limoti

Ingliz Jon Stuart Mill (1806-1873) klassik maktabning so'nggi nomoyandalaridan biridir. Uning otasi Jeyms Mill (1773-1836) ham iqtisodchi bo'lgan va o'g'lining tarbiyasi bilan jiddiy shug'llangan, oqibatda yoshligidayoq uning dastlabki tadqiqotlari e'lon qilindi. Ammo 1848-yilda bosib chiqarilgan «Siyosiy iqtisod asoslari» (5 jilddan iborat) kitobi unga shuhrat keltirdi. Mill Ost-Indiya kompaniyasi bilan bog'langan edi (1858-yilda yopilgan). 1865-1868-yillarda parlament a'zosi bo'lgan (D.Rikardonii eslang). So'nggi yillarda Fransiyaning Avinon shahrida yashab, ijod etdi.

D.Rikardo g'oyalariiga yaqin turadi va birinchi o'ringa «ishlab chiqarish qonunlari»ni qo'yadi, bu masalani «Taqsimot qonunlari»ga qarama-qarshi deb biladi. Klassik maktab vakillari kabi, iqtisodiy rivojlanishda «Qishloq xo'jaligi imkoniyatlari» bilan hisoblashmaslik mumkin emas deb hisoblaydi.

Tadqiqot usulida pulning «neytrallik» konsepsiyasiga amal qiladi, ammo pulning miqdoriy nazariyasini ham qo'llaydi. Boylik to'g'risida ancha sodda fikrda bo'lib, bozorlarda sotib olinadigan va sotiladigan narsalarning summasi sifatida qaraladi. Bu olimning metodologiyasida (ishlab chiqarish qonunlarini taqsimot qonunlariga qarshi qo'yish xarakterlidir. Birinchisi o'zgarmas bo'lib, texnik sharoitlar bilan belgilanadi, bu «fizik haqiqatlar» kabidir, u «tabiiy fanlar xususiyatlari» xarakteriga ega, unda inson irodasiga bog'liq hech narsa yo'q. Ikkinchisi

esa, uni «inson intuitsiyasi» boshqargani sababli, ayrim mamlakatlar va davrlarda jamiyatni boshqaradiganlarning fikri va xohishiga bog'liq bo'lib, nihoyatda turlichadir.

«Mazkur jamiyat qonun va urf-odatlari» taqsimot qonunlariga bevosita ta'sir etadi va «jamiyatdagi asosiy uch sinflar» o'rtasida daromadlar taqsimoti mulkning shaxslar o'rtasidagi taqsimotini belgilab beradi. Insoniy qarorlarning taqsimot qonunlari shakllanishidagi ahamiyatidan kelib chiqib, J.S.Mill jamiyatni ijtimoiy jihatdan isloh qilish bo'yicha o'z takliflarini ishlab chiqadi. Olimning tadqiqotlariga «statika» va «dinamika» tushunchalari kiritiladi. Avvalgi olimlar tomonidan jamiyatning «statsionar va o'zgarmas» iqtisodiy qonunlari o'rganilgan bo'lsa, endilikda statikaga siyosiy iqtisodning dinamikasini qo'shish kerakligi aytildi.

Ammo M.Blaugning fikricha, Millda «dinamika»ga tarixiy o'zgarishlarni tahlili sifatida qaraladi, «statika» deganda esa hozirgi statik tahlil tushuniladi. Demak, u hozirgi davrdagi dinamik tahlildan keskin farq qiladi, chunki endilikda iqtisodiy munosabatlardagi o'zgarish zamon va makonda, diffensial hisob-kitoblar yordamida matematik modellashtirish orqali amalga oshiriladi.

Millning qiymat nazariyasida «almashuv, iste'mol qiymatlari», qiymat va boshqalardan tashqari, qiymat (qimmat) bir vaqtida barcha tovarlarda o'sishi mumkin emas degan qisqacha xulosalar chiqariladi, chunki qiymat nisbiy tushunchadir. Qiymat mehnat tufayli yuzaga kelishi va birinchi darajali ahamiyatga egaligi ta'kidlanadi.

Pul to'g'risidagi g'oyasida miqdoriy masala birinchi o'ringa qo'yiladi, ya'ni pulning ko'payishi yoki kamayishi tovarlarning nisbiy bahosi o'zgarishiga ta'sir etadi. Boshqa sharoitlar teng bo'lganda «pulning qiymati uning miqdoriga teskari nisbatdadir», pulning har qanday kamayishi esa xuddi shunday proporsiyada uning qadrini oshiradi. Pulning neytralligi to'g'risida fikr yuritilib, pul vaqtini va mehnatni iqtisod qilish uchun hizmat qiladi, deyiladi. Boylik, moddiy ne'matlar faqat unumli mehnat natijasida yaratiladi. Yangilik shundan iboratki, mulkni qo'riqlash, malaka orttirishga qaratilgan mehnat ham unumli deb hisoblanishi kerak. Unumli mehnat, jamiyat ishlab chiqarish kuchlarini ko'paytirishga olib kelsa, unumli iste'molga ega bo'ladi.

Aholining iqtisodiyotdagi o'mi to'g'risida so'z yuritilib, Angliyada 1821-yildan keyin 40 yil davomida tirikchilik vositalarini ishlab chiq-

rish sur'atlari aholi o'sishidan yuqori bo'lмаган. Aholi sonini kamaytirish bo'yicha takliflar beriladi (ixtiyoriy tug'ilishni kamaytirish, ayollar emansi patsiyasi). Bu masalada Mill Maltus bilan hamfikrdir.

Kapital deganda «avvalgi mehnat bilan ilgari to'plangan mahsulotlar zaxira» lari tushuniladi. Kapital jamg'arish investitsiya uchun asos hisoblanadi va bandlikni oshiradi, ishsizlikning oldi olinadi (J.M.Keyns ta'limotiga qarang).

Daromadlar borasida avvalgi olimlar fikri qo'llanadi, uni mehnatga haq deb qaraladi va ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifga bog'liq deyiladi. Minimal ish haqi g'oyasiga amal qilib, «ishchi fondi» doktrinasi ilgari suriladi, unga ko'ra, sinifiy kurash ham, kasaba qo'mitalari ham ish haqini yashash minimumi darajasida saqlashning oldini ola olmaydi. Ammo 1869-yil bu doktrina g'oyasi inkor etiladi va kasaba qo'mitalari, haqiqatan ham, ish haqiga ta'sir etadi, bu «mehnat bozoridagi raqobat oqibatlari» kabidir. Boshqa sharoitlar teng bo'lganda past mehnatda ish haqi kamroq bo'ladi. Mill «minimum ish haqi» bilan «fiziologik minimum»ni farqlaydi, birinchisi ikkinchisidan yuqoridir. Ish haqi manbayi sifatida allaqanday «kapital zaxira» keltiriladi.

Rentaga yerdan foydalanganlik uchun to'lanadigan kompensatsiya deb qaraladi. Shu bilan birga, yer uchastkasidan foydalanish shakliga qarab, bu renta mavjud bo'ladi yoki foydani yo'q qiluvchi xarajat bo'lishi mumkin.

Jamiyatdagi iqtisodiy islohotlar, xususan, sotsializm va sotsialistik qurilish to'g'risida ham fikr yuritiladi. Ijtimoiy tengsizlikning xususiy mulk bilan bog'liqligini inkor etadi. Masala bunda xususiy mulk bilan bog'liq individualizm va suiiste'molchilikka barham berishdir, degan xulosa chiqariladi.

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida davlat mavqeyini faollashtirish masalalari qarab chiqilgan. Bunda davlat markaziy banking foizlari oshirishga intilishi maqsadga muvofiq deb qaraladi, chunki bu xorij kapitalini mamlakatga kirib kelishini rag'batlantiradi, milliy valuta kursi mustahkamlanadi, oqibatda davlatdan oltin chiqib ketishining oldi olinadi. Davlat harajatlarining ko'payishi tanqid qilinadi.

Erkin savdo munosabatlari (laisser faire)ni qo'llash bilan birga, «bozor kuchisiz» ayrim sohalarda (infratuzilma, fan, qonunlarni chiqarish, bekor qilish va b.) davlat aralashuvi kerak deb hisoblanadi.

Mill, ayniqsa, ta'lif sifatiga alohida e'tibor qiladi, xususiy maktablar tarafdori (faqat chekka joylardagina umumiy maktabga yo'il beriladi), davlat imtihonlari tizimi, yomon o'qiganlar uchun jarima taklif etadi.

Aytib o'tilganidek, bu olim ishlab chiqarish qonunlarini o'zgartirish mumkin emas, balki taqsimot qonunlarini o'zgartirish kerak degan aqidaga amal qiladi.

Bu olimning katta xatosi bo'lib, aslida ishlab chiqarish va taqsimot bir-biridan alohida-alohida yashay olmaydi; ular bir-birlariga har tomonlama bog'liq.

Millning ijtimoiy islohoti uch pozitsiyani o'z ichiga oladi:

1. Kooperativ ishlab chiqarish assotsiatsiyasi yordamida yollanma mehnatni tugatish.

2. Yer solig'i yordamida yer rentasini ijtimoiylashtirish.

3. Merosxo'rlik qonunini cheklash yordamida boylikning tengsizligini cheklash.

10.2. Iqtisodiyotda matematik usublar (A.O. Kurno, I.G. Tyunen)

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, XIX asrning o'rtalarida iqtisodiyot fanida inqiroz holatlari kuzatildi. Mafkuraviy yondashuvni talab qiluvchi g'oyalar tobora kuchayib bordi. Siyosiy munozaralarda iqtisodiy ta'liflardan o'z xohishlaricha foydalanish holatlari faollashdi. Iqtisodchi-olimlarning obro'yi eng past darajaga tushib qoldi. Shu davrda mafkuradan holi bo'lgan tadqiqotlarga ehtiyoj sezildi, iqtisodiyotda matematik uslublarni qo'llash bo'yicha dastlabki tadqiqotlar paydo bo'ldi, bu iqtisodiyotda «marjinalistik inqilob»gacha ro'y bergen yangi yo'naliishdir.

Ko'pgina iqtisodiy hodisa va jarayonlar o'z tabiatiga ko'ra miqdoriy xarakterga ega. Odatda, iqtisodiy ko'rsatkichlar orasida miqdoriy bog'-lanish mavjud. Masalan, agar ulardan biri o'zgarsa, ma'lum qonun asosida o'zaro bog'langan bir yoki bir nechta boshqa ko'rsatkichlar ham o'zgaradi. Agar bir tovar bahosi oshsa, ko'pincha unga bo'lgan talab pasayadi. Bu bog'lanishni muayyan funksiya bilan ifodalash mumkin.

Taxminan xuddi shunga o'xshash g'oyalar XVIII asrdayoq ayrim olimlar orasida paydo bo'ldi va iqtisodiyotni, iqtisodiy hodisalarini

o‘rganish uchun matematika fanini qo‘llash kerak degan fikr yuzaga keldi, shunday tadqiqiy intilishlar boshlandi. Keyinchalik esa nazariy iqtisodning ayrim bosh masalalarini hal etishda bu usul keng qo‘llanila boshladi.

Iqtisodiy tadqiqotlarda matematik usulblarni ongli ravishda va muttasil qo‘llagan dastlabki olim fransiyalik Antuan Ogyusten Kurnodir (1801-1877). Kurnoga sharaf keltirgan «**Boyluk nazariyasi matematik prinsiplarining tadqiqoti**» asari 1838-yilda bosilib chiqdi. Uning hayoti davrida bu asar olimlar o‘rtasida deyarli qiziqish uyg‘otmadi va uni ishi yurishmagan «iqtidorli fan fidoyisi» sifatida eslab qoldilar. U oly maktab professori, o‘quv yurtlarining administratori lavozimida yaxshi va to‘q hayot kechirish bilan birga, o‘zining asarlari va g‘oyalariiga bo‘lgan sovuq munosabatni ham doim sezib turdi.

A.O. Kurno 1829-yilda Parij universitetidagi matematika bo‘yicha ishlari uchun doktorlik darajasini oldi, ko‘pgina olimlar, jumladan, taniqli Puasson bilan yaqindan tanishdi, uning yordamidan foydalandi. Bu olim ehtimollar nazariyasining falsafiy talqini bo‘yicha buyuk ishlarni amalga oshirdi. Asosan, matematika bilan shug‘ullangan olim qanday qilib iqtisodiy masalalarga e’tibor bergen, degan jumboq haligacha yechilmagan. Ammo qomusiy bilimlarga ega bo‘lgan Kurno, shubhasiz, Smit, Rikardo, ayniqla, Seyning asarlari bilan tanish bo‘lgan. Shular tufayli u matematikani iqtisodiyot bilan bog‘lagan, degan fikr bor.

Kurno o‘z asarlarida ijtimoiy fanlarga aniq matematika tilini tatbiq etishga harakat qildi. U bu turli bozor munosabatlari sharoitida, ya’ni xaridor va sotuvchilar kuchi turlicha joylashtirilganda tovar bahosi va unga bo‘lgan talabning o‘zaro bog‘lanishi to‘g‘risidagi masalani to‘liq o‘rgandi. Talab va baho o‘rtasidagi nisbat masalasi bilan shug‘ullangan olim fanga talabning elastikligi to‘g‘risida muhim tushunchani birinchi bo‘lib kiritdi. Tajribaning ko‘rsatishicha, tovar bahosi oshushi bilan unga bo‘lgan talab kamayadi, baho pasaysa, talab ortadi.

Bu Kurnoning «talab qonuni» bo‘lib, talab «D» harfi bilan, baho esa «r» harfi bilan belgilanganda uning funksiyasi $D = f(p)$ shaklida yoziladi. Kurno tadqiqotlarda birinchi bo‘lib grafika metodini qo‘llagan. Bunda tovar sotilish hajmining uning bahosiga bog‘liqligi ko‘rsatiladi, ya’ni talab (egri chiziqi) paydo bo‘ldi.

Kurno shuni ham ta‘kidlaydiki, turli tovarlar uchun bu bog‘lanish turlicha bo‘ladi. Uningcha, baholarning nisbatan uncha katta bo‘lmagan

o'zgarishlari tufayli talab ancha keskin o'zgarishi mumkin. Bu talabning yuqori elastiklik holatidir. Va aksincha, baholar o'zgarishi talabga kam ta'sir qiladigan holat talabning past elastikligidir. Oxirgi holat zebziznat predmetlari va hatto eng kerakli mahsulotlarga ham tegishli bo'lishi mumkin. Masalan, skripka yoki astronomik teleskopning bahosi ikki hissa pasayganda, ularga bo'lgan talab deyarli o'zgarmaydi, chunki bu buyumlar tor doiradagi muxlislarga kerak va ularni bu buyumlarning bahosi uncha qiziqtirmaydi. Boshqa tomonidan, o'tining narxi ikki marta oshsa ham, unga bo'lgan talab kam, chunki qish sovug'ida issiq o'tirish uchun boshqa narsalardan voz kechiladi. Shunday qilib, talab funksiyasi turlicha bo'ladi va turli egri chiziqlar bilan ifodalananadi, lekin muhimi, bu funksiya uzliksizdir, ya'ni bahoning cheksiz kichik o'zgarishiga talabning cheksiz kichik o'zgarishi mos keladi. Bu iqtisodiy prinsip, ya'ni tamoyil bozor qanchalik keng va iste'molchilar orasidagi kombinatsiyalar soni qanchalik ko'p bo'lsa, shunchalik to'laqonli amalga oshadi. Ba'zi hollarni istisno qilganda, uzlusiz funksiyalarni differensiyalash mumkin. Kurno birinchi marta oliy matematika (matematik analiz)ni iqtisodiyotga bevosita qo'llash mumkinligini isbotlab berdi va bu favqulodda muhim va kelajagi bor bo'lgan talab va tovarning bahosi o'rtasidagi o'zaro bog'lanish misolida qarab chiqilgan.

Mazkur tovarning ma'lum P·D yoki P·f(p) ko'paytma soni uchun umumiyl tushum, ya'ni pul miqdori funksiyasi v shaklida izohlanishi mumkin. Kurno bu funksiyani differensiyalaydi va uning maksimummini qidiradi, bunda har bir tovar ishlab chiqaruvchi «iqtisodiy odam» sifatida o'z daromadining imkoniboricha yuqori bo'lishiga intiladi. Turli o'zgartirishlar orqali eng yuqori tushum (daromad)ga tegishli tovar bahosi topiladi.

Bu baho talab funksiyasi ko'rinishiga, ya'ni uning elastiklik (egiluvchanlik) xarakteriga bog'liq. Ravshanki, har doim ham eng yuqori baho maksimum tushumni beravermaydi, bir qancha sinovlardan so'ng sotuvchi tomonidan belgilanadigan aniq bir baho tufayli eng katta daromad olinadi. Kurno o'z tahvilini eng oddiy holatdan boshlaydi, masalan, tabiiy monopoliyani oladi. Masalan, bir odam xususiyatlari bo'yicha juda noyob ma'danli suv chiqadigan buloqqa egalik qiladi, deylik. Suv egasi eng yuqori daromad olish uchun qanday bahoni qo'yishi kerak? Bu savolga javob berish uchun Kurno nisbatan

ancha murakkab bo‘lgan holatlarga o‘tadi, yangi omillarni (ishlab chiqarish chiqimlari, raqobat va boshqa cheklashlar...) kiritadi.

U *duopolya* (2 ta raqobatchi monopoliya), soni cheklangan raqobatchilar va erkin raqobat (ko‘pchilik) holatlarni tahlil qiladi. Shunday qilib, Kurno modelida XIX asrda ro‘y bergen tarixiy taraqqiyot jarayonlarga teskari (aslida rivojlanish erkin raqobatdan monopoliyaga qarab borgan) holatlar qarab chiqilgan.

Butun tahlilda yagona uslubdan foydalaniłgan, bozor sharoitiga qarab talab funksiyasining ekstremal miqdorlari turli holatlarda aniqlanadi. Bu tadqiqotning matematik aniqligi va mantiqiyligi kuchli taassurot qoldiradi. Bu olimning asarları va iqtisodiy g‘oyalari o‘z davrida to‘liq tushunilmadi, ko‘pchilik uchun u chet tili kabi notanish bo‘ldi.

Kurno konsepsiyasida mehnatning kapital tomonidan ekspluatsiya qilinishi, inqirozlar va kapitalizmning boshqa illatlari inkor etiladi. U muomala sohasida vujudga keladigan baholarnigina tahlil etadi va ishlab chiqarish bilan bog‘lanmaydi.

Deyarli Kurno bilan bir vaqtida (hatto undan sal oldin) nemis olimi **Logann Genrix fon Tyunen** (1783-1850) boshqa iqtisodiy modelni yaratdi va Kurno g‘oyalarini amaliy material bilan to‘ldirdi. U o‘zi Shimoliy Germaniya yunkeri (pomeshchigi) sifatida qishloq xo‘jaligi bilan bevosita shug‘ullandi va o‘zining iqtisodiy modelini taklif qildi. Uning modeli bo‘yicha xo‘jalik doira shaklida ifodalanib, markazida shahar (qishloq xo‘jalik mahsulotlarining yakka-yu yagona iste’molchisi) va atrofida bir xil unumdoorlikdagi tuprog‘i bo‘lgan yopiq hudud tushuniladi. Bu modelni tahlil etib, u bir qancha muhim xulosalar chiqardi: qishloq xo‘jaligi turli tarmoqlarini samaradorligi pasayib boruvchi konsentrik doiralar bo‘yicha joylashtirish optimal natijalar beradi. U o‘z xo‘jaligidagi xarajatlar va natijalar bo‘yicha nihoyatda yaxshi hisob-kitob ishlarini yo‘lga qo‘ydi.

Tyunen, xususan, shahardan tashqarida yetishtirilgan mazkur bahodagi qishloq xo‘jalik mahsulotiga transport xarajatlari va ishlab chiqarishning norentabel bo‘lishini hisoblab chiqdi. Agar Kurno kitoblari abstrakt matematik iqtisodiyotning boshlanishi bo‘lsa, Tyunennenning hisob-kitoblari esa ekonometrika, ya’ni matematik ekonomikaning asosi hisoblanadi va statistik informatsiyani, faktik miqdorlarga asoslangan empirik modellar ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi.

I.G. fon Tyunen bittagina kitob yozgan bo‘lib, unda davlatning qishloq xo‘jaligi va milliy iqtisodga munosabati masalalari yoritiladi.

Asar o‘z zamondoshlari tomonidan deyarli tan olinmadi, to‘g‘rirog‘i unda tushunib yetilmadi. Olim faqat empirik iqtisodiy-matematik modellar yaratish bilangina cheklanganmadni, u Smit tomonidan boshlangan, ammo oxiriga yetmagan daromadlar taqsimotini tadqiq qildi. Rikardonning ishlaridan bexabar holda bu masalani ancha mukammal hal etdi, differensial renta g‘oyasini qiymatning mehnat nazariyasi asosida rivojlantirdi.

Uning tadqiqotlarida iqtisodiy jarayonlarni tekshirishda cheksizlik uslubi keng qo‘llaniladi. Uning fikricha, har qanday iqtisodiy jarayon ketma-ket kichik orttirmalar yo‘li bilan rivojlanadi, bu rivojlanish ma’lum bir chegaraga ega (ya’ni u chegaraviy), ma’lum holatgacha borib, unda keskin sifat o‘zgarishi ro‘y beradi. Shunday yo‘l bilan ma’lum muvozanat yoki optimal holat yuzaga keladi. U shunday usulni mehnat va kapital (ya’ni ishchi kuchi va mashinalar)ni o‘zarlo to‘ldirish jarayoniga va ishlab chiqarishning optimal tarkibini shakllantirishda qo‘lladi.

Keyinchalik iqtisodiyot fanida kichik orttirmalar va cheklangan sharoitlar uslubi **marjinalizm** (fransuzcha la marge va inglizcha margin - chekka, chegara mazmuniga ega) nomini oldi.

Umuman, iqtisodiyotda matematik usullar haqida gap borar ekan, uning tarixi XIX asrning o‘rtalarida boshlanib, hozirgi davrda iqtisodiyot fanining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Matematika usullarini qo‘llash hayot talabi bo‘lib qoldi. Hozirgi zamon korxonasida ishlab chiqarishni boshqarish, moliya tizimi, mahsulotni sotish butunlay boshqa talablarni qo‘yadi. Bunda fan, texnika, iqtisodiy kibernetika, matematik usullar (boshqarish, nazorat, aloqa, hisob-kitob) birinchi o‘ringa chiqadi.

Yangi iqtisodiy masalalarni yechish uchun (ishlab chiqarishning optimal, eng ratsional variantini tanlash, kapital qo‘yilmalar, moddiy ta’mnot va boshqalar) bu usul qo‘l kelmoqda. Elektron hisoblash mashinalari, kompyuterlarni qo‘llash tufayli murakkab masalalarni ham yechish mumkin bo‘lyapti.

10.3. Klassik maktab ta’limoti va hozirgi zamon

A.Smit va D.Rikardo Angliya klassik iqtisodiyotining eng buyuk va eng so‘nggi namoyandalari edilar, ularning g‘oyalari Sey, Sismondi Bastia, Sismondi Senior, Keri va qisman Maltus tomonidan davom ettirildi, ammo bu g‘oyalarga yangilik kiritilmadi. Agar klassik maktab

g'oyalari Angliya va Fransiyada qo'llab-quvvatlanib, progressiv rol o'ynagan bo'lsa, feudal munosabatlari hali ustun, kapitalistik tuzum endigina rivojlanayotgan davlatlarda bu g'oyalalar ta'siri tobora ortib bordi (Germaniya, Avstriya, Italiya, Ispaniya, Rossiya). Ma'lumotlarga ko'ra, Ispaniyada Smitning kitobi dastlab inkivizitsiya tomonidan taqiqlangan. Germaniyada esa reaksiyon professorlar uni tan olishni istashmagan. Shunga qaramasdan, ularning asarlarida klassik iqtisodiy maktab eng yuksak cho'qqiga ko'tarildi va jahon iqtisodiy tafakkuriga katta ijobiliy ta'sir ko'rsatdi. Undan keyingi iqtisodchilar ilmiy bo'limgan apologetik maqsadlarni qo'ydilar.

Klassik iqtisodiy maktab uchun shu narsa xarakterlikni, unda mantiqiy abstraksiya uslubi yordamida iqtisodiy voqealar va jarayonlar mohiyatiga yetish uchun harakat qilindi. Olimlar mavjud voqealarni imkonli boricha katta obyektivlik va holistik bilan tahlil etdilar.

Klassiklar mulohazalarining asosida inson xohishiga bog'liq bo'limgan obyektiv iqtisodiy qonunlar mavjudligi to'g'risidagi tushunchalar yotar edi. Bu qonunlar iqtisodiy tizimda tabiiy turg'unlikni ta'minlashga qodir bo'lib, o'z-o'zini tartibga solish tendensiyasi ularga xosdir. Shu sababli bu ta'limot a'zolari davlatning iqtisodiyotni, savdoning har qanday cheklovlariga doimo qarshi bo'ldilar.

Klassik iqtisodiyotning poydevori qiymatning mehnat nazariyasi asosiga qurilgan. Bu ta'limot daromadlarni taqsimlash nazariyasiga ham asos deb qaralgan. Bu maktab birinchi marta o'sha davrdagi ilg'or burjua jamiyatining sifsiy tuzilishini to'g'ri yoritib berdi, kapitalistlar va yer egalari daromad manbalari yollanma ishchilarni ekspluatatsiya qilish ekanligi ochib berildi, ammo qo'shimcha qiymatning asl tabiatini aniqlanmadи.

Ijtimoiy kapitalning takror ishlab chiqarish mexanizmini tadqiq qilishda muhim yutuqlar qo'lga kiritildi. Ammo doimiy kapitalning yalpi mahsulot qiymati elementi ekanligi aniqlab berilmadi. Klassiklar asosiy iqtisodiy muammo sifatida kapital jamg'arilishini ilgari surdilar va u bilan bog'liq bo'lgan ziddiyatlarini yetarlicha baholay olmadilar, umumiy ortiqcha ishlab chiqarish inqirozlari bo'lishi mumkinligini inkor etdilar.

Bu olimlar, odatda, siyosiy iqtisod asoschilari deb ko'rsatiladi. Ammo bu ibora Monkreten tomonidan birinchi bor qo'llanilgan (1615) va siyosiy iqtisodga Kantilonning «Esse» asarida, F.Kene maqolalarida, Tyurgoning kitoblarida asos solinganini aytib o'tish kerak.

A.Smit o‘z asarida iqtisodiyot fanini har tomonlama to‘la tahlil etib, hozirgi davr tili bilan aytganda, bozor iqtisodiyoti va uning amal qilish tamoyillarini to‘g‘ri ko‘rsatib berdi. Ular ta’limotining mohiyati qisqacha quyidagilardan iborat:

1. Tanlov va tadbirkorlik erkinligi.
2. Baholarning erkinligi (ya‘ni bahoning bozorda talab va taklif asosida shakllanishi).
3. Erkin raqobat.
4. Mulk shakllarining turli-tumanligi va ularning qonun oldida baravarligi (ya‘ni davlat, jumoa, xususiy va boshqa mulklarning hayotiyligi); xususiy mulk afzalligi.
5. Davlatning imkonи boricha iqtisodiyot masalalariga kam aralashuvi (yoki iqtisodiyotning «*lassez faire*» tamoyili bo‘yicha o‘z yo‘liga ko‘ra rivoji) va boshqalar.

Bu tamoyilur nazariy jihatdan buyuk kashfiyat edi va muhimmi yangi jamiyatning iqtisodiy siyosatida keng qo‘llanilib, samarali natijalar berdi. Bu nazariy asos hozirgi davrda ham o‘z kuchini yo‘qotgan emas. Keyingi rivojlanish davrida bu tamoyillarning evolutsiyasini ko‘ramiz. Ayniqsa, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi masalasi bo‘yicha turlicha fikrlar bor. Sotsialistik rivojlanish g‘oyalaringin mualliflari sotsialistik deb atalgan davlat klassik iqtisodiy maktabning bir qancha muhim tamoyillarini inkor etib (masalan, xususiy mulkni bekor qilish, davlat-umumxalq mulkining hissasini oshirish, qat‘iy rejalashtirish, qat‘iy baholar o‘rnatish, iqtisodiyotda erkinlikni bo‘g‘ish, davlat tomonidan ma’muriy-buyruqbozlik usullarining keng qo‘llanilishi va boshqalar), katta xatoga yo‘l qo‘yanliklari tarixda isbotlandi.

Smitning bosh asari **«Mustaqillik deklaratsiyasi»** 1776-yilda AQSHda e’lon qilindi. «Deklaratsiya» «Hayot, Erkinlik va Baxtga intilish» bilan bog‘liq jamiyatni barpo qilishga chaqirsa, «Xalqlar boyligi...» asari bu jamiyat qanday ishlashi va yashashi kerakligini tushuntirib berdi, demak, ikkala hujjat ham bir-birini mantiqan to‘ldirdi.

Klassik maktab vakillari erkin bozor munosabatlariiga katta ishonch bildirgan holda jamiyatning institutsional tarkibini takomillashtirishga ham alohida ahamiyat bergenlar.

Smit erkin bozorning ijobiy tomonlari bilan birga uning ayrim nuqsonlarini ham ko‘rsatib berdi. «Ko‘rinmas qo‘l» har doim ham

bekam-u ko'st ishlay olmaydi, masalan, bozor tizimi («Ko'rinnmas qo'l») jamiyatga umumiy holda sotiladigan va sotib olinishi mumkin bo'lman milliy xavfsizlik yoki qonuniylik, jamiyat osoyishtaligi va barqarorligini ta'minlab berishga qodir emas. Bunday imkoniyatlar davlat tomonidan yaratilishi va berilishi kerak. Undan tashqari, bozor jamiyatning axloqiy va estetik mezonlariga har doim ham javob beravermaydi, u ishlab chiqarish uchun foydali va qulay, ammo iste'molchi uchun ziyon keltiradigan tovarlarni taklif etishi mumkin. Shu bilan birga, bozor tizimi jamiyatning talab-ehtiyojlarini doimo qondiruvchi buyuk vosita ekanligi ochib berildi. Bu tizim o'zini o'zi tartibga soluvchi mexanizmga ega. Bu yerda buyuk bir paradoks, ya'ni jumboqqa duch kelamiz. Bozor iqtisodiy erkinlikning eng olyi timsoli bo'lgani holda iqtisodiyotning eng qat'iy nazoratchisi hamdir. Masalan, qayerdadir baho, ish haqi yoki foyda ma'lum darajadan oshib ketsa, raqobat kuchi ularni siqib chiqaradi.

«**Tabiiy erkinlik**». Bozor tabiiy rivojlanish asosida tobora o'sib boradi, bunda xalqning farovonligi doimo yuksaladi. Bu o'sishning asosi nima? Buning bosh sababi rag'batlantiruvchi kuchlardir, har kimning o'z sharoitini yaxshilashga intilishi, foyda ketidan quvish, «pul qilish istagi» pirovard natijada har bir ishlab chiqaruvchi o'z kapitalini, korxona boyligini doimo oshirishga intiladi, bu esa har bir ishlab chiqaruvchini ko'proq foyda olish ilinjida tovarlarni sotish imkoniyatlarini izlashga majbur qiladi.

Hozirgi davrda klassik maktab asosida neoklassik (yangi klassik) qarashlar mavjud bo'lib, o'sha davrdagi asosiy g'oyalalar saqlangan holda ularning ayrim tomonlari zamonga mos ravishda to'ldiriladi.

Qisqacha xulosalar

XVIII asr oxiri va XIX asr o'rtalarida klassik iqtisodiy maktabga muqobil iqtisodiy g'oyalalar paydo bo'la boshladgi va u hozirgacha davom etmoqda. Bunday bo'lishining birinchi sababi dialektik rivojlanish bo'lsa, ikkinchidan klassik maktab g'oyalari ham, ya'ni bozor iqtisodiyoti tamoyillarining bekam-u ko'st emasligida, shart-sharoitga qarab u yoki bu tamoyilning amaliy ta'siri har xil bo'lishidadir.

Ayniqsa, sanoat to'ntarilishi tufayli (sanoat o'sdi, ishlab chiqarish rivoj topdi, mamlakat boyligi ortdi, ammo barchaning iqtisodiy

farovonligi har xil bo'lib, sinfiy differensiasiya kuchaydi) kutilgan natijalarga erishilmadi, iqtisodiy inqirozlar, noroziliklar kuchaydi. Shular tufayli klassik maktabni taftish qilish, iqtisodiyotning ayrim unsurlarining olib, jarayonlarni tushuntirishga intilish boshlandi, sinflarning manfaatlarini ko'r-ko'rona himoya qilish (apologetika) ro'y berdi. Iqtisodiyotga yangi tushunchalar kiritildi, qiymat qimmat, foydalilik bilan almashtiriladi, qiymatning mehnat nazariyasiga hujum boshlandi.

Shu davrdagi iqtisodchilarda birinchi navbatda sinflar o'rtasidagi iqtisodiy mulkiy munosabatlar katta qiziqish uygotdi. Ular turli yo'llar bilan sinflar, mehnat va kapital o'rtasida hech qanday antagonizm yo'q, «iqtisodiy uyg'unlik» mavjud degan g'oyani isbotlashga urindilar. Oqibatda har qanday ekspluatatsiya inkor etildi, ish soatlarining uzunligi «isbotlab berildi» («so'nggi soat» nazariyasi). Kapitalist o'z kapitali bilan ishlab chiqarishga yo'l ochadi va qonuniy foydasini, ishchi - ish haqini, yer egasi - rentani to'g'ri oladi, ular o'rtasida hech qanday kelishmovchilik, anglashilmovchilik yo'q degan g'oya ilgari suriladi. «Manfaatlar uyg'unligi», «Kompensasiya nazariyasi» va boshqalar shular jumlasiga kiradi.

Ayrim olimlar bo'layotgan qiyinchiliklarga aholining o'zi aybdor, chunki uning ko'payishi tez, tirikchilik vositalari esa sekin o'sishi tabiiy bir hol, deydilar (Maltusning «Nufus nazariyasi»). Bu fikr boshqa g'oya - «tuproq unumdarligining pasayib borishi» nazariyasiga olib keldi. O'z g'oyalariiga teskari «uchinchi shaxslar» nazariyasi vujudga keldi, ishlab chiqarmaydigan sinflar ravnaq asosi qilib ko'rsatildi.

Ko'pchilik olimlar proteksionizmni inkor etib, fritrederlikni taklif etishsa (Sey, Mill, Bastia), ba'zan unga butunlay teskari fikr ham bildiriladi (Keri). Kapitalizmning bekam-u ko'stligi haqida ko'p qayg'uriladi, vaholanki, bu illatlar shundoqqina ko'rinish turibdi.

Shu davrda iqtisodiyotda matematik usullar ishlab chiqildi (Kurno, Tyunen), bu usullar, ayniqsa, hozirgi davr iqtisodiyotida yetakchi rol o'ynamoqda.

Asosiy tushuncha va iboralar

J.S. Mill, ishlab chiqarish qonunlari va taqsimot qonunlari, minimum ish haqi va fiziologik minimum, Kurno, Tyunen, iqtisodiyot va matematik, talabning elastikligi.

Nazorat va mulohaza uchun savollar

1. J.Millning iqtisodiy qarashlari qanday?
2. J.Mill ishlab chiqarish qonunlari bilan taqsimot qonunlarini qanday baholaydi?
3. Minimum ish haqi va fiziologik minimum nima?
4. J.R. Mak-Kulloxning asosiy g'oyalariga tushuncha bering.
5. Iqtisodiyotga matematik uslub kim tomonidan kiritildi? «Talabning elastikligi» nimani bildiradi? Baho va mahsulot miqdori o'rtasida qanday bog'lanish bor?
6. Tyunenning iqtisodiy modelini izohlab bering. Samarali va samarasiz xo'jalik qanday aniqlanadi? Klassik maktab va hozirgi zamон.

UCHINCHI QISM

KLASSIK MAKTABGA MUQOBIL TA'LIMOTLAR

XI b o b. KLASSIK IQTISODIY MAKTABGA MUQOBIL IQTISODIY G'oyalarning VUJUDGA KELISHI

11.1. XIX asrning birinchi yarmida islohotchilik ilmiy konsepsiyanining shakllanishi

XVIII-XIX asr boshlaridagi sanoat to'ntarishi katta ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga olib kelish bilan birga, A. Smit ta'lomitini turlicha tanqid qiluvchi nazariy maktablarni shakllanishiga yetarli zamin tayyorladi. Bu nazariy maktablar umuman klassik iqtisodiy maktabga muxolif bo'lib, uch asosiy yo'nalishda: iqtisodiy romantizm, xayoliy sotsializm, nemis tarixiy maktabi (ijtimoiy-tarixiy) yo'nalishida rivojlandi. Bularning asosiy vakillari klassik iqtisodiy maktabga qarshi chiqish bilan birga ulardan o'zgacha jamiyatning nisbatan ideal ijtimoiy-iqtisodiy tuzilish modelini taklif qildilar.

Darslikning shu va keyingi boblarida klassik iqtisodiy maktabga qarama-qarshi g'oyalarning ba'zilari bilan yaqindan tanishamiz.

Kapitalistik rivojlanishdan orqada qolgan va mayda tovar ishlab chiqarish ustun bo'lgan sharoitda sanoat to'ntarishi davriga kirayotgan mamlakatlarda bu tuzumni tanqid qilib, unga mayda ishlab chiqaruvchilar manfaatini bergen iqtisodchilarni paydo bo'lishi tabiiy bir hol edi. Mayda ishlab chiqaruvchilar nazariyotchilar klassik iqtisodiy maktabga ham, xayoliy-sotsialistlarga ham qarshi turuvchi iqtisodiy ta'lomitni ilgari surishga intildilar. Ular kapitalistik jamiyatning mayda tovar ishlab chiqarishni siqib chiqarish, yollanma mehnatni kengaytirish bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina belgilarini tanqid qilib, xususiy mulkchilikni, sohibkorlik erkinligini yoqlab chiqadilar.

XIX asrning birinchi choragida iqtisodiy ta'lomitlarda, shuningdek, ilk bor ishchilar sinfining ahvoli asosiy muammo qilib ajratib ko'rsatila

boshlandi. Chunki aynan mana shu davrdan boshlab sanoat rasman shakllandi va ularga xos muammolar ko'zga tashlana boshlagan edi.

Mayda ishlab chiqarish nazariyotchilari «iqtisodiy romantizm»ga xos islohotchilik harakatlarini targ'ib qilib, o'z rivojida bir necha bosqichni bosib o'tdi. Agar birinchi bosqich vakili hali kapitalizmdan voz kechishga uni cheklab qo'yishga intilgan bo'lsa, ikkinchi bosqich maktabi vakili esa kapitalizmni isloh qilish loyihasini ilgari surib, «kichik kapitalizm»ni saqlab qolish tarafdori edi. Markscha-leninchta ta'limotdan farq qiliuvchi, bu maktab vakillari ijodini, ta'limotlarini o'rganish nihoyatda zarurdir. Chunki ilmiy maktab vakillari o'z davrlarida klassik iqtisodiy maktab vakillarini tanqid qilib, xayoliy sotsialistlar g'oyalariga qarshi kurashdilar, marksizm ta'limoti ommalashuviga qarshilik qilishga urindilar.

Ushbu bobda shu maktabning asosiy vakillari S.Sismondi, P.Prudon, K.Rodbertusning iqtisodiy ta'limotlariga xos xususiyatlar, ularning uslubiyati bilan yaqindan tanishamiz. Bu olimlar qoldirgan ilmiy meros uzoq davr davomida turli mamlakatlardagi iqtisodiy qarashlarning shakllanishiga katta ta'sir o'tkazib keldi.

11.2. S.Sismondingin iqtisodiy qarashlari, uning mayda ishlab chiqarish nazariyasi

Jan Sharl Leonardi Simond Leonard de Sismondi (1773-1842) Shveysariyada tug'ilgan, fransuz klassik siyosiy iqtisodini nihoyasiga yetkazuvchi va ayni vaqtda mayda siyosiy iqtisodning asoschilaridan biridir. U mo'tabar protestant pastor oilasida tug'ilib, voyaga yetdi. Protestantlar kollegiyasini bitirib chiqdi, Jeneva universitetida o'qidi. Siyosat bilan ko'p shug'ullanmadni, Fransiya ma'naviy va siyosiy fanlar akademiyasining a'zosi etib saylandi.

S.Sismondi iqtisod va tarix fanlari sohasida katta ishlarni amalga oshirib, boy ilmiy-adabiy meros qoldirdi. «Toskani qishloq xo'jaligining ko'rinishi» (1801), «Savdo boyligi yoki siyosiy iqtisod prinsiplari va ularning savdo qonunchiligidagi qo'llanilishi to'g'risida» (1803), «Italiya respublikalarining tarixi» (1807), 1818-yilda esa «Edinburg ensiklopediyasi» uchun «Siyosiy iqtisod» maqolasini tayyorladi. «Siyosiy iqtisodning yangi ibtidolari yoki boylikning aholi nufusiga munosabatlari to'g'risida» (1819) kitobining nashr qilinishi uning shuhratini yanada oshirdi. Keyingi yillarda «Siyosiy iqtisoddan etudlar» (1837) va fundamental tarixiy asarlar hisoblangan «Fransuzlar tarixi» (31 tom), «Rim

imperiyasi qulashining tarixi», «Italiya ozodligi tiklanishining tarixi» va boshqa asarlari nasr qilindi.

Sh.Sismondi g'oyalarining shakllanishi, sanoat to'ntarishi davri bilan, shuningdek, mayda ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy kuchsizlanishi bilan bog'liq bo'lib, bu, o'z navbatida, kapitalizmning feodalizm ustidan, yirik mashinalashgan ishlab chiqarishning mayda ishlab chiqarish ustidan g'alabasini anglatar edi.

S.Sismondi ijodini o'rganish metodini ayrim xususiyatlarini klassik iqtisodiy maktab vakillari bilan tenglashtirishimiz mumkin. Aynan o'ziga xos uslubiyat iqtisodiyot faniga quyidagi yangiliklarni olib kirdi.

Birinchidan, klassiklardan farq qilib, hukumatlar boylikni taqsimlash va tartibga solishni boshqarishni o'z qo'llariga olishlariga xayrixohlik bildiradi. Unda aynan hukumat ishlab chiqarishni kengaytirmasdan «uchinchchi shaxslar» manfaatlariaga mos yo'l ochib beradi.

Ikkinchida, siyosiy iqtisodda ilmiy abstraksiya usulini qabul qilmaslik. S.Sismondi, A.Smit izdoshlarini abstraksiyaga berilib, insonlarni umuman unutganliklarini, natijada fan ularni izlanishlarida turli amaliyotlardan ajralib qoldi deb xulosa qiladi.

Uchinchidan, A.Smitning «iqtisodiy inson» doktrinasini inkor etish. S.Sismondi klassiklarning har bir alohida olingan inson manfaatlari umumiyl manfaatlarni shakllanishiga sababchi degan fikrga umuman qo'shilmaydi. Uning fikricha, har qaysi inson o'zining shaxsiy manfaatlarni o'zgalar hisobiga amalgalash bilan mavjud turli imkoniyatlarni ishga solar ekan, bu yerda har bir sanoatchining erishgan yutug'i, o'z navbatida, o'zga sanoatchini xonavayron bo'lishiga olib keladi.

To'rtinchidan, ilmiy texnika rivojlanishining jadallahuvi jamiyat ravnaqidagi obyektiv zaruriyatligini tan olmaslik. Quyidagi uslubiy holatni izohlab, S.Sismondi shunday deydi: «garchand mashinalar ixtirosi insonlar uchun katta qulaylik bo'lsa-da, ammo ular yaratgan foydaniadolatsiz taqsimlanishi, kambag'allar uchun ofat keltiradi».

Beshinchidan, iqtisodiy tahlilda funksional usulni qo'llash maqsadga muvosifligini e'tirof etish. Bu holat siyosiy iqtisodda tobora yangi tus olayotgan sabab va oqibatni tan olish demakdir.

Oltinchidan, iqtisodiy tahlilda iqtisodiy omillar bilan birga no-iqtisodiy omillarning ham o'rinn olishi. Din, tarbiya, vijdoniylik va boshqalar insonlarning bir maqsadga yaqinlashtiruvchi omillar deb belgilanadi.

S.Sismondi mayda ishlab chiqarish pozitsiyalarida turib, kapitalizmni tanqid qilib, mayda tovar ishlab chiqarishga qaytishni orzu qildi.

Uning qarashlari rivojida ikki bosqich ko‘zga tashlanadi. Avval boshda S.Sismondi A.Smit ta’limotining, klassik siyosiy iqtisodning tarafdoi bo‘lib chiqdi. U o‘zining dastlabki asarlaridan biri - «**Savdo boyligi to‘g‘risida...**» kitobida (1803) sanoat to‘ntarilishining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va imkoniyatlarini yuksak baholadi. S.Sismondi Angliyaga ikkinchi marta borib kelganidan keyin endi kapitalizmni, shuningdek, klassik maktabni qattiq tanqid qila boshladи.

«Siyosiy iqtisodning yangi ibtidolari yoki boylikning aholi nufusiga munosabatlari» (1819) kitobi uning shuhuratini yanada oshirdi. S.Sismondi odamlar baxt va tenglikni ta’minlash uchun birlashdilar, degan fikrga asoslanadi. U mayda ishlab chiqarishni ko‘klarga ko‘tarib, maqtaydi, mehnatkashlarning manfaatlarini himoya qilishga intiladi, hammaga hamdardlik bildiradi, fabrikaga oid qonunlarni tabriklaydi, bolalar mehnatining ekspluatatsiya qilinishini qoralaydi. Kapitalizmni ijtimoiy adolatdan mahrum bo‘lgan jamiyat deb ma’lum qiladi. S.Sismondi iqtisodiy qarashlarining sistemasida daromad to‘g‘risidagi ta’limot alohida o‘rin olishini kitob nomining o‘ziyoq ko‘rsatib turibdi. U taqsimotning ko‘pdan-ko‘p muammolari to‘g‘risida fikr bildiradi. Kapitalni, krizislarni, mahsulotni realizatsiya qilish masalalarini tadqiq etadi, jamiyatni o‘zgartirishning mayda burjuacha dasturini ilgari suradi.

A.Smitning ta’limotida mehnat qiymat va boylikning birdan-bir manbayi deb tahlil qilingan edi. Zarur ish vaqtini tushunchasi birinchi bor joriy etildi. S.Sismondi pul ichki qiymatga ega bo‘lgan mehnat mahsulotidir va shu sababli qiymatning umumiyligi mezoni tarzida namoyon bo‘ladi, degan to‘g‘ri xulosaga keldi. Pulning qadrsizlanishi qog‘oz pullar muomalaga chiqarilishi haddan oshib ketishining natijasi, deb talqin etiladi. Ammo u pulning vujudga kelishi jarayonini, uning vazifasini tadqiq etmaydi. S.Sismondi iste’mol qiymat o‘rtasidagi ziddiyatni ko‘ra bilgan bo‘lsa ham, ammo uning mohiyatini tushunmaydi. U qiymatdan chetga chiqishni qiymat qonunining buzilishi deb hisoblaydi. S.Sismondinga ta’biricha, ijtimoiy fan ikki qismidan: oliy siyosat va siyosiy iqtisoddan iborat. Siyosat davlat tartibining qanday vujudga kelishini o‘rgatsa, fuqarolarni diyonat va din ruhida tarbiyalasa, siyosiy iqtisod xo‘jalikni qanday boshqarishni,

ijtimoiy tartibni saqlashni hukumatga tavsya qilishi kerak. Umuman, siyosiy iqtisod ma'naviy fan bo'lib, u odamlarning his-tuyg'ulari, ehtiyojlari va ehtiroslarini o'rganishi kerak. S.Sismondining fikricha, «odamlarning moddiy farovonligi, inson tabiat» siyosiy iqtisod predmeti bo'lishi kerak, bu esa davlatga bog'liq. S.Sismondi siyosiy iqtisod predmetini davlatning iqtisodiy siyosati bilan ayni bir narsa deb bildi, uni sinflardan ustun turadigan fan deb talqin etdi. Ishlab chiqarish munosabatlarini, iqtisodiy qonunlarni bilish zarurligini inkor qildi. U insonning fe'l-atvorini birinchi o'ringa qo'ydi.

S.Sismondi uslubiyatiga 1. ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni subyektiv-idealistik talqin etish; 2. ilmiy abstraksiya usulining yo'qligi; 3. tarixdan tashqari yondashuv; 4. ayrboshlash konsepsiysi xosdir. Mayda burjua nazariyotchisi bo'lgan S.Sismondi iqtisodiy qonunlarning obyektiv xarakterini tan olmadi. U kapitalistik iqtisodiyotning notejis rivojlanishini haqli ravishda ko'rsatgan bo'lsa ham, bu narsa iqtisodiy qonunlar amal qilishining o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi ekanligini ko'ra bilmadi. U o'zining rahmdillik bilan (sentimental) qilgan tanqidini ijtimoiy fanning alohida usuli darajasiga ko'tarishga intildi. S.Sismondi insonni unutib, abstraksiyaga berilgan A.Smit va uning tarafdarlarini qattiq tanqid qildi. U kapitalizm ko'p mamlakatlarda amal qila boshlagan bo'lishiga qaramay, kapitalistik rivojlanishdan voz kechish mumkinligini asoslamoqchi bo'ldi. U iste'mol ishlab chiqarishdan ustun degan fikrga asoslandi. Butun iste'molni shaxsiy iste'moldan iborat deb bildi.

S.Sismondi kapitalizmni antagonistik jamiyat deb bildi va shu bilan klassik iqtisodiy maktabning namoyandalaridan ilgarilab ketdi. U kapitalizmning o'ziga xos xususiyatini – boylikning oz sonli kishilar qo'lida to'planishi va ko'pchilik mehnatkash aholining chor-nochor kun kechirishini, jamiyat bilan xususiy sohibkorning manfaatlari bir-biriga mos emasligini, qishloq xo'jaligining savdodan va sanoatdan orqada qolayotganini ko'rsatti. S.Sismondi burjua boyligining ko'payishini bosh vazifa va iqtisodiy taraqqiyot mezoni deb hisoblashdan voz kechdi, «kapitalizmning ziddiyatlari» masalasini birinchi bo'lib maydonga tashladi va tahlilni yanada davom ettirish vazifasini qo'ydi.

Klassik maktabga qarama-qarshi o'laroq mayda tovar ishlab chiqaruvchilarning xonavayron bo'layotganini, «ortiqcha» aholi paydo bo'layotganini, mashinalar ishchilarni siqib chiqarayotganini ko'rsatti, biroq kapitalizm ziddiyatlarining asl sababini payqay olmadi. S.Sismondi

klassik maktabning krizislar bo'lishi mumkin emas va kapitalizm ziddiyatlar nimaligini bilmaydi degan mulohazalarini tanqid qildi. Uning tarixiy xizmati mana shundan iborat.

Shu bilan birga, S.Sismondi kapitalizmning ilg'or mazmunini, uning feodalizmdan ustunligini tushunmadni. U kapitalizmni romantik tarzda g'ayri ilmiy asosda tanqid qildi, kapitalistik tuzumning imkoniyatlari mayda burjuaziya nuqtayi nazaridan baho berdi.

U kapitalizmni tartibga solish, mayda hunarmandlarning sex tuzumi tarzida orqaga qaytish ehtimoli bor, deganlarida ham mayda burjuacha romantizm namoyon bo'ldi. S.Sismondi revolutsiyaga qarshi, u kapitalizmni isloq qilish, uni tiyib turish tarafdoi.

Milliy daromad va kapital S.Sismondining iqtisodiy qarashlari sistemasida yetakchi muammodir. U o'zining «Siyosiy iqtisodning yangi ibtidolari» asarining dastlabki uch bobini ayni shu muammoga bag'ishlaydi. A.Smitdan keyin S.Sismondi ham daromadlarning uch turini: foya, renta va ish haqini alohida ajratib ko'rsatadi, dastlabki ikki turni umumlashtirib, ustama qiymat tushunchasidan foydalanadi, ularni ichki mahsulotdan chegirma deb hisoblaydi. Biroq S.Sismondi shu tariqa qo'shimcha qiymat nazariyasini maydonga tashladi deb aytish uchun asos yo'q. U ish haqi ishchi mahsulotining jami qiymatiga teng bo'lishi kerak deb aytish bilan birga, shu zahotiyiq kapitalistning kapital yaratish sohasidagi «dastlabki mehnati» uchun unga odilona mukofot deb, rentani esa yerning ehsoni deb e'lon qiladi. A.Smitning iqtisodiy taraqqiyot davomida ish haqi oshishi xususidagi umidiga S.Sismondining qo'shilmaganligi uning ijobjiy jihatidir.

S.Sismondi yakka tartibdagi daromadlardan «boyliklardan olingan foya» va ishchi ish haqining yig'indisi bo'lmish milliy daromad muammosiga o'tadi. Milliy daromad bilan yalpi mahsulot aynan bir narsa deb bilganligi uning asosiy nazariy xatosidir. Agar u birlamchi mahsulotda A.Smitning izidan borib uch qismidan: xom materialning va mehnat qurollarining o'rni qoplanishini, ish haqi va foydani ajratgan bo'lsa, yig'indi mahsulotdan faqat so'nggi ikki qismni ajratadi. Doimiy qism yo'q bo'lib ketadi.

Kapital deganda S.Sismondi ishlab chiqarish zaxiralarini (ishlab chiqarish vositalarini) tushunadi. U kapital jamg'arilishini tejamkorlik bilan bog'laydi. S.Sismondi asosiy mashinalar, ish qurollari va aylanmalari, urug'lik, xomashyo, ish haqi kapitalini bir-biridan ajratib,

A.Smitning hamma xato va yutuqlarini takrorlaydi. U kapitalni doimiy va o'zgaruvchi kapitalga ajrata bilmadi. Oxir-oqibatda S.Sismondi kapitalning milliy daromaddan farqini izohlay olmadi va buning usti-ga A.Smitning shu ikkisi o'rtasidagi tafovutni nazariy jihatdan isbotlash yo'lidagi intilishlarini pisand qilmadi.

S.Sismondi kapitalistik aholi nufusi jarayonini tahlil etishga harakat qildi. U iqtisod fanida birinchilardan bo'lib foydani ko'paytirish manfaatlari yo'lida mashinalarni joriy etish ishsizlar vujudga kelishiga olib boradi, ishsizlarning mavjudligi esa ishlab turganlarning ahvolini yomonlashtiradi degan faktni tan oldi. Ammo S.Sismondi ortiqcha aholini kapitalistik fabrika mexanizmining zarur tarkibiy qismi deb bilmadi. S.Sismondi kapitalistik fabrika nochor ishchini kelajakka boqqanda kelgusini ko'rmaslikka o'rgatganligini, undagi ahloqiy tuyg'ularni siyqalashtirib yuborganligini ishsizlar paydo bo'lishining sabablaridan biri deb hisobladi. U din ishchilarining «nojo'ya nikoh»larini qoralamayotganligini aytib, dingga hujum qildi.

«Uchinchi shaxslar» nazariyasi S.Sismondi nazariy qarashlarida asosiy o'rinni tutadi. U ishlab chiqarish va ijtimoiy daromad hajmlarining birligini ijtimoiy mahsulotni to'la-to'kis realizatsiya qilishning asosiy sharti deb biladi. Bunday tenglikka avtomatik tarzda o'z-o'zidan erishilmaydi deb hisoblaydi. Aksincha, yirik sanoatning rivojlanishi ishlab chiqarishning muqarrar ravishda iste'moldan o'zib ketishiga olib boradi. Kapitalizm qiymat va «ustarma qiymat»ni realizatsiya qilish muammosini keltirib chiqaradi, yalpi ortiqcha ishlab chiqarish krizisi kapitalizmga xos xususiyatdir. S.Sismondining o'yplashicha, ichki kapitalistik bozor qisqarib boradi, chunki ishchilarining daromadlari kamayadi. Kapitalistlar o'z daromadining bir qismini iste'mol qilmaydi, balki jamg'aradi, mayda ishlab chiqaruvchilar xonavayron bo'ladi va ularning iste'moli kamayadi. Vaziyatni tashqi bozorlar yengillashtirishi mumkin. Ammo bunday bozorlarni qidirish tobora qiyinlashadi. Kapitalizm maqbul va mumkin ham emas.

S.Sismondi «uchinchi shaxslar», ya'ni mayda ishlab chiqaruvchilarga madad berishga umid bog'laydi. U burjua mamlakatlarining hukumatlariga murojaat etib: «Kapitalistik rivojlanishni to'xtatinglar», - dedi. Jamiyat mayda ishlab chiqarishga qaytgan taqdirdagina mo'lko'lchilik boshlanar emish. S.Sismondining tutgan o'rni – takror

ishlab chiqarish asosiy qonunlarini tushunmaslik natijasidir. Ishlab chiqarish bilan iste'mol o'rtasidagi ziddiyatni, takror ishlab chiqarish ziddiyatini, shaxsiy iste'molning takror ishlab chiqarish jarayonlari uchun muhimligini tan olganligi S.Sismondi o'rtaga tashlagan konsepsiyaning ijobjiy jihatidir.

S.Sismondi iqtisodiy krizisni daromadlar o'rtasidagi nomuvofiqlik deb tushunadi, ayrim olimlar chinakam ilmiy nazariya — kapitalizm sharoitida ishlab chiqarish bilan iste'mol o'rtasidagi nomuvofiqlikni tan oladi, biroq unga tobe o'rinn beradi deb ta'kidlaydi. Yetarli iste'mol qilmaslik nazariyasi krizislar arafasidagi davrda ishchilarining iste'mol quvvatining oshib borishi, yetarsiz iste'mol qilish esa kapitalizmdan avval ham mavjudligi, ammo krizislar faqat kapitalizmning belgisi ekanligi va surunkali bo'lmasligi vaziyatini izohlay olmaydi. Iqtisodiy krizislarning haqiqiy sababi ishlab chiqarishning ijtimoiy xarakteri bilan iste'molning xususiy xarakteri o'rtasidagi ziddiyatdir.

S.Sismondi kapitalistik yo'ldan voz kechishni taklif qildi, kapitalizmni tartibga solishga, ishchilar bilan kapitalist o'rtasida patriarchalchilik munosabatlarni o'rnatishga, ishchilarни foydani taqsimlashda qatnashtirishga, ishsizlar va nogironlar haqida g'amxo'rlik qilishga va buning uchun maxsus fondlarni vujudga keltirishga, mayda ishlab chiqarishni saqlab qolish va qo'llab-quvvatlashga, manufakturaga bo'lgan yirik mulkchilikni ko'p sonli kapitalistlar o'rtasida taqsimlashga chaqirdi. U yollanma ishchilarni ham mulkdorlar sinfi safiga qo'shishni orzu qildi. S.Sismondi davlatning yordamiga umid qildi.

Uning ijtimoiy tadbirlar dasturi mayda burjuacha va reaksiyon xayolparastlik xarakteriga ega. S.Sismondi obyektiv tarixiy jarayonga to'sqinlik qilishga urindi. Shu sababli u reaksiyoner bo'lib qoladi, o'z mulohazalarini Fransiyada hali ham kuchli bo'lgan feodal tuzum himoyachilariga qo'l kelishini sezmadи.

XIX asr oxirlarida rus narodniklari S.Sismondining xulosalarini ko'klarga ko'tarib maqtaganliklari sababli Lenin S.Sismondining iqtisodiy qarashlarini batafsil tahlil etish zarur deb bildi. Chunki S.Sismondining xulosalarini bunday maqtash marksizmning iqtisodiy ta'limotini yoyishga xalaqit berar edi. U o'zining «Iqtisodiy romantizm ta'rifiqa doir» asarida S.Sismondining mayda burjua siyosiy iqtisodchisi ekanligini isbotladi, uning qarashlari ichki ziddiyatli va noizchilligini, klassik mакtabdan o'zib ketish yo'lida urinishlari zaifligini ko'rsatdi.

S.Sismondining iqtisodiy nazariyaninig ba'zi masalalarini o'rtaga qo'yishdagi xizmatini V. Lenin tarixiy pozitsiyalarda turib tan oladi, biroq ayni vaqtda uning qarashlarining mayda burjuacha xarakterini, metodologiyasi ilmiy emasligini, amaliy dasturining reaksiyon xarakterini ochib tashlaydi. V.Leninning iqtisodiy romantizmni obyektiv va ilmiy asoslab, tanqidiy tahlil qilganligi, iqtisodiy ta'limotlar tarixida S.Sismondi va liberal narodniklarning o'mini aniq belgilash imkonini berdi, sinfiy kurashni rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatdi.

11.3. P.J. Prudonning iqtisodiy konsepsiysi. Prudonizm

Per Jozef Prudon (1809-1865) – fransuz publisti, mayda ishlab chiqarish nazariyotchisi, kambag'al kosib oilasida tug'ilgan.

1838 yilda P.Prudon Bezanson akademiyasi tomonidan kam ta'minlangan yosh olimlarga ajratilgan uch yillik stipendiyani olib, Parija ko'chib o'tdi. Parijda u J.B. Sey, S.Sismondi, T.Maltus, K.Sen-Simon, Sh.Fure va boshqa iqtisodchi olimlar asarlari bilan yaqindan tanishdi.

1840-yilda P.Prudonning «Mulkchilik nima?» nomli mashhur asari e'lon qilindi. Ushbu asarda kapitalizm tanqidi bosh mavzu bo'lsa-da, olimning amaliy dasturi bayon qilinmagan edi. 1846-yilda P.Prudonning «Iqtisodiy ziddiyatlar tizimi yoki qashshoqlik falsafasi» nomli yana bir asari e'lon qilindi. Asarda olim kapitalizmni isloq qilishning amaliy dasturini ishlab chiqishga, siyosiy kurashning behudaligini asoslashga urindi. 1848-yilda nashrdan chiqqan «Ijtimoiy masalalarning hal etilishni» nomli yangi asarida olim inqilobiy chiqishlarni keskin qoralaydi. Xalq banklari konsepsiyasini e'lon qilib, xalqni ijtimoiy islohotlarga chorlaydi. P.Prudon siyosiy iqtisodni «aql-zakovatning abadiy qonunlari» to'g'risidagi fan deb biladi. P.Prudon va S.Sismondi nazariy qarashlarida biz juda yaqinlik va o'xshashlik hollarini uchratishimiz mumkin. Ularning uslubiyatlarda bu holat quyidagicha aks etadi:

Birinchidan, iqtisodiyotda cheksiz erkin raqobatni inkor etib, boshqarish mumkin bo'lgan raqobatni topib, tashkil etish.

Ikkinchidan, xo'jalik hayotini tahlil qilish jaranida iqtisodiy ko'rsatkich va manbalarni asosiy deb hisoblamasdan, balki mehribonlik, axloq, ijtimoiyadolat, etika va boshqa kategoriyalarni, shuningdek, tenglik va tinchlikni asosiy deb hisoblash.

Uchinchidan, ko'p yillar davomida yaratilgan ilmiy asarlarda iqtisodiy hodisalarga nemis faylasufi Gegel dialektikasi asosiy uslub qilib olinib, unga alohida e'tibor berildi.

P.Prudon o'zining mayda ishlab chiqarish manfaatlaridan kelib chiqqan islohotchilik konsepsiyasini maydonga tashlar ekan, juda ko'p masalalar xususidagi fikrlarni bayon etadi. Mehnat taqsimoti, tovarning xususiyati, ish haqi, mulkchilik, daromad va takror ishlab chiqarish kabilarni ilmiy izohlashga harakat qiladi. P.Prudon o'zining eng muhim asarlaridan biri - «Iqtisodiy ziddiyatlar tizimi....»da avvalgi mehnat taqsimotini tahlil qiladi. Mehnat taqsimoti bir tomonidan boylikning ko'payishiga imkon bersa, ikkinchi tomonidan qashshoqlikka, kam-bag'allikka olib boradi. P.Prudonning mulohazalariga qaraganda, mehnat taqsimotining naf keltiradigan xususiyatlarini saqlab qolish va zararli xususiyatlarini tugatish kerak. Metodologiya jihatidan bu o'rinda ijtimoiy jarayonlar dialektikasining ilmiy tahlilida tarixdan tashqari yondashuv sezilib turadi. Prudon tovarning xususiyatini ham mana shunday pozitsiyalardan turib «tadqiq» qiladi. Uning fikricha, qiymatning abadiy g'oyasi mayjud, bu g'oya iste'mol qiymati talab va kamchilik bilan, ayirboshlash qiymati esa taklif va mo'l-ko'lchilik bilan belgilanadi. Talab bilan taklif o'rtasidagi kurashda tovarning qiymati yoki narxi belgilanadi. Nazariy jihatdan olganda bu haddan tashqari vulgar konstruksiyadir: qiymat ayirboshlashda vujudga keladi, u obyektiv asosdan mahrum.

U ish haqining harakati qonuniyatlarini ham oddiy va g'ayriilmiy pozitsiyalardan turib bayon etadi. Prudon ishchilarning ish haqini oshirish uchun kurashiga qarshi chiqadi, chunki bu narsa narxnavoning yoppasiga ko'tarilishiga yoki muhtojlikning kuchayishiga olib borar emish.

P.Prudon yollanma ishchini ekspluatatsiya qilish mexanizmini tushuna olmaydi. U kapital bilan mahsulotni aynan bir narsa deb talqin etib, butun kapitalning harakatini uning protsent keltiradigan qismi harakatidan iborat deb talqin etadi. Ssuda kapitalning harakatini Prudon qarz beruvchi bilan qarz oluvchi o'rtasidagi bitim deb hisobladi. U mahsulotning bir qismini kapitalist o'zlashtirib olishini ishlab chiqarish chiqimlari yoniga kapitaldan foydalanganlik uchun protsent qo'shish zarurligi bilan izohlaydi. Prudonning nazariy sistemasida protsent mehnatni ekspluatatsiya qilishning asosiy shakli tarzida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, u protsent bilan yollanma ishchini

ekspluatatsiya qilish mexanizmi o'rtasidagi o'zaro aloqani tushunmaydi.

P.Prudon «*belgilangan qiymat*» nazariyasini o'zining butun iqtisodiy negizi deb hisobladi. Bunda klassik maktabdan o'zib ketish pinhona istagigina emas, shu bilan birga ijtimoiy o'zgartirishlarning yo'llarini belgilash istagi ham namoyon bo'ldi. Tovar ishlab chiqarishini Prudon insoniy ozodlikning va har bir kishi shaxsiy mustaqilligining cho'qqisi deb biladi, mayda burjua nazariyotchisi bo'lgan Prudon bozor mexanizmining ba'zi bir salbiy jihatlarini: mollarning qalashib ketishini, nomunosiblikni, xonavayron bo'lismi va shu kabilarni tan oladi. Prudon asosiy iqtisodiy ziddiyatlarni «qiymat»ning ichki ziddiyatlaridan: iste'mol va ayrboshlash qiymati g'oyalaridan iborat deb biladi. «Belgilangan yoki sun'iy» qiymat murosaga keltiruvchi timsol bo'lib ko'rindi. Bunday qiymat ayrboshlashda vujudga keladi. U tovarning ijtimoiy boylik tarkibiga bemalol kirib borishini bildiradi.

Binobarin, tovar ishlab chiqarishining hamma qiyinchiliklarini bartaraf qilish uchun har bir tovarga yo belgilangan qiymat qo'yib qo'yish yoki uning bozorda sotilishiga kafolat berish, tovar bilan pul o'rtasidagi ziddiyatni tugatish zarur. Prudon tila bilan kumushni «belgilangan» qiymatga ega bo'lgan dastlabki tovarlar deb ataydi.

P.Prudon daromad to'g'risidagi nazariyani siyosiy iqtisodda daromadning asosiy manbayi deb qabul qilingan mehnat, kapital va yerning mazmunini ko'rib chiqishdan boshlaydi. Uning fikricha, ishlab chiqarish jarayonining o'zi har uchala elementning ishga tushirilishi natijasida yuz beradi. Lekin yer yoki kapital egasi o'zi hech narsa ishlab chiqarmasdan o'z daromadini olishini va ayni vaqtida ishchi o'z mehnati natijasida hosil bo'lgan daromadining faqat kichkina bir qismini ish haqi sifatida olishniadolatsizlik deb baholaydi. P.Prudonning takror ishlab chiqarish nazariyasi uning daromadlar to'g'risidagi fikrlari asosida rivojlantiriladi.

Olimning fikricha, takror ishlab chiqarish jarayoni hamjamiyatdagi ishlab chiqarish va iste'molning muvozanati asosida bo'ladi. Lekin amaliyotda mulkchilarining ishlamay qo'yanligi bu prinsipning J.B. Sey ko'rsatib o'tgan «iqtisodiy qonunni» ham buzilishi olib kelmoqda.

P. Prudon ijtimoiy masalalarni hal qilishi zarur bo'lgan kapitalizmni isloh qilish loyihibarini o'zining ko'pgina asarlarida e'lon qiladi. Ushbu asarlarda ijtimoiy adolat konsepsiyasini asoslash bilan birga inqilobiy

chiqishlar haqidagi har qanday fikrni inkor etadi. Olimning islohotchilik g'oyalarning ayrimlari S.Sismondi qarashlariga o'xshash bo'lib ular quyidagilarda o'z aksini topdi:

- «uchinchi shaxslar» ya'ni dehqonlar, hunarmandlar va mayda kustar ishlab chiqaruvchilarining jamiyatdagi o'rniga hayrixohlik bildirish;

- «mayda mulkchilik va mayda ishlab chiqarish»ni iqtisodiyotdagi yetakchilik o'rmini e'tirof etish bilan ularning shart-sharoitlari, ta'limotlarida to'liq tenglikka erishish;

- ijtimoiy adolat tamoyillariga mos ravishda jamiyat manfaatlardan kelib chiqib, ishlab chiqarish ishtirokchilariga teng daromad berish;

- kapital va daromadlar bir kishi qo'li ostida va mehnatni ekspluatatsiya qilishga yo'l qo'ymaslik. Bundan tashqari, faqat P.Pudson islohotchiligiga xos quyidagi g'oyalarni ko'rsatishimiz mumkin:

- muomalada pulning harakatini bekor qilib, uning o'rniga ishchi pullari banklarni muomalaga kiritish;

- foizni yo'q qilish hisobiga foizsiz kreditlarni tashkil qilish;

- xalq banklarini tashkil etish;

- islohotlarni amalga oshirish jarayonining xotimasi sifatida hukumatni bekor qilish. Islohotchilik konsepsiyanida P.Pudson xalq bankiga katta umid bog'laydi. Uning banki sotsialist-rikardochilar taklif qilgan banklardan 3 xil o'ziga xoslik bilan farq qilar edi:

Birinchidan, undagi metall pullar dastlabki bonlar chiqarilishi sababli, pulga va tijorat voqealariga almashtirish yo'li bilan sekin-asta muomaladan chiqarilar edi.

Ikkinchidan, foizni birdaniga yo'q qilmasdan, balki yuqori qayd qilingan bosqichni amalga oshirishni 2%dan eng kam daraja-0,25% tushirish haqda sotilmagan tovarlarga oldindan ssuda berilishi.

Uchinchidan, xalq banki kapital bilan yuzaga keladi.

P.Pudsonning hukumatni bekor qilish g'oyasi islohotlarni amalga oshirish davrida sinflarning umumlashuvi va yagona mehnatkashlar, o'z mehnatini haqiqiy haqini oladigan sinfini yuzaga kelishi, o'z navbatida, hukumat faoliyatini keraksiz qilib qo'yadi (anarkizm g'oyasi).

Prudon kapitalizmni isloq qilish loyihasida mayda tovar ishlab chiqaruvchining o'z moli sotilishiga kafolat olish, mayda do'kondorning foizsiz kreditning olish to'g'risidagi asriy orzusini, burjua ziyolisining kapitalizm sharoitida mutlaq mehnat erkinligi, qiymat qonuni asosida

tenglik imkoniyati to'g'risidagi xomxayollarini ifodalagan edi. Prudonning «sotsializm»i tovar bilan pul o'rtaSIDagi aloqani soxtalashtirishga asoslangan. Shu loyihaning muallifi xususiy ishlab chiqarishni tovarni saqlab qolishga, ammo pulni, ayrboshlashni, ayrboshlash qiymatini yo'q qilib tashlashga intilgan edi.

Prudon va prudonizm o'z davrida ishchilar harakatiga jiddiy xatar solganligi sababli proletar ta'lomitining asoschilari Prudonning mayda ishlab chiqarish islohotchiligiga qarshi murosasiz kurashdilar. Uni proletariatga dushman va revolutsion harakatga xalaqit beruvchi bir oqim deb fosh qildilar. Bu kurashni K.Marks XIX asrning 40-yilla i o'rtalaridayoq «**Falsafa qashshoqligi**» asarini tayyorlashdan boshladi va marksizm rivojining keyingi davrlarida ham shu kurash davom etdi.

Prudon falsafada Gegeldan, siyosiy iqtisodda esa A.Smit bilan D.Rikardodan yuqori ko'tarila olmadi. Uning ijtimoiy dasturlarida maskuraviy yo'nalishni fosh qilishda alohida vazifalar kelib chiqdi. Prudonizm mayda ishlab chiqarish muhitiga va uning puch xayollariga tayanib, uzlksiz ravishda o'zgarib boruvchi sharoitlarga moslashaverdi.

11.4. K.Rodbertusning iqtisodiy g'oyalari

Karl Iogann Rodbertus-Yagesov (1805-1875) Germaniyada, Shimoliy Greyfsvoldda 1805-yilda tug'ildi. Gettingem va Berlin universitetlarida huquqdan tahsil olib, shu mutaxassislik bo'yicha ma'lum vaqt ishladi. Burjua demokratik revolutsiyasi yillarda parlament a'zosi, keyinchalik vazir (ministr) lavozimlarida faoliyat ko'rsatdi. K.Rodbertus Germaniya mayda burjua iqtisodiy ta'lomi vakili bo'lib, Sen-Simon va sotsialist-rikardochilar g'oyalari ta'sirida edi. U xayoliy sotsializm va konservativ reformizm g'oyalari asosida o'zining eklektik konsepsiyasini yaratdi.

1842-yilda K.Rodbertus «**Davlat-xo'jalik tizimini bilish yo'lida**» deb nomlangan kitobini nashrdan chiqardi. Uning asarları «sotsial xatlar» shaklida yozilgan. U aynan shu kitobida qo'shimcha qiymat nazariyasini ko'rsatib o'tdi. U o'z fikrlarini yakunlab, shunday deb yozadi: «*Agar ishlab chiqarish qanchalik yuqori bo'lsa, ishchining yashashi uchun zarur vositalardan tashqari ko'pgina iste'mol buyumlarini yaratishi mumkindir. Bu chegirma yerga xususiy mulkchilik va kapital mayjud sharoitda renta holiga aylanadi va kishilar tomonidan mehnatsiz*

o'zlashtiriladi. Boshqacha qilib aytganda, renta olishning asosiy usuli yerga xususiy mulkchilik va kapitaldir» (К.Родбертус «К познанию нашего государственно-хозяйственного строя. Пять теорем». М., 1935, стр.115). K.Rodbertusning nazariyasi va qisqacha xulosalarlariga yuqori baho berish mumkin, chunki u A.Smit va D.Rikardo iqtisodiy ta'limotlar bilan yaqindan tanish va bu ta'limotlarni chuqur ilmiy tahlil qilgan edi.

Shuningdek, olim o'z xatlarining birida qo'shimcha qiymat va uning vujudga kelishini Marksdan oldinroq ko'rsatganligini va aniq qilib tushuntirganligini yozadi. Bu bilan u o'zining qo'shimcha qiymat nazarriyasidan Marks ijodiy foydalanganligini va hatto «o'g'irlab» o'ziniki qilganligini isbotlamoqchi bo'ladi. Shuni aytish zarurki, Marks ta'limotiga nisbatan aytigelan bu tanqidlar Marksning o'ziga ham ma'lum edi. Marksning vafotidan keyin nemis kateder-sotsialistlari bu masalani yana qayta ko'tardilar. Ularning asosiy maqsadlari Marks ta'limotini kuchsizlantirish va uning ta'sir doirasini kamaytirish edi. O'z davrida F.Engels bu fikrlar uydurma ekanligini va Rikardoning qiymat nazarriyasidan so'lrikardochilar K.Rodbertusdan oldinroq foydalanganliklarini aytdi. Shuningdek, u K.Rodbertus qo'shimcha qiymatning foyda va yer rentasiga aylanish qonunini, kapitalistik sinflar o'rjasida qo'shimcha qiymatning taqsimlanishi, qonunni to'liq tushunmay, faqat renta nazarriyasi bilan cheklanib qolganligini ham ko'rsatib o'tdi.

K.Rodbertusning iqtisodiy g'oyalari yuqorida qayd etilgan asosiy asaridan tashqari, to'rtta «ijtimoiy xati»da bayon etilgan. Unda u qiymatning mehnat nazariyasini tahlil qildi. Qiymat ijtimoiy zaruriy mehnat va mehnat xarajatlari bilan aniqlanib, bu o'rinda bir xil mehnat xarajatlari har qanday ishlab chiqarishdan qat'i nazar bir xil qiymat hosil qiladi deb ko'rsatiladi. Bundan tashqari, mehnat doimo qiymat vujudga keltirishi alohida ta'kidlanadi. F.Engels «Falsafa qashshoqligi» asarining so'zboshisida K.Rodbertus qarashlaridagi bu holatni keskin tanqid qilib, o'zining qiymat nazariyasida mehnatning ijtimoiy zaruriy xarakterini inkor etishini yozadi.

K.Rodbertusning fikricha, mehnat qiymat o'lchovi sifatida oltin va kumushdan yuqori turadi, chunki u ish kunini o'zgarmas o'lchov deb hisoblaydi. Bu o'rinda «mehnat kunlari» ham izohlanadi. Lekin olim xayoliy fikrlarga berilib, kapitalistik tovar xo'jaligi sharoitida pulning zaruriyatini to'g'ri tushuntirib bera olmadi. K.Rodbertus o'zining

taqsimot nazariyasida klassik maktab vakillari yo'l qo'yan xatolarni takrorlaydi. Taqsimot nazariysi quyidagi tartibda tahlil qilinadi va uch bosqichdan iborat bo'ladi. **Birinchi bosqichda** K.Rodbertus ijtimoiy (milliy) mahsulotni ish haqi va rentaga bo'linishini ko'rib chiqadi. **Ikkinci bosqichda** u rentani kapital va yer rentasiga bo'lishga o'tadi. Vanihoyat, **uchinchchi bosqichda** K.Rodbertus barcha foyda va yer rentasining kapitalist va yer egalari o'rta sidagi taqsimotini ko'rib chiqadi. K.Rodbertus ijodiy faoliyatining so'nggi yillari qiyamatning mehnat nazariyasidan uzoqlashib, mayda ishlab chiqaruvchilar manfaatlariga mos tushuvchi jamiyatni qayta qurish loyihamalarini e'lon qilish bilan bog'liq bo'ladi. Kapitalizmni Rodbertuschasiga isloh qilishni sififiy kurashsiz, evolyutsion yo'l bilan amalga oshirishni ko'zda tutar edi. Bu yo'l keyingi islohotchilik yo'nali shidagi nazariy maktab tomonidan qo'llaniladi. Bu olimning asarlari rus tilida to'la chop etilgan: К. Родбергус «Экономические сочинения» М., ОГИЗ. Сос Эклиз. Л., 1936. стр.436.

Qisqacha xulosalar

Mayda ishlab chiqaruvchilar nazariyotchilar tomonidan Kapitalizmning chuqur o'rganilishi iqtisodiy ta'limotlar tarixida bu maktabning munosib o'rnini belgilab berdi. S.Sismondi va uning g'oyalari sanoat inqilobi, kapitalizmning nihoyatda tez sur'atlarda rivojlanish davrida birinchilardan bo'lib, shu jamiyatni iqtisodiy negizini va ijtimoiy tuzumini tanqid qilishda o'z aksini topdi. Bu tanqid mayda ishlab chiqaruvchilar manfaatlariga mos ravishda oshirilib, kapitalizmning inqirozlar asosida notejis rivojlanishini ko'rsatib berdi. Siyosiy iqtisod inson baxt-saodati uchun zarur bo'lgan ijtimoiy rivojlanishni o'rganadigan fan deb yuritildi. S.Sismondi asarlarida asosiy e'tibor mehnatkashlar, ayniqsa, ishchilar sinfining ayanchli bir taqdiriga samimiy hamdardlik bildirishga qaratilgan.

Shuningdek, iqtisodiy kategoriyalarni ilmiy tahlil qilishda klassik maktabdan, ayniqsa, A.Smit qarashlaridan nari o'ta olmadı. Olimning ishlab chiqarish bilan iste'mol o'rta sidagi qarama-qarshilikni ko'ra bilganligi katta xizmati bo'lsa, mashinalashgan ishlab chiqarishning ijobiy xususiyatlarini to'g'ri baholamaganligi uning jiddiy kamchiligi edi.

P.J. Prudonning mayda ishlab chiqarish sotsializmi Fransiyada va G'arbiy Yevropaning boshqa mamlakatlarida keng yoyildi. Prudon

qarashlarida ham ikkiyoqlamalik va fikrlar qorishmasini uchratishimiz mumkin. Shunday bo'lsa ham, prudonizm g'oyalaridagi kapitalizmni isloq qilish to'g'risidagi fikrlardan hozir ham sotsial islohotchilikning ayrim ko'rinishlarida keng foydalani moqda. Prudon kapitalistik tovar ishlab chiqarishdagi qarama-qarshilikni shu tovarlarni pulga aylantirish yo'li bilan bartaraf etish mumkin deb hisoblaydi. U pulning mohiyatini to'g'ri tushunmay, hamma aybni ayrboshlashdagi nohaqlikdan deb biladi.

Shunday qilib, u tovar-pul munosabatlarini pul, kapital va foizsiz saqlash kerakligini taklif qildi. Barcha kamchiliklardan qat'i nazar, Prudon kapitalistik taraqqiyotdan orqaga qaytish mumkin emasligini tushundi, lekin mayda xususiy mulkchilikni saqlab qolish tarafdoi bo'ldi. K.Rodbertus ham o'z asarlari bilan nemis mayda burjua nazariyasiga katta hissa qo'shdi. U kapitalistlardan ishchilar sinfiga ishlab chiqarish mahsulдорligi oshganligi hisobidan ma'lum hissa berishlarini talab qildi.

K.Rodbertus qiymatning mehnat nazariyasida, qo'shimcha qiymat, yer rentasi nazariyalarida katta ijobiy natijalarga erishdi. Olimning yaratgan asarlari zamondoshlari, jumladan, marksistik iqtisodiy ta'limot asoschilari tomonidan ijtimoiy fanlar rivojiga qo'shilgan katta hissa deb yuqori baholandi.

Asosiy tushuncha va iboralar

Iqtisodiy romantizm, mayda ishlab chiqarish, yirik sanoat, doktrina, sentimental, liberal, eklektik, reaksiyon, liberal narodnik, konsentrasiya, uchinchi shaxslar, xalq banki, ishchi puli, anarxizm.

Nazorat va mulohaza uchun savollar

1. Mayda iqtisodiyot nazariyotchilariga xos xususiyatlar nimalardan iborat?
2. S.Sismondining iqtisodiy mavzudagi qanday asarlarini bilasiz?
3. S.Sismondining metodologiyasiga xos xususiyat nimalardan iborat? Uning fikricha boylikning manbai nima?
4. S.Simondi ta'limotida qaysi iqtisodiy nazariya asosiy o'rincutadi?
5. Qiymatning manbayi nima? Uni izohlab bering.

6. Mayda burjua nazariyasining vujudga kelish sabablarini tushuntirib bering.
7. S.Sismondi kapitalizmni qanday tarzda tanqid qilganini izohlab bering.
8. S.Sismondi daromadni nechta turga bo'ldi?
9. S.Sismondining fikri bo'yicha iqtisodiy krizisni izohlab bering.
10. S.Sismondining hayoti va ijodining dastlabki yillari haqida nimalarni bilasiz?
11. Prudonning qaysi asarlarini bilasiz va u bu asarlarda qanday nazariyalarni ilgari surgan?
12. Prudon o'z ta'limotida qanday iqtisodiy muammolarga e'tibor bergan? Qaysi iqtisodiy nazariyani ilgari surdi?
13. Prudon davlat tuzumining qanday shaklini ko'rsatib bergenini tushuntiring.
14. Prudonning kapitalizmni isloh qilish loyihasining mohiyati nimadan iboratligiga izoh bering.
15. K.Rodbertus qaysi nazariy maktabning vakili?
16. K.Rodbertusning qiymatning mehnat nazariyasi haqida nimalarni bilasiz?
17. K.Rodbertus qo'shimcha qiymat nazariyasining o'ziga xos xususiyatlarini aytib bering.
18. K.Rodbertus iqtisodiy ta'limotining tutgan o'rni.
19. Kapitalizmni mayda ishlab chiqarish nuqtayi nazaridan tanqid maktabining iqtisodiy ta'limotlar tarixida erishgan yutuqlari va ahamiyati.

XII b o b. BOZOR IQTISODIYOTIGA MUHOLIF G'OVALAR

12.1. XIX asrning birinchi yarmidagi xayoliy sotsializmning o'ziga xos xususiyatlari

Xayoliy sotsialistik g'oyalarning dastlabki ko'rinishlarida, ya'ni Platon asarlaridan boshlab, T.Mor va T.Kompanelli asarlarining barchasida xususiy mulk tanqid qilib kelindi.

Bu olimlar jamiyatni qayta tuzishni taklif qilib, nisbatanadolatli, rivojlangan jamiyatni asoslab berishga intildilar. Lekin bularning barchasi xayoliy sotsializm shakllanishi arafasidagi dastlabki g'oyalar edi, xolos. Xayoliy sotsializmning haqiqiy rivojlanish davri XIX asrning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Bu davrda G'arbiy Yevropada kapitalistik munosabatlar rivojlanib, sinfiy ziddiyatlar oshkor bo'ldi. Ayniqsa, klassik iqtisodiy muktab vakillarining asosiy asarlarining ta'siri ko'pgina maktablarda bo'lgani kabi xayoliy sotsialistlar qarashlariga ham jiddiy ta'sir o'tkazdi. Shuningdek, bu davrda sanoat to'ntarilishining yakunlanishi va Yevropa mamlakatlarida yuz bergan jiddiy iqtisodiy o'zgarishlar ham xayoliy sotsialistlar A.Sen-Simon, Sh.Fure va R.Ouenlar o'z asarlarida ko'rsatib, mavjud kapitalizmni ichki xususiyatlarini kengroq oolib berishga intildilar. Bu olimlar guruhi iqtisodiy fan rivojiga katta hissa qo'shib, ilk bor kapitalistik munosabatlar abadiy emasligini, unda iqtisodiy inqirozlar mavjud bo'lishini ko'rsatib berdilar. Shu jumladan, ular ham klassiklar kabi texnika taraqqiyotining jadallahuvi, ilmiy kashfiyotlar va jamiyat ishlab chiqarishini umum-jahon rivojini iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadi deb hisobladilar. Bundan tashqari, xayoliy sotsialistlar tabiiy tartib konsepsiyasiga amal qilib, jamiyat va alohida olingan insonning ideal ijtimoiy tuzulishi modelini ilgari surdilar.

Xayoliy sotsialistlar klassik iqtisodiy muktab vakillaridan farq qilib, xususiy mulkchilikni va kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlarini tanqid qiladilar, jamiyatning barcha a'zolariga baxt keltiradigan yangi

jamiyat yuzaga keladi, deb ishchilarni ishontiradilar. Ular yangi jamiyat, adolatli ijtimoiy tuzum loyihalarini bayon etib, iste'mol va taqsimotni qayta tashkil etish bilan cheklanib qolmasdan, balki ishlab chiqarishni tubdan o'zgartirishni taklif qildilar.

Shuningdek, ularning ijtimoiy adolatni targ'ib qilishga qaratilgan g'oyalari aynan adolatsizliklardan voz kechishi zarur degan fikrlari asosida nafaqat xayoliy balki bozor iqtisodiyotiga qarshi qarash ko'rinishini oladi. XIX asrning birinchi yarmida ijod qilgan xayoliy sotsialistlar ta'limotlarida bozor iqtisodiyotiga muqobil qarashlar turlicha bo'ladi. Bu o'rinda ushbu maktab vakillarining birinchidan, individual faoliyatni kollektiv mehnat faoliyati bilan almashtirish mexanizmini qanday izohlashlari bilan, ikkinchidan, mehnatkashlarni jamoa tashkilotlariga birlashish tamoyillari xususiyatlarini qay tarzda tushuntirishlarida o'z aksini topadi.

Bu shart-sharoitga e'tibor berib Sh.Jid va Sh.Rist o'z asarlarida shunday deb yozadilar: «Sen-Simon va uning izdoshlari haqiqiy kollektivism tarafдорлари bo'lib, ular jamoat tashkilotlariga millatning hamma a'zolarini kirgizish bunday birlashuvni tepadan boshlashni taklif qiladilar, ya'ni milliylashtirish va boshqa jarayonlarni endi siyosiy hokimiyat o'z qo'liga oladi.

R.Ouen va Sh.Fure hamda ularning izdoshlari «Sotsialist-assotsiatsiyachilar» bo'lib, Sen-simonchilardan farqli o'laroq individ to'da ichida yo'qolib ketmasligini xohlaydilar. Ularni mayda avtonom guruhlar yordamida saqlab qolishni taklif qilib, birlashuv jarayonini yuqorida emas, balki quyidan borishini maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar». (Жид Ш., Рист Ш. История экономических учений. – М., «Экономика», 1995. Стр.170)

Nihoyat, xayoliy-sotsializm namoyandalari o'zlarining benuqson ijtimoiy tuzumlarni turlicha: Sen-Simon industrializm, Fure garmoniya, Ouen esa kommunizm deb atadilar. Lekin ularning barchasi ekspluatatsiyaning yo'q bo'lishi, aqliy va jismoniy mehnat o'rtasidagi qarama-qarshilikning bartaraf etilishi hamda xususiy mulkning yo'q bo'lishi to'g'risidagi fikrlarni bir xil takrorladilar. XVIII asrning oxiri - XIX asrning boshlarida G'arbiy Yevropada ishlab chiqarishning hukmron shakli manufakturna bo'lib, fabrika ishlab chiqarishi endigina shakllanayotgan edi. Kapitalizmnning moddiy sharoitlari va

ishchilarning jamiyatning asosiy sinfi sifatida shakllanishi dastlabki bosqichlarda edi.

Xayoliy sotsialistlar ijtimoiy adolatli jamiyatga o'tish yo'llarini aniq ko'rsata olmadilar, lekin ular sinfiy manfaatlar qarama-qarshiligini ta'kidlab o'tdilar. Ular ishchilar sinfiga ezilgan jabrlanuvchi sinf sifatida qarab, asosiy e'tiborni ongni rivojlantirishga, o'z g'oyalarini tashviqot qilib, kommunalar, «falansterlar» orqali hayotga tatbiq etishga qaratdilar. Mehnatkashlarni ozod etishning moddiy sharoitlari yaratilmaganligi tufayli xayoliy sotsialistlar bo'lajak jamiyatning fantastik loyihalarini taklif etdilar. Ular o'zlarini sinflardan yuqori qo'yib, jamiyatning barcha a'zolari manfaatlarini ifoda etayotganliklarini ko'rsatmoqchi bo'ldilar. Shuningdek, siyosiy kurash, revolutsiyalarni rad etib, ijtimoiy adolat g'oyalarini tashviqot qilish yo'li bilan jamiyatni qayta tuzishni orzu qildilar. Mana shularning barchasi g'oyalarning xayoliy bo'lib qolishiga sabab bo'ldi. Biroq, xayoliy sotsializm o'zining cheklanganligiga qaramasdan, kapitalizm oyoqqa turayotgan bosqichda progressiv ta'limotlar qatorida alohida o'rinn egallaganligini aytishimiz lozim.

12.2. A.Sen-Simon, Sh.Fure va R.Ouenning iqtisodiy qarashlari

Fransiyada burjua inqilobidan keyin kapitalizm yana tez rivojlandi. Jamiyat oldida doimiy ravishda ko'ndalang bo'lib qolgan yangi savollarga fransuz mutafakkiri Sen-Simon birinchi bo'lib javob berishga urindi.

Anri Klod de Rebrua Sen-Simon (1760-1825) Fransiya xayoliy sotsializmining namoyandasini bo'lib, 1789-1794-yillardagi fransuz inqilobi bilan zamondosh edi.

U aristokratlar oilasidan kelib chiqqan bo'lib, quyidagi mashhur asarlarning muallifidir: «Sanoat sistemasi haqida», «Inson haqidagi san ocherklari», «Sanoat yoki siyosiy, ma'naviy va falsafiy mulohazalar», «Yangi xristianlik» va boshqalar.

Sen-Simon maxsus iqtisodiy tadqiqotlarni amalga oshirib, asosiy e'tiborni ijtimoiy muammolarga qaratdi. U yaxshi jamiyat to'g'risidagi umidini aql-idrokka, ma'rifatga bog'ladi; u insonning aql-idrokini tarixiy jarayonning to'la hokimi va rahbari sifatida bildi, jamiyatni yaxshi tarzda qayta qurish yo'llarini tashviqot qilishni esa o'z ta'limoti amalga oshirilishining bosh vositasi deb hisobladи.

Fransuz ma'rifatparvarlaridan farq qilib, Sen-Simon ishlab chiqarishdagi inson faoliyati, mulkchilik shakllari kabi iqtisodiy omil-

larga katta baho berdi. U «*Ilk davr*», «*Qulchilik*», «*O'rta asrlar*», «*Hozirgi davr*» va «*Oltin asr*»larni alohida ajratib, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya-larni ko'rsatib o'tdi.

«*Hozirgi davr*» (ya'ni XIX asrning ikkinchi yarmi) o'tish davri deb belgilanib: «...bu davrda, — deb yozadi Sen-Simon, — olimlar, tadbirkorlar va ishchilardan iborat sanoatchilar shakllanadi, ular qirol hukumati bilan birgalikda odil jamiyatni barpo etishlari kerak, bu esa o'z navbatida, «*Oltin asr*»ga kirib kelishni ta'minlaydi.»

Sen-Simon o'zining tarixiy konsepsiyasidan kelib chiqib, hozirgi davrni o'rganib borish uchun o'tgan davrga nazar tashlash kerakligini aytib: «*Har bir alohida olingen davr mulohazasida juda yuzaki, hatto noto'g'ri xulosalarni beradi, so'nib borayotgan o'tmish qoldiglari tug'ilib kelayotgan kelajak bilan qorishtirib yuboriladi*», - deb ko'rsatadi.

Tarixiyligiga qaramay, Sen-Simonning jamiyatning rivojlanish konsepsiysi idealistik edi, chunki uning asosini fan taraqqiyoti, ong va g'oyalar ravnaqi tashkil etardi.

Lekin uning idealistik tarixiy konsepsiyasida ayrim materialistik fikrlar ham yo'q emas. Jumladan, Sen-Simon shaharlar, sanoat va savdoning rivojlanishi burjuaziyaning shakllanishiga sabab bo'lganligini, iqtisodiy holat esa, mulkchilikka tobe bo'lgan, o'ziga xos ijtimoiy-tarixiy formalarni vujudga keltirishini aytib o'tadi. «*Hokimiyat va boshqaruvni belgilovchi qonun ham, - deb yozadi u, - mehnat farovonligini to'liq ta'minlay oladigan mulkchilik va undan foydalanishni belgilovchi qonundek katta ahamiyatga ega emas*».

Sen-Simonning bo'lajak adolatli jamiyati industrial sistema deb nomlanib, u yirik sanoat ishlab chiqarishi bazasi asosida rivojlanadi, sanoat - alohida reja asosida, boshqaruv esa yagona industrial markaz orqali amalga oshiriladi deb hisoblagan edi.

Sanoat ishlab chiqarishining taraqqiyoti va mahsulotlarni taqsimlash olimlar tomonidan olib boriladi. Katta tajribaga ega bo'lgan sanoat kapitalistlari boshqaruvni tashkil qilish bilan mashg'ul bo'ladilar, ishchilar esa ishlab chiqarish rejalarini bajarish uchun astoydil mehnat qilishlari zarur.

Sen-Simon yangi ijtimoiy tashkilotni vujudga keltirishda, ayniqsa, sanoatda anarxiyaga (hokimiyatsizlikka) yo'l qo'yilmasligiga va reja asosidagi markaziy boshqaruvga katta e'tibor berishni taklif etadi. Uning qarashlariga ko'ra, erkin raqobatga asoslangan ijtimoiy tuzim bu tugab

borayotgan feodalizmdan yangi ideal jamiyatga o'tish davridagina emas, balki inqilobiy harakatlardan holi, tinch va tez sur'atlarda ijtimoiy tenglikka asoslangan «industrial jamiyat»ga o'tish davri hamdir. Adolatli «industrial jamiyat» qurilishi haqidagi o'zining mulohazalarida u ilm-u fan va ilg'or nazariyalarga yuqori baho berib, bo'lg'usi yangiliklarni tarixan muqarrar deb hisoblaydi. Shu bilan birga, Sen-Simon o'zining «industrial jamiyat»ida boshqa xayoliy sotsialistlar kabi qarama-qarshi sinflarni yo'qolib ketishi va hokimiyat tomonidan siyosiy funksiyalarga nisbatan iqtisodiy funksiyalarga katta e'tibor berishini taxmin qiladi. Lekin shuni alohida qayd etish zarurki, xayoliy sotsializmning boshqa barcha vakillaridan farq qilib, Sen-Simon sotsializmda xususiy mulkchilik bo'lishini inkor etmaydi, balki aynan xususiy mulkchilik va undan foydalanishni tartibga soladigan qonun zarurligini ko'rsatib o'tadi.

Fransuz xayoliy sotsializmining yana bir yirik namoyandası **Fransua Mari Sharl Furedir** (1772-1837). U Bezanson shahrida savdogar oilasida dunyoga kelib, butun hayoti mobaynida savdo bilan shug'ullandi. Bo'sh vaqtlarida mustaqil ravishda fizika, astronomiya va falsafa fanlari bilan shug'ullandi, ijtimoiy tadqiqotlarni amalga oshirdi.

Sharl Fure o'zining «To'g'ri harakat va mushtarak taqdirlar nazariyasi», «Umumiy birlik nazariyasi», «Savdo qallobligi haqida», «Yangi sanoat dunyosi va ijtimoiy dunyo» nomli asarlari va qator maqolalarida kapitalistik jamiyatni keskin tanqid qildi va ijtimoiy adolatli jamiyat barpo etish dasturini ishlab chiqdi. Uning tasvirlashicha, inson o'zi yashayotgan jamiyatning barcha yaramas illatlaridan tozalanishi lozim, shunday ijtimoiy tuzum o'rnatish kerakki, bu tuzum insonning kamol topishiga, ehtiroslarini to'liq namoyon qilishiga, ehtiyojlarini qondirishga imkoniyat bersin. F.M.Sh. Fure kishilik jamiyatining tarixiy rivojlanishini o'rganishga o'zining katta hissasini qo'shdi.

F.Engels «Anti Dyuring» asarida shunday degan edi: «O'tmishning asosiy etap (bosqich)larida Sh.Furenning genialligi keng namoyon bo'ldi. U jamiyat o'z rivojlanishida yovvoyilik, patriarxalchilik, varvarlik va sivilizatsiya (madaniyat) bosqichlarini bosib o'tganligini ko'rsatib berdi». U aholining ayrim qismi behuda, parazit hayot kechirib, ezilgan mehnatkash xalqning ekspluatatsiya qilinishi hisobiga yashayotganini aytish bilan birga, bunday jamiyat aholining barcha qatlamlarini to'liq ta'minlash imkoniga ega emas degan xulosaga keldi. Sh.Fure, ayniqsa,

kapitalistik savdo nuqsonlarini, undagi tovlamachilik, olibsutarlilik va muttahamlikni fosh etadi. Sh. Fure klassik iqtisodiy maktab vakillari yuqori baho berayotgan erkin raqobatga asoslangan iqtisodiyotni va klassiklarni ham keskin tanqid qiladi. Sh. Fure sivilizatsiya jamiyatning kamchiliklari deb quyidagilarni belgilaydi: ijtimoiy xaos; aholi nufusini ortib borishi; kambag‘allikni kuchaytiruvchi industrializm va boshqalar. Lekin Sh. Fure islohotlar yo‘li, tashviqotni kengaytirish bilan ekspluatatsiya, adolatsizlikka qarshi kurashib, «odil jamiyat» sari bormoqchi bo‘ldi. Kelajak jamiyatning asosiy yacheykasi bir necha ishlab chiqarish assotsiatsiyalaridan iborat falanganing har bir a’zosi mehnat qilish huquqiga ega bo‘lib, mehnat zavq bag‘ishlashi, kishilarning ehtiyojiga aylanishi kerak. Sh. Fure o’sha paytda mashaqqat deb hisoblangan mehnat qanday qilib inson uchun huzur-halovatga aylanishi mumkin degan masalani o‘rtaga qo‘yadi. U burjua huquqi sistemasini tanqid qilib, mehnat qilish huquqini birinchi o‘ringa qo‘yadi, mehnat qilish huquqi bo‘lmasa, qolgan hamma huquqlarning qadri yo‘q deb hisoblaydi.

Angliya – sanoat to‘ntarishini amalga oshirgan birinchi mamlakat bo‘lib, kapitalizm u yerda tez va dadillik bilan rivojlandi. Bu ho‘l tabiiy, Angliya xayoliy sotsializmining o‘ziga xos xususiyatini belgilab berdi. U xususiy mulkchilikning barcha ko‘rinishlarini inkor etib, fransuz sotsialistlarining industriallar jamiyati, turli uyushmalariga moyilligi yo‘q edi. Siyosiy iqtisodni proletariat manfaatlariga xizmat qildirishga harakat kommunistik jamoalar tashkil etish tajribalarini qo‘llash va nihoyat, tinch yo‘l bilan yangi «odil jamiyat»ni qurish imkoniyatlarini isbotlashga urinish bu maktabga xosdir. Angliya xayoliy sotsializmining vujudga kelishi va rivojlanishi Robert Ouenning (1771-1858 yy.) hayoti va ijodiy faoliyati bilan bog‘liqdir.

R. Ouenning «**Jamiyatga yangicha qarash yoki xarakterni shakllantirish haqida tajribalar**», «**Yangi axloqiy dunyo kitobi**», «**Adolatni almashuv bozori**», «**Ulug‘ milliy hunar ittifoqi**» asarlarida uning sotsialistik loyihalari bayon etilgan. U kapitalistik jamiyatni tanqid qilib, uning xalqqa qarshi mohiyatini ochib beradi. Barcha mulknai umumning mulkiga aylantiradigan, qashshoqlik yo‘qoladigan, mehnat jafo-zulmatdan baxt-saodatga aylanadigan kommunistik jamoalar tuzish fikriga keldi. Shu maqsadga xalaqit beradigan uchta

to'siq bor. Bu uchta illat: xususiy mulk, din va burjuacha nikoh ekanligini aytadi. Angliyaning ilk fabrika qonunchiligining asoschilaridan bo'lgan. R.Ouen iqtisodiy qarashlarining xarakterli xususiyati shundan iboratki, u burjua siyosiy iqtisodini inkor etgan fransuz xayoliy sotsialistlaridan farq qilib, o'z nazariyalarini yaratishda Rikardoning qiymatning mehnat nazariyasiga tayanadi. U Rikardodan keyin mehnatni qiymatning asosiy manbayi deb hisobladi. Xususiy mulk bilan bir qatorda pul mehnat bilan kapital o'rtasidagi qaramaqshiliklar sababchisi deb hisoblandi.

R.Ouen qiymatning sun'iy o'lchovi bo'lmish puldan voz kechib, mehnat xaratjatlarining ekvivalenti sifatida «ishchi pullarini» joriy etishni taklif etadi. U kapitalistik ishlab chiqarishni qaytadan tuzib «ishlab chiqarish uyushmalarini» tashkil etishga harakat qildi.

12.3. Sotsialist-rikardochilarining (T.Godskin, J.Grey, J.Brey) iqtisodiy qarashlari

XIX asrning 20-30-yillarda Angliya hunarmandlari va ishchilari orasida sotsialistik g'oyalalar shakllandi. Bu g'oyalarni o'rganish bilan yanigicha yo'nalishni tashkil qilgan olimlar *Jon Grey*, *Tomas Godskin* va *Jon Breylar* edilar. Ular, asosanm ishchilar orasidan kelib chiqib, muammolarni hal etishda mustaqil ravishda o'z qarashlarini e'lon qildilar.

Tomas Godskin. O'tgan asrlarda ilmiy axborot va publisistika janr sifatida hali bir-biridan ajralmagan edi. T.Godskin asarlarda shu ilmiy izlanishlarning bizning tafakkurimizga ko'ra belgilarini topamiz. Avvalo, bu qo'yilgan masalaga yaqindan taalluqlidir.

1827-yilda T.Godskin «*Taniqli siyosiy iqtisod*» nomli kitobini e'lon qildi, lekin uning asosiy g'oyalari avvalroq 1825-yilda «*Kapitalning daf qilishiga qarshi mehnatni himoyalash*» asarida bayon etilgan edi.

Dastlabki nazariyalarida olim kapital ishlab chiqarishdan tashqarida degan fikrni bildirib, o'z zamondosh iqtisodchi olimlariga qarshi chiqdi. Uning fikricha, aylanma kapital umuman yig'ilgan zaxiralar emas, masalan, ishchilar novvoyxonada non yopishadi, boshqa ishchilar esa uni sotib olishadi. Demak, aylanma kapital zaxira «yig'ilma» emas, balki «mavjud» mehnatdir.

T.Godskin asosiy kapitalni to'plangan mehnat deb biladi, lekin ishchilarsiz hech qanday mashina hech narsa ishlab chiqara olmaydi.

Bundan shunday xulosa chiqadiki, foyda o'tgan mehnat hisobiga emas, balki kundalik mehnat tufayli yuzaga keladi. Lekin asosiy kapital o'z egasi uchun mehnatdan ustunlik qilish vositasi hisoblanadi. Yuqorida aytilganlarning barchasidan T.Godskinning ikkinchi tezisi kelib chiqadi: kapitalist tomonidan o'zlashtirib olingen foyda ishchilarning mehnatdan oladigan to'liq mahsulot huquqini buzish demakdir. Bu zo'ravonlik kapitalistlar tomonidan mehnatning bo'ysundirilishi bo'lsa, ularning hokimiyati ishchi mahsulotni o'zlashtiradi. T.Godskinning aytishicha, jamiyatdagi barcha jamg'arma kapitalistlar tomonidan amalga oshiriladi. Lekin mahsulotni ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlarni va kapitalistga foyda ko'rinishida tegadigan mahsulotni ham faqat ishchi ishlab chiqaradi. Foyda ko'p bo'lgan sari ish haqi kam bo'lishini ko'rsatib o'tadi. «Haqiqiy adolatni tiklashning birdan-bir vositasi yoki chorasi ishchilarni kasaba uyushmalariga birlashtirishdir», - deb hisoblaydi olim.

J.Grey yoshlik yillaridanoq R.Ouen pamphletlarini o'qib, ularni targ'ibot qildi. 1825-yilda u o'zining «*Inson baxti haqida ma'ruzalar*» kitobini nashr qildirdi. XIX asrning 20-30-yillarida ingliz ishchilarining sevimli kitobi bo'lgan bu asar R.Ouen ta'siri ostida yozilgan edi. J.Greyning fikricha, jamiyat uch kategoriyadagi kishilarga bo'linadi: birinchisi ishchilar, ular barcha moddiy boyliklarni yaratuvchilardir. Ikkinchisi shifokor, o'qituvchi va boshqalardir. Uchinchisi esa «mustaqil sinflar»dir. «*Bu mustaqil sinflarni tashkil qiluvchi kishilar ikki xil holatga bog'liqdir. Birinchidan, atrofdagilarning mehnatsevarligiga, ikkinchidan nohaqlikning mavjudligiga. Bu esa ular ustidan hukmronlik qilish imkoniyatini beradi.*».

Olimning fikricha, jamiyatning asosini ayrboshlash munosabatlari tashkil qiladi. Kishilar orasidagi boshqa barcha munosabatlар esa mana shu munosabatlар ustiga quriladi. Qashshoqlikning bosh sababchisi esa raqobatdir. 1831-yilda J.Greyning «*Ijtimoiy tartib*», «*Ayrboshlash asoslari haqida harakat*» nomli asarlari e'lon qilindi. Bu asarlar siyosiy iqtisodga oid asarlar hisoblanib, unda ishlab chiqarish, taqsimot, aholi nufusi, soliq va soliqqa tortish muammolari, shuningdek jamiyatda ayrboshlash tartibini qayta tashkil etish ko'rsatiladi.

Umummilliyl savdo palatasi tashkil etilib, u barcha tarmoqlar - dehqonchilik, sanoat va savdo ishlari boshqaruvini tashkil etadi. Yer va kapital egalari o'z mulklarini mazkur boshqaruv apparatiga bir yilcha avvaldan belgilangan mukofot hisobiga topshirib, o'zlarini

turli tavakkallardan xalos qiladilar. Barcha xo'jalik ishlariga rahbarlikni palata topshirig'iga ko'ra amaldorlar yoki ziyolilar olib bora-dilar. Sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari milliy savdo omborlarida saqlanib, o'sha yerdan savdo do'konlariga sotuvga chiqariladi.

Jon Brey. J.Breyning «Mehnatga nisbatan adolatsizlik va uni bartaraf etish yo'llari» nomli kitobi 1839 yilda nashr qilindi. T.Godskin va J.Greyning pamfletlari kabi Breyning kitobi ham katta shuhrat qozondi. U ham ishchilar orasidan yetishib chiqqan bo'lib, bosmaxonada harf teruvchi va muqova qiluvchi bo'lib ishlar edi. Dunyoda adolatsizliklar qayerdan vujudga kelishini, jamiyat va davlat nima ekanligini, mehnatning zaruriyati, kapital jamg'arish va ayrboshlash xususiyatlarini o'rganishga o'z e'tiborini qaratdi.

Uning fikricha, ayrboshlash tengsizligi bir sinfga hech narsa bilan shug'ullanmaslikni va dabdabali yashashni ta'minlaydi, boshqa bir sinfni og'ir mehnatga mahkum etadi.

J.Brey hech qanday siyosiy saylov islohotlari bu tartibni o'zgartirmaydi, deydi. Mavjud tartibdagi ishchilar sinfi qanchalik aqli, yuqori ma'naviyatli yoki mehnatsevar kuch bo'lishidan qat'i nazar, to'g'rilab bo'lmaydigan qullikka mahkumdirlar. Shuning bilan birgalikda, u ishchilar sinfining kurashi kishilarga qarshi emas, balki tuzumga qarshi, u kapitalistlar bilan yoki kapital bilan emas, balki kapitalni qo'llash usuli bilan ekanligini uqtiradi.

12.4. Marksizm vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari

Sismondi Prudon, qisman Smit, Rikardo, xayoliy sotsialistlar va boshqalar kapitalistik tizimning bir qancha negativ tomonlarini ochib bergen edilar. Ana shu illatlar bu davrda keskin kuchaydi, mehnat va kapital, ishchilar va sohibkorlar o'rtaisdagi qarama-qarshilik tobora ortib bordi. 1831-34-yillar Fransiyada Lion to'quvchilar, 30-40-yillarda Angliyadagi vuddistlar va chartistlar harakati ishchilar sinfining mustaqil sinf sisatidagi chiqishlari edi. 1844-yilda Sileziya to'quvchilarining qo'zg'oloni Germaniyadagi inqilobi harakat darakchisi bo'ldi. 1848-yilda burjua inqilobi tufayli marksizmnинг vujudga kelish jarayoni yanada kuchaydi. Avvalgi davrdagi iqtisodiy talablar asta-sekin siyosiy tus ola boshladi.

Vujudga kelgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sharoit va avvalgi davrdagi bir qancha iqtisodiy g'oyalar asosida, birinchi navbatda klassik iqtisodiy

maktab, utopik sotsializm ta'limotlari tufayli marksizm shakllandi. Kapitalistik tuzum, hozirgi davr tili bilan aytganda, bozor iqtisodining bekam-u ko'st emasligi, uning ijobjiy tomonlari bilan birga hal etilishi shart bo'lgan muammolarining ham mavjudligi yangi iqtisodiy ta'limot paydo bo'lishiga turtki bo'ldi.

12.5. K.Marksning iqtisodiy ta'limoti

K.Marksning bosh iqtisodiy asari «Kapital» bo'lib, unda asosiy iqtisodiy g'oyalari ilgari suriladi (1-jildi 1867-yilda nashr etilgan). Marksning iqtisodiy merosida klassik maktab g'oyalari asosiyidir. Bu olimning tadqiqot predmetida iqtisodiyotda ishlab chiqarish sohalari muammolarning tahlili ustuvordir. V.Petti tadqiqotlariga baho berib, ishlab chiqarishning burjua munosabatlarini ichki aloqalari o'rganilishini ta'kidlaydi.

Tadqiqot uslubi boshqa olimlardan keskin farq qilmaydi, iqtisodiy jarayonlar siyosat va davlatga nisbatan ustuvor hisoblanadi, ammo kapitalizm va shunga muvofiq xo'jalik yuritishning bozor mexanizmi o'tkinchi deb qaraladi.

Renta to'g'risidagi nazariyasi D.Rikardonikidan farq qilmaydi, ammo differentsial renta bilan absolut renta ham borligi aytildi. So'nggi renta qishloq xo'jaligidagi kapital organik tuzilishini pastligi (S/V) va yerga xususiy mulk borligi bilan izohlanadi.

Hozirgi davrda marksizmga bo'lgan munosabat salbiy hisoblanadi. Ammo bu ta'limotning muholiflari ham, ayniqsa, **Karl Marks**ning (1818-1883) iqtisodiyot nazariyasiga qo'shgan buyuk hissasini tan olmoqdalar (masalan, R.Xeylbroner, L.Turov. «Экономика для всех»). Umuman, iqtisodiyot g'oyalari tarixida uch shaxs - A.Smit, K.Marks va J.M.Keyns ta'limotlariga alohida e'tibor beriladi. Shuning uchun, odatda, **K.Marks** va **Fridrix Engels**ning (1820-1895) kapitalizmga bo'lgan munosabatlariga baho beriladi. Bu ikki olimning ta'limoti bir-biri bilan chambarchas bog'lanib ketgan bo'lib, bu yagona ta'limot marksizm deb ataladi, shuning uchun ko'proq K.Marksning nomi tilga olinadi. Bu olimning iqtisodiy qarashlarini tushunish uchun ularni boshqa tadqiqotchi - A.Smit g'oyalari bilan solishtirishni o'rinali deb hisoblaymiz.

A.Smit kapitalizmni tartibga solish va taraqqiyotining me'mori edi. K.Marks esa bu jamiyatning illatlari va bo'lajak o'limi, tashbechisi bo'lgan. Ularning qarashlarida tarixga bo'lgan turli munosabat ochiq-oydin bo'lib qoladi. A.Smitning fikricha, insoniyat ovchilar va baliqchilarning ilk va sodda jamiyatidan oliv kommersiya jamiyati sari boradigan yo'lni bosib o'tdi. K.Marks esa insoniyat tarixi sinflarning to'xtovsiz kurashi, barcha davrlarda ezuvchi va eziluvchilar o'rtasidagi antagonistik raqobati hisobiga rivojlanishini aytadi. A.Smit va ko'pgina boshqa olimlar kapitalistik tizim oxir-oqibatda jamiyatdagi barcha taraflarning shaxsiy manfaatlari bilan ijtimoiy manfaatlarining uyg'unligi (garmoniyasi)ni, bu jarayon abadiy yoki juda uzoq vaqt davom etishini bashorat qiladilar. Marks esa sinfiy kurash ziddiyat va antagonizmni vujudga keltiradi va kapitalistik tizimning umri qisqa, ish haqi va foyda o'rtasidagi qarama-qarshilik kapitalizmni o'zgartiradi va uni yakson etadi, degan fikrni bildiradi.

Smitning fikricha, ayrim shaxslar va jamiyat manfaatining mos tushishi «Ko'rinmas qo'l» orqali (tabiiy Qonunlar va raqobat nati-jasida) tartibga solib turiladi. Vaholanki, Marks bo'yicha, ishlab chiqarish vositalari markazlashuvi va mehnatning ijtimoiylashuvi kapitalizmni inqilobiyo'l bilan boshqa jamiyatga o'tishini taqozo etadi. Smit xususiy mulkni himoya qilsa, markschilar umumxalq (davlat) mulkini afzal deb hisoblaydilar.

Markschilar kapitalizmni rivojlanayotgan tizim, deb qaradilar va boshqa hali to'la aniq bo'lмаган jamiyat sari ketayotganligini aniqladilar (buni ba'zilar sotsializm deb qaraydilar). Marks iqtisodchi sifatida bozorni kapital va boylik jamg'arishning kuchli vositasi sifatida biladi. Ammo bu jarayonni Smitdan boshqacharoq tahlil qiladi. Agar Smit bo'yicha bozor o'zini-o'zi boshqara olsa, Marksda bu o'sish turli to'siqlar, inqirozlar orqali ro'y beradi. Marks jamg'arilish jarayonini biznesmen nuqtayi nazaridan o'rganadi: asosiy masala shundaki, ma'lum kapital (bankdagi pul yoki korxonaga qo'yilgan mablag') foyda keltirishi kerak. Marks iborasi bo'yicha P (pul summasi) undan kattaroq P1 ga aylanishi kerak. Bunga Marksning javobi quyidagicha: kapitalistlar o'z pullarini tovar va ishchi kuchini sotib olishga ishlataldilar, shunday qilib, ishlab chiqarish jarayoni uchun asos solinadi, kerakli xomashyo, yarim fabrikatlar olinadi, ishlab chiqarish quvvatlari va ishchi kuchi yollanadi. Bu bosqichda hamma narsani haqiqiy bahoda olish qiyinchiligi yuzaga keladi. Real hayotda (masalan, mehnat

qimmat tursa) P o'zgarmas holda qoladi va jamg'arilish jarayoni boshlanmaydi.

Agar yuqoridagi birinchi bosqich muvaffaqiyatlari o'tsa, pul kapitali yollanma ishchi kuchi va moddiy ne'matlar zaxirasiga aylansa, ya'ni pul mehnat jarayoni bilan materiallar, xomashyo, yarim fabrikatlar orqali qo'shilib ketsa, keyingi bosqichga o'tiladi.

Xuddi shu yerda fabrika sexlarda foyda yuzaga keladi, uning manbayi shundaki, kapitalistlar ishchi kuchiga ular tomonidan ajratilgan qiymatdan kamroq haq to'laydilar. Foyda, ya'ni P va P₁ orasidagi farq amalda haq to'lanmagan mehnat bo'lib chiqadi. Bu Marksning qo'shimcha qiymat nazariyasi foydaning manbai sifatida kapitalizmni tahlil etishda juda muhimdir.

Bu qo'shimcha qiymat, odatda, ikki yo'l bilan vujudga kelishi mumkin:

1. Ish soatlarini cho'zish (absolut).
2. Zaruriy ish vaqtini qisqartirish (nisbiy) yoki mehnat unumdorligini oshirish.

Marksning fikricha, ish kuni ikki qismidan iborat bo'lib, birinchi zaruriy ish vaqtida ishchi va ishlab chiqarishga ketgan sarf-xarajatlar to'la qoplanadi va qolgan vaqtida (qo'shimcha ish vaqtida) qo'shimcha qiymat hosil bo'ladi, ya'ni haq to'lanmagan ish vaqtini kapitalist tomonidan o'zlashtiriladi (odatda, ish kunining yarmi yoki ma'lum qismi o'shangacha sarflanadi). Kapitalist avvalgi davrlarda ish soatlarini ko'paytirish yo'li bilan qo'shimcha ish vaqtini cho'zgan bo'lsa, keyingi paytlarda zaruriy ish vaqtini qisqartirish yo'lini qidiradi va bu ko'pincha ishlab chiqarishga mashinalashtirish, avtomatika, telemexanikani kiritish bilan amalga oshiriladi.

Marks kapitalizmning to'g'ri tizim emasligini, uning turli inqirozlar, siklik o'zgarishlarga moyilligini ko'rsatib berdi. Haqiqatan ham, Smitning fikridan farqli ravishda kapitalizm tizimining kibernetik kafolatlangan jarayondan ancha uzoqligi aniq. Kapital jamg'arilishi mehnat va kapital manfaatlarining noaniqligi, qarama-qarshiligidagi yengishi kerak bo'lgan bozor tizimi bilan bevosita bog'liq. Biznesning asosiy maqsadi boylik to'plash bo'lsa ham, bu maqsadga erishish har doim ham amalga oshavermaydi.

«Kapital» asarida kapitalizmning turg'un emasligi oxir-oqibatda tizimning qulashiga olib keladi, degan xulosalar chiqariladi.

Ilgari surilgan iqtisodiy munozara asosan kapitalizm oxir-oqibatda o'zini o'zi vayron eta oladimi, degan masalaga borib taqaladi.

Kapitalizmning ichki qarama-qarshiliklarining chuqurlashuvi tufayli bozor mexanizmi ularni tartibga sola oladimi, degan va boshqa savollarga aniq javob berish qiyin. Marks tanqidchilari to'la ishonch bilan kapitalizm vayron bo'ldi, ishchilar sinfi qashshoqlashmadidi, foyda normasining pasayishi va boshqa prognozlari tasdiqlanmadidi, demoqdalar.

Uning tarafdorlari esa buning aksini isbotlamoqdalar. Ularning fikricha, kapitalizm XX asrning 30-yillari deyarli vayron bo'ldi, odamlarning «proletarlashuvi» tobora ortib bormoqda, masalan, 1800-yilda 80 foiz amerikaliklar yollangan holda ishlagan bo'lsalar, ular hozir 10 foizga kamaygan, Marks aytganidek, firmalar hajmi tobora yiriklashmoqda, kapitalistik tizim nokapitalistik Osiyo, Janubiy Amerika va Afrikaga tobora kirib bormoqda.

Bu borada o'z fikrimizni bildirmoqchi bo'lsak, shuni aytib o'tish kerakki, marksizm g'oyalari o'sha davr uchun ko'p jihatdan to'g'ri edi. Kapitalizm shakllanayotgan va rivojlanayotgan davrda ishchilarning ahvoli keskin yomonlashdi, ekspluatatsiya kuchaydi, inqilobiy vaziyat yuzaga keldi va bu qisman amalda ro'y berdi. Ammo inqirozlar girdobiga uchragan yetakchi kapitalistik mamlakatlar ahvolni to'g'rilash uchun o'z iqtisodiy siyosatlarini keskin o'zgartirishga majbur bo'ldilar, ijtimoiy bozor elementlaridan foydalinish yo'liga o'tdilar. Bunda sobiq SSSR va boshqa «sotsialistik» deb atalgan davlatlarning ta'siri ham kuchli bo'ldi. Bu davrda kapitalizm yangi davrga moslashdi va aslida «sotsializm» elementlarini hayotda qo'llay boshladi. Hozirgi XX asr kapitalizmi XIX asrdagidan keskin farq qiladi.

Olimlar Marksning otashin demokrat bo'lganligini tan olgan.

12.6. Markscha iqtisodiy ta'limotning tarixiy taqdiri

Markscha g'oyalari davr sinovidan o'tdimi? degan o'rinali savol tug'iladi. Umuman, o'z davrida sotsialistik va konkret Sovet davlati va dunyoning 1.5 mlrd. aholisini o'z ichiga olgan sotsialistik lager deb atalgan mamlakatlardagi ijtimoiy tuzumning mazmuni nimadan iborat edi, hozirda bu yo'lni davom ettirayotgan davlatlarning istiqboli qanday? kabi muammolar bugungi kunda oz emas. Bu murakkab savollarga baholi qudrat o'z fikrimizni bildiramiz.

Imperializm sotsialistik inqilob arafasi ekanligi dastlab Rossiyada, keyinroq qisqa vaqt bo'lsa ham, Germaniya (Bavariya), Vengriya, Mongoliya va II Jahon urushidan keyin ba'zi davlatlarda isbotlandi. Lekin

bu inqilob yuksak rivojlangan, ishchi sinfi ko'pchilikni tashkil etgan joylarda emas, nisbatan o'rta yoki kam rivojlangan davlatlarda ro'y berdi.

Markscha ta'limot asoschilarining umumxalq mulkini yaratish, xususiy mulkchilikni yo'q qilish, iqtisodiyotni qat'iy rejalashtirish, raqobatni yo'qotish, ya'ni bozor iqtisodiyotini bekor qilish to'g'risidagi g'oyalari (sobiq Sovet davlati va boshqalarda) o'zini oqlamadi.

Rossiyadagi inqilob (chet el intervensiysi bejiz emas), sotsializm yo'lini birinchi bo'lib tanlagan davlatlar - SSSR, Mongoliya va boshqalar, II Jahon urushi, yangi sotsialistik yo'ldan borishni istagan davlatlar, mustamlakachilik sistemasining yemirilishi, iqtisodiy va siyosiy inqirozlar kapitalistik davlatlar oldiga yangidan yangi muammolarni qo'ydi. Katta tajribaga ega bo'lgan burjuaziya ilmiy-texnika progressidan unumli foydalandi, ishlab chiqarishni o'stirdi, foyda oshdi, ishchilar sinfi va xalqning moddiy turmush darajasini oshirishga va sotsial tenglikni yumshatishga erishdi. Masalan, AQSHda milliy boylikning 60 foizi 1 foiz aholining qo'lida, bunga xalq jum qarab tura olmaydi. Shuning uchun bu sistema yo'qolish xavfining oldini olishga majbur edi (SSSR tajribasi).

Shu vaqt davomida SSSR deb atalgan sobiq mamlakatda rivojlanish tobora susayib bordi, sotsial tanglik kuchaydi, bunga bir qancha sabablar bor. Avvalo voqealarni sun'iy tezlashtirishga urinildi. 1928-yildan boshlab yangi iqtisodiy siyosat vazifalari inkor etildi. Vaholanki, bu jiddiy va uzoqqa mo'ljallangan siyosat edi. Kapitalistik munosabatlarga chek qo'yishga shoshildik, ma'muriy-buyruqbozlik usulini joriy qilib, ayniqsa qishloq xo'jaligida majburiy kollektivizatsiya kabi yirik xatolarga yo'l qo'yidik, dehqonlar va ishbilarmonlarning faoliyatiga sun'iy to'siqlar yaratdik. Ikkinchchi besh yillik oxirida sotsializm qurib bitkazilganligini e'lon qildik va AQSHga yetib olish va undan o'zib ketish vazifasini belgiladik. II Jahon urushi oqibatlari va undan keyingi voqealar, sovuq urush, quronish poygasi (40-50 foiz xarajat), boshqa davlatlarga beg'araz yordam, ilmiy-texnika taraqqiyotiga e'tiborning kamligi (kibernetika va genetikani dastlab inkor etish) iqtisodiyotda qo'pol xatolar va yomon oqibatlarga olib keldi. Ayniqsa, og'ir sanoatning ustun rivojlanish qonuni katta ziyon keltirdi. 1953-yilda Stalin vafotidan so'ng G.M.Malenkov tomonidan xalq iste'mol mollarini ko'proq ishlab chiqarish g'oyasi zararli deb e'lon qilindi. Ayniqsa, N.S.Xrushchevning iqtisodiy siyosati xalq xo'jaligini keskin og'ir ahvolga solib qo'ydi.

Ilg'or kapitalistik davlatlarda qayta qurish (agar shunday deyish joiz bo'lsa) ancha ilgari boshlandi. Masalan, AQSHda 1929-33-yillar

buyuk inqiroz davrida 17 mln. ishsiz bo'lgan paytda sotsializatsiya rejalarini tuzildi, insonning manfaatlarini ta'minlamay, himoyalamay, halokatga uchrash mumkinligi ayon bo'lib qoldi (buning uchun 200-250 yil kerak bo'ldi).

II Jahon urushidan keyin Germaniyada L. Erxard tomonidan ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyotga yo'l ochildi, Shvetsiya va bir qancha mamlakatlarda davlat tomonidan sotsial himoya kuchli qilib qo'yildi.

Yuqorida aytilganidek, bir qancha davlatlar sotsializm g'oyasidan voz kechmagan. XXRda sotsializm asoslarini qurish 50-100 yillik vazifa qilib belgilangan, KXDR, Kuba va Vietnam sotsalistik respublikasida ham bu jamiyatni qurish uchun harakat bor.

Markscha ta'limot tarix sinovidan o'tmadidi. Uning taqdiri kelajak tarixi hukmiga havola etiladi.

Qisqacha xulosalar

Sen-Simonizm ta'limoti o'z rivojida to'rtta bosqichni bosib o'tdi. Birinchi bosqich uning 1815-yilgacha yozilgan asarlarida yoritilib, olimning ijtimoiy-iqtisodiy tafakkuri endi shakllanib borayotgan edi. Ikkinci bosqich Sen-Simon hayotining so'nggi o'n yilligida yozilgan asarlarni o'z ichiga olib, ularda kapitalizm tabiiy va abadiy degan fikrdan qaytib, yangi, qarama-qarshilik va raqobat o'rniiga birodarlik va hamkorlikka asoslangan jamiyat vujudga kelishi ko'rsatiladi.

Bu almashinuv tinch yo'l bilan, «industriallar jamiyat»ning rivojlanishi va feodallarni tugatish asosida olib boriladi. Sen-Simon, umuman, xususiy mulkchilikka qarshi chiqqan emas, u faqat jamiyatda ma'lum nazorat o'rnatilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Uchinchi bosqichga Sen-Simonning vafotidan keyin olti yil ichida uning shogirdlari yaratgan asarlar hamda ularning tashviqot va amaliy faoliyati kiradi. Bu bosqichda Sen-Simonizm sotsalistik ta'limotga aylanib, xususiy mulkchilikni bartaraf etishni, boylikni har kimning mehnati va layoqatiga qarab taqsim qilishni, ishlab chiqarishni esa rejalashtirishni talab qiladi.

Ular qiymat shakllarini, ish haqi, foyda va yer rentasining xususiyatlarini o'rganishni maqsad qilganlari yo'q. Balki, siyosiy iqtisod fani oldiga yangi vazifalarni: kapitalistik ishlab chiqarish usulining vujudga kelishi va rivojlanishi, undagi qarama-qarshiliklar, nima uchun

va qanday ko'rinishda sotsializmga o'rin bo'shatishi kerakligini o'rganishni qo'yadi.

1831-yilda boshlangan to'rtinchı bosqich Sen-Simonizm inqirozi bosqichidir. Ishchilar orasida mustahkam o'rin egallamagan Sen-simonchilar dastlabki revolutsiyalar davrida o'zlarini ancha yo'qotib qo'ydilar. Natijada ular orasida kelishmovchiliklar vujudga kelib, ikkiga bo'linishga, keyinchalik esa Sen-Simonizmning oqim sifatida butkul tarqalib ketishiga sabab bo'ldi.

Sen-Simon yangi jamiyatning umumiy qiyofasini, ya'ni eskizini yaratgan bo'lsa, Fure, o'z navbatida, undagi mehnatni va hayotni tashkil qiluvchi alohida yacheylarning mohiyatlarini o'rgandi. Fure asarlari va g'oyalaring ahamiyati shundan iboratki, olimning o'zi kapitalizm qonuniyatlarini o'rganishga harakat qildi. Uning mehnatni tashkil qilish, mehnatni tabiiy zarurat o'rniда bilish va musobaqalar to'g'risidagi g'oyalari hozirgi davrda ham katta ahamiyaiga egadir.

Xayoliy sotsialistlar ichida Ouen birinchi bo'lib klassik iqtisodiy maktab prinsiplari asosida kapitalizmga qarshi xulosalar chiqardi. U o'z qarashlarini Rikardoning qiymatning mehnat nazariyasi asosida yaratib, ayrim hollarda Buagilber qarashlaridan ham keng foydalandi.

R.Ouen tashviqotlaridan ruhlangan klassik iqtisodchilar Smit va Rikardo ta'lomitlari bilan yaqindan tanish bo'lgan va siyosiy iqtisodda ishchilar manfaatlarini birinchi bor ifoda etgan kishilar sotsialistrikardochilar edi. Ularning iqtisodiy g'oyalari Ouennikiga nisbatan ancha mukammal bo'lib, Rikardo ta'lomitini ilmiy rivojlantirishga urindilar. XIX asrning oxiri va XX asr boshida kapitalizmning monopoliyalashgan davrida leninizm ta'lomi yuzaga kelgan bo'lib, marksizm to'ldirildi va rivojlantirildi. Bu ta'lomitga ko'ra kapitalizmning yemirilishi va inqilob nisbatan past rivojlangan, imperializm zanjirlari bo'sh bo'lgan ayrim mamlakatlarda ham ro'y berishi mumkinligi ko'rsatildi.

Bu bashorat XX asr boshida qisman Rossiya, Mongoliya, II Jahon urushidan keyin bir qancha Yevropa, Osiyo va Amerika mamlakatlarda oqlandi. 70 yildan ortiq davom etgan «sotsialistik» jamiyat qurish tajribasi o'zini to'la oqlamadi. Ayniqsa, sof bozor munosabatlaridan voz kechish, davlat mulkinining yetakchi bo'lib olishi ma'muriy-buyruqbozlik asosidagi iqtisodiyotni keltirib chiqardi, erkin bozorga zid iqtisodiyotni vujudga keltirdi. Oqibatda sobiq SSSR va boshqa «sotsialistik» deb atalgan mamlakatlarda iqtisodiy va siyosiy inqiroz ro'y berdi, ular parchalandi va bozor iqtisodiyoti yo'liga o'tishga majbur bo'ldi.

Asosiy tushuncha va iboralar

Nobozor iqtisodiy g'oyalar, assotsiatsiya, yacheyka, falanga, xaos, pamphlet, xartiya, chartizm, Marksning qo'shimcha qiymat nazariyasi, kapitalizmnning taqdiri, asosiy aylanma kapital, kapitalning organik tuzilishi, aholining absolut va nisbiy qashshoqlashuvi, kapitalizmnning o'limi haqidagi g'oyalarning asossizligi, monopolistik kapitalizm, «sotsiolistik» deb atalgan g'oyaning tarixiy taqdiri.

Nazorat va mulohaza uchun savollar

1. Xayoliy sotsializm vujudga kelishidagi tarixiy shart-sharoitlar.
2. Xayoliy sotsializmning haqiqiy rivojlanish davri qaysi davrga to'g'ri keladi?
3. Xayoliy sotsialistlar adolatli jamiyatga o'tish yo'llarini qanday ko'rsatdilar?
4. Sen-Simonning iqtisodiy qarashlari haqida nimalarni bilasiz?
5. Sen-Simon fransuz ma'rifatparvarlaridan nimasi bilan farq qiladi?
6. Sen-Simonning jamiyatning rivojlanish konsepsiysi qanday edi?
7. Sh.Furening iqtisodiy qarashlari haqida nimalarni bilasiz?
8. Sen-Simon va Sh.Furening iqtisodiy g'oyalari bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
9. R.Ouenning iqtisodiy konsepsiyasiga xos xususiyatlar nimalardan iborat?
10. R.Ouenning qanday asarlarini bilasiz?
11. Sotsialist-rikardochilar (J.Grey, T.Godskin, J.Brey)ning iqtisodiy qarashlariga xos xususiyatlar nimalardan iborat?
12. Sotsialist-rikardochilar qanday iqtisodiy masalalarga ahamiyat berdilar?
13. Iqtisodiy ta'limotlar tarixida sotsialist-rikardochilarning tutgan o'rni va ahamiyati.
14. Marksizm vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari nimalardan iborat?
15. K.Marks va F.Engels iqtisodiy ta'limotining asosini nimalar tashkil etadi? Qo'shimcha qiymat nazariyasi nima?

XIII b o b. GERMANIYADAGI TARIXIY MAKTAB IQTISODIY G'OVALARINING MOHIYATI

13.1. Germaniya tarixiy maktablarining o'ziga xos xususiyatlari

Taniqli ingliz iqtisodchi olim Mark Blaug XIX asrning 60-yillarida Yevropa qit'asida klassik iqtisodiy maktabga muqobil nazariy maktablarning shakllanishini ta'minlaydigan haqiqiy intellektual inqiroz sezilmasdan turib, yagona tarixiy maktabgina o'zining muqobil modelini taklif qilganini alohida ta'kidlaydi (Блауг М. Экономическая мысль в ретроспективе. Дело ЛТД, 1994, стр. 275). Haqiqatan ham, tarixiy maktab nazariyotchilari XIX asr Germaniyasi taraqqiyotiga va ilm-fan rivojiga salmoqli hissa qo'shdilar. «Tarixiy usul» jozibasi keyingi avlod iqtisodchilari tomonidan Yangi tarixiy maktabning yaratilishiga sabab bo'ldi.

Barcha tarixiy maktablarning mualliflari klassiklarni tanqid qilishda bir fikrda edilar. Ular klassiklar abstraksiya va umumiy xulosalarga berilib, kerakli fakt va kuzatishlarga e'tiborsiz qarashayotganliklarini, shuningdek, iqtisodiy liberalizm negizlarini mutlaq holda ko'rsatayotganliklarini tanqid qilib, voqelikni haqqoniy tadqiq qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar.

Yangi davr talablarini F.List va keyinchalik tarixiy maktab vakillari hal etishga harakat qildilar. F.List o'z qarashlari bilan nafaqat iqtisodiy nazariyani rivojlantirishga intildi, balki endi rivojlanayotgan davlatning iqtisodiyy siyosatini tubdan o'zgartirishga harakat qildi. Uning milliy xo'jalik tizimi ilg'or nemis burjuaziyasni mansaatlarini ifoda etib, industrial rivojlanish yo'llarini izladi.

Tarixiy maktab vakillari tarixdan bo'lak yana nima milliy bo'lishi mumkin, degan fikrlarga asoslanib, siyosiy iqtisodda tarixiy usul o'rnnini ko'rsatishga harakat qildilar. Ular milliy fan sifatida siyosiy iqtisod orqali tabiiy xususiyatlarga va xalq harakatlariga bog'liq holda rivojlanadigan milliy xo'jalikni o'rganishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ydilar.

13.2. F.Listning iqtisodiy qarashlari

Fridrix List (1789-1846) Janubiy Germaniyaning Reydlingen shahrida boy hunarmand oilasida tug'ildi. List 1819-yilda Germaniya iqtisodiy birligini ta'minlash maqsadida «*Savdo-sanoat ittifoqi*»ni tuzdi. 1825-yilda Germaniyani tark etib, AQSHga doimiy yashash uchun ketdi. 1832-yildan F.List Yevropaga qaytib, AQSHning Leypsigdagi elchisi bo'lib ishladi. U o'zining bor kuchini, idroki va iqtidorini iqtisodiy muammolarni keng o'rganishga qaratdi. Sanoat burjuaziyasi manfaatlарining ifodachisi bo'lgan F.List iqtisodiy birlik uchun birinchilar qatori maydonga chiqdi. U o'zining «**Siyosiy iqtisodning milliy sistemasi**» (1841) nomli asosiy asarida milliy siyosiy iqtisodni yaratish vazifasini o'rta ga qo'ydi. Mamlakatning ishlab chiqaruvchi kuchlari to'g'risidagi ta'limot unga asos bo'lishi kerak edi. F.List davlatning faoliyatini, dinni, axloqni, ma'naviyati kabilarni ishlab chiqaruvchi kuchlar jumlasiga qo'shdi. F.Listning ta'limotiga ko'ra, qiymatni ishlab chiqaruvchi kuchlar, «millatning ruhi» (toj-taxtning meros bo'lib qolishi, huquq, sud, armiya, polisiya va shu kabilalar) yaratadi.

F.List ta'limotida xo'jalik taraqqiyotining tarixiy bosqichlari to'g'risidagi g'oyalari katta o'rinn egallaydi. U tarixiy taraqqiyotni beshta bosqichga: badaviylik, cho'ponlik, dehqonchilik, dehqonchilik-manufaktura, dehqonchilik – manufaktura – savdo bosqichlariga bo'ladi. Bunday bo'lishdan kuzatilgan maqsad Germaniyada sanoatning o'sishini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, bирyoqlama rivojlanishdan - qishloq xo'jaligining ustunligidan voz kechish kerak, degan fikrni isbotlashdan iborat edi.

List iqtisodiy fonda klassik mакtabni, ayniqsa, uning yirik namoyandasini bo'lgan A.Smit iqtisodiyotini tanqid qiluvchi bo'lib faoliyat ko'rsatdi, lekin u klassik mакtabning asosi bo'lgan qiymat va daromadlar nazariyasini mutlaqo tahrir qilmadi. Iqtisodiyotning bu kategoriyalari olimni qiziqtirmadi. Asosiy e'tibor iqtisodiy siyosatning asosiy masalalariga, ayniqsa, tashqi savdo siyosatiga qaratildi. F.List Smit iqtisodiy tizimini kosmopolitizmda ayblab, uni ayrim mamlakatlar xo'jalik rivojlanishining milliy xususiyatlarini ko'rmasdan, barchasiga umumiy «tabiiy» qonun-qoidalarni dogmatik ravishda majburiy kiritayotganini ta'kidlaydi.

Listning iqtisodiy nazariyasi o'z tarixi va xo'jaligining xususiyatiga ko'ra jahon hamjamiyatining so'nggi qatorlaridan o'rinn olgan

mamlakatlarning iqtisodiy qoloqligini bartaraf etish yo‘lidagi dastlabki urinish edi.

13.3. Tarixiy maktab (V.Rosher, K.Knis va B.Gildebrand)

Gettingem va Leypsig universitetlarining professori **Vilgelm Georg Fridrix Rosher** (1817-1894) Germaniyadagi tarixiy maktabning asoschisi hisoblanadi. 1843-yilda u «**Tarixiy usul nuqtayi nazaridan siyosiy iqtisod kursining qisqa asoslari**» kitobini chiqardi. Iqtisodiy qonunlarning obyektivligini rad qilish bu ta’limotning o‘zagidir.

Rosher *tarixiy fiziologik* deb ataladigan usulni ishlab chiqdi. Bu usul kapitalizm taraqqiyotining prusscha yo‘lini, unga xos bo‘lgan feodal sarqitlarni (dehqonlarning yer egalariga bo‘ysunishi, hunarmandlarning uyushmalariga va tabaqalariga xos cheklashlarini) tarixan oqlashdan va ko‘klarga ko‘tarib maqtashdan, faktlarni to‘plashdan va shu faktlarni tarixiy o‘xshashliklar asosida izohlashdan iborat.

Rosher o‘zining nazariy qoidalarida qiymatni iste’mol qiymatidan (foydalilikdan) iborat deb bildi, kapital deganda unumli iste’mol uchun mo‘ljallangan har qanday mehnatni tushundi.

Tarixiy maktab g‘oyalarini **Karl Knis** (1821-1892) jon-jahdi bilan o‘rgandi. 1853 yilda uning «**Tarixiy usul nuqtayi nazaridan siyosiy iqtisod**» kitobi bosilib chiqdi. Bu kitobda u mazkur maktabning qarashlarini himoya etish va muntazamlashtirishga harakat qildi. K.Knis alohida iqtisodiy qonunlar yo‘q, faqat doimo va hamma joyda amal qiladigan tabiiy qonunlar bor deb da’vo qildi.

Uhing fikricha, siyosiy iqtisod faqat iqtisodiy hodisalarni tasvirlab berishi mumkin, u nazariy umumlashmalarni berishga qodir emas. Knis millat turmushining iqtisodiy sharoitlari uchun individ (shaxs), jamiyat va davlatning mas’uliyatini eklektik (qorishma) tarzda birlashtirmoqchi bo‘ldi.

1848-yilda **Bruno Gildebrand** (1812-1878) «**Hozirgi zamon va kelajakning siyosiy iqtisodi**» kitobini e’lon qildi. Bu kitobda u F.Engelsning «**Angliyada ishchilar sifining ahvoli**» asariga qarshi chiqdi. B.Gildebrand kapitalizm ishchilar sifining ahvolini yaxshilaydi va bu tuzumga qarshi kurashdan ma’no yo‘q, deb hisoblaydi. B.Gildebrand qiymatni foydalilikdan iborat deb bildi va xususiy mulkchilikning himoyachisi bo‘lib maydonga chiqdi.

B.Gildebrand taklif etgan insoniyat taraqqiyotining tizimi natura, pul va kredit xo'jaligini o'z ichiga oladi. U ayrboshlash konsepsiyasiga asoslanib ish tutadi.

13.4. Yangi tarixiy maktab va «ijtimoiy yo'naliш»

XIX-asrning ikkinchi yarmida ham Germaniyada iqtisodiyot fani tarixiy usul asosida rivojlanmoqda edi. Nemis iqtisodchilari bundan avvalgi davrda iqtisodiy adabiyotda vujudga kelgan an'analarni davom ettirib, kuchaytirdilar. Ular Germaniya ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining o'ziga xosligini aks ettirib, feodalizm sarqitlarining uzoq vaqtdan beri saqlanib kelayotganligini keskin tanqid qildilar. Shu davr Germaniya iqtisodiy tadqiqotlarida Yangi tarixiy maktab yetakchi o'rnlardan birini egallar edi. Ushbu maktabning yetakchi olimlari, **Gustav Shmoller** (1838-1917) bo'lsa, **Lun Brentano** (1844-1931), **Verner Zombart** (1863-1941), **Maks Veber** (1864-1921) o'zlarining ijtimoiy yo'naliшlari bilan «Yangi tarixiy maktab»ning ilmiy ishlarini davom ettirdilar.

Berlin universiteti professori **Gustav Shmoller** o'zining «**Xalq xo'jaligi to'g'risidagi umumiy ma'lumot asoslari**» (1900-1904) nomli asosiy iqtisodiy asarida tarixiy maktabning asosiy vakillari V.Rosher va B.Gildebrandning asosiy qoidalari va usullarini yanada rivojlantirdi. Bu iqtisodiy amaliyotdan uch xil faoliyat turi – xususiy xo'jalik, davlat xo'jaligi va diniy xo'jalikni alohida ajratib ko'rsatadi. Birinchisida xususiy manfaat, ikkinchisida jamiyat, ijtimoiy manfaat va uchinchisida xayr-ehson asosiy deb belgilanadi. Umuman, G.Shmollering qarashlariga davlatning belgilovchilik, yetakchilik rolini ko'rsatish xosdir. G.Shmoller marksizmga qarshi kurashib, ijtimoiy va sinfiy muammolarni siyosiy iqtisoddan chiqarib tashlab, uni xalq xo'jaligi tarixi faniga aylantirdi. U faktlarni va statistika manbalarini o'rganish, xalq xo'jaligidagi hodisalarini bayon etib berishni siyosiy iqtisodning bosh vazifasi deb hisoblaydi.

G.Shmoller umuman, xalq xo'jaligi o'zgarishsiz qolaveradi, degan fikrga asoslanib, uning ayrim bo'g'inlarida juz'iy o'zgarishlar bo'lishi haqidagina gapirish mumkin, deb hisoblaydi. Tadqiqotlarning qat'yan rad etilayotgan abstrakt usuliga qarama-qarshi qo'yilgan empirizm (nazariy mashg'ulotlardan ko'ra amaliy faoliyatga ko'proq moyillik) olim va uning izdoshlariga xos xususiyat edi.

G.Shmoller iqtisodiyotda odob-huquq omilini belgilovchi omil deb hisoblab, har bir xalqning hayot tarzi odob qoidalarida, xo'jalik huquqida o'zining asosiy ifodasini topadi, deb ta'kidlaydi. Yangi tarixiy maktab iqtisodchilari Germaniyada kuchli milliy davlat tashkil etilishi tarafldori edilar.

G.Shmoller tomonidan tuzilgan «Ijtimoiy siyosat uyushmasi»ning faoliyati shu maqsadga xizmat qilar edi. Uning yetakchi nazariyotchilari universitet professorlari bo'lib, ularning dasturlari «*kafedr-sotsializm*» (kafedradagi sotsializm) deb atalar edi. Ushbu dasturdagi boshlang'ich ta'limdi majburiy kiritish, bolalar, o'smirlar va ayollar mehnatini davlat tomonidan tartibga solish, ishchilarni kasallik va baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish, qarilik va mehnat layoqatlarini yo'qotgan chog'ida nafaqa to'lash kabi islohotchilik g'oyalari sotsial-demokratlar orasida ham keng yoyildi.

Germaniyada Luno Brentano ham asosiy nazariyotchilardan hisoblanib, «Yangi tarixiy maktab»ning liberal qanotiga boshchilik qildi. O'zining «Klassik siyosiy iqtisod» (1888), «Tarixda axloq-odob va xalq xo'jaligi» (1894) nomli asosiy asarlari bilan iqtisodiy fan taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi. L.Brentano G.Shmoller kabi iqtisodiyotda axloq va huquq omillari belgilovchi rol o'ynaydi deb hisoblab, ishlab chiqarish va uning tabiiy va ijtimoiy jihatlariga e'tibor bermaydi. U ayirboshlash konsepsiyasining tarafldori bo'lib, realizatsiya va ayirboshlash sharoitlarining o'zgarishi xo'jalik turmushida va ishlab chiqarish shakllarida belgilovchi ahamiyatga ega bo'ladi deb hisoblaydi. U o'zining liberal «ijtimoiy inoqlik» deb nomlangan islohotlar dasturida ingliz tred-yunionlari (kasaba uyushmalari) tajribalaridan keng foydalanishni taklif qiladi. Jumladan, kasaba uyushmalari fabrika qonunlari yordamida ishchilar o'rta ga tashlagan talablarni qondirishda foydalanish bilan birga uy-joy qurilishi va matlobot kooperatsiyalarida ham turli masalalarni hal etishda keng foydalanishlari zarur deb hisoblaydi.

Yangi tarixiy maktab Brentano timsolida o'zining yuksak cho'qqilariga yetgani yo'q edi. Uning ijtimoiy to'qnashuvlarning oldini olishga qaratilgan «sinfiy inoqlik» nazariyasi islohotchilik oqimidagi ijtimoiy maktablar, institutsionalizm yo'nalishi uchun asosiy manba rolini o'ynadi, xolos.

K.Menger G.Shmollering shogirdi Verner Zombart ham Yangi tarixiy maktabning asosiy vakillaridan edi. Berlin universitetining

professori Zombart K.Marksning olimligini uning revolutsionligidan ajratib, mana shu ikki negizning bir-biriga zidligi to'g'risidagi fikrni ko'tarib chiqdi. Shuningdek, markscha siyosiy iqtisodning iqtisodiy kategoriyalarini chunonchi, qiyamatning mehnat nazariyasi «ishning g'oyasi» deb e'lom qilindi va fikran mantiqiy bir ishdan iborat deb ko'rsatildi. Zombart ishlab chiqarishning uch omili xususidagi nazarriyaning tarafdori bo'lib (kapital, mehnat, yer), antagonistik ziddiyatlar va iqtisodiy inqirozlarning muqarrarligini inkor etdi. Uning fashizmga yaqinligi Yangi tarixiy maktab vakillari orasida yagona jiddiy kamchilik edi.

Maks Weber ma'lumotli va ko'pqirrali olim edi. U falsafa, tarix, sotsiologiya va iqtisodiyot fanlarining rivojiga katta hissa qo'shdi. Uning ijodida tarixiy maktab o'zining eng yuqori pog'onasiga ko'tarildi. M. Weber hammadan ko'proq darajada noto'g'ri fikrga asoslangan millatchilik va bir taraflama «tarixiy usul»dan ozoddir. O'zining dastlabki asarlarida M. Weber tarixiy fanlarga faqat bayonchilik yetarli emasligini ko'rsatdi. U «yuksak benuqson tiplar» konsepsiyasini ilgari surdi. Yuksak va benuqson tip - bu o'z mohiyatiga ko'ra olim shakllantirgan konkret faktlar va u yoki bu xalqning tarixiy rivojlanish jarayonlarini tushuntirib berishi uchun tuzadigan muayyan sxemasidir. M. Weberning XV-XVI asrlarda Yevropaning xo'jalik burilishiga deformatsiyaning ta'siri sohasidagi izlanishlari fanda juda katta iz qoldirdi. Bu izlanishlarning markazida «Protestant etikasi va kapitalizm ruhi» asari turadi. Ma'lum ma'noda Weber Zombart amalga oshira olmagan ishni, ya'ni fundamental tarixiy-iqtisodiy asarni yaratdi. Bu kitob sayo-xatchining kelajak haqidagi yozuvlari emas, balki kosmosdan turib kuzatishi edi.

Qisqacha xulosalar

F.List va tarixiy maktab namoyandalari o'z asarlari va uslubiyatlari bilan Germaniyada iqtisod fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shdilar.

List asarlarining betakrorligi va ilmiy ahamiyati xo'jalik siyosiy muammolarini chuqur tahlil qilishda hamda kam rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish qiyinchiliklarini oldindan ko'rsatib berishda o'z o'rmini topadi. F.Listning traktati to'rtta asosiy kitobdan iborat bo'lib, «Tarix», «Nazariya», «Sistemalar» va «Siyosat» deb nomланади. Birinchi kitobda u Yevropa xalqlarining iqtisodiy tarixini

o‘rganib, zarur xulosalar chiqaradi. Ikkinci kitob olimning iqtisodiy qarashlarining nazariy asoslarini ko‘rsatib beradi. Uchinchchi kitobda List siyosiy iqtisodning bir nechta tizimlarini ko‘rib chiqadi. Jumladan, merkantilistlar, fiziokratlar tizimlari bilan bir qatorda sanoat tizimi mavjudligini ko‘rsatib o‘tadi.

B.Gildebrandning «Hozirgi zamon va kelajakning siyosiy iqtisodi» va K.Knisning «Tarixiy usul nuqtagi nazaridan siyosiy iqtisod» nomli kitoblari nashr qilinishi iqtisodiy ta’limotlar tarixida tarixiy maktab o‘rnini mustahkam belgilab berdi.

Shunday qilib, tarixiy maktab vakillari tarixiy rivojlanish ketma-ketligini e’tirof etib, iqtisodiy qonunlarni e’tibordan chetda qoldirdilar. XIX asrning 70-yillarda iqtisodiy ta’limotlar tarixi fanida bir nechta nazariy maktablar vujudga keldiki, ular o‘z maqsad, vazifalari va uslubiyatlari bilan o‘zaro farq qilar edilar. Germaniyadagi yangi tarixiy maktab ham xuddi ana shunday ya’ni, yangi yo‘nalishni ilmiy asoslashga harakat qilgan va klassik nazariyotchilarni ayovsiz tanqid qilgan nazariy maktablardan biri edi.

Ushbu maktab iqtisodchilari klassiklar fikriga qarshi iqtisodiy qonunlarning nisbiy, tarixiylik nuqtagi nazaridan vaqtincha ekanligini hamda ijtimoiy va tabiiy faktorlarga mos ravishda shartli ekanligini ko‘rsatib berdilar. Shuningdek, klassiklarning «iqtisodiy inson» g‘oyalari ham tanqid qilinib, undagi insonlarning xo‘jalik faoliyati – xulqiga xos kechinmalari (ijtimoiy manfaat, oilaviy g‘amxo‘rlik, mehribonlik, burchni his etish, urf-odatlar va boshqalar) e’tibordan chetda qolma-ganligini alohida ta’kidladilar.

Vanihoyat, ular klassik maktabga xos bo‘lgan abstraksiya va deduksiya uslublaridan keng foydalanish, o‘z navbatida, ilmiy kuzatish va induksiya uslublaridan yetarli foydalanmaslikka asosiy sabab ekanligini ko‘rsatib berdilar. Haqiqatan ham, yangi tarixiy maktab olimlari qo‘llagan iqtisodiyot fanidagi yangicha tarixiy usullar ushbu maktab erishgan ijobiy yutuqlarga asosiy sababchi edi.

Asosiy tushuncha va iboralar

Tarixiy maktab, F.List; millatning ruhi, iqtisodiy ta’limotlar tarixida tarixiy usul, yangi tarixiy maktab, davlat sotsializmi, benuqson tiplar, pluralizm.

Nazorat va mulohaza uchun savollar

1. XIX asrning o‘rtalarida Germaniyaning iqtisodiy rivojlanishi xususiyatlарини айтинг.
2. F.Listning hayoti va ijodi haqida nimalarni bilasiz?
3. F.List iqtisodiy ta’limotlar tarixi fanida qaysi yo‘nalishga asos soldi?
4. F.List ta’limotida xo‘jalik taraqqiyotining tarixiy bosqichlari qanday ifodalanadi?
5. Tarixiy mакtabning asosiy vakillari kimlar? Ular haqida ma’lumot bering.
6. K.Knisning tarixiy maktab rivojiga qo‘sghan hissasi va uslubiyatini tushuntirib bering.
7. Insoniyat taraqqiyotining B.Gildebrand taklif etgan tizimi qaysi xususiyatlари bilan ajralib turadi?
8. Tarixiy mакtabning iqtisodiyot fani rivojiga qo‘sghan hissasi va yo‘l qo‘ygan kamchiliklari haqida gapirib bering.
9. XIX asrning 70-yillarda shakllangan qaysi nazariy mакtablами bilasiz?
10. G.Shmoller va L.Brentanoning iqtisodiy mavzudagi asosiy asarlari va uslubiyati haqida gapirib bering.
11. «Ijtimoiy-siyosat» uyushmasining asosiy vazifalari nimadan iborat?
12. V.Zombart va M.Veberning asosiy iqtisodiy asarlari qaysilar?
13. Eng yangi tarixiy maktab yoki ijtimoiy yo‘nalish nazariy mакtabining asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?

TO'RTINCHI QISM

XIX ASR OXIRI – XX ASRLARDAGI IQTISODIY TA'LIMOTLAR

XIV b o b. MARJINALIZM

14.1. Marjinalizmning umumiy ta'rifi va rivojlanish bosqichlari

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida iqtisodiy ta'limalarning rivojlanishi (evolutsiyasi) kapitalizm iqtisodiyotida uning siyosiy ustqurmasida yuz berayotgan tub siljishlarni aks ettirar edi. XIX asrning so'nggi choragida erkin raqobatning monopoliyaga aylanishi iqtisodiyotdagi eng muhim hodisa bo'ldi. Bu jarayon kapitalizm ziddiyatlarning, ayniqsa, mehnat bilan kapital o'rtasidagi ziddiyatlarning chuqurlashuvi va keskinlashuvi bilan ayni bir vaqtda ro'y berdi. XIX asrning 70-yillaridan boshlab qiymat nazariyasi va uni ilmiy tahlil qilishda ham chinakam inqilobi o'zgarish yuz berib aynan shu davrda Yevropaning bir nechta mamlakatlarida turlicha nazariy maktablar shakllandi. Ushbu maktablar yaratgan iqtisodiy ta'lilot fanda «marjinalizm» ta'liloti deb nomlanib, XX asrning 30-yillarigacha o'z mavqeyini saqlab turdi.

Marjinalizm fransuzcha marginal so'zidan olingan bo'lib «eng yuqori» (chevara) ma'nosini bildiradi.

U.Stenli Jevons bu boradagi o'zining ilk fikrlarining 1862-yilda Britaniya fanlarini rivojlantirish Assotsiatsiyasida qilgan «Siyosiy iqtisodning umumiy nazariyasi haqida qisqacha bildirish» nomli ma'nuzasida bayon etgan edi. 1871-yilda esa U.Jevons yangi nazariyasini ilmiy asoslashga bag'ishlangan fundamental asar bo'lgan «Siyosiy iqtisod nazariyasi» nomli kitobini Angliyada nashr qildirdi. Aynan mana shu yili — 1871-yilda Avstriyada Karl Mengerning «Siyosiy iqtisod asoslari» nomli kitobi ham e'lon qilindi. Bu kitobda ham xuddi mana shu «eng yuqori foydalilik» nazariyasi tahlil qilinib, matematik formula va teoremlarsiz ilmiy jihatdan asoslab berildi.

1874-yilda Shveysariyada Leon Valrasning «Sof iqtisodiyot fani elementlari» nomli kitobi nashrdan chiqdi. Bu kitobdag'i iqtisodiy nazariya to'liq ravishda matematik jihatdan rivojlantirildi. Shunday qilib, yangi yo'nalish bir vaqtda uchta olim tomonidan turli mamlakatlarda ingliz, nemis va fransuz tillarida ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Marjinalizm va uning rivojlanish davrini ikki bosqichga bo'lib o'rghanish maqsadga muvofiqliр.

Birinchi bosqich XIX asrning 70-80-yillarini o'z ichiga olib, iqtisodiy tahlilning dastlabki marjinalistik g'oyalarini mujassam qilgan dastlabki ilmiy asarlar yaratildi. (K. Menger, U. Jevons va L. Valras asarlari). Bu davrda insonning psixologik xususiyati, ya'ni uning hissiyoti va qabul qilishi asosida o'rGANILADI. Shuning uchun marjinalizmning bu bosqichini iqtisodiy ta'limotlardagi «subyektiv yo'nalish» deb ataldi.

Ikkinci bosqich XIX asrning 90-yillariga to'g'ri kelib, bu davrdan boshlab marjinalizm ko'pgina mamlakatlarda mashur asosiy ta'limotga aylandi. Marjinalistlarning bu davrda erishgan asosiy yutuqlari subyektiv-psixologik yo'nalishdan voz kechib, iqtisodiyotning asosiy maqsadi bu iqtisodiy hayotning doimiy borishini mavjud shart-sharoitlar asosida tushuntira bilish demakdir, dedilar. Natijada yangicha iqtisodiy g'oyalar namoyandalari klassik iqtisodiy maktabning davomchilarini sifatida baholanib, ularga neoklassiklar deb nom berildi.

Marjinal rivojlanishning ikkinchi bosqichini, ya'ni neoklassik iqtisodiy ta'limotni rivojlanishiga yirik iqtisodchi olimlar A. Marshall, Dj. B. Klark va V. Pareto katta hissa qo'shdilar.

14.2. Avstriya maktabi. Subyektiv - psixologik yo'nalish

XIX asrning 70-yillarida iqtisodiy ta'limotlarning nufuzli maktablaridan biri bo'lgan Avstriya maktabi vujudga keldi. Avstriya maktabini subyektiv yoki subyektiv-psixologik maktab deb ham ataydilar. Uning mafkurachilari qo'llagan usul munosabati bilan unga mana shunday nom berilgan. 70-yillarda Avstriya maktabining asoschisi **K. Menger** (1840-1921) bu g'oyani rivojlantirdi. Avstriya maktabining konsepsiyalari K. Mengerning «Siyosiy iqtisod asoslari» (1871), F. Vizerning (1851-1926) «Xo'jalik boyligining kelib chiishi va asosiy qonunlari to'g'risida» (1884), E. Byom-Baverkning (1851-1914) «Kapital va foyda» (1884-89), «Xo'jalik ne'matlari boyligi nazariyasining asoslari» (1886), «K. Marks nazariyasi va uning tanqidi» (1896) va

boshqa asarlarida bayon etilgan. Avstriya maktabining ta'limoti Angliya, Germaniya, AQSH Rossiyada va boshqa mamlakatlarda yoyildi. Bu ta'limot iqtisodiyot fanining shundan keyingi rivojiga katta ta'sir o'tkazdi.

Avstriya maktabi iqtisodchilarining asarlarida avvalo siyosiy iqtisod predmeti, uning uslubiy negizlari va tadqiqot usuli to'g'risidagi ta'limot yanada kengaytirildi. Menger va uning tarafdarlari ishlab chiqarish munosabatlarini, ishlab chiqarishning rivojini tartibga soluvchi iqtisodiy qonunlarni siyosiy iqtisod predmetiga kiritmadilar.

Ularning konsepsiyasiga ko'ra, siyosiy iqtisod xo'jalik subyekti tajribasining butun xilma-xilligi bilan uni idrok etishni o'rganishi lozim edi. Byom-Baverkning da'vo qilishicha, siyosiy iqtisod subyekt sifatida iqtisodiy hodisalarни izohlaydigan ildizlarni izlashi kerak. Alovida xo'jalik tadqiqot obyekti qilib olinar va jamiyatning eng oddiy tipik elementi deb talqin qilinar edi. Jamiyatdan mutlaqo ajralgan shaxs - Robinzon xo'jaligi mana shunday xo'jalikning oliy maqsadi deb atalardi (D.Defoning asarini eslang). Avstriya maktabi kapitalistik xo'jalikni eng oddiy elementlarning mexanik yig'indisi deb talqin etardi.

Tadqiqotning bu usuli *Robinzonada* usulni degan nom oldi. Ayrboshlash konsepsiyasining tarafdarlari bo'lgan Avstriya maktabalarining iqtisodchilari iqtisodiy masalalarini faqat bozor munosabatlaridan, ya'ni ayrboshlash munosabatlaridan iborat qilib qo'ydilar. Ular individlarning moddiy ne'matlarni iste'mol qilishi xo'jalik faoliyatini tashkil etuvchi asosiy omil deb da'vo qilishdi.

Qadriyat (qimmat) nazariyasi Avstriya maktabining konsepsiyalarda markaziy o'rinni oldi. Bu nazariya «eng yuqori foydalilik» nomini oldi. Siyosiy iqtisodda qabul qilingan «tovar» va «qiymat» kategoriyalari ne'mat va qadriyat tushunchalari bilan almashtirildi. K. Menger, E. Byom-Baverk va boshqalar qiymat kategoriyasini subyektiv mazmun bilan to'ldirdilar. Uning ustunligi sifatida iste'mol qiymati yoki moddiy ne'matlarning foydaliligi qabul etildi. Foydalilik deganda Byom-Baverk moddiy ne'matlarning umumiy xususiyatini tushunar edi. Bu xususiyat moddiy ne'matlarning shaxslar farovonligiga ehtiyojlarining qondirilishiga munosabati bilan belgilanadi deb hisoblar edi. Qiymat qimmat va qadriyat tushunchasi bilan almashtiriladi.

Ne'matning foydaliligi uning asosi deb hisoblanardi. Byom-Baverk foydalilikning oddiy (mavhum) va malakali (aniq) turini bir-biridan farq qilardi. Mavhum foydalilik mo'l-ko'l moddiy ne'matlarga xos bo'lgan foydalilik deb ta'riflanar edi. Bu holatda ne'mat birligining

foydaliligi 0 dan iborat deb hisoblanardi (daryo yonida suv, havo va boshqalar). Zaxiralari cheklangan ne'mat malakali foydalilik deb ta'riflanar, bu ne'matlarning hatto birlik hajmida kamayishi ham shaxsnинг farovonligiga ta'sir qiladi deb uqtirilardi. Foydalilikning bunday bo'linishi moddiy ne'matlар qadriyatining vujudga kelishi bilan bog'liq qilib qo'yilar edi. Avstriya maktabining iqtisodchilari, hamma ne'matlар emas, balki miqdori cheklangan ne'matlarnigina qadriyatga ega bo'ladi, deb hisoblashardi. Ularning nazarida mana shu qadriyatlarga ayirboshlanishi mumkin edi. Byom-Baverkning fikricha, qadriyatning vujudga kelishi uchun noyob foydalilik bilan birga qo'shilishi zarur, ammo mutlaq noyoblik emas, balki mazkur turdagи buyumlarga bo'lgan mavjud ehtiyojning miqyosiga qiyosan «nisbiy» noyoblik nazarda tutilardi.

Qadriyatning hosil bo'lishida Byom-Baverk ikki bosqichni alohida ko'rsatdi, birinchi bosqichni u subyektiv qadriyatning hosil bo'lishi bilan bog'ladi, bunda u ne'matning shaxs ehtiyojlarini qondirishda qanday rol o'ynashiga qarab, shu subyekt ne'matga beriladigan shaxsiy baho nazarda tutilar edi. Agar foydalilik mavhum bo'lsa, u holda ne'mat baho olmaydi va uning subyektiv qadriyati 0 ga teng bo'ladi. Sersuv buloq yonida turgan kishi uchun bir stakan suv bunga misol qilib ko'rsatiladi. Ammo sahroga borib qolgan kishi uchun o'sha bir stakan suvning o'zi aniq foydalilik kasb etadi. Shaxsnинг farovonligigina emas, uning hayoti ham shu suv bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu holatda bir stakan suv subyektiv qadriyatga ega bo'ladi. Byom-Baverkning ta'biricha, buyumning qadri uning eng yuqori foya miqdori bilan o'lchanadi, bunda xo'jalik ne'matlari muayyan turidan olinadigan eng oz naf nazarda tutiladi. Buni Robinzon yetishtirgan besh qop don misolida ko'rish mumkin: bir qopi oziqqa, ikki qopi urug'likka, uch qopi yem uchun va hokazo. Byom-Baverk bu «qonun»ning amal qilishini besh qop don hosili olgan shaxsnинг xo'jaligi misolida ko'rsatadi. Hamma qoplardagi donning sifati va vazni teppa-teng. Biroq Byom-Baverknig nazariyasiga ko'ra, bir qop donning subyektiv qadriyati kamayib boruvchi foydalilik prinsi pi asosida belgilanishi kerak. Birinchi qop don shaxsnинг eng zarur hayotiy ehtiyojini qondiradi va shu sababli eng ko'p foydalilikka ega bo'ladi. Keyingi qoplarning foydaliligi kamayib boradi. To'tiqushni boqishga mo'ljallangan so'nggi qop ham foydalilikka ega. Ana shu so'nggi qop don mazkur moddiy ne'mat birligining subyektiv qadriyatini belgilaydi. «Barcha

mavjud don zapasi besh qop bo‘lgan taqdirda bir qop donning qadriyati to‘tiquish boqish qiyomatiga teng bo‘ladi», - deydi Byom-Baverk.

Byom-Baverk qadriyat hosil bo‘lishidagi ikkinchi bosqichni «obyektiv qadriyat» bilan bog‘ladi. U mazkur bosqichni talab va taklif xususidagi mavjud eski nazariya asosida izohladi. Obyektiv qadriyatning hosil bo‘lishini talab va taklifning stixiyali nisbati davomida bozordagi subyektiv baholarni baravarlashtirishdan iborat qilib qo‘yildi, shuning natijasida yangi, o‘rtacha qadriyat paydo bo‘lib, mana shu obyektiv miqdor deb ko‘rsatildi.

«Eng yuqori foydalilik» nazariyasi Avstriya maktabi va boshqa iqtisodiyot konsepsiyalari uchun asos bo‘ldi, bu konsepsiylar esa kapitalizm sharoitida iqtisodiyotning ijtimoiy mazmunini kuchsizlantiruvchi, uning sinsifi xarakterini inkor etuvchidir. Byom-Baverkning ta‘biricha, qadriyat to‘g‘risidagi ta’limot daromadni taqsimlash, shu jumladan yer rentasi, ish haqi, kapitaldan olinadigan foyda to‘g‘risidagi doktrinaning markaziy bandidir.

Avstriya maktabining taqsimlash nazariyasi bir qancha mavjud konsepsiyalarni: J.B.Seyning ishlab chiqarishning uch omili, taqsimot konsepsiyasini, «eng yuqori foydalilik» nazariyasini o‘z ichiga oladi. Bu o‘rinda ishlab chiqarish omillari unumli ne’matlar deb atalgan. Ularning har biriga (yer, kapital va mehnatga) olingan iste’mol ne’matlarining muayyan qismi muvofiq keladi.

14.3. U.Jevons va L.Valrasning marjinalistik g‘oyalari

Uilyam Stenli Jevons (1835-1882) London universitetida matematika va ximiya fanlaridan tahlil olish bilan birga siyosiy iqtisodni ham qiziqib o‘rgangan. 1863 yilda Manchester shahridagi kollejga siyosiy iqtisod o‘qituvchisi bo‘lib ishga kirdi. Oradan ko‘p vaqt o‘tmashdan uning iqtisodiy mavzuda «Siyosiy iqtisod nazariyasi» (1871), «Fan tamoyillari» (1874) va boshqa asosiy asarlari e’lon qilindi.

XIX asrning oxirigacha U.Jevons va uning asarlari o‘zining kuchli matematik ifodasi tufayli o‘quvchilar tomonidan to‘liq e’tibor bilan qabul qilinmadni. Lekin uning g‘oyalari dagi subyektivizm asosiy ilmiy asarlarda aniq o‘z o‘rnini topgan edi. Masalan, U.Jevons iste’mol, talab, foydalilik haqida o‘z holicha tushunchalar berish bilan birga, tovarlar narxi uning me’yoriy foydaliligi bilan funksional bog‘liqidir deb ko‘rsatadi. Shuningdek, olim klassiklarning raqobat haqidagi

fikrlarini qo'llab, sotuvchi va oluvchi o'zaro muloqotda bo'lib, kerakli ma'lumotni bir-biridan olishi mumkin deb ko'rsatadi. Natijada u quyidagicha xulosa keltirib chiqaradi: bozordagi sotuvchilar (subyektlar) insonlar ehtiyoji uchun zarur bo'lgan tovarlarni muhayyo qilib, ularning iste'mollarini to'laroq qondiradilar. Shu fikri bilan U Jevons birinchilardan bo'lib me'yoriy tahvilni maydonga tashlaydi va marjinalizm asoschilaridan biriga aylandi.

Leon Valras (1834-1910) marjinalizmning Lozanna (Shveysariya) deb ataluvchi maktabi asoschisi hisoblanadi. Unga keyinchalik Pareto, Italiyadan *Borone*, *shvetsiyalik Kassel*, amerikalik *Leontev* va boshqalar qo'shildi. L.Valrasning «*Sof iqtisodiy fan elementlari*» (1874) asari iqtisodiyotda matematikaning shaxdam qadamlariga asos soldi. Shu sababli u matematik maktabning davomchisi hamdir. Har qanday iqtisodiy tahvilni matematik izohlashga intilish bu maktab va uning izdoshlariga xos xususiyat hisoblanadi. Valrasning fikricha, har qanday iqtisodiy nazariyani faqat matematika asosida qisqa, aniq va ochiq isbotlash mumkin. Uning o'zi matematikani yaxshi bilgan va Kurnoni o'zining ustozи deb hisoblagan holda, undan ilhomlangan. Keyinchalik «*eng yuqori foydalilik*» (naf) deb atalgan tushunchani L.Valras «*noyoblik*» (rarete) deb izohlaydi. Buni u miqdor iste'molning kamayuvchi funksiyasidir deb ifodalaydi (ya'ni biror noz-ne'matning iste'mol soni oshishi bilan uning noyoblik miqdorining ko'rsatkichi tobora pasayadi). L.Valras shuni aniqladiki, eng yuqori foydalilik iste'molchi tomonidan (mazkur daromad doirasida) sarflanayotgan mablag'larning so'nggi ulushining iste'mol qilinayotgan barcha noz-ne'matlardan bir xil qoniqish hosil qilishidir. Shu bilan birga, iste'molchi ne'matlar qimmatini o'zi belgilaydi. Masalan, uning uchun paypoq galstukdan, go'sht paypoqdan qimmatiroq va hakozo. Boshqacha qilib aytganda, iste'molchi o'zining belgilangan daromadini galstukka nisbatan paypoqqa tezroq, paypoqqa nisbatan go'shtga tezroq sarflaydi. Mana shunday turli-tuman ehtiyoj bo'lganligi tufayli, iste'molchi har bir ne'matdan shunday miqdorda xarid qiladiki, so'nggi juft paypoq, oxirgi galstuk va so'nggi nimta go'shtdan bir xil qoniqish hosil bo'ladi. Faqat shundagina barcha sotib olingan narsalar unda maksimal umumiyligini qoniqishni paydo qiladi. L.Valras hamma iste'molchilar o'z ehtiyojlarini qoniqtirishda maksimumga ega bo'lsalar (yuqorida aytilganlarning hammasini, shuningdek, har birining cheklangan daromadini hisobga olgan holda) iqtisodiy muvozanat

yuzaga keladi deb hisoblaydi. U bundan umumiy bozor muvozanati nima ekanligi to‘g‘risidagi masalani hal etishga muhim qadam qo‘yadi. Gap shundaki, har bir iste‘molchi va har bir ishlab chiqaruvchi (har bir xaridor va sotuvchi) o‘z sheriklaridan va iqtisodiyotda ro‘y berayotgan barcha jarayonlardan to‘la ajralgan holda harakat qila olmaydi. Boshqacha qilib aytganda, iqtisodiyotda hamma narsalar, barcha jarayonlar o‘zaro bog‘liq. Har bir baholash boshqa baholarga bog‘liq, ammo u ham boshqalarga ta’sir etadi. Bunga hayotda misollar bisyor. Masalan, mamlakatning biror hududida qishloq xo‘jaligining ortda qolishi shu mamlakat poytaxtida zargarlik buyumlariga talabning oshuviga olib kelishi mumkin.

Qisqacha xulosalar

XIX asrning 70-yillarida Avstriya maktabining shakllanishi iqtisodiyot fanida katta voqeа bo‘ldi. Uning nazariyotchilari fanda marginalizm deb nom olgan iqtisodiy nazariyani ilmiy asoslab berdilar. Bu nazariya qoidalari klassik iqtisodiy maktabdan shu darajada farq qillardiki, u ayrim hollarda fandagi to‘ntarish deb ham baholanadi. Yangicha yo‘nalishni taklif qilgan iqtisodchilar tovarlar (ne‘matlar) qimmatini unga bo‘lgan subyektiv munosabatlар bilan aniqladilar. Har qanday ne‘matlar kishilarning talabini qanoatlantirishi darajasiga qarab, foydalilik kasb etishi mumkin.

«Foydalilik» va «qimmat» kategoriyalari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik mavjud bo‘lib, har qanday ne‘mat foydalidir, lekin u qimmatli bo‘lmasligi ham mumkin. Foydali bo‘lgan ne‘matlarga ma’lum darajada qimmatli bo‘ladi. Foydalilik va qimmat kategoriyalarini ajratib ko‘rsatish bilan birga marginalistlar qiymatning mehnat nazariyasini butunlay inkor etdilar. Ular bozorlardagi iqtisodiy ne‘matlarning narxini unga sarf bo‘lgan mehnat va ishlab chiqarish xarakatlari bilan emas, balki iste‘molchining subyektiv ravishda bu ne‘mat qimmatini belgilashida o‘z o‘rnini topadi, deb hisoblaydilar.

«Eng yuqori foydalilik» nazariyasi o‘ta subyektivligi uchun tartib-sizligi va to‘la isbotlangan faktlardan keng foydalanganligi uchun ko‘p marta haqli tanqid qilindi. Lekin hozirgi zamон iqtisodiy ta‘limotlarida Avstriya maktabining g‘oyalarida, ayniqsa, mikroekono-mika bo‘limida keng foydalaniб kelinmoqda. Bu nazariyaning ustun tomoni shu bilan

belgilanadiki, unda nafaqat harajatlarning hisobi, balki ishlab chiqarish va muomalaning natijalari to'liq inobatga olinadi.

Marjinalizm inqilobi to'g'risida gap borganda Avstriya maktabi qatori Lozanna maktabini ham alohida ta'kidlashimiz zarurdir. Bu maktab asoschilari marjinalistik g'oyalarni qo'llagan holda uning qisqa, ochiq va aniq matematik ifodasini topishga harakat qildilar.

Valras foydalilik o'rniaga noyoblik tushunchasini kiritdi va miqdor iste'molining kamayuvchi funksiyasini taklif etdi. Umumi bozor muvozanati nazariyasini ishlab chiqdi va uning tenglamasini yaratdi, iqtisodiyot va matematikani bir-biriga bog'ladi. Valras qonuni bo'yicha, bozor muvozanati sharoitida umumiy talab umumiy taklifga tengdir. Agar Valras bozor muvozanati masalasini qo'yan va uning qachonlardir yechilishini bashorat qilgan bo'lsa, V.Pareto bu muammoni hal etishga muhim hissa qo'shdi va tartibli foydalilik tushunchasini kiritdi. V.Pareto optimal holati (eki Pareto optimumi) bu bozor ishtirokchilarining hammasi o'z foydasi uchun intilib, o'zaro manfaat va foydalar muvozanatiga erishmoqdalar.

Shved olimi K.Viksell normal almashuv sharoitida ikkala tomonning ham muvaffaqiyatga erishuvini isbotlab berdi. Ya'ni «almashuvdan hamma manfaatdordir» degan g'oya ilgari suriladi.

Asosiy tushuncha va iboralar

Marjinalizm, eng yuqori (chegaraviy) naf, noyoblik, ekonomiks, subyektiv-psixologik, iqtisodiy liberalizm, robinzonada usuli, subyektiv, spekulyatsiya.

Nazorat va mulohaza uchun savollar

1. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida vujudga kelgan iqtisodiy ta'limotlarga xos xususiyatlar nimadan iborat?
2. XIX asrning 70-yillarida shakllangan qaysi nazariy maktablarni bilasiz?
3. Marjinalizmning iqtisodiyot fanida tutgan o'rni qanday bo'lgan?
4. K.Menger, E.Byom-Baverk va V.Fizerning asosiy asarlari qaysilar?
5. U.Jevonsning iqtisodiy mavzudagi asosiy asarlarini aytib bering.
6. L.Valrasning iqtisodiy g'oyasiga qanday tushunchalar asos qilib olingan? Miqdor iste'molining kamayuvchi funksiyasini izohlab bering.

HOZIRGI ZAMON IQTISODIY TA'LIMOTLARINING ASOSIY YO'NALISHLARI

Birinchi navbatda «hozirgi zamon» tushunchasiga aniqlik kiritish kerak. Ba'zi iqtisodchilarning fikricha, XIX asr oxirlarida vujudga kelgan iqtisodiy g'oya, ta'limot va konsepsiylar hozirgi zamonniki deb tan olinadi.

Bu izohda mantiq bor, albatta, chunki o'sha davrda yuzaga kelgan iqtisodiy g'oyalar keyingi iqtisodiy qarashlar uchun tayanch, asos rolini o'ynaydi. Ammo bu izohning cheklanganligini ham aytish kerak, negaki XX asming o'rталари, ayniqsa, ikkinchi Jahon urushidan keyin iqtisodiy ta'limotlar bir qancha yangi qarash, g'oya, konsepsiya va nazariyalar bilan boyidi. Ularni «hozirgi zamon» iqtisodiy g'oyalariga kiritilishi tabiiy.

Ilgarilari dam-badam bo'lib turadigan inqirozlar soni va ko'lami keskin kamaydi, ammo yo'qolgan emas. Bu nisbiy yutuqlar bir tomonidan, ilmiy texnika inqilobi natijalaridan omilkorlik bilan foydalanganligi va ikkinchidan aholi ijtimoiy talablarini to'laroq qondirish bilan bog'liq bo'lgan ta'limotlar qo'llanilayotganligidir. Oqibatda ko'pchilik mamlakatlarda iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik hukm surmoqda. Ammo kapitalizm yo'lini tanlab olgan, bozor iqtisodiyotidan foydalananayotgan yuzlab qoloq davlatlar borligini ham inkor etish mumkin emas. Demak, iqtisodiy rivojlanishning yana boshqa omillari ham bo'lsa kerakki (iqtisodiy konsepsiya, siyosat...), ulardan samarali foydalananayotgan davlatlar (ularning soni 20-25 ta) jahon iqtisodiyotida yutuqlarga erishmoqdalar. Shu tajribani o'rganish va amaliyotda foydalinish hayotiy zaruriyatga aylandi.

Ko'rinib turibdiki, hozirgi zamon iqtisodiy ta'limotlari tobora churqurlashib, nazariy masalalar hayot bilan chambarchas bog'liq bo'lib bormoqda.

Biz yuqorida keltirgan iqtisodiy ta'limotlar doimo rivojlanishda bo'lib, ularning hech biri sof holda biror bir mamlakatda qo'llanilmaydi. Amaliyotda mavjud iqtisodiy ta'limotlar, ularning turli oqimlari, maktablarning qorishmalari qo'llaniladi.

Hozirgi zamon iqtisodiy ta'limotlarining asosan, uch yo'nalishini ajratish mumkin:

1. Neoklassik (yangi klassik).
2. Ijtimoiy-institutsional.
3. Keynschilik.

XV b o b. YANGI KLASSIK (NEOKLASSIK) YO'NALISHNING SHAKLLANISHI

15.1. Alfred Marshallning iqtisodiy ta'liloti

A. Marshall (1842-1924) iqtisodiyotda neoklassik (yangi klassik) yo'nalishning yetakchi vakili, marjinalizmning «Kembrij maktabi» lideri hisoblanadi. Kembrij universitetida o'qidi, uni tugatib, shu yerda butun hayoti davomida siyosiy iqtisod fanidan (1863-yildan to 1908-yilgacha) dars berdi. 1902-yildan boshlab yangi «Ekonomiks» fanini kiritdi va siyosiy iqtisod fani asta-sekin siqib chiqarildi. Marshall marjinalizm g'oyasini ijobiy ravishda (Jevonsni bilmagan holda) aniqladi. «Ekonomiks prinsiplari» (1890) A. Marshallning bosh asari bo'lib, olti jilddan iborat.

Bu kitob doim to'ldirib borildi va olim hayoti davomida 8 marta qayta nashr etilgan (ruschaga - «Принципы экономики» deb tarjima qilingan). Kitobning boshidayoq fanning predmeti to'g'risida fikr yuritiladi. Bu fan jamiyatning normal hayot faoliyatini tadqiq qilish bilan shug'ullanadi. Individual va ijtimoiy jarayonlarning farovonlikning moddiy asoslarini yaratish bilan chambarchas bog'liq bo'lgan sohani o'rGANADI. Mashhur «Ekonomiks» kitobining muallifi P. Samuelsonning bu fan predmeti nomi «iqtisodiyot» bo'lib, iqtisod yoki maksimal-lashtirishni bildiradi. Unda ishlab chiqarish hajmlari optimal bo'lganda, sof foyda maksumumga erishuviga katta e'tibor qaratilgan.


Tadqiqot usulida klassik maktab g'oyalariga vorislik mavjud bo'lib, ular yanada rivojlantiriladi. A. Marshall insonlarning iqtisodiy faoliyatini «sof» iqtisodiy nazariya pozitsiyasida turib, «mukammal raqobat» tufayli bo'lishi mumkin bo'lgan xo'jalikning ideal (benazir) modelini, tadqiq etdi. Ammo bir qancha iqtisodiyotning mo'tadilligi (muvozanati) bilan bog'liq marjinal g'oyalar orqali u bu fanni «xususiy» hol, ya'ni firma, soha (mikroekonomika) darajasida qaraydi. Bunday yondashuv olim yaratgan «Kembrij maktabi» va XIX asr oxiri - XX asr boshidagi ko'pchilik neoklassiklar uchun xosdir. Ammo shuni alohida ta'kidlash

kerakki, A. Marshall o'zidan oldin o'tgan ortodoksal klassiklardan farqli ravishda, iqtisodiy kategoriyalarni «isbot» talab etuvchi u yoki bu asosiy chegaralanishi maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Olimning tadiqotlarida bozorda erkin bahoning shakllanish muammosi asosiy o'rinni egallaydi. Bunda bozor muvozanati yagona organizm sifatida, xo'jalik yurituvchi subyektlar chaqqon va bir-biri to'g'risida yaxshi ma'lumotga ega deb qaraladi.

Bozor bahosiga «eng yuqori naf asosida aniqlanadigan talab bahosi va eng yuqori xarajatlар bilan topiladigan taklif bahosining kesishish natijasi» deb qaraladi. Bu «Marshall xochi» deb yuritiladi, u talab va taklif chiziqlarining kesishgan grafik shaklidir. Chiziqlar kesishgan joyda ular orasidagi muvozanat, ya'ni muvozanatli, mo'ta'dil baho o'matiladi.

Shu yerda olimning tovar qimmatining mohiyati to'g'risidagi g'oyasi xarakterlidir. Uning fikricha, qimmatni yaratishda naflik va ishlab chiqarish xarajatlari (qaychining ikki tig'i) birdek faoldir. U qaychini misol sifatida keltirib, qog'oz qirqqanda qaychining qaysi (ustki yoki pasti) tig'i asosiy rol o'ynashi haqidagi savolni aytadi.



Marshall «iste'mol ortiqchaligi» tushunchasini kiritadi, bu xaridor olishi zarur bo'lgan ilojsiz narsa uchun to'langan va amalda to'layotgan baholar o'rtasidagi farqdir, ya'ni xaridorning qo'shimcha talabini qondirishning iqtisodiy o'lchovidir.

Ilk marjinalistlarning baho, talab va taklif kabi omillarning funksional bog'lanish umumlashtiriladi. U xususan, baho pasayishi bilan talab

ortishi (baho ortishi bilan talab pasayishi), baho pasayishi bilan taklif pasayishi (baho ortishi bilan taklif ortishi)ni ko'rsatib berdi. *Mo 'tadil (muvozanat)* baho talab va taklif nuqtalari kesishgan yerda o'matiladi (yuqorida aytildi). Shularga mos ravishda bozorda baholarning o'zgarishi ro'y beradi.

Daromadlar nazariyasida kapitalga foiz, ish haqi marjinalistik nuqtayi nazardan hal etiladi. Avvalgi klassiklarning tovar qiymati sarflangan mehnat bilan o'lchanishi qat'iyan rad etiladi.

Foiz stavkasi darajasi to'g'risida fikr yuritilib, foiz kamayishi bilan insonlar kam jamg'aradilar (va aksincha) degan xulosa chiqariladi. Bu qoida keyinchalik uning shogirdi J.M.Keyns tomonidan keng foydalaniildi.

«Talab bahosi» rivojlantirilib, «talabning elastikligi» konsepsiysi ilgari suriladi, bu talab hajmining baho (narx) o'zgarishiga bog'liqligi ko'rsatkichidir. O'rganilayotgan davr qanchalik kichik bo'lsa, talabning bahoga ta'siri shunchalik kattadir, davr qanchalik katta bo'lsa, ishlab chiqarish xarajatlari (taklif)ning ta'siri asosiydir.

Bundan olim ikkita iqtisodiy qonun borligi to'g'risida xulosa chiqaradi: 1) o'sib boruvchi foyda va 2) doimiy foyda. Birinchisiga ko'ra, mehnat va kapital sarflari hajmi ortishi, odatda, ishlab chiqarishni tashkil etishni mukammallashtirishga olib keladi, mehnat va kapitaldan foydalanish samaradorligini oshiradi, proporsional (mutanosib) ravishda yuqoriroq foyda keltiriladi. Ikkinchisiga ko'ra, mehnat va boshqa xarajatlar mahsulot hajmini proporsional o'sishiga olib keladi. Olimning fikricha, real hayotda bu ikki tendensiya doimo bir-biriga qarama-qarshi turadi.

15.2. J.B.Klarkning iqtisodiy ta'limoti

Jon Beyts Klark (1847-1938) marjinalizmning «Amerika maktabi» vakili bo'lib, XIX asr oxirida iqtisodiy ta'limotlarda neoklassik yo'nalish shakllanishiga muhim hissa qo'shdi. AQSHda tug'ilgan bo'lajak olim keyinchalik Yevropa universitetlarida ta'lim oldi, Karl Knis (Germaniyada «Tarixiy maktab» asoschilaridan biri) uning ustozи bo'lgan. AQSHga qaytgach, o'qituvchilik qildi. T.Veblen uning qo'lida ta'lim olgan. Klark Amerika iqtisodiy assotsiatsiyasining tashkilotchisi edi va 1893-1895-yillarda uning uchinchi prezidenti bo'lgan.

«Boylik falsafasi» (1886) va «Boylik taqsimoti» (1899) nomli asosiy asarlarida (ayniqsa, 2-sida) iqtisodiyot fanining uch tabiiy bo'limlari, «ishlab chiqarish omillarining eng yuqori unumдорлиги то'г'рисидаги қонун» масалalarining yoritilishi muhimdir. Klarkning yozishicha, iqtisodiyot fanining predmeti jamiyatning barcha daromadlarini turli shakldagi daromadlarga ajratishdan iborat (ish haqi, foiz, foyda), bular, o'z navbatida, mos ravishda «ish bajarganligi uchun», «kapitalni berib turgani uchun» va «ish haqi va foizni koordinatsiya qilingani uchun» olinadi.

«Ijtimoiy daromadlarni taqsimlash» ijtimoiy qonun bilan tartibga solinadi, bu qonun «eng mukammal erkin raqobat»da har bir ishlab chiqarish omilini u hosil qilgan boylik summasi bilan ta'min etishi mumkin. Albatta, bu boylik miqdoriy jihatdan inson farovonligini ta'minlashdagi manbalari cheklanganligi bilan xarakterlanadi. «Har bir ishlab chiqarish omili» ijtimoiy mahsulotda bevosita ishlab chiqargan boylik hissasiga ega.

Klark iqtisodiyotni statika va dinamika qismlariga bo'ladi (mexanika fani kabi). Avvalgi tadqiqotlarda statika qo'llanilgan bo'lsa, endilikda tabiiy-dinamik usul taklif etiladi. U iqtisodiyot fanini uch qism (bo'lim)ga bo'ladi: 1) boylikning universal hodisalari; 2) ijtimoiy-iqtisodiy statika (boylik bilan keyin nima bo'lishi to'g'risida gap yuritiladi); 3) ijtimoiy-iqtisodiy dinamika (agar jamiyat faoliyat shakli va usulini o'zgartiradigan bo'lsa, bu sharoitda boylik va jamiyatning farovonligi bilan nima ro'y berishi haqida fikr yuritiladi).

Klark fikricha, xayoliy statik ijtimoiy ishlab chiqarishga operatsiyalarning o'zgarmas xarakteri xosdir, bunda doimo avvalgi texnologik jarayonlarda yaxshi ma'lum boyliklar yaratilaveradi, boylik hajmi bunda o'smaydi va kamaymaydi. Yer ham bir xil mehnat qurollari yordamida ishlanadi, o'sha hosil olinadi, boshqacha aytganda, ishlab chiqarish organizmi o'z shaklini o'zgartirmaydi. Demak, bu holatda harakat yopiq tizimda boradi, iqtisodiyot barqaror va muvozanatda bo'ladi. Klarkning yozishicha, «iqtisodiy dinamikada» jahoning normal boyligi ko'proq bo'ladi va ish haqining tabiiy darajasi hoziridan ancha baland bo'ladi.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirishga qarshi bo'lgan dinamik shart-sharoitlar keltiriladi: 1) aholi o'sishi; 2) kapital o'sishi; 3) ishlab chiqarish metodlarining yaxshilanishi; 4) sanoat korxonalari shak-

lining o'zgarishi; 5) nisbatan past unumli korxonalar o'rniga nisbatan yuqori unumli korxonalarning yashovchanligi va boshqalar. Hatto har bir omil o'zicha jamiyatni dinamik holatda saqlash va ijtimoiy tarkibga ta'sir etish qudratiga ega bo'lar ekan.

Klarkning yuqoridagi metodologik g'oyalari keyinchalik N.Kondratev (Rossiya), Y.Shumpeter va boshqa olimlar tomonidan to'l-dirilgan.

Klark tadqiqotida «eng yuqori unumdorlik qonuni» muhimdir. Bu qonun erkin raqobat sharoiti, iqtisodiy muvozanat holatida amal qiladi. Ishlab chiqarish omillari bir xil samaradorlikka ega bo'lgan sharoitda eng yuqori unumdorlikning pasayib borishi masalasi marjinal prinsiplarda qarab chiqiladi.

Kapital bilan ta'minlanganlik o'zgarmas deb olingan taqdirda, mehnatning eng yuqori unumdorligi har bir yangi ishga jalb etilgan xodim bilan pasayib boradi va aksincha. Xodimlar soni o'zgarmas bo'lgan holatda mehnatning eng yuqori unumdorligi faqat kapital bilan ta'minlanganlikning o'sishi natijasidagina yuqoriroq bo'ladi.

Qimmatni taqsimlashdagi hissalar oxirgi unumdorlikka bog'liq bo'ladi, ya'ni foiz kapitalining so'nggi o'sishidan hosil bo'lgan mahsulot bilan aniqlanadi, ish haqi esa mehnatning ohirgi oshuvidan hosil bo'lgan mahsulot bilan belgilanadi.

15.3. V.Paretoning umumiyl iqtisodiy muvozanat konsepsiysi

Vilfredo Pareto (1848-1923) iqtisodiy ta'limotning neoklassik yo'nalishini davom ettirgan yirik italyan vakili hisoblanadi, u marjinalizmning «Lozanna maktabi» ana'nalariga sodiq edi. Bu olimni iqtisodiyot bilan birga siyosat va sotsiologiya sohalari ham qiziqtirgan, bu uning yozgan asarlaridan ma'lum. Paretoning asosiy asarlari: ikki jildli «Siyosiy iqtisod kursi» (1898), «Siyosiy iqtisod ta'limoti» (1906) va «Umumiyl sosiologiya bo'yicha risola» (1916). Paretoning iqtisodiy tadqiqotlarida L.Valras, O.Kurno, F.Edtuort va boshqa olimlarning g'oyalari ta'siri katta bo'lgan. 1892-yil L.Valras Lozanna universitetidagi kafedra mudiriliginini V.Paretoga topshiradi va shu dargohda yuqorida ko'rsatilgan asarlar yaratiladi. V.Pareto V.Valras kabi umumiyl iqtisodiy muvozanat muammolari tadqiqotiga katta ahamiyat berdi. Shu bilan birga, Pareto iqtisodiyotda muvozanatning shart-sharoitlari va omillarini

o'rganishda sifat jihatidan yangi prinsiplarni ilgari surib, neoklassik iqtisodiy g'oyalarni yangi «ikkinchı to'lqini»ni boshlab berdi. Bular quyidagilarda namoyon bo'ladi.

V.Pareto funksional yondashuv asosida almashuvning birdan bir sababi naflik (ehtiyoj) degan qoidadan voz kechib, iqtisodiy tizimni butunligicha izohlashga o'tdi, bunda talab (iste'mol) va taklifga iqtisodiyotda muvozanat elementlari qaraaldi. Shu bilan birga, «sof» iqtisodiy nazariyaga asoslanib, daromadlar tengsizligi ularni sinflar o'rtasida taqsimlash bilan bog'liqligini inkor etadi.

L.Valrasning umumiy iqtisodiy muvozanat modelida shu muvozanatga erishuvning mezoni naflikning maksimumi (uni hisoblash mumkin emas) deb hisoblangan bo'lsa, Paretoda bu mezon boshqa-siga, ya'ni konkret individning afzal ko'rish nisbati o'Ichovi bahosiga almashtiriladi.

Pareto naflikning an'anaviy miqdoriy o'Ichashga usullaridan voz kechib, «ijtimoiy maksimal naflik» tushunchasini izohlab beradi, bu tushuncha hozirgi davrda «Pareto optimumi» deb nomlanadi. Bu tushuncha shunday o'zgarishlarga baho berish uchun foydalaniladiki, unda barchaning farovonligi yo yaxshilanadi yoki bozorning biror odam o'z ahvolini boshqa odamning ahvolini yomonlashtirmasdan yaxshilay olmaydi.

Bu tovar va resurslarining eng yaxshi taqsimotini xarakterlaydi. Keyinchalik umumiy bozor muvozanati bozorning Pareto optimal holati ekanligi isbotlab berildi. Xo'sh, bu nima degani? Bu bozor ishtirokchilarining hammasi o'z foydasi uchun intilib, o'zaro manfaat va foydalar muvozanatiga erishishidir. Bunda qoniqish (umumiy foydalilik) funksiyasi o'z maksimumiga yetadi. Boshqacha qilib aytganda, A.Smit tomonidan ilgari surilgan mashhur «ko'rinmas qo'l» to'g'risidagi g'oyalarni amaliyotda isbotlab berilgan.

Qisqacha xulosalar

XIX asrning 70-yillaridan boshlab iqtisodiy ta'limotlarda prinsipial yangi yo'naliш — marjinalizm g'oyalari ustunlik qildi. Avvalgi klassik maktab vakillarining fikrlari keskin tanqidga uchradi, chunki amaliy iqtisodiyotda o'zgarishlar ro'y berdi. XX asrning boshlarida esa

neoklassik (ya'ni yangi klassik) g'oyalari shakllana boshladi. Bu marjinalizm g'oyalari rivojining 2-bosqichi deb qaralishi mumkin. «Siyosiy iqtisod»dan ancha farq qiluvchi «Ekonomiks» tushunchasi kiritildi va iqtisodiyotga yondashuv keskin o'zgardi.

Neoklassik yo'naliqhining asosiy maskurachisi A.Marshall hisoblanadi. U «Ekonomiks» iborasini birinchi bo'lib muomalaga kiritdi. Iqtisodiyot fanining asosiy vazifasini «insoniyatning normal hayot faoliyati to'g'risidagi ta'llimot» deb baholaydi. Klassik mакtabning principial g'oyalari himoya qilinadi (erkin baho, raqobat, davlatning iqtisodiyotga aralashmasligi va b.), ammo unga marjinalistik qoidalar qo'llaniladi. Qimmat va baho shakllanishi nihoyatda original ravishda ko'rsatib berilgan, «qaychi tig'i» effekti muhimdir. Talab va taklif chiziqlarining kesishgan joyida baho aniqlanishi, «Marshall hochi» nihoyatda katta ahamiyatga ega va bu qoida hozir ham qo'llaniladi.

«Iste'mol ortiqchaligi», mo'tadil baho, talabning elastikligi, to'g'risidagi g'oyalari fundamental ahamiyatga ega. Amerikalik J.B.Klarkning qarashlarida fanning asosiy predmeti «jamiyatning barcha daromadlarini turli shakldagi daromadlarga ajratishdan iborat» deb qaraladi. Fanni statika va dinamikaga ajratadi, «eng yuqori (chegara) mehnat unumdarligi qonuni»ni kiritadi.

Italiyalik V.Pareto iqtisodiyotda umumiylu muvozanat muammolari tadqiqotiga e'tibor beradi. Matematik apparatdan unumli foydalanib, «befarqlik egri chizig'i»ni yaratdi.

Asosiy tushuncha va iboralar

Neoklassika, A. Marshall, «ekonomiks», baho, talab, taklif, talab elastikligi, «Marshall xochi», «iste'mol ortiqchaligi», J.B. Klark, «chegaraviy naqlik», «eng yuqori unumdarlik», statika va dinamika, V.Pareto, «befarqlik egri chiziqlari», «Pareto optimumi».

Nazorat va mulohaza uchun savollar

1. A.Marshall bo'yicha bozor bahosi nima?
2. Baho, talab va taklif o'rtaqidagi bog'lanish qanday?
3. Taklif elastikligi deganda nima tushuniladi?
4. «Marshall xochi»ning mazmunini izohlab bering.

5. Ishlab chiqarish hajmlari o'sishi va nisbiy ishlab chiqarish xarajatlari o'rtasidagi bog'lanish nima?
6. Doimiy va o'zgaruvchi xarajatlarni izohlang.
7. J.B.Klarkning statik va dinamik iqtisodiyot to'g'risidagi g'oyalari nimani anglatadi?
8. «Eng yuqori unumdorlik qonuni»ning asosiy xususiyatlari.
9. V.Paretoning umumiy iqtisodiy muvozanat konsepsiysi mohiyati nimadan iborat?
10. Naflukni maksimumga yetkazish uchun nima asos qilib olingan?
11. V.Paretoning «befarqlik egri chiziqlari» nimani bildiradi?
12. Pareto optimumini izohlang.

XVI b o b. IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISH KONSEPSIYALARI. IQTISODIY TA'LIMOTLARDAGI INSTITUTSIONAL YO'NALISH

16.1. Institutzializmning asosiy xususiyatlari

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida olamda bo'lib o'tgan aniq ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar tufayli jahondagi mamlakatlarning salohiyati keskin o'zgardi, ilgari ilg'or bo'lgan davlatlar 2-o'rnlarga (Angliya, Fransiya), nisbatan qoloq bo'lgan davlatlar esa 1-o'rnlarga chiqib olishdi (AQSH, Germaniya). Xuddi shu davrda yetakchi mamlakatlarda erkin raqobatga asoslangan iqtisodiyotdan ko'pincha monopolistik (mono-bir) iqtisodiyotga o'tish kuchaydi. Monopoliya kuchayishi monopol foyda olishga imkon yaratdi va iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir qila boshladi. Shu sababli antimonopol choralar qo'llash g'oyasi ilgari surildi, bu birinchi AQSHda ro'y berdi. Keyinchalik (va hozirda) barcha davlatlar bunday chorani qo'llaydilar.

Antitrest siyosati yo'li bilan iqtisodiyot ustidan ijtimoiy nazoratning turlicha metod (usul)lari qo'llanila boshlandi. Ana shu usullarning nazariy asoslari yuzaga keldi va hozirda ham mavjud.

Iqtisodiy ta'lismotlardagi institutsionalizm yo'nalishi AQSHda XX asrning 20-30-yillarda keng tarqaldi, ammo u ancha oldin, XIX asrning oxirlarida vujudga kelgan (T. Veblenning 1899-yilda chiqqan «Bekorchi sinflar nazariyasi» asari bilan bog'liq). Bu yo'nalish nomi (lotincha «instituto») – urf-odat, ko'rsatma, muassasa so'zidan olingan (sanoat va moliya monopoliyalari, korxonalarning yiriklashuvi va boshqalar), chunki bu davr rivojlanishi erkin raqobatga asoslangan avvalgi davr ta'lismotlari bilan izohlash mumkin bo'lmay qoldi.

Bu ta'lismot yo'nalishi vakillarining fikricha, institutlar jamiyat rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi bo'lib xizmat qiladi. Bu tushuncha tagida ijtimoiy hodisalar, masalan, oila, davlat, monopoliya, kasaba uyushmalari va boshqa muassasalar yotadi, ya'ni jamoat ruhining namoyon bo'lishi, yurish-turish va o'ylash usulini xalqning ma'lum

guruhlari uchun odatiy, an'anaviy, shuningdek, huquqiy, axloqiy va boshqa ko'rinishlarini o'z ichiga oladi. Bu yo'naliш maskurachilarining fikricha, iqtisodiy kategoriyalar bo'lgan xususiy mulk, soliq, pul, kredit, foyda, savdo va boshqalar jamiyat ruhining paydo bo'lish shaklidir. Demak, ular obyektiv iqtisodiy qonunlarning mavjudligini to'la tan olmaydilar va jamoat ruhiyatining evolutsiyasini tahlil etadilar.

Institutsionalizm ma'lum ma'noda neoklassik yo'naliшga muxolifdir.

Neoklassiklar bozor iqtisodiyotini o'zini-o'zi boshqara oladigan (A.Smit fikri) sistema deb qarasalar (sof iqtisodiyot fani), institutsionalizm tarafdorlari iqtisodiyot rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchlari moddiy omillar bilan birga, tarixiy kontekstda qaraladigan ma'naviy, axloqiy, huquqiy va boshqa omillarga ham bog'liq deb o'yaydilar.

Demak, bu yangi yo'naliшning tadqiqot predmeti sifatida ijtimoiy-iqtisodiy, shu bilan birga, noiqtisodiy muammolarni tahlil etish ilgari suriladi.

Tarixiy va ijtimoiy muhit omillarining hisobga olinishi tarixiy maktab bilan yaqinlikni anglatsa ham, ammo to'la yakdillik yo'q. Yangi yo'naliш neoklassiklarning marginalizm g'oyalariga asoslangan matematik va ekonometrik prinsiplarini keng qo'llaydilar.

Institutsionalizmga xos bo'lgan uslubiy xususiyatlar quyidagilardir:

1) neoklassikaga xos abstraksiyaning yuqori darajasi, ayniqsa, baho nazariyasining ortodoksal statik xarakteridan qoniqmaslik;

2) iqtisodiy nazariyani boshqa ijtimoiy fanlar bilan integratsiyaga intilish yoki fanlararo yondashuv ustuvorligiga ishonch;

3) klassik va neoklassik nazariyalarda empirizm (tajribaga suyanish) yetishmasligidan norozilik, chuqur miqdoriy tadqiqotlar o'tkazishga chorlash.

Institutsionalizm evolutsiyasi (rivoji)ni uch davrga bo'lish mumkin:

1. XX asrning 20-30 yillarda institutsionalizmning keng tarqalishi. Bu davrning bosh maskurachisi T.Veblendir (1857-1920), uni J.R. Kommons (1862-1945), U.Mitchell (1874-1948), J.Gobson (1858-1940), U.Gamiltonlar faol himoya qildilar.

2. Urushdan keyingi kechki institutsionalizm. Bu davr maskurachilari iqtisodiyotdagi qarama-qarshiliklarni izohlab berish bilan birga F.Ruzvelt tomonidan ilgari surilgan «Yangi kurs» islohotlarini amalga oshirish bo'yicha tavsiyanomalarni ham ilgari surdilar. Ular

demografiya va antropologiyani o'rgandilar, ishchilar harakatining kasaba uyushmalari nazariyalarini ishlab chiqdilar. 50-yillarda J.M.Klark «Iqtisodiy institutlar va insonlar farovonligi», A.Berli «Mulksiz hokimiyat» va «XX asr kapitalistik inqilobi» kitoblarini chop etdilar, G.Minz o'zining maqolalarida aksionerlar soni ortishi, kapital muknning kapital funksiyadan ajralish jarayonini qayd etdi.

3. 60-70-yillarda ijtimoiy-institutsional yo'nalish, ya'ni neoinstitutsionalizm paydo bo'ldi. 60-yillardagi institutsionalizm asoslari amerikalik nazariyotchi A.Lou va shvetsiyalik iqtisodchi G.Myurdal tomonidan ishlab chiqildi. Hozirgi davrdagi ijtimoiy-institutsional yo'nalish ta'limoti J.K.Gelbreyt va R.Xeylbronerlar tomonidan davom ettirilgan.

Amerikalik neoinstitutsionalizm nazariyotchilari iqtisodiy jarayonlarni industriya rivoji va texnokratiya rolining o'sishi bilan bog'lamoqdalar, shuningdek, bu jarayonlarning borishini tushuntirishda jamiyat ijtimoiy hayotiga asoslanmoqdalar. Bunday xilma-xillik tufayli ijtimoiy-institutsional yo'nalish ichida turli oqim va maktablar vujudga keldi.

Institutsionalizmdagi ana shunday uchta asosiy:

1. Ijtimoiy-psixologik;
2. Ijtimoiy-huquqiy;
3. Empirik yoki konyunktur-statistik oqimni ajratish mumkin.

16.2. T.Veblen g'oyalari

T.Veblen iqtisodiy jarayonlarni shakllangan an'analar sifatida tahlil etadi. Ana shunday an'anaviy harakatlantiruvchi kuchlar qatoriga ottonalar his-tuyg'usi, usta instinkti, ya'ni yaxshi ishlashga intilish, ilmga chanqoqlik, sof qiziquvchanlik kiritiladi. Uning fikricha, dastlabki instinkt avval oilaga g'amxo'rlikda namoyon bo'ladi, keyinchalik esa jamiyat va butun insoniyatga bo'lgan g'amxo'rlikka aylanib boradi. Darvinning tabiiy tanlanish ta'limoti ijtimoiy hodisalarga mexanik ravishda ko'chiriladi. Insonning ongli harakatiga yetarlicha baho bermasdan, odamlarning yurish-turishi g'ayriixtiyoriy saboqlar, instinkt, fe'l-atvor va odatlar orqali tushuntiriladi. Jamiyat rivoji biologik qonuniyatlar bilan bir xil deb qaratadi.

Veblen zamonaviy industrial texnokratik konsepsiyalar asoschisi bo'lib hisoblanadi. Industriya olamiga alohida e'tibor beriladi va unga

barcha ishlab chiqaruvchilar va birinchi navbatda, muhandislar va ishchilar kiritiladi. Industriya olami mehnat unumdorligini o'stirish, ishlab chiqarish jarayonini yaxshilash va samaradorlikni oshirishni bosh maqsad qilib qo'yadi. Biznes olami deganda u moliyachilar, trest tashkilotchilar va tadbirkorlarni tushundi. Uningcha, biznes imkonini boricha yuqori foyda uchun intiladi va shu sababli uni beayov tanqid qiladi, chunki turli moliyaviy va kredit nayranglari, turli aksioner jamiyatlari tizimi tufayli sanoat unga to'la bo'ysundirilgan. Shu sababli sanoatni biznes ta'siridan «ozod» qilish kerak, deydi u.

Mavjud tizimni o'zgartirish to'g'risida gapirib, bu masalani Veblen ilmiy-texnika inqilobini kuchaytirish, hokimiyatni texnik intelligensiya qo'liga berish bilan hal etishni taklif qiladi. Buning uchun barcha injener-texnik xodimlar umumiy ish tashlashlari kerak, shunda tadbirkorlar ularning shartlariga ko'nishga majbur bo'ladilar. Kapitalizm transformatsiyasi «texniklar kengashi» vositasida bajariladi, intelligensiyaning roli birinchi o'rning qo'yiladi, ya'ni biznes olamini injener- texnik intelligensiya yenga oladi.

Sanoat mutaxassislariga yagona sinf sifatida qaraladi va bu sinfnинг asosiy maqsadi texnikadan foydalanishni takomillashtirishdir. Demak, Veblen yangi jamiyatni «texnokratik» ko'z bilan ko'radi.

16.3. Jon R.Kommons qarashlari

J.Kommons ijtimoiy-huquqiy institutsionalizm yo'naliشining asosiy vakili hisoblanadi. Uning asosiy g'oyalari Amerika tred-yunionizm mafkurasini ifodalaydi. Uning ta'llimoti jamoat institutlari faoliyatini (oila, ishlab chiqarish korporatsiyasi, savdo birlashmalari, tred-yunionlar, davlat va yuridik huquqiy munosabatlar) tadqiq etish bilan bog'liq.

Kommonsning asosiy g'oyalari «Kapitalizmning huquqiy asoslar» (1924), «Institutsiyal iqtisodiyot. Uning siyosiy iqtisoddagi o'rni» (1934), «Jamoat faoliyatining iqtisodiy nazariyası» (1950) asarlarida o'z aksini topgan.

Olimning iqtisodiy qarashlari iqtisodiyotda yuqori naf nazariyasini va yuridik konsepsiylar to'g'risidagi qoidalarning o'zaro qorishmasidan iborat.

Kommons kapitalizmda sinfiar mayjudligini inkor etadi. Marksizmning sinfiy kurash nazariyasiga «sotsial nizo» (konflikt) ta'limotini

qarshi qo'yadi, bu nizolar antagonistik xarakterga ega emas. Mutaxassislar bir-birlari bilan kurashishi emas, hamkorlik qilishlari kerak.

Kommons nazariyasi kapitalizmni islohotlar yo'li bilan yaxshilash usulini taklif etadi. Bu esa huquqiy, yuridik me'yorlarni takomillashtirish orqali amalga oshiriladi. Ishchi va kapitalist o'rtasidagi munosabat jamiyatning teng huquqli a'zolari orasidagi yuridik bitim - kelishuv hisoblanadi, chunki ular ma'lum qonun-qoidalari asosida tuziladi. Bu kelishuv ishtirokchilari orasida jamiyatning muhim institutlari: oila, tadbirkorlar ittifoqi va hatto davlatning o'zi ham bo'lishi mumkin. «Kelishuv» uch o'z ichiga oladi: nizo, o'zaro ta'sir, yechim. Yuridik va huquqiy vositalar bilan har qanday ichki qarama-qarshilik, barcha konfliktlar o'z yechimini topishi mumkin. Jamiyatda ijtimoiy qarama-qarshiliklar kuchayishi konfliktlarni yuridik hal qilish mexanizmining kamchiliklari bilan belgilanadi. U jamoat fikri bilan hisoblashuvchi va iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarishni amalga oshiradigan hukumat tuzish zarurligiga ishongan. Iqtisodiy islohotlar doirasida davlatning qonuniy qarorlari jamiyatdagи qarama-qarshilik va konfliktlarni tugata oladi, bunda ma'muriy kapitalizm bosqichiga o'tiladi.

Yuqorida keltirilgan T.Veblen va J.Kommonslarning g'oyalari amalda, 1929-1933-yillardagi iqtisodiy inqiroz davrida AQSH prezidentining «yangi kurs» siyosatida amalii tasdig'ini topdi.

16.4. Uesli Kler Mitchell g'oyalari

U Veblenning shogirdi bo'lib, iqtisodiyotda siklik hodisalarining tadqiqotchisi sifatida mashhur (bu iqtisodiyotda *konyunktur-statistik institutsionalizm* oqimi hisoblanadi). U iqtisodiyotga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashga intildi, bular, uning fikricha, moliya, pul muomala-sasi va kredit kategoriyalari edi. «Bu kategoriyalarni tartibga solish yo'li bilan iqtisodiyotga ta'sir etish, hatto siklik tebranishlarni o'zgartirish, oldini olish mumkin», - deydi u. U o'zining «Iqtisodiy nazariya tiplari to'g'risida leksiyalar» (1935) asarida iqtisodiy masalalarni madaniyat va sotsiologiya muammolari bilan o'zaro aloqada, ammo, asosan, psixologik tahlil asosida tadqiq etadi. Siyosiy-iqtisodiy institutlar to'g'risidagi ta'limot sifatida qaraladi. Kapitalistik ishlab chiqarishni tartibga solish zarurligi Mitchell ta'limotining bosh xulosasidir.

Mitchell institutsionalizmi ustozi Veblen nazariyasidan, birinchi-dan, tanqidiy emasligi bilan, ikkinchidan, abstrakt nazariya bo'lmasdan

o'sha davrning empirik tadqiqoti ekanligi bilan farq qilar edi. U o'z asarlarida inqirozsiz «amaliy sikl» masalalariga alohida e'tibor berib, pul muomalasi muammolarini diqqat markazida tutgan. Moliya va pul muomalasi institutlaridan insonlar hulqini tushuntirish uchun foy-dalaniladi.

Insoniy jamiyat rivoji ayrim individlar taraqqiyoti shaklida emas, balki jamiyat a'zolarining kollektiv aloqalarining takomillashuvi sifatida xarakterlanadi. Kapitalizm qarama-qarshiliklarini yechishda davlat yo'li bilan tartibga solish eng qulay vosita deb qaraladi. Iqtisodiyotni o'rganishda matematika va statistikani keng qo'llash yo'li bilan, Mitchell «kichik va katta sikllar» davomiyligini hisoblab chiqdi. U o'zining hisob-kitoblariga asoslanib, kapitalizmnning inqirozsiz rivojlanish modeli loyi-hasini yaratdi.

Bu oqim tarafдорлari sikllarni o'zaro aloqador parametrlarning ta'siri oqibatida vujudga keladi va kapitalistik ishlab chiqarish dinamikasini belgilaydi, deb qaraydilar. Shu sababli ular sikllarni tasodifiy yagona hodisa emas, balki doimiy kapitalizm iqtisodiyotiga xos xususiyat deb hisoblaydilar. Ular tadqiqot qilayotgan omillar qatoriga birinchilardan bo'lib muomala sohasi ko'rsatkichlarini qo'yadilar, ya'ni narxlar, aksiyalar kursi, pul muomalasi va boshqalar.

Inqirozlar inkor etiladi, bu amaliy sikllarni tan olish bilan isbotlanadi (unda inqirozlar yo'q). Iqtisodiy qatorlarning nazariy asosini bekam-u ko'st deb bo'lmaydi. Masalan, 1929-yil arafasida Garvard maktabi vakillari tomonidan berilgan iqtisodiy ob-havo prognozi («Konyunktur barometri») iqtisodiyot ravnaqi - «prosperity» bo'lgan.

Mitchell tadqiqotlari empirik va institutsional usulblarning qorishmasidan iborat. U iqtisodiy siklning amaldagi modelini loyihalashtirishga muvaffaq bo'la olmadi.

16.5. Ijtimoiy-institutsional yo'naliш evolutsiyasi

Yuqorida institutsional yo'naliшning asosiy g'oyalari va dasturi ko'rib chiqilgan edi. Hozirgi davrda ham bu yo'naliш g'oyalari dolzarbligicha qolmoqda. Bu yo'naliшning otasi Veblen tomonidan ilgari surilgan ta'limotda hozirgi zamon jamiyatini qayta qurish, transformatsiya masalalari nihoyatda muhim o'rinn egallaydi. Ularning fikricha, ilmiy-texnika taraqqiyoti tufayli jamiyattdagi sotsial qarama-

qarshiliklar yo'qolib boradi. Jamiyatning konfliktlarsiz evolutsiyasi, uning industrial jamiyatdan postindustrial, superindustrial yoki «neo-industrial», informatsion jamiyat sari rivoji ro'y beradi.

Texnik-iqtisodiy omillarni mutlaqlashtirish tufayli yangi konvergen-siya nazariyasini ilgari surish imkoniyatini yaratildi (J.K.Gelbreyt, Pitirim Sorokin - AQSH, Raymond Aron - Fransiya, Yan Tinbergen - Niderlandiya).

J.K.Gelbreyt asarlari bu fikrlar to'larroq ifodasini topgan. U «kapitalizm transformatsiyasi» ro'y berishi bashorat qilinadi.

J.K.Gelbreytning asosiy asarlari quyidagilardir: «Mo'l-ko'lchilik jamiyat» (1958), «Yangi industrial jamiyat» (1967), «Iqtisodiy naza-riyalar va jamiyat maqsadlari» (1973), «Pollar» (1975), «Ishonchsizlik asri» (1977).

Superindustrial jamiyat to'g'risidagi g'oyalar amerikalik futurolog Tofflerning «Uchinchi to'lqin» kitobida bayon etiladi. Unda, «yangi sivilizatsiya» davri vujudga keladi, deyilgan. Keyingi paytlarda neoinstitutsionalizm nazariyalari ham paydo bo'lmoqda. Bu nazariyalarda texnik omillarni mutlaqlashtirishdan chekiniladi va asosiy e'tibor insonga, sotsial muammolarga qaratiladi. Shunday yo'l bilan mulk huquqi (Ronald Kluz - AQSH), jamoat tanlovi (Jeyms Byukenen - AQSH) va boshqa nazariyalar vujudga keldi. Bu qarashlar natijasida rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy siyosati ham o'zgarmoqda, bu siyosat tobora kapitalizmni ijtimoiy tomonga sari bormoqda.

Hozirgi davr institutsionalizmining asosiy g'oyasi shuki, insonga postindustrial jamiyatning asosiy iqtisodiy omili, asosiy resursi sifatida qaraladi va yangi jamiyat shaxsni har tomonlama rivojlantirish uchun o'z siyosatini qayta ko'rib chiqishi kerak bo'ladi, XXI asr esa «inson asri» deb e'lon qilinadi.

Qisqacha xulosalar

Hozirgi iqtisodiy ta'llimotlar tarixida institutsionalizm muhim o'rinni egallaydi. Bu yo'nalish tub ma'nosini bo'yicha klassik maktabga muxolif deb qaralishi mumkin, chunki bu ta'llimotda iqtisodiy kategoriylar ikkinchi darajali bo'lib, asosiy e'tibor institut (davlat, oila, monopoliya, urf-odatlar, huquq, kasaba qo'mitalari va boshqalar) larga qaratiladi, noiqit sodiy omillar yetakchidir. Tadqiqot usulida Germaniya tarixiy

maktabi qoidalari keng qo'llaniladi, ammo to'la yakdillik yo'q. Institutsionalizm uch oqimga bo'linadi, bular ijtimoiy-psixologik (tex-nokratik, asosiy maskurachisi T.Veblen), ijtimoiy-huquqiy (yuridik, J.Kommons), konyunktur-statistik (empirik- prognoz, U.Mitchell).

Bu tadqiqotlar islohotlarga, ilmiy-texnika taraqqiyotiga (1-oqim), omma fikriga qulq soluvchi hukumat, iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish, ma'muriy kapitalizmni yaratish, huquq sohasini takomillashtirish (2-oqim), iqtisodiyotning rivojini aniq raqamlar asosida o'rghanish, uning o'zgarishi, siklik holati, matematik apparatni keng qo'llash, keyingi taraqqiyot bo'yicha prognozlash (3-oqim) xosdir.

Bu yo'naliш qonun-qoidalari hayotda o'z tatbiqini topmoqda, ammo prognozlar doim ham aniq emas. Masalan, AQSHda 1929-yil ravnaq yili deb bashorat qilingan edi, ammo amalda «Buyuk depressiya» boshlandi.

Asosiy tushuncha va iboralar

Institutsionalizm, ijtimoiy-psixologik, ijtimoiy-huquqiy, konyunktur-statistik oqimlar, T.Veblen, «Veblen effekti», R.Kommons, huquq institutlari, monopoliyaga qarshi choralar, ma'muriy kapitalizm, U.Mitchell, siklik rivojlanish, prognoz.

Nazorat va mulohaza uchun savollar

1. Institutsionalizm paydo bo'lishining shart-sharoitlari.
2. Institutsionalizmning mohiyati va o'rghanish metodologiyasi nimalaridan iborat?
3. Uning asosiy oqimlari va maskurachilari kim?
4. Institutlar deganda nimalar ko'zda tutiladi?
5. T.Veblenning asosiy asaridagi g'oyalalar nimani anglatadi?
6. J.Kommonsning hukumatni isloh qilish islohotlari mohiyati nimadan iborat?
7. Ma'muriy kapitalizm nima?
8. U.Mitchell g'oyalaringin asosi nimani anglatadi?
9. N.D.Kondratevning siklik rivojlanish konsepsiysi nima?
10. Institutsionalizmning evolutsiyasi davridagi olimlar va ularning g'oyalari.

XVII b o b. MUKAMMAL BO'L MAGAN RAQOBAT BOZORI TA'LIMOTLARI

17.1. Nomukammal bozorning xususiyatlari

XX asr boshlarida iqtisodiyot tobora monopollashib bordi. Bu, ay-niqsa, Yevropa va AQSHda yaqqol ko'zga tashlandi. Iqtisodiy liberalizm prinsiplari (erkin savdo-fritredlik, davlatning iqtisodga aralashmasligi va b.) real hayot talablariga javob bermay qo'ydi. Monopollashuvning yorqin oqibati sifatida 1929-1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozini keltirish mumkin.

Deyarli yuz yil davomida J.B.Seyning «bozorlar qonuni» hamma yerda tan olingen va unga suyanib ish yuritilgan bo'lsa, bu davrda uning ahamiyati pasayib bordi. Nomukammal raqobat avval institutsionalizm, keyin neoklassiklar tomonidan tadqiqot obekti qilib olindi.

Bu muammolar bilan deyarli bir vaqtida Garvard universiteti professori E. Chemberlin va Kembrij universiteti professori J. Robinsonlar shug'ullandi.

1933-yili amerikalik E.Chemberlin o'zining «Monopolistik raqobat nazariyasi», ingliz J.Robinson xonim esa «Nomukammal raqobatning iqtisodiy nazariyasi» asarlarini chop etdilar. Bu asarlarda erkin raqobat sharoitini inkor etadigan sharoitda bozor mexanizmlarining harakati masalalari har tomonlama chuqur tahlil etiladi. Ikkala muallifning fikricha, bozor bahosi bozor ishtirokchilarining kollektiv faoliyati tufayli yuzaga kelmaydi, chunki tovar mahsulotlarining turli-tumanligi (differensiyasi) xaridorlarni bu tovarlar bahosi to'g'risida to'liq axborotdan, firma-ishlab chiqaruvchilarni tanlashda raqobatdan mahrum etadi. Ular iqtisodiyotda muvozanatning buzilish sabablarini ilgarigidek iqtisodiy muhitdagi «kategoriya» va «qonun»lardan izlaydilar. Institutsional yo'nalish tarafdarlariga esa, nomukammal raqobatning iqtisodiy o'sishiga, avvalo, «inson omili»ning ta'siri katta. Bu esa jamiat rivojlanishi, shu bilan birga, iqtisodiyot sohalarida yuzaga keladigan ijtimoiy-psixologik, huquqiy va boshqa muammolardir.

17.2. E.Chemberlinning monopolistik raqobat nazariyasi

Edvard Xeyting Chemberlin (1899-1967) o‘z asarida monopoliya-ning mohiyati, monopol baho va monopol foydaning yuzaga kelishining chuqur tahlilini beradi. Uning fikricha, monopolianing mohiyati bu – taklif ustidan nazorat, bunda baho ustidan ham nazorat bo‘ladi.

Differensiatsiya kuchayib borgan sari har bir sotuvchi absolut (mutlaq) monopoliyaga ega bo‘ladi, shu bilan birga, o‘mini bosa oladigan boshqa mahsulot ishlab chiqaruvchining nomukammal raqobatiga uchraydi. Shundan kelib chiqib, barcha sotuvchilar «raqobatchi monopolistlar» bo‘lib, «monopolistik raqobat» kuchlari ta’siri sharoitida ish yuritadilar.

Raqobatning baholanmaydigan omillari qatoriga tovarlar sifati va reklama kiradi va ular individual yoki alohida xususiyatlarga egadir.

Yuqorida keltirilgan masalalar bilan birga, chakana savdoda raqobatning baholanmaydigan qatoriga sotuvchining qulay joylashuvi, uning korxonasiga xos umumiy atmosfera yoki umumiy uslub, ishni olib borish uslubi (manera), odil ishbilarmon sifatidagi obro‘sni, muomalasi, epchilligi, xaridorlar va birga ishlayotganlar bilan shaxsiy bog‘lanishlari muhim ahamiyatga ega.

Baholanmaydigan omillar majmuyi haqiqiy qiymat nazariyasi doirasida hisobga olinishi kerak. Sof raqobatda har bir sotuvchining bozori uning raqib bozori bilan qo‘silib ketadi; monopolistik raqobat sharoitida esa bozor boshqalardan ajralgan bo‘ladi, buning hammasi birgalikda ishlovchi sotuvchilarning yagona bozorini emas, balki sotuvchilar o‘rtasida (har biriga bittadan) taqsimlangan o‘zaro bog‘langan bozorlar tarmog‘ini tashkil etadi.

Sof raqobat sharoitida alohida sotuvchi bozori umumiy bozor bilan qo‘silib, faqat amaldagi baho bo‘yicha istalgancha tovarni realizatsiya qiladi. Ikkinchi holatda tovarni sotish cheklanadi va yangi uchta omil: 1) baho; 2) mahsulot xususiyati va 3) reklama xarajatlari bilan belgilanadi. Mana shu omillar yordamida xaridorlarning iste’mol qarorlariga ta’sir etiladi. Bunda baholarni pasaytirish omili alohida ahamiyat kasb etadi, chunki tovarga baho pasayishi mahsulot sifati pasayishi tarzida bo‘lishi ehtimoli bo‘ladi.

Monopolistik raqobatning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, bunda baholar raqobati yo'qotiladi, oqibatda «quvvatlar ortiqchaligi fenomeni» doimiy va odatdag'i hodisaga aylanadi. Bu ortiqchalik uzoq vaqt davomida «jazosiz» ko'payib boradi, chunki u doim xarajatlardan kattaroq bo'lgan baholar hisobiga qoplanib turadi. Butun bozorning ma'lum qismini egallash darajasini ko'rsatuvchi bu ko'rsatkich (fenomen) faqat alohida patentlar va fabrika markalari bilangina qo'llanmasdan, boshqa, ya'ni obro', ustalik, alohida mahorat kabi hodisalar bilan ham qo'llab-quvvatlanadi. Bu hodisalar erkin kasb egalari (rassom, musiqa) faoliyat sohasining bir qismi bo'lib, ular ham «monopol daromadlar nazariyasi» predmetidir.

«Klassik» va «neoklassik» larning fikricha, sof raqobat iqtisodiy o'sishning hal qiluvchi sharti deb hisoblangan bo'lsa, E.Chemberlin ta'limotiga ko'ra, monopolistlar orasida ham raqobat doimo mavjud, bu baholi va baholanmagan raqobat rivoji orqali namoyon bo'ladi (mahsulot va reklama sifatini takomillashtirish bilan bog'liq). Birinchi marta iqtisodiy liberalizm g'oyasida real hayotda sof raqobat ham, sof monopoliya ham mavjud emas degan fikr paydo bo'ldi, o'z mohiyatiga ko'ra monopolistik raqobat ko'p sonli sotuvchilar o'rtasida kuzatiladi. Bu raqobat darajasi bir-birini qoplaydigan raqobatlashayotgan tovarlar soni ortishi bilan kuchayib boradi.

Bundan shunday xulosa chiqariladiki, monopolistik raqobat sharoitida xaridor raqobatlashayotgan bir tovari boshqasidan, bir sotuvchini (mutlaq noekvivalent bir xil tovari) boshqa sotuvchidan afzal ko'rishi mumkin. E.Chemberlin mantiqi bo'yicha, kichik yoki o'rtacha sotuvchi va ishlab chiqaruvchi ham monopolist bo'lishi va yirik korxona subyekti bilan bo'ladigan musobaqada bernalol ishtiroy etishi mumkin.

E.Chemberlin o'z tadqiqotlari xulosalarida raqobat sharoitida monopoliyaning tabiiy mohiyatiga mustahkam ishonch bildiradi.

Keyinchalik, E.Chemberlin va uning monopolistik raqobat nazariyasi tarafдорлари томонидан «guruhiy monopoliya» sharoitida ham raqobat saqlanishi to'g'risidagi qoidani ilgari surishgan. Bunda gap sherik-raqobatchilar o'rtasida bozorda ularning ta'sir doiralarini bo'lib olish to'g'risida boradi. Asosiy maqsad turlichcha (differensiatsiyalashgan) tovar mahsuloti bahosini eng yuqori xarajatlardan past bo'lmagan holda realizatsiya qilishdir.

17.3. J.Robinsonning iqtisodiy ta'lomoti

Joan Vayiolet Robinson (1903-1983) Kembrij universitetini bitirgan. U.A.Marshall matabining taniqli vakili va davomchisidir. 1965-1971-yillar shu universitetda professor lavozimida dars bergan. Uning dastlabki asari «Nomukammal raqobatning iqtisodiy nazariyasi» 1933-yili, ya'ni muallif 30 yoshligida yozilgan va unga mashhurlik keltirdi. Asardagi bosh g'oya monopoliyalar faoliyatida bozorlarning roli aniqlashdir. Bu sharoitdagi raqobat iqtisodiyotdagi muvozanatni buzadi va nomukammaldir (Chemberlinda-monopolistik). Dastlabki vazifa: o'z mahsulotiga ega bo'lgan ishlab chiqaruvchi-monopolistik baholar belgilanishining mexanizmini aniqlash. Bahoning miqdori, sotuvchi o'rnatgan shu bahoda xaridorning mahsulotni sotib olish va monopol foyda tabiatini o'matiladi. Ammo Robinson xonimning mantiqiy fikrashi Chemberlinnikidan farq qiladi. Robinsonning fikricha, nomukammal raqobat tufayli, avvalo, raqobatli xo'jalik tizimi normal muvozanat holatining butunlay buzilishi va yo'nalishi, hatto yollanma mehnatning «ekspluatatsiya» sidir. Chemberlin esa bu masalani bozorning tabiiy muvozanati bilan chambarchas bog'liqdir deb qaragan.

Robinson monopoliyaga salbiy munosabat bildirib, unda bozor sharoitidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni izdan chiqaruvchi omil sifatida qaraydi.

Tadbirkorlar nomukammal raqobat sharoitiga nisbatan mukammal (sof) raqobat sharoitda ishlab chiqarishni monopollashtirishdan kamroq manfaatdor bo'ladilar. Chunki nomukammal raqobat sharoitida ayrim firmalar optimal ko'rsatkichlarga erisha olmaydilar, samarasiz (kam samara bilan) faoliyat ko'rsatadilar, shu sababli monopolist mahsulot chiqarishni cheklash bilan o'z mahsulotni narxini oshirish imkoniyatigagina ega bo'lmasdan, balki sohadagi ishlab chiqarishni tashkil etishni mukammallashtirish yo'li bilan ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirishi mumkin.

Bu sharoit talab konsentratsiyasi bo'lib, bozorda ko'p sonli mayda sotuvchilar va yakkay-u yagona xaridor faoliyat ko'rsatadi. Bu holatni monopsoniya, ya'ni xaridor monopoliyasi deyiladi.

Yuqorida barcha g'oyalari jamlanib, real hayotda nomukammal raqobat sharoitida ishlab chiqarish omillari ekspluatatsiyasi tendensiyasi paydo bo'lishiga yordam beradi. Bu holat avval o'zaro raqobatlashgan

ko'pgina firmalarni yutib yuboruvchi yirik birlashmaning paydo bo'lishi bilan yanada kuchayadi.

Qisqacha xulosalar

XIX asr oxiri - XX asrlarda iqtisodiyotning monopolialashuv jarayoni kuchaydi. Bu sharoitda avvalgi «sof raqobat», «sof iqtisodiyot» qoidalari amaliy hayotga javob bermay qoldi. Monopol sharoitda nomukammal raqobat qonunlari yuzaga keladi. Bu hodisalar amerikalik E.Chamberlin va ingлиз J.Robinson xonim tomonidan tadqiq qilindi. Bu olimlarning tadqiqotlarida monopolianing asosiy mohiyati taklif ustidan nazarat ekanligi ko'rsatiladi. Monopoliya sharoitida «mahsulotning differensiatsiyasi» ro'y beradi va alohida tovar alohida xaridorga xizmat qiladi, ma'lum tovarga afzallik beriladi. Bu sharoitda raqobatning baholanmagan omillari mahsulot sifati va reklamasi, fabrika, firma markalari, o'ziga xos qadoqlash, rang, shakl va boshqalarning ahamiyati ortadi. «Quvvatlar ortiqchaligi» fenomeni kuzatiladi, chunki tovar bahosini sun'iy oshirish yo'li tutiladi, monopol foyda nazariyasi ilgari suriladi. E.Chamberlinning fikricha, monopol sotuvchilar o'rtaida ham raqobat doimo mayjud, chunki liberal g'oyalarda ham, monopolialarda ham sof raqobat yo'q.

Olimning so'nggi asarlarda nomukammal va monopolistik raqobatlar deyarli tenglashtiriladi va monopolialar tabiiy mohiyatga ega degan optimistik xulosalar chiqariladi. J.Robinsonning asosiy goyalari yuqoridagilardan ancha farq qiladi, monopoliya sharoitida ishlab chiqarish omillarining ekspluatatsiyasi, mayda korxonalarning yutib yuborilishi to'g'risida fikr yuritiladi. Xaridor monopoliyasi - monopsoniya tushunchasi kiritiladi.

Asosiy tushuncha va iboralar

Nomukammal raqobat, E.Chamberlin, monopoliya, mahsulot differensiatsiyasi, tovarning alohida, individual xususiyatlari, tovar sifati va reklama, baxolanmaydigan omillar, quvvatlar ortiqchaligi fenomeni, J.Robinson, monopoliyaga munosabat, monopsoniya, xaridor monopoliyasi, «samaradorlik yoki adolat».

Nazorat va mulohaza uchun savollar

1. Nomukammal raqobat bozori nazariyalarining paydo bo'lish shart-sharoitlari qanday?
2. Monopoliya deganda nima tushuniladi?
3. «Mehnat diffensiatsiyasi» nimani bildiradi?
4. Baholanmagan raqobat omillari nima?
5. Monopolistik raqobat sharoitda «Quvvatlar ortiqchaligi fenomeni» nima?
6. J.Robinsonning monopoliyaga munosabati.
7. Monopsoniya nima?

XVIII b o b. IQTISODIYOTNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH TA'LIMOTLARI

18.1.J.M.Keynsning iqtisodiy ta'limoti

XX asrning birinchi yarmida iqtisodiy inqirozlarning damba-dam takrorlanishi tufayli «kapitalizmni tartibga solishga» oid iqtisodiy g'oyalar soni ko'paydi. Ana shunday yo'nalişning yorqin tarafdori bo'lib, ingлиз iqtisodchisi **Jon Meynard Keyns** (1883-1946) shuhrat qozondi. Iqtisodchi, davlat arbobi bo'lgan Keyns Iton va Kembridj universitetlarida iqtisodiyot va matematikadan ta'lif oldi, A. Marshall qo'lida o'qidi, 1913-yilda uning birinchi asari - «**Pul muomalasi va Hindiston moliyasi**» kitobi chop etildi. «**Versal tinchlik shartnomasining iqtisodiy oqibatlari**» 1919-yilda nashr etilishi bilan u iqtisodchi sifatida ko'pchilikka tanildi. Bu asarida u shartnomaga nisbatan bir qancha tanqidiy fikrlar bildirgan edi. Keyns 20-30-yillarda iqtisodiyotga oid bir nechta kitoblar yozdi («Ehtimollik to'g'risidagi risola» (1921), «Pul islohoti to'g'risida risola» (1923), «Mister Cherchelning iqtisodiy oqibatlari» (1925), «Erkin tadbirkorlikning intihosi» (1926), «Pul to'g'risidagi risola» (1930) va boshqalar), ammo unga mashhurlik keltirgan bosh asari - «**Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiyyatini nazariyasiga**» (1936) kitobidir. 1940-yilda «**Urush xarajatlarini qanday qoplash mumkin**» degan kitobi ham nashr etildi. Uning yaratgan nazariyasi iqtisodiyot ta'limotlari tarixida alohida o'rinn egallaydi va bu o'ziga xos inqilob bo'lib, hozirgi davrda ham ahamiyatlidir. Keyns asosiy asarining boshidayoq klassik muktabga qarshi ekanligini bayon etdi.

Keyns ta'limotining asosiy va yangi g'oyasi shuki, bozor iqtisodiy munosabatlari tizimi mukammal va o'z-o'zini avtomatik ravishda tartibga sola olmaydi. Shu sababli maksimal darajada bandlikni va iqtisodiy o'sishni faqat davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvni ta'minlay oladi. Psixologik omillarning ustunligiga ishonadi va qiymatning mehnat nazariyasini, qo'shimcha qiymatni inkor etadi, uni ishlab chiqarish omillari konsepsiysi bilan almashtiradi. Keyns kapitalizm bozor iqtisodi

illatlarini to'g'rilash uchun davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvi tarafdori bo'lib chiqdi. Vaholanki, avvalgi olimlar (klassik maktab) buni inkor etganlar va inqirozni tasodifiy voqeа deb hisoblaganlar. Avvalgi tadqiqotchilardan farqli ravishda «samarali talab»ni, ya'ni iste'mol va jamg'arishni birinchi o'ringa qo'yadi. Yuqorida qarab chiqilgan iqtisodiy ta'limotlardan biri - merkantilizimda davlatning iqtisodiyot (siyosat)ga aralashuvi talab etiladi, proteksionizm iqtisodiy siyosati shuni talab etadi. J.M. Keyns u yaratgan konsepsiya ga merkantilistlarning ta'sirini inkor etmaydi.

U tadqiqotning makroiqtisodiy uslubini, ya'ni makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'lgan milliy daromad va jamg'armalar o'rtasidagi bog'lanish va nisbatlarni tadqiq qilish g'oyasini ilgari surdi.

Kapitalizmining bosh illatlari bu ishsizlik va inqirozlardir. Keyns bularning sabablarini sohibkorlar psixologiyasidan topishga intiladi. Inqirozlar kapitalistning kayfiyatiga qarab ro'y beradi, ya'ni optimizmdan pessimizmga o'tganda yuz beradi. Asosiy e'tibor «iste'molga moyillik» va «jamg'arishga moyillik»ka qaratiladi. J.M. Keynsning umumiyligi bandlik nazariyasi quyidagilarga asoslanadi: Ish bilan bandlik ortishi tufayli milliy daromad, demak, iste'mol ortadi, ammo iste'mol daromadga nisbatan sekinroq ortadi, chunki daromad ortishi bilan «jamg'arishga intilish» kuchayadi. Uningcha, asosiy psixologik qonun shundan iboratki, odamlar, odatda, daromadlar ortishi bilan iste'molni ham o'stiradi, ammo bu o'sish daromadlar darajasida bo'lmaydi. Oqibatda daromadlar o'sishi bilan jamg'arish ortadi va iste'mol nisbati kamayib boradi. Oxirida esa «samarali talab» karmayadi, talab shunday yo'l bilan ishlab chiqarish hajmlariga va bandlik darajasiga ta'sir etadi. Iste'mol talabining yetarlicha o'smasligi yangi investitsiyalarga xarajatlarning oshuvi yo'li bilan qoplanishi, ya'ni ishlab chiqarish iste'molining ishlab chiqarish vositalariga qarab oshuvi yo'li bilan qoplanishi mumkin. Shu sababli investitsiyalarning umumiyligi hajmi bandlik hajmini belgilashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Keynsning fikricha, investitsiyalar hajmi investitsiyalarga bo'lgan intilishga bog'liq. Sohibkor investitsiyalarini kapitalning «eng yuqori samaradorligi» foiz darajasigacha pasaygan paytgacha kengaytiradi (foyda normasi o'lchanadigan rentabellik). Qiyinchilik shundaki, kapitalning rentabelligi pasayadi, foiz darajasi esa mo'tadil bo'ladi. Bu holat yangi investitsiyalar uchun imkoniyatni pasaytiradi, demak, bandlik o'sishi ham karmayadi. Kapital «eng yuqori

samaradorligi»ning pasayishi kapital massasining o'sishi, shuningdek, kapitalist-tadbirkorlarning bo'lajak daromadlariga ishonchszlikka «moyilligi» bilan tushuntiriladi. Keyns ta'limoti bo'yicha bandlikning umumiylajimi uch omilga - «iste'molga moyillik», «eng yuqori samaradorlik» va foiz normasiga bog'liq.

Keyns ochgan «asosiy psixologik qonun» uningcha istalgan jamiyat uchun qo'llanilishi mumkin va iste'mol talabining kamomadi asriy tendensiyaga ega hamda barcha uchun yagona iste'mol qonuni mavjuddir.

«Kapitalning eng yuqori samaradorligi», qo'shimcha kapital birligi tomonidan vujudga keltiriladigan bo'lajak foydaning shu birlikka ketgan ishlab chiqarish chiqimlariga nisbatidir. Keynsning fikricha, daromad, foyda keltiradigan narsalar kapital hisoblanadi (boshqa omillarda ham shunday).

Keyns foizga alohida e'tibor beradi, uni pul qarzi uchun berilgan haq deb hisoblaydi. Foiz uningcha, muomaladagi pul miqdoriga va «likvidlilik afzalligi»ga bog'liq (likvidlilik - pulga tez aylana olish, qadrilik demakdir). Uning miqdori «likvidlilik afzalligi»ga to'g'ri va muomaladagi pul miqdoriga teskari proporsionaldir.

Keynsning fikricha, foiz normasi ma'lum davrga likvidlilikdan, ya'ni boylikning likvid, pul shaklidan voz kechish hisobiga beriladigan mukofotdir.

Keynsning umumiylajimi nazariyasida investitsiyalarning umumiylajimi bandlik hajmini aniqlashdagi asosiy roli to'g'risidagi tezis muhimdir. Ular iste'mol talabining yetarli emasligini to'ldirishi (kompensatsiyalash) kerak. Bunda ishlab chiqarishni kengaytirish masalasiga iste'mol talabi oshuvidan alohida qaratadi. Investitsiyalarning ko'payishi ishlab chiqarishga qo'shimcha ishchilarini jalb etishga olib keladi, bu esa bandlik, milliy daromad va iste'mol o'suvini ta'minlaydi. Yangi investitsiyalar tufayli bandlikning dastlabki o'suvi yana qo'shimcha bandlikni vujudga keltiradi, chunki qo'shimcha ishchilarining talabini qondirish zarurati tug'iladi. Qo'shimcha bandlikning o'sish koefitsientini Keyns multiplikator deb ataydi, u bir tomonidan investitsiyalar o'sishi, ikkinchi tomonidan bandlik va daromadlarning o'sishi o'rtaqidagi nisbatni ko'rsatadi. Keyns bir qancha hisob-kitoblarga asoslanib, AQSHning multiplikatorini aniqladi, u 2,5 ga teng ekan. Bu daromadlar o'sishi investitsiyalar ortishidan 2,5 marta ortiq degani, ya'ni 1 dollar investitsiya 2,5 dollar daromad keltiradi. Olim o'zining iqtisodiy dasturini ilgari suradi.

Xususiy investisiyalarni rag'batlantirish uchun foiz normasini tartibga solish taklif etiladi. Uningcha, davlat muomaladagi pul miqdorini oshirish yo'li bilan foiz darajasini tartibga solish imkoniyatiga ega. Muomaladagi pul miqdorini oshirish amalda inflatsiya (pulning qadrsizlanishi)ni qo'llash demakdir, ammo bunda ssuda foizi kamayadi va pul ishlab chiqarishga qo'yish uchun rag'batlantiriladi.

To'la bandlikni ta'minlash uchun faqat investisiyalarning emas, balki milliy daromadni ham tartibga solish taklif etiladi. Buni hal qilish vositasi sifatida soliqlarga murojaat qilish kerak deyiladi.

Keynsni hozirgi davrda hammaga yaxshi tanish ibora bo'lgan «*aralash iqtisodiyot*»ning otasi deyish mumkin, bu iqtisodiyotda hukumat hal qiluvchi o'rın egallaydi. Sof iqtisodiyot deyarli hech qaysi davlatda yo'q. Keynsning iqtisodiy g'oyalari birinchi navbatda «buyuk inqiroz» ta'siri ostida paydo bo'ldi. 1929-1933-yillardagi bu buyuk inqiroz Amerikani larzaga keltirdi, ishlab chiqarish yarmiga (50%)ga qisqardi. 17 mln odam ishsiz edi (25%), 9 mln omonatchi kuyib qoldi. Ana shunday sharoitda iqtisodiyotni qutqarishning muhim yo'li - hukumat xara-jatlari ekanligi ko'rsatib berildi.

18.2. Keyncilar va neokeynschilar

J.M.Keyns g'oyalari uning izdoshlari tomonidan davom ettirildi va uch oqimga ajraldi, biz oqimlarni keynschilik deb ataymiz.

Keyns ta'limoti, ayniqa, AQSHda katta shuhrat qozondi. Garvard universiteti professorlari E.Xansen (1887-1975), S.Xarris, J.M. Klark-larning asarlarida bu g'oyalalar rivojlantirildi va dastlab yangi keynschilik, keyinroq esa ortodoksal keynschilik deb ataldi. Keyns qoidalari asosan to'liq qabul qilindi, ammo, masalan, Xansen tomonidan stagnatsiya nazariysi bilan to'ldirildi.

Xansennenning fikricha, kapitalizm qiyinchiliklari uning ichki qaramaqarshiliklaridan emas, balki «*tashqi impulslar*»ning susayganligi tufaylidir. Davlat xarajatlarini o'stirish uchun soliqlarni oshirish taklif etiladi, ularning fikricha ish haqining 25-30 foizi emas, balki 60 foizini soliq sifatida olish, shuningdek, «*me'yordagi inflysiya*» ham taklif etiladi.

E.Xansen, J.M.Klark va boshqalar multiplikator konsepsiyasini to'ldirdilar. Multiplikatorlar ta'siri keyingi qator davrlarda ham bo'ladi, ya'ni uni uzluksiz jarayon deb qaradilar.

Yangi keynschilar samarali talabdan ham yuqori keskin o'sishni tushuntirishga harakat qiladilar. Ular multi plikator prinsi pini akseleratsiya prinsipi bilan to'ldirdilar. Akselerator investisiya o'sishi-ning daromad o'sishiga, ya'ni investisiyadan keyingi va undan oldingi daromadlarning farqlari nisbati bilan aniqlanadi.

Multiplikator va akselerator g'oyalariaga asoslanib, iqtisodiyotning uzluksiz o'sish sxemasi ishlab chiqildi. Uning asosida davlat kapital qo'yilmalari yotadi. Davlat budgeti kapitalistik iqtisodiyotda tartibga solinadigan bosh mexanizm hisoblanadi.

Soliqlar iqtisodiyot o'sganda oshadi va inqirozlar davrida kamayadi. Davlat to'lovleri esa, aksincha inqiroz davrida oshadi va o'sish davrida kamayadi. Shu yo'l bilan Xansenning fikricha, samarali talab hajmi me'yorlashadi. Bunda xususiy kapital qo'yilmalarini tartibga solish va davlat xarajatlarini sharoitga qarab o'zgartirish chegaralari ham belgilanadi.

Fransiyadagi keynschilik xususiyatlari. XX asrning 40-yillari Keyns g'oyalari Fransiyada ham shuhrat qozondi. Keyns g'oyalarini to'laligicha (G.Ardan, P.Mendes-Frans) qabul qilganlar ham bo'ldi. Ba'zilari (F.Perru) ssuda foizini tartibga solishni samarasiz deb hisobladilar, bundan ko'ra iqtisodiyotni rejalashtirish taklif etildi. Bunda davlat yo'li bilan tartibga solishni monopolistik kapitalning xususiy manfaatlariga moslashtirish kerak deyiladi. Fransuz olimlari imperativ va indikativ rejalashtirishni ajratishadi. Imperativ rejalar direktiv xarakterga ega (sotsialistik rejalashtirish). Indikativ rejalashtirishda reja markazi asosiy maqsadlarni belgilaydi va turli uslublar bilan tadbirdorlarni ma'lum xatti-harakatlarga yo'naltiradi. Ular faqat davlat sektoridagi korxonalar uchun zaruriy hisoblanadi (Hindiston, Malayziya va boshqa bir qancha kapitalistik mamlakatlarda shu usul qo'llaniladi). Uzoq muddatli prognozlar va rejalar tuzish keng qo'llanmoqda (bu haqda to'laroq ma'lumot quyida beriladi).

Keyinchalik yangi keynschilik o'mniga postkeynschilik vujudga keldi. Ingliz iqtisodchilari J.Robinson, N.Kaldor, P.Sraffa, amerikalik olimlar A.Eyxner, S.Vayntraub mana shu postkeynschilar guruhiga kiradilar. Ular kapitalistik tizimning ichki turg'unligi konsepsiyasini tanqid qiladilar, Keyns g'oyalarini dinamik, ya'ni harakatchan nazariya deb qaraydilar.

Postkeynschilar o'z tadqiqotlariga ijtimoiy-iqtisodiy institutlar, masalan, kasaba uyushmalari rolini ham kiritadilar. Bu ta'limotda o'sish

va taqsimot muammolari markaziy o'rinni egallaydi. Ishlab chiqarishda o'sish sur'atlari milliy daromadning taqsimotiga bog'liq, daromad va uning o'sishi esa jamg'armaga, umumiy jamg'arma esa ish haqi va foydadan jamg'arilgan jami summaga bog'liq.

Hozirgi davr keynschilikida ikkita tendensiya hukmron hisoblanadi: 1) AQSHning bir qator iqtisodchilari nomi bilan bog'liq amerika keynschilari; 2) fransuz tadqiqotchilari nomi bilan bog'liq Yevropa keynschilari.

18.3. Keynschilikning AQSHdagi xususiyatlari. Iqtisodiy o'sish nazariyalari

50-yillarda keynschilik g'oyalari rivojlantirilib, yangi g'oyalalar ilgari surildi. Ularning asosiy mohiyati iqtisodiy o'sish sur'atlari doimligini ta'minlovchi mexanizmlarni aniqlash va isbotlashdan iboratdir. Oqibatda «multiplikator-akselerator» sistemasini hisoblashga asoslangan va o'ziga xos keynschilikning o'sish nazariyalari, jamg'arish va iste'mol o'rtasidagi o'zaro bog'lanish xarakteristikalaridan foydalanib, iqtisodiy dinamikani modellashtirish yuzaga keldi.

Yuqorida tilga olingan iqtisodiy o'sish nazariyalarining asosiy namoyandalari Massachuset texnologiya instituti professor Evsey Domar (1914) va Oksford universiteti professori Robert Xarrod (1890-1978) hisoblanadi. Xarrod-Domar modelining boshqa bir qoidasi bo'yicha ayrim parametrlar, chunonchi, daromadlardagi jamg'arma hissasi va kapital qo'yilmalarning o'rtacha samaradorligi uzoq davr mobaynida doimiy deb tan olinishi hisoblanadi. Mualliflar dinamik barqarorlik va doimiy o'sishga erishish avtomatik ravishda bo'lmasligi, balki davlatning shunga mu'yofiq siyosati natijasida, ya'ni davlatning iqtisodiyotga faol ishtiroti tufayli ro'y berish mumkinligini ta'kidlaydilar.

Domar va Xarrod modellaridagi farq – boshlang'ich pozisiyalardagi ayrim ko'rsatkichlardir. Masalan, Xarrod modelida investitsiya va jamg'armalar tengligi g'oyasi, Domarda esa pul daromadlari (talab) va ishlab chiqarish quvvatlari (taklif) teng deb qabul qilinadi. Ikkala olim shunga ishonchlari komilki, daromad o'sishini ta'minlashda investitsiyalar roli, ishlab chiqarish quvvatlarining oshirilishi faoldir. Bunda shu marsa ko'zda tutiladiki, o'sish bandlikka yordam beradi, bu

esa korxonalarining yarim quvvat bilan ishlashi va ishsizlikning oldini oladi.

18.4. Keyns g'oyalaring hozirgi davrdagi ahamiyati

Shuni aniq qilib aytish kerakki, Keyns ta'limoti inqirozlar, urushlar va urushdan keyingi davrlar uchun samarali bo'ldi, chunki favqulodda holatlar davrida davlatning roli kuchli bo'lishi kerak. Amalda esa, ayniqsa, II Jahon urushidan so'ng G'arb mamlakatlarini sotsialistik orientatsiyasi kuchaydi (davlat mulki oshib bordi), davlat budgeti qarzlar ko'payib, ishsizlik ham o'sgan, inflatsiya kuchli. Bu ijtimoiy ishlarni ko'paytirishga qaratilgan tadbirlar oqibatidir deb tan olinmoqda. Ishsizlikning ish haqini pasaytirish yo'li bilan hal etish tarafдорлари ham mavjud, ammo pul massasini ko'paytirish (inflatsiyaga olib keldi), ya'ni emissiya yo'li ko'pchilikka oson ko'rindi. Bu konsepsiya ma'lum davr mobaynida inflatsiya bo'limgan holda minemal ishsizlik darajasini isbotlashga imkon beradi.

70-yillardan boshlab Keyns ta'limotiga nisbatan davlatning iqtisodiyotga aralashuvi bo'yicha neoliberalizm g'oyalari asosiy bo'lib qoldi, chunki bu davrda jahonning ko'pgina mamlakatlarida inqiroz holatlari doim voqeaga aylanib qoldi. Inflatsiya, davlat budgetining kamomadi, ishsizlik tobora kuchaydi. Neoliberallar keynschilarini tanqid qilar ekanlar, iqtisodiyotda davlat sektorining oshuvi, erkin raqobatning kamayishi, iqtisodiyotning muhim tarmoqlariga investitsiyalar kamaganligi ular g'oyalaring sayozligidan dalolat beradi deb hisoblaydilar.

70-80-yillar neoliberal g'oyalari iqtisodiyotda tobora ustunligini egallay boshladi. Ko'p davlatlarda iqtisodiyotni denatsionalizatsiya qilish kuchaydi (nodavlat shakllariga o'tildi). Buning oqibatida Buyuk Britaniya (Tetcherizm), Fransiya, Yaponiya, Chili (Pinochet), Ispaniya va boshqa mamlakatlarda davlatning iqtisodiyotga aralashuvi minimallashtirildi va iqtisodiy ahvol yaxshilandi.

Qisqacha xulosalar

1929-1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi avvalgi «sof ta'limot» nazariyotchilarining fikriga qo'shimcha kiritishni talab etdi. Iqtisodiy ta'limotlar tarixida Keyns inqilobi deb nom olgan o'zgarish ro'y berdi.

Agar avvallari «bozor iqtisodiyoti barcha muammolarni avtomatik ravishda hal qiladi» degan g'oya ustun bo'lsa, Keyns ularga boshqacha qarab, davlatning iqtisodiyotga aralashuvini zarur deb hisobladi. Bandlik, foiz, milliy daromad, investitsiyalar o'rtasidagi munosabatlar o'rganilib, «aralash iqtisodiyot», multiplikator tushunchalari kiritildi. Keynschi va Neokeynschilar davlatning iqtisodiyotga aralashuvini qo'llab, «akselerator koeffitsiyenti»ni qo'lladilar, unga ko'ra daromad-larning investisiyalarga ta'sirini ko'rish mumkin. Keynschilikning ayrim shakllarida indikativ rejalashtirish ham qo'llab- quvvatlanadi. Ishsizlik va inflatsiyani bandlik yo'li bilan hal etish degan g'oya ustundir.

Asosiy tushuncha va iboralar

Keyns, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi, «Umumiylazariya...», aralash iqtisodiyot, psixologik qonun, bandlik, milliy daromad, investitsiya, foiz, likvidlik, multiplikator, keynschilik, AQSHdagi keynschilik, akselerator, Fransiya keynschilari, indikativ rejalashtirish.

Nazorat va mulohaza uchun savollar

1. Keyns ta'limotining mohiyati, «Bandlik, foiz va pulning umumiylazariysi» asari to'g'risida nima bilasiz?
2. Davlat iqtisodiyotga nima uchun aralashuvi kerak?
3. Keyns ta'limotiga qanday shart-sharoitlar asos qilib olingan?
4. Keynsning «psixolok qonuni» nimani anglatadi?
5. Investitsiya, multiplikator koeffitsiyenti nima?
6. Foiz, likvidlikning mohiyati nimada?
7. Davlatning iqtisodiyotga arashuvi doiralari qanday?
8. Amerika va Yevropadagi keynschilik xususiyatlari nima?
9. Domar-Xarrodning iqtisodiy o'sish nazariyalari nimani bildiradi?
10. Keyns ta'limotining hozirgi davrdagi ahamiyati nimadan iborat?

XIX b o b. NEOLIBERALIZM

19.1. Neoliberalizmning umumiy xususiyatlari

Neoliberalizm keynschilik bilan deyarli bir vaqtida paydo bo'ldi va XX asrning 30- yillarda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning mustaqil qarashlar majmuasidan iborat. Ilmiy nazariya va amaliy hayotda neoliberal iqtisodiy jarayonlarga davlatning ma'lum darajada aralashuvi tufayli cheklanmagan erkin raqobat g'oyasining ustuvorligiga asoslanadi. Agar keynschilik iqtisodiyotda davlatning faol aralashuvini boshidanoq zarur deb qarasa, neoliberalizm davlatning nisbatan passiv tartibga solishini qo'llaydi. Keynschilik modellarida iqtisodiyotning turli sohalarini investitsiyalash, hukumat buyurtma va xaridlar hajmini kengaytirish, soliq siyosatini kuchaytirish bo'yicha davlat chora- tadbirlari majmuasiga ustuvorlik beriladi. Bu siyosatning o'ta keng qo'llanilish oqibatlari iqtisodiy tarixdan ma'lum bo'lgan davlat budjeti kamomadi va inflatsiyaga olib kelishida ko'rindi.

Neoliberalistlar iqtisodiyotni liberalashtirishni, erkin baho shakllanish prinsiplaridan foydalanishni, iqtisodiyotda xususiy mulk va nodavlat tuzilmalarining yetakchi bo'lishini qo'llaydilar.

Neoliberalizmning eng yirik markazlari Germaniya, AQSH va Angliyada vujudga kelib, shunga muvofiq Frayburg maktabi (yetakchi vakillari - V.Oyken, V.Ryobke, A.Ryustov, L.Erxard va b.), Chikago maktabi, uni «monetar maktab» deb ham ataydilar (yetakchi vakillari - L.Mizes, M.Fridmen, A.Shvari va b.), London maktabi (yetakchi vakillari - F.Xayek, L.Robbins va b.).

Fransiyada neoliberal g'oyalarning taniqli vakillari sifatida iqtisodchilar J.Ryueff, M.Alle va boshqalarni keltirish mumkin. Bu olimlar o'sha davrdayoq yagona ilmiy-amaliy platformani ishlab chiqish uchun harakat boshladilar. 1938-yili Parijdagi konferensiyada neoliberalizmning asosiy prinsiplari xalqaro ko'lamda e'lon qilindi. Bu neoliberallarning yig'ilishi (forumi) «Lippman kollokviumi» deb ham ataladi. Buning sababi shuki, o'shayili amerikalik iqtisodchi A.Uolter Lippman «Erkin shahar» kitobini e'lon qildi va undagi g'oyalar neoliberal prin-

siplar bilan hamohangdir. Parijdagi qo'llab-quvvatlangan neoliberal umumiylarining prinsiplarini mohiyati shundan iboratki, davlatlar erkin raqobat qoidalarini qaytarishga g'amxo'rlik qilishlari va ularni barcha xo'jalik subyektlari tomonidan bajarilishini ta'minlashlariga ko'maklashuvi so'raladi. Bu hujjatda xususiy mulk ustuvorligi sharti, bitimlar erkinligi va bozorlar erkinligi davlat yo'li bilan faqat ekstremal (urush, stixiyali ofat, falokat va b.) holatlardagina qayta ko'riliishi mumkin deb hisoblanadi.

19.2. Ijtimoiy bozor xo'jaligi konsepsiysi

II Juhon urushidan so'ng neoliberalizm prinsiplari dastlab G'arbiy Germaniya (GFR) da amaliy jihatdan muvaffaqiyati tatbiq etildi. Bu yerda 1948-yildan boshlab bu g'oyalar Adenauer-Erxard davlat doktrinasi statusiga aylantirildi. Neoliberalizmning taniqli nemis nazariyotchilari V.Rebke, A.Ryustov va boshqalar ozodlik va insonparvarlik bahonasida monopolizm vujudga kelishining barcha ko'rinishlarini tanqidiga boshchilik qildilar. V.Oyken va uning safdoshlari Frayburg universitetida 1948-yildan «Ordo» nomli yillik to'plamni chiqara boshladilar, bu jurnal barcha davlatlar uchun neoliberalizning nazariy minbari rolini o'yndaydi. V.Oyken tomonidan tanlangan «Ordo» so'zi yig'ma bo'lib, erkin bozor xo'jaligining «tabiiy tizimi» ma'nosini beruvchi mazmunga ega edi. Neoliberalizm G'arbiy Germaniya doktrinasi «Oyken maktabi» ta'siri ostida hatto «Ordoliberalizm» deb atala boshlandi.

«Ijtimoiy bozor xo'jaligining» mohiyati

GFR neoliberalizm nazariyotchilari «erkin bozor» va adolatli taqsimot prinsiplarini «ijtimoiy tenglik» prinsi pi g'oyasi bilan qo'shishga muvaffaq bo'lildilar. Birinchi marta uning konseptual g'oyasi A.Myuller-Armakning «Xo'jalik boshqaruvi va bozor xo'jaligi» (1947) kitobida izohlanadi, bunda «Ijtimoiy bozor xo'jaligi» matni ham birinchi bor qo'llanilgan. Bu sohadagi ishlanmalar V.Rebke, L.Erxard, V.Oyken (asli tarixchi) va boshqalar tomonidan davom ettirildi.

V.Rebkening «Nemis iqtisodiy siyosati to'g'rimi?»(1950) degan kitobi muqaddimasida GFR kansleri K.Adenauer «ijtimoiy bozor xo'jaligi» modeli mamlakat iqtisodiy siyosatining asosiy vazifasi sifatida qilinganligini bayon etadi.

V. Rebke xarakteristikasi bo'yicha, «ijtimoiy bozor xo'jaligi» - «iqtisodiy insonparvarlik» sari yo'ldir. U o'zining «Insonparvar jamiyat» asarida kollektivizmga – personalizm, hokimiyat konsentratsiyasiga –

erkinlik, sentralizmga – detsentralizm, tashkilotchilikka – o‘zini-o‘zi boshqarishni qarshi qo‘yadi va boshqalar. 1957-yilda XDSning navbatdagi syezdida L. Erxard, V. Rebke g‘oyalari qo‘llagan holda GFR da «ijtimoiy bozor xo‘jaligi»ning 2- bosqichi boshlanganligini tasdiqladi. 60-yillarda L. Erxard o‘z maqolasida, avvalo, «erkin musobaqa ijtimoiy bozor xo‘jaligining eng asosiy elementi hisoblanadi» deb ta‘kidlangan edi. 1965 yilda partiyaning navbatdagi syezdida L. Erxard GFRda «Ijtimoiy bozor xo‘jaligi» ni tashkil etish dasturining nihoyasiga yetganligini e’lon qildi. Bu dastur mamlakatni «rasmiylashgan jamiyat»ga aylantirildi.

60-70-yillarda neoliberalizm konsepsiysi «ijtimoiy bozor xo‘jaligi» modelini yaratish va amalga oshirish prinsiplari institutsionalizmning «barcha uchun farovontlik jamiyat» konsepsiysi bilan hamohangdir. Chunki ikkala modelda insonni inson tomonidan ekspluatatsiya qilinishi va sinfiy antegonizm inkor etiladi. Bu modellardan tashqari, davlatning faol ijtimoiy vazifasi g‘oyasi bor. Davlat barcha fuqarolarga ijtimoiy xizmatni olish va ular farovonligini oshirish uchun teng huquq va imkoniyatlar yaratishi zarurdit. Bunda jamiyatning turli qatlamlarida aksionerlar sonining ortishi bilan birga, barcha ijtimoiy institutlar barqarorligining o‘sishi, asosiy mehnatkash aholining ertangi kunga ishonchi va boshqalar ko‘zda tutiladi.

19.3. Chikago monetarizm maktabi

Keynschilikka muqobil ravishda AQSHda neoliberalizmning Chikago maktabi vujudga keldi. Uning monitar (pul bilan bog‘liq) g‘oyalari Chikago universitetida 20-yillarda paydo bo‘ldi. Ammo neoliberal yo‘nalish harakatida Amerika monetarizmi mustaqil keyinschilik ilg‘orlik pozitsiyalarni faqat 50-yillar oxiri - 60-yillar boshida egalladi. Bunda M. Fridmen (1912-2006) nashrlari muhim ahamiyat kasb etdi (1976-yilgi iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofoti laureati). Fridmen va uning safdoshlari Keynsning pulsiz omillari (masalan, investitsiyalar) o‘rniga aynan pulli omillarni afzal ko‘rdilar.

1958-yilda A.U. Fillipsning empirik egri chizig‘i paydo bo‘lishi bilan pul hisobidagi ish haqining yillik foiz o‘zgarishi va ishsizlik darajasi (hissasi) o‘rtasidagi bog‘lanish aniqlandi. Bunda 1861-1913-yillar Angliyadagi real ma’lumotlardan foydalaniilgan. 1964-yil P. Samulson o‘zining mashhur «Ekonomiks» darsligining 6-nashriga shu grafikni

kitirdi va uni «Fillips egri chizig‘i» deb atadi. Avvalgi tadqiqotlarda (masalan, Keyns) inflatsiyasiz to‘la bandlik iqtisodiy siyosatning maqsadi sifatida qarab kelinar edi. Bu egri chiziqqa ko‘ra, baholar mo‘tadilligi va ishsizlik nomuvofiq hodisalar bo‘lib chiqdi. Ular askincha, konfliktli maqsadlar ekan: ishsizlikni kamaytirishga inflatsiyani kuchaytirish yo‘li bilan erishiladi, inflatsiyani pasaytirish esa, odatda, ishsizlar ko‘payishini taqozo etadi. Shunday qilib, bir vaqtning o‘zida turg‘un baholar va to‘la bandlikka bo‘lgan ishonch, barqaror baho va to‘la bandlik o‘rtasida tanlash bilan o‘rin almashdi.

M.Fridmen va uning safdoshlari Fillips egri chizig‘ini har tomonlama o‘rganib, (egri chiziq) har doim ham turg‘un emasligini aniqladi. Ayniqsa, 60-yillar oxirida ko‘pgina mamlakatlarda inflatsiya o‘sishi «mantiq»qa qarama-qarshi ishsizlikning pasayishi emas, balki uning o‘sishi va 70-yillar boshida esa inflatsiya va ishsizlikning bir vaqtida o‘sishi bilan ro‘y berdi.

19.4. Neoliberalizmning boshqa oqimlari

F. Fon Xayek Iqtisodiy liberalizm oqimining XX asrdagi asosiy namoyandasasi asli Avstriyadan chiqqan amerikalik **Ludvig fon Mizes** (1881-1973) va uning eng sodiq shogirdi **Fridrix Xayek** (1899-1992)lardir. Ularning maktabi Avstriya maktabi deb ham ataladi. Mizesning fikricha, markazlashgan boshqaruvga asoslangan sotsialistik xo‘jalik va hukumat tomonidan tartibga solinadigan bozor uzoq vaqt yashashi mumkin emas, chunki narx-navo talab va taklifni aks ettirmaydi. Uningcha, sotsializmning «tartibga solinadigan iqtisodiyot»i rejalarни o‘zboshimchalik bilan tuzadigan tashkilotchilarning quliga aylanadi, rejangan tartibsizlik ro‘y beradi. Yagona oqil siyosat bu liberalizmdir. Mehnat taqsimoti, xususiy mulk va erkin almashuv sivilizatsiyaning mutlaq asoslari hisoblanadi. Mizesning asosiy asarları quyidagilar: «**Liberalizm**», «**Insoniy harakat: iqtisodiyot to‘g‘risidagi traktat**», «**Iqtisodiy fan asoslari: metodologiya ocherklari**» va boshqalar.

Ingliz iqtisodchisi **Fridrix Fon Xayek** asli nemis bo‘lib, asosan Angliyada faoliyat ko‘rsatgan. U 1974-yilda iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofoti laureati bo‘lgan. U o‘zining «**Qullik sari yo‘l**» asarida har qanday iqtisodiy erkinlikdan va bozor baholaridan voz kechish diktaturaga, ya’ni yakkahokimlikka, iqtisodiy qullikka olib borishini isbotlaydi, xo‘jalikda bozor tizimining «**aralash**» va «**buyruqbozlik**»

iqtisodiyotidan ustunligini ko'rsatib beradi, kapitalni abadiy kategoriya deb e'lon qiladi, kapitalizm davrida ekspluatatsiya mavjudligini inkor etadi, davlat iqtisodiyotining sotsialistik g'oyalari to'la tushkunlikka mahkumligi va o'z tabiatiga ko'ra halokatli ekanligini ta'kidlaydi.

Qisqacha xulosalar

Neoliberalizm keynschilik ta'limoti davrida yuzaga keldi, ammo davlatning iqtisodiyotga aralashuvi ancha boshqacha talqin etiladi. Davlat «sport sudyasi» vazifasini bajarishi, ya'ni erkin iqtisodiyot qonun-qoidalarini tartibga solishi kerak, xolos. Bu yo'nalishning yirik uch markazi Germaniya, AQSH va Angliyada paydo bo'ldi. Germaniyada ijtimoiy bozor xo'jaligi konsepsiysi ilgari surildi va amalda yaxshi natijalar berdi, davlat iqtisodiy siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu boshqa mamlakatlarda, xususan, mustaqil O'zbekistonda ham muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Chikagoda paydo bo'lgan monetarizm maktabi M.Fridman nomi bilan mashhur bo'ldi. Uning konsepsiyasidagi asosiy masala davlatning qattiqxo'l pul siyosatidir. Har yili konyunkturaga bog'lanmagan holda pul massasini 3-4% oshirish taklif etiladi, bu yo'l AQSHda yaxshi natija berdi.

Asosiy tushuncha va iboralar

Neoliberalizm, davlat roli, «sport sud'yasi», «Lippman kolokviumi», ijtimoiy bozor xo'jaligi, Rebke, Ryustov, Oyken, Edxard, ordoliberalizm, «rasmiylashgan jamiyat», iqtisodiy tizim tiplari, monetarizm, Fillips egri chizig'i, Fridman, «ishsizlik tabiiy normasi»

Nazorat va mulohaza uchun savolar

1. Neoliberalizm vujudga kelishining shart-sharoitlari, keynschilikdan farqi nimada?
2. Lippman «kolokviumi» nimani anglatadi?
3. «Ordoliberalizm»ning mohiyati nimada ko'rindi?
4. «Ijtimoiy bozor xo'jaligi», uning tiplarini izohlang.
5. Chikago maktabining monetar konsepsiysi, Fillips egri chizig'ining mohiyati nimada?
6. Fridmanning «ishsizlik tabiiy normasi»ni tushuntirib bering.
7. Mizes, Xayeklarning iqtisodiy g'oyalarining mohiyati nima?

XX b o b. HOZIRGI ZAMON IQTISODIY TA'LIMOTLARI EVOLUTSIYASI

20.1. Neoklassik sintez konsepsiyasining mohiyati

Iqtisodiyotda bir qancha ofatlar, xususan, ommaviy ishsizlik va infyatsiya ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Qanday qilib aholining mo'tadil va to'la bandligini, real daromadlar o'sishini ta'minlash mumkin degan savollar hammani, iqtisodiy fani namoyandalarini ham qiziqtirib kelmoqda. Ayniqsa, inqirozsiz iqtisodiy siklning sirlari muhimdir. Bu va boshqa masalalar bilan neoklassik sintez yo'naliishi shug'ullanib, unda klassik iqtisodiy ta'limot tomonidan ilgari aniqlangan haqiqat va qoidalar hozirgi davr-dagi daromadlar shakllanishi nazariyalari bilan sintez qilinadi. Bu sohada barakali ijod etgan P.Samuelsonning fikricha, «neoklassik sintez» aslida hozirgi neokeyns va neoliberal qoida va «haqiqat»larning ilk neoklassik g'oyalar bilan, shuningdek, klassik maktabning ayrim postulatlari, avvalo, hozirgi davrdagi daromadlar shakllanishi nazariyalari bilan birlashtirib qarashidir.

20.2. Neoklassik sintez konsepsiyasining yangi versiyalari

Yangi g'oyaning paydo bo'lishi bilan iqtisodiy tahlilda aralash shakldagi qarashlar ustundir, iqtisodiyotni tartibga solishning turli shakllari taklif etiladi. Hozirgi davrda iqtisodiyotni makroiqtisodiy tartibga solishda asosan uchta ta'limot qarashlari qorishmasi ishtirot etadi. Bular 1) turli modifikatsiyadagi keynschilik ta'limotlari; 2) taklif iqtisodiyoti nazariyalari; 3) monetarizm. Keynschilik qarashlarida, asosan, davlatning iqtisodiyotda faol ishtiroti keng targ'ib etiladi. Bunda konyunkturaning o'zgarishi bilan ishlab chiqarishning yuqori darajasi ni ta'minlash, ish bilan bandlik, siklik rivojlanishni yumshatish asos qilib olinadi. Asosiy e'tibor davlat budgetiga qaratiladi, shu yo'l bilan to'lov imkoniyatlariga talab to'g'ridan to'g'ri tartibga solinadi.

Monetaristlarning fikricha, iqtisodiy hayotga umuman aralashmaslik prinsi pi qo'llab-quvvatlanadi.

Ayrim fikrlar bo'yicha neoklassik sintez faqat iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishnigina emas, balki umumiyl iqtisodiy muvozanatni modellashtirishni ham o'z ichiga oladi. Ayrim olimlarning aytishicha (A.B.Anikin), Samuelsonning neoklassik sintezi, avvalo, klassik mikroiqtisodiyotni yangi makroiqtisodiyot bilan qo'shilishi deb qaraladi. Yuqorida keltirilgan qarashlarni uch qismga bo'lish mumkin: ularning birinchisi iqtisodiyotda to'la bandlikni ta'minlash va bu prinsi pni erkin bozor iqtisodiyoti elementlari bilan birgalikda (iqtisodiy liberalizm), shuningdek, erkin bozor stixiyasini chegaralovchi keynschilik konsepsiysi elementlari ham qo'llanilishi mumkin. Ayniqsa, davlat siyosatida Fiskal va pul-kredit tizimlari hamda «ishsizlikning tabiiy normasi» (M.Fridmen) konsepsiyasidagi antiinflatsion imkoniyatlari, hamda Erxard-Ryopkelarning «Ijtimoiy bozor xo'jaligi» prinsiplari birgalikda harakat qiladi. Ikkinci qarashlarda XIX asrning oxirida neoklassiklar tomonidan ilgari surilgan qiymat (qimmat) nazariyasida eski va yangi qiymat nazariyalari yoki xarajat nazariyasi va eng yuqori foydalilik nazariyasi yotadi. Bu yerda marjinalistlarning ikkinchi to'lqini vakili A. Marshall ilgari surgan yondashuv sistemasi to'g'risida gap bormoqda. Bu yerda V. Pareto va boshqalarning baho, talab va taklif hamda umumiyl iqtisodiy muvozanat masalalari ko'zda tutiladi.

Uchinchi qarash bo'yicha umumiyl iqtisodiy muvozanatning hozirgi modeli bir vaqtning o'zida makro va mikroiqtisodiy tadqiqotlarga asoslanadi. Bu tadqiqotlarda avvalgi sof iqtisodiy nazariya va mukammal raqobat qarashlardan voz kechiladi, ishlab chiqarish va iste'mol sohalarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yilmaydi. Bu qarashlarda Keynsning «Psixologik qonuni», ya'ni daromadlarning iste'molga nisbatan tezroq o'sishi, «Veblen Effekti» va boshqa noiqtisodiy omillarning ta'siri ham hisobga olinadi.

20.3. P.Samuelsonning «Ekonomiks» asaridagi g'oyalar

Pol Antoni Samuelson (1915) Chikago universitetida ta'lim olgan. (1932-1935) Garvard oliy mакtabida A.Xansen, V.Leontev, Y.Shumpeterlardan ilm o'rgandi. 1941-yildan Massachusetts texnologik

institutida ishlay boshladi (dastlab professor assistenti). Amerika iqtisodiy assotsiatsiyasi (1961), *Ekonometrik jamiyat* (1951). Xalqaro iqtisodiy assotsiatsiya (1965-1968) prezidenti bo'lib saylangan. Olim nazarriyotchi bo'lish bilan birga, AQSH prezidenti yordamchi, «Newsweek» jurnalida faol ishtirokchi ham edi. Biz bu olimni, asosan, «Ekonomiks» kitobi muallifi sifatida yaxshi taniyimiz. Samuelsonning bu kitobi dastlab 1948-yili chop etildi va 14 marta qayta nashr etilib, hozirgi iqtisodiy ta'limotlarning asosiy yo'naliishlaridan birini tashkil etadi.

1992-yilda bu kitob Vilyam Nordxaus bilan hammualliflikda nashr etildi. «Ekonomiks» kitobi «Ekonomika» nomi bilan rus tiliga ag'darildi.

Samuelson eng kam ish haqi to'g'risidagi qonunni daromadlar pillapoyasining eng pastida turgan ishchilarga yordam berish usuli deb hisoblaydi. U davlatning uy-joy qurilish dasturlarini moliyalashtirishni va oziq-ovqat yordamini qashshoqliknini kamaytirish usuli sifatida qo'llab-quvvatlaydi. «Ekonomiks» asarida tarixiy-iqtisodiy ekskurs mavjud bo'lib, XVII asr oxiridagi Maltusning aholi nufusi nazariyasi eslanadi; A. Smitning «Ko'rinmas qo'l» haqidagi g'oyalari tahlil etiladi. Asarda o'tgan davrdagi deyarli barcha doktrinalar qarab chiqiladi (bular to'g'risida yuqorida o'qishingiz mumkin).

Uning fikricha, hozirgi davr iqtisodchilarini «neoklassik sintez»ga erishish uchun samarali kredit-pul va fiskal siyosatni Smit va Marshallning klassik mikroiqtisodiyotini hozirgi daromadning darajasini aniqlash bo'yicha mavjud makroiqtisodiyot bilan birlashtirish, ikkala yondashuvdagagi barcha sog'lom fikrlarni jamlashtirishga harakat qilmoqdalar.

Olim iqtisodiy taraqqiyot omillariga baho berib, uni to'rtta deb hisoblaydi:

1. Mehnat resurslari (inson birinchi va asosiy).
2. Tabiiy resurslar.
3. Kapital.
4. Texnologiyalar.

Olimning bu omillari «taraqqiyotning to'rt g'ildiragi» deb yuritiladi.

20.4. Ekonometrikaning hozirgi zamon asosiy yo'naliishlari

Ekonometrika alohida ilmiy yo'naliish sifatida iqtisodiy nazariya, matematika va statistikadan 20-30 yillarda ajralib chiqdi, bu xususan G.Mur va G.Shuls (AQSH) asarlari tufayli ro'y berdi. «Ekonomet-

riya» atamasi birinchi bor polshalik iqtisodchi P.Chompa (1910) tomonidan ishlatildi (ekonometrika va ekonometriya iboralari teng kuchli hisoblanadi), ilmiy muomalaga esa norvegiyalik iqtisodchi R.Frisk (1926) tomonidan kiritildi. U.I.Fisher, I.Shumpeter, Ch.Rouz va boshqa amerikalik olimlar bilan birga «Xalqaro ekonometriya jamiyat»ning tashkilotchisi hamdir (1930). Bu jamiyat 1933-yildan «Ekonometrika» jurnalini nashr etadi.

U.Mitchell va u boshqargan «iqtisodiy barometrlar»ning Garvard maktabi vakillari ham bu yo'nalishga katta hissa qo'shmaqdalar. Keyingi davrda italiyalik iqtisodchilar E.Barone va M.Pantaleoni, amerikalik I.Fisher, G.L.Mur, E.Chamberlin, shvetsiyalik K.Viksell, G.Kassel va boshqalar bu sohada muhim yutuqlarni qo'lga kiritdilar.

Birinchi, eng oddiy ishlab chiqarish funksiyasi Ch.Kobb va P.Duglas (AQSH, 1928) tomonidan tuzildi, keyin R.Solou, K.Arrou (AQSH)lar tomonidan umumlashtirildi, unda ishlab chiqarish ko'ldimi, texnika taraqqiyoti va boshqa omillar ham hisobga olindi. Bunday regressiv modellar alohida mahsulotlar uchun, korxona va firma, tarmoq va umumxalq xo'jaligi uchun ham tuzilishi mumkin.

30-yillarda Ya.Tinbergen (Niderlandiya), 50-yillarda L.Klayn (AQSH), R.Stoun (Buyuk Britaniya) korrelatsion ko'p omilli modellarni tuzdilar, unda alohida kapitalistik mamlakatlar iqtisodiyotidagi ishlab chiqarish, shaxsiy va davlat talabi, narx, soliq, tashqi savdo aylanmasi, kapitalning ishlatalishi va jamg'arilishi, ishchi kuchi taklifi va boshqa o'zgaruvchilar o'rtaсидagi statistik aloqadorlik o'z aksini topgan.

Xalq xo'jaligi tarkibini tahlil etish maqsadida tarmoqlararo balans tipidagi modellardan foydalilanildi. Dastlab bunday model 1925-26-yillarda sobiq SSSRda P.I. Popov (1872-1950) rahbarligida ishlab chiqildi. Keyinchalik bu uslub V.Leontev (asli rossiyalik, AQSH) tomonidan rivojlantirildi va moliya oqimlari tarkibini o'rganish uchun R.Frish tomonidan tatbiq qilindi.

Marksning qayta ishlab chiqarish sxemasi sovet iqtisodchisi G.A.Feldman (1928) tomonidan tayyorlandi. Kapitalistik sikllarning iqtisodiy dinamika modellari Tinbergen, Frish, M.Kaleskiy, J.Xiks, R.Xarrot, P.Samuelson va boshqalar tomonidan ishlab chiqildi.

Ekonometrika uslublari ko'pincha ekstrapolatsiya tendensiyalariga asoslangan.

Sovet olimi L.V.Kantorovich chiziqli programmalash (1939) uslubining asoschisi hisoblanadi.

Ekonometrika ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Ko'pgina yetakchi mamlakatlarda iqtisodiy matematik uslublardan foydalanish iqtisodiyotning ma'lum sohalari, tarmoqlari bo'yicha sikl modellari ishlab chiqilmoqda va amalda qo'llanilmoqda. Ayniqsa, AQSHda bu sohada muhim yutuqlar qo'lg'a kiritildi.

Buyuk Britaniyada ham qayta ishlab chiqarish iqtisodiy modeli (1961) 1948-56-yillardagi parametrler asosida A.Kleyn, R.Boll, E.Xezlvud, P.Vandom tomonidan tuzilgan. R.Staun Kembrij modeli (1960-70-yillar) ham diqqatga sazovor.

Iqtisodiy tahlilning tarmoqlararo balans metodini tuzish 30-yillarda amerikalik iqtisodchi V.Leontevning tadqiqotlari asosida yuzaga keldi va bu tadqiqotlar «*xarajat - chiqarish*» modeli nomi bilan ma'lum. 1973-yilda Nobel mukofoti laureati bo'lgan V.Leontev (1906-1999) metodi iqtisodiyotda bir mahsulotning boshqa turdag'i mahsulot bilan to'ldirilishi jarayonlarini tadqiq qilishga yo'naltirilgan.

V.Qobulov asos solgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni algoritmlash bo'yicha maxsus yo'nalish ham katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Qisqacha xulosalar

Eng so'nggi davrdagi iqtisodiy ta'limotlarda neoklassik sintez yetakchi bo'lib qoldi, bu yangi yo'nalish, odatda, amerikalik P.Samuelson va uning «Ekonomiks» kitobidagi g'oyalar bilavni bog'liq. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, bu kitobning boshqa mualliflar tomonidan chiqarilgan variantlari mavjud bo'lib, ularda ham aynan shu masalalar tahlil etiladi. Yangi qarashdagi o'ziga xos asosiy xususiyat shuki, unda avvalgi davrda paydo bo'lgan iqtisodiy g'oya, nazariya va ta'limotlar har tomonlama o'rGANilib, ularning barchasidagi ratsional fikrlar jamlanadi. Bunda asosiy maqsad «foyda maksimumga erishganda, optimal hajm qancha bo'lishi kerakligi» tahlil etiladi.

Buni boshqacha talqin etiladigan bo'linsa, «cheklangan resurslardan foydalanib, doimo o'sib boruvchi ehtiyojlarni to'laroq qondirish» masalasi ko'rib chiqiladi.

Neoklassik sintezda keynschilik, neoklassik, neoliberal g'oyalarning ijodiy qorishmasidan foydalaniлади. Ayniqsa, iqtisodiyotga ekonometrika

uslublari tobora chugur kirib bormoqda. Ekonometrika uslublari barcha iqtisodiy ta'limot yo'nalishlari tomonidan amaliyotda keng qo'llanilmoqda. Bu borada Respublikamizda ham yaxshi tajriba to'plangan.

Asosiy tushuncha va iboralar

Neoklassik sintez, Samuelson, inqirozsiz iqtisodiy sikl, Nobel mukofoti laureatlari, «Ekonomiks», cheklangan resurs, o'sib boruvchi iste'mol, Ekonometrika evolutsiyasi.

Nazorat va mulohaza uchun savollar

1. Neoklassik sintezning mohiyati.
2. P.Samuelsonning «Ekonomiks» asaridagi asosiy g'oyalar.
3. «Ekonomiks» asarida qaysi olimlarning fikrlari tanqid qilinadi?
4. Yangi yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlari.
5. Iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofotlari qachondan beri topshiriladi? Bir necha mashhur laureatlarni tavsiflang.
6. Ekonometrikaning hozirgi davrdagi asosiy yo'nalishlari qanday muammolarni hal etadi?
7. Respublikamiz olimlarining ekonometrika sohasidagi ishlarini izohlab bering.

XXI b o b. JAHON XO‘JALIGI TO‘G‘RISIDAGI IQTISODIY TA’LIMOTLAR

21.1. Xalqaro iqtisodiy integratsiya. Nisbiy afzallik konsepsiysi. Savdo-sotiqning marjinalistik nazariyalari

Xalqaro savdo rivojlanishi jarayonlari iqtisodiyoti allaqachon milliy davlatlar doirasidan chiqqan va bu borada bir qancha iqtisodiy ta’limotlar ham mavjud. Ular klassik, neoklassik va neokeynschilik nazariyalarida o‘z aksini topgan. Ayniqsa, XIX-XX asrlardagi iqtisodchilar A.Smit, D.Rikardo, R.Torrens, J.S.Mill, A.Marshall, J.Vayner, G.Xaberler, G.Jonson, P.Samuelson va boshqalar bu sohada barakali ijod qildilar.

A.Smit tomonidan mutlaq afzallik prinsipi ishlab chiqilgan, unga ko‘ra, eng kam xarajat talab etuvchi tovarlarni ishlab chiqarish va eksport qilish samarali va aksincha.

Klassik iqtisodiy maktab vakili D.Rikardo birinchilardan bo‘lib mehnat taqsimoti faqat ayrim ishlab chiqarish sohasidagina emas (A.Smit fikri), balki xalqaro ko‘lamda ham obyektiv zarurat ekanligini isbotlab berdi. Olimning fikri shundan iboratki, prinsipial jihatdan qaralsa, har bir davlat o‘ziga kerakli barcha narsani (tovarlarini) ishlab chiqarishi mumkin, ammo bu iqtisodiy jihatdan qanchalik to‘g‘ri, degan savol tug‘iladi. Unga javoban, Rikardo aytadiki: «Har bir davlat ma’lum bir mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashadi va nisbiy afzallikka, ustunlikka ega bo‘ladi». Masalan, Shotlandiyada suli, Portugaliyada faqat vino ishlab chiqarish samaraliroq, chunki sarf-xarajatlar miqdori eng kam bo‘lgan sohani rivojlantirish afzal. Bunda, albatta, tabiiy sharoit, an'analar, tarixiy tajriba, yer, suv, inson resurslari, xalqning mentaliteti va boshqalar hisobga olinishi kerak. Masalan, musulmon davlatlarida cho‘chqachilikni rivojlantirish haqida so‘z ham bo‘lishi mumkin emas va boshqalar.

Neoklassik, ya’ni «sof» iqtisodiyotni targ‘ib etuvchilar xalqaro mehnat taqsimotining rivoji va savdo sharoitlarining o‘zgarishi sabablarini aniqlashni bosh vazifa qilib qo‘yanlar, ammo ular savdo

almashuvida pul mexanizmi yo'lini inkor etadilar. R.Xarrot, F.Max-lup, K.Kurixara kabi neokeynschilik taraf'dorlari esa xalqaro savdoning pul mexanizmiga alohida e'tibor beradilar, shu bilan bir vaqtida xalqaro mehnat taqsimoti, baynalmilal qiymat, baholar nisbati deyarli e'tiborga olinmaydi.

«Sof» ta'limot taraf'dorlari fikricha, jahon bozorida «mukammal raqobat» mavjud; barcha kontragentlar xalqaro savdoda bir xil im-koniylatlarga ega; taklif doimo talabni vujudga keltiradi; savdo balansi o'zini-o'zi tartibga solish prinsipi bor. Eksport va import baholari nisbatini tushuntirishda ular uzoq muddatli rejalarida «savdo sharoitlari» industrial davlatlar ziyoniga va agrar mamlakatlar foydasiga o'zgar-moqda, deb o'ylamoqdalar va buni «yer unumdorligining pasayib bo-rishi» qonuni bilan bog'lamoqdalar. Ular tovar eksporti va importingin fizik hajmlari o'sishini hisobga olmagan holda, xalqaro savdo rivoji tendensiyalari agrar xomashyo yo'nalishidagi davlatlar iqtisodiyoti tashqi savdo pozitsiyalari yaxshilashuviga olib kelmoqda, demoqdalar. Xalqaro savdoning neokeynschilik ta'limoti vakillarining fikricha, har bir mamlakat ichki bozorda ko'proq tovar ishlab chiqarishga intilgani sababli mehnat va kapital bilan bandlikning to'la emasligi tufayli ko'proq eksport va kamroq import qiliшha intiladi. Shu sababli ham, xalqaro savdo o'zini-o'zi tartibga soluvchi jarayon bo'la olmaydi, aksincha, tovar eksporti kapital chiqarish bilan rag'batlantirilishi kerak, import esa proteksionistik choralar bilan cheklanishi zarur. Bu choralar umummilliy manfaatlarga mos kelar emish.

Keyingi davrda vujudga kelgan iqtisodiy ta'limotlarda E.Xeksher, B.Olin (Shvetsiya), P.Samuelson tomonidan yaratilgan «ishlab chiqarish omillarining xalqaro taqsimoti» nazariyasi (modeli) tipik hisoblanadi. Ularning fikricha, har bir mamlakat iqtisodiyoti ishlab chiqarish omillari bilan bir xil ta'minlanmaganligi bilan har bir omilning turlicha bahoga egaligi (ish haqi, foiz, renta) bilan xarakter-lanadi. Ayrim mamlakatlarda mehnat asosiy omil (boshqasidan son jihatdan ko'p) bo'lsa, uning narxi kapital va yerga nisbatan past bahola-nadi; kapital mo'l bo'lgan mamlakatda u boshqa ikki ishlab chiqarish omiliga nisbatan arzon bo'ladi. Har bir mamlakat o'zining ustunligini realizatsiya qilishga intiladi, jahon bozoriga ishlab chiqarish omili nisba-tan arzon bo'lgan yo'l bilan tayyorlangan tovarlar ko'proq chiqariladi.

21.2. Xalqaro mehnat taqsimotini tadqiq etishdagi tanqidiy yo‘nalish

Hozirgi davrda xalqaro mehnat taqsimoti butun jahon xo‘jaligining tashkil topishi va rivojlanishining hal qiluvchi omilidir. Bunda kapital chiqarish masalalari ham yetakchi o‘rin egallaydi. Shu sababli ularga bag‘ishlangan bir qancha nazariyalar mavjud.

Tarixan birinchi bo‘lib neoklassik ta’limotlar vujudga keldi. Ularning asosi B.Olin (Shvetsiya), K.Iverson (Daniya), R.Nurkse (Avstriya-AQSH) asarlarida o‘z aksini topgan. Ular o‘z ta’limotlarida marjinalizm konsepsiyasiga asoslangan holda, kapitalning harakatchanligi, «kapitalning eng yuqori unumi» (foiz stavkasi bilan ifoda qilinadi) u yoki bu mamlakat kapitalining mo‘l-ko‘lligining turlicha ekanligi bilan izohlaydilar. Kapitalning «mo‘l-ko‘lli» yoki «kamli» uning migratsiya sababi qilib ko‘rsatiladi. Bu jarayon to kapital unumi bir xil bo‘lguncha davom etadi. Bu esa ishlab chiqarish omillari samaradorligining o‘sishi, milliy daromadning ortishi, butun mamlakatlar iqtisodiy rivojlanish darajasining tekislanishiga olib keladi.

Kapital chiqarishning neokeynschilik ta’limoti 30-50-yillarda shaklandi, F.Maxlup, E.Domar va R.Xarrotning fikricha, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishda savdo, to‘lov balansining o‘zgarishi tufayli, ya’ni aktiv savdo balansi bo‘lgan mamlakatlarda kapital ortiqchaligi (jamg‘armalarning investitsiyalardan ko‘pligi), passiv balansli mamlakatlarda esa, aksinchaligi, kapital yetishmasligi sababli kapital harakati ro‘y beradi. «Jamg‘armalar»ning ortiqchaligi mamlakatni iqtisodiy depressiya va ishsizlikka olib boradigan eng muhim omil deb qaraladi. Unga qarshi kurash yoki uning oldini olish uchun «jamg‘armalar» hisobiga qo‘sishimcha tovar eksportini moliyalash zarur deb topiladi. Ammo bunda import oshmasligi, ya’ni kapital chiqarish yo‘li bilan hal etilishi kerak.

60-70-yillarda kapital chiqarishning «dinamik modeli» ommalashdi, unda R.Xarrotning iqtisodiy dinamika nazariyasi asosida mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro kapital eksporti sabablari va oqibatlarini aniqlashga urinish bor. U kapital eksporti va importini yalpi milliy mahsulot o‘sishi, investitsion daromad va to‘lovlar bilan bog‘lashga intiladi. Unda neokeynschilikning xalqaro kapital harakati konsepsiyasiga asoslanadilar. Shu vaqtning o‘zida iqtisodiy o‘sishning neoklassik nazariyasi ham

hisobga olinadi. Bularning hammasi o'nlab o'zgaruvchi parametrlarni o'z ichiga oluvchi iqtisodiy matematik modellar asosida hal qilinadi. Masalan, amerikalik iqtisodchilar J.Borts va K.Kopekilar tuzgan ana shunday modelda 20 dan ortiq o'zgaruvchi va shuncha tenglama mavjud; unda matematik apparat ustun bo'lib, u nazariy asosning bo'shligini kompensatsiyalaydi.

Ular kapital ortiqchaligi masalasini tushuntirishda neokeynschilarga asoslanadilar va uni jamg'armalar va investitsiyalar orasidagi farq sifatida e'lon qiladilar. Bu farq ishchi kuchi yetishmasligi va tez o'suvchi kapital miqdori o'rtaqidagi texnik-iqtisodiy disproporsiyadan kelib chiqadi deb tushuntiriladi.

Kapital o'sishi to'lov balansi saldosi musbat bo'lganda, investitsion daromadlar investitsion to'lovlardan ortiq hollarda ro'y beradi. Daromadi to'lovlardan yuqori bo'lgan mamlakatlar kapitalni sof eksport qiladigan, aksincha, to'lovları daromaddan ustun bo'lganlar esa kapitalni sof import qiladigan mamlakatlardir. Chunki ulardagi kapital miqdori mavjud mehnat resurslaridan ancha kam bo'ladi. Bunda chet el investitsiyalari bilan sof kreditor yoki debitor mamlakatlar ahvoli o'rtaqidagi o'zaro bog'lanish ta'kidlanadi.

Keyingi davrda xalqaro monopoliyalarning yangi tipi – transmilliy va transkorporativ konsernlar tashkil topmoqda. Bu monopoliyalar faoliyatini aks ettiruvchi bir qancha ta'limotlar mavjud. Ularda xalqaro monopoliyalar bir qancha millatlar nomidan chiqayotgan mustaqil korporatsiya sifatida izohlanadi va butun dunyoda ilmiy-texnika taraqqiyoti mevalarini targ'ib qiluvchi tashkilot deb qaraladi. Bu monopoliyalar misolida iqtisodiy aloqalar har qanday siyosat va mafkuradan holi degan fikr ilgari suriladi, ya'ni u yoki bu korporatsiya ko'p mamlakatlarda ishlab chiqarish va kommersiya operatsiyalarini olib borayotgan bo'lsa, «sof xalqaro» korxonaga aylanadi va hech bir mamlakat manfaatlarini himoya qilmaydi. G.Jonson, Ch.Kindleberger va boshqalar xalqaro monopoliyalarning ilmiy-texnika yangiliklarini targ'ib etish, tinchlikni saqlashga oid faoliyatlariga keng o'rinn berganlar. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda transmilliy korxonalarning mavqeyi yuqori baholanadi, ularning ilmiy-texnika sohasida, investitsiyalar qo'yish bo'yicha faoliyati ijobjiy deb qaraladi.

Odatda, iqtisodiy integratsiya to'g'risidagi nazariyalarda integratsiya ga a'zo mamlakatlar o'rtaqidagi barcha to'siqlar, ayniqsa savdo, boshqa

iqtisodiy munosabatlarda to'la erkinlik berilishi zarurligi qayd etiladi. Shu bilan birga, bozorning ko'lami va iqtisodiyotning o'sish sur'atlari o'rtasida funksional (ya'ni bevosita) bog'lanish bor degan g'oya ham ilgari suriladi. Shunday qilib, iqtisodiy integratsiya zarurati tashqi bozorning qayta ishlab chiqarishga hal qiluvchi ta'siri tufayli yuzaga keladi.

Iqtisodiy integratsiya bo'yicha ta'limotlarda asosiy e'tibor «bojxona ittifoqi»ga berilib, unda o'zaro savdo bo'yicha har qanday cheklovlari bekor qilinishi va «uchinchchi mamlakatlar» uchun yagona bojxona tarifi joriy qilinishi kerak bo'ladi.

Olimlarning fikricha, iqtisodiy integratsiyaning asosiy ijtimoiy-siyosiy oqibatlari quyidagilardan iborat bo'ladi: ishlab chiqarishning doimo o'sishi va iqtisodiy inqirozlarning bo'lmasligi ta'minlanadi; iqtisodiyotning doimo o'sishi tufayli aholining turmush darajasi ko'tariladi; ishchi va kapitalistlar o'rtasidagi sotsial sheriklikni rivojlantiradi; turli mamlakatlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar va siyosiy nifoqlar tugatiladi. Demak, iqtisodiy integratsiyaga kapitalistik jamiyatga xos bo'lgan illatlarni kamaytirish vositasi sifatida qaraladi.

21.3. Valuta munosabatlari tahlili

Iqtisodchi olimlar xalqaro valuta munosabatlari alohida e'tibor beradilar. Valuta bozorida milliy valuta chet el valutasiga (masalan, AQSH dollari, Meksika pesosi, nemis markasi, iyena yoki funt sterling) almashtiriladi. Almashuv (valuta) kursi bu – chet el valutasi birligining milliy puldag'i ifodasıdir. Bu munosabatlar har kuni, hatto har soatda o'zgarib turishi mumkin. Valuta kursini stabil (turg'un) qilish uchun to'lov balanslarining tengligiga erishish yo'li taklif etiladi.

30-yillargacha to'lov balanslarini tartibga solish mexanizmini tahlil etishda D.Yum, J.Mill tomonidan ishlab chiqilgan «klassik» nazariya ustun mavqega ega bo'lgan. Bu g'oyaga ko'ra, oltinning xalqaro harakati va har bir mamlakatdagи baholarning o'zgarishi avtomatik ravishda bir-biri bilan bog'liq, oqibatda barcha mamlakatlarning to'lov balansi barqarorlikka intilish tendensiyasiga ega. Oltin standartining tugatilishi bilan olimlarning ko'pchiligi neokeynschilik pozitsiyalariga o'tib oldilar («Oltin standarti» XIX asrda va XX asrning ma'lum davrida amalda bo'lgan, masalan, Buyuk Britaniyada 1821-31-yillar oltin standartidan foydalilanigan, AQSHda 1934-yil dollarni oltinga aylantirish tugatildi).

Yangi sharoitda to'lov balansini tartibga solishda asosiy e'tibor davlatning hisob stavkasiga ta'siri muhim deb hisoblanadi. Boshqa tartibga solish chorasi sifatida importni kamaytirish va eksportni rag'batlantirish, buning uchun esa mehnatkashlarning ichki to'lov imkoniyatlari talabini pasaytirish (deflatsiya yo'lli) yoki milliy valutani devalvatsiya qilish usuli taklif etiladi.

60-yillardagi iqtisodiy jarayonlar neokeynschilik metodlaridan voz kechishga sabab bo'ldi, yana neoklassik yo'nga qaytildi, ya'ni davlatning iqtisodiy, shu jumladan, valuta ishlariiga aralashuv cheklandi, valutalar kursining erkin tebranishiga imkon berildi. Bu esa, o'z navbatida, avtomatik barqarorlashuvga olib kelishi kerak edi. Ammo valuta kursi o'zgarib turishining to'lov balansiga ta'siri cheklangan xarakterga ega bo'ladi (masalan, valutaning «suzib yuruvchi kursi» paytida bu narsa aniq bo'lib qoldi), chunki to'lov balansining barqaror emasligi muomala sohasiga emas, balki ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq. To'lov balanslari passivi davlatning chet eldag'i xarajatlariga, ayniqsa, turli harbiy-siyosiy aksiyalarga bog'liq bo'ladi. Valuta kursining qalqib turishining o'zi ham xalqaro valuta tizimining beqarorligini kuchaytiradi. So'nggi yigirma yil ichida industrial rivojlangan mamlakatlar chegaralangan (fiksasiya qilingan), ammo har holda tartibga solinadigan kursdan elastik valuta kursiga o'tib oldilar. Absolut elastik valuta kursida almashuv kursi valuta bozoridagi teng kuchli valuta bahosida belgilanadi, cheklangan kurs chog'ida esa valuta kursi Markaziy bank tomonidan belgilanadi, bunda bank belgilangan kurs bo'yicha xorijiy valutani har qancha miqdorda olish va sotish majburiyatini o'ziga oladi.

21.4. Jahonshumul iqtisodiy muammolar.

Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti to'g'risidagi g'oyalar

Hozirgi davrda jahonda 200 dan ortiq davlat mavjud, ularning soni sobiq SSSRning parchalanishi, Yugoslaviyaning bo'linishi va boshqalar tufayli keskin oshdi. Shundan 188 davlat BMT a'zosidir. Bu tashkilot tuzilganidan buyon (1945-yil 24-oktabr) o'ziga xos yakun yasaldi va quyidagilar e'tirof etildi: BMT a'zolari soni 51 tadan 188 ga o'sdi, dunyo aholisi esa shu davr mobaynida 2.5 milliarddan 6,1 milliardga yetdi (o'sish 3,5 milliard), yalpi milliy mahsulot (yoki xalq boyligi) 7 trillion AQSH dollaridan deyarli 30 trillion dollarga yetdi, ya'ni 4

martadan ko'proq o'sdi. 1995-yilning martida Kopengagenda BMT tashabbusi bilan ijtimoiy rivojlanish masalalari bo'yicha xalqaro konferensiya bo'ldi, unda 150 dan ortiq davlat (oliy maqom) rahbarlari ishtirok edilar. BMT Bosh kotibi B. Butros G'oliv (*1997-yildan BMT Bosh kotibi tinchlik bo'yicha Nobel mukofoti laureati Kofi Annan*) o'z nutqida so'nggi yillarda kambag'allar va boylar o'rtasidagi tafovut kuchayib, 1960-yildagi nisbat 13:1 dan hozirgi o'n yillikda 60:1 ga yetganligini qayd etdi. Hozirgi davrda bu nisbiy 75:1. Sayyoramizning 1,5 milliard aholisi (27,3 foiz) og'ir iqtisodiy ahvolda kun kechirmoqda. Bunday differensiatsiya xavfli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, dunyoda ekologik muammo kuchayib bormoqda. Sog'liqni saqlash (SPID va boshqa yuqumli kasalliklar), narkobiznes masalalari tobora avj olmoqda.

O'zaro iqtisodiy, ayniqsa, savdo munosabatlarining nafi hammaga ayon bo'lishiga qaramay, davlatlar o'rtasidagi munosabatlar, odatda, garmoniya asosida emas, balki qarama-qarshiliklar asosida rivojlanmoqda. Boy va kambag'al mamlakatlar o'rtasida savdodan tushadigan daromadlarni taqsimlashda kelishmovchiliklar kuchayib bormoqda.

Lekin keyingi davrda olib borilgan to'g'ri iqtisodiy siyosat tufayli ilgari qoloq bo'lgan davlatlarning ayrimlari rivojlanish, taraqqiyot yo'liga kirib oldilar. Ularning soni tobora oshib bormoqda. Ularning ayrimlari Lotin Amerikasida (Braziliya, Argentina, Meksika), ko'pi janubisharqiyo Osiyodadir («to'rt ajdaho» - Koreya Respublikasi, Tayvan, Syangan va Singapur).

Malayziya, Tailand, Vyetnam, Indoneziya va boshqa mamlakatlar bular qatoriga kelib qo'shilmoqda. Bu davatlarga xos bo'lgan xususiyat shuki, bozor munosabatlari keng qo'llanilmoqda, sanoat (industriya)ning rivojiga alohida e'tibor berilmoxda, xorijiy investitsiyalar (qo'shma korxonalar juda ko'p) ko'p ishlatilmoxda va oqibatda iqtisodiyotning o'sish sur'atlari yuqori (5-10, hatto 14-15 foiz). Xitoy Xalq Respublikasi ham 1979-yildagi iqtisodiy islohotlar tufayli taraqqiyot yo'liga kirdi (ayniqsa, ochiq iqtisodiy hududlarda o'sish katta).

Shular tufayli bu sohada iqtisodiy ta'limotlarda ham o'ziga xos yo'nalishlar yuzaga keldi. Hozirgi davr iqtisodiyotchilari U.Rostou, R.Emerson, P.Samuelson va boshqalar kolonializmning ijobiliy tomonlarini, uning qoloq mamlakatlarga «taraqqiyot» olib borganligini

bo'rttirib ko'rsatishga intilmoqdalar. Go'yoki mustamlakalar ilg'or mamlakatlar yordamida o'z mustaqilligini ta'minlashga erishganlar. Bu tuzum ilg'or va qoloq mamlakatlarga birdek naf keltirgan deb hisoblaniladi. R.Emerson fikricha, kolonializm Sharq xalqlari uchun taraqqiyot yo'lidan borishga imkoniyat yaratdi.

Ayrim iqtisodchilar kolonializmning salbiy tomonlarini inkor etmagan holda, uni XIX asr oxiri va XX asrdagi kapitalistik mamlakatlar «deformatsiya»ga uchradi, mustamlaka davlatlarining do'stiga aylandi, demoqdalar. «Yaxshi kolonializm» iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantiradi, bu davlatlarning o'z-o'zini boshqarishini ta'minlaydi.

G'arbda «noiloj rivojlanish», «tashqi turtki» nazariyalari keng tarqalgan (R.Nurkse, E.Xagen), unda ozodlikka erishgan davlatlar dastlab musibatlarga uchrashi tabiiy, shu sababli ularning ahvoli og'ir bo'ladi. Ochlik-yalang'ochlikka mahkum etiladi. Daromadning kamliji jamg'armalar paydo bo'lishiga to'siqdir va kapital qo'yilmalar ham past darajada saqlanadi. Bu esa sanoat rivojiga va milliy daromad o'sishiga yo'l bermaydi va kambag'allik hamda nochorlikni keltirib chiqaradi (lojsizlik rivojlanishi). Bu og'ir ahvoldan chiqishning birdan-bir yo'li - tashqi «turtki yo'li» hisoblanadi. Minimum kapital qo'yilmalarning asosan tashqi investitsiyalar hisobiga asta-sekin o'sishiga, rivojiga erishiladi. Kapital qo'yilmalar miqdori ma'lum kritik darajadan yuqori bo'lishi kerak, shu bilan turg'unlik holatidan chiqib olinadi. Bu tadbirkorlik faoliyatini kuchaytiradi va xorijiy investorlar uchun qulay «iqlim»ni yuzaga keltiradi. G'arbdagi ko'p iqtisodchilar bu mamlakatlarda chuqur ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o'tkazishni ham taklif etmoqdalar. Mustamlaka mamlakatlari bilan metropoliya o'rtaqidagi munosabatlar hech vaqt tenglik asosida bo'limgan, noekvivalent almashev yo'li bilan qo'shimcha boylik orttirish imkonni bo'lgan. Ilgari mustamlaka bo'lgan qaram davlatlar mustaqillikka erishgandan keyin ham avvalgi metropoliyaga ko'p vaqt davomida ko'p jihatdan bog'liq bo'lib qolaverdi.

Yana bir eng dolzarb masala bu – demografiya muammosidir. BMT ma'lumotlariga ko'ra, 1945-2000-yillar davomida jahonda aholi soni 2,5 milliarddan 5,5 milliardga yetdi.

I.Fisher, R.Dornbush, R.Shmalenziarning ta'kidlashicha, kambag'al mamlakatlar masalasi kambag'al Janub bilan boy Shimol o'rtaqidagi muammolar sifatida tobora kuchayib bormoqda. Janub mamlakatlari o'z qiyinchiliklarini jahon iqtisodiyotidagi mavjud avvalgi

tartibdan deb bilmoqdalar. Bu tartib go'yoki ularga qarshi qaratilgandir. 1974-yilda BMT Bosh Assambleyasi yangi xalqaro iqtisodiy tartib joriy etishni qo'llab-quvvatlovchi rezolutsiyani qabul qildi (NIEO).

Qabul qilingan yangi tartib uch qoidaga asoslanadi:

1. Xalqaro aloqalar ma'lum tartibga solib turiladi va bu turli davlatlar tomonidan siyosiy yo'l bilan amalgalashiriladi.

2. Ishlab chiqarilgan tovarlarning davlatlararo taqsimotida rivojlanayotgan mamlakatlar manfaati ham hisobga olinishi shart va shuni ta'minlaydigan yo'llar yaratilishi kerak.

3. Barcha iqtisodiy munosabatlarni tizimi demokratiya asosida olib borilishi zarur, har bir davlat o'z ichki tuzumidan qat'i nazar, shu munosabatlarda qatnashishga haqlidir.

Keyingi davrda BMT tomonidan «Insoniy rivojlanish konsepsiysi» ilgari surildi. Iqtisodiy rivojlanish konsepsiysi daromadning ko'payishi va insoniy farovonlikning yaxshilanishi orasidagi aloqani aniqlashda muhim xizmatni ado etadi.

Mamlakatning insoniy rivojlanish darajasi qanday baholanadi? Bu muammoning zamonaviy yechimlariga bir oz to'xtalamiz. Mamlakatning rivojlanganlik darajasini baholashning yaqingacha yagona usuli jon boshiga YaMM bo'lganligi sababli, mukammalroq ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichni kashf qilish davr talabi edi. Izlanishlar natijasida insoniy rivojlanish indeks (IRI) ko'rsatkichi kashf etildi. IRI inson rivojlanish darajasini ko'rsatuvchi uch asos - umrboqiylik, ta'lim va yashash darajalaridan iborat integral ko'rsatkichdir. Uzoq umr ko'rish kutilayotgan hayot davomiyligi orqali o'lchanadi. Ta'lim darajasi ko'rsatkichning 2/3 qismini tashkil etuvchi katta yoshlilar savodxonligi va 1/3 qismini hosil qiluvchi ta'limning o'rtacha davomiyligi ko'rsatkichlari orqali ifodalanadi. Yashash hayotning mahalliy qiymati (sotib olish pariteti yoki PPP - «purchasing power parity») ga nisbatan to'g'rilangan jonboshiga real yalpi ichki mahsulot (YAIM) orqali baholanadi. Nimaga faqat uch ko'rsatkich? - degan savol tug'ilishi tabiiy. Inson hayotining hamma jabhalarini aks ettirish a'lo bo'lar edi. Ammo ma'lumotlarning to'liq emasligi bir oz cheklanishlar tug'diradi va bu ma'lumotlarga ega bo'linganda, balki ularni ham hisobga olish ayni muddao bo'lar edi. Ammo ko'proq ko'rsatkichlarni qo'shish har doim ham yaxshiroq natijalarga olib kelavermaydi. Ularning ba'zi birlari ishlatilayotgan ko'rsatkichlar bilan korrelatsiya qilingan bo'lishi

mumkin. Bolalar o'limi darajasi, masalan, kutilayotgan hayot davomiyligida o'z aksini topgan. O'zgaruvchilarning ko'proq sonini qo'shish umumiyl manzarani xiralashtiradi va asosiy yo'nalishlardan chalg'itadi.

Insoniy rivojlanish tushunchasi so'nggi yillarda barqaror rivojlanish g'oyasi bilan to'ldirildi. Buning ma'nosiy shuki, hozirgi avlodning insoniy rivojlanish jarayoni kelajak avlod insoniy rivojlanishi hisobiga ro'y bermasligi darkor. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi dastlab atrof-muhitni muhofaza qilish harakati tomonidan kiritildi, bu harakat namoyandalari rivojlanish tushunchasi «avlodlar o'rtasidagi munosabatlar» kabi g'oyani ham o'z ichiga olishini himoya qilmoqdalar. Tabiiy resurslarning kamayib borishi kelajak avlodlar rivojlanishi muammolarini keltirib chiqarishi mumkin. «Barqaror rivojlanish» konsepsiyalari atrof-muhit va tabiiy resurslar doirasidagina qo'llanilishi mumkin bo'lmay, balki insoniy imkoniyatlar, «insoniy kapital»ga qo'-yiladigan investitsiyalarga ham tegishlidir.

Insoniy rivojlanish konsepsiyasi BMT Taraqqiyot Dasturi (FNDP) tomonidan izchil targ'ib qilinib kelmoqda. Bu sohadagi izlanishlar yillik *«Insoniy rivojlanish bo'yicha hisobotlar»* (Human Development Report) ko'rinishida chop etilmoqda.

Qisqacha xulosalar

Jahon xo'jaligi, jahon bozori va integratsion jarayonlarning uzoq tarixi bor. Ayniqsa, Buyuk ipak yo'li (m.av. II asrda) davrida aniq namoyon bo'lgan bu jarayon XVI asrda buyuk geografik kashfiyotlar tufayli kuchaydi. II Jahon urushidan keyingi davrda esa bu xalqaro iqtisodiy munosabatlar maxsus tashkilotlar orqali amalga oshirilib, hozirgi davrni ularsiz tasavvur etish mumkin emas. «Benilyuks» (1944), Umumiy bozor (1957), Yevropa ittifoqi, OPEK (1960), NAFTA, EKO, Xalqaro valuta fondi, Jahon banki va boshqa xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bu aloqalarni ma'lum tartibga solib kelmoqdalar.

A.Smit mehnat taqsimoti ishlab chiqarishda taraqqiyot asosi ekanligini isbotlab bergen bo'lsa, D.Rikardo «bu mehnat taqsimoti faqat ma'lum mamlakat doirasidagina emas, balki dunyo miqyosida bo'lishi kerak» degan g'oyani ilgari surdi. Chunki har bir davlat ma'lum sohada nisbiy ustunlikka ega bo'ladi. «Nisbiy ustunlik», «solishtirma chiqimlar» nazariyasi xalqaro mehnat taqsimotining obyektiv zarurligini isbotlab berdi.

Bu borada bir qancha iqtisodiy ta'limot, nazariya va konsepsiylar ilgari surildi.

Xalqaro iqtisodiy aloqalar bo'yicha neoklassik (sof ta'limot) va neokeynschilik nazariyalari keng tarqalgan. «Sof» ta'limot tarafdoirlari fikricha, iqtisodiy aloqalar xalqaro maydonda ham erkin bozor tamoyillari asosida rivojlanishini qo'llaydilar (erkin raqobat, hamma uchun bir xil imkoniyat, taklif doimo talabni vujudga keltiradi, savdo balansi o'z-o'zini tartibga soladi va boshqalar).

Neokeynschilik ta'limoti vakillari bu jarayondagi bozor munosabatlariiga davlatning faol ishtirokini ma'qul ko'radir.

Mustamlaka mamlakatlar bilan xalqaro munosabatlar bo'yicha turli nazariyalar mavjud. Ularning ko'pchiligi metropoliya koloniylari uchun ijobjiy rol o'ynaganligini himoya qiladi. Bevosita investisiyalar nazariyasi mustamlakachilikda ham bo'lib, mustaqil rivojlanish yo'liga o'tgan mamlakatlarda iqtisodiyotni qutqarishdagi asosiy yo'l deb hisoblanadi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar rivoji bilan birga bir qancha muammolar mavjud. Bu, odatda, boy va nisbatan qoloq mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlardir. 70-yillarda yangi xalqaro iqtisodiy tartib qabul qilindi. Mavjud muammolarni hal etish uchun BMT tomonidan «insoniy rivojlanish» konsepsiysi taklif etilgan.

Asosiy tushuncha va iboralar

Jahon xo'jaligi, mehnat taqsimoti, ixtisoslashuv; integratsiya, mutlaq afzallik, nisbiy, solishtirma afzallik, Xeksher-Olin-Samuelson modeli, investitsiya, kapital harakati, rivojlanayotgan mamlakatlar, insoniy rivojlanish konsepsiyalash quvvati, xalqaro iqtisodiy ittifoqlar.

Nazorat va mulohaza uchun savollar

1. Jahon xo'jaligi deganda nimani tushunamiz va u qachon vujudga kela boshlagan?
2. Xalqaro iqtisodiy integratsiya nima, uning obyektiv zarurati ni-maga asoslanadi?
3. Solishtirma afzallik konsepsiysi, solishtirma xarajatlar princi pi nimani anglatadi?

4. «Ishlab chiqarish omillarining xalqaro taqsimoti» nazariyasining asoslari nima?
5. Kapital chiqarishning neokeynschilik ta'limoti qachon shakllandi va uning mohiyati nima?
6. Xalqaro monopoliyalar (transmilliy korporatsiyalar) nima? Ular to'g'risida qanday ta'limotlar mavjud?
7. Iqtisodiy integratsiya to'g'risidagi nazariyalarga ta'rif bering.
8. Valuta munosabatlarining mohiyati nima?
9. Jahondagi asosiy iqtisodiy va ijtimoiy muammolar nimalardan iborat? Mamlakatlar rivojlanishidagi notejislik sabablari nima?
10. Rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy ahvoli va uni yaxshilashga oid nazariyalarni ta'riflab bering.
11. Yangi xalqaro iqtisodiy tartibning mohiyati nima, unga qachondan o'tila boshlandi? Bu tartib qanday qoidalarga asoslanadi?
12. «Insoniy rivojlanish konsepsiysi»ning mohiyati nimalardan iborat?

BESHINCHI QISM

O'TISH DAVRI IQTISODIY NAZARIYALARI

XXII b o b. O'ZBEKISTONDA MILLIY BOZOR IQTISODIYOTI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING TAVSIFI

22.1. Ma'muriy - buyruqbozlik iqtisodiyoti oqibatlari va tub islohotlar zaruriyatি

Insoniyat XXI asrga kelib, ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotining mohiyatini chuqurroq anglash bilan bir qatorda, uning asoratlariga barham berishga astoydil kirishganini namoyon etmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi uchun sobiq mustabid tuzum merosi va soxta maskuraning oqibatlari quyidagilarda o'z aksini topishi Respublika Prezidenti, akademik I.Karimov asarlarida umumlashtirilgan:

1. Bir yoqlama rivojlangan, mo'rt, zaif iqtisodiyotga asoslangan markazga qaram yarim mustamlaka mamlakat.
2. Boy mineral xomashyo resurslaridan nazoratsiz va ayovsiz foydalanishga hamda puxta yakkahokimligiga asoslangan iqtisodiy tizim.
3. Mahalliy xomashyolarni qayta ishlash quvvatlarini ibtidoiy darajadaligi, ishlab chiqarishning texnologik asbob-uskuna va butlovchi qismlar, shuningdek, yoqilg'i ta'minotida markazga qaramlik.
4. Eng muhim oziq-ovqat mollari (un, shakar, go'sht-sut mahsulotlari) va boshqa xalq iste'moli mahsulotlarining chetdan keltirilishi.
5. Paxta xomashyosi mahsulotlarining tashib ketilishi, oltin, qimmatbaho va rangli metallar, strategik ahamiyatga ega materiallar, jahon bozorida o'ta xaridorgir bo'lgan boshqa qimmatbaho mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotishdan keladigan foydadan O'zbekiston xazinasiga tushmaslik.
6. Iqtisodiy o'sish sur'atlari samaradorligi ko'rsatkichlarining salbiy darajadaligi ortib borishi, moliya-pul tizimining butkul ishdan chiqishi.
7. Xorijiy mamlakatlar bilan bevosita tashqi iqtisodiy aloqalarining cheklanganligi.

8. Qishloq joylarda yashirin ishsizlik, shahar va qishloqdagi turmush darajalaridagi farqning ortib borishi.

9. O'zbekiston aholisi turmush darajasi ko'rsatkichlarining sobiq SSSRdag'i eng oxirgi o'rnlardan biriga tushib qolganligi.

10. Ekologik muammolarning keskinlashuvi, yer-suv resurslaridan ayovsiz foydalanish, yerlar sho'rланishining ortishi, cho'l zonalarining kengayishi.

Keltrilgan ma'lumotlar va dalillar asosida bozor munosabatlariiga o'tish zaruriyati to'g'risida I.Karimov shunday degan:

«...Bozorga o'tish muqarrar. Bu - davr amri, obyektiv reallikdir. Ayni vaqtida bozor faqat maqsad emas, balki yangi qadriyatlarni shakllantirish, odamlar faoliyatining sifat jihatdan tubdan yuqori darajasiga erishish uslubi va vositasidir» (Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. — T., «O'zbekiston», 1992, 44-bet).

Bozor iqtisodiyotiga o'tish zaruriyati tashqi va ichki omillardan ham kelib chiqadi. Tashqi omillar:

1. Jahon hamjamiyatining geopolitik tarkibida ijtimoiy dunyoqarashda chuqur sifat o'zgarishlarni amalga oshirish.

2. Davlatlararo hamkorlikda integratsion jarayonlarning kuchayishi.

3. Yagona xalqaro me'yorlar, qoidalar va andozalarga o'tilishi bilan yagona siyosiy-iqtisodiy jarayonlarning shakllanishi.

4. Sotsialistik deb atalgan lagerning parchalanishi va ma'muriy-buyruqbozlik tizimining barham topishi.

5. Moddiy turmush farovonligi va iqtisodiy o'sish sur'atlari bo'yicha G'arbdan ortda qolishning kuchayishi va iqtisodiy tizim tanazzuli.

Ichki omillar:

1. Mustabid tizim qusurlari va direktiv rejalshtirishning salbiy oqibatlari.

2. Davlat mulkchiligining yakkahokimligi tufayli mulk va shaxsning ajratilishi va ijtimoiy serxarajatlilikning ortib borishi.

3. Xarajatlarni tejashdan manfaat yo'qligi, pirovardida esa, resurslarni samarasiz taqsimlanishining kuchayishi.

4. Mehnat unumdarligini oshirishni rag'batlantirishning pasayishi va mehnatga ishtiyoqsizlik va loqaydlikning ortishi.

5. Texnika va texnologiya rivojlanishidagi turg'unlik.

6. Iqtisodiy hayotda mulkning mutlaq davlatlashtirilishiga qarshilik munosabati sifatida pinxoniy iqtisodiyotning kuchayishi.

7. Ijtimoiy hayotda talab va taklif muvozanatini ta'minlash samaradorligining pastligi.

8. Direktiv markazlashgan rejalashtirish tizimining hududlar va xo'jaliklar talablarini qondirishda muvofiqlashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi. Natijada, quyi bo'g'lnarda - xaridor va sotuvchi, iste'molchi va ishlab chiqaruvchilar orasidagi bevosita bog'liqlikniga ta'minlashga ma'muriy rejalashtirishning salbiy ta'siri.

9. Korxonalararo raqobatning yo'qligi tufayli samaradorlikka moyillikning pastligi.

10. Xomashyo serxarajatligha asoslangan investitsion talabning kuchayishi.

11. Sotsialistik xo'jalik yuritishda fondlarning markazlashgan taqsimotiga asoslanganligi tufayli ko'proq resurslar taqchilligi namoyon bo'ladi. Bozor iqtisodiyotida esa sotish qiyinchiligi ishlab chiqarish qiyinchiligidan muhimroq hisoblanadi.

12. Korxonalarining pul mablag'lari bilan ta'minlashda yagona davlat bank tizimining faol ishtirok eta olmasligi. Bank tizimining pul mablag'lari aylanmasidan manfaatdorlikning pastligi. Ayniqsa, kredit siyosating mijozlar moliyaviy imkoniyati bilan bevosita bog'lanmaganligi.

13. Davlat budgeti vakolatining keng qamroviligi turli bo'g'indagi xo'jaliklar daromadiga bog'liq bo'lib, uning to'planishi va taqsimlanishi to'liq markazlashtirilgan. Korxonalarining budgetdan moliyalashtirilishi zaxiralardan samarali foydalanishni rag'batlantirmagan.

Sobiq tizim o'z iqtisodiy g'oyalarda ish kuchining qayerlardadir tovar sifatida sotilayotganligini tanqid qiladi-yu, o'zidagi inson resurslariga e'tibor faqat kundalik moddiy ehtiyojlarni arang qondirish darajasida qolib ketganligini inkor etadi. Keyinroq, 1999-yilga kelib, Prezidentimiz I.Karimov bu haqda ta'kidlaganidek: «Shunday ulkan salohiyatga ega bo'lgan mamlakatni kansitadigan og'ir ahvolga solib qo'yib, u qonuniy, haqli ravishda o'ziga qarashli bo'lgan mablag'ni markazdan dotatsiya sifatida so'rab, aytish mumkinki, yolvorib olishga majbur edi. Boz ustiga, noinsoniy g'oya hukmron bo'lgan mustabid tizim o'zining bor maskuraviy kuchini, ommaviy axborot vositalarini, butun maorif tizimini ishga solib, odamlar ongini keng miqyosda zaharlar edi. Ularning milliy va diniy tuyg'ularini qo'pol ravishda kansitar edi. O'z ona tilini, milliy an'ana va madaniyatini, o'z tarixini bilmaslik, ko'plab odamlarning shaxsiy fojasiga aylanib qolgan edi. Milliy o'zlikni anglashga bo'lgan tabiiy intilish johilona inkor etilardi....

...Biz eski tizim o‘z o‘rnini osonlikcha bo‘shatib bermasligini, uning zaharli masjurasi odamlar ongini tez va yengil o‘z ta’siri iskanjasidan chiqarmasligini yetarli darajada tasavvur qilishimiz va hisobga olishimiz zarur edi».

Yuqoridagilarni va boshqalarni hisobga olgan holda, O‘zbekiston ma’muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotidan bozor munosabatlariga o‘tishni zarur deb topdi.

22.2. O‘tish davri tavsifi va uning milliy xususiyatlari

Ma’muriy markazlashgan iqtisodiyotning tarixiy oqibatlari, bozor munosabatlariga o‘tish zaruriyatini anglashni va tub islohotlarni boshlashni talab etdi. Natijada iqtisodiy munosabatlar tizimining bir shaklidan voz kechildi va ikkinchi shakliga yuz tutildi. Respublikadagi mavjud vaziyat iqtisodiy islohotlarni o‘tkazishga tubdan yangicha yondashuvni sifat jihatidan yangi vazifalar va sharoitlarni hamda tajribalarni hisobga olishni, eng muhim, mamlakatimiz salohiyatiga ko‘proq tayanishni taqozo etdi. Bunday mas’uliyatlari vazifani hal etish akademik Islom Karimov tadqiqotlarida nazariy-ilmiy yechimini topdi. Chunonchi, aslini olganda, gap bozor munosabatlariga o‘tishda o‘xshashi bo‘lmagan andozamizni ishlab chiqish, o‘z yo‘limizni tanlab olish haqida bormoqda. Bu yo‘l uch tarkibiy qismdan iborat:

- ijtimoiy jihatdan yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti milliy andozasi mohiyatining tavsifi;

- qat’iy markazlashtirilgan ma’muriy-buyruqbozlik tizimidan xo‘jalik yuritishning bozor munosabatlariga o‘tishning eng muhim prinsiplari;

- iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning, tanglikdan chiqib olishni barqarorlikni va muhim ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashning aniq yo‘nalishlari.

Keltirilgan tarkibiy qismlar to‘g‘risida respublikamiz ziyorilari, xususan, iqtisodchi-olimlar chuqur tadqiqotlarni davom ettirib, bir qator asarlarini chop etishdi. O‘tish davri iqtisodiyotining ko‘pchilik mamlakatlarga xos bo‘lgan umumiy qoidalari va holatlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- mavjud iqtisodiy tizimda yangi tizimga o‘tishdagi beqarorlik, nomutonosiblik va muvozanatsizliklar;

- jamiyat iqtisodiy rivojlanish yo'llarining turli-tuman xarakterdaligi;
- mulkchilik, boshqaruv, tovar-pul munosabatlari kabi sohalarda tub islohotlarning zarurligi;
- umumiy o'tish qonuniyatlari mavjudligidan qat'i nazar, har bir mamlakat shart-sharoitlarini hisobga olish zarurligi;
- eski turmush tarzi mezonlari va yangi iqtisodiy qadriyatlarning nomuvosiqligi, ba'zi hollarda esa, qarama-qarshi ziddiyatli tusga ega bo'lishi;
- jamiyat a'zolari bir qismining eski masfkura iskanjasidan qutilishining qiyinchilik bilan kechishi, yangi iqtisodiy munosabatlarga ehtiyyotkorlik bilan yondashishiga qaramay, tashabbuskor, izlanuvchan, tadbirkor va taraqqiyparvar kishilarning tobora ortib borishi kabilar.

Tarix tajribasiga ko'ra, madaniylashgan bozor munosabatlariiga o'tish davrining dovomiyligi bozor iqtisodiga o'tishning qanday yo'li, andozasi tanlanishi kabi boshqa shart-sharoitlarga bog'liq bo'ladi. XX asr nihoyasiga kelib, shakllangan iqtisodiy tafakkur va iqtisodiy taraqqiyot istiqbollari to'g'risidagi qarashlarda erkin iqtisodiy tartibga solish. g'oyasi ham, markazlashtirilgan tarzda rejalshtirish g'oyasi ham inqirozga uchraganligii bayon etilmoqda. Chunki I.Karimov ta'kidlaganidek: «Jahon sivilizatsiyasi ijtimoiy taraqqiyotning sifat jihatdan yangi yo'llarini ishlab chiqdi, tartibga solinadigan bozor iqtisodiyoti mana shu yo'lga asos qilib olingan».

O'tish davri ko'hna Yevropa mamlakatlarida bir necha yuz yilni tashkil etgan bo'lsa, mustamlakachilikdan ozod bo'lgan Osiyo va boshqa qit'a mamlakatlarida bir necha o'n yildan iborat bo'ldi. Masalan, Buyuk Britaniya – 200 yil, Fransiya – 150 yil, Germaniya va AQSH – 50 – 100 yil.

Boshlang'ich shart-sharoitlarga ko'ra, yondash guruhash mezoniga asosan tartibga solinadigan bozor iqtisodiyoti mamlakatlari uchun 3 ta yondashuv va yana bir turdag'i urinish mavjudligi I.Karimov tomonidan tahlil etilgan. Bular:

1. Uzoq davom etgan evolutsion taraqqiyotni bosgan rivojlangan mamlakatlardagi aralash iqtisodiyot;
2. An'anaviy (oddiy va bozor, patriarxal feudal munosabatlariiga ega) iqtisodiyot asosida shakllanayotgan madaniylashgan bozor munosabatlari;

3. Rejalashtirilgan buyruqbozlik iqtisodiyoti negizida shakllanayotgan bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat;

4. Sotsializm g'oyalarini samarali bozor iqtisodi vujudga keltirish bilan qo'shib olib borishga urinayotgan sotsialistik iqtisodiyotning xitoycha yo'li.

Yuqoridagi yondashuvlar asosidagi tahlillar ko'rsatishicha, bozor munosabatlarining rivojlanishi birorta ham mamlakatda benuqson va tekis kechmagan.

Bozor mexanizmlarini ideallashtirish ham katta xato bo'ladi.

Shuning uchun ham, «O'zbekiston tanlab olgan yo'l respublika va uning xalqining manfaatiga nihoyatda mos keladigan ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan iqtisoddir», - deb ta'kidlaydi I. Karimov.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti iqtisodiy rivojlanish samaradorligini ijtimoiy kafolatlar va ijtimoiy adolat bilan bog'lash maqsadini ko'zlaydi.

Mamlakatimizda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini batamom shakllanishi uchun zarur bo'lgan vazifalar nechog'lik tez hal etilishi o'tish davri davomiyligini belgilaydi:

Birinchi galdeg'i asosiy vazifa – mulkdor sinflar masalasining tubdan hal etilishi, boshqacha aytganda, xususiy mulkchilik yetakchilidagi ko'p ukladli iqtisodiyotning barpo etilishi.

2. Haqiqiy raqobat muhitini shakllantirish.

3. Keng tarmoqli bozor infratuzilmasini (fond va moliya muassasalari, tadbirkorlarga xizmat qiluvchi boshqa muassasalarni) rivojlantirish.

4. Tashqi iqtisodiy faoliyatda ma'muriy cheklovlar orqali boshqarishdan iqtisodiy tariflar yo'li bilan boshqarishga, ya'ni jahonda qabul qilingan ma'rifiy shakllarga o'tish.

5. Milliy valutani erkin muomaladagi valutaga almashtirish masalasini hal etish orqali valuta tizimi va bozorini erkinlashtirish.

6. Xorijiy sarmoyadorlarning O'zbekiston bozorida faoliyat ko'rsatishi uchun kafolat, imtiyozlar va rag'batlantirishni kuchaytirish.

7. Korxonalarining xo'jalik favoliyatiga noo'rin aralashuvning cheklab qo'yilishi.

8. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'z faoliyati uchun iqtisodiy va moliyaviy mas'uliyatning oshirilishi. Bankrotlik instituti ahamiyatini oshirish.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning milliy xususiyatlari akademiklar S.S. G'ulomov, M.Sharifxo'jayev, professorlar A.O'lmasov, N.To'xliyev, Sh.Shodmonov, A.Razzoqov kabilarning tadqiqotlarda batafsil bayon etilgan.

Biroq bozor iqtisodiyotiga oid tushunchalarni bayon etishdagi yondashuvlarda ayrim farqlar ham mavjud. Masalan, prof. Razzoqov A.A. bozor munosabatlarining 3 ta shakli mavjudligini qayd etadi. Bular:

1. Yovvoyi bozor (dastlabki paytlarda);
2. Ma'muriy-buyruqbozlik bozori (sobiq SSSR va sotsialistik deb atalgan mamlakatlarda);
3. Boshqariladigan bozor (hozirgi deyarli barcha rivojlangan yetakchi mamlakatlarda).

Ayni paytda prof. A.O'lmasov ta'kidlashicha, «Tarixan bozor iqtisodiyotining 2 turi bo'lgan: yovvoyi va madaniylashgan bozor iqtisodiyoti».

Umuman olganda, barcha tadqiqotlar I. Karimov asarlaridagi ilmiy-nazariy qoidalarni chuqurroq va kengroq sharxlash vazifasini hal etganligini ta'kidlash lozim.

22.3. Iqtisodiy islohotlarning milliy modeli va yangi asr strategiyasi

Xalqaro mezonlar va demokratik talablarga to'liq javob beradigan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining III bo'limi (Jamiyat va shaxs), XII bobida (Jamiyatning iqtisodiy negizlari)gi 53- moddada: «Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarining huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqligini va huqiqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi. Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin», - deb belgilangan. Ushbu modda iqtisodiy munosabatlarning huquqiy kafolatlarini bayon etadi va barcha iqtisodiy islohotlar tizimiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Konstitutsiyamizning hamda xalqimizning o'ziga xos xususiyatlari va ilg'or jahon tajribalarini uyg'unlikda mujassamlashtirilgan – dunyoda

«o'zbek modeli» deb e'tirof etilgan iqtisodiy islohotlar modelining asosiy muallifi I.Karimov «inson islohot uchun emas, islohot inson uchun xizmat qilishi kerak» deb ta'kidlagan mezon muhim hisoblanadi.

Islohotlarning «o'zbek modeli» nimalarga asoslanadi degan savolga quyidagicha javob berish mumkin:

- bozor iqtisodiyoti va demokratiya tamoyillariga asoslanadigan jamiyatni barpo etish;
- SSSR parchalangandan keyingi O'zbekistonning haqiqiy holati;
- xalqning mentaliteti va tarixiy an'analarga, islohotlarni amalga oshirishning u yoki bu sur'atlariga aholining tayyorlik darajasi;
- «Shok terapiyası» dan voz kechish.

Demak, islohotlardan asosiy maqsad – yurtimizning yanada rivojlanishi, xalqimizning farovonligi, jahon hamjamiatidan o'zimizga munosib o'rinn egallashdan iborat.

XXI asr boshida O'zbekiston taraqqiyotining I.Karimov tomonida ishlab chiqilgan strategiyasida quyidagi muhim ustuvor yo'naliishlar mayjud. Bular:

1. Iqtisodiyotning izchil o'sishi va samaradorligini oshirish, demokratik bozor islohotlarini chuqurlashtirish asosida xalq turmush darajasining barqaror va uzlusiz yaxshilanib borishini ta'minlash hamda aholini kuchli ijtimoiy himoyalashga alohida e'tibor qaratish ko'zda tutilgan.

2. Siyosiy va iqtisodiy hayotni, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish, aholining siyosiy faolligini kuchaytirish, jamiyatda manfaatdor va qarama-qarshi kuchlar o'rtasida muvozanatni ta'minlaydigan kuchli mexanizmni shakllantirish zarur. Xususan, iqtisodiy sohani yanada erkinlashtirish maqsadida davlat boshqaruv rolini chegaralash, xususiy mulk miqyoslarini kengaytirish, mulkdorlarning mavqeyi va huquqlarini mustahkamlash, kichik biznes rivojlanishiga har tomonlama ko'mak berish hamda bozor infratuzilmasini keng rivojlantirish lozim.

3. Shaxsiy manfaatlarni mamlakat, xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalash asosida jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish lozim.

4. Har qanday muammolarni amaliy yechishga qodir bo'lган kadrlar salohiyatini tayyorlashga erishish kerak. Chunki mamlakatning buyuk kelajagi bugungi kadrlar o'rniga zamонавиғ fikr yuritadigan, o'z xalqi va Vatani manfaatiga g'oyat adolatli avlod kelishiga bog'liq.

5. Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish maqsadlari quyidagilarda ifodalananadi:

- iqtisodiyotning xomashyoviy bir tomonlama rivojlanishiga chek qo'yish;
- iste'molga tayyor tugallangan ishlab chiqarishga o'tish;
- importga qaramlikni cheklash;
- eksport salohiyatini oshirish;
- istiqbolli sohalarga ustuvorlik berish, barqaror o'sish;
- mehnat resurslarining oqilona foydalanilishini ta'minlash;
- milliy bozorni ichki ishlab chiqarish hisobiga to'ldirish va aholi talablarini to'laroq qondirish.

6. Jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikni, sarhadlarimizning daxlsizligini, mamlakatimiz hududiy yahlitligini ta'minlashdan iborat.

Ushbu yo'naliislarda belgilangan vazifalar mamlakatimiz salohiyatining qisqa muddatlarda yuqori darajada rivojlanishini ta'minlashga imkon berdi. Shuning uchun ham, 2005-2010-yillarda iqtisodiy salohiyatda erishilishi ko'zda tutilgan tarkibiy o'zgarishlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- qishloq xo'jaligini yangi texnika bilan ta'minlash, qishloq xo'jaligi va unga bog'liq bo'lgan sohalarning iqtisodiy munosabatlarini takomillashtirish;
 - iqtisodiyotning yuqori samarali, eksportga yo'naltirilgan tuzilmasini shakllantirish;
 - iqtisodiyotning tayanch tarmoqlarini texnika bilan qayta jihozlash va yanada rivojlanirish;
 - yengil va qayta ishslash sanoati korxonalarini texnika bilan qayta jihozlash va zamonaviylashtirish;
 - yuqori texnologiya va ilm talab ishlab chiqarishni jadal rivojlanirish;
- Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi islohotlarning yaqin muddatdagi yo'naliislari quyidagilarga qaratilishni ko'zda tutadi:
- budgetli tartibga solish darajasini bosqichma-bosqich kamaytirish hamda budget mablag'lari ishlatilishi samaradorligini oshirish.
 - iste'molga ketadigan daromad emas, ko'chmas mu^{mat} va qimmatbaho tovar va xizmatlar soliqqa tortilishi lanadigan resurslar (yer, suv, ko'chmas mulk) ga s^{iz} holda, birlamchi tarmoqlar, boshlang'ich texnologik si^z kamaytirish;
 - iqtisodiyotning real sektoridagi moliyaviy va lashtirish uchun davlatning antimonopol va na^{dariq}

faoliyatini oshirish, to'lovlar bo'yicha inqirozlarni yumshatish, baho disparitetiga barham berish;

- raqobatda afzallikka ega bo'lgan qayta ishlash sanoati korxonalarining iqtisodiy o'sish ustuvorliklarini aniqlash orqali mamlakat eksport samaradorligini oshirish;
- milliy valuta almashuv kursi barqarorligiga erishish.

22.4. Bozor munosabatlariga o'tish bosqichlariga oid qarashlar tahlili

Darhaqiqat, mamlakat taqdirida keskin va muhim o'zgarishlar ro'y berdi. O'zlikni anglash boshlandi. Milliy istiqlol g'oyasi fuqarolar hayotiy mezonini tashkil eta boshladi.

Iqtisodiy taraqqiyotda jiddiy o'zgarishlarga erishildi. 1997 yildan boshlab, YaIM o'sish sur'atlarining aholi o'sish sur'atlaridan ustun kelishi ta'minlandi va mamlakatda aholi turmush darajasining yaxshilanishi uchun zamin yaratildi. Xalqaro ekspertlar ma'lumotiga ko'ra, yangi asr boshiga kelib O'zbekiston ishlab chiqarish hajmiga ko'ra, inqirozga qadar bo'lgan darajasini, shuningdek, BMT inson taraqqiyoti indeksi (uning tarkibiy qismlari: aholining savodxonlik darjasasi; umr uzunligi; aholi jon boshiga YaIM) bo'yicha reytingidagi o'z maqomini deyarli tiklab oldi. Inson potensial taraqqiyoti indeksi ko'rsatkichlari 1995-yildagi 0,679 dan 1999-yilga kelib 0,706 ga ko'tarildi.

Jahon banki yillik hisobotidagi 1999-yil ma'lumotlariga ko'ra esa, O'zbekiston Respublikasidagi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot qiymati 870 \$ ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich Qozog'istonda 1310, Xitoya 750 \$, Qиргизистонда 350 \$ni, Rossiya da 2300 \$ni tashkil etgan.

Xalqaro ekspertlar fikriga ko'ra, inson taraqqiyoti zamirida O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishidagi asosiy tamoyillar jumlasiga quyidagilar kiritilgan:

-YaIM o'sish sur'atlarining aholi o'sish sur'atlaridan ustun kelishi, pirovardida esa, turmush darjasasi yaxshilanishi uchun zamin yaratildi.

-Uzoq muddatli istiqbolda o'sish omili bo'lgan asosiy kapitalga sarmoya kiritishning yuqori sur'atlarining ta'minlandi.

-Iqtisodiy o'sishning ijobiylari sur'atlari sharoitida inflatsiya sur'atlaridan rqrarorlashishi natijasida, aholining real daromadlari va turmush si yaxshilandi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishdagi zaif jihatlar turkumiga quyidagilar kiritilgan:

1. O'zbekiston iqtisodiyoti tuzilmasi ilgarigiday o'zining agrar-industrial tabiatini saqlab kelmoqda.

2. YaIM tarkibida sanoat mahsuloti 25%dan ozroq qismini hamda jismoniy va ma'naviy eskirgan uskuna va texnologiyalar katta hissani tashkil qiladi.

3. Ishsizlik darajasi tez sur'atlар bilan o'smayotgan bo'lsa-da, ancha yuqori bo'lib, iqtisodiyotda qo'llanilmayotgan manbalardagi katta potensialni aks ettiradi.

4. Ta'lim va sog'lijni saqlash tizimida, ayniqsa, aralash shaklda moliyalash tizimini boshqarish qismidagi institutsional o'zgarishlar tugallanmagan.

Shuningdek, islohotlar tajribasini umumlashtirishda turlicha yondashuvlar shakllanmoqda. Ulardan biri bozor munosabatlariga o'tishning ijtimoiy muammolarini hal etilishi 3 bosqichga taqsimlanadi:

1-bosqich (1991-1994);

2-bosqich (1994-1997);

3-bosqich (1997-2005).

Birinchi bosqichning maqsadi aholi turmush darajasining keskin pasayishi va ishsizlikning keskin oshishiga yo'l qo'ymaslik bo'ldi. Bu bosqichda davlat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, iste'mol bozorini himoya qilish uchun iste'mol mollarini me'yoriy tarqatish tizimi, talon va kuponlar joriy etildi. Kam ta'minlanganlar uchun imtiyozlar saqlandi.

Ikkinchi bosqichning maqsadi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish hajmi va iqtisodiy o'sishni barqarorlashtirish, inflatsiyani jilovlash bo'ldi. Natijada mulkdorlar sinfi shakllandi. Xorijiy omillarga bog'liq bo'lgan o'zak tarmoqlarini mustahkamlash choralar ko'rildi. Milliy valuta inflatsiyasini maqbul darajada jilovlash imkonini yaratildi.

Uchinchi bosqichning maqsadi iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlarni sifat jihatidan yangi pog'onaga ko'tarishga qaratildi. Iqtisodiyotda miqdor va sifat siljishlari, kichik biznes va tadbirkorlik uchun huquqli sharoitlar yaratildi, ishsizlikning yashirin va turg'un holatlarini bartaraf etishga oid choralar ko'rildi. Aholi daromadlarining yangi turlari - mulkdan va tadbirkorlikdan ham shakllana boshladi. Aholi kam ta'minlangan

qatlamlar qashshoqlashuvi kamaytirildi. Boqimandalik chekindi. Mehnat va tadbirkorlik faolligi ortdi.

Iqtisodiyotning negizini turli xildagi mulk tashkil etishi, mulkchilik munosabatlaridagi islohotlar chuqurlashuvi ham to'rt bosqichda guruhlantirishga imkon yaratdi. Bunda 1990-91-yillar tayyorlov bosqichi deb belgilandi.

1-bosqich - 1992-1994 yillar;

2-bosqich - 1994-1996 yillar;

3-bosqich - 1996-1998 yillar;

4-bosqich - 1999 yildan hozirgacha.

Birinchi bosqichda faol xususiylashtirish boshlangan. Bunda, asosan uy-joy fondi va kichik korxonalar xususiylashtirilgan va jamoa mulkiga aylantirilgan. Qishloq joylarda har bir oilaga tomorqa yer uchastkasi berilgan.

Ikkinchi bosqichda o'rta va yirik yengil sanoat mashinasozlik, qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasidagi 50 mingdan ortiq korxonalar ochiq turdag'i aksiyadorlik jamiyatlariga (mehnat jamoasi - 25%, davlat - 26%, erkin sotuvda - 30%, aralash korxonalarga - 10%, xorijiy investorlarga - 10%) aylantirildi. Bozor infrastrukturasi rivojlandi (birja, bank, xususiy sug'urta kompaniyalari).

Uchinchi bosqichda esa eng yirik aksiya nazorat paketi davlat ixtiyorida bo'lган korxonalar (jami 3146 ta) islohoti boshlandi. Xususiy- lashtirilmaydiganlarning tarkibiy ro'yxati Oliy Majlis va Vazirlar Mah-kamasi tomonidan belgilab berildi: suvdan foydalanish obyektlari, meliorativ tarmoqlar, muzeylar, sanepidemiya stansiyalar, strategik va harbiy ahamiyatga ega bo'lган budjetdan tashqari fondlar shular jumlasidandir.

To'rtinchi bosqichga kelib xususiylashtirilgan obyektlardan bujdeta mablag' tushurish, xususiylashtirilgan obyektlarga xorijiy investitsiya-larni jalb qilish, yangi mulkchilik munosabatlarining to'liq faoliyati uchun sharoit yaratish hamda boshqaruv samaradorligini oshirish choralariga e'tibor kuchaytirildi.

Bu bosqichda xususiylashtirishni guruhlashtirish sohasidagi vazifalar aniqlashtirildi:

- xususiylashtirishning miqdoriy ko'rsatkichlaridan tarmoqlarni chuqur restrukturatsiyalash hamda korxonalarni xususiylashtirish-dan so'ng quvvatlash;

- tarmoq va hududlardagi xususiyatlarni to‘liq hisobga olish uchun xususiylashtirish usullarini kengaytirish;
- xususiylashtiriladigan mulkni baholashning tender asosida sotish uchun takomillashtirish;
- tadbirkorlikni faol quvvatlash, sanatsiya va restrukturizatsiyalash protseduralarini amalga oshirish, zararga ishlayotgan korxonalarga barham berish.

Mulkdorlar sinfining shakllanishi tadbirkorlikni rivojlantirilish bilan bog‘liq institutsional islohotlar ham 4 bosqichda tasniflanadi.

Bunda ham tayyorlov bosqichga alohida e’tibor beriladi, ya’ni 1990-1991-yillarda mulkchilik va tadbirkorlik to‘g‘risidagi va boshqa qonunlarning qabul qilinishi qayd etiladi.

1-bosqichda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi, «Hususiy mulkchilik himoyasini ta’minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish» to‘g‘risidagi (1994-yil yanvar), «Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlash Davlat Qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida»gi Prezident farmonlari muhim hujjat bo‘ldi.

2-bosqich Respublika Prezidentining xususiy tadbirkorlikni rag‘batlantirish to‘g‘risidagi Farmoni bilan boshlandi. Sobiq sovet respublikalari ichida birinchi marta xususiylashtirishdan tushgan mablag‘ning 50% kichik va o‘rta biznesni rag‘batlantirishga qaratildi. Bu bosqichda «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlintirish to‘g‘risida»gi (1995-yil dekabr), «Aksiyadorlik jamiyatları va aksiyadorlik xuquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi (1996-yil aprel) qonunlar qabul qilindi. Eng muhimi, real ko‘p ukladli iqtisodiyotni shakllanishiga erishildi, nodavlat sektori mustahkamlandi. Nodavlat sektorning ulushi milliy daromadda 69% ga yetdi. Salkam 6 min. aholida mulkdorlik hissi vujudga keldi.

3- bosqich chet el sarmoyalalarini jalb etish asosida xususiylashtirishning chuqurlashtirilishi bilan tavsiflanadi. E’tibor ko‘proq xususiylashtirishning samaradorligiga qaratildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlashning ko‘p bosqichli tizimi shakllandı. Bular:

1. Davlat mulkini boshqarish Qo‘mitasi va uning hududiy bo‘limlari.
2. Tadbirkorlikning jamoat tashkilotlari (savdo-sanoat palatasasi, dehqon va fermer xo‘jaliklari assotsiatsiyasi, tadbirkor ayollar uyushmasi).

-
3. Moliya-kredit institutlari (Mikrokreditbank).
 4. Sug'urta ta'minoti («Agrosug'urta») va tadbirkor kadrlarni tayyorlash va axborot - maslahat bilan quvvatlash institutlari (biznes - inkubator va biznes - maktablar).
 5. Xomashyo va materiallar ta'minoti, shuningdek, tayyor mahsulot sotish infrastrukturalari (O'zulgurji birja savdo, Agrosanoat birja, O'zsavdomarkaz, mintaqaviy va ixtisoslashgan bozorlar). Natijada jami huquqiy shaxslarning 89% i Kichik va o'rta korxonalar (160 ming) egasiga aylandi. Kichik va o'rta korxonalar solig'i qishloq xo'jaligidagi - 27%, sanoatda - 12% ga yetdi.

IV bosqich iqtisodiyotni erkinlashtiruv islohotlarini chuqurlashtirishdan keyin boshlandi. Tekshirishlarni ro'yxatga olish kitobi joriy etildi. 270 mingdan ortiq kichik va o'rta biznes subyektlari 2006-yil oxiriga kelib ro'yxatdan o'tdi. Shundan 200 mingdan ortig'i - mikrofismaldan iborat.

O'zbekistonda 2006-yilda YAIM 7,3 foizga o'sdi: sanoat 10,8, qishloq xo'jaligi 6,2, investitsiya 11,4, qurilish pudrat ishlari 12,8, xizmat ko'rsatish 19,5 foizga o'sdi. 2007-yil I chorak davomida iqtisodiy o'sish 9,1 foizga teng bo'ldi. Bu tanlangan yo'lning nihoyatda to'g'ri ekanligining yorqin dalilidir.

Qisqacha xulosalar

1917-yildagi oktyabr to'ntarilishi va sho'rolar hokimiyati (1917-1990) davrida sobiq SSSR va xususan O'zbekistonda ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan imperativ rejali iqtisodiyotga o'tildi. Nokapitalistik konsepsiya, ya'ni bozor munosabatlarini inkor etuvchi yo'l tanlab olindi. Buyruqbozlik iqtisodiyoti tufayli erishilgan ayrim yutuqlar vaqtincha samara berdi. Markaz tomonidan olib borilgan siyosat oqibatida katta potensialga ega bo'lgan O'zbekiston iqtisodiyoti bir tomonlama agrar- xomashyo yo'nalishida rivojlandi, sanoat tovarlari ishlab chiqarish cheklangan edi, paxta yakkahokimligi ijtimoiy-ekologik muammolarni keltirib chiqardi, yerlarning sho'rланishi, botqoqlashuvni kuchaydi, Orol dengizi quriy boshladi, xalqning moddiy farovonligi keskin ortda qoldi. Ilg'or mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish tarixi bozor iqtisodiyotini qo'llash yo'li bilangina taraqqiyotga erishish mumkinligini ko'rsatmoqda. Ko'p yillar davomida imperativ rejali

iqtisodiyot yuritgan sobiq SSSR va boshqa «sosialistik» deb atalgan davlatlar iqtisodiyoti inqirozga uchradi va bu bozor iqtisodiyotiga o'tishni taqozo etmoqda. O'zbekiston Respublikasi bozor munosabatlariga o'z mustaqilligiga erishgandan so'ng (1991) o'ta boshladi. Bu bozor iqtisodiyotiga o'tish konsepsiysi ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan rejali (planli) iqtisodiy tizimdan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tishning qonun-qoidalari va uning O'zbekistondagi milliy xususiyatlarga xos ilmiy qarashlar majmuyidan iboratdir.

Respublikamizning bozor munosabatlariga o'tish konsepsiysi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, akademik Islom Karimovning asarlari, risola va nutqlarida izohlab berilgan. O'zbekistonning tarixiy, ilmiy, an'anaviy, ekologik va boshqa sohalardagi tajribalariga asoslanib, respublikada ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'li maqbul deb topildi. Bu o'tish yo'li tadirijiy (evolutsion) ketma-ket, bosqichma-bosqich amalga oshadi. Jamiat rivoji tarixi shuni aniq ko'rsatadiki, bir ijtimoiy tizimdan boshqa tizimga ko'chish uchun ma'lum o'tish davri obyektiv zaruriyatdir. Bu zarurat eskiringan hayot ukladi o'rniya yaratiladigan yangi ukladni vujudga keltirishdagi siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy qiyinchiliklar bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekiston sharoitida bu o'tish davri bir necha bosqichdan iborat bo'ladi. Birinchi bosqich 1991-1994-yillar, ikkinchi bosqich 1994 - 1999-yillarda amalga oshirildi, uchinchi bosqich 2000-yildan boshlandi.

O'tish davrining davom etish vaqtini va bosqichlari soni o'tish davrida qo'llaniladigan qator aniq obyektiv va subyektiv omillar va uslublarga bog'liqdir. Uni nisbatan tezroq va to'fonlarsiz amalga oshirish bosh vazifa hisoblanadi. O'zbekistonda sobiq sho'ro davlatlari orasida birinchilardan bo'lib mustaqillikning o'n yili davomida muhim yutuqlar qo'lga kiritildi. Inqirozlar davri tugab (1996), iqtisodiyotning jadal o'sish davri boshlandi. Makroiqtisodiy barqarorlikka erishildi, milliy valutamiz bo'lgan so'm mustahkamlandi, xususiylashtirish jarayoni chuqurlashdi va kengaydi. Yoqilg'i-energetika va don mustaqilligi ta'minlandi, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar keng quloch yoydi, yangi sanoat tarmoqlari vujudga keldi. Iqtisodiyotda sezilarli siljishlar amalga oshirildi. Bozor infrastrukturasi yaratildi, asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar o'sishi ta'minlandi. Bu tanlab olingan iqtisodiy islohotlar yo'lining to'g'riliqi natijasidir.

Asosiy tushuncha va iboralar

Bozor iqtisodiyotiga o'tish, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi, mustabid tizim merosi, o'tish zaruriyatining omillari, «o'zbek modeli», o'tish davri davomiyligi, o'tish davri bosqichlari, tartibga solinadigan bozor iqtisodiyotiga yondashuvlar, iqtisodiyot negizi, ustuvor yo'naliishlar, tarkibiy o'zgarishlarning maqsadlari, inson taraqqiyoti indeksi, islohotlarni tasniflash, yutuq va muammolar.

Nazorat va mulohaza uchun savollar

1. Ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotining mohiyati va uning oqibatlarini izohlang.
2. Bozor iqtisodiyotiga o'tish deganda nimani tushunasiz?
3. O'tish davri davomiyligi qancha bo'lishi mumkin?
4. O'tish davridagi umumiy qoidalar nimadan iborat?
5. «O'zbek modeli» nima?
6. Milliy iqtisodiyotning negizini nima tashkil etadi?
7. Milliy iqtisodiy islohotlar modelining xususiyatlari.
8. Islohot bosqichlariga oid qanday qarashlar mavjud?
9. Milliy iqtisodiyotning ilmiy-nazariy manbalarini kengaytirishga hissa qo'shayotgan olimlar kimlar?

XOTIMA

Taniqli iqtisodchi olim Mark Blaugning ta'kidlashicha, iqtisodiyot fani va ta'lomitlarining tarixi o'ziga xos laboratoriyyadir. Har bir iqtisodchi buni tushungan va tushunmagan holda bu laboratoriyanı o'zi bilan birga olib yuradi (Блауг М. Экономическая мысль в ретроспективе, с.659). Bu laboratoriya doim harakatda, doim izlanishda bo'lib, o'tmishdoshlar tomonidan qoldirilgan intellektual merosni bilish muhimdir.

Oddiy tushunchalardan boshlangan iqtisodiy g'oyalari tarixi davomida bir nechta muhim yo'naliishlarni ajratish mumkin. Bular boylikning asosi muomala sohasida degan aqidaga asoslangan merkantilizm iqtisodiy ta'lomitigacha bo'lgan davr, merkantilizmning o'zi, klassik iqtisodiy maktab, sotsialistik yo'naliish va marginalizmdir. Hozirgi davr iqtisodiy ta'lomitlarida vujudga kelgan uch asosiy yo'naliish tamoyillari turli mamlakatlarning iqtisodiy siyosatlariga asos qilib olingan.

Sotsialistik deb atalgan yo'ldan borgan 28 davlat 90-yillar boshida bozor iqtisodiyotiga qaytishni yoki o'tishni ma'qul deb hisobladilar. Bu davlatlarning bozor munosabatlariiga o'tishi o'ziga xos bo'lib, «o'tish davri iqtisodiyoti» sifatida qaraladi. Albatta, bu o'tish klassik mamlakatlar (Angliya, Fransiya, AQSH, Germaniya va boshqalar) rivojlanishidan ancha farq qiladi, chunki bu yerda gap ma'muriy-buyruqbozlikdan erkin bozor munosabatlariiga o'tish to'g'risida boradi. Ko'pchilik mamlakatlarda o'tishning dastlabki qiyinchiliklari bartaraf etilib, normal rivojlanish davri boshlangan. Shu bilan birga, ko'p yillardan buyon bozor munosabatlarda yashayotgan, ammo qoloqlik va qashshoqlikdan chiqa olmayotgan davlatlar ham ko'pligini alohida ta'kidlash kerak. Demak, gap samarali bozor iqtisodiyoti to'g'risida borishi zarur.

Bozor iqtisodiyotining muhim afzallik tomoni shundaki, u barcha tadbirkorlar (sohibkor)lar uchun teng erkin imkoniyatlar beradi, xususiy mulk asosiy o'rinni egallagani uchun yaratuvchanlikka rag'bat (ishtyoq)qa sharoit yaratiladi, boqimandalik (ilgarigi sotsialistik

jamiyatdagi) kayfiyatini inkor etadi. Cheklangan moddiy-texnika resurslaridan samarali foydalanib, tobora oshib borayotgan talablarni to‘laroq qondirish imkonni yaratiladi.

Ko‘rinib turibdiki, bozor munosabatlari rivojlanish uchun bir vosita, undan unumli foydalanib, yutuqqa erishayotgan mamlakatlar talaygina, ammo shu yo‘ldan borayotgan, lekin qoloq davlatlar ham ko‘p. Gap shundaki, xuddi tabiatdagi kabi umumiylar va xususiy holatlarning birligida. Masalan, bizga oq bo‘lib ko‘ringan rang prizmada yetta boshqa-boshqa rangga ajraladi, undan esa minglab boshqa ranglar hosil bo‘ladi. Muzikada yettitagina nota mavjud, ammo undan minglab, millionlab ohanglar vujudga keladi.

Bozor tizimi hozirgi davr iqtisodiyotining eng samarali usulidir, ammo bu tizim bekam-u ko‘stmi degan savol tug‘iladi. R.Xeylbroner va L.Tyugolarning fikricha, («Экономика для всех», с.296-298), bozorning uchta nozik joyi, muammozi mavjud.

Birinchidan, bozor hatto eng boy jamiyatni ham narxi belgilab qo‘ylgan yorliqlari yo‘q tovar va xizmatlar, masalan, ta’lim, mahalliy ma’muriyat, jamoat sog‘liqni saqlash xizmati kabilalar bilan ta‘minlashda samarasiz vosita hisoblanadi. Bozor jamiyatni bu tovarlarni sotib olish uchun soliq tushumlarining bir qismini yo‘naltiradi, ammo jamiyat a’zolari bu soliqlarni majburiy yig‘imlar sifatida qabul qiladi va erkin xarid qilinadigan tovarlardan keskin farq etadi. Shu sababli sof bozor jamiyatni ta’lim, sog‘liqni saqlash, munitsi palitet, rekreatsiya (ekologiya) va boshqa sohalarga kam mablag‘ ajratishga intiladi.

Ikkinchidan, bozor insonning istak va talablarini qondirishda qat’iy iqtisodiy hisob-kitoblarga amal qiladi. Bozor boylarning jonkuyar xizmatkori, ammo qashshoqlarga nisbatan befarq qaraydi. Bu iqtisodiy yutqazish bo‘lib qolmasdan, balki axloqiy yutqazish hamdir. Foya ketidan quvishni qo‘llaymiz, ammo millionlab qashshoqlarning ahvolini sezmaslikka intilamiz. Ayniqsa, globalizatsiya davrida boylar boyimoqda, kambag‘allar yanada qashshoqlashmoqda. Bu ijtimoiy xavfdir.

Uchinchidan, bozor tizimi amaliyoti davomida mikro va makro kasalliklarga duchor bo‘lib turadi. Bu siklik yoki surunkasiga bo‘lib turadigan inflatsiya, ishsizlik, kambag‘allik va atrof-muhitning ifloslanishi va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Bozor insoniyat uchun xavfli bo‘lgan, ammo katta foya keltiradigan faoliyat bilan shug‘ullanishga moyil (masalan, narkobiznes, qurol sotish va boshqalar).

Albatta, mamlakatdagi istalgan sotsial kasalliklarni iqtisodiy tuzum bilan bevosita bog'lash kerak emas, ammo ular o'rta sidagi aloqalarni inkor etish ham xavfli dir. Ammo kapitalistik bozor iqtisodiyotining muhim xususiyati shundaki, u bo'layotgan o'zgarishlarga tez moslashadi (adaptatsiya), rivojlanishni ta'minlashga moyillik mavjud. Masalan, 1929-33-yillardagi buyuk depressiya tufayli AQSH va bir qancha davlatlar o'z iqtisodiy siyosatini keskin o'zgartirdi va hokazo. Sobiq sotsialistik mamlakatlar deb atalgan davatlarning iqtisodiy siyosati adaptatsiyaga moyil bo'lindi. Bozor iqtisodiyotiga zid (xususiy mulk tugatilib, davlat mulki hal qiluvchi bo'ldi, baholar erkinligi buzildi, qat'iy rejalahtirish joriy etildi, erkin raqobat inkor etildi, yakka partiyaviylik va boshqalar) siyosat bu mamlakatlar inqirozini kuchaytirdi. Buning oqibati esa barchaga ma'lum. XXR va VSR o'z iqtisodiyotini isloh qilishda muhim yutuqlarga erishmoqda. Yuqorida gilardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda yakka-yu yagona nazariya yoki ta'limotga sof holda asoslanish qiyin. Amalda bir qancha nazariya va ta'limotlarning qorishmasidan foydalaniлади. Shuning uchun ham, mavjud iqtisodiy ta'limotlarni sinchiklab o'r ganish va ularni ma'lum tarixiy, milliy, an'anaviy, ijtimoiy va boshqa sharoitlarni hisobga olgan holda qo'llash samarali natija beradi.

Har qanday nazariya, ta'limotning asosiy mezoni amaliy hayotdir.

MUHIM SANA, TUSHUNCHА VA IZOHLAR* (GLOSSARIY)

Miloddan avvalgi (m.av.) IV ming yillik – Sharqdagi dastlabki quldorlik davlatlari paydo bo'ldi, ilk iqtisodiy qarashlar shakllandi.

Xammurapi (m.av. 1792-1750) – Bobil (Vavilon) podshosi toshga o'yib yozilgan o'z qonunlarida quldorlik tuzumining xarakterli belgilarini aks ettirgan (282 ta). Bu yodgorlik Parijda Luvr muzeyida saqlanmoqda.

Zardushtiylik (Zoroastrizm, otashparastlik) - islomgacha O'rta Osiyo, Ozarbayjon va Eron xalqlarining dini. Bunda, ayniqsa, tabiatni va hayvonot dunyosini asrash va boshqa iqtisodiy masalalarga alohida urg'u berilgan.

«Avesto» – Zardushtiylikning muqaddas to'plami, oromiy yozuvida bitilgan. m.av. VII asrda Markaziy Osiyoda qadimgi davrdagi iqtisodiy hayot aks etgan. Mehnatga, chорvachilikka alohida e'tibor berilgan. Ko'p qismi yo'q bo'lgan, to'liq emas. Rus va o'zbek tillariga tarjima qilingan. Bu kitob 2700 yil avval yozilgan bo'lib, unda «ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal» prinsiplari ilgari suriladi.

«Artxashastra» – m.av. IV-III asrlarda Hindistondagi siyosiy va iqtisodiy hayotni aks ettirgan. Ish haqi tushunchasi ish vaqt bilan ifodalangan.

Konfutsiy (Kun-Szi, m.av. 551-479) – Xitoydagi konfutsiychilik iqtisodiy ta'limotining asoschisi. «Lunu» suhabatlar va mulohazalar to'plamini yaratgan. «Xalqlar otasi» iborasining muallifi. Oz iste'mol qilib, ko'proq ishlashni targ'ib etgan. Odat bo'yicha boshqarish tarafdori (ota-bola; podsho-xalq, oila kabi bo'lishi kerak)

Legistlar – Xitoydagi (m.av. VI-III asrlar) iqtisodiy oqim. Konfutsiylikka qarshi. Boshqaruv qonunlar asosida bo'lish tarafdori. Don masalasini hal qilish bosh vazifa deb qaraladi. Dehqonlarni ro'yxat qilish, soliq tizimini tartibga solish tarafdorlari.

«Guan-Szi» (m.av. IV asr) – Xitoydagi ijtimoiy-iqtisodiy asar, unda xo'jalikni davlat tomonidan tartibga solish tizimlari mukammal berilgan.

* Izohlar tarixiy va mazmunan izchillik tartibida keltirilgan.

M.av. II mingyllik – G'arbda (Qadimgi Gretsiya - Yunoniston va Italiyada) quldarlik tuzumi yuzaga keldi. Quldarlik klassik shaklda amalga oshdi.

Gomer (m.av. XII-VII asrlar oralig'i) – «Iliada» va «Odisseya» asarlarida natural xo'jalik konsepsiyanini ilgari surgan.

Solon (taxm. m.av. 640/635-559) – Yunoniston siyosiy arbobi, islohotlar o'tkazgan. Qullarni qarzga berishni man etgan (chet elliklar bundan mustasno).

Perikl (m.av. 490-429) – qadimgi yunon siyosiy arbobi. Qul ekspluatatsiyasini keng qo'llagan, lekin savdo va pul xo'jaligini ham rivojlantergan. Afina eng rivojlangan davrda uni boshqargan.

Ksenofont (m.av. 430-335/354) – yunon yozuvchisi va tarixchisi. Quldarlikni qo'llab-quvvatlagan. «Dehqonchilik barcha san'atlarning onasi va boquvchisi» degan iboraning muallifi. «Ekonomiya» (uy xo'jaligi) so'zini birinchi bo'lib ishlatgan.

Mehnat taqsimotiga alohida urg'u bergen va uni bozor ko'lami bilan bog'lagan. Pulning almashuv va jamg'arish (ikki) funksiyalarini tan olgan.

Platon (Aflatun, m.av. 428/427 - 348/347) – «Davlat» va «Qonunlar» asarlarining muallifi. Jamiyatni ish quroli - natural ishlab chiqarish deb qaragan, natural xo'jalikni qo'llagan, pulni jamiyatdagi dushmanlikning bosh sababchisi deb bilgan.

Aristotel (Arastu, m.av. 384-322) - yirik yunon olimi, «Nikomaxov axloqi» va «Siyosat» asarlarini yozgan. Aflatundan ta'lim olgan. Aleksandr Makedonskiyga tarbiyachilik qilgan. Qulchilikning principial tarafdoi bo'lgan. Qul - jonli (gapiruvchi) qurol, qul - tirik mulk, degan fikrda bo'lgan. Qiymatning dastlabki shaklini tahlil etgan: buyumdan ma'lum talabni qondirish va almashish uchun foydalanish mumkin, degan, natural xo'jalik (T-T), tovar (T-P-T) va pulning kapital shaklidagi aylanishini (P-T-P) tahlil etgan. Tovar ishlab chiqarish uchun qo'llaniladigan harakatni qo'llab-quvvatlagan. P-T-P, P-P shaklini inkor etadi.

Xrematistika (xrema - mulk, egalik) - mulk orttirish san'ati, ya'ni foyda va boylikni pul shaklida to'plashga yo'naltirilgan faoliyat. Kapital qo'yish va jamg'arish san'atidir. Amaliyotda kam qo'llaniladi. Aristotel tomonidan kiritilgan.

Katta Katon (m.av. 234-149) - Qadimgi Rimdag'i qulchilikni himoya qilganlardan. Dehqonchilik to'g'risidagi asarida qishloq xo'jaligiga

ko'proq e'tibor berishni taklif etadi, ko'proq sotish va kam olishni ma'qullaydi. Qullar mehnatidan ratsional foydalanishni taklif etadi (Villa xo'jaligi). Yaxshi ishlagan qulning sharoitini yaxshilash, lekin gunohkor qattiq jazolanishi kerakligini ta'kidlaydi.

Varron (m.av. 116-27) va **Lyutsiy Kolumella** (milodiy I asr) – Rim agronomlari. Qul xo'jaligini samarali tashkil etishga ahamiyat berdilar, dehqonchilik va chorvachilikni ham rivojlantirishni zarur deb bilganlar. Qul mehnatining samarasiz ekanligini tushungan va dehqonchilikni erkin kolonlarga berishni taklif etganlar.

Aka-uka Grakxlar, Tiberiy (m.av. 162-133) va **Gay** (m.av. 153-121) – Rim davlatida yer islohotining rejasini tuzganlar. Har bir yer egasidan 125 ga (500 yuger) dan ortiq erlar tortib olinib (oilaga 1000 yuger - 250 ga), boshqalarga 30 yugerdan bo'lib berish taklif etilgan. Mayda dehqon manfaatlari himoya qilingan. Islohotlar natija bergen. Ammo aka-ukalarning o'limidan keyin bu islohotlar bekor qilindi.

Latifundiya – yirik yer egaligi (pomestye). Dastlab Qadimgi Rimda m.av. II asrda paydo bo'ldi, milodiy I asrda keng tarqaldi. Feodalizm davrida avj oldi. Prussiya va AQSHDa rivoj topdi. Inqiloblar tufayli tugatildi.

Spartak (m.av. 71 yilda halok bo'ldi) - qullar qo'zg'oloniga (m.av. 73-71) rahbarlik qildi. Qo'zg'olon bostirildi. Ammo qulchilik tuzumiga zarba berildi.

Xristianlik (nasorolik) – jahondagi keng tarqalgan uch dindan biri, buddizm va islam bilan bir qatorda milodning I asrida Rim imperiyasining sharqiy provinsiyasi(Falastin)da mazlumlar va ezilganlar dini sifatida paydo bo'lgan, muqaddas kitobi Injilda «Ishlamagan tishlamas» prinsipi ilgari surilgan (havoriy apostol Pavelning fikri). 325-yildan Rim imperiyasining davlat dini, unda mulk, iqtisodiy tenglik, hamkorlik va boshqa g'oyalalar ilgari suriladi.

V asrda G'arbiy Yevropada (Rim imperiyasining qulashi) qullik tugatilib, feodalizm munosabatlari tarkib topdi (V-XVI-XVII asrlar). Sharq mamlakatlarida feodalizmnning shakllanishi III-VII asrlarda ro'y berdi. Bu davrdagi iqtisodiy g'oyalalar tovar-pul munosabatlarining rivoji bilan bog'liq.

Islom – VII asrda (hijriy 622-yil) dastlab Arabistonda tarqalgan so'nggi muqaddas din. Islomning muqaddas kitobi *Qur'oni Karimda* (arabchada *o'qish, qiroat* degani) Alloh taolo tarafidan shaxsiy mulk muqaddas deb e'lon qilingan, unga ko'z olaytirish katta gunoh deyilgan

va sudxo'rlik harom qilingan, ortiqcha sarf-xarajatlar qoralangan, ayniqla, «yenglar, ichinglar, hadya qilinglar, lekin isrof qilmang» degan oyatlar bugungi kun uchun ham ahamiyatlidir.

Forobiy Abu Nasr ibn Muhammad (870-950) — qomusiy olim, Arastuning izdoshi (Arastudan keyin ikkinchi muallim nomini olgan), xayoliy sotsializmning asoschilaridan, 160 dan ortiq asar yozgan, donishmand (ayni vaqtida diniy jamoaning boshlig'i bo'lgan), hukmdor, tasarruf etuvchi, «saxovatli yurt» haqidagi ta'limotni rivojlantirdi (fozil davlat tarafidori).

Abu Ali ibn Sino (980-1037) — qomusiy olim, 280 dan ortiq asar yozgan, «Uy xo'jaligi», «Ruhshunoslik» va boshqa kitoblarda iqtisodiy qarashlari aks etgan.

Beruniy Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad (973-1048) — qomusiy olim, 150 dan ortiq asarlari mavjud, lekin iqtisodiy qarashlari to'liq o'rganilmagan. Mehnat boylikning asosi ekanligi to'g'risidagi fikrlari mavjud.

Yusuf Xos Hojib Bolasog'uniy (~1016-1018-?) — turk tilidagi ilk asar «Qutadg'u bilig» («Saodatga yo'llovchi bilim», 1069-70) da ajoyib iqtisodiy g'oyalarni bayon etgan (1990-yilda chop etildi). Ayniqla, hunar-kasb o'rganish, savdo-sotiqning ahamiyatiga e'tibor berilgan. Kitobda «san'at, hunar - kishiga chirov, turli-tuman hunarlarni o'rganmaslik tubanlik belgisi» (64-bet) ekanligi haqida fikrlar va mehnat taqsimoti g'oyalari bor. Davlat va iqtisodiyot masalalaridagi bog'lanishni yaxshi tushungan.

Nizomulmulk (1018-1092) — Saljuqiylar davlati vaziri sifatida «Siyosatnomasi» asarini yozdi, unda soliq, davlat mablag'larining hisob-kitobi, iqto' (chek yer) to'g'risida qimmatli g'oyalari berilgan.

Ibn Xaldun Abu Rahmon Abu Zayd (1332-1406) — arab olimi, «Ibratli misollar kitobi» (1370)da iqtisodiy g'oyalari jamlangan. Uning fikricha, «jamiyat moddiy qiymatlar ishlab chiqaruvchilar» jamoasidan iborat. Asarlarida moddiy zarurat tarixni harakatlantiruvchi asosiy kuch, mehnat unumdarligi, zaruriy va qo'shimcha mehnat, qiymat tushunchalari keltirilgan. 1401-yilda Amir Temur bilan uchrashgan.

Amir Temur (1336-1405) — Markaziy Osiyoda markazlashgan davlat asoschisi, uning olib borgan to'g'ri iqtisodiy siyosati tufayli mamlakat obod bo'ldi, ilm-fan ravnaq topdi. «Temur tuzuklari» kitobida bir qancha muhim ijtimoiy-iqtisodiy g'oyalari berilgan. Masalan, soliq,

maosh, budjet to'g'risida qimmatli fikrlari bor. Yangi yerlar ochgan dehqon uch yilgacha soliqdan ozod qilingan, o'g'rilik, qalloblik, tovlamachilik qattiq jazolangan. Uning davrida Buyuk ipak yo'li rivoj topgan, savdogarlar qaroqchilardan himoya qilingan, karvonsaroylar qurilgan. «Kam yegin, kam uxla, kam gapir» aqidasisiga amal qilgan.

Ulug'bek Muhammad Tarag'ay (1394-1449) – A.Temurning nabirasi, Shohruhning o'g'li, 1409-49-yillar Movarounnahrda podsholik qildi, ilm-fan, madaniyat rivojiga, mamlakatning iqtisodiy ravnaqiga katta hissa qo'shdi, 1428-yilda fulusiy pullar islohotini o'tkazib, chaqa pullar qadrini mustahkamladi, «Tamg'a» bojiga alohida e'tibor berdi, uning podsholik davrida mamlakatda ichki va tashqi savdo o'sdi.

Alisher Navoiy (1441-1501) – temuriylardan, shoir, davlat arbobi sifatida iqtisodiyot masalalariga katta e'tibor bergan. «Mahbub-ul-qulub» asarida dehqon, hunarmand va savdogarlar faoliyatiga alohida baho beradi, uning fikrlarida almashuv zarurati ko'rsatilgan, kapital tushunchasining elementlari bor.

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) – Andijon, Qobul va Hindiston hukmdori, «Boburnoma», «Mubayyin» asarlarida soliq siyosati, masalan, zakot to'g'risida qimmatli g'oyalari berilgan. Eng muhimmi, daromad oshgan sari soliqning kamayib borishining ahamiyati tushuntiriladi. Savdo va tashqi munosabatlarga katta e'tibor bergan.

Tomas Mor (1478-1535) - ingliz olimi. «Utopiya» (1516) asarida xayoliy sotsializm g'oyalari berilgan, «qo'ylar odamlarni yeb qo'ydi» iborasining muallifi (dehqonlarning o'z yerlaridan mahrum qilinishi). «Utopiya» so'zi yunoncha «u-» /yo'q/ va «topos» /joy/ so'zlaridan tashkil topgan, ya'ni bu so'zning ma'nosi «o'zi yo'q joy»dir.

Tommaso Campanella (1568-1639) – italyan iqtisodchisi, Italiyadagi og'ir iqtisodiy ahvolni ko'rgan. «Ostob shahri» (1602-yilda yozilib, 1632-yilda chop etilgan) kitobida umumiy mulkchilik, mehnat asosida xayoliy sotsializm g'oyalari rivojlantirilgan.

Merkantilizm – italyancha so'z bo'lib, savdogar degani, feodalizmning yemirilishi va ilk kapitalizm davridagi dastlabki bozor iqtisodi maktabi; ilk merkantilizm (monetarizm) va rivojlangan merkantilizm davrlariga bo'linadi; boylikning asosi muomala (savdo)da yuzaga keladi, degan g'oya ilgari surilgan.

Antuan Monkretin (1565-1621) – fransiyalik iqtisodchi, birinchi bo'lib «siyosiy iqtisod» tushunchasini kiritgan, merkantilizmni, savdo rivojini qo'llagan, dvoryanlarning zeb-ziynatga berilishini qoralagan.

Jan Batist Kolber (1619-1683) – Fransiya qiroli Ludovik XIV davrida moliya vaziri bo'lgan, merkantilizmni jon-jahdi bilan qo'llagan, uning davrida agrar sohaga e'tibor kamaygan, kolbertizm siyosatining muallifi. Bank, sanoat va savdo rivojiga hissa qo'shan.

Kameralistika – merkantilizmning Germaniyadagi shakli. Bu g'oya tarafdorlari yirik feodallar xo'jaliklarini boshqarish masalasini yuqori qo'yadilar va buni idora doirasida hal qiladilar.

Jon Lou (1671-1729) - asli shotlandiyalik, ammo ko'proq Fransiyada ijod etgan. Merkantilizmning bir oqimini, ya'ni korxonalar va savdo haqiqiy boylikdir degan g'oyani ilgari surgan. Bank, aksiya, obligatsiya va qimmatli qog'ozlar sotish yo'lini tutgan. Hozirgi «piramida» usulining muallifi. Oxir-oqibatda inqirozga uchradi (Moskvadagi «MMM» va boshqa shu kabi aksioner jamiyatlarining ibtidosi). Banklarning ijobiy tomonini ko'ra bildi.

XVII asrning o'rtalarida (1640-1660) Angliyada burjua inqilobi bo'lib o'tdi, feodalistik munosabatlar sinib, kapitalistik munosabatlar shakllana boshladi.

Manufaktura – italyancha «qo'l mahsuloti» degani, mehnat taqsimoti, qo'l hunarmandchiligi va yollanma mehnatga asoslangan oddiy kapitalistik kooperatsiyadan keyingi ikkinchi bosqich. XVI asrning o'rtalarida paydo bo'ldi, sanoat to'ntarilishiga, ya'ni fabrikaga zamin tayyorladi. A.Smit tomonidan eng mukammal korxona turi deb hisoblangan.

Petti Vilyam (1623-1687) – Angliya klassik iqtisodiy maktabining asoschisi, merkantilizmni inkor etgan, boylikning asosi ishlab chiqarishda degan fikrni ilgari surgan, «mehnat boylikning otasi, yer esa uning onasidir» degan iborani qo'llagan. Kapitalistik tuzumni tabiiy va abadiy deb hisoblagan. Tovarning almashuv qiymatini tan olgan. Statistika («Siyosiy arifmetika») faniga asos solgan. Aholiga boylik yaratuvchi sifatida qaradi.

Buagilber Per (1646-1714) – Fransiya klassik iqtisodiy maktabining asoschisi. Agrar sohaning rivojiga e'tibor berdi, kolbertizmga qarshi kurashdi, soliq tizimini isloh qilishni taklif etdi. Pulga «buyuk yovuzlik» deb qaradi. Qiymatning iste'mol shaklini tan oldi, savdo va sanoatni to'g'ri baholamadi. Erkin savdo, proporsional baholar tarafdoi bo'ldi va erkin raqobatni qo'llab-quvvatladi.

Fiziokratlar – yunoncha «tabiat» va «hokimiyat» so'zlaridan tashkil topgan bo'lib Fransiyadagi klassik siyosiy iqtisod namoyandalari

F.Kene, A.R. Tyurgo va boshqalar fiziokratizmga asos soldilar. Tadqiqot mavzusini muomala sohasidan (merkantilizm) ishlab chiqarish sohasiga ko‘chirdilar; erkin savdo tarafdarlari edilar. Fermerlar, qishloq xo‘jaligi mamlakat ravnaqining asosi deb hisoblanadi.

Kene Fransua (1694-1774) – fransiyalik fiziokratizm oqimining asoschisi, «Tabiiy tartib konsepsiysi», «Sof mahsulot» «Unumli mehnat» to‘g‘risidagi ta’limotni yaratdi. O‘zining «Iqtisodiy jadval»ida takror ishlab chiqarishni va sinflarni tahlil etdi, kapitalga (doimiy va aylanma) izoh berdi. Almashuv ekvivalentligi ta’limotini ilgari surdi, unda boylik yaratilmasligini isbotladi. Boylik yaratishda tabiatning ishtirokini tan oldi.

Fermer, fermer xo‘jaligi – xususiy yoki ijaraga (lendlorddan) olingen yerdaolib boriladigan sohibkorlik tipidagi xo‘jalik. Kapitalistik fermerchilikda yollanma mehnatni jalb etish, oilaviy shakli esa aksariyat xo‘jalik egasining (fermer va uning oilasi) kuchi bilan olib boriladi. Dastlab Angliyada XVII asrda vujudga keldi. Hozir deyarli barcha mamlakatlarda mavjud. Fiziokratlar qo‘llab-quvvatlagan xo‘jalik turi. Erkin savdo, xususiy mulk va mavjud tuzum tabiiy deb baholanadi.

Tyurgo Ann Rober Jak (1727-1781) – fransiyalik, fiziokratizm g‘oyasini rivojlantirdi. Sof bozor iqtisodiyoti tarafdoi. Minimal ish haqini qo‘llagan, jamiyatda (kapitalist va ishchilarni qo‘sghan holda) beshta sinf (Keneda esa uchta) borligini aytdi.

Smit Adam (1723-1790) – Angliya klassik iqtisodiy maktabining buyuk nazariyotchisi, manufakturning iqtisodchisi. Asosiy asari «Xalqlar boyligining tabiatni va sabablari to‘g‘risidagi tadqiqot» (1776) bo‘lib, unda hozirgi til bilan aytganda erkin bozor munosabatlari o‘z aksini topgan. Unda kapitalistik iqtisodiyot, xususiy mulk ideal deb hisoblanadi. Mehnat taqsimoti (vaqtadan, malaka oshishidan, mashina qo‘llashga imkon yaratishdan) uch yutuq berishini isbotlagan. Davlatning iqtisodga aralashuvi imkonli boricha kam bo‘lishi kerak, deydi. Egoizm xususiyati jamiyat manfaatlariga qarama-qarshi emas, degan xulosa chiqaradi. Xalq boyligi ishlayotgan odamlarning soniga va ularning mehnat unumdarligi darajasiga bog‘liq deb o‘ylagan. Manufakturani sanoatning eng yuksak cho‘qqisi deb bilgan (bu fikr xato edi, chunki fabrika ustunroq). «Smit dogmasi» deb ataladigan xatoga yo‘l qo‘ygan.

Gersog Baklyu – Adam Smit tarbiyachilik qilgan oila.

Sanoat to'ntarilishi (inqilobi) — Angliyada birinchi bor XVIII asr o'rtalarida qo'l kuchiga asoslangan manufakturadan (ikkinchi bosqichdan) mashinalashgan zavod-fabrikaga (uchinchi bosqichga) o'tish jarayoni (XIX asrning o'rtalarida yakunlangan). Iqtisodiy rivojlanishda muhim o'rinni egallaydi, ijtimoiy-siyosiy sohalarda katta o'zgarishlarga sabab bo'lgan.

Rikardo David (1772-1823) — A.Smit ta'limotining buyuk davomchisi, sanoat to'ntarishi davrining iqtisodchisi. Mehnat taqsimotini korxona doirasidan mamlakatlarga ham joriy etishni taklif etgan, nisbiy ustunlik, nisbiy chiqimlar ustunligi nazariyalariga asos solgan. Fabrika davrini to'g'ri tushungan, fritreyderlikni (erkin savdo) qo'llab-quvvatlagan.

Proteksionizm — lotincha, davlatning milliy iqtisodiyotini chet el raqobatidan himoya qilishga qaratilgan iqtisodiy siyosat.

Fritreyderlik — ingлизча, erkin savdo siyosati, proteksionizmga zid. Bu siyosatni bozor munosabatlariiga o'tgan davlatlar tashqi savdoda qo'llaydilar.

Sismondi Sharl (1773-1842) — Jenevada tug'ilgan, Fransiyada yashagan, mayda ishlab chiqarish iqtisodining asoschisi, yirik kapitalistik ishlab chiqarishga qarshi chiqdi va buni «isbotlab berish»ga harakat qildi. Mamlakatdagi barcha illatlar yirik ishlab chiqarish tufayli deb hisoblagan, u kapitalizmni tan olmagan, davlat yo'li bilan yirik korxonalarini tugatishni taklif etgan. Klassik maktabga muxolif.

Prudon Per Jozef (1809-1865) — fransiyalik mayda ishlab chiqarish iqtisodchisi va sotsiolog, mayda ishlab chiqarishni himoya qildi, «ishchi puli» orqali mahsulot sotishni, kapitalizmni isloh qilishni taklif etdi. P. pulga qarshi bo'lgan. Klassik maktabga muqobil fikrlar bildirgan.

Rodbertus Karl Iogann (1805-1875) - nemis iqtisodchisi, o'z iqtisodiy g'oyalarini «Sotsial xatlar» shaklida ilgari surdi, qo'shimcha qiymat, pul va renta bo'yicha mayda burjuacha qarashlar tarafdir. Vulgar qarash — «o'ta soddalashtirilgan», «soxtalashtirilgan» degan ma'nosi bor, g'ayriilmiy iqtisodiy nazariyalar majmuyi, asosiy namoyandalari Sey (1767-1832) va Maltusdir (1766-1834). Ular kapitalizmni himoya qilish maqsadida iqtisodiy jarayonlarning tashqi ko'rinishini tavsiflash va «xo'jako'rsin»ga klassifikatsiya qilish bilan chegaralanib, hodisaning mohiyatini tadqiq etmaydilar. Ularga faqat ayrim masalanigina olib, butun

muammoni hal qilish xosdir. V.k. namoyandalari klassik iqtisodiy matabni inkor etadilar.

Apologetika — biror g'oya yoki ta'limotni xato bo'lsa ham ko'rko'rona himoya qilish. Ma'lum sinf, guruhlar manfaati himoya qilinadi.

Mill Jeyms (1773-1836) — ingliz iqtisodchisi, ish haqini oshirish uchun kurashmaslik tarafdori, jonli mehnat bilan birga ishlab chiqarish vositalarining mehnatini ham tan olishni talab qilgan.

Mak-Kullox Jon Ramsey (1789-1864) — ingliz olimi, Maltusni qo'llagan, mehnat bilan birga kapital ham boylik yaratishda ishtirok etadi, degan fikrni ilgari surdi.

Senior A. (1790-1864) — ingliz siyosi iqtisodi vakili, «So'nggi soat» va «Tiyilish» nazariyalarini ilgari surgan, unga ko'ra go'yoki ishchilar o'n bir yarim soat ish vaqtining faqat oxirgi bir soati davomidagina foyda keltirar ekanlar.

Sey Jan Batist (1767-1837) — fransuz iqtisodchisi, klassik matabga qarshi, «kompensatsiya» nazariyasini ilgari surgan, «Sey qonuni»ning («Bozorlar qonuni») muallifi, unga ko'ra taklif talabni avtomatik ravishda vujudga keltiradi, S. inqirozlarni inkor etgan, sinflar o'rtasidagi qarama-qarshilikni tan olmaydi («ular o'rtasida uyg'unlik bor» deydi). Proteksionizm o'miga savdoni targ'ib qilgan. Ishlab chiqarishning uch omilini (kapital, ishchi kuchi va yer) ilgari surdi.

Maltus Tomas Robert (1766-1834) — ingliz iqtisodchisi, «Nufus nazariyasi», «Tuproq unumdorligining pasayib borishi qonuni»ning muallifi. Uningcha, aholi geometrik progressiya asosida, noz-ne'matlar esa arifmetik progressiya asosida o'sib boradi, Qashshoqlikning sababi aholi soniga bog'liq deb ko'rsatiladi. U aholi sonining o'sishini cheklash tarafdori bo'lgan.

«Uchinchi shaxslar» — XIX asr boshlarida muomalaga kiritilgan tushuncha. Xo'jalik hayotini sinfiy tahlil qilish metodida qo'llaniladi. Jamiyatning asosiy ishlab chiqarish kuchlari bo'lgan tadbirdorlar va yollanma ishchilardan tashqari qatlam bo'lib, olimlar fikri bo'yicha ular mahsulotni yaratish va realizatsiya qilishga imkon beradi.

Bastia F. (1801-1850) — fransuz iqtisodchisi, «Iqtisodiy garmoniylar» kitobi va g'oyasi, «manfaatlar uyg'unligi» va «xizmatlar» nazariyalarining muallifi.

Keri Genri Charlz (1793-1879) — amerikalik iqtisodchi, «Manfaatlar uyg'unligi» (1872) asarini yozgan. Shu g'oyaning tarafdori bo'lgan,

millatlar uyg'unligi g'oyasini ilgari surdi, Rikardo va Maltusga qarshi chiqdi. Erkin savdoni rad etdi, proteksionizm va qulchilikni qo'lladi.

Ekonometrika (Ekonometriya) – iqtisodiy jarayonlarga matematik usullarni qo'llash bilan bog'liq iqtisodiy matematik yo'nalish. XIX asrning boshlarida vujudga keldi va hozirgi kunda nazariya va amaliyotda keng qo'llaniladi.

Kurno Antuan Ogusten (1801-1877) – fransiyalik matematik, birinchilardan bo'lib matematikanı iqtisodiy jarayonlarga keng qo'llash uslubini ishlab chiqdi. Ekonometrika yo'nalishining asoschilaridan biri, «talablarning elastikligi» funksiyasi va grafigini yaratdi.

Logann Genrix fon Tyunen (1783-1850) – nemis olimi, ekonometrikada matematik modellashtirish bo'yicha yirik mutaxassis.

Iqtisodiy ta'limot, nazariya, qonun, kategoriya – merkantilizm, fiziokratizm, klassik iqtisodiy maktab, marjinalizm - bu iqtisodiy ta'limotlardir; «nufus», «so'nggi soat», «uchinchi shaxslar», yuqori foydalilik, umumiy bandlik, qiymatning mehnat nazariysi; qiymat, qo'shimcha qiymat, talab va taklif qonunlari; tovar, mehnat taqsimoti, pul, narx, ish haqi, renta va boshqalar iqtisodiy kategoriyalardir.

Konsepsiya (lotincha tushuncha, tizim degani) – ma'lum predmet, hodisa va jarayonlarni tushuntirish uslubi, predmet va boshqalarga qaratilgan asosiy qarash; ularni sistematik yoritib berish uchun bosh g'oya; bu so'z ilmiy va boshqa faoliyatdagi asosiy fikrni, konstruktiv tamoyilni belgilash uchun ham qo'llaniladi. Masalan, tabiiy tartib konsepsiysi va boshqalar.

Tarixiy maktab – Germaniyada (vakillari: F.List, V.Rosher, B.Gildebrand, K.Knis) vujudga kelgan siyosiy iqtisod. Unda foydalilik va yuqori naf birinchi o'ringa qo'yiladi. Iqtisodiy qonunlar inkor etilib, iqtisodiy tarix bilan almashtiriladi.

Fridrix List (1789-1846) – nemis iqtisodchisi, tarixiy maktab asoschilaridan biri, uning ta'limotiga ko'ra, qiymat «millatning ruhi» tomonidan yaratiladi; U taraqqiyotni besh bosqichga bo'ladi: badaviylik, cho'ponlik, dehqonchilik - manufakturna, dehqonchilik - manufakturna - savdo; urush va bosqinchiliklarning tarafдори bo'lgan, fashizmning iqtisodiy nazariyotchisidir.

Rosher Vilgel'm Georg (1817-1894) – Germaniya tarixiy mini maktabining faollaridan, iqtisodiy qonunlarning obyektivligini rad etadi, iqtisodiyotni ma'naviy fan deydi, sinfiy kurashning mavjudligini rad etadi, urushlar madhiyachisi, Sey g'oyalarini qo'llab-quvvatlaydi.

Knis Karl (1821-1892) – nemis iqtisodchisi, uningcha, iqtisodiy qonunlar yo‘q va tabiiy qonunlar bor. U xususiy mulk va kapitalizmni abadiy deb hisoblagan. Iqtisodiy siyosatga katta o‘rin bergan.

Gildebrand Bruno (1812-1878) – nemis iqtisodchisi, iqtisodiy hodisalarни tadqiq qilishning o‘z tarixiy usulini ilgari surdi (natura, pul, kredit), uningcha, qiymat - foydalilikdir va xususiy mulk abadiydir.

Sen-Simon Klod Anri (1760-1825) – Fransiya xayoliy sotsializmining vakili, ammo S.S. xususiy mulkni saqlab qolish tarafdori bo‘lgan.

Fure Fransua Mari Sharl (1772-1837) – Fransiya xayoliy sotsializmining vakili, kelajakni sinsiz ko‘rgan, uningcha, jamiyat ishlab chiqarish birlashmalari - falangalardan iborat bo‘ladi («Ish rohat bag‘ishlashi zarur»).

Ouen Robert (1771-1858) – ingliz xayoliy sotsializmining vakili, kelajakda xususiy mulkni inkor etgan, barcha sog‘ odamlar uchun mehnat zarur deb hisoblab, «har kimdan qobiliyatiga yarasha va har kimga mehnatiga yarasha» prinsipini ilgari surgan.

Marks Karl (1818-1883), Engels Fridrix (1820-1895) – ilmiy sotsializm nazariyasining asoschilar. Kapitalizmning o‘rniga sotsializm kelishini bashorat etganlar. Xususiy mulkni inkor qilishgan. Umumxalq mulkini asosiy deb qarashgan.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlari – yangi tarixiy maktab va «sotsial yo‘nalish» paydo bo‘ldi. Uning vakillari G.Shmoller (1838-1917), L.Brentano (1844-1931) va K.Byuxerlardir (1847-1930).

«Neoklassitsizm», Avstriya maktabi – XIX asrning 70-yillarida paydo bo‘ldi, uning asosiy maqsadi Marksning qiymatning mehnat nazariyasiga qarshi kurash edi. Vakillari: K.Menger (1840-1920), E.Byom-Baverk (1851-1914), F.Vizer (1951-1926). Marjinalizm, eng yuqori naf, eng yuqori unumdarlik g‘oyalari qo‘llaniladi.

Shmoller Gustav (1838-1917) – nemis iqtisodchisi, yangi tarixiy maktabning asoschisi, siyosiy iqtisodni xalq xo‘jaligi tarixi bilan bir deb qaradi, tarixiy formatsiyaga qarshi chiqdi, unga empirizm xos edi. Iqtisodiyotda odob-huquq omilini birinchi o‘ringa qo‘ygan.

Brentano Lui (1844-1931) – yangi tarixiy maktab vakili, kapitalizmni madh etgan, «Jitimoiy inoqlik» tarafdori, «davlat sotsializmi» g‘oyalarini ilgari surgan.

Verner Zombart (1863-1941) – yangi tarixiy maktabga yaqin turgan nemis iqtisodchisi, antagonistik ziddiyatlar va iqtisodiy inqirozlarning

muqarrarligini inkor etgan, kapitalizm tartibga solingen va rejali rivojlanib boradigan xo'jalik tarzi deb tasvirlanadi. Turli tizimlarni pluralizm asosida yaqinlashtirish mumkin, deydi. U shovinizm pozitsiyalarida turgan va fashizm masjurasingin shakllanishiga ko'maklashgan.

Menger Karl (1840-1921), Byom-Baverk Yevgeniy (1851-1914), Vizer Fridrix (1851-1926) – Avstriya maktabi vakillari, iste'mol ishlab chiqarishdan ustun qo'yilgan, tadqiqotning Robintonada usuli keng qo'llanilgan, qadriyatlar (yuqori soydalilik) nazariyasi ilgari surilgan. Qiymat iste'mol qiymati bilan aynan bir xil deb talqin qilingan.

Lenin (Ulyanov) Vladimir Ilich (1870-1924) – marksizmni rivojlantirgan, imperializm to'g'risidagi ta'limotni yaratdi, Sovet davlatining asoschisi va rahbari, «Harbiy kommunizm», «Yangi iqtisodiy siyosat» muallifi, umrining oxirida sotsializmga yangicha qarash tarafdoi bo'ldi. Uning asosiy g'oyalari (umumxalq mulki, qat'iy rejalashtirish, sho'rolar tizimi) inqirozga uchradi.

Ma'muriy-buyruqbozlik (rejalashtirilgan bozor) – sobiq SSSR va «sotsialistik» deb atalgan davlatlarda amalga oshirilgan bozor turi, unda davlat mulki ustun va xususiy mulk deyarli yo'q, imperativ qat'iy reja hukmron, erkin raqobat inkor etiladi; qat'iy baholar qo'llanadi. Hayot bozorming bu turini inkor etmoqda.

«Harbiy kommunizm» siyosati (1918-1920) – Sovet davlatida qo'llanilgan, tovar-pul munosabatlari inkor etilgan, qat'iy taqsimot va to'la milliyashtirish hamda oziq-ovqat razvyorstkasi amalga oshirilgan, bir qancha sotsial sohalar tekin bo'lgan (transport, elektr energiyasi, kommunal xizmatlar). Bu davrda mamlakat og'ir inqirozga uchradi.

«Yangi iqtisodiy siyosat» (Новая экономическая политика, «NEP») – Sovet davlatida 1921-yilda joriy etilgan. Tovar-pul munosabatlariga keng o'rinn berilgan, denatsionalizatsiya amalga oshirilgan, xususiy ishlab chiqarish va savdoga keng o'rinn berilgan va yagona oziq-ovqat solig'i joriy etilgan. Undagi kapitalistik munosabatlar iqtisodiyotni tez tiklash va rivojlantirishga imkon berdi. Faqat og'ir sanoat, bank, temir yo'l, tashqi savdogina davlat monopoliyasida bo'lgan. Moliya tizimi pul islohoti orqali kuchaytirilgan. 1928-yildan boshlab inkor etilib, ma'muriy-buyruqbozlikka o'tildi.

Chayanov Aleksandr Vasilevich (1888-1937) – taniqli iqtisodchi, Rossiyada tashkiliy ishlab chiqarish maktabining asoschisi, dehqonni mehnat xo'jaligining asosi deb, oilaviy mehnat yacheykasini tashkil

etgan (kollektivizatsiyaga qarshi); kooperatsiya va agrar sohalarda 200 ga yaqin asar yozgan, bosh asari «Xo'jalikning nokapitalistik sistemalari nazariyasi»dir. U 1937-yilda repressiya qilinib, qatl etilgan. Ilmiy g'oyalari hozirda ham ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Monopoliya – ishlab chiqarish va banklarning yiriklashuvi va markazlashuvi, sof raqobat yo'qoladi (nomukammal raqobat), monopol baho, foyda yuzaga keladi.

Marjinalizm – fransuzcha «chegaraviy» so'zidan olingan, XIX asrning 70-yillari Jevons, Menger, Valraslar tomonidan ochilgan iqtisodiyotning metodologik prinsi plaridan biri, iqtisodiy hodisalarini tahlil etishda eng chekka ko'rsatkichlarga suyanadi. Iste'molni ishlab chiqarishdan ustun qo'yadi. Qiymatning mehnat nazariyasi inkor etiladi. Avstriya maktabi vakillari tomonidan qo'llanilgan. XIX asrning o'talarida fransuz iqtisodchisi Kurno (1821-1877), nemis iqtisodchilari Tyunen (1783-1850), Gossen (1810-1858) birinchi bo'lib marjinal tahlilni iqtisodiy nazariyaga joriy etishga uringan. Uning kategoriyalari: qimmat, eng yuqori, chegaralangan naf, noyoblik, ishlab chiqarishning eng yuqori unumдорлиги va boshqalar.

Kembrij maktabi (Angliya) – asosiy vakili Alfred Marshall (1842-1924), «qiymatsiz baho» nazariyasini ilgari surdi, bahoga «eng yuqori naf» va ishlab chiqarish chiqimlari ta'sir qiladi, degan. Marksning «qiymatning mehnat nazariyasi»ga qarshi. «Siyosiy iqtisod»ni «Ekonomiks» bilan almashtirdi. Asosiy asari «Iqtisodiyot prinsiplari» (1890), 3 jilddan iborat, rus tiliga o'girilgan.

Lozanna maktabi – L.Valras va V.Pareto (1848-1923) tomonidan iqtisodiyotda ekonometrika usullarini keng qo'llash tufayli paydo bo'lgan.

Amerika maktabi Jon Beyts Klark (1847-1938) – Amerika maktabi vakillaridan, AQSH va Kolumbiya universitetlari professori, Amerika maktabi asoschisi, Amerika iqtisodiy uyushmasini tuzish (1885) tashabbuskorlaridan biri. Psixologik va ma'naviy omillar hal qiluvchi deb qaralgan. Avstriya maktabi prinsiplariga qo'shilgan. «Mehnat va kapitalning pasayib boruvchi unumдорлиги» qonunini kashf etgan. Marjinalizm g'oyalarini rivojlantirgan.

Bozor iqtisodiyoti – tovar-pul munosabatlariiga asoslangan va ularga xos iqtisodiy qonunlar asosida boshqariladigan iqtisodiyot. Uzoq tarixga ega bo'lib, sohibkorlarning erkinligi va raqobatni taqozo etadi. Qiymat qonuni, talab va taklif qonuni, pul muomalasi qonuni unga xos

obyektiv qonunlardir. Bozor esa sotuvchi bilan xaridor o'rtasida tovarni pulga ayirboshlash munosabatidir.

Bozor munosabatlarining shakllanishi – ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi davridayoq boshlangan, ammo tovar-pul munosabatlarining rivoji kapitalizm bosqichiga to'g'ri keladi (Makkonell K.R., Bryu S.P., «Ekonomiks», M., 1992, 12-bet).

Hozirgi zamон iqtisodiy ta'lomitlarining uch asosiy yo'nalishi mavjud: 1. Neoklassik (yangi klassik); 2. Keynschilik; 3. Institutsiyal.

Institutsionalizm – lotincha «urf-odat», «muassasa», «ko'rsatma», ya'ni ayrim institutlar (oila, davlat, monopoliya, kasaba uyushmasi) ijtimoiy taraqqiyotning asosi deb qabul qilgan nazariya. XX asrning 20-30-yillarda AQSHda keng tarqaldi. T.Veblen (1857-1920), J.R.Kommons (1862-1945), U.K.Mitchell (1874-1948), J.Gobson (1858-1940) va boshqalar bu nazariyaning 20-30-yillardagi vakillaridir, keyingilari esa Klark, Berli, G.Minz (50-yillar), Lou, Myurdal, Gelbreyt, Xeylbroner (60-yillar va hozirgi davr) obyektiv iqtisodiy qonunlarning mavjudligini inkor etadilar.

Buyuk depressiya – 1929-1933 va hatto 1940-yilgacha AQSH va jahondagi yirik iqtisodiy inqiroz, ishlab chiqarish 50% kamaygan, ishstzlik 25% oshgan (17 mln.).

Keyns Jon Meynard (1883-1946) – ingлиз iqtisodchisi, keynschilikning asoschisi, 1929-1933 yillarda Buyuk inqirozni tahlil etib, jamoat ishlab chiqarish jarayonining uzlusizligini ta'minlash maqsadida davlatni kapitalistik iqtisodiyotni boshqarishiga asoslangan nazariyasini yaratdi. Milliy daromad, kapital mablag', ish bilan bandlik, iste'mol, jamg'arish va boshqa iqtisodiy miqdorlarning tahliliga alohida e'tibor berdi. «Boshqariladigan kapitalizm»ning tarafdori bo'ldi, turli yo'nalishlari mavjud. A.Marshallning do'sti, marksizmning ashaddiy dushmani, «aralash iqtisodiyot»ning otasi va «Iqtisodiy jurnal»ning muharriri. Asosiy asari «Ish bilan bandlik, foiz va puuning umumiylari nazariyasi» (1936). Multiplikator formulasini taklif etgan, investitsiya-larning o'sishi, bandlik va daromadlarning o'sishi o'rtasidagi nisbatni ko'rsatgan, masalan, AQSH uchun o'sha davrda bu ko'rsatkich 2,5 bo'lgan, ya'ni investitsiya qilingan 1 dollar 2.5 dollar daromad keltirgan.

Likvidlik – moddiy ne'matlar va boshqa resurslarning tez pulga aylana olish qobiliyat; korxonani o'z majburiyatlarini o'z vaqtida to'lay olish qobiliyat balansning aktiv punktlarini pulga aylantirish.

Keynschilik — J.M.Keynsning fikrlarini ilgari suruvchi yo‘nalish, uch oqimi mavjud: 1. O‘ng oqim — o‘ta reaksiyon oqim, qurollanish tarafdori, tartibga solish takliflari bor. Germaniya va Italiyada keng tarqalgan. 2. Liberal oqim — monopoliya manfaatlarini himoya qiluvchi va qurollanishni inkor etuvchi oqim. Uning asosiy vakili Jenni Robinson xonim, bu oqimda kasaba uyushmalariga keng o‘rin berilgan. Fransiyada «dirijizm» (dirijer so‘zidan olingan) nazariyasi vujudga kelgan. 3. Yangi keynschilik, keyinroq ortodoksal keynschilik - J.M.Keynsning qoidalari to‘la qabul qilingan holda A.Xansen tomonidan stagnatsiya nazariyasi bilan to‘ldiriladi. A.Xansen va K.Klark multiplikator prinsi pini akselerator prinsipi bilan to‘ldirdilar, indutsirlangan investitsiya tushunchasini kiritdilar. Imperativ (zaruriy) va Indikativ (taklif majburiy emas) rejalshtirishlardan foydalanish mumkinligi aytildi (Fransiya va bir qancha mamlakatlarda keng tarqalgan). Asosiy vakillari fransiyalik G.Ardan, G.Mendes-Frans, F.Perru, S.Xarrislardir. Yangi keynschilik o‘rniga postkeynschilik vujudga keldi, uning vakillari J.Robinson, N.Kaldor, P.Sraffa (Angliya), L.Eyxner, Vayntraub (AQSH); bu oqimda o‘sish va taqsimot markaziy deb hisoblanadi. Iqtisodni tartibga solish mexanizmini yanada takomillashtirish taklif etiladi.

Multiplikator — ko‘paytiruvchi; iqtisodiyot ta’limotlarida ma’lum bog‘lanishlarni o‘rganishda, multiplikatsiya effekti bor joylarda qo‘llaniladi. Masalan, Keyns ta’limoti bo‘yicha qo‘yilgan investitsiya va daromadlar o‘rtasidagi bog‘lanishni ko‘rsatuvchi koeffitsient.

Akselerator — multiplikatorga teskari bo‘lgan koeffitsiyent bo‘lib, milliy daromad o‘sishining investitsiya o‘suviga ta’sirini ko‘rsatadi (neokeynschilar qo‘llagan).

Yangi klassik (neoklassik) yo‘nalish — G‘arb iqtisodiy adabiyotida «Yangi klassik ekonomiks» deb ataladi va bu yo‘nalish asosida marjinalizm g‘oyalari yotadi. Buyuk ingliz iqtisodchisi A.Marshall (1842-1894) nomi bilan bog‘liq. Shu davrda «Siyosiy iqtisod» o‘rniga maskurasiz «Ekonomiks» atamasi paydo bo‘ldi. Unda sof erkin bozor iqtisodiyoti targ‘ib etiladi, davlatning roli imkonli boricha kam bo‘lmog‘i kerak. Bu yo‘nalishda liberalizm va neoliberalizm oqimlari mavjud. Amerika monetarizmi — M.Fridman (1912, AQSH) o‘zining «Kapitalizm va erkinlik» (1960) kitobida «erkin ishbilarmonlik»ni himoya qiladi. «Ozodlik yo‘lida qurban berish»ni va «tabiiy ishsizlik»ni qo‘llab-quvvatlaydi, davlat tomonidan beriladigan yordamga qarshi chiqadi, iqtisodiyotni to‘g‘ri pul siyosati

bilan (davlat kam aralashadi) tartibga solish tarafidori. Bu oqim g'oyalari Rossiya Federatsiyasi iqtisodiyotida qo'llanilmoqda.

«**Marshall xochi**» – talab va taklif egri chiziqlarining kesishganligini ko'rsatadi; kesishgan nuqta ularning muvozanatini hamda turg'un bahoni ko'rsatadi.

Fridman Milton (1912-2006, Nyu York) – iste'mol: pulning tarixi va nazariyasi sohalaridagi tadqiqotlari uchun 1976-yilda Nobel mukofoti bilan taqdirlangan. Uning pul to'g'risidagi g'oyalari (monetarizm) AQSHda R.Reygan, Buyuk Britaniyada M.Tetcher iqtisodiy siyosatida qo'llanilgan.

Samuelson Pol (1915, AQSH) – ko'p marta qayta nashr etilgan «Ekonomiks» (1948) darsligini yaratdi (rus tiliga ham ag'darilgan), 1970-yilda iqtisodiyot fanlarida ilmiy tahlil darajasini oshirishga qo'shgan hissasi uchun Nobel mukofotini olgan. Iqtisodiyotning barcha sohalariga oid ilmiy ishlari bor. «Aralash iqtisodiyot»ning nazariyotchisi. Neoklassik tahlil bo'ycha, taraqqiyotning «to'rt g'ildiragi» asoschisi.

Neoliberalizm – neoklassikaning bir oqimi, klassik iqtisodiy maktabni va keynschilikni birga qo'llash tarafidori, bunda davlatning iqtisodiyotga aralashmasligi taklif etiladi. Asosiy vakillari L. fon Mizes (1881-1973), F. fon Xayek (1899-1992) bo'lib, bu oqim Avstriya maktabi deb ham yuritiladi. Sotsialistik (imperativ) rejalashtirishga qat'iy qarshi, chunki bu rejalgangan tartibsizlikka olib keladi, mehnat taqsimoti, xususiy mulk va erkin almashuv sivilizatsiyaning mutlaq asosi deb sanaladi. Xayek 1974-yilda Nobel mukofoti sovrindori bo'lgan. Neoliberalizm g'oyalari asosida «Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti» yuzaga keladi, uning asoschilar – nemis olimlari V.Rebke (1899-1966), V.Oyken (1891-1950), L.Erxard (1897-1977)lardir. Bu konsepsiya GFR va Shvetsiyada yaxshi natija berdi, uning asosiy g'oyalari mustaqil O'zbekiston iqtisodiyotida qo'llanilmoqda. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining asosiy qoidalari: erkin baholarning zarurligi; erkin raqobat; talab va taklifning muvozanati; iqtisodiyotning muvozanati; davlat bozor xo'jaligida shu shartlarni kafolatlashi va uning ijtimoiy yo'naltirilgan rivojini ta'minlash. U nafaqat ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan, balki kapitalizmnинг erkin raqobatlarga asoslangan davridan ham qat'ian farq qiladi. Mustaqil O'zbekistonda undan ijobiy foydalanimoqda.

Lukas R.I. – neoliberalizmning tarafdori, «Ratsional kutilmalar» nazariyasi uchun 1995-yilda Nobel mukofoti sovrindori. Ijtimoiy-institutsional yo‘nalish evolutsiyasi industrial jamiyatdan postindustrial, superindustrial (neoindustrial) jamiyat sari boradigan konvergensiya nazariyalarida (Gelbreyt, P.Sorokin – AQSH, Raymon, Aron – Fransiya, Tinbergen – Niderlandiya) kapitalizm va sotsializmning ilg‘or tomonlarini olish va amalda qo‘llash taklif etiladi.

«Xalq kapitalizmi» nazariyasi – kapitalizm transformatsiyasi (o‘zgarishi) bilan bog‘liq. Go‘yoki hozirgi kapitalizm «eski kapitalizm»dan keskin farq qiladi, ilgarigi illatlar yo‘qolgan. Uning vakillari: Berli, Nidler, Cheyz, Klark, Gelbreyt... «Kapitalning demokratizatsiyalashuvi» («Mulk diffuziyasi») yo‘li bilan aholining barcha qismi mulkka egalik qiladi (aksionerlik jamiyatlari)

Konvergensiya nazariyasi – bu nazariyaning asosida kapitalistik ijtimoiy sistemalar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy tafovutlar go‘yo asta-sekin bartaraf etiladi, degan g‘oya yotadi. Asosiy vakillari: U.Rostou, J.Gelbreyt (1908), Ya.Tinbergen (1903).

Ekonometrika konsepsiylari – iqtisodiyotda matematika metodlaridan keng foydalanishga asoslangan konsepsiylar. Asosiy vakillari L.Valras, V.Pareto (Lozanna universiteti), fon Neyman, U.Mitchell, E.Barone, M.Panteleoni. 1910-yilda polshalik iqtisodchi P.Chompa «Ekonometriya» («Ekonomterika») matnini qo‘llagan. Ilmiy muomalaga (1926) norvegiyalik R.Frish kiritgan. AQSH, Buyuk Britaniya, Niderlandiya va boshqa mamlakatlarda keng rivoj topmoqda. Turli iqtisodiy ta’limot yo‘nalishlarida qo‘llaniladi, ilmiy va amaliy ahamiyatga molik. V.Leontev ham bu konsepsiyalardan (1906) o‘zining «chiqim - chiqarish» uslubida foydalangan (U 1973-yilda Nobel mukofoti sovrindori bo‘ldi). 60-70-yillarda bu yo‘nalish sobiq SSSR, xususan, O‘zbekistonda rivoj topdi. Respublikamizning olim va mutaxassislari tomonidan iqtisodiy modellashtirish va algoritmlash bo‘yicha muhim tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Jahon xo‘jaligi – qadimdan vujudga kelgan, ammo XVI asrdagi buyuk geografik kashfiyotlar tufayli rivoj topgan, ayniqsa, II Jahon urushidan keyin avj olgan xalqaro iqtisodiy munosabatlar majmuyi. Xalqaro mchnat taqsimoti bu xo‘jalikning moddiy asosini tashkil etadi. Xalqaro integratsiyada baynalmilallik xos.

Xalqaro mehnat taqsimoti – butun jahon xo'jaligining tashkil topish va rivojlanishining hal qiluvchi omili. Birinchi bo'lib uning zarurligini D.Rikardo aytgan. Ayrim ishlab chiqarish korxonalaridagi kabi (A.Smit), jahon xo'jaligida ham mehnat taqsimoti nisbiy chiqimlar ustunligini beradi, ya'ni ayrim mamlakatlarning ma'lum sohada ixtisoslashuvi yuqori samara beradi.

Jahon iqtisodiyoti nazariyalari – jahon bozorida mahsulot, valuta, ishchi kuchi va boshqalarning harakat jarayonlariga xos qonun va qonuniyatlarini o'rghanuvchi nazariyalar. «Ishlab chiqarish omillarining xalqaro taqsimoti» nazariysi tipikdir (E.Xeksher, B.Olin, P.Samuelson); «Mahsulot hayoti sikli» nazariysi (G.Xufbauer, R.Vernon, M.Pozner); monopolistik raqobat nazariysi (E.X.Chamberlin) va boshqalar.

Absolut (mutlaq) afzallik prinsipi – A. Smit tomonidan ilgari surilgan g'oya bo'lib, savdo munosabatlardagi mutlaq afza'llikni anglatadi (tovarlarni ishlab chiqarishda sarf-xarajatlarning ustunligi hal qiluvchi hisoblanadi).

Nisbiy afzallik prinsipi – D. Rikardo tomonidan izohlab berilgan prinsip bo'lib, ishlab chiqarish omillari (kapital, mehnat, yer) xarajatlarining afzalligini ko'rsatadi va tashqi iqtisodiy aloqlarda keng qo'llaniladi.

Insoniy rivojlanish konsepsiysi – BMT tomonidan 90-yillarda ilgari surilgan. Unda taraqqiyot natijalarining inson bilan hamohang bo'lishi ko'zda tutiladi, moddiy boylik (yalpi milliy mahsulot) bilan birga sog'lom hayot, savodxonlik, demokratik institutlar bilan birinchi o'ringa qo'yiladi (ayrim davlatlar kambag'al bo'lismiga qaramay, bu sohada yuqori natijaga erishmoqdalar va aksincha) hamda «ijtimoiy rivojlanish indeksi» (IRI) bilan o'lchanadi.

Nokapitalistik (kapitalizmni chetlab) rivojlanish konsepsiysi – ilgari qoloq bo'lgan, kapitalizm taraqqiyoti bosqichini to'la bosib o'tmagan mamlakatlar uchun tavsiya etilgan rivojlanish yo'li. Bir qancha mamlakatlar shu yo'ldan borib, sotsializm quryapmiz, deb o'ylagan. Hayot buni inkor etdi.

O'tish davri – bu yerda ma'muriy-buyruqbozlik (imperativ rejalashtirilgan) iqtisodiyotdan bozor munosabatlarga o'tish davri. O'z davrida sotsiolistik deb atalgan mamlakatlarning, xususan, O'zbekistonning bozor munosabatlarga o'tish davri.

Iqtisodiy rivojlanishning «o'zbek modeli» — 1991-yil 1-sentyabrdan mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tgan Respublikamizning ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ilgari surilgan, uning besh tamoyili mavjud:

- 1. Iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi va bunda iqtisodiyotning har qanday maskuradan xoli bo'lishi.*
- 2. Davlat bosh islohotchi.*
- 3. Qonunning hamma narsadan ustun turishi.*
- 4. Kuchli ijtimoiy siyosat.*
- 5. Bozorga bosqichma-bosqich, tadrijiy (evolutsion) yo'l bilan borish.*

ADABIYOTLAR

1. Аминов А.М. “Жизнь и деятельность”. Избранное: Экономическое развитие Средней Азии (колониальный период). Т. Литературный фонд Союза писателей Узбекистана. 2005. 656 стр.
2. Аминов А.М. Экономическое развитие Средней Азии (колониальный период). Ташкент, Госиздат УзССР. 1959.
3. Аникин А.В. Юность науки. М., Политиздат. 1985.
4. Аникин А.В. Люди науки. М., 1996.
5. Антология экономической классики. В двух томах. Т.1. М., Эконом.1991. (Петти, Смит, Рикардо).
6. Антология экономической классики. В двух томах. Т.2. М., Эконом.1992. (Мальтус, Кейнс, Ларина).
7. Блауг М. Экономические мысли в ретроспективе. М., Дело ЛТД.1994.
8. Bozor iqtisodiyoti nazariyasi. Т., «Universitet», 1993.
9. Всемирная история экономической мысли. В шести томах. Т.1.1987; Т.2.1988; Т.3.1989; Т.4.1989.М., «Мысль».
10. Гулямов С.Г. Экономическая роль государства в создании предпосылок развития в сельском хозяйстве Узбекистана. Т., Фан, 1972.
11. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti. Т., «Sharq» NMK,1996.
12. Insoniy rivojlanish bo'yicha hisobot. O'zbekiston. Toshkent. 1995-2000 (o'zbek, rus, ingliz tillarida).
13. История экономических учений. Часть 1. Учебник. Под ред. В.А.Жамина. М., МГУ, 1989.
14. История экономических учений. Часть 2. Учебник. Под ред. А.Г.Худокормова. М.,МГУ,1994.
15. История социалистической экономики СССР. В семи томах. Т.1.М., 1971.
16. Internet materiallari.

17. *Islomov A., Egamov E. T.* Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. TMI, 2003.
18. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Ma'ruzalar matni. Prof. S.S. G'ulomov tahriri ostida. Toshkent, 1992.
19. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi (ma'ruzalar matni) T., 2001.
20. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi kursining moduli. Toshkent, 2000.
21. Iqtisodiyot universiteti olimlari. T., Sharq, 2001.
22. *Жеймс Э.* История экономической мысли XX века. М., 1959.
23. Jahon iqtisodiyoti. Ma'ruzalar matni. Toshkent, 1994.
24. *Yo'ldoshev Q. va Muftaydinov Q.* Iqtisodiy ta'limotlar tarixidan (Sharq iqtisodiy tafakkuri misolida). T., 2000.
25. *Karimov I.A.* O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. Toshkent, 1992.
26. *Karimov I.A.* Yangi uy qurmay turib eskisini buzmang. Toshkent, 1993.
27. *Karimov I.A.* O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. Toshkent, 1995.
28. *Karimov I.A.* O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent, 1997.
29. *Karimov I.A.* Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., «Sharq», 1998.
30. *Karimov R.K., Karimova T.A.* Milliy model muammolari. Toshkent, 1993.
31. *Кондратьев Н.Д.* Проблемы экономической динамики. М., «Экономика», 1989.
32. *Костюк В.Н.* История экономических учений. Курс лекций. Москва, «Центр», 1997.
33. *Майбурд Е.М.* Введение в историю экономической мысли. От пророков до профессоров. М., «Дело», 1996.
34. *Марк Блауг.* Экономическая мысль в ретроспективе. Москва, «Дело» ЛТД, 1996.
35. *Макконнелл К.Р., Брю С.Л.* Экономикс (в двух томах). М., «Республика», 1992.
36. *Maxmudov T.* Avesto haqida. T., «Sharq», 2000.
37. *Muhammadjonov A.* Temur va temuriylar sultanati. Toshkent, 1994.

38. Mustaqil O'zbekiston tarixi. Toshkent, «Sharq», 2000.
39. Набиев Э. Сфера услуг в национальном воспроизведстве (Теоретические и методологические аспекты"). Т., 1993.
40. Набиев Э. Экономические преобразования и сфера услуг. Т., 1994.
41. Народонаселение. Энциклопедический словарь. М., БРЕ, 1994.
42. Общая экономическая теория (Политеconomия) Учебник. М., «Промо-медиа», 1995.
43. Razzoqov A. Moziyga qarab ish tutish...//»Hayot va iqtisod», 1992, 4-son.
44. Razzoqov A. Boy merosimizni o'rganaylik. //«Iqtisod va hisobot», 1993, 3-son.
45. Razzoqov A., Amirov U., Alimatova N. Ulug' maqsadlar. (Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrining tarixiy zarurati). //«Iqtisod va hisobot», 1996, 8-son.
46. Razzoqov A. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti tahlili. O'quv uslubiy qo'llanma. Т., 2001.
47. Razzoqov A., To'raxonova H. Beruniyning iqtisodiy g'oyalari. «Hamkor», 2001-yil iyul soni.
48. Razzoqov A. Yetakchi mamlakatlar iqtisodiyoti. Т., 2002.
49. Razzoqov A. Iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti laureatlari. Т., 2004.
50. Razzoqov A. Bozor iqtisodiyoti beshigi (yoki Angliya iqtisodiyoti rivoji haqida).//«Iqtisod va hisobot», 1994, 7,8-sonlar.
51. Razzoqov O.A. Insoniy rivojlanish konsepsiysi. //»Iqtisod va hisobot», 1996, 5-son.
52. Razzoqov A., Toshmatov Sh., O'rmonov N. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Darslik. Т., Moliya, 2002.
53. Razzoqov A. Yetakchi mamlakatlar iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. Т., 2002.
54. Razzoqov A. Iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti laureatlari. Т., 2004.
55. Razzoqov A. O'rta Osiyo mutafakkirlarining iqtisodiy g'oyalari. Т., 2004.

56. *Rasulov M.* O‘rta Osiyo tabiatshunoslik fanlari tarixi. Toshkent, 1993.
57. *Sobirov X.* Bizga meros tijorat. (A.Navoiy asarlarida tijorat masalalarining yoritilishi). // «Iqtisod va hisobot», 1993, 9-son.
58. *Sobirov H.* Marg‘inoniying iqtisodiy qarashlari. «Hamkor» 2001-yil noyabr.
59. Siyosatnoma: Книга о правление вазира XII ст. Низам-ул-мулка. М.,1949.
60. Nizomulmulk. Siyosatnoma yoki siyar ul-muluk. Toshkent, 1997.
61. Современная экономика. Под ред. проф. Мамедова О.Ю.Ростов-на-Дону, «Феникс», 1995.
62. *Tashmatov Sh.X.* Bank tizimida korporativ menejment. Toshkent, 2005.
63. *Титова Н.Э.* История экономических учений. Курс лекций. Москва. 1997.
64. Temur tuzuklari. Toshkent, 1991.
65. *To‘xliyev N.* Osiyo va bozor. Toshkent, 1992.
66. *To‘xliyev N.* O‘zbekiston iqtisodiyoti. Toshkent, 1994.
67. *To‘xliyev N.* Bozorga o‘tishning mashaqqatli yo‘li. Т., «O‘zbekiston», 1999.
68. *Тухлиев Н., Таксанов А.* Национальная экономическая модель Узбекистана. Т., «Укитувчи», 2000.
69. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. Т., «Sharq», 2000.
70. Узбекистан: десять лет по пути формирования рыночной экономики. Т., «Узбекистан», 2001.
71. *Фишер С., Дорнбуш Р., Шмалензи Р.* Экономика. М., «Дело ЛТД», 1995.
72. *Хейлбронер Р., Туруо Л.* Экономика для всех. Новосибирск, «Экор», 1994.
73. *Худокормов А.Г.* История экономических учений. (Современной этап). Учебник. М., Инфра - М.,1998.
74. *Чаянов А.В.* К вопросу теории некапиталистических систем хозяйства. М., «Экономика», 1988.
75. *Sharma L.P.* Boburiylar sultanati. Toshkent, «Ma’naviyat», 1998.

76. Экономика переходного периода. М., МГУ, 1995.
77. Юлдашев Н. Теория и практика рыночных отношений Средней Азии. Т., 1992.
78. Ядгаров Я.С. История экономических учений. Москва, 1999.
79. O‘zbekiston: 13 yil mustaqil taraqqiyot yo‘lida. Т., 2004.
80. O‘rmonov N.T. Rivojlangan mamlakatlar va O‘zbekiston hamkorligi. // «Hamkor», 2001-yil noyabr.
81. G‘ulomov S.S. Jamoa xo‘jaligi va kooperatsiya. Toshkent, 1992.
82. G‘ulomov S.S., Razzoqov A. Yaponiya mo‘jizasining siri. //»Xalq so‘zi», 1994-yil 4 fevral.
83. G‘ulomov S.S., Razzoqov A. Farroshlari qo‘lqop kiyib ishlaydigan yurt (XXR). //»Xalq so‘zi», 1994, 10-avgust.
84. G‘ulomov S.S., Razzoqov A. Osiyo yo‘lbarsi (Koreya Respublikasi). // «Xalq so‘zi», 1995-yil fevral.
85. G‘ulomov S. Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti. o‘quv qo‘llanma. Т., «Mehnat», 1997.

IQTISODIYOT BO'YICHA NOBEL MUKOFOTI LAUREATLARI RO'YXATI

- 1969 yil - **Tinbergen Yan** (1920 y. tugilgan), Niderlandiya;
- **Frish Ragnar** (1895-1973), Norvegiya
- 1970 yil - **Samuelson Pol** (1920), AQSH
- 1971 yil - **Kuznets Saymon** (1901-1985), AQSH
- 1972 yil - **Xiks Jon Richard** (1940-1989), Buyuk Britaniya;
- **Errou Kennet** (1921) AQSH
- 1973 yil - **Leontev Vasiliy** (1906-1999), AQSH
- 1974 yil - **Xayek Fridrix Avgust** (1899-1992), Buyuk Britaniya;
- **Myurdal Karl Gunnar** (1898-1987), Shvetsiya
- 1975 yil - **Kupmans T'yalling Charl'z** (1910-1985), AQSH;
- **Kantorovich Leonid Vitalyevich** (1912-1986), SSSR
- 1976 yil - **Fridman Milton** (1912-2006), AQSH
- 1977 yil - **Ulin (Olin) Bertil** (1899-1979), Shvetsiya;
- **Mid Jeyms Edvard** (1907), Buyuk Britaniya
- 1978 yil - **Saymon Gerbert** (1916), AQSH
- 1979 yil - **Luis Vilyam Artur** (1915-1991), Buyuk Britaniya;
- **Shuls Teodor** (1902), AQSH
- 1980 yil - **Kleyn Lourens Robert** (1920), AQSH
- 1981 yil - **Tobin Jeyms** (1918), AQSH
- 1982 yil - **Stigler Jorj Jozef** (1911), AQSH
- 1983 yil - **Debryo Jerar** (1921), AQSH
- 1984 yil - **Stoun Jon Richard Nikolas** (1913), Buyuk Britaniya
- 1985 yil - **Modilyani Franko** (1918), AQSH
- 1986 yil - **B'yukenen Jeyms Makdjill** (1919), AQSH
- 1987 yil - **Solou Robert Merton** (1924), AQSH
- 1988 yil - **Alle Moris** (1911), Fransiya
- 1989 yil - **Tryugye Xaavelmo** (1911), Norvegiya
- 1990 yil - **Markovits Garri Maks** (1927), AQSH;
- **Miller Merton** (1923), AQSH;
- **Sharp Ul'yam** (1934), AQSH

- 1991 yil - **Kouz Ronal'd** (1910), Buyuk Britaniya
1992 yil - **Bekker Garri** (1931), AQSH
1993 yil - **Nort Duglas** (1921), AQSH;
 - **Fogel Robert** (1926), AQSH
1994 yil - **Zelten Raynxard** (1930), Germaniya;
 - **Nesh Jon** (1928), AQSH;
 - **Xarsani Jon** (1920), Vengriya
1995 yil - **Lukas Robert** (1937), AQSH
1996 yil - **Vikri Vil'yam** (1914-1996), Kanada (mukofot e'lon qilingach, olamdan o'tgan);
 - **Mirlis Jeyms** (1936), Buyuk Britaniya
1997 yil - **Merton Robert** (1944), AQSH;
 - **Skoulz Mayron** (1941), AQSH
1998 yil - **Sen Amartiya** (1933), asli hindistonlik, AQSH da ishlaydi
1999 yil - **Mandell Robert** (1932), Kanada
2000 yil - **Xekman Jeyms** (1944), AQSH;
 - **Makfadden Daniel** (1937), AQSH
2001 yil - **Akerlof Jorj** (1940), AQSH;
 - **Spens Maykl** (1943), AQSH;
 - **Stiglits Jozef** (1943), AQSH
2002 yil - **Kaneman Deniel** (1934), AQSH;
 - **Smit Vernon** (1927), AQSH
2003 yil - **Engl Robert** (1942), AQSH;
 - **Greynjer Klayv** (1934), Buyuk Britaniya
2004 yil - **Kidland Finn** (1943), Norvegiya;
 - **Preskott Edvard** (1940), AQSH
2005 yil - **Omann Robert** (1930), Isroil;
 - **Shelling Tomas** (1921), AQSH
2006 yil - **E. Felps** (1933), AQSH

MUNDARIJA

Muqaddima.....	3
«Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» kursining predmeti va uslubi	7

BIRINCHI QISM

Qadimgi dunyo, feodal jamiyati va ilk kapitalizmning iqtisodiy ta'limotlari

I bob. Qadimgi dunyoning iqtisodiy ta'limotlari.....	13
1.1. Qadimgi Osiyodagi iqtisodiy g'oyalar	13
1.2. Qadimgi Yunonistondagi iqtisodiy ta'limotlar	17
1.3. Qadimgi Rimdag'i iqtisodiy ta'limotlar	21

II bob. Feodal jamiyati va feodalizmning yemirilishi davridagi iqtisodiy ta'limotlar.....	27
--	-----------

2.1. Arab mamlakatlari dagi dastlabki iqtisodiy g'oyalar. Islomdag'i iqtisodiy qarashlar (Ibn Xaldun)	28
2.2. G'arbiy Yevropadagi iqtisodiy g'oyalarga qisqacha xarakteristika	30
2.3. O'rta asr utopiyalari.....	33

III bob. O'rta Osiyoda dastlabki va temuriylar davrigacha bo'lgan iqtisodiy g'oyalar.....	38
--	-----------

3.1. «Buyuk ipak yo'li»ning Markaziy Osiyoda iqtisodiy munosabatlar rivojlanishidagi o'rni	38
3.2. Markaziy Osijo donishmandlari asarlarida islom ta'limotidagi iqtisodiy g'oyalarning bayon etilishi	39
3.3. Xalq og'zaki ijodidagi iqtisodiy qarashlar	40
3.4. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy va Yusuf Xos Hojib asarlaridagi iqtisodiy g'oyalar mohiyati	41

IV bob. Amir Temur va temuriylar davridagi iqtisodiy g'oyalar.....	46
---	-----------

4.1. Amir Temur davridagi iqtisodiy g'oyalar	46
--	----

4.2. Shohrux Mirzo va Mirzo Ulug'bek davridagi iqtisodiy islohotlar.....	48
4.3. Alisher Navoiy asarlarida iqtisodiy g'oyalarning mohiyati	50
4.4. Bobur va boburiylar davridagi iqtisodiy g'oyalar	51
V bob. Merkantilizm iqtisodiy ta'lomit.....	55
5.1. Merkantilizm vujudga kelishining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari	55
5.2. Merkantilizm iqtisodiy ta'lomitining mohiyati	56
5.3. Merkantilizm iqtisodiy ta'lomitining tarixiy taqdiri	62
5.4. Merkantilizm va hozirgi zamon	66

IKKINCHI QISM

Klassik maktabning iqtisodiy ta'lomitlari

VI bob. Angliya va Fransiyada klassik iqtisodiy maktabning vujudga kelishi (1-bosqich).....	70
6.1.Klassik (mumtoz) iqtisodiy maktab paydo bo'lishining tarixiy shart-sharoitlari va uning xarakteristikasi	70
6.2. V.Petti - Angliya klassik iqtisodiy maktabining asoschisi	73
6.3. Fransiyada klassik iqtisodiy maktabning vujudga kelishi. P.Buagilberning iqtisodiy qarashlari	82
VII bob. Fiziokratizm iqtisodiy ta'lomit.....	91
7.1. Fiziokratizm iqtisodiy ta'lomit vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari va uning mohiyati	91
7.2. F.Kene - fiziokratizm ta'lomitining asoschisi. Uning «Iqtisodiy jadval» asaridagi g'oyalar	92
7.3. A.Tyурго va uning iqtisodiy ta'lomit	102
7.4. Fiziokratizmning ahamiyati va uning tarixiy taqdiri	107
VIII bob. Adam Smitning iqtisodiy ta'lomitlari (2-bosqich).....	111
8.1. Klassik maktab g'oyalari shakllanishining tarixiy shart-sharoitlari. Klassik iqtisodiy maktabning to'la shakllanishi	111
8.2. A.Smitning iqtisodiy g'oyalari. Uning «Xalqlar boyligi» asaridagi iqtisodiy qarashlar	112

IX bob. D.Rikardo, J.B.Sey, T.Maltus va boshqalarning iqtisodiy ta'limotlari (3-bosqich).....	126
9.1. D.Rikardoning iqtisodiy ta'limoti	126
9.2. Fransiyada vujudga kelgan J.B.Seyning iqtisodiy ta'limoti. «Sey qonuni»	132
9.3. T.Maltus va uning «Nufus nazariyasi».....	136
9.4. Senior, Bastia, Keri va boshqalarning iqtisodiy ta'limotlari	143

X bob. Jeyms Mill, J.Mak-Kullox va boshqalarning iqtisodiy g'oyalari (4-bosqich).....	151
10.1. J.S.Millning iqtisodiy ta'limoti	152
10.2. Iqtisodiyotda matematik uslublar (A.O. Kurno, I.G. Tyunen)	155
10.3. Klassik maktab ta'limoti va hozirgi zamon	159

UCHINCHI QISM

Klassik maktabga alternativ ta'limotlar

XI bob. Klassik iqtisodiy maktabga muholif iqtisodiy g'oyalarning vujudga kelishi.....	165
11.1. XIX asrning birinchi yarmida islohotchilik ilmiy konsepsiyalarning shakllanishi	165
11.2. S.Sismondining iqtisodiy qarashlari, uning mayda ishlab chiqarish nazariyasi	166
11.3. P.J. Prudonning iqtisodiy konsepsiysi. Prudonizm	173
11.4. K.Rodbertusning iqtisodiy g'oyalari	177

XII bob. Bozor iqtisodiyotiga muxolif g'oyalar.....	182
12.1. XIX asrning birinchi yarmidagi xayoliy sotsializmning o'ziga xos xususiyatlari	182
12.2. A.Sen-Simon, Sh.Fure va R.Ouenning iqtisodiy qarashlari	184
12.3. Sotsialist-rikardochilar (J.Grey, T.Godskin, J.Brey)ning iqtisodiy qarashlari	188
12.4. Marksizm vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari	190
12.5. K.Marksning iqtisodiy ta'limoti	191
12.6. Markscha iqtisodiy ta'limotning tarixiy taqdiri	194

XIII bob. Germaniyadagi tarixiy maktab iqtisodiy g'oyalaring mohiyati.....	199
13.1. Germaniya tarixiy maktablarining o'ziga xos xususiyatlari	199
13.2. F.Listning iqtisodiy qarashlari	200
13.3. Tarixiy mакtab (V.Rosher, K.Knis va B.Gildebrand)	201
13.4. Yangi tarixiy mакtab va «ijtimoiy yo'nalish»	202

TO'RTINCHI QISM

XIX asr oxiri - XX asrlardagi iqtisodiy ta'lilotlar

XIV bob. Marjinalizm. Iqtisodiy ta'lilotlarda neoklassik yo'nalishning shakllanishi.....	207
14.1. Marjinalizmnning umumiy ta'rifi va rivojlanish bosqichlari	207
14.2. Avstriya mакtabi. Subyektiv-psixologik yo'nalish	208
14.3. U.Jevons va L.Valrasning marjinalistik g'oyalari	211
Hozirgi zamon iqtisodiy ta'lilotlarining asosiy yo'nalishlari	215
XV bob. Yangi klassik (neoklassik) yo'nalishning shakllanishi.....	216
15.1. A.Marshallning iqtisodiy ta'lomi	216
15.2. J.B.Klarkning iqtisodiy ta'lomi	218
15.3. V.Paretoning umumiy iqtisodiy muvozanat konsepsiysi	220
XVI bob. Iqtisodiyotni tartibga solish konsepsiyalari.....	224
16.1. Institutsionalizmnning asosiy xususiyatlari	224
16.2. T.Veblen g'oyalari	226
16.3. J.R.Kommons qarashlari	227
16.4. U.K.Mitchell g'oyalari	228
16.5. Ijtimoiy-institutsional yo'nalishning evolutsiyasi	229
XVII bob. Mukammal bo'lмаган raqobat bozori ta'lilotlari.....	232
17.1. Nomukammal bozorning xususiyatlari	232
17.2. E.Chamberlinning monopolistik raqobat nazariyasi.....	233
17.3. J.Robinsonning iqtisodiy ta'lomi	235

XVIII bob. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish ta'limotlari	238
18.1. J.M.Keynsning iqtisodiy ta'limoti	238
18.2. Keynschilar va neokeynschilar	241
18.3. Keynschilikning AQSHdagi xususiyatlari. Iqtisodiy o'sish nazariyaları	243
18.4. Keyns g'oyalarining hozirgi davrdagi ahamiyati	244
XIX bob. Neoliberalizm	246
19.1. Neoliberalizmning umumiyligini xususiyatlari	246
19.2. Ijtimoiy bozor xo'jaligi konsepsiysi	247
19.3. Chikago monetarizm maktabi	248
19.4. Neoliberalizmning boshqa oqimlari	249
XX bob. Hozirgi zamondagi iqtisodiy ta'limotlari evolyutsiyasi	251
20.1. Neoklassik sintez konsepsiyasining mohiyati	251
20.2. Neoklassik sintez konsepsiyasining yangi versiyalari	251
20.3. P.Samuelsonning «Ekonomiks» asaridagi g'oyalar	252
20.4. Ekonometrikaning hozirgi zamondagi asosiy yo'nalishlari	253
XXI bob. Jahon xo'jaligi to'g'risidagi iqtisodiy ta'limotlar	257
21.1. Xalqaro iqtisodiy integratsiya. Nisbiy afzallik konsepsiysi. Savdosotiqning marjinalistik nazariyaları.....	257
21.2. Xalqaro mehnat taqsimotini tadqiq etishdagi tanqidiy yo'nalish	259
21.3. Valuta munosabatlari tahlili, jahon pulining yangi metall konsepsiysi. «Suzib yuruvchi kurs»	261
21.4. Jahonshumul iqtisodiy muammolar. Rivojlanayotgan mamlakatlar to'g'risidagi g'oyalar	262

BESHINCHI QISM

O'tish davri iqtisodiy nazariyaları

XXII bob. O'zbekistonda milliy bozor iqtisodiyoti shakllanishi va rivojlanishining taysifi.....	269
--	-----

22.1. Ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyoti oqibatlari va tub islohotlar zaruriyati	269
22.2. O'tish davri tavsifi va uning milliy xususiyatlari	272
22.3. Iqtisodiy islohotlarning milliy modeli va yangi asr strategiyasi	273
22.4. Bozor munosabatlariga o'tish bosqichlariga oid qarashlar tahlili	274
 Xotima	285
Muhim sana, tushuncha va izohlar	288
Adabiyotlar	307
Iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti laureatlari ro'yxati	312

**ABDUXALIL RAZZOQOV,
SHUHRATJON TOSHMATOV,
NIZOMIDDIN O'RMONOV**

**IQTISODIY TA'LIMOTLAR
TARIXI**

Darslik

Muharrir Sh. Xudoyberdiyeva
Texnik muharrir M. Alimov
Musahhih H. Teshaboyev
Sahifalovchi A. Ro'ziyev

Bosishga ruxsat etildi 26.07.07. Qog'oz bichimi 60x84 ^{1/16}
Hisob nashr tabog'i 20,0. b.t. Adadi - 1000 nusxa.
Buyurtma raqami № 180.

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyoti,
700084, Toshkent, X. Asomov ko'chasi, 7-uy.
Hisob-shartnoma №34-2007.

“TOSHKENT TEZKOR BOSMAHONASI”
ma'suliyati cheklangan jamiyati bosmahonasida chop etildi.
100200, Toshkent, Radialniy tor ko'cha, 10.